O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“YANGI O‘ZBEKISTONDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI” XALQARO ILMIY - AMALIY ANJUMANI

17-18 May 2024 yil

I

Toshkent - 2024

KASBIY QAYTA TAYYORLASH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING DIDAKTIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

Ishbayeva Nazira Abruraimovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish
bo‘limi boshlig‘i, p.f.b.f.d.,(PhD), dotsent v.b.

Annotatsiya. Bugungi kunda barcha mamlakatlarning ta’lim sohasida o‘qituvchilar ta’limini rejalashtirish muhim omil ekanligi ta’kidlanmoqda. Ta’lim va o‘qituvchilarni tayyorlash sohasining hissasi kelajak istiqboli uchun sarmoya (investitsiya)ning eng samarali turi bo‘lib hisoblanadi, chunki o‘qituvchilarni har qanday ta’lim islohotlarni amalga oshirishda tayanch omil deb atash mumkin, jamiyatdagi birorta ham o‘zgarishlar o‘qituvchilarning faol ishtirokisiz amalga oshmaydi.

Kalit so‘zlar: kasbiy qayta tayyorlash, pedagog kadrlarni tayyorlash, tinglovchilar, didaktik kompetentlilik.

Respublikamizda pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda, ularning “butun hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash kerak, degan xulosaga kelindi. Mavjud hujjatlarda xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo‘yildi [4].

Dastur yoki o‘quv adabiyoti mazmunida ayrim o‘zgarishlar sababli o‘qituvchilarni ilgariga nisbatan yanada sifatli tayyorlashga ehtiyoj yuzaga keladi. Ilm-fan va texnologiyalar nuqtai nazaridan, yangi ehtiyojlar sababli dastur yoki o‘quv adabiyotlari, shuningdek, yangi metodlarga muvofiq, o‘zgartirilib boradi. Fan va yangi texnologiyalar nuqtai nazaridan, yangi ehtiyojlar yuzaga kelishi sababli dasturlar va darsliklar yangi uslub (metod)larga muvofiq ravishda o‘zgarib boradi. Kursga kiritilmagan yoki to‘liq o‘zlashtirilmagan holatlarda, sinfda, maktab amaliyotida o‘zgarishlarni yuzaga keltirmagan ta’lim mazmuni va bilimlarning chuqurligiga nisbatan aniqlanadi.

Ta’lim islohotida va sifatli ta’lim rivojida eng muhim omil ta’lim tizimida, xususan, yangi malaka va axborotlarga ega bo‘lishga sabab bo‘luvchi o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, ilmiy-texnik sohasida hamkorlik zarurati masalasidir. Biroq bu sohada olib borilgan tadqiqot natijalari ko‘p jihatdan mavjud pedagogik ta’lim qator kamchiliklarga ega va ularni bartaraf etib, yaxshilashga ehtiyoj katta.

Bugungi kunda o‘qituvchilar oldiga qo‘yilgan ta’limiy talablarga muvofiq, mazmun nuqtai nazaridan, qiyinchiliklarni yengib o‘tish zarur. Kurslarda o‘qituvchilarni an’anaviy o‘qitish metodlaridan foydalanib, fundamental o‘qitish masalalarini ham e’tiborga olish zarur.

O‘qituvchilarni tayyorlash modellari va yangi modellarining tiplarini aniqlash uchun ichki resurslardan ham va xalqaro resurslardan ham foydalanib, tadqiqot

mavzusiga oid manbalarning tahlilini o‘tkazish zarur. Boshqa mamlakatlar tajribalari va xalqaro manbalardan mavjud o‘qituvchilar tayyorlash tizimidagi joriy holat haqida ma’lumot olish, shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir axborot olish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020 yil 17 avgustdagi “Xalq ta’limi tizimida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 188-sonli buyrug‘ida[10] xalq ta’limi muassasalarining pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash ta’limi sifat va samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilangan:

qayta tayyorlash kurslari vazirlik bilan kelishgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish ta’lim muassasasi negizida va ehtiyojga ko‘ra ko‘chma kurslar tarzida hududlarda tashkil etilishi mumkin;

qayta tayyorlash kurslari ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda, shuningdek, ta’limning muqobil shakllaridan foydalanilgan holda tashkil etilishi mumkin;

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etilgan qayta tayyorlash kurslarida ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida kursning o‘quv rejasidagi jami auditoriya soatlarining 25 foizi qayta tayyorlash ta’lim muassasasida o‘qitilishi kerak;

kasbiy qayta tayyorlash kurslari fanlar kesimida o‘tkaziladi, ya’ni tinglovchilar guruhi aynan bir fan kesimida shakllantiriladi;

pedagogik qayta tayyorlash kurslari talabgorlar soni tinglovchilar kontingentini shakllantirish uchun yetarli bo‘lgan hollarda yagona fan kesimida, talabgorlar soni tinglovchilar kontingentini shakllantirish uchun yetarli bo‘lmagan hollarda 2 va undan ortiq fanlar kesimida tashkil etish mumkin;

qayta tayyorlashga ikkinchi oliy ta’lim sifatida qaralmaydi va qayta tayyorlash natijasida beriladigan hujjat (diplom) faqat muayyan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish yoki pedagogik faoliyat olib borish huquqini beradi, bunda kasbiy qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan pedagoglarga qayta tayyorlashdan o‘tgan fandan, pedagogik qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan mutaxassislarga mutaxassisligiga mos fandan pedagogik faoliyat yuritish huquqi beriladi.

Kasbiy qayta tayyorlash kursi tayanch o‘quv reja va namunaviy fan dasturlarini oliy ta’lim muassasalarining turdosh bakalavriat yo‘nalishlari Davlat ta’lim standartlari asosida doimiy takomillashtirib borish hamda belgilangan tartibda vazirlikda tasdiqlatiladi.

Kasbiy qayta tayyorlashning amaliyotdagi holatini o‘rganish asosida to‘plangan barcha axborotlar asosida quyidagilarni bayon qilish mumkin:

1. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash sohasida jamlangan ma’lumotlar tadqiqotning nazariy asoslariga asoslangan. Mazkur tadqiqotda turli ichki adabiyotlardan ham va tashqi manbalardan ham foydalanildi. Mutaxassislar malakasini oshirishga oid standartlar, an’anaviy hamda yangi amaliy tajribalar va boshqa mamlakatlar manbalari o‘rganildi, o‘qituvchilar qayta tayyorlash kurslarini rejalashtirish amalga oshirish uchun asoslar, tamoyillar va mezonlar, jumladan, to‘plangan va foydalanilgan axborotlar, o‘quv kurslari sifatiga qo‘yiladigan talablar o‘rganildi.

2. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash masalasini tadqiq etish asosida, joriy holatdan iborat, tizimning joriy holatining zaif va kuchli tomonlari haqida fikr yuritildi, holatni yaxshilash yo‘llariga taalluqli masalalar tahlil qilindi, o‘rganildi.

Bu kuchli tomonlar va mavjud tizimning asosiy omillarining zaif jihatlarini aniqlash uchun axborot to‘plash, shuningdek, yuzaga kelgan vaziyat sababli ularni sharhlash maqsadida o‘rganildi.

Mazkur qismdagi axborotlar manbalarni to‘plash metodi orqali olindi. Anketa-so‘rovnomalari ilmiy tamoyillar ishonchlilik va validlilik (haqiqiylik) asosida tayyorlandi hamda boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari, ekspertlar va mutaxassislar mazkur predmet ma’lumotlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqladilar.

Tahlillar mavjud qayta tayyorlash kurslarida kurslarning nazariy-metodologik va amaliy aspektlari o‘qituvchilarni qayta tayyorlashga kam e’tibor berilishini ko‘rsatdi, jumladan:

kontentning mavjud emasligi (yangilanib turuvchi ilovalar);

o‘qituvchilar ta’limiy ehtiyojlariga muvofiq bo‘lgan mazmun;

kurslar amal qilishi jarayoniga o‘qitish metodlari fundamental masalalariga e’tiborning mavjud emasligi;

qayta tayyorlashda an’anaviy metodlardan foydalanishning afzalligi;

tizimli tashkil etish sababli kurslar maqsadga muvofiqligi va samaradorligining mavjud emasligi;

qayta tayyorlash tizimining asosiy malakalar va salohiyatlar, jumladan, ijodiy yo‘nalishda sust rivojlanganligi;

o‘qituvchilar mehnatining mahsuldorligiga ijobiy ta’sirning mavjud emasligi;

mavjud ta’lim resurslarining zaif tomonlari;

o‘qituvchilar va o‘quv dasturlari va darsliklarning mualliflari bilan aloqaning mavjud emasligi;

yangi texnologiyalar bilan o‘qitish cheklanganligi.

Jarayonni o‘rganish quyidagi ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Birinchi daraja: ishtirokchilar reaksiyasi. Mazkur darajada tinglovchilarning o‘quv amaliyotida ishtirok etishi, mazkur dasturlarga sarflangan vaqtga nisbatan samaraliligining ta’kidlangani, kurs mazmuni va resurslarining anglanganligi, faoliyat yaxshi tashkil etilganligi, o‘qituvchilarning zarur akademik bilimlari darajasi qayta tayyorgarligiga bog‘liq oshganligi.

O‘quv kurslari sifatiga qo‘yiladigan talablar mazmunining boyitilgan darajasi. Bunda, tinglovchilar kutilganidek, o‘sish tajribasiga, kasbiy-mutaxassislikka qiziqish, shuningdek, zarur bilim va malakaga ega bo‘ladilar. Mazkur darajada ishtirokchilar qayta tayyorlash dasturi mobaynida egallagan bilim va malaka baholari o‘lchanadi. Ikkinchi daraja oxirida tayyorgarlik bahosi bajarish zarur bo‘lgan standart maqsad shakllarini talab etadi.

Uchinchi daraja – tashkiliy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash. Baholashning uchinchi bosqichida diqqat-e’tibor tashkilot, qo‘llab-quvvatlashning mavjud emasligi va kasbiy-mutaxassislikdagi o‘zgarishlar, professional rivojlanish, hatto agar bularning barchasi to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa ham o‘qituvchilarga nisbatan barcha aspektlarning nazorati amalga oshirildi.

Uchinchi darajada kelgusida tahlil qilish uchun zarur axborotlarni, ma’ruza (doklad)lar, yig‘ilish yozuv axborotlari va bayonnomalarni to‘plash ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, axborotlar to‘plash uchun anketa-so‘rovnomalari va suhbatlardan foydalanildi.

To‘rtinchi daraja: kurs ishtirokchilarining yangi bilim va malakalaridan foydalanishi. Mazkur darajada ko‘rsatkichlar sifat va son ochiqligi ishtirokchilarning olingan bilim va malakalari, ularni qo‘llash uchun qayta aloqa jarayonida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish, savolnoma yoki intervyular orqali aniqlanadi. Axborot shu tariqa to‘planadi.

Beshinchi daraja. Dasturning yakuniy varianti maqsad yoki motivlari baholanadi. O‘qituvchilar rivojlanishi sohasida kasbiy-mutaxassislik faoliyatini o‘quvchilar ishlarining mahsuldorligi va ularning iqtidorliligi, qobiliyatlari vositasida baholash mumkin. O‘quvchilarning maktablaridagi yutuqlari darajasi namunalarga joylashtiriladi.

Bundan tashqari, o‘qituvchilar ishlarini yaxshilashga jismoniy va emotsional ta’sirlar, o‘quvchilarning sinfdagi o‘ziga bo‘lgan ishonchi va bilimlarining sifati kabi aspektlar o‘rganildi. Ta’lim tizimidagi qandaydir o‘zgarishlarni asosiy element sifatida o‘qituvchilar nuqtai nazaridan, fikrlarini ko‘rib chiqdik. Kasbiy-mutaxassislik majburiyatlarini bajarish va ta’limda doimiy ravishda yangi bilimlar va malakalar olish uchun yangi o‘qish kurslarini qo‘llash, o‘quv kurslari sifatiga qo‘yiladigan talablar mazmunini boyitish zarur. Qayta tayyorlashni rejalashtirish tizimi faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarga ilmiy-texnik axborotlar bilan dunyoqarashini kengaytirish va yangi malakalar o‘zlashtirishlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu tariqa, qayta tayyorlash tizimini tashkil etish jarayonini yaxshilash va natijalar bilan yakunlashga yo‘naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637 sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni

Shodiyeva M. Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Toshkent–2022.

O‘ZBEKISTONDA MILLIY TARBIYANING KONSEPTUAL ASOSLARI

Jabborov Xazrat Xusenovich
TDSHU dosenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotasiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari, milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, milliy tarbiyaning metodologik asoslari bo‘yicha eng so‘ngi ma’lumotlar bilan tanishingiz mumkin.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, milliy tarbiya, milliy fazilat, milliy xarakter, milliy xulq-atvor, milliy g‘oya va mafkura.

Bugungi yangi davr, globallashuv davri, ta’lim samaradorligini oshirishda inson omili, inson kapitali va inson resurslarini tadqiq qilishda, har tomonlama yondashuvlar mavjud. Biz mazkur masalada ta’limni rivojlantirishda ijobiy inson resurslaridan biri hisoblangan tarbiya masalasini ko‘rib chiqmoqchimiz. Mazkur resurs barcha millatlarni kelajagi va taraqqiyoti uchun eng dolzarb inson resurslaridan biri hisoblanadi[1].

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat insonlarda Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar ularning ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti.

Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

Qaysi bir jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa, o‘sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e’tibor keskin kuchayib, tarbiyani, jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi deb tan olina boshlanadi. Tarix bu kabi misollarga boy.

Ana shu nuqtai-nazardan Yangi O‘zbekiston maktablari qarshisida turgan vazifa dolzarb va murakkabdir. Chunki endilikda ular o‘z xalqining eng go‘zal fazilatlaridan bo‘lgan milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy odob, sof vijdonni o‘ziga mayoq qilib olib, Yangi O‘zbekiston sharafiga xizmat qila oluvchi o‘g‘il-qizlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishi kerak.

Bu ijtimoiy buyurtma oila, bolalar bog‘chalari, maktab, mahalla, turar joylarda, maktabdan tashqari muassasalarda hamkorlikda olib boriluvchi milliy tarbiya jarayonini ilmiy nazariy tadqiq qilishni taqozo qiladi[3].

O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini ishlab chiqishdagi zaruratni bugungi kundagi glabalashuvning tarbiya jarayoniga ta’sir masalasi tezlashtirdi nazarimizda.

Aslida O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari chuqur ildizi va qadimiy tarixga borib taqaladi. Buni tadqiqotimiz birinchi bobida batafsil ko‘rib chiqqanimizdek ko‘plab sharq mutafakkirlarini asarlarida tarbiya jarayonini ko‘tarilishi, komil inson, barkamol avlod orzulari va obrazlari misolida ham sezish mumkin.

Bu masalaga dastlab O‘zbeksiton Respublikasining 1992 yil keyin 1997 yildagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da so‘ngra 2020 yildagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli, 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son va 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040 qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida Qarorida o‘z aksini topib takomilashib bordi.

Jumladan yosh tadqiqotchi Otabek Bozorov o‘z ilmiy izlanishlarida “Globallashuvning o’smir tarbiyasiga o‘tkazayotgan ta’siri quyidagilarda namoyon bo‘layotganligini asoslab beradi va bizningcha mazkur masala O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslariga ham ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy-psixologik omillaridan biri hisoblanadi. Jumladan ular quyidagilar:

Birinchidan, axborot vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq, internet, uyali aloqa telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan “qadriyatlar” ko‘p hollarda o’smirimizni o‘zimizning milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo‘ymoqda, boshqacha aytganda, o‘ziga xos “ildizi yo‘q individ”larning shakllanishiga, o‘z tarixiy ildizlaridan uzoqlashuviga olib kelmoqda. Yoki bu jarayonni bizning ta’birimiz bilan aytganda, ko‘plab odamlar orasida kuzatilayotgan “marginaluv”, ya’ni olamlarni o‘z milliy madaniyati, o‘z milliy tarbiyasi, o‘z milliy qadriyatlar va milliy o‘zligidan begonalashayotganligi va ijtimoiy yakkalanayotganligi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchidan, “ommaviy madaniyat” turli xil ko‘rinishlarining o’smir orasida tobora keng tarqalishi. Bular asosan kiyinishda, qiziqishlarda, bo‘sh vaqtni o‘tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milly qadriyatlarga munosabatda namoyon bo‘lmoqda. Yot madaniyat qadriyatlarini o‘zida ifoda etayotgan “ommaviy madaniyat” o’smirimizda g‘arbona individualizm, egotsentrizm, nigilizm, andishasizlik, behayolik va zo‘ravonlik, milliy qadriyatlar va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda. Biznigcha bu illatlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari odamlarimizni o‘zi yashab turgan muhiti

va o‘zligiga nisbatan daxldorlik fazilatini kamayib borishi, psixologik oqibatlari esa odamlarimiz hatti-harakatlari va xulq-atvorida “apatiya” va “abuliya” kabi qa’tiyatsizlik, umidsizlik, bo‘shanglik, dangasalik, boqimandalik va tushukunlik kabi buzilishlarni kuchaytirmoqda.

Uchinchidan, o’smir orasida taqlidchilik, g‘arbona ideallarga ko‘r-ko‘rona ergashish kabi holatlar ham kuzatilmoqda. Bunda, xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma’naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali o’smirimizning ongini chulg‘ab olayotganini sezish qiyin emas. Oqibatda o’smir o‘rtasida kitob o‘qishdan ko‘ra kompyuter o‘yinlari oldida vaqtini o‘tkazish, mazmunan sayoz bo‘lgan turli janrdagi filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda”. Buning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini o’smir orasida real voqeliklarga nisbatan vertual voqeliklar ichida yashashga nisbatan oshiqish, ludomaniya, internetga tobelik kabi buzilishlar bilan izohlash mumkin.

“Xo‘sh, bunday murakkab va shiddatli kechayotgan sharoitlarda, globallashuvning o’smir tarbiyasiga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirlaridan qanday himoyalanish mumkin?

Fikrimizcha, buning uchun quyidagi yo‘nalishlarga asosiy e’tibor qaratish lozim:

-milliy tarbiyayaning zamonaviy va ta’sirchan vositalari, milliy tarbiya fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tahliliy ishlarini yangicha metod va texnologiyalarga asoslanishi, miliy tarbiya shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilish va qo‘lga kiritilgan empirik natijalarni amaliyotga tatbiq etish;

– milliy tarbiya ishlarida milliy va uminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga erishish. Bunda, asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onani ulug‘lash, oilani muqaddas saqlash, farzandning burchi, o‘zaro mehr-oqibat, iffat, or-nomus, hayo kabi fzilatlar, ustoz va shogirdlar odobi kabi ezgu qadriyatlarga sodiq qolishimiz va uni o’smir ongiga singdirishning ijtimoiy-psixologik texnologiyalaridan foydalanish;

– o’smir ongida milliy tarbiya prinsiplarini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarning yutuq va kamchiliklarni o‘rganish hamda ulardan samarali foydalanish, boshqa milatlarni hurmat qilish, ularning madaniyati va milliy qadriyatlariga ongli yondashish, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, bag‘rikenglik g‘oyalarining aks etishiga qaratilgan psixologik texnologiya va psixotreninglardan kengroq foydalanish;

– tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o’smirning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo‘rlik va majburlovlardan voz kechish, o’smirning asoiy qiziqish va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to‘liq qamrab olish. Bunda, axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va internet) xizmatidan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish, milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettiradigan internet saytlari, multimediya va roliklarni ko‘paytirish. O’smir ongiga ijobiy ta’sir etuvchi musiqa va kino san’atining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish;

– milliy intellektual salohiyatni rivojlantirish. Buning uchun milliy tarbiyani rivojlantirish urf-odat, an’ana va qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlarga uyg‘un holda o’smir dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish. O’smirning g‘oyaviy, siyosiy ongini, huquqiy, axloqiy, estetik madaniyatini yuksaltirish;

– o’smirda umummilliy va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo‘ya olishlari, jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to‘laqonli anglashlari,

xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo‘lida mehnat qilishlariga erishish uchun ijtimoiy va psixologik sharoit yaratish;

– o’smirda milliy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlarini izchil davom ettirish”.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Shunday bir vaziyatda O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari bo‘yicha asosiy ishlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorining chiqishi bo‘lib, mazkur konsepsiya millat kelajagi, millat ma’naviy taraqqiyoti uchun bir o‘ziga hos tarixiy voqelik bo‘ldi. Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma’naviy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tabirlar rejasidan iborat bo‘lib, uning amalga oshirilishi 4 bosqichdan iborat bo‘ldi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning ma’naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

“... hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”, degan edi milliy pedagogikamizning buyuk darg‘asi Abdulla Avloniy. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo‘lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Voyaga yetgan o‘g‘il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlari bilan kirib boradilar. Bu fazilatlari ularning o‘zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi o‘zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta’kidlandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada o’smir ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, Xitoyning yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilib, modifikatsiyalanib, amaliyotga tatbiq qilingan.

Konsepsiyada O‘zbekistonda o’smir tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish va uning ijtimoiy-psixologik omillari borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tariladi.

Konsepsiya oldiga qo‘yilgan vazifalar:

ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; bizningcha mazkur vazifada milliy tarbiya shakllanishiga xizmat qiladigan ijtimoiy-psixologik omillarni baholash hususiyatiga ega bo‘lgan psixologik indikatorni ham amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

oila, ta’lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishdan iborat.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr: *1-davr* – homila davri, *2-davr* – bola tug‘ilganidan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim 3-6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

uchinchi bosqich – umumiy o‘rta ta’lim tizimida (ikki davr: *1-davr* – 7 (6)-10 yosh boshlang‘ich sinf, *2-davr* – 11-17 yosh o‘rta va yuqori sinflar);

to‘rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan o’smir, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr: *1-davr* – o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan o’smir – 17-30 yosh, *2-davr* – o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh).

Konsepsiya ijrosi uchun mas’ul vazirlik va idoralar:

- Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi “Ma’naviy tarbiya” respublika jamoatchilik kengashini tashkil etish.

- “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” ruknida ota-onalar, pedagoglar, bolalar va o‘smirlar uchun darsliklar, adabiyotlar, mediamahsulotlar, ilmiy-metodik majmuasini yaratish.

- Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejalari asosida o‘quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilatlar, kompetensiyalarni shakllantirish.

- I-XI sinflar uchun “Tarbiya” fanini joriy qilish.

- Umumta’lim muassasalarining “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish hamda amalga oshirish.

- Ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini axloqiy fazilatlar majmui bo‘lgan milliy tarbiya an’analari, vositalari, shakllarini o‘rganish maqsadida mamlakatimiz hududlariga etnopedagogik ekspeditsiyalarni tashkil etish. To‘plangan tarbiyaviy meros asosida kitob va qo‘llanmalar, ko‘pjildli “Milliy tarbiya ensiklopediyasi”ni yaratish hamda chop etish.

- Jamiyatda milliy tarbiya an’analari, qadriyatlarini tiklashga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish;

- o’smirni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o‘rgatish;

- o’smirda turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish va shu kabi 61 ta Respublika va xalqaro miqyosidagi tadbirlarni samarali o‘tkazish bo‘yicha vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Konsepsiyada bunga tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, tayanch fazilatlarni kafolatli loyihalashtirish va o‘rgatishda oila, maktabgacha ta’lim muassasasi hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik imkoniyatlarini to‘liq ishlatish va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tarish masalasi rejalashtirilgan.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, buning oqibatida tarbiya uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermayotganligi kabi jtimoiy oqibatlar qayd qilinib o‘tiladi. Buning oqibatida yo‘l qo‘yilgan xatolardan eng ko‘p tarqalgani – og‘zaki tarbiya davom etayotganligi, ota-onalar, maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari, maktab o‘qituvchilari bolalarga Vatanga sadoqat, mas’uliyat, tadbirkorlik va boshqa fazilatlar nazariy ma’lumotlarga aylanib, bolalarning odatlariga aylanmayotganligi, ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amalga erishmayotganligi natijasida o’smirning Vatanga sadoqat, mas’uliyat, tadbirkorlik, mehr-oqibat haqida so‘zlari bilan yoshiga mos amallari orasida tafovut namoyon bo‘layotganligi qayd qilinadi.

Konsepsiyada tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar birdaniga ko‘rinmasligi, noto‘g‘ri tarbiyaning asoratlari oradan ko‘p yillar o‘tgach, jamiyatda inson omili tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarda ko‘rinishi mumkinligi qayd qilib o‘tilgan.

Biz yuqorida O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini yaqin 2019-2023 yillar oralig‘idagi hujjatlar asosida ko‘rib chiqdik, vaholangki davlatimiz o‘z mustaqilligi ega bo‘lishi bilan mazkur masala davlatimiz e’tiboridagi masalalaridan biri bo‘lgan. Biz keyingi paragriflarda o‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari va ularning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini o‘rganish orqali milliy tarbiyani shakllanganlik darajalarini tahlil qilishni maqsad qildik.

O‘zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslari bo’yicha juda ko’plab tadqiqotlarni ko’rib chiqdik va nazariy tahlil qildik. O’rganishlarimiz hozirga qadar

aynan ijtimoiy psixologiyada tadqiqot predmeti sifatida o'smirda milliy tarbiya shakllanishing ijtimoiy psixologik omillarini o'rganmagan, mazkur masala bo'yicha maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqilmaganligi aniqlandi va quyidagicha xulosalarni taqdim etishimiz mumkin:

- milliy tarbiya bo'yicha konsepsiyalarni joriy etilishi va amalda ishlashi joriy qilinishi uzluksiz milliy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, o'smirning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

- oilalar, ta'lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo'lgan o'smirning ma'naviy kamol topishi uchun zarur bo'lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratiladi.

- jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, yolg'onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, "ommaviy madaniyat"ga ko'r-ko'rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o'zibo'larchilik, farzand tarbiyasida mas'uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo'lmagan o'smirning hayotda o'z o'rnini topishga, kelajakka bo'lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo'ladi.

- oila, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi.

- milliy tarbiya bo'yicha konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda axloqiy muhitning sog'lom va barqaror bo'lishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M. Quronov. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210

2. Jabborov Xazrat Xusenovich. Психологические особенности идеологического влияния "массовой культуры" на человеческий разум. Социальный психолог журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.

3. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. T.: TIU, 2011.

4. Abu Nasr Farobiy. Fazilat, bax-saodat va kamolat haqida. Toshkent: Yozuvchi, 2001,-38 b.

5. Jonmatova H. Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya to'g'risida. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. B.19.

6. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent: O'qituvchi, 1967. –B. 88–89.

7. Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar". Toshkent: Fan, 1972.

8. Inoyatov A. “Siyar a’lamun nubalo” asarida Imom Buxoriy siyrati “Sahihul Buxoriy”ning tafsir ilmidagi ahamiyati // Imom Buxoriy saboqlari. – Samarqand, 2021. – Maxsus son. – B. 133-145. (24.00.00; № 13)

9. Jumaboy Rahimov. Mardlik va jasorat timsoli.–Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021, B.6-35

10. Nasafiy. Hazrat Bahouddin Naqshband. – Toshkent: “Fan”, 1993.

11. Shoislom Shomuhamedovning «Fors-tojik adabiyoti klassiklari» kitobidan olindi. T., 1963, 71—72-betlar.

12. Abdulxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 915 yilligini va Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, № F-4988, 11 iyul 2017 yil.

13.Ortikov O.R.Muhammad Abu Homid Imom G‘azzoliy Asarlarida Ilm-Ma’rifat Va Axloq Masalalari //Modern Scientific Challenges And Trends, -C. 117-122

14. Alisher Navoiy. “Lisonut-tayr” (qush tili). -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti 1991, –.176. b

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorih ttps://lex.uz/docs/-4676839

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHILARINI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI

Jabborova M.Q.
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak tarbiyachi(o‘qituvchi)larining metodik-matematik tayyorgarligi takomillashuvi uchun ko‘p bocqichli tayyorgarlikning joriy tizimi javob beradi. Ko‘p bocqichli oliy ta’lim ctrukturalari “shaxc va amaliyotning rang-barang madaniy-ta’limiy talablarni qondirish, umummadaniyat, ilmiy va kacbiy jahatdan mutaxacciclar mukammalashuvini iqticodiy talab va mehnat bozorini hicobga olgan holda amalga oshirish kabi maqcadlarga ega ekan”ligi qayd qilinadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak tarbiyachi, maktabgacha ta’lim, kasbiy komponentlik, kompetensiya, milliy o‘quv dasturi.

O‘tgan asrning 60-yillarida ta’limning hozir keng tarqalgan psixologik modellari paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda ham maktabgacha ta’lim tizimida, an’anaviy sistemadan boshqa, L.V. Zankov va D.B. Elkonin, nazariyasiga asoslangan tizimlar amal qilayapti. Rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasining paydo bo‘lishi bolaning ijodiy shaxs sifatida rivojlanishi muammosini oldinga suradi.

Bolaning rivojlanishi ta’limning asosiy maqsadiga aylanib boradi. L.S. Vigotskiy, P.Y. Galperin, V.L. Zankov, N.A. Talizina, D.B. Elkoninning tadqiqotlari bolalar psixikasining turli jihatlarini ochib berdi. Bu ishlarda bolalarning bir qator muhim

xususiyatlari aniqlangan: o‘z psixik [ruhiy] jarayonlarini anglashga o‘tish; ko‘rgazma-obrazli va so‘z-mantiqaviy fikrlash o‘rtasidagi munosabatlar ziddiyati; mavhum va umumlashmaning o‘sishi va sifat bo‘yicha o‘zgarishlari; tushunchalarning qatorli joylashuvidan ularning iyerarxiyasi va ko‘ppog‘onali tizimga o‘tish; oliy xotira funksiyalarining rivojlanishi va hokazolar [6]. Ularda shu jumladan bolalarning ijodiy fikrlashi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga, qobiliyatlarni rivojlantirishga, aqliy faoliyati usullariga va hokazolarga ham e’tibor qaratilgan.

D.B. Elkoninning ta’limning ma’lum mazmuni va metodlari bolalarni nazariy shakldagi bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirib olish darajasiga chiqarib qo‘yishga qodirligi haqidagi xulosasi nazariy fikrlash g‘oyasiga asos soladi; aynan shu fikrlashni esa “aslida ijodiy fikrlash deb atash mumkin” [5].

Inson tomonidan predmet va hodisalarni ularning muhim xossalari, aloqalari va munosabatlari bilan birga, bilvosita umumlashtirilgan holda bilish – fikrlashning darajasi subyekt rivojlanganligining eng muhim ko‘rsatkichidir.

A.Y. Sukar tasavvurning yangi tushunchasini taklif etadi: “Tasavvur mohiyati – butunni qismlardan oldin ilg‘ab olish; alohida, ba’zan tarqoq detallar asosida but obraz yasashdir. Eng avvalo tasavvur faolyatini maqsadni mo‘ljallash bilan bog‘lash lozim. “Agar eng kam miqdorda bo‘lsa ham, tasavvur bo‘lmasa, bajarilayotgan ishning taxminiy natijalarini oldindan bilish mumkin emas” [9, 55 b.] esda tutish lozimki, ma’lum ma’noda tasavvur fikrlash tanqidiyligining antipodi hisoblanadi, shuning uchun u sifatning ham, bu sifatning ham rivojlanishiga imkon beradigan mexanizmlarni topish darkor [masalan, “tezis-antitezis” usuli, tushunchaga to‘liq obraz shakllanishida yordamlashuvchi va bir tomonlamalikdan asrovchi turli tomondan yondashuv usuli].

L.S. Vigotskiy [2] ijodiy tasavvurni juda yuqori baholadi. Uning yozishicha, “kelajakka intilgan ijodiy shaxsning shakllanishi hozirgi kunda mujassamlashgan ijodiy tasavvur yordamida amalga oshiriladi”, Tasavvur yoki fantaziya deganda, u “miyamizning kombinatsiyalash qobiliyatiga tayangan ijodiy faoliyatni tushungan”. U bolalarda “ijodiyotni rivojlantirishning o‘ta muhimligiga e’tibor qaratgan. Yangi vazifalarni bajara oladigan yangi obrazni yaratish maqsadida tuzilgan obrazlar mazmunini o‘zgartirish ijodiy tasavvurning vazifasi hisoblanadi[ilova].

Ko‘plab metodistlar, “*konstruktor geometrik faoliyatga layoqat*: kattaliklarni o‘lchash va hisoblash o‘quvi, geometrik shakllarni tasvirlash va bajarish [chizish], geometrik obyektlarni modellash va konstruksiyalash”ni rivojlantirish zarur deb hisoblaydilar. Bola amaliy faoliyatining muhim ko‘rinishi modellash, ko‘rgazmali qurol yasash, qandaydir matematik tushuncha, tushuncha xususiyati va tushunchalar orasidagi munosabatni tasvirlovchi buyumlar va qo‘l mehnati mahsuli hisoblanadi. Saralash yoki ularning illyustratsiyasining tayyorlash jarayonida matematik tushuncha mazmunini o‘zlashtirish, bu tushunchalarning mavjud hususiyatlari haqida tasavvur shakllanishida juda yaxshi qo‘l keladi. Bolaning bunday faoliyati motor-muskul apparatining rivojlanishiga turtki beradi [ayniqsa kichik motorikani]. Bundan tashqari, geometrik jism modeli bolaning o‘z qo‘li bilan yasalgan bola xotirasida hissiy holatga ko‘ra kuchli va yorqin taassurot qoldiradi.

So‘nggi vaqtlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun matematika bo‘yicha rivojlantirishga mo‘ljallangan qo‘llanmalar chop etildi. Jumladan, ko‘rgazmali va

rivojlantiruvchi geometriya bo‘yicha, tasavvurni rivojlantirish bo‘yicha [Z.Ibragimova[6], N.Bikboyeva va b], Maktabgacha ta’lim uchun ona tilidan SH.Yo‘ldosheva[6], husnuxat bo‘yicha M.G‘ulomov, mehnat ta’limi bo‘yicha X.Sanaqulov[5], Atrofimizdagi olam, [8], matematika bo‘yicha M.DJumayev[4] ko‘rgazmali qo‘llanmalariamaliyotda qo‘llanilmoqda. Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar maktabga tayyorlov guruhi bolalari uchun darslik va daftarlarga ko‘p miqdorda kiritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarining fikrlash faoliyatini faollashtirishga imkon beruvchi masalalar paydo bo‘ldi. Bular quyidagi turdagi masalalardir: qonuniyatni topib, sonlar qatorini davom ettiring; umumiy va farqli belgilarni ayting; mulohazani yakunlang; tasnif belgisini tanlang; tanlangan belgi bo‘yicha sonlarni guruhlarga ajrating; kuzatishdan xulosa chiqaring va uni quyidagi masalani yechishda qo‘llang; to‘plamdagi “ortiqcha” obyektni toping; to‘g‘ri javobni tanlang va hokazo. Ko‘pincha bu turdagi topshiriqlar bolalarga arifmetik material o‘rganilayotganda taklif qilinadi. Rivojlanish deganda obyektning yo‘naltirilgan, qonuniyatli, qaytarilmas o‘zgarishi tushunilib, unda yangi sifatlar paydo bo‘lishi, obyekt tomonidan yangi holat yoki struktura hosil qilinishini ifodalaydi [3].

Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari rivojlanishi – bu bir darajadan boshqasiga o‘tish, yanada yuqori tartib, intellektual sohada yangi bilimlar paydo bo‘lishi, mavjudlarini takomillashuvini ifodalovchi o‘zgarish jarayonidir. Yangi bilim deganda bolalar tomonidan zehn o‘tkirligi, mustaqil ravishda faoliyat maqsadi qo‘yish layoqati, kuzatilgan hodisalarni umumlashtirish va hokazolar kabi yangi sifatlar hosil qilinishi tushuniladi .

Ijodiy faoliyatning ko‘plab baholash kriteriylari ajratilgan holda tavsifini ko‘ramiz:

–bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda yangi vaziyatga nisbatan tatbiq etish;

–tanish obyektning yangi funksiyada qo‘llash;

–tanish standart shartlarda yangi muammolarni ko‘rish;

–mashg‘ulotlar ga oid obyekt strukturalarini ko‘rish;

–muqobil yechimni ko‘ra olish layoqati;

–boshqalari ma’lum holda yechimning orginal usulini hosil qilish qobiliyati;

–ma’lum usullarni yangisiga mustaqil kombinatsiyalash.

Bunda muallif ko‘rsatadiki, ushbu ijodiy faoliyat sifatlarini o‘zlashtirish “uning kelgusi rivojlanishi va chuqurlashtirilishi maktabgacha bazasi sifatida yetarli” shu munosabatga boshqa mualliflar nuqtai nazarini keltiramiz:

–ayni bir masala yechimiga bir necha variantli yondashuvni amalga oshirish;

–masala yechish usullarini saralash natijasidagi muqobillik;

–yangi masalani yechishda oldindan ma’lum usullarni kombinatsiyalash ;

–shartni qayta shakllantirish;

–g‘oyaviy tayanch sohalarni ajratish;

–rag‘batlantiruvchi bo‘g‘inlardan foydalanish.

–bir aqliy operatsiyani boshqasiga o‘tkazish;

–masalaning ko‘rinishini o‘zlashtirish, masala qo‘yilishining yangi variantlari;

–turli yechish usullarini topish;

–yechish usulini takomillashtirish, ratsionallashtirish;

–olingan ma’lumotlarni qayta ishlash;

–olingan ma’lumotni kodlashtirish;

–taqqoslash o‘tkazish;

–masala mohiyatini tushunish;

–“chet” axborot (yondosh tafakkur)dan foydalanish asnosida yechish usullarini ko‘rish;

–axborotni qismlarga ajratmay, yaxlit qabul qilish;

–kerakli axborotni kerakli vaqtda bera olish qobiliyati;

–assotsiatsiyalash va assotsiatsiyalangan tushunchalarni farqlash osonligi;

–bir obyekt va tushunchadan boshqasi (unga mazmunan uzoq)ga o‘tish osonligi va tezkorligi;

–ishonchsiz farazdan voz kechish;

–baholash harakatlariga qobillik;

–ko‘rinishlarni generatsiyalash osonligi;

–noodatiy holatlarga yangicha qarash;

–majburiy o‘zaro munosabat o‘rnatilishi (obyekt ma’lumoti va hosilasi o‘rtasidagi mazmuniy bog‘lanishlar);

–paydo bo‘lgan fikrlarni qayd qilish (“ilg‘ab olish” qobiliyati);

–yangi shartlar asosida muammoga qaytish (biror narsa bilan shug‘ullangandan so‘ng).

Oldin o‘zlashtirilgan doirasiga joylashmaydigan narsani ko‘ra olish qobiliyati ko‘proq bolalar tabiatiga xos. Ular kattalar ko‘nikib bo‘lgan nomutanosiblik va bo‘shliqlarni juda tez qayd qiladilar. Ijod oldin ma’lum bo‘lgan axborotni qabul qilinayotgan axborot bilan birlashtirish, bu yangi bilimni bilim tizimida mavjudlariga qo‘shib yuborish qobiliyatisiz yuzaga chiqmaydi. Biroq maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida tafakkurning ijodiy unsurlarini rivojlantirishda ko‘rgazmaliligi, ommabopligi, obrazliligi, predmetliligi ta’sirida geometrik material ahamiyatini qayd qilish lozim. Shuning uchun unga ham katta e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, bolalar bog‘chasidagi elementar matematik tasavvurlarni o‘zlashtiradi. Geometrik figuralardan nafaqat hisoblash maqsadida, balki yasash maqsadida ham foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Xabib R. O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish. Toshkent. O‘qituvchi.1989 yi 160 b

2.Xujaqulov A.E. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nicbatan qadriyatli munocabatni shakllantirish :-Pedagogika fanlari bo‘yicha falcafa doktori (RhD) dicc. T.:2020-143 b.

3.Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kacbiy kompetensiyacini takomillashtirish // ped.f.b.f.d. (RhD) ilmiy darajacini olish uchun yozilgan dicc.-Toshkent: MTMRMQTMOI, 2021.-125 b

4.Erdiniyev P.M. Texnologiya obucheniya na ocnove ukrupneniya didakticheckix yedinits, cxemnix i znakovix modeley uchebnogo materiala .https://studfile.net/preview/2230304/page:6/

5. Erdiniyev P.M. Obucheniye matematike v nachalnix klaccax. Mockva.1977. 120 ctr.

6.Eshonkulova M.X. Elementar matematik tacavvurlarni shakllantirishning zamonaviy macalalari. TDPU. 2018 y

7.Eshonkulova M.X.Didakticheckiye ocnovi formirovaniya elementarnix matematicheckix predctavleniy u doshkolnikov.Pedagogicheckiy Vectnik Kazaxctana №4 2018 .-460 b.

8.Djanpeicova G.E. Teoriya i metodika formirovaniya matematicheckix predctavleniy. / Uchebnoye pocobiye. T.: Tafakkur, 2019. – 420 c.

9.Djanpeicova G.E. Covremenniye acpekti matematicheckogo obrazovaniya doshkolnikov. / Metodicheckoye pocobiye. T.: TDPU, 2017 – 104 c

10.Djumayev M.I. Boshlang‘ich cinflarda matematika o‘qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish.Mejdunarodnaya nauchno-teoreticheckaya Online konferensiya na temu «Kompetentnoctniy podxod v organizatsii nachalnogo obrazovaniya: teoriya i praktika».NUKUC . 28.04.2020.

MAQOL – NAQL SO‘Z VA SO‘Z KO‘RKI (YAXSHI NAQL – TOMIRI AQL)

Jantleuova Jayna Nurlan qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
404q guruh talabasi.

Annotatsiya. Maqolada milliy og‘zaki ijodining eng qadimiy noyob durdonalaridan hisoblanadigan maqol va matallar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: doston, ertak, qo‘shiq, afsona, rivoyat, maqol, matal, milliy qadriyatlar, xalq o‘g‘zaki ijodi, folklorshunoslik, badiiy ijod.

Til – aql bezagi, aql tarozusi, aql o‘lchovi, dil kaliti, dil tarjimoni, dil jarchisi. Hikmat – bir hovuch oltin. [2] Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. [5; 508 b.]

Xalq o‘g‘zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo‘lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o‘rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir Millatni o‘zligini ko‘rsatuvchi milliy qadriyatlarni, xalqning madaniyatini ifodalovchi omillardan biri bu xalq og‘zaki ijodidir. [4; 9 b.]

Xalqimiz asrlar davomida yaratgan rang-barang doston, ertak, qo‘shiq, afsona, rivoyatlar singari maqol va matallar ham milliy og‘zaki ijodning eng qadimiy noyob durdonalaridan hisoblanadi. Uzoq yillar mobaynida og‘izdan-og‘izga, nasldan-naslga ko‘chib, xalq donoligini o‘ziga singdirib, yanada sayqal topib kelgan bunday tafakkur durdonalari muhim tarbiyaviy, ilmiy-madaniy ahamiyatga ega. [5; 508 b.]

Adabiyot maydonida, ya’ni o‘zbek xalq ijodiyotida xalq maqollarini yig‘ish, ilmiy jihatdan o‘rganish va targ‘ib qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xalq yaratgan maqol va matal ma’nolarining butun nozik jihatlarini qat-qatigacha tushunmoq, bu bebaho mulkni teran idrok etmoq uchun kishi hayotiy voqea-hodisalarni tez ilg‘ab oladigan va keng mantiqiy mushohada yuritish qobiliyatiga ega bo‘lmog‘i lozim. Xalq og‘zaki ijodining boshqa barcha janrlari qatorida maqollarda ham gaplarning maqolga aylanishi uchun qator shartlar mavjud: birinchidan, “maqolga aylanuvchi fikr xalq hayotining ko‘pyillik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tajribasida sinalgan bo‘lishi lozim. Ana o‘shanda bu fikr ibratlilik kasb etadi, kishilarni ishontira oladi; ikkinchidan, maqolda ifodalangan fikr umuminsoniy xarakter kasb etishi lozim va uchinchidan, har ikki shartga javob beruvchi ibratli fikr ixcham, mukammal, badiiy jihatdan puxta kristall shaklga ega bo‘lishi kerak. [4; 9 b.]

Xalq maqollarini yig‘ish, o‘rganish juda qadimiy tarixga ega. O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash bo‘ldi. XX asrning oxirlarida ikki jildda nashr etilgan bu to‘plam o‘n uch mingga yaqin xalq maqolini o‘z ichiga oladi. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikni ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg‘inligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘lanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so‘zga alohida e’tibor berish kerak. Ularda shunday so‘zlar borki, bu so‘zlar tarixan butunlay boshqa ma’nolarni anglatgan. [8; 5 b.]

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil: mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, Vatan, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘pma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi. *(“Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l”* va boshqalar)

Maqollar o‘z va ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi bilan diqqatga sazovordir. *“Qizi borning nozi bor”, “Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda”* kabi maqollarda o‘z ma’no anglashilib turgan bo‘lsa, *“Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi”, “O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar”, “Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi”, “Bukrini go‘r to‘g‘irlar”* kabi maqollardan ko‘chma ma’no yashiringanini his qilamiz.

Bir qarashda *“Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi”, “Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar…”* singari maqollar o‘z ma’nosida ham qo‘llangandek tuyuladi, ammo bu hikmatli so‘zni hech kim o‘z ma’nosida qo‘llamaydi. Bir ishni yuzaga chiqishi uchun boshqa ishning ma’lum darajada unga sabab bo‘lishi, hayotda uchrab turadigan turli mish-mishlarning rost ekanligini ta’kidlash maqsadida bu maqollarni esga olish odat tusiga aylangan. Xalqimiz xalq og‘zaki ijodida munosib o‘rin olgan ushbu maqolni ko‘chma ma’noda tushunmasak, qanday maqsad nazarda tutilgani va asl ma’nosini tushunmay qolishimiz mumkin. [9; 836 b.]

Maqollar ba’zan “matal”, “zarbulmasal”, “naql”, “hikmat”, “hikmatli so‘z”, “tanbeh”, “mashoyixlar so‘zi”, “hikmatli maqol”, “donishmandlar so‘zi”, “naql so‘z”, “otalar so‘zi” kabi nomlari bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va

tarbiyaviy ahamiyati g‘oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. So‘z ko‘rki – maqol. [1]

Maqollarning badiiy mukammalligi ularning hayotiyligi, umrboqiyligini izohlaydi. Maqollardagi bu va boshqa xususiyatlar yengil yumor, kuchli tasdiq, o‘rinli kesatiq, xalqimiz tarixini mukammal ochib bera olgan haqiqatlar, bir ishni amalga oshirishdagi dalil va inkor ma’nolarini anglash uchun xizmat qiladi. Hajm jihatdan kichikligi, mazmun serma’noligi, mavzu jihatdan hayotiyligi maqollarning asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib yashashini ta’minlagan omillardir.

Demak, maqol ibratli so‘zdir. Shunday so‘zki, so‘zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta’sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo‘ladi. Kimki uni ko‘p ishlatsa, o‘shaning nutqi shiralidir va diqqat bilan eshitadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Maqol.
2. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari.
3. Kobiliva N., Shayxislomov N., Raimova M. Chet tili va o‘zbek parameologik birliklarining siyosiy-semantik tahlili. Scientific progress. – № 1(4). 2021.
4. Mamarasulova Sh. M. Ingliz va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik va sementik xususiyatlari. Bitiruv malakaviy ishi. – Samarqand, 2020. – B. 9.
5. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 508
6. O‘zbek xalq maqollari, 1-tom. – T.: Fan. 1987. – B. 365.
7. O‘zbek xalq maqollari, 2-tom. – T.: Fan. 1987. – B. 370.
8. O‘zbek xalq maqollari. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent, 2005. – B. 5.
9. Vahobova Z.M. Xalq maqollarining o‘ziga xos xususiyatlari. Scientific progress. Volume 3 |Issue 4| 2022. – B. 836.

TA’LIM JARAYONIDA MOTIVATSIYANING MUVAFFAQIYATGA TA’SIRI

Celal Alğan
Nizomiy nomidagi TDPU
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. O'rganish - bu shaxsning tug'ilishidan to o'limigacha davom etadigan jarayon. Muvaffaqiyat - bu har bir shaxsning o'zi nima qilsa, maqsadiga erishishidir. O'rganish va muvaffaqiyat tushunchalari ta'limdagi maqsadli tushunchalardir. Muvaffaqiyat - bu o'rganishga intilish natijasida yuzaga keladigan vaziyat. Motivatsiya o'rganish va muvaffaqiyatni ta'minlashning muhim elementidir. Ushbu maqolada motivatsiyaning ta'lim va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga qo'shgan hissasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, muvaffaqiyat, maqsad, ta'lim, tarbiya, metod

Ta'lim faoliyati o'quvchilarga bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni egallash imkonini beradigan rejalashtirilgan va tizimli jarayondir. Bu tadbirlar o‘quvchilarni shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo‘shish orqali hayotga tayyorlaydi.[1] Talabalarning o'quv faoliyatini amalga oshirishdagi motivatsiya darajasi ularning muvaffaqiyatiga, o'qishga bo'lgan munosabatiga va belgilangan maqsadlarga muvofiq xatti-harakatlariga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Muvaffaqiyatning kelishilgan ta'rifi bo'lmasa-da, muvaffaqiyat odamlar uchun qobiliyat va qoniqish hissidir.[2] Muvaffaqiyat maqsad yoki maqsadga erishish holatini anglatadi. Ushbu kontseptsiya ko'pincha shaxs o'z maqsadlariga erishish uchun ma'lum bir me'yorga javob beradigan yoki undan oshib ketganda ma'lum bir harakat qilganda qo'llaniladi. Muvaffaqiyatni turli kontekstlarda turli yo'llar bilan ko'rish mumkin va shaxsning o'z qadriyatlari, shaxsiy maqsadlari, ijtimoiy kutishlari yoki institutsional standartlari asosida baholanishi va ma'no berilishi mumkin. Muvaffaqiyatga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar mavjud va bu omillar har bir kishi uchun farq qilishi mumkin. Muvaffaqiyatga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri motivatsiyadir.

O'quv faoliyatining umumiy maqsadi; Shaxslarning turli fanlar bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘lishini ta’minlash, ularning aqliy, ijtimoiy va jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallash, ijtimoiy moslashuv va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, jamiyat va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirish.

Motivatsiya o‘quvchilarning maqsadga erishishga intilishi, ularning qay darajada kuch sarflashi va shu maqsad sari qat’iyligini o‘z ichiga oladi. Shaxsning xulq-atvorini faollashtirish, nazorat qilish va takomillashtirish motivatsiyaning asosidir. Motivatsiya - bu maqsad yoki xohishga muvofiq harakat qilish istagi va bu istakka erishish energiya va kuch sarflash tendentsiyasi. Motivatsiya yaratishdan asosiy maqsad shaxsning ixtiyoriy, samarali va faol, bosim va majburlovsiz ishlashini ta’minlashdan iborat.

Motivatsiyaga ko'plab omillar ta'sir qilishi mumkin va bu omillar shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy yoki psixologik bo'lishi mumkin. Motivatsiyaning asosi odatda ichki (o'z ichki motivatsiyasi) va tashqi (tashqi omillar natijasida kelib chiqadigan motivatsiya) omillardir. Ichki motivatsiya insonning shaxsiy qadriyatlari, qiziqishlari, ehtiroslari va ichki maqsadlariga muvofiq motivatsiya topishini anglatadi. Tashqi motivatsiya - bu shaxsni tashqi omillar, mukofotlar, jazolar yoki boshqa odamlarning kutishlari boshqaradigan motivatsiya turi. Shaxs ichida sodir bo'ladigan ijobiy jarayon va shaxsning vaziyatga qiziqishi orqali oladigan zavqi ichki motivatsiya sifatida ifodalanadi. Tashqi motivatsiya - bu xatti-harakatning o'zi emas, balki xatti-harakatlarning natijalariga nisbatan shaxsda yuzaga keladigan motivatsiya.[3] Ichki va tashqi motivatsiyadan foydalanish ta'lim va tarbiyada individual maqsadlarga erishishning samarali usuli hisoblanadi. Ichki motivatsiya uzoqroq vaqt davom etadi, chunki u hech qanday tashqi mukofot yoki ta'sirni hisobga olmasdan, shaxs tomonidan o'z xohishi va irodasi bilan yaratilgan motivatsiyadir.

Motivatsiya ma'lum bir maqsad yoki natijaga erishish uchun shaxsning sa'y-harakatlari, istagi va kuchining salohiyatini o'z ichiga oladi. Bu muvaffaqiyat, o'rganish, ishlash, o'ziga ishonchni oshirish yoki shaxsiy rivojlanish kabi turli

natijalarni keltirib chiqaradi. Motivatsiyaning ta'siri biznes, ta'lim, sport, san'at va hayotning boshqa sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim va motivatsiya bir-biriga ta'sir qiladigan ikkita muhim tushunchadir. Darslarni faol va samarali o‘tkazishda motivatsiya omili katta ahamiyatga ega. Motivatsiya o‘quvchilarni darslarga qiziqtirishi, o‘rganishga intilishiga va yaxshi natijalarga erishishiga sabab bo‘lishi mumkin. Motivatsiya omilining darslarni faol o‘qitishga ta’sirini tushunish uchun ba’zi masalalarga e’tibor qaratish lozim. O‘quvchilarning darslarda faol ishtirok etishlari, savollarga javob berishlari, dars mashg‘ulotlarida faol ishtirok etishlari, o‘qituvchi bilan muloqotda bo‘lishlari darsning yanada jonli va interaktiv muhitda o‘tganini, ularning ishtiyoqi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Talabalarning motivatsiyasini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri bu o'qituvchidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining yuqori motivatsiyasi o'qituvchi bilan bir qatorda o'quvchiga ham katta hissa qo'shadi.[4] Sinf muhitida ta'lim va tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun o'qituvchi rejali va dasturlashtirilgan bo'lishi, ta'lim muhitida tegishli metod va texnikalardan foydalanishi, o‘quv materiallaridan foydalanishi, soha bilimlari va umumiy madaniy bilimlarga ega bo'lishi va etakchilik fazilatlariga ega bo‘lishi kerak. Bunday xususiyatlarga ega o'qituvchilar yuqori motivatsiyaga ega. Dars boshidanoq o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini to‘g‘ri yo‘naltirish va buni dars oxirigacha saqlab turish o‘quvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham muhimdir. Ta'lim faoliyatini samarali amalga oshirish, sinfda istalmagan xatti-harakatlarning oldini olish, o‘quvchilar muammolarini kamaytirish va sinfni boshqarishni ta'minlash yuqori motivatsiyali shaxslardan tashkil topgan sinfda amalga oshiriladi. O'qituvchi ta'limda interfaol, qiziqarli va ishtirokchi sinf muhitini rag'batlantirishi va yaratishi mumkin.

O‘qitishda aniq maqsadlar qo‘yish va bu maqsadlarga erishish yo‘lidagi borishni kuzatish, ta’limda texnologik vositalardan foydalanish o‘quvchilar e’tiborini jalb qilishi va ularni rag‘batlantirishi mumkin. Ta’limda interfaol va qiziqarli texnologik vositalardan foydalanish o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi va o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan maqsadlarning ko‘zga ko‘rinarliligi va realligi o‘quvchilarga masalalarga jiddiyroq yondashish va harakat qilish imkonini beradi. Talabalar o'z ta'lim jarayonlarida diqqat markazida bo'lsa, bu ularga mustaqil ravishda o'rganish, ularning uslublariga mos keladigan strategiyalarni ishlab chiqish va yangi iste'dodlarni kashf qilish imkonini beradi.

Talabalarda motivatsiyaning pastligi ularning o'quv maqsadlariga erishish uchun harakatlarini kamaytirishi mumkin. Bu imtihondagi muvaffaqiyat, topshiriqlarni bajarish va umumiy o'quv yutuqlarining pasayishiga olib keladi va talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini kamaytirishi mumkin. Muvaffaqiyatsizlik tuyg'usi o'quvchilarning o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchini silkitishi mumkinligini hisobga olsak, bu holat o'quv jarayoniga salbiy ta'sir qiladi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik va ijtimoiy o'zaro munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi.

Sinf muhitida yaratilgan ijobiy muhit o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan ijobiy munosabatini, birgalikda ishlashga intilishlarini, kashfiyotga bo‘lgan qiziqishlarini,

ijobiy raqobatni kuchaytiradi. Shunday qilib, o'qituvchi va talaba munosabatlari mustahkamlanadi va ijobiy fikrlar muvaffaqiyatli natijalarni ta'minlaydi. Agar o'quv muhitida motivatsiya etarli bo'lmasa, o'quvchilar guruh mashg'ulotlarida qatnashishni istamasligi mumkin, bu esa o'quv muhitida ijtimoiy o'zaro munosabatlarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bu o‘quvchilarda darsga va o‘quv faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo‘lishiga, o‘quvchilarning darsga nisbatan istaksiz va salbiy qarshilik ko‘rsatishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O'qitishda ko'p qirrali o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarning turli xil bilish jihatlarini rag'batlantiradi. Metod - maqsadga erishish uchun afzal qilingan va aniqligi va muvaffaqiyati sinovdan o'tgan eng qisqa va eng samarali usul. Metod, qisqacha aytganda, tarbiyachining tarbiyaviy ishda qo`llaydigan umumiy yondashuvidir.[5] Talabalarning turli xil o'rganish qobiliyatlariga ega ekanligini hisobga olsak, turli xil o'qitish usullaridan foydalanish individual farqlarni bartaraf etadi va darslarni yanada qiziqarli qiladi.

Motivatsiyaning pastligi o‘quvchilarni o‘rganilgan mavzular nima uchun muhimligini yoki ulardan real dunyo kontekstida qanday foydalanish mumkinligini tushunishda qiynalishiga olib keladi. Bu talabalarni o'quv jarayonini ma'nosiz yoki bo'sh faoliyat sifatida ko'rishga olib kelishi mumkin. Darslarda muammoni yechish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga urg‘u berish hamda o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tahlil va sintezni talab qiluvchi qiziqarli savollarni kiritish motivatsiyani ta’minlaydi. Bu talabalarni tadqiqotchi shaxs bo'lishga undaydi.

Ta'lim faoliyatida muvaffaqiyatga erishish istagi - bu ehtiyoj. Ehtiyojlar insonning muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik haqidagi tasavvuriga ta'sir qiladi. Muvaffaqiyat insonning muayyan maqsadga erishish bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirsa-da, muvaffaqiyatsizlik bu ehtiyojlarni qondirishga to'sqinlik qilishi va motivatsiyani kamaytirishi mumkin. Maslouning "ehtiyojlar ierarxiyasi"da ma'lum bir ehtiyojni qondiradigan shaxs o'zi ko'rgan keyingi ehtiyojga motivatsiya qilinadi. Inson ehtiyojlarining cheksiz tabiati odamlarni ko'proq motivatsiya qilishga tayyor turadi. Bu erda e'tiborga olish kerak bo'lgan narsa, to'g'ri motivatsiya vositalaridan foydalanish va shaxlarni ko'proq harakatga yo'naltirishdir. [6]

Ta'lim muhitida yetarli darajada yaratilmagan motivatsiya o'quvchilarning o'quv faoliyatiga e'tibor qaratish va bilimni saqlab qolish harakatlarini zaiflashtiradi. Bu o'quvchilarning ma'lumotni unutishiga va uzoq muddatli tushunchaning etishmasligiga olib kelishi mumkin, natijada o'rganishga nisbatan istaksiz xatti-harakatlar paydo bo'ladi. Past motivatsiya ta'lim jarayoniga ta'sir qiluvchi muhim muammo bo'lib, o'quvchilarning o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning motivatsiya darajasini tushunish va ularni tegishli strategiyalar bilan oshirishga harakat qilishlari muhimdir. O'zgaruvchan hodisa bo'lgan motivatsiya o'qituvchi va o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasiga ta'sir qilishi bilan farqlanadi. Ayniqsa o'qituvchilar va maktab ma'muriyati bu farqlarni hisobga olishlari va motivatsiya darajasi salbiy bo'lishining oldini olish uchun mos motivatsiya vositalarini ishlab chiqishlari kerak.[7]

Natijada motivatsiya shaxsiy va professional muvaffaqiyatning hal qiluvchi omilidir. Muvaffaqiyatga erishish uchun insonga ichki harakat, xohish va energiya kerak. Motivatsiya bu elementlarni ta'minlaydi. Muvaffaqiyatga erishilgan sari

motivatsiya kuchayadi. O'quv faoliyatida motivatsiyani yuqori darajada ushlab turish o'quvchilarning o'quv jarayonlarida faol va uzluksiz ishtirokini ta'minlaydi. O‘quvchilarning darsga qiziqish bilan yondashishi ularga duch keladigan qiyinchiliklarga chidamli bo‘lish, qiyinchiliklarni yengib o‘tish va qo‘yilgan maqsadlarga qisqa vaqt ichida erishish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarga o‘z ta’lim jarayonlarini boshqarish va vaqtlaridan unumli foydalanishga yordam beradi. Ularning uzoq muddatli ta'lim jarayonlarida ko'proq ishtirok etishi darsning o'tmishi va kelajagi o'rtasida aloqa o'rnatish orqali turli xil o'rganish uchun asos yaratadi. Shu sabablarga ko'ra, o'quv faoliyatini rejalashtirishda ular motivatsiyani saqlab turuvchi tadbirlarni o'z ichiga olishi, o'qituvchilarni jihozlashi, qiziqarli vositalarni tanlashi, tegishli usul va uslublarni qo'llashi va o'quv muhitini to'liq amalga oshirish uchun tashkil etilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Gulbahar, G. (2004). Shaxsiy jamiyat ta'limi va o'qituvchi. HAYEF Journal of Education, 1(228).
2. Özkan, R., & Gunduz, M. (2013). Muvaffaqiyatning ijtimoiy-madaniy ildizlari: Muvaffaqiyatli odamlar bilan suhbatga asoslangan imtihon. Sakarya universiteti ta'lim fakulteti jurnali (16), 145-160.
3. Deci, E. L., Vallerand, R. J., Pelletier, L. G. va Rayan, R. M. (1991). Motivatsiya va ta'lim: o'z-o'zini belgilash nuqtai nazari. Pedagogik psixolog, 26(3-4)
4. Bishay, A. (1996). "O'qituvchining motivatsiyasi ishdan qoniqish: tajribadan namuna olish usulini qo'llagan tadqiqot". Bakalavr fanlari jurnali, 3: 147-154.
5. Köken, N. (2002). Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda “So‘roq usuli”ning ahamiyati. Afyon Kocatepe universiteti ijtimoiy fanlar jurnali, 4(2), 91-104.
6. Omirtoy, B. (2009). Motivatsiya nazariyalari doirasida turli korxonalar nuqtai nazaridan motivatsiya vositalarini tahlil qilish. Nashr qilinmagan magistrlik dissertatsiyasi, Gazi Universiteti, Biznes boshqaruvi bo'limi, Anqara
KILIÇ, Y., & YILMAZ, E. (2019). Ichki, tashqi va ma'muriy omillar kontekstida o'qituvchilarni rag'batlantirish ko'lamini ishlab chiqish. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti tadqiqotlari jurnali, 5(1), 77-91.

ARALASH TA’LIMNING IMKONIYATLARI VA TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI

Jumakulova Mavludaxon Xosilovna
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada aralash ta’limning imkoniyatlari va ta’lim jarayoniga tadbiq etishdagi afzalliklari yurtimiz va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: aralash ta’lim, an’anaviy ta’lim, almashish modeli, moslashuvchan model, masofaviy ta’lim, individual ta’lim, kengaytirilgan virtual model, maxsus aralash model.

Fan va tehnikaning jadallik bilan rivojlanishi, barcha sohalarda dunyo tizimlarining integrasiyalashuvi va globallashuv natijasida fanda zamonaviy texnologiyalarning takomillashib borishi ta’lim islohotlarini muntazam olib boorish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga tobora yuqori talablar qo‘ymoqda. Jahonda ro‘y berayotgan turli ofatlar, pandemiya sharoitida o‘quvchilarni ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va ularni sifatli ta’lim olish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish masalalarini hisobga olgan holda modulli ta’lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili tez sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta’limning yangilik sifatida kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy ta’lim tizimiga aralashtirilgan ta’lim (blending learning) jadallik bilan kirib kelmoqda. Shu sababli aralash ta’lim jarayonida o‘qituvchlar o‘z oldiga muhim vazifa va o‘quv jarayonlarida yangi pedagogic texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘z-o‘zini idrok etish salohiyati, yuqori intelektual darajaga ega bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishni asosiy vazifalaridan biri sifatida qo‘yilmoqda.

“Menining nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi-ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, fidoyilik hissini kuchaytiradi. O‘zbekistonining yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shulasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etib turishi zarur,”[1, 464-b]-deb ta’kidlaydilar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini to‘g‘risida”[2]gi farmonida uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim imkoniyatlarini, umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish kabi chora-tadbirlari o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganidek, «Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz»[3, 22-b]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 20020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda Xalq ta’limi oldidagi bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini rivojlantirish uni amaliyotga joriy etish, o‘qishni, mustaqil bilim olishni induviduallashtirish va amaliy mashg‘ulotlar o‘qitish tizimini, uning vositalarini ishlab chiqish, o‘zlashtirish, ya’ni pedagogik texnologiyalar va yangicha axborot texnologiyalari asosida o‘quvchilarni o‘qitishni jadallashtirishda ana shunday dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishning samarali usullaridan biri ta’limning ilg‘or shakllari va innovatsion texnologiyalarni, o‘qitishning texnik vositalari va yangi o‘quv axborot texnologiyalarini, o‘quv jarayoniga tadbiq etishdan iboratdir. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Komyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli [4] qarorida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi

bilan birgalikda umumta’lim maktablarining barcha o‘quvchilarini va talabalarni kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ishlashga keng ko‘lamda o‘qitishni ta’minlash, O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan birgalikda o‘rta va oliy ta’limning ta’lim standartlariga muvofiq ravishda elektron o‘qitish bazasini yaratish, ta’lim muassasalarining axborot infratuzilmasini shakllantirish, ……kabi qator chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Respublikamizda o‘quv jarayonini mustaqil va an’anaviy ta’lim orqali tashkil etish, yuzma-yuz (Face to Face), masofaviy ta’lim (Moodle, Ilias, Dokeos va h.k) shakllarini keng tadbiq etish, axborot ta’lim muhiti (e-learnig) sharoitida ta’limning uzluksizligi va amaliy yo‘nalganligi, ta’lim oluvchilarning kognitiv faolligini, tafakkurini, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim vositalari va metodlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda ta’limga “Aralash ta’lim” atamasi jadallik bilan kirib kelmoqda.

Atama soha doirasida ilk marta 1999 yili Atlantada joylashgan Interactive Learning Centres ta’lim kompaniyasi tomonidan EPIC Learning deb nomlangan press-relizda qo‘llanilgan: “kompaniya hozirgi kunda 220 ta online kusrlarni ishlab chiqqan, yaqin kunlarda kompaniya Blending Learning metodologiyasidan foydalangan holda o‘z internet dasturlarini taklif qila boshlaydi”[5]-deb yoziladi press-relisda.

Xorijiy va yurtimiz olimlari tomonidan ilmiy izlanishlari natijasiga ko‘ra aralash ta’lim atamasiga juda ko‘p ta’riflar berilgan. . Manbalarda aralash ta’lim: “bir xil tarkib, sinf va o'quvchilarda an'anaviy ta’lim bilan birgalikda onlayn ta’limdan foydalanish. Bu - yuzma-yuz va onlayn o'rganish tajribalarining birikmasi”[6] elektron ta’lim elementlari bilan yuzma-yuz o‘qitishning an’anaviy shakllarining kombinatsiyasi bo‘lib, u kompyuter grafikasi, video va audio, interaktiv elementlar va boshqalar kabi maxsus axborot texnologiyalaridan foydalanadi[7] Aralash ta’limga an’anaviy , masofaviy ta’lim va elektron masofaviy ta’limdan yanada samarali foydalanish texnologiyasi sifatida qaralishi mumkin[8].

Aralash ta’lim an’anaviy yuzma-yuz ta’lim (Face to Face) va masofaviy ta’limni o‘zida jamlashtirgan va an’anaviy darslarning ma’lum bir qismini masofaviy muhit bilan almashtirishni o‘z ichiga olgan model sifatida tushuniladi. Aralash ta’lim o‘quv dasturi hisoblanib, unda o‘quvchilar dasturning ma’lum qismida elektron, onlayn formatda o‘qitiladi va shu bilan bir qatorda o‘rganish vaqti, o‘quv reja va tezligini nazorat qilish o‘qituvchi zimmasida bo‘ladi; qisman o‘qitish o‘quvchining uyidan tashqarida yoki uy ichida amalga oshiriladi. Albatta, bunday o‘rganish natijasida integratsiyalashgan o‘rganish tajribasini ta’minlash uchun turli usullardan foydalaniladi.

Tadqiqotchi B.A. Akbarov Aralash ta’limning ayrim kamchiliklarini quyidagilar:

1) Aralash ta’limga o‘tish jarayonida dastlabki bosqichda ish hajmining ko‘p bo‘lishi (online ta’lim resurslarini yaratish, joyash);

2) Talabalarga nazariy materiallarni, mustaqil topshiriqlarni tanlayotganda ularning bilim darajasini hisobga olmaslik aks natija berishi mumkin;

3) Kompyuter savodxonligi bo‘yicha bazaviy bilimlarga ega bo‘lmagan talabalar uchun bu qiyin yoki zerikarli bo‘lishi mumkin;

4) Online nazoratlarni amalga oshirayotganda ko‘chirmachilikni oldini olish qiyinligidir[9].

Aralashtirilgan ta'lim yuzma-yuz ta'lim va onlayn ta'limning afzalliklarini o'zida mujassam etgan bo'lib, moslashuvchanlikni, shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'llarini, kengaytirilgan faollikni, hamkorlikni va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash orqali ta'limni inqilob qiladi

Aralash ta’lim jarayoniga oid ilmiy adabiyotlarning nazariy tahlillari va ta’lim amaliyotiga joriy etish tajriba natijalarini o‘rganish jarayonida aralash ta’lim modellarini turlicha tasniflaganini uchratamiz.

M.B.Horn va H.C.Staker o‘zlarining ilmiy izlanishlarida 4 ta model ga bo‘lgan:

1. Almashish modeli (Rotation Model)- ma’lum kurs yoki fan doirasida talabalar sinfga asoslangan qat'iy belgilangan jadval bo'yicha yoki o'qituvchining ta’lim usullari va individual ravishda oldindan tayyorlangan jadval asosida online va an’anaviy o‘qitish usuli bilan almashinib turadi;

2. Moslashuvchan model (Flex Model), model dasturning mazmuni va ko'rsatmalari o‘quvchiga asosan Internet orqali yetkaziladi, o'quvchilar individual ravishda o'quv usullarini(kichik guruhlarda o'qitish, individual repetitorlik, guruh loyihalari) aniq jadval o‘zlashtiradilar va ehtiyoj bo‘lganda pedagog ularga yuzma-yuz yordam beradilar.

3. Maxsus aralash model (Self-blend Model), bunda o‘quvchilarga dars an’anaviy mashg‘ulotlar tarzida olib borilib, tashkil etilgan qo‘shimcha online kurslarga kampusda ishtirok etish orqali bilimlarini mustahkamlaydilar;

4. Kengaytirilgan virtual model (Enriched Virtual Model)- talaba ta’lim mazmunini aniq ko‘rsatma orqali online o‘zlashtirib, vaqti-vaqti bilan an’anaviy tarzda ta’lim muassasasida qo‘shimcha bilimlarni o‘zlashtiradi[10, 22-b].

Aralash ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchi uchun bir necha afzalliklari mavjud bo‘lib, ya’ni o‘quvchilar bilan individual ishlash, online baholash, fanga oid ma’lumot va topshiriqlarni qisqa vaqtda keng auditoriyaga yetkaza olish kabilar ish hajmini pasaytirib, o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan aralash ta’lim modellari aralash ta'limning bir nechta afzalliklarini o‘z ichiga oladi:

1. Individual o'qish usullari: Aralash ta'lim jarayonida, o'quvchilarning har birining o'zining shaxsiy xususiyatlari, talablar va qobiliyatlariga muvofiq individual dasturlar tuziladi.

2. Hamkorlik va qo'llab-quvvatlash: Aralash ta'limda, o'qituvchilar o'quvchilarga faoliyatga yo'naltirishda va dars ishlari muammolarini hal qilishda qo'llab-quvvatlashadi.

3. Ijtimoiy ko'nikmalar: O'quvchilar, aralash ta'lim jarayonida bir-biriga ko'rsatilgan hurmat va qaramsizlik orqali ijtimoiy munosabatlarni o'rganishlari mumkin.

4. Amaliyotga yo'naltirish: Bu usulda o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotga o'tkazish, o'rganilgan ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlash va ustuvor savol yoki muammolarga javob topish orqali o'zlarining fikr va fikrlarini rivojlantirishga qaratiladi.

5. Muvofiqlik va samarali o'rganish: Aralash ta'limning afzalliklaridan biri hamkorlik va qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi va bu orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasining oshishi va ma'lumotlarni samarali o'rganishlaridir.

6. Qoniqtirish: Aralash ta'limda, o'quvchilar o'zlarining muammolarini hal etish orqali o'zlarini rivojlantirishlari uchun ilg‘or ko'nikmalar olishadi. Bu, ularning o'zlarining o'zlashtirish va o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

7. Ta'limda raqobat: Aralash ta'limning afzalliklari ichida o'quvchilar o'rtasida raqobat tashkil etish imkoniyati mavjudligi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish va o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhimdir.

Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, aralash ta'lim zamonaviy o'quvchilarning rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirishda va ularni raqamli asrning qiyinchiliklariga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.M Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-T.: O‘zbekiston nashriyoti. 2021. -464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi ―O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent, ―O‘zbekiston‖, 2016 yil, 22 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.06.2002 yildagi 200-son
5. FriensenN. Blended Learning, Avgust 2012, avaible at: https://www.normfriesen.info/papers/Defining Blended LearningNF.pdf (request date:21.06.2020)
6. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco, CA: Jossey-Bass, 2008
7. Раҳимов Х. А. Электрон таълим муҳитида аралаш ўқитиш методикасини такомиллаштириш (Техника олий таълим муассасалари мисолида)
8. Babadjanova U. B. Ingliz tili darslarida “teskari sinf” aralash ta’lim texnologiyasini qo‘llash International scientific-online conference Part 15: MAY 9th 2023
9. B.A. Akbarov. Aralash ta’lim va uning afzalliklari / "Экономика и социум" №10(113) 2023 www.iupr.ru
10. Heather Staker and Michael B.Horn . Classifyying K-12. Blended Learning. Innosight institute. 2012 . c 22(5)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY TAJRIBALARI

Kamoljonova Dilfuza Xoldorovna

Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik kompetensiyalarini oshirishning milliy tajribalari haqida fikr yuritib, bugungi kunda bolalar uchun nashr etilayotgan badiiy va ilmiy-ommabop kitoblarning yosh va qiziqish nuqti nazaridan tasnifi, bolalarni kitobxonlikga qiziqtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qanday pedagogik bilim va tajribalarga ega bo‘lishi kerakligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *kitobxonlik kompetensiyasini oshirishning zarurati, bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy adabiyotlar, ilmiy adabiyotlarning ahamiyati, sinf kutubxonasi, mutolla muhiti.*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlikni targ‘ib etish pedagogik jarayonning bir qismi bo‘lib, o‘quvchilar o‘zlarida kitobxonlik kompetensilarini rivojlantirish bilan birga, boshqa fanlarni o‘zlashtirish natijalarini o‘stirib boradi. Maktab kutubxonasi o‘quvchilarning badiiy adabiyotlar bilan ta’minlaydigan asosiy ma’lumotlar bazasi bo‘lib, bolalarning yosh hususiyatlari va qiziqishlariga doir barcha adabiyotlarni topish mumkin. O‘quvchilarni kitobxonlikga jalb etishda avvalo oilaviy muhit, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilimi, maktab kutubxonachisi kasb mahoratiga bog‘liq. Yer yuzida 129.864.880 dona kitob bor. 4-6 yoshli bolalar kitob o‘qishga oson o‘rganadilar. Kitob o‘qish so‘z boyligini oshirib, xotirani mustahkamlaydi.

Yangi O‘zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida ta’lim tizimini yuksak darajada rivojlantirish, O‘zbekistonda uchinchi renessans davrini yaratadigan barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu masalalar Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xalq ta’limi sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha belgilagan vazifalarida ham yaqqol bayon etib berildi.

Texnika rivojlanib, gajirdlar asriga aylangan bir paytda bolalarning mutolaaga qiziqtirish bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi. Lekin kitob mutolaasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ilm-fan, texnika sohasida ilgarilash, o‘sish bo‘ladi.

Bugun fin ta’lim tizimi o‘zining samaradorligi bilan dunyoda yetakchi o‘rinda turadi, finlar kutubxonalar xizmatidan foydalanish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Har bir fin fuqarosi yiliga o‘rtacha 11 marta kutubxonaga tashrif buyuradi [1]. Kutubxonalar finlar hayot tarzining bir qismi bo‘lib, kitob do‘konlarida bolalar va yoshlar uchun mo‘ljallangan kitoblar eng ko‘p sotiladigan kitoblar hisoblanadi.[1]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitobxon bolalar qilib tarbiyalashda avvalo, bolalar uchun mutolaa muhitini yaratish zarur. Maktabda kitobxonlikni sinf kutubxonasidan boshlash kerak. O‘quvchilar o‘rtasida kitob marafonini o‘tkazilib, sinfda tashkil qilingan javon bolalarning yoshi va qiziqishiga mos badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan to‘ldirilishi zarur. Sinf rahbari bilan kelishilgan holda o‘quvchilar orasidan sinf kutubxonachisi saylanadi. O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalari qanday shakllanayotganini bilish uchun har o‘n besh kunda o‘quvchilar o‘rtasida erkin mavzuda asar qahramonlari, kitobning o‘quvchiga yoqqan syujeti mavzusida yozma ishlar olinadi va baholab boriladi. Eng yaxshi ijodiy ish muallifi badiiy kitob bilan rag‘batlantiriladi. Sinfda o‘quvchilar kitobxonlik kompetensiyasining oshishi boshqa fanlarni o‘zlashtirishda ham ijobiy samarasini beradi. Alisher Navoiy hikmatlarining birida shunday deydi: “Kitob beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir”[2]. Shu sabab maktab kutubxonachilari ham o‘quvchilarni kitobxonlikka to‘g‘ri yo‘naltira bilishi, kutubxonani bolalar bilan gavjum joyga aylantira olishi zarur. “Mutolaa aql uchun eng zarur ne’matdir” [3]. Bolalarni mutolaaga qiziqtirishda maktab kutubxonachisi bilan birga boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalar yoshiga mos adabiyotini to‘g‘ri tanlay bilishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishiga ko‘ra adabiyotlarni to‘g‘ri tavsiya eta olishi zarur. Bugun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning hammasi bolalar adabiyoti to‘g‘risidagi bilim,

badiiy asarning shaxs tarbiyasiga ta’siri, fanlarni o‘zlashtirishda mutolaaning o‘rni va kitobni o‘quvchiga saralagan holda taqdim etish malaka va ko‘nikmalariga ega, deb aytolmaymiz. Sababi “Bolalar adabiyoti” fani pedagogika yo‘nalishidagi oliygohlarda tanlov fan sifatida kiritilgan.

Bolalarga ilmiy-ommabop va badiiy kitob tanlashda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagi mezonlarni bilishi zarur:

1. Bola yosh auditoriyasini inobatga olgan holda o‘quvchiga badiiy estetik zavq bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ega kitoblar: Bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi zarur. Bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblar o‘quvchida ijobiy fazilatlarni shakllantirishi kerak: (7-8 yoshdagi bolalarga 100-180 so‘zdan iborat kichik hajmdagi matnlarni o‘qish tavsiya etiladi. Bunda matn shrifti 14-16 keglldan kichik bo‘lmasligi zarur.) Katta hajmdagi kitoblar o‘quvchini zeriktirib qo‘yishi mumkin. Suratlari rangli, kitob varog‘ining 50 foizdan kam bo‘lmagan qismini egllashi zarur. Bugungi kunda xorijda 3D formatdagi visual kitoblar keng nashr etiladi.[4]

2. O‘quvchiga bilim berishi bilan birga, unda mantiqiy fikrlashga o‘rgatadigan ilmiy kitoblar. (Mening birinchi ensiklopediyam, Quvnoq tadqiqotlar turkumidan.)

Badiiy kitoblar qanday tanlanadi? O‘quvchiga badiiy kitob tavsiya qilishdan avval badiiy asarlarning janr jihatdan biri biridan farqini bilib olamiz.

Badiiy kitoblar janriga ko‘ra nazm (poetik), nasr (prozaik) turga bo‘linadi. Poetik janrdagi kitoblar she’riy uslubda yoziladi.

Bolalar shoirlari Zafar Diyor, Shukur Sa’dulla, Po‘lat Mo‘min, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Qambar Ota, Dilshod Rajab, Xudoyberdi Komilov, Kavsar Turdiyeva, Orif To‘xtash kabi shoirlarning asarlari kichik yoshdagi kitobxonga estetik zavq bag‘ishlaydi, qofiyalari jarangdor, bo‘g‘inlari sodda, so‘z tarkibi bola lug‘atiga mosligi bilan ajralib turadi va mutolaaga tavsiya etiladi.

Nasriy asarlarga ertak, hikoya, qissa kiradi. Prozaiklardan Xudoyberdi To‘xtaboyev, Yayra Sa’dullayeva, Erkin Malik, Farhod Musajonov, Xidoyat Olimova, Muhabbat Hamidovalar sara qissa, hikoya, ertaklari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlik kompetensiyasini oshirish uchun avvalo kitobxonlik muhitini yaratish zarur. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zi kitobxon bo‘lishi kerak. Respublika bolalar kutubxonasi tashabbusi bilan 2023-yil 3-mayda kitobxonlik forumi o‘tkazildi. So‘rovnoma natijasiga ko‘ra 1994- yil maktab o‘quvchilarining kitobxonlik darajasi 24% ni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatgich biroz pasaygan.

Bilim kitob orqali qo‘lga kiritiladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig asarida” bilimning ahamiyatini yuksak darajaga ko‘taradi. “Kishi bilimi bilan yechilmaydigan jumboq yo‘q” deydi[5]. Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilqish maqsadida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Yosh kitobxon” tanlovi bo‘lib o‘tmoqda. O‘quvchilarga avtomashinalar taqdim etilayotgani maktab o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Taklif sifatida bermoqchi bo‘lgan tavsiyalarimiz, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv rejasiga haftada ikki soat sinfdan tashqari o‘qish soatlarini kiritish bolalar o‘rtasida kitobxonlik kompetensiyasini oshishida samarali natija beradi. Mutolla soatida tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlar yuzasidan insho, bayon yozish yozma nutqini rivojlantirish, o‘g‘il-qizlarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati
1. To‘xliyev B., Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari, T., 1991.
2. “Baxtli bola ma’naviyati” – Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. II qism. 3-7 yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha metodik qo‘llanma. Tuzuvchi-mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov va boshq. – Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2018. - 260 b.
3. “Umumiy pedagogika” – X.Ibraimov, M.Quronov, – T, “Shaffof”, 2023-y.
4. N.Abdullayeva “Bolalar adabiyoti” – T, “Evrika” nashriyoti, 2024-y.
5. http:t.me/RespublikaBolalarKutubxonasi

TALABALAR KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jo‘lmurodov Oybek Asliddin o‘g‘li
JDPU o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, Talabalar kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning psixologik asoslariga bag‘ishlangan ilmiy nazariy adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ta’lim, mehnatsevarlik, erksevarlik, iroda, vazminlik, omilkorlik, shaxs, ilmiy dunyoqarash, xulq – atvor.

Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi.

Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarian ko‘rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan “Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?” nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o‘qituvchilar kreativlik asoslarini o‘rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.).

O‘qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko‘nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti. Ta’lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan’anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta’lim departamenti, 2013 y.).

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz shaxsan o‘zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish

talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi.

Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish”

Biroq, o‘quv yilining oxiriga kelib oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti.

Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar ta’lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta’lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilasa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir.

O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar? Zotan, o‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan asosiy omil – kreativlik bo‘lib qolaveradi.

Mutaxassislarning yuqori malakali bo‘lishi, ijodkorligining ortishi ilmiy - innovatsion faoliyat tufayligina amalga oshadi. Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi.

Pedagog - olimlar yillar davomida ta’lim tizimida “Nega o‘qitamiz? Nimani o‘qitamiz? Qanday o‘qitamiz?” savollariga javob izlash bilan bir qatorda “Qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin?”-degan savoliga javob qidirdilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya’ni o‘qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko‘rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotchilar ta’limda innovatsiyalarni qo‘llash bo‘yicha har doim izlanishlar olib borishgan. Ular “innovatsiya”, “interfaol usullar”, innovatsion texnologiyalar to‘g‘risida yaxshi axborotlar yig‘ishgan.

Ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni qo‘llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

o‘quv fanini aniq maqsadini aniqlash;

fanning hajmini va mazmunini aniqlash;

zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;

fanning moddiy va texnik ta’minotini yaratish;

ta’lim oluvchilarning xususiyatlarini o‘rganish;

o‘qituvchini tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

Kreativlik shaxsning ijodiy ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Kreativlikni o‘rganish asosan ikki yo‘nalishda olib boriladi:

1-yo‘nalish. Kreativlikni intellekt bilan bog‘liqligi masalalarini va kreativlik bilan bog‘liq ta’limiy jarayonlarni belgilashni o‘rganadi.

2-yo‘nalish. Shaxs va uning psixologik o‘ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi, shaxsga va uning motivatsion chizgilariga urg‘u berilishi bilan tasniflanadi. Intellektual faktorlarni ta’limiy yo‘nalishlarda qo‘llanilishida, kreativlikni o‘rganish, baholashda 1950-yillarda J. Gilford va uning izdoshlari 16 ta gipotetik intellektual qobiliyatni ajratib ko‘rsatadilar. Ular orasida:

- fikrning turliligi (ma’lum vaqt oralig‘idagi g‘oyalarning miqdori),
- fikrning (bir g‘oyadan ikkinchisiga ko‘cha olishi) originalligi (o‘ziga xoslik),
- umume’tirof etilgan qarashlardan farq qiluvchi g‘oyani yaratish qobiliyati),
- qiziquvchanlik (o‘zini o‘rab turgan olamdagi muammolarga ta’sirchanlik),
- gipoteza qilish qobiliyati (reaksiyaning stimuldan mantiqiy mustaqilligi),
- fantastikali (stimul va reaksiya orasidagi mantiqiy bog‘liqlikning borliq hayotdan butunlay uzilganligi).

Shu tariqa fikr yuritadigan, so‘nggi yangiliklardan boxabar o‘qituvchilar bugungi kunda juda dolzarb va bolaning rivojlanishi uchun muhim sanalgan integrallashgan darslarni tashkil etishga qodir bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Кала У.В. О креативности в сфере общения// Проблемы детской и педагогической психологии. Обзорная информация НИИ ОП АПН СССР. Вып. IX. Москва, 1976. — С. 35-38.

2.Клег Б. Интенсивний курс по развитию творческого мишлений. - М. : ООО «Издателство Астрел». 2004. - 392 с.

Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY MA’DANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Kamolova Sh.
JDPU Umumiy psixologiya
Kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’naviy ma’daniyatini rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanishga bag‘ishlangan ilmiy nazariy adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlangich ta’lim, faoliyat, pedagogik va psixologik, kompetentsiya, texnologiya, layoqatlilik, faol va ijodiy tafakkurni, ijodiyot.

Hozirgi kun talabi kreativ yondashuvlar asosida o‘quvchi yoshlarni ma’naviy axloqiy munosabatlarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. O‘zbekistonda ta’lim

sifatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qator farmonlar va qarorlar ishlab chiqildi. Bugungi kunda beshta muhim tashabbus doirasida umumta’lim maktablarida sezilarli ishlar amalga oshirilib o‘quvchilar turli to‘garaklarga jalb qilib kelinmoqda.bundan tashqari har bir har bir hududda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan ,,Barkamol avlod’’ ijodiyot uylari yaqqol misol bo‘ladi.

Chunonchi ma’naviy-axloqiy munosabatlar tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtiyojidan, ijtimoiy manfaatlari va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning hatti-harakati va boshqalarga bo‘lgan munosabatlarida namayon bo‘lgan. Ana shu munosabatlarsiz biron bir jamiyatni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Prezidentimizning ma`naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha 2022 yil 28 yanvarda[1] o`tkazilgan videoselektirdagi ma`ruzalarida yillar davomida yig`ilib qolgan ochiq oshkora aytilishi barchamiz uchun ayni muddao bo‘ldi: zero, ma`naviyatini yuksaltirish-bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Tarixga nazar tashlasak, bizning ota-bobolarimiz ming yillar oldin o‘zlarining tarixiy yodgorlik manbalarida, tafakkur va dunyoqarashida xalq og‘zaki ijodi namunalari milliy mafkuramiz o‘ziqlanadigan manbalardir[2]. buyuk mutaffakir ma’naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo‘lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarini zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shakli bo‘lib, o‘sib kelayotgan yosh avlodda xulq odob me’yorlariga mos keladigan, zamon talablariga beradigan insoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi”.

A.Avloniy shunday ta’rif bergan: “insonlarni yaxshilikg‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘an kitobni axloq deyilur. O‘z aybini bilib, iqror qilub tuzatmakg‘a sa’y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir’’[2] Al – Xorazmiy, Al – Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Xoja Axror Valiy, Al – Buxoriy,G‘ijdivoniy va boshqa ulug ‘zotlar hayot tarzi, ilm uchun fidoiylarligi, e’tiqot va imonning pokligi kelajakda odobli, axloqi pok kishilar bo‘lishi kerakligi haqida o‘z fikrlarini bildirganlar.

,,Dunyoviy va diniy g‘oyalar bir – birini boyitib, taraqqiyot bosqichiga o‘chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy, Muso Xorazmiy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko‘rsatgan davrlarni yaqqol misol keltirishimiz mumkin.”[1]

Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm – ma’rifatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, shu o‘rinda buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning ,,Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo‘lsangiz qurgan binolarimizga boqing” degan so‘zlarini va ma’naviyatning gullab yashnashida muhim o‘rin tutishini eslashimiz joiz.

Al – Xorazmiy, Al – Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Xoja Axror Valiy, Al – Buxoriy, G‘ijdivoniy va boshqa ulug‘ zotlar hayot tarzi, ilm uchun fidoiylarligi,e’tiqot va imonning pokligi kelajakda odobli, axloqi pok kishilar bo‘lishi kerakligi haqida o‘z fikrlarini bildirganlar.

„Dunyoviy va diniy g‘oyalar bir – birini boyitib, taraqqiyot bosqichiga o‘chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy, Muso Xorazmiy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko‘rsatgan davrlarni yaqqol misol keltirishimiz mumkin.”[1]

Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm – ma’rifatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, shu o‘rinda buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning „Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo‘lsangiz qurgan binolarimizga boqing” degan so‘zlarini va ma’naviyatning gullab yashnashida muhim o‘rin tutishini eslashimiz joiz.

Boshlag‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy madaniyatini shakllantirishda oilaning qo‘llab quvvatlashi bilan turli teatr tomoshalari, saylgohlarga sayrlar, milliy kuy qo‘shiqlar konserti va turli to‘garaklar, ommaviy kitobxonlik kechalari, kutubxonalarga tashrif buyrib taniqli shoir va yozuvchilar bilan davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etilishi o‘quvchi yoshlarda milliy ma’naviy salohiyatini oshirish omillariga zamin yaratadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida jasurlik, mardlik, sadoqat, insoniylik, xushxulqlilik xislatlariga ega bo‘lgan inson qiyofasi gavdalangan. Ibtidoiy turmush tarzi hamda odamlar o‘rtasidagi munosabatlar mazmuni insonlarda ana shunday sifatlarning shakllanishini taqozo etgan. Bilimlilik, xushxulqlilik, muayyan kasb yoki hunarga ega bo‘lish inson ma’naviy kamolotini belgilovchi asosiy ko‘rsatgichlar hisoblangan.

Hozirgi paytda mahallalarimizda yashayotgan ziyoli oilalarimizdan yetishib chiqatotgan kichik yoshdagi o‘gil qizlarimiz kitonxonlikka, san’at sohasida, sport yo‘nalishida, hunarmandchilik va boshqa yo‘nalishlarda qatnashib kelatotgan oila farzandlariga berilayotgan e’tibor tufayli mahallalarimizda ijtimoiy ma’naviy sog‘lom muhit paydo bo‘lmoqda. Bunga misol qilib Termiz shahridagi ,,Shifokor’’ mahallasida yashovchi 4 - sinf o‘quvchisi Abduraimova Sadoqat yosh istedod egalarini yuzaga chiqarish maqsadida ,,Besh tashabbus” doirasidagi
o‘tkazilgan ,,Bazatov Fest” yoshlar ovozi tanlovida 1 o‘rinni egallagani, va ,,Yulduz” mahallasida yashovchi mahallalar o‘rtasida sportni keng targib qilish maqsadida 4 - sinf o‘quvchisi Komiljnov Maqsud sportning boks turi bo‘yicha qatnashib faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi. Sherobod tumanida ,,Uzunsoy’’mahallasida yashovchi Turg‘unova Hurdona o‘zining bilimga chanqoqligi va tirishqoqligi bilan surxondaryo viloyatida o‘tkazilgan ,,kitobxon oila’’ ko‘rik tanlavida munosib qatnashib faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan.

Maktablarda o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olib, sinfdan tashqari ishlarga tarkibiga kiruvchi noan’aviy darslar ham tashkil etilib kelinmoqda.

Masalan;[1] Konsultatsiya darsi, ijod darsi, mutoola darsi, ilmiy fantastika darsi, xalq og‘zaki ijodi darsi, ekskursiya darslarini o‘quvchilarning ma’naviyatini, madaniyatini rivojlantirisha qaratilgan bo‘lib shakllanishiga bir omil va texnologiya bo‘lib xizmat qiladi. Maslahat darsi - o‘tilmoqchi bo‘gan dars yoki tadbirni oldidan mashg‘ulot va tayyorgarlik darsi. Bunda barcha o‘quvchilarning o‘z istaklari va qiziqishlariga qarab o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil takliflarini bildiradilar va bir birlari bilan shu dars yoki tadbir rivoji bilan fikrlashadilar.

Ijod darsi –o‘quvchilarning mustaqil ijodlariga qaratilgan darsdir,ya’ni bolalarni o‘z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda guruhlarga bo‘lish va bu guruhlarga

o‘qituvchining topshirig‘i bilan vazifani bajarishga kirishish,ijod qilish. Belgilangan vaqt mobaynida ,,Eng ijodkor va faol guruh’’, „Eng tashabbuskor guruh’’, ’’ Eng chaqqon va ishbilarmon guruh’’ nominatsiyalari bilan taqdirlash.

Mutoola darsi—bunda o‘quvchilarga bir xil hikoya yoki ertak kitobdan ma’lum bittasini tanlab o‘qib chiqadilar. Shundan so‘ng ularga alohida savollar va testlar yozilgan varaqchalar tarqatiladi va yozma javob beradilar. Dars oxirida kitobda o‘qigan hikoyalari yuzasidan qisqa xulosa aytiladi.

Ilmiy fantastika darsi—o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol,taxminlar o‘ylab topish mashqi orqali mustaqil fikrlashni kengaytirish. Mavzuga mos bo‘lgan ertak, afsona, hikoya, multfilm, kinofilm qahramonlariga oxshatib fantaziya qilib, o‘xshatishlar bajarib ko‘rsatish.

Xalq og‘zaki ijodi darsi— o‘quvcilarning milliy qadriyatlarni davomchilari sifatida qarash qiziqtiruvchi ilmiy fantastika darsi, texnologiyalarni o‘z ichiga olgan dars.dars mobaynida unutilib borayotgan xalq ijodiga qayta zamonaviy sayqal berib o‘quvchilarning o‘z takliflarini inobatga olinib qayta ishlash va shu orqali ma’naviy merosimizga bo‘lgan hurmat va qiziqishni so‘ndirmaslik,balki yanada takomillashtirish.

Xalq pedagogikasida, uning manbalarida jismoniy jazo tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida aslo uchramaydi, aksincha jismoniy jazo yomon oqibatlarga olib kelishi ta’kidlanadi. Lekin xalq pedagogikasi tarixida tarbiya nuqtai nazaridan jismoniy jazoning shapaloq urish va quloq cho‘zish shakllari ishlatilgani ma’Ium.

Tarbiya vositalaridan biri bolgan bolalar o‘yinlarining o‘z qoidalari bo‘lgan. Shu qoidaga rioya qilmagan bolalarni «o‘yin buzuqi» deb o‘yindan chetlatishgan. Ya’ni o‘yin jarayonida bolaning yaxshi va yomon jihatlari namoyon bolgan. E’tibor bersangiz, tarbiya vositalarining barchasi ko‘pchilik ishtirokida amalga oshiriladi va shubhasiz, bu juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunday bayram, sayil, gap-gashtak, yig‘inlarda bolalaming yaxshi va yomon xatti-harakati ko‘pchilikning ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi va shu ko‘pchilik tomonidan baholanadi..

Sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida O‘quvchi yoshlarda ma’naviy-axloqiy munosabatlarini shakllantirishga, ularni darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, milliy ma’naviy merosimizga sodiqlik, ajdodlar ruhini hurmat qilishga, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan kreativ pedagogik texnologiya metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bunday interfaol metodlarga «Fikriy hujum», «Yalpi fikriy hujum»,

«6x6x6», «Fikrlarning shiddatli hujumi », «Aqliy hujum», «Rolli o‘yinlar’’kabi metodlardan foydalanib o‘quvchilarning ma’naviy axloqiy sifatlariga ma’lum jihatdan anchagina hissa qo‘shadi.

«6x6x6» metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatiga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan

vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakillangan guruh a’zoari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

«6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir;

1) guruhlarning har bir a’zosini faol bo‘lishga undaydi;

2) ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta’minlaydi;

3) guruhning boshqa a’zolarining fikrlarini tinglay olish ko‘nikmalarini hosil qiladi;

4) ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o‘z fikrni himoya qilishga o‘rgatadi .

Eng muhimi mashg‘ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20) daqiqa mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Xulosa qilib aytganda,boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma`naviy madaniyatini shakllantirish vositalari muammosining jihatlariga ham tegishli bo‘lganligi sababli, boshlang ‘ich sinf va asosiy maktab o‘quvchilarining ma`naviy madaniyatini shakllantirish vositalarini rivojlantirishning merosiyligi; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’noga asoslangan (semantik) ijodiy o‘z-o‘zini takomillashtirishi; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy rivojlanishida maktab va oilaning o‘zaro hamkorligi, o‘zaro faoliyati kabi muammolarni yanada rivojlantirish istiqbolli deb hisoblaymiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’naviy ma’daniyatini rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanilganda, ulardan ijodiy ta’limning yaxlitlilik nazariyasini qurishda ularning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, turli tipdagi va ko‘rinishdagi ta’lim muassasalarida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.,,2022-2026 yilarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to‘grisida”gi 2022yil 28 – yanvar PF-60 sonli qaror.

2.Milliy istiqlol g‘oyasi; asosiy tushuncya va tamoyillar.T., ,,O‘zbekiston”,2000 . 47-bet.

3.Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”. Yoshlar nashriyot uyi. t.: 2019 5-bet.

4.Milliy istiqlol g‘oyasi; asosiy tushuncya va tamoyillar.T., ,,O‘zbekiston”,2000 yil,18-bet.

5. Milliy istiqlol g‘oyasi; asosiy tushuncya va tamoyillar.T., ,,O‘zbekiston”,2000 yil,18-bet.

6.A.E.Kenjaboyev,J.A.Kenjaboyev. Masofaviy ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik innavatsiyatsion texnologiyalardan foydalanish..Ilmiy ommabop nashr Termiz 2021. 53-54 betlar.

7.A.E.Kenjaboyev,J.A.Kenjaboyev. Masofaviy ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik innavatsiyatsion texnologiyalardan foydalanish..Ilmiy ommabop nashr Termiz 2021. 53-54 betlar.

AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA YOSHLARDA AXLOQIY MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Kamolova Sh.
JDPU Umumiy psixologiya
Kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, aksiologik yondashuvlar asosida yoshlarda axloqiy munosabatni rivojlantirish texnologiyalariga bag‘ishlangan ilmiy nazariy adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Aksiologiya, axloqiy munosabat, kompetentsiya , texnologiya, motivatsiya, kasbiy qobiliyat, ijodiy potensial, kasbiy aksiologik yo‘nalganlik, dunyoqarash.

Dunyoda talaba-yoshlarga oid amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda aksiologik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi hamkorlikni yuksaltirish zaruratidan kelib chiqqan holda kasbiy-pedagogik ta’lim jarayonini takomillashtirish, talabalarning axloqiy munosabatlarini rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, ta’limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda aksiologik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatni shakllantirish, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, ilg‘or xorijiy tajribalarga tayanib ma’naviy-ma’rifiy ishlar rivojini fan va texnologiya yutuqlari bilan hamohang tarzda ilmiy tahlil qilish, ayniqsa, talabalarni kasbiy-pedagogik ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yoshlarning mustaqil bilim olishga o‘rgatish, ma’naviyatini yuksaltirish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Mustaqillik tufayli jamiyatimizda ro`y berayotgan o`zgarishlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy va ruhiy dunyoqarashini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozirgi paytda respublikamiz aholisining 65 foizini yoshlar ya’ni, 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Shuning uchun hozirgi vaqtda talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlaniyotgan globallashuv davrida talabalarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda aksiologik jihatdan yondashish samarali natijalarga olib keladi. Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda ta'limiy qadriyatlar, ularning tabiati, funksiyalari, o'zaro aloqadorligi pedagogik aksiologiyada rivojlanib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyat

ta'limni o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashining maqsadga yo'naltirilgan jarayoni va natijasi sifatida tushunishdan uzoqlashdi. Ta'lim bu insonda insoniylikni tarkib toptirishdir. Uning asl mohiyati ham ana shunda.

Ta'limning ma'naviyatni tarkib toptirishdagi ahamiyati uni qadriyatli bilimlarni uzatish va uning asosida insonda qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni shakllantirishda ekanligini o‘z vaqtida Aflotun ham ta'kidlab o‘tgan edi. U davlatning asosini qolgan barchasi unga bog'liq bo‘lgan yagona birlik aks ettiradi, deb hisoblagan. Bunday asos - oliyjanoblikdir. Olim yuksak oliyjanoblik sifatida hech narsa yaxshilik va yomonlik haqida unday ma'lumot bera olmaydigan bilimni e'tirof etadi. Bilimda qanchalik oliyjanoblik o‘z ifodasini topganligini esa ta'lim jarayonida o‘rganish mumkin.

Aksiologiya (yun. *axio* – qadriyat va *logos* – fan, ta’limot) – qadriyatshunoslik, ma’naviy hodisalardan biri bo‘lgan qadriyatlar sohasini o‘rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo‘nalishi, qadriyatlar haqidagi fan. U XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan.

Aksilogiya aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar sistemasidir. Aksiologiya — qadr, qadrlash, qadriyatlar, qadriyatlar tizimi kabi aksiologik kategoriyalarni, ularning turli shakllarini o‘rganadi. Qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqlik qonuni, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi va takomillashuvi bilan bog‘liq aksiologik qonunlar ham aksiologiya shug‘ullanadigan masalalar doirasiga kiradi.

Aksiologik yondashuvlarga muvofiq, inson hayotidagi qadriyat eskirmasdir, ayniqsa, bugungi tezkor zamonda har qanday xatti-harakat aksiologik munosabat bo‘lishi taqozo etiladi. Demak, buning uchun ertaning bunyodkori bo`lgan yosh avlodni qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalamoq lozim ekan.

Qadriyatlar milliy va umuminsoniy xarakterda bo‘lib, milliy qadriyatlarda sobit bo lish umuminsoniy qadriyatlar tomon keng yo‘l ochadi, milliy qadriyatlar tarkibiga kiruvchi milliy-urf-odatlar, an’ana va udumlar, bayram va marosimlar avlodlar kamolotida katta ahamiyatga ega.

Xalqimiz asrlar osha shu qadriyatlarga sodiq qolgan, hamisha ulardan farzandlar tarbiyasida foydalangan. Urf-odatlar, xalqona udumlar, marosimlar, an’analar, xalq ijtimoiy hayoti, orzu-umidlarini aks ettiradi, shu ruhda kamol topgan insonda vatanparvarlik, insoniylik fazilatlari mustahkam bo‘ladi.

Aksiologik yondashuvlarga muvofiq, inson hayotidagi qadriyat eskirmasdir, ayniqsa, bugungi tezkor zamonda har qanday xatti-harakat aksiologik munosabat bo`lishi taqozo etiladi. Demak, buning uchun ertaning bunyodkori bo‘lgan yosh avlodni qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalamoq lozim ekan.

Qadriyatlar milliy va umuminsoniy xarakterda bo‘lib, milliy qadriyatlarda sobit bo‘lish umuminsoniy qadriyatlar tomon keng yo‘l ochadi, milliy qadriyatlar tarkibiga kiruvchi milliy-urf-odatlar, an’ana va udumlar, bayram va marosimlar avlodlar kamolotida katta ahamiyatga ega.

Xalqimiz asrlar osha shu qadriyatlarga sodiq qolgan, hamisha ulardan farzandlar tarbiyasida foydalangan. Urf-odatlar, xalqona udumlar, marosimlar, an’analar, xalq

ijtimoiy hayoti, orzu-umidlarini aks ettiradi, shu ruhda kamol topgan insonda vatanparvarlik, insoniylik fazilatlari mustahkam bo‘ladi.

Aksiologik yondoshuv asosida talabalarda axloqiy munosabatni rivojlantirish sohada yuqori kasbiy natijalarga erishishi kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, kasbiy qobiliyatni rivojlantirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ijodiy potensialni rag‘batlantirish, kasbiy aksiologik yo‘nalganlikka, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy, kasbiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanishga intilish bilan belgilanadi.

Interfaol ta’lim metodlaridan talabalarning mustaqil izlanuvchan o‘quv-bilish faoliyatlarini rivojlantirish maqsadlarida foydalaniladi. Bunday metodlar o‘quv materialini mustaqil ravishda mohiyatiga tushungan holda o‘zlashtirilishiga imkon beradi.

Mahsuldor o‘quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda integrativ dars, trening, debat, psixokorreksion rivoyatlar, videoroliklar, “Ahamiyatli yo‘naltirish”, “Delfi” strategiyasi, “Munosabat” metodi, “KBI (Kuzatish, Bahslashish, Ishontirish), “Ijodiy ish” metodi, “Veyn diagrammalari” kabi interfaol metodlar qo‘llaniladi.

Talabalarda aksiologik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatni rivojlantirishni takomillashtirishda bir-biri bilan uzviy bog‘langan ikki jarayon yaxlit holda amalga oshadi. Bu: birinchidan, tyutor maqomiga ega bo‘lgan shaxs o‘zining faoliyatida nafaqat kasbiy fikrlash jarayonini, balki barcha insoniylik amallariga qaratilgan yaxshilik, mehr, ezgulik ishlarini ilm – bilim asosida tartibga soladi, unga izchillik, tizimiylik, uyg‘unlik ato etadi va ma’naviy – axloqiy asos beradi. Ikkinchidan, ustoz sifatida o‘zidagi bor fazilatlarni tarbiya amaliyotida qo‘llaydi. Tarbiya oluvchiga xos bo‘lgan sifatlarni shakllantiradi.

Bu borada “Munosabat” metodi texnologiya talabalarga ular tomonidan aksilogik yondashuvlar asosida axloqiy munosabatlarni rivoijlantirish maqsadida o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida o‘quvchi talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, talabalarga o‘zlarida ijobiy fazilatlarni ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

Strategiya talabalarni faollashtiruvchi, ma’lum faoliyatga jalb qiluvchi mashq bo‘lib, ularning o‘zaro tanishishlari va jamoada ishchanlik muhitini yaratish maqsadida qo‘llanadi. Uning asosiy vazifasi talabani o‘zaro muloqotga chorlashdir.

Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bir zamonda talaba-yoshlarning muloqot etikasi, axloqiy fazilatga ega bo‘lishlari, ijtimoiylashuv jarayonlari, umuman olganda axloqiy munosabatlarning ko‘rinishlari xususida uhsbu strategiya orqali rivojlantirish mumkin.

Ko‘pchilik notanish muhit (yangi jamoa, sinf, maktab, kurs)da o‘zini noqulay sezadi va shu sababli jamoa bilan qo‘shilib ketolmaydi. Chunki ular hali jamoa, unda

qaror topgan muhitdan xabardor emas. Bu esa ularning jamoa a’zolari bilan yaqindan munosabatda bo‘lishlari, muloqotni tashkil etishlari yo‘lidagi eng jiddiy to‘siq sanaladi. Bordi-yu, jamoaga yaqinda kelgan shaxs uning loaqal bir nafar a’zosi bilan tanish bo‘lsa, bunday holatda uning yangi muhitga moslashishi oson kechadi.

Talabalarda axloqiy munosabatni aksiologik yondashuv orqali rivojlantirish avvalo, ma’naviy yetuk shaxslar qiyofasini shakllantirishga, ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiay)larni tarkib toptirishga, ma’naviy salohiyatni yuksaltirishga berishga xizmat qiladi. Talabalarda axloqiy munosabatni rivojlantirish murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi.

Talabalarda axloqiy munosabatni aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishda uning natijasini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Shaxsni to‘la o‘rganish - uni qay darajada tarbiyalanganliligini aniqlab beradi. Tadqiqotimizda talabalar, o‘qituvchilar, guruh rahbarlari bilan olib borilgan kompleks ishlar o‘zining samarasini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. “Pedagogik aksiologiya” T:, 2013 5 bet.

2.Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. A.Sherov, A.Xolbekov, M.G‘afforova va boshq.Toshkent 2009 yil 27-bet.

3.Abdullayeva SH.A., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya.. Toshkent 2018 yil., 117 bet.

4.Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 67 b.

5.Ma’naviyat va asoiy tushunchalar lug‘ati. A.Abdurasulov, A.Ahmedov, X.Shayxova, Q.Nazarov. Toshkent. 238 bet.

YANGI AVLOD DARSLIKLARI BILAN ISHLASHDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA SHAKLLANGAN PEDAGOGIK MOBILLIKNI AHMIYATI

Karaboyeva Maxliyo Qodirjonovna
Qori Niyoziy nomidagi
PFITI 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda ta’lim sohaasida olib borilayotgan islohatlar natijasida takomilashtirilayotgan darsliklarni sinovdan o‘tkazish, darsliklarni kamchiliklari va yutuqlarini tahrirlash orqali eng maqbul darslikni yaratishgacha bo‘lgan davrda o‘quvchilarni bilimini tizimliligi taminlay olish konikmasi va uning ahamiyati haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: mahorat, dastur, xorijiy tajriba, sinov, darslik, ta’lim maktab, o‘qituvchi faoliyati mobilizatsiya, bilim natija.

O‘zbekiston Respublikasi “Yangi O‘zbekiston-Uchinchi renesans sari “ g‘oyasi asosida O‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bunday sharoitda ustoz, muallim, o‘qituvchi zimmasiga eng muhim vazifa- jamiyyat kelajagi bo‘lgan yoshlarni

tarbiyalash, ilm berishning ilg‘or usullaridan foydalanish va barkamol avlodni kamol toptirish vazifasi yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2019-yildagi 281-son umumta’lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida Umumta’lim maktablari uchun yaratilayotgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning sifatini oshirish, o‘quvchilarni darsliklar bilan to‘liq ta’minlash, sifatli darsliklarni tanlash imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardosh, muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish mexanizmini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori tasdiqlandi.[1.15-bet]

Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta’limi muassasalari- ning xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturida maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy O‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish to‘grisidagi qonunlarini taminlash masadida ta’lim sohasida jahonning eng ilg‘or mamlakatlarining ta’lim tizimi o‘rganilgan holatda milliy darsliklar yaratilib tajriba sifatida amaliyotga joriy qilinmoqda. Tajribadan muvaffaqyatsiz o‘tgan darsliklar qayta ko‘rib chiqilib jahon standartlariga moslashgan holda mazmunan boyitilib yangidan nashr qilib amaliyotga joriy etilmoqda ayniqsa bunda xorijda faoliyat olib borayotgan soha mutahasislarining ham jalb etilgani tahsinga loyiq . Bunga misol sifatida 2019-2022-yillarda amalda bo‘lgan boshlang‘ich sinf darsliklari va 2023-o‘quv yilidan amaliyotga joriy etilgan yangi tahrirdagi darsliklarning tahlil qilganimizda har ikkala darslikda berilgan mavzular orasidagi tafovut katta ekanligi 2022-yil eski darslik bilan ishlab 2023-yil yangi darslik bilan davom etgan o‘quvchilar mavzularni davom ettirib keta olmagani o‘quvchilar bilimida katta bo‘shliq paydo bo‘lganini amaliyotda guvohi bo‘ldik.

Yangi darslikda ham bir qator kamchiliklarni kuzatish mumkin. Mana shu sharoitda o‘qituvchilarimizga pedagogik mobilizatsiya (tahrirlash) kasbga fidoiylik, Vatanparvarlik, uzoqni ko‘ra olish yani diagnozlash , kasbiy bilim , xorij ta’lim tizimlaridan habardor bo‘lish, darsliklarni tahlil qilish , kabi bilim va ko‘nikmalar yordamga keladi.

Mamlakatimizda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish bilan bog‘liq qator qonun va qarorlar mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr) 5- bob 45-moddasida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi tavsiflanadi pedagog hodimlarning maqomi va ular faoliyatlarining kafolatlari bayon qilingan . Unga ko‘ra pedagog hodimlar qator huquqlarga ega. [2. 5-bet]

Bular: O‘z sha’ni qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish ;

o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish,
o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish , shuningdek tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullardan foydalanish, ijodiy faollik ko‘rsatish; zamonaviy pedagogik shakllarni, o‘qitish va tarbiya vositalarni erkin tanlash va foydalanish
kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratilishini talab qilish; o‘quv ilmiy va uslubiy yo‘nalishlaridagi axborot resrus markazlaaridan bepul foydalanish; davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, malaka talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish
Ilmiy tadqiqod va ijodiy faoliyatda ishtirok etish , innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish ta’lim tashkilotlarini boshqarishda shuningdek talim tahkilotlari faoliyati bilan bo‘liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish
Kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a’zosi bo‘lish kabi huquqlari belgilab berilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida erkin va tanqidiy fikrlaydigan o‘qituvchilarga, yorqin pedagogik shaxslarga barqaror va uzoq muddatli talab shakllandi.
Bunday sharoitda o‘qituvchining vazifalari faqat ma'lum miqdordagi bilim va ko‘nikmalarni uzatish bilan cheklanib qolmaydi, u yosh avlodning yangi tafakkuri va xulq-atvorini shakllantirishga hissa qo‘shishi kerak. Bugungi kunda har bir o‘qituvchi faoliyatining samaradorligi o‘qituvchining o‘quvchilarning ichki imkoniyatlaridan qanchalik to‘liq va qanchalik faol foydalanayotgani, o‘quvchilarining mustaqil ijodiy faoliyatga qanchalik tayyor ekanligi bilan baholanadi. [3 2-bet]

O‘qituvchining mobilizatsiya funktsiyasining roli va ahamiyati ortib borishi bilan uning potentsial imkoniyatlarini rivojlantirish zarurati ortadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, pedagogik bilimlar rivojlanishining turli bosqichlarida olimlar o‘qituvchining shaxsiyati, turli qobiliyatlari, ko‘nikmalari haqida fikr yuritgan va u amalga oshiradigan funktsiyalarning mohiyatini aniqlagan. " O‘qituvchini mobilizatsiya funktsiyasi" tushunchasini tahlil qilish uning asosiy "funktsiyasi" tushunchasidan boshlanib safarbarlik faoliyati natijasida taqdim etiladi. Mobilizatsiya (fransuzcha mobilis so‘zidan olingan bo‘lib biror narsani faol holatga keltirish, diqqatni jamlash, har qanday maqsadga erishish uchun kuch va vositalardan foydalanish, harakatchanlik qobiliyati deb ta’rif beriladi. [4 .6-bet]

Pedagogikada o‘qituvchining mobilizatsiya funkisyasi o‘quvchining bilim va hayotiy tajribasini yangilash, kognitiv o‘zini shakllantirishdir. Talim sifatidagi muammolarni hal qilish uchun axborot resruslarini safarbar qilish, faollashtirish deb tarif beriladi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Respublikamizda faoliyat olib borayotgan tajribali ustozlar o‘z o‘quvchilaridagi bo‘shliqni to‘ldirib ketishni uddasidan chiqa oldilar. Albatta bunga qo‘shimcha kuch, vaqt va bilimlarini ishga solgan holda erisha oldilar lekin bunday o‘qituvchilar kamchilikni tashkil qiladi.

Mana shunday salohiyati yuqori bo‘lgan ustozlarni faoliyatini o‘rganish va keng targ‘ib qilish, sohaga yangi kirib kelgan yosh mutahasislarga mahorat darslarini olib borishni tashkil qilish, mehnatini munosib taqdirlash orqali o‘z kasbiga motivlarini yanada oshirishni taklifini beramiz. Zero Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, jonajon O‘bekistonimizni yanada gullab yashnashi uchun har bir fuqaro o‘z hissani qo‘shishi,

kelgusi avlodga mustaqil ozod va obod vatanni me’ros qilib qoldirish maqsadida o‘zining bor imkoniyatini ishga solishi oldinga qo‘yilgan maqsadlar yo‘lida yakdillik bilan harakat qilish burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2019-yildagi 281-son
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr)
3. Бебина Олга Ивановна “Характеристика личности учителя, реализующего мобилизационную функцию” 2009 г
4. X Ibraimov, M.Quronov “Umumiy Pedagogika” darslik T:. “Sahhof” 2023-yil
5. https://lex.uz
6. https://pedlib.ru
7. https://pedagog.uz

SHARQ UYG‘ONISH DAVRI BUYUK MUTAFAKKIRI ABU NASR FOROBIYNING AXLOQIY QARASHLARI

Karimova Malohatoy Mo‘minjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Solijonova Muhtasaroy Jaxongirbek qizi,
Shavkatov Furqatbek Shuhratjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
yo‘nalishi 2- bosqich talabalari

Baxt – saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (axloq, kasb – xunar, kabilar) yordam bersa ,uni saqlamoq va mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo‘lsa , uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur.

Abu Nasr Forobiy.

KIRISH

Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan vatanimiz buyuk O‘zbekiston qadimdan jahon sivilizatsiyasi markazi, ilm-ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib, dunyo ilm- fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelgan. Zaminimiz ikki buyuk uyg‘onishga beshik bo‘lganligi bunga yaqqol misoldir. Ayni vaqtda esa yurtimizda yana bir muhim uyg‘onish jarayoni kechmoqda, shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un hamda hamohang bo‘lib yangramoqda. Mamlakatimizda IX-XI-asrlarda taraqqiyotning yangi davri boshlandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu davrda siyosatdagi yangiliklar, davlat yuritishdagi yangiliklar, ommadagi fikrlar ilm-fan kishilarini ezgu maqsadlar va g‘oyalar tevaragida birlashtirgan. Buning natijasida esa tibbiyot, matematika, astronomiya, geodeziya, kimyo, huquq, falsafa kabi fanlar rivojlanib Birinchi Renessansga asos

bo‘lgan. Tarixga boqib, xolis tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona siyosat, ta’lim-tarbiya ustuvor etib qo‘yilganligi hamda ilm-marifatga kuchli e’tibor berilganligi Uyg‘onish davridagi eng muhim jihat bo‘lgan. Ayniqsa, kishilarda ilm-fanga, ma’rifatga tashnalik bilan birga borliq sir-asrorlarini ochish va yangi ilm yaratishga, insonlarga yaxshi yangilik bo‘la oladigan va jamiyatga foydasi tegadigan yangi g‘oyalarga ishtiyoq kuchli bo‘lgan. Natijada olimlarimiz o‘zlari sezmagan holda Renessans davrining bunyodkorlariga aylanganlar. Renessans davrining bunyodkorlari ya’ni allomalarimizni biz “aql mash’ali”, “tafakkurning qudratli ildizlari” deya e’zozlaymiz, qadrlaymiz. Negaki, ularning yaratgan asarlari, ixtirolari, ular qoldirgan barcha ma’naviy meroslari “aql ilm mash’ali” sifatida hanuz ilm olamiga yorug‘lik baxsh qilib turibdi va hech shubhasiz bundan keyin ham turadi. Ularning intellekti, g‘oyatda yuksak salohiyati natijasida vujudga kelgan asarlari esa har bir davr uchun tafakkurning qudratli ildizlaridir. Mazkur ildizlar o‘z davridayoq fanning qudrati, nufuzli chinorlari darajasiga yetishgandi. Mana oradan o‘tgan asrlar davomida bu chinorlar mustahkam ildizga ega muqaddas, ulug‘ zaminda bunyod bo‘lgani uchun yana ham qudrat, yana ham ulug‘vorlik kasb etmoqda. Umuman olganda sharqning ulug‘ allomalarining amalga oshirgan kashfiyotlari, zamonaviy ilm-fan hamda taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanligini his etish ilmiy salohiyati, ahamiyati jihatidan juda muhimdir. Tafakkurning mana shu qudratli ildizlaridan, ulug‘vor fan chinorlaridan baxramandlik hamda ularga mansublik hissi, vorisiylik faxri va iftixori bugungi “Uchinchi Renessans” poydevori uchun, ilm-fani uchun va umuman olganda jamiyatimiz uchun shiddatkor kuch va qudrat bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, barchamiz, ya’ni mana shu buyuk yurt vorislari mana shu ulug‘ allomalarimizga munosib farzand bo‘lgan holda jamiyatga kuch-quvvat vazifasini o‘tab, ajdodlarimiz qoldirgan ulug‘ meroslarni asrab-avaylashimiz hamda ilm fan jabhalarida ulardan foydalanib keng jaxonga biz mana shu buyuk yurt farzandlarimiz, mana bunday ulug‘ allomalar vorislarimiz deya o‘zimizni tanitmog‘imiz darkor.

METODOLOGIYA

Uyg‘onish davri yoki tirilish atamalari uchun fransuzcha (Renessans) “Uyg‘onish” yoki “qayta tirilish” atamasi asos qilib olingan. Mazkur atama Osiyo xalqlari (Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy) ma’lum bir davrni, Yevropa uchun yana boshqa bir davrni o‘z ichiga oladi. Renessansning asosiy alomatlari tafakkurda va ilm- u ijodda dogmatism, jaholat va mutaasiblikni yorib o‘tib , odamni ulug'lash uning iste'dodi , qobiliyati , aqliy fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr madaniyatiga qaytish va uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib , san’at va adabiyotda go'zallik va nafosat , hayot taronalarini qizg'in kuylash; inson erki , hurfikrlik uchun kurashishni nazarda tutadi. Buning natijasi o‘lariq , ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyosh etadigan badiiy asarlar yaratilgan , ilm- fan rivojlangan va salobatli binolar yaratilgan. Italiyada Petrarka va Dante , rassom Jotto , adib hamda mutafakkirlari Bokkachcho Ariosto , Tasso, Byome renessans g‘oyalarining jarchilari bo'lib maydonga chiqqanlar va mazkur jarayonning eng qiziq tomoni shundaki , yuqorida sanab o‘tilgan italyan olimlarining ijodiy kamolga erishishida Sharq mutafakkirlarining ta’siri nihoyatda katta bo'lgan . Mazkur Sharq mutafakkirlarimiz , olim allomalarimiz , dastlabki fan namoyondasi Muhammad Al- Xorazmiy , Abul Qosim az- Zamaxshariy , Ahmad Farg'oniy , Qomusiy- tabiiy ilmlar ustozi “Muallimi

soniy” nomi bilan shuxrat qozongan olim Abu Nasr Farobiy , diniy ilmlar rivojida Imom Buxoriy , Imom at- Termiziy , Imom Moturidiy , Burxoniddin al- Marg'inoniy , tibbiyot ilmida Ibn Sino , Abu Bakr Muhammad ar- Rozi , Abu Sahl Iso ibn Yaxyo al-Masihiy, Abul Xayr ibn al- Xammor va shular bilan birga falakiyot ilmida Abu Maxmud Xo‘jaqandiy , Abu Nasr ibn Iroq va falsafa ilmida Umar Xayyom , ibn Miskaveyx , Abu al Mu’iyn an Nasafiy kabi allomalarimizdir. Barcha olimlarimizni ilm o‘chog'iga yoqqan mash’allarini qoldirgan meroslarini ardoqlamay , o‘rganmay hech ilojimiz yo'q. Bular qoldirgan boy ma’naviy meroslar biz vorislarning faxri va iftixoridir.

MUHOKAMA

Biz mazkur maqolada garchi barcha olim , allomalarimizni hayoti, asarlari, qoldirgan boy ma’naviy meroslarini tahlil qila olmasakda Sharq uyg'onish davri buyuk mutafakkirlaridan biri bo‘lgan qomusiy olim, falsafa tarixida yirik mantiqshunos , faylasuf Abu Nasr Forobiyning axloqiy qarashlari, hayoti, pedagogik qarashlari hamda ilmiy meroslariga to'xtalib o‘tishga, taxlil qilishga harakat qilamiz.

Farobiy aslida uning taxallusi bo'lib, to'liq aytsak Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O‘zlug‘ Tarxon - Jahon madaniyatiga ulkan xissa qo‘shgan qomusiy olimdir. Olim turkiy qabilalardan bo'lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg‘og‘idagi Forob - O‘tror degan joyda tavallud topgan. Faylasufni o'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari , umuman Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar Ijtimoiy - falsafiy, axloqiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Farobiy o'z zamonasining barcha sohalarini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga o'zi ham katta hissa qo‘shganligi, yunon falsafasini sharhlab , bugun dunyoga keng tanitganligi uchun ham Sharq mamlakatlarida uning nomi “Ikkinchi muallim” - Al Muallim as Soniy, “Sharq Arastusi” deb yuritiladi. Farobiy o'rta asr davri tabiiy - ilmiy va Ijtimoiy bilimlarning qariyb barcha sohalarida 160 dan ziyod asarlar yaratgan. Qolaversa Farobiy qadimgi yunon mutafakkirlari - Aristotel , Ptolemey , Evklid , Porfiriylarning bir qancha asarlariga sharhlar ham yozgan va bu sharhlar O‘rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirish , o'stirishda , ularni Aristotel g‘oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Negaki, Farobiy Aristotel asarlari (“Metafizika” , “Ritorika”, “Sofistika”, “Etika”) ni batafsil izohlab birmuncha qiyin joylarini tushuntirib , kamchiliklarini ko'rsatgan hamda mazkur asarlarning umumiy mazmunini o'chib beruvchi maxsus asarlar ham yaratgan. Biz yuqorida Farobiyni “Ikkinchi muallim”(ya’ni Aristoteldan keyin) “Sharq Arastusi” deb yuritilgan deb ta’kidladik nega bunday nomlangan ?

Zamonasining ilmlarini , barcha sohasini chuqur , mukammal bilgan va bu bilimlar rivojiga o‘zining hissasini qo‘shganligi hamda yunon falsafasini sharhlab butun dunyoga keng tanitganligi tufaylidir. Abu Nasr Forobiy faqat asarlar yozish bilan cheklanib qolmay , arab hamda fors tillarida falsafiy mazmundagi she’rlar ham yozgan. Qolaversa ayrim ma'lumotlarga qaraganda Forobiyning 70dan ziyod tilni bilishi ta'kidlab o'tilgan. Farobiy Bag‘dodda o‘rta asr fani va tilining turli sohalari , yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o‘zga diniy e’tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo'lgan[1]. Forobiy 870- 940 - yillarda Abu Bashar Matta ibn Yunusdan yunon tili va falsafasini , 860- 920- yillarda esa Yuhanna ibn Xiylondan

tabobat va mantiq ilmini o'rgangan. Abu Nasr Forobiy asarlarini ikki guruhga ajratish mumkin;

1). Yunon faylasuflari , tabiatshunoslarining ilmiy meroslarini izohlash, targ'ib qilish hamda o'rganishga asoslangan asarlari;

2). Fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlari;

Abu Nasr Forobiyning “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”, “Baxt saodatga erishuv yo‘llari haqida risola”, “Qonunlar haqida kitob”, “Mantiqqa kirish kitobi”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Taliqot”, “Donolik asoslari”, “Hikmat ma'nolari”, “Substansiya haqida so'z”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Fazilatli xulqlar”, “Musiqa haqida katta kitob”, “Xajm va miqdor haqida so‘z ” kabi asarlari eng mashhur va Sharqning madaniy- ma'naviy hayotidan , tabiiy- ilmiy , Ijtimoiy - siyosiy masalalaridan boy ma’lumotlar beruvchi asarlar sirasiga kiradi. Abu Nasr Forobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi , maqsad- vazifalari borasida izchil ta’limot yaratgan. Mazkur ta’limotida davlatni boshqarish , axloq, ta’lim- tarbiya , urush va yarash , mehnat va boshqalar qamrab olingan. Forobiy shaharni Ijtimoiy uyushishning yetuk shakli , insoniyat kamolotga erishishining zaruriy vositasi deb hisoblaydi. U odamlarni birlashishga , hamkor bo‘lishga, jamoa bo'lib, dunyoda yagona insonlar jamoasi haqida orzu qilgan. Forobiyning ta'lim-tarbiya, odob - axloq, insonparvarlik g‘oyalari haqida ham to‘xtalmay ilojimiz yo‘q, chunki Forobiy mazkur fazilat- u xulqlarga jiddiy e’tibor qaratgan.

Forobiyning ta’kidlashicha; “Bilim, ma’rifat yaxshi axloq bilan bezanmog‘i lozim”. Shunga ko'ra olim o‘z asarlarida insonga tarbiya va ta’lim berish, axloqli bo‘lishligi, bilim, ma’rifatli inson o'z bilim ma’rifatini go‘zal axloqi bilan bezamog‘i lozim deb ta’kidlaydi. Olim odamlarning madaniy- ma’naviy hayotida asosan uning ikki tomoniga ; Aql idrok onggiga va axloqiga e'tibor beradi. Shuning uchun ta’lim- tarbiya uning fikricha aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetishtirishga qaratilmog‘i lozim. Forobiy “Har bir kishi kasb korni mukammal bilmog‘i , yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq - odob , fazilatlarga ega bo'lmog‘i kerak[1]” deb har doim ta'lim tarbiyani odob axloqqa , xulqqa bog‘lab ketgan.Umuman Abu Nasr Forobiy axloqiy kamolot , axloqli inson deganda , xayr- ehsonli , insoniy fazilatli, g‘amxo‘r, adolatli, toza qalbli fazilatlarni tushungan va bunday axloqiy kamolotga xalaqit beruvchi bilimsizlik, ongsizlik, bekorchilik, dangasalik hamda kasb yoki hunarsizlik kabi salbiy xislatlardan uzoqda bo‘lishlikni uqtirgan.

Abu Nasr Forobiyning “Baxt - saodatga erishuv haqida” asari eng mashhur asarlar sirasiga kiradi. Olim o‘zining mazkur asarida ilm- bilimlarni o‘rganish, bo‘lish tartibi haqida bayon etgan. Mazkur asarni o‘qish mobaynida biz ilmni qanday o'rganish , inson chinakam kamolotga erishish uchun qanday fazilat va xulq- atvorga ega bo'lishi kerakligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Forobiyning aytishicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o‘rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Buni o‘rgangach , tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini , shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Bundan keyin esa jonli tabiat , o‘simliklar va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi deydi. Forobiy shunday ta’kidlaydiki, inson kamolotga ta'lim- tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin deydi. Shu yerda olimning “Daraxtning kamolga yetgani mevasi bilan bo‘lganidek, baxt- saodatning mukammal bo'lishi yaxshi xulqlar bilan namoyon bo'ladi[1]”deya ta’kidlagan hikmatlarini keltirib o'tmay iloj yo'q. Bundan

ko'rinib turibdiki, daraxt kamolga yetgani, ulg‘aygani uning mevasidan bilinsa, insonning baxt- saodatga erishgani uning xulqida, odobida, ta’lim- tarbiyasida namoyon bo'ladi. Ammo insonda aql bo‘la turib, yomonlikka qaratilsa, insoniy xislatlar makkorlik, razillik, aldamchilikka olib boradi. Shuning uchun biz o'zimiz o'rgangan ta’lim- tarbiyani , bilimni umuman aqlimizni faqatgina yaxshilikka, yaxshi ishlarga sarflasak albatta bizdagi barcha fazilatlar, qo‘limizdan keladigan barcha insoniy xislatlar yaxshi ishlarga yetaklaydi. Forobiy inson kamolga yetishishi uchun atrofdagi odamlarga, umuman Ijtimoiy muhitga kirishi kerak deb ta’kidlaydi, chunki inson kamolga yolg‘iz erisha olmaydi boshqalarni ko‘maklariga, munosabatlariga muhtoj bo‘ladi. Yana Forobiy shuni ham ta’kidlaganki, tarbiya jarayoni tajribali pedagog, malakali, o'z kasbini yaxshi o'rgangan o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Negaki, har qanday inson ham baxtni, umuman narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi va shuning uchun unga o‘qituvchi lozim bo‘ladi. Forobiyning axloqiy qarashlari haqida so‘z yuritar ekanmiz eng avvalo olim axloqiy fazilatlar deganda qanday xislatlarni tushunganini keltirmay ketibmiz. Hozir shularga aniqlik kiritib ketamiz. Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik, vijdonlilik, kamtarlik, adolatlilik, haqiqatgo‘ylik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yishlik, mulohazalilik, ma’naviy yuksaklikka intilish kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu hislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma’rifatli bo‘lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq va aql tushunchalarini bir- biri bilan uzviy bog‘lab ketgan holda tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Mana shu yerda Abu Nasr Forobiyni so‘zlarini, hikmatlarini keltirishni joiz bildik, keyin esa mavzuyimizga yakun yasash uchun xulosa qilamiz. Forobiy insoniy, axloqiy vujuddan maqsad eng avvalo oliy baxt- saodatga erishuvdir deya ta’kidlaydi; avvalo u baxt- saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga yetishishni o'ziga g‘oya va eng oliy maqsad qilib olishi hamda buying borlig‘i, vujudi bilan maftun bo‘lishi va keyin bu baxt- saodatga olib boradigan ish- amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olib , so‘ngra bu baxt- saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga, qilishga kirishmog‘i lozim deb ta’kidlaydi. Mazkur keltirib o‘tilgan hikmatlarda olam - olam ma’no va bilimlar yotibdi desak sira ham yanglishmagan bo‘lamiz.

Forobiydek bobolarimiz izlanib, o‘qib, o‘rganib biz yosh avlodlarga qoldirib ketgan bunday xazinalarni biz avlodlar ularni davomchisi sifatida o‘rganib, asrab- avaylagan holda izlanib, qo‘limizdan kelgancha harakat qilib boyitmog‘imiz va keng jaxonga yoymog‘imiz bir so‘z bilan aytganda allomalarimiz, bobolarimizga munosib avlod bo‘lmog‘imiz darkor. Munosib avlod bo‘lishimiz uchun esa yaxshi axloq va odobli, ilmli, bilimdon va notiq , so‘zining uddasidan chiqadigan, diyonatli, adolatparvar va barcha yaxshi narsalar, yaxshiliklar uchun mol- dunyosini, umuman barcha narsasini ayamaydigan ilmga o'ch bo‘lishimiz zarur.

Zero; “Baxt - saodatga erishuv yo'lida nimaiki(axloq, kasb- hunar kabilar) yordam bersa , uni saqlamoq va mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo‘lsa uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur”. So‘zimizni yakuni sifatida Forobiyning pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish yotadi deya olamiz. Insonning kamolga yetishida esa ham aql, ham axloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim hisoblanadi . Forobiy bunga qanchadan qancha fikrlar bildirgan va asoslagan va bu fikrlar hozirda ham ta’lim- tarbiya uchun g‘oyat muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb- sayti- president. uz.
2.Buyuk siymolar, allomalar(O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar va donishmandlar), 1- kitob, T., 1995.
3. Abu Nasr Forobiy . Fozil odamlar shahri.- Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Abu Nasr Forobiy . Fozil odamlar shahri.“Yangi asr avlodi” 2016.
5. Abu Nasr Forobiy . Fazilat, baxt- saodat va kamolot haqida. - Toshkent , Yozuvchi , 2001.
6. Abdullayev A. “Devoni xikmat”da yassaviya tariqati g‘oyalari.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TALABALARINING KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.

Karimova Sabina Muxiddin qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘Ich ta’lim fakulteti
4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyasining ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakalarini rivojlantirish texnologiyasining,nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: kasbiy malaka, texnologiya rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish, kasbiy ehtiyoj hurmat hissini shakllantirish tamoyili.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son “2022-2026 –yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, 2021-yil 6-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomalarida hamda mazkur faoliyatga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.[1]

Darhaqiqat, mazkur masalalarni hal etish respublikamizdagi mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish orqali yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish maqsadini nazarda tutadi.

Shunday ekan, barkamol shaxsni tarbiyalash, uni mutaxassis sifatida shakllantirish, jamiyatda munosib kasbiy-ijtimoiy statusga ega bo’lishida oliy ta’limi muassasalarining o’rni katta.

Oliy ta’lim muassasalari va ulardagi o’quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat–monitoringini oshirish, boshlang’ich ta’lim talabalarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik

motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi.

“Fanga iste’dodli yoshlarning kirib kelishini ta’minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy maktabning, hatto, umumiy ta’lim maktablarining faoliyatini tubdan isloh qilish kerak”, deya ta’kidlaydi [2]

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveytsariya, Germaniya, Malaziya, Kanadaning mutaxassilar tayyorlash bilan bog’liq tajribasi shuni ko’rsatadiki, kasbiy ta’limning asosiy vazifasi.

Talabalarda tanlangan mutaxassislikning o’ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo’lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta’minlanadi.

Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo’lajak talabaning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko’nikma va malakalarning o’zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga malaka darajasi belgilanadi. Darhaqiqat, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisning butun faoliyati davomida ma’naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar darajasini ifodalaydi.

Keltirilgan mazkur vazifalarning amaldagi ijrosi pedagogika oliy ta’lim muassasalari oldiga qo’yiladigan masalalardan eng muhimi ya’ni boshlang’ich ta’lim talabalarni tayyorlash jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Ma’lumki, kasb tanlash, kasbga yo’naltirish, kasb-hunar tarbiyasi masalalari tasavvuf ilmi bilan uyg’unlashgan Sharq pedagogikasida ming yillar davomida xalqimiz ma’naviyatining shakllanishida muhim manba bo’lib kelgan “Qur’oni karim”, Hadisi shariflarda, shuningdek, buyuk mutafakkirlar Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Muhammad Iso at-Termiziy, Mahmud Qoshg’ariy, Abu Nasr Forobiy, YUsuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Amir Temur, Alisher Navoiylarning ilmiy merosida nodir fikrlar tarzida o’z ifodasini topgan.

Mazkur fikrlarning tasdig’ini Abu Rayhon Beruniyning talaba faoliyatiga bergan izohidan ham ko’rishimiz mumkin bo’ladi. Beruniy yoshlarni o’qitish uchun talaba tanlash ota-onaning birinchi va asosiy vazifasi deb bilgan. Buning uchun talaba xushmuomala, rostgo’y, o’z fanini va o’qitish qoidalarini yaxshi biladigan, pokiza, yurish va turishda namuna bo’lishini talab etadi.

Agar, – deydi Beruniy, – tarbiyachining o’zi o’rnak bo’lmasa, aytgan gapiga o’zi rioya etmasa, uning talabi va tarbiyasi samarasizdir1. Yangi davr pedagogikasining asoschilaridan sanalmish Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat asarlarida ham ta’lim-tarbiya va bu jarayondagi talabaning o’rni va xizmatlari davrning ijtimoiy-siyosiy hayotidan kelib chiqib, o’ziga xos ravishda talqin etilgan.

Jumladan, Abdulla Avloniy talaba faoliyatiga alohida to’xtalib, bolaning fikriy taraqqiyotini oilaga emas, maktabga, muallimlar zimmasiga yuklaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko’p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g’ayratli, bo’lishiga sabab bo’ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog’liqdir”, – deydi [3]

Darhaqiqat, Abdulla Avloniy talabaning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga keng ta’rif berib: tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ya’ni axloqli, odobli, bilimdonligi,

ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi ta’lim- tarbiya jarayoni uchun asosiy negiz bo’lsa, ijodiy izlanish o’qish va o’qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish talabaning eng muhim kasbiy sifatlaridan ekanligini uqtiradi. Bu bilan Abdulla Avloniy talaba faoliyatiga nisabatan akmeologik yondashuvni o’z davri qiyofasida olg’a suradi.

Abdurauf Fitratning asarlarida ham ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor beriladi. Xususan, olim ta’lim-tarbiya jarayoni, ayniqsa, talaba talabalarning o’zaro muloqotini tashkil etish, olib borishda eskicha qolipdan chiqib yangi islohotlar qilish kerakligi, buning uchun esa, mudarrislarning (eski maktab talabasi) nodonligiga chek qo’yib, ularni o’qitish usullarini talabalarning individual qobiliyatlariga qarab tubdan o’zgartirish zaruratini bayon qiladi[1] Uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali boshlang’ich ta’lim talabalarni kasbiy malaka muammosi bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda.

So’nggi yillardagi zamonaviy pedagogik-psixologik malakaviylarda boshlang’ich ta’lim talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish muammosi keng doirada o’rganilib, uning ilmiy-nazariy asoslari shakllantirildi.

Uzluksiz ta’limning muhim bo’g’inlaridan bo’lgan o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimida ta’lim sifatini boshqarish va nazorat qilishning nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari esa U.I. Inoyatov tomonidan keng o’rganilgan. U.I. Inoyatov o’z malakaviylarida kasb-hunar kollejini samarali boshqaruv tuzilmasini shakllantirgan holda ta’limda sifat nazoratini amalga oshirish modelini ishlab chiqqan [5]

Pedagog olim N.A.Muslimovning pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasi asosida o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida faoliyat olib boradigan kasb ta’limi talabalarining kasbiy shakllanishi muammolari, uning kasbiy-pedagogik faoliyatini modellashtirish, bo’lajak kasb ta’limi talabasini tayyorlash jarayonini standartlashtirishning metodik asoslari, bo’lajak kasb ta’limi talabasining shakllanganlik darajasini baholash metodikasi va pedagogika fanlarining bo’lajak kasb ta’limi talabasini kasbiy shakllantirishdagi imkoniyatlari kabi muammolarning amaliy echimiga alohida e’tibor qaratilgan [6]

Amalga oshirilgan ilmiy ishlar pedagogik tushunchalarni aniqlashda turli falsafiy-metodologik yondashuvlar mavjud bo’lgan hamda hozirda ham mavjudligi ko’rinmoqda.

Dastlab, “ta’lim” tushunchasiga to’xtalamiz. B.M.Bim-Badning ta’rifiga ko’ra, ta’lim o’zida tarbiya, o’qish va o’qitishni qamrab oladi.

V.I.Andreev «ta’lim»ni «madaniyat»da o’z aksini topuvchi, o’qitish va tarbiya orqali amalga oshiriluvchi hodisa sifatida talqin qiladi. o’z navbatida “o’qitish” kategoriyasi insonning “ta’limi”, “tarbiyasi” va “rivojlanishi” tushunchalari orqali ochib beriladi.

Ba’zi adabiyotlarda “rivojlanish”, “shakllanish” va “malaka” orqali amalga oshadi deb qayd etilsa, boshqalarida “malaka” “rivojlanish” orqali deb ta’kidlanadi. Bunga qaramasdan, ko’plab mualliflar “rivojlanish” tushunchasining nisbatan kengroq va qamrovliroq ekanligini va shaxsning asosiy motivatsion ehtiyojlari, kognitiv, irodaviy va tashkil etuvchilari o’zgarishlar dinamikasini ifodalashda ko’proq qo’llanilishini e’tirof etadilar.

Ma’lum ma’noda murakkabroq bo’lgan “rivojlanish” tushunchasidan farqli ravishda, “malaka” tushunchasi ko’proq darajada tashqi va ichki omillarning faol shakllari ta’sirida shaxs rivojlanishiga ta’sir ko’rsatishning natijasini o’zida aks ettiradi.

Zamonaviy fanda ijtimoiylashuv tushunchasi shaxsning malakai va individuallashish jarayonlarini o’zaro bog’laydi. ...Bu jarayon uch asosiy sohada amlga oshadi:

1. Faoliyat turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo’lga kiritish, erkin mo’ljal olish.
2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me’yorlarini o’zlashtirish.
3. Shaxsiy “Men” obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o’z ijtimoiy mansubligi va o’rnini anglash, o’ziga baho berishni shakllantirish1.

Kasbiy malaka uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, kasb tanlash motivatsiyasi, balki ushbu faoliyat turi bilan shug’ullanishga nisbatan layoqatning mavjud bo’lishi ham talab etiladi.

Yuqorida tahlil etilgan ta’riflardan shu holat ma’lum bo’ldiki, bir guruh olimlar shaxsning kasbiy malakai tushunchasini motivlar tizimi, ikkinchi guruh olimlar shaxsning tashqi olamga bo’lgan ustuvor qarashlar hamda uchinchi guruh olimlar inson faoliyatini belgilab beruvchi xususiyatlar sifatida talqin qiladilar.

Yuqoridagi fikrlarni umlashtirigan holda, kasbiy malaka – shaxs kamolotining muhim jihatlaridan biri bo’lib, shaxsning faqatgina mehnat va kasbiy faoliyatni tanlash bilan bog’liq ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi (umumiy rivojlanish barcha ehtiyojlar majmuasini, uning borliqqa, atrofdagilarga, o’ziga nisbatan munosabatlari tizimini ifoda etadi).

Kasbiy malaka – mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan bog’liq, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodalanishi bo’lib, talabalar bilan amalga oshiriladigan maqsadga yo’naltirilgan ishlar bilan bevosita bog’liq bo’ladi.

Shunday qilib, kasbiy malaka bo’lajak mutaxassisda pedagogik faoliyatga bo’lgan ehtiyojni rivojlantiruvchi, unga nisbatan mas’uliyatli hamda ijodiy yondashuvni, ijtimoiy qadriyatlar motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda shaxsga qaratilgan yo’nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o’zaro integratsiyasi sifatida qarash mumkin Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish talab etiladi.

“Kasb tushunchasi –bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o‘tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo‘lib xizmat qiluvchi mashg‘ulotdir. Kasb bir xil faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilarni birlashtiradi va bu faoliyat ichida ma’lum aloqalar va axloq normalari o‘rnatiladi”.

“Kasbiy imkoniyatlar –ma’lum faoliyatning shaxs irodasi bilan bog‘liq obektiv shart-sharoitlarini o‘zida aks ettiradi”.

Pedagogik olim V.A.Slastenin “bo‘lajak talabalar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini tadqiq etar ekan, yuksak professionalizm, ya’ni kasbiy etuklikka erishishning obektiv omillariga olingan ta’limning sifatini, subyektiv omillariga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo‘nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali xal qila olishdagi mas’uliyati va mutaxassislikka yondashuvini kiritadi”.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveytsariya, Germaniya, Malaziya, Kanadaning mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liq tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’limning asosiy vazifasi “Talabalarda tanlangan mutaxassislikning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta’minlanadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabr “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdqilash to‘g‘risidagi” PQ-4312-son Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son Qarori.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARNI IMPROVIZATSION QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA VOSITALARI

Kasimova Odinaxon Alimjanovna
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik improvizatsiya orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratlarini oshirish, ta'lim tizimidagi pedagogik improvizatsiyaning ahamiyati, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida improvizatsiyani amalga oshirishning metod va vositalari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: improvizatsiya, pedagogik improvizatsiya, improvizatsiya xarakteri, boshlang‘ich sinf, pedagogik muloqot, pedagogik ijodkorlik, improvizatsiya mezonlari, metod, vositalar, imitatsion modellashtirish.

Keng qamrovli jarayonni ishlab chiqish uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida improvizatsiya qilishga tayyorligining har bir jihatini shakllantirishda eng samarali bo‘lishi mumkin bo‘lgan pedagogik vositalar, usullar, texnikalar va shakllarni aniqlash kerak. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik improvizatsiyadan foydalanishga tayyorlash bo‘yicha faoliyatni texnologizatsiya qilish nuqtai nazaridan bunday tayyorgarlik vositalari masalasi juda muhimdir.

Turli xil o‘quv manbalarda nafaqat darsliklar va vizual qo‘llanmalar kabi moddiy ob'ektlarni, balki aqliy faoliyatni amalga oshirishga yordam beradigan intellektual vositalarni ham ajratishga alohida e'tibor qaratamiz. Ushbu intellektual vositalar insonga ob'ektiv voqelik to‘g‘risida bilvosita va umumlashtirilgan bilimlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Keyinchalik, “o‘qitish vositasi” tushunchasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida “vositachi” vazifasini bajaradigan, ta'limning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlariga erishishga qaratilgan moddiy ob'ektni aniqlash maqsadida foydalaniladi. Pedagogik tadqiqotlar sohasida turli mualliflar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan turli xil o‘quv vositalarini tahlil qiladilar:

1) didaktik o‘yin;
2) ta’limiy vazifalar;
3) dasturiy - pedagogik vositalar;
4) ta’limiy loyihalari;
5) muammoli ta’lim va boshqalar.

Didaktik yo‘nalishga ega bo‘lgan bir vaqtning o‘zida o‘quv funktsiyasini bajaradigan bunday pedagogik vositalarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu vositalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatida ma'no izlashga undaydi, bu esa kasbiy - pedagogik faoliyatda improvizatsiyani samarali amalga oshirish uchun zarur shartdir.

“Pedagogik vosita” – bu “metod”, “shakl” va “uslub” kabi ko‘plab jihatlarni birlashtirgan murakkab tushuncha hisoblanadi. Ushbu kontekstdagi metod - bu ta'lim maqsadlariga erishish uchun o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq o‘zaro munosabatlarni tashkil etishga qaratilgan tartibga solish printsiplari va qoidalari tizimi. Metodningning asosiy vazifasi ta'lim faoliyatida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishdir. Pedagogikada metod tushunchasiga kiritilgan g‘oya o‘qituvchining maqsadga muvofiq harakatlariga ko‘rsatmalar berishdir. “Metod” tushunchasi ichki va tashqi birlikni, mazmun va shaklni, shuningdek nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi. Shu ma'noda, metod ob'ektiv muntazamlik bilan bog‘liq bo‘lgan ichki qoidalardan kelib chiqadigan printsiplar va o‘zaro ta'sirni tashkil qilish usulining tashqi ifodasi sifatida shakllarning birlashmasidir.[2,17]

Metod harakat qoidalarini va harakat usullarini, printsiplar tizimini va ularni amalga oshirishning tashqi tashkiliy shaklini o‘z ichiga oladi. Metodlarni pedagogik vositalar bilan bog‘lash mumkin. Ammo har qanday vosita metod emas, balki faqat

ta'lim jarayonida o‘zaro hamkorlik qilish metodni tavsiflovchi usul.

O‘qituvchi uchun metodni shakllantirishda asosiy hal qiluvchi omil pedagogik maqsad hisoblanadi. Aynan shu maqsad atrofida turli xil vositalar, pedagogik o‘zaro hamkorlik, ishtirokchilarning pozitsiyalari va foydalanilgan metodlarning ta'siri tashkil etiladi va birlashtiriladi. Pedagogik uslub - bu muayyan sharoitlarga moslashtirilgan harakat usuli. Uslub metod yoki pedagogik texnologiyaning nisbatan to‘liq elementidir. Bu pedagogik jarayonining aniq sharoitlarida o‘quvchiga ta'sir qilishning barqaror usuli bo‘lib, ma'lum bir pedagogik vazifa bilan bog‘liq. Shunday qilib, metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlasa, uslub tog‘ridan to‘g‘ri pedagogik hamkorlik jarayonini tavsiflaydi.

Turli xil uslublar o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqada zarur ichki va tashqi ta'sirlarni keltirib chiqarish qobiliyatiga asoslangan. Ushbu metodlardan foydalangan holda o‘qituvchi inson tuzilishi haqida bilimlarini chuqur darajasiga yoki shaxslararo munosabatlar tuzilishiga zarur pedagogik ta'sir darajasini aniqlaydi.

Turli xil uslublar o‘quvchilar bilan muloqotda zarur ichki va tashqi ta'sirlarni keltirib chiqarish qobiliyatiga asoslangan. Ushbu uslublardan foydalangan holda o‘qituvchi inson tuzilishining tubida yoki shaxslararo munosabatlar tarkibida kerakli ta'sir darajasini aniqlaydi. Ular ta'lim faoliyatida o‘ziga xos psixologik, tashkiliy va kommunikativ fonni shakllantiradi, odamlar o‘rtasida maxsus munosabatlarni yaratadi.

Zamonaviy pedagogikada turli g‘oyalarga asoslangan pedagogik vositalarni tasniflashga ko‘plab yondashuvlar mavjud. Ko‘pincha tadqiqotchilar usullarni asosiy pedagogik vositalar sifatida tasniflashdan foydalanadilar. Shu o‘rinda improvizatsion ko‘nikmalarni shakllanishida quydagi bosqichlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1.**Imitatsion - modellashtirish** vositalariga turli xil shakllarda real kasbiy va pedagogik faoliyat (rol ijro etish) vaziyatlarini bajarish kiradi. Shu bilan birga, “rol ijro etishda” ishtirok etadigan har bir talaba alohida rol (fan o‘qituvchisi, sinf o‘qituvchisi, maktab direktori, talaba, ota-ona) o‘ynaydi. Imitatsion - modellashtirish vositalari - bu rol nuqtai nazari printsipiga asoslangan mashqlar. Ushbu tamoyil, talaba u yoki bu rolni o‘z zimmasiga olib, o‘qituvchining faoliyatida zarur bo‘lgan improvizatsiya qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishdab iborat. .[5,123]

2. Talabalar iprovizatsiyani o‘rganish jarayonida o‘yin usullaridan foydalanish ularning pedagogik improvizatsiyaga tayyorlik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar tizimini rivojlantirishga hissa qo‘shishi bilan bog‘liq. Shuningdek, ular o‘zlarining yutuqlarini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, hamda ushbu turdagi ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishning motivatsion va hissiy jihatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar-bu maktabning o‘quv jarayonini modellashtiradigan vaziyatlarda o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga taqlid qilish sanaladi. O‘yin usullaridan foydalanish talabaning rolini shunchaki o‘quv materialni qabul qiladigan passiv tinglovchidan amaliy muammolarni hal qilish uchun nazariy bilimlarini faol ravishda qo‘llaydigan faol ishtirokchiga o‘zgartirish imkoniyati bilan tasdiqlanadi.

3. Loyihaviy vositalar. Loyihaviy vositalardan foydalanishning maqsadi kasbiy - pedagogik faoliyatni loyihalash va modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish va uning pedagogik improvizatsiya zarur va mumkin bo‘lgan qismlarini aniqlash sanaladi.

Ularning roli, ayniqsa, improvizatsiya faoliyatining texnologik asoslarini o‘zlashtirish bosqichida va improvizatsiya faoliyatini kontseptualizatsiya qilish (refleksiyalash) bosqichida juda katta.

Loyihaviy vositalar birinchi navbatda treningni o‘z ichiga oladi. Ushbu usul kasbiy faoliyatning bir biriga zid bo‘lgan holatlarida barqaror fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Trening kerakli harakatlarni bir necha bor bajarish asosida ularni avtomatlashtirilgan holda bajarilishiga etkazishni ta’minlaydi. Uning natijasi barqaror shakllangan kasbiy va shaxsiy xususiyatlar - ko‘nikma va malakalardir. Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z his-tuyg‘ularini mohirona boshqaradi, agar ular kasbiy vazifalarni bajarishga xalaqit bersa, o‘z harakatlarini nazorat qilsa va ularni boshqa odamlarning manfaatlari nuqtai nazaridan yetarli darajada baholansa, istaklarini ijobat qiladi.

4. Kasbiy sinov usuli pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshiriladi va pedagogik o‘zaro hamkorlikning real sharoitida improvizatsiyadan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan.

Kasbiy sinov metodi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida improvizatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta'limda qo‘llaniladigan samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini hamda pedagogik o‘zaro hamkorlini real sharoitda qo‘llashga imkon beradi

Kasbiy sinov metodi pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu metodni qo‘llash bo‘alajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga real pedagogik faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni modellashtiradigan bir qator vazifalarni bajarish taklif etiladi. Masalan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga quyidagi vazifalar taklif qilinishi mumkin:

Belgilangan mavzu bo‘yicha dars o‘tkazish;

Darsdan tashqari tadbirni tashkil qilish;

Ota-onalar bilan konsultatsiya olib borsih;

O‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilish.[7,124]

Ushbu vazifalarni bajarishda bo‘alajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarga tez va etarli darajada javob berish, yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilish uchun o‘zlarining improvizatsiya qobiliyatlarini namoyish etishlari kerak.

Amaliyotda mavjud bo‘lgan deyarli barcha pedagogik vositalar ikkita diagnostika va shakllantirish funktsiyani bajaradigan turlarga bo‘linadi.Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning improvizatsiyaga tayyorligini rivojlantirishga yordam beradigan asosiy pedagogik vosita refleksiya sanaladi. Ular talabalarga pedagogik improvizatsiyaga bo‘lgan munosabatini aniqlashga, kasbiy faoliyatda improvizatsiyani muvaffaqiyatli qo‘llash uchun zarur bo‘lgan umumiy va maxsus qobiliyatlarning rivojlanish darajasini baholashga yordam beradi.

Bundan tashqari, ushbu komponentning shakllanishini rag‘batlantirish uchun o‘qituvchining ijodiy faoliyati zarurligini ko‘rsatadigan pedagogik vaziyatlarni yaratish juda muhimdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning improvizatsiyaga tayyorligining mazmunli - semantik tarkibiy qismini shakllantirishga yordam beradigan asosiy pedagogik vositalarga analitik vositalar kiradi. Ular kasbiy -

pedagogik faoliyatda improvizatsiyani muvaffaqiyatli qo‘llash uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kasbiy - pedagogik faoliyatda improvizatsiyaga tayyorligining shaxsiy-refleksiv komponentini shakllantirishni samarali qo‘llab-quvatlaydigan asosiy pedagogik vositalar qatoriga biz proektiv va refleksiv vositalarni kiritamiz. Bu talabalarni yaxlit loyihaviy mashg‘ulotlarga kiritish asosida seminar va amaliy mashg‘ulotlar orqali kasbiy - pedagogik faoliyat parchalarida qatnashadilar. Biroq, faqat auditoriya mashg‘ulotlari doirasida talabalarning kasbiy- pedagogik faoliyatda improvizatsiya qilishga tayyorligini rivojlantirish juda qiyin, chunki ular ko‘pincha yaxlit pedagogik faoliyatga emas, balki uning alohida elementlariga bag‘ishlangan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni kasbiy - pedagogik faoliyatda improvizatsiyaga tayyorlash amalga oshirilgan yaxlit faoliyat empirik tadqiqotlar jarayonida ikki yo‘nalishda tashkil etilgan:

1) pedagogik amaliyotning har xil turlarini tashkil etish;

2) darsdan tashqari, ijodiy faoliyat.

Bunday faoliyatda talabalarning yuqori motivatsiyasiga tayanish mumkin, chunki talabalar ixtiyoriy ravishda, o‘z xohishiga ko‘ra, qiziqish va ishtiyoq bilan shug‘ullanadilar.

Pedagogik jarayonda yaxlit hodisa sifatida improvizatsiyaga tayyorlikni shakllantirishda etakchi vositalar sifatida taqlid-modellashtirish va proektsion vositalarni hisoblash mumkin. Bunday vositalar shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega xususiyat sifatida kasbiy - pedagogik faoliyatda improvizatsiyaga yaxlit tayyorgarlikning faol holatini faollashtiradi hamda rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva, Sh. Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik.- T.: Fan va texnologiyalar, 2019.
2. Абдуллаева М.И., Абдуллаева Ш.М. Педагогическая импровизация в условиях цифровой трансформации образования Вестник Ташкентского государственного педагогического университета. - 2022. - № 2. - С. 17-23.
3. Jo‘rayev A. Improvizatsiya ta’limning muvaffaqiyatli amlaga oshirish vositasi sifatida. // O‘zbekiston Respublikasi pedagogika fanlari Akademiyasi axborotnomasi. 2023. T. 2. № 1. 102-107 betlar.
4. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. М., 1987
5. Кузнецова, О. В. Развитие критического мышления у будущих учителей средствами импровизации. \\ Журнал педагогических исследований, (2023). 10 (2), 123-136.
6. Клюшин А.И. Импровизация в педагогической деятельности Педагогика. - 2022. - № 1. - С. 85-92.,
7. Шишова, Т. А. Импровизация в педагогической деятельности Вестник Челябинского государственного педагогического университета. - 2018. - № 7. - С. 124-130.].

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF EDUCATIONAL WORK IN KINDERGARTEN

Kashkinbayeva Zagira Kojabergenovna
Candidate of pedagogical sciences,Associate Professor
Taraz Regional University named afterM.Kh.Dulaty
(Taraz, Kazakstan)

Annotation. The article considered the pedagogical foundations of the organization of educational work in kindergarten, studied the theoretical side of the issue, focused on the works of domestic and foreign scientists.

Key words: Kindergarten, preschool child, educational work, forms of educational work

In the XXI century, changes in the field of Education have led to the emergence of many modern problems. One of them is the peculiarities of organizing educational work in a preschool organization, that is, the development of educational technologies. The formation of preschool education is one of the most pressing issues of modernizing the system of preschool education.

Organization of educational work in a preschool organization – finding ways to effectively perform active forms of work with a child. Educational work is a process aimed at developing and improving the child's body, mind, and moral qualities[1;15]. Therefore, the organization of educational work in a preschool organization is a system consisting of a complex of work on the comprehensive development of a child. In addition, the organization of educational work in a preschool organization in a game version provides an easy implementation of educational work.

Develops an annual plan for the activities of a preschool organization in accordance with the requirements of the state mandatory educational standard of preschool education and training. In the work of a preschool organization, educational work is considered one of the main sections. The program of all works carried out in the preschool organization was approved and tested in stages. In general, kindergarten is the starting point of all education. In addition, the kindergarten is an organization that works closely with the family and parents.

The foundation for the formation of individual abilities and spiritual values of preschool children is laid by kindergarten. Improves children's social abilities, such as the ability to get along, perform roles, help, receive tasks, and perform tasks.In kindergarten, the activity of a teacher is carried out in teaching a child to perform tasks, creating a subject-developing environment for development. The creative activity of all teachers, i.e. specialists of preschool organizations, is expressed in a joint collective form.Tasks for managing the education system in a preschool organization are related to: collecting, analyzing, monitoring statistical reports on the problem of education, setting long-term goals.

In the planning of educational work, the world experience, taking into account the age and individual characteristics of the child, is guided by modern goals and objectives of preschool pedagogy [2]. Methodological activity in the work of a preschool

organization, the choice of effective methods and methods of management-contributes to the correct formation of pedagogical management.

Management of the educational process is guided by the following principles::

- respect and trust in the child's personality;
- cooperation with the child;
- innovation;
-establishing partnerships with parents.

The main responsible persons in the organization of educational work are methodologists and teachers of preschool organizations.

The preschool organization carries out all the necessary work for the upbringing of children, in particular, health-improving, healing, hardening, and physical development related to the child's health. The results and indicators of the educational work carried out here are analyzed during the year and at the end of the year. Therefore, the upbringing of children will be one of the most pressing issues facing society. Educational work depends on the expansion of the spiritual world of the child's development.

Educational work performs the following tasks::

- organizational: regulates the Coordination of interaction of children participating in the educational event;
- regulatory: allows you to regulate social relations;
- informational: promotes the accumulation of new data.

In a broader sense, education is the transfer of adult social experience to a child, which ensures the preparation of the child for life and work. In a narrow sense, it is a purposeful and purposeful process aimed at the formation of the child's personal qualities. In a local sense, we can call the formation of one of the individual qualities of the child, discipline, and ethics.

In order to properly organize the educational process and prepare children for school in a preschool Organization, clear principles and methods are needed. In the organization of educational work with children in the activities of preschool organizations, educational work is planned and carried out in the areas of development of intelligence, intelligence, aesthetic abilities and tastes, hard work and hard work, physical development and strength, etc. [3].According to the type of external organization, the forms of education are divided into two parts: group and collective. The group Type includes: children's matinees, Creative Works, small circles. The collective type includes children's stage performances related to various significant holidays, parties, trips, and sports competitions.

Conducting educational work with children should be a daily plan for the teacher to improve their skills. In our people, it is necessary to adhere to the proverb" do not educate your child with your own upbringing, educate your nation with your own". Therefore, it is necessary to influence the child's consciousness in all educational activities to learn the language, religion, traditions and customs of their nation.A kindergarten specialist can find his way to the child's heart only when he is a seeker, a master. All educational measures should contribute to the child's personality. For this purpose, kindergarten specialists should improve their professional skills in special

courses. Pedagogical work is a characteristic of creativity. Therefore, the teacher must be a creative person.

Children are the future of our country. The essence of kindness and upbringing, which is given to the child from an early age, is the food of his life. At the same time, the issue of providing a child with advanced educational directions, demonstrated by world experience, is relevant today. Only then will the child become closer to the search, creative work, and the result of educational activities will be positive.

The organization of work on the upbringing of preschool children in a preschool organization is not on the agenda. The content of all types of education is to improve the child physically and spiritually. Improving the quality and effectiveness of pre – school education is one of the most pressing problems of modern pedagogical science.Proper development of the child's body, normal psychological and behavioral norms require the implementation of various educational activities. Educational work is carried out in several areas. One of them: physical education. Physical education of preschool children considers the issues of improving the functions of the child's body, increasing performance, and strengthening health. Despite the rapid maturation of the body, the deterioration of its activity and defense abilities quickly leads to the fact that the child is exposed to adverse external influences and becomes ill [4].

Therefore, it is necessary to promote the timely maturation of the child's bone and joint apparatus, the correct formation of the lumbar spine, and the correct maturation of the soles of the feet. It is necessary to promote the development of all organs of the child's body, muscles, cardiovascular system, skeletal bones, respiration, nervous system and sensory organs.The main goal of physical education is to improve children's movements, develop motor skills and flexibility of the body.

Conditions necessary for the formation of a child's physical education:

- personal temperament, good knowledge of character traits, tastes and attitudes;
- determine the level of formation of qualities of interest, motivation, value judgment, etc.;
- gradually complicate the work of involvement in educational activities;
- change the tactics of education in case of difficulties;
- more confidence in your own activity and strength;
- focus on achieving success, guided by activity, independence.

In the development of a primary school student, attention was drawn to the fact that the history of the development of Physical Culture began very early. At the same time, it was determined that at each stage of Social Development, the requirements, desires, and demands for types of Education change.The preschool period is the time of formation of a child's intelligence. At this stage, the child begins to be imitative, impressionable, learn to speak and think. In preschoolers, there is a regularity of intelligence, the beginning of normalization of language and speech [5]. At this time, the child begins to express his inner self.

Educational plan-systematization of pedagogical influence, ensuring the fulfillment of pedagogical requirements, consistency and effectiveness of management of educational measures established in it. The educational plan contains a strategic goal, forms of its implementation, topics and directions that correspond to the age characteristics of pupils.

Direction 1: improving the content and quality of educational activities;

Direction 2: inclusion of types of educational activities that correspond to the individual and individual characteristics of pupils;

Direction 3: formation of criteria for evaluating the upbringing of pupils.

If we look at how the goal of education changes, we can see how important it is to define the goal of Education. Education is a social phenomenon, without which the life of any society is impossible to advance. Therefore, the comprehensive development of the individual is a single whole of the development of the body and mind [6].

In preschool age, the child develops the structure of the body and mind together, and moral qualities are formed. The child is immersed in the work of thought, learns the richness of spiritual life, is prepared to work actively in the spheres of society, and is formed morally.

The implementation of the general goal of education is the interrelated implementation of Educational Directions. It depends, of course, on the skills and general training of the teacher. The educational process is aimed at forming the most important educational qualities of the child, expanding the circle of communication with society, people and yourself. Therefore, the educational process is built in accordance with the harmonious formation and development of students in a full-fledged social environment.

Requirements for educational plans:

- Purposefulness: compliance of education with the requirements of society, goals;

Ch reality: compliance of forms and methods of education with the age and individual characteristics of children;

- Diagnostic: constantly study the requirements of educational work, monitor progress or make forecasts;

- Continuity: compliance with the principles of continuity, consistency, and connection in educational work;

- Effectiveness: achieving the goal and obtaining its results.

The teacher needs to know when planning educational work:

* Goals and objectives of Education;

* Age of pupils, level of development of groups of children, conditions of Education;

* It is necessary to clearly define the educational plan and the time of its implementation.

* Principles of educational work:

* Purposefulness of educational work;

* Taking into account the age characteristics of pupils;

* Consistency of educational work;

* Take into account the creative nature of educational work.

When planning educational work, it is necessary to take into account the following conditions::

- knowledge of the results and conclusions of educational work;

- knowledge of organizational and pedagogical tasks of educational work;

- knowledge of the methodological system of educational work;
- knowledge of best practices.

One of the most important tasks is to study the theoretical and methodological foundations of educational work in the development of a child's personal qualities, develop the structure and content in accordance with the age characteristics of the child. The educational plan is a document that combines comprehensive methods of developing the spiritual and physical qualities of a child. It is necessary to clarify and take into account the terms and means of its implementation, laws and principles.The role of teachers in the direction of adapting the child to the environment and improving his personal qualities is the beginning. For this purpose, collective participation in socially significant sports, cultural, art, education, science, etc.activities for the development of the child is of great importance. The child should grow up aware of the care and conditions created by the state, understanding his duty to society.

List of used literature

1. Imanbayeva S.T. Theory and methodology of educational work. Textbook. - Almaty, 2017. - 343 P.
2. Kozlova S.A. Doskolnaya pedagogy. - Moscow: Academy, 2020. - 432 P.
3. Bekmagambetova R.K. Fundamentals of adult pedagogy. -Almaty:Almanac, 2021. - 171.
4. Miklyakova N.V. Creation of conditions for effective interaction with the family. - Moscow, 2006. -110.
5. Doronova D.N., Glushkova G.V. Together with the family. - Moscow, 2005.
6. Solodyankina O.V. Cooperation of the preschool institution with the family. - Moscow, 2004.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING YANGILANISH JARAYONIDA INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Kenjaboyeva Nigora Mamayusufovna
Surxondaryo viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi innovatsion faoliyatining asosiy jihatlarini ochib berilgan. Unda boshlang‘ich sinflardagi innovatsiyalar kichik yoshdagi o‘quvchilarni tarbiyalash va ta’lim sifatini oshirishga qaratilganligi, ta’limning yangilanishi va yangi mazmuni bilan bog‘liq holda metodik va muammoli innovatsion jarayonlar, ilk ta’lim davrida innovatsiyalarning joriy etishda kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, ta’lim texnologiyalarini yangilash, ta’lim xizmatlari sifatini oshirishga ustuvorlik berish lozimligi haqidagi fikrlar qalamga olingan.

Kalit so‘zlar: innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyat, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, boshlang‘ich maktab, texnik innovatsiyalar, ta’lim innovatsiyalari, darsdan tashqari innovatsiyalar.

Ma’lumki, hozirda mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish masalalariga oid tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

“Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunida innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, innovatsiyalar yaratish uchun davlat buyurtmasi, texnologiyalar transferi, yangi ishlanma kabi tushunchalarga izoh beriladi. Jumladan, “innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma” deb, ta’rif berilgan bo‘lsa, “innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyat” [1] deb, ta’riflanadi.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarash lozim. Iqtisodiy adabiètlarda “innovatsiya” tushunchasiga ta’rif berish uchun turli xil èndashuvlar paydo bo‘la boshladi. Masalan, E.A.Utkinning fikriga ko‘ra, innovatsiya deganda “ishlab chiqarishga joriy etilgan obyekt” [2] tushuniladi.

So‘nggi o‘n yillikda mamlakatimizda maktab ta’limi tizimidagi innovatsion jarayonlar, shu jumladan, boshlang‘ich sinflardagi yangiliklarnio‘rganishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyatida yangi uslub va texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyati kichik yoshdagi o‘quvchilarda bilim olishga qiziqishni rivojlantirish, ularning shaxsini shakllantirish, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyati ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, ta’lim jarayoniga yangiliklarni kiritish bilan tavsiflanadi. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ko‘plab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu birinchi navbatda kichik yoshdagi o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga bog‘liq. Bu boshlang‘ich maktabdagi innovatsiyalarning xos xususiyatlari va tabiatida bevosita yoki bilvosita ta’sir qiladi.

Boshlang‘ich sinflardagi innovatsiyalar, birinchi navbatda, kichik yoshdagi o‘quvchilarni tarbiyalash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Samarali innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishi, uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik mahoratni kashf etishi muhimdir. Boshlang‘ich maktab o‘quv jarayonida faol va interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish innovatsion hisoblanadi [3].

Ko‘pgina boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari innovatsion jarayonning bir qismi sifatida dars sxemasidan emas, balki o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun tavsiyalar beradigan texnologik xaritadan foydalanadilar. Texnologik xarita kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘qitishning asosiy maqsadiga erishishga qaratilgan: qanday o‘rganishni o‘rgatish [4]. Bunda materialni oddiy tushuntirish va uni mustahkamlash emas, balki o‘quvchi ta’lim jarayonining ishtirokchisiga aylanadi, ya’ni o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga asosiy e’tibor beriladi. Shuningdek, boshlang‘ich

sinflarda innovatsion jarayon sinfdan tashqari ishlarni qamrab olishi kerak. Bugungi kunda bolalarni maktabdan keyingi mashg‘ulotlarga qiziqtirish juda muhim, bu esa, maktabdan tashqari mashg‘ulotlarni ta’lim va tarbiya uchun to‘liq huquqli makonga aylantirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilar uchun sinfdan tashqari ishlarni yangicha usulda qurish imkoniyatiga ega.

Boshlang‘ich sinflarda innovatsiyalarni rivojlantirishni quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin:

ta’limni individuallashtirish va differensiallashtirish maqsadida yangi tipdagi maktablarni yaratish;

yangi o‘quv kurslarini yaratish va joriy etish, ta’lim mazmunini o‘zgartirish;

darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, dasturlar ishlab chiqish;

innovatsion texnologiyalar, usullarni joriy etish; eksperimental maydonlarni, sinflarni yaratish;

o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish [5].

Yuqorida ta’kidlanganidek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyati yangi shakllar, usullar va o‘qitish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Yaqin vaqtgacha kichik maktab o‘quvchilari dars berishda «Alifbo» kitobidan foydalangan holda bitta usul bilan shug‘ullanishgan.

Hozirgi vaqtda zamonaviy dunyoda ta’limning ko‘plab usullari va dasturlari mavjud. Ta’lim tizimini yangilashdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchi salomatligini asrab-avaylagan holda ta’limni takomillashtirish, iste’dod va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishdan iborat. Barcha maktablarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartiga[6] o‘tgandan so‘ng, o‘quv-biluv faoliyati qobiliyatni rivojlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoniga aylanadi.

Yangilanish jarayonida innovatsion texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Erta maktab yoshida aqliy qobiliyatlarning intensiv rivojlanishi sodir bo‘ladi.

Bu bosqichda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda uning keyingi ta’lim olishiga mustahkam zamin yaratadi, bu esa, o‘quv materialini taqdim etishning turli usullarini qayta ko‘rib chiqish zarurligiga olib keladi.

Yangiliklardan biri MacBook-dan boshlang‘ich maktabda foydalanishdir. MacBook boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga o‘rganishni oson va qiziqarli qilish imkonini beradi. Tasvirlar, videolar va audiolar bilan ta’lim loyihalarini yaratish uchun MacBook-dan foydalanishingiz mumkin. MacBook yordamida siz qo‘shiqlarni yozib olishingiz va tahrirlashingiz, raqamli taqdimotlar va portfellar yaratishingiz va videolar tayyorlashingiz mumkin. MacBook va uning ilovalari ta’lim jarayonida qo‘llanilishi o‘quv dasturi talablariga to‘liq javob beradi. Bundan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich sinflarda MacBook dan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qiladi:

MacBookda ishlash imkoniyatlari bilan tanishish;

MacBook-dan foydalanish samaradorligini ko‘rsatish;

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning ta’limini osonlashtirish va diversifikatsiya qilish.

O‘qituvchilar MacBook-dan savodxonlik va yozish darslarida foydalanishlari mumkin. Bu kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini boyitish va rivojlantirishga, ijodiy va matematik ko‘nikmalarni, algoritmik fikrlashni shakllantirishga, multimedia

texnologiyalari va dasturlash asoslarini, shuningdek, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi [7].

Xulosa, boshlang‘ich sinflarda innovatsiyalarning joriy etilishi kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, ta’lim texnologiyalarini yangilash, ta’lim xizmatlari sifatini oshirish, davlat buyurtmasini bajarishga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-630-son

2. Кулагин А. Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. 2011 г. Ст. 54-55.

3. Ходырева, Е.А. Инновационная деятельность в образовании: основные тенденции и приоритеты [Электронный ресурс] / Е.А. Ходырева // Научнометодический электронный журнал «Концепт». – 2016. – № S1. – С. 46-50. – URL: http://e-koncept.ru/2016/76010.htm.

4. Гусенко, В.В. Методика исследования инновационного опыта современной отечественной сельской школы [Текст]: Дис. ... канд. пед. наук / В.В. Гусенко. – Санкт-Петербург, 2009. – 240 с.

5. Нурмагомедов, Д.М. Подготовка будущих учителей начальных классов к инновационной деятельности [Текст] / Д.М. Нурмагомедов, Ш.Д. Камилова // Современные наукоемкие технологии. – 2011. – № 1. – С. 72-73.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187–son qarori.https://lex.uz/docs/3153714.

7. Данькина, О.Н. «Наш друг MacBook» (из опыта работы в условиях ФГОС) [Электронный ресурс] / О.Н. Данькина.

8. Xalilova, D. F. (2023). Bo ‘lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. Conferencea, 115–117. 6. Jalilova DU Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN, (2770-2367).

9. Sharipova, G. S. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI, UNING MAMLAKAT IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 823-832.

10. Sharipova, G. S. (2018). Role national decorative elements in edicfting young generation. Eastern European Scientific journal, (3), 90-94.

11. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(06), 12-15.

12. Sharipova, G. S., & Madaminjonova, M. S. (2022, April). BASIC CONCEPT IN CLOTHES DESIGN. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 12-15).

13. D Khalilov. Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2023/11/25.
14. Akbarovna, K. G. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 57-61.
15. ШАРИПОВА.Г.С. (2019). ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА НА ПРИМЕРЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся (pp. 260-268).
16. G. S. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI, UNING MAMLAKAT IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 823-832.
17. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(06), 12-15.

KREATIV TALABA- DAVR TALABI.

Kenjayeva Dildora Terkashevna,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya. Maqolada talabalar kreativligini o‘stirish davr talabi ekanligi, bunda milliy ta’lim-tarbiya tarixidagi pedagogik qarashlardan foydalanish yo‘llari bayon qilingan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi hamda sharq mutafakkirlarining ijodida ifodalangan akmeologik qarashlardan bugungi kun talablariga moslab foydalanish talabalar kretiv fikrlashlarini o‘stirishda ahamiyatli ekanligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: shaxs, talaba kreativlik, kretiv fikrlash, milliy ma’naviy meros, ta’lim – tarbiya

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Zamonaviy ta’lim ta’lim oluvchi talabalar oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- tezkor o‘zgarishlarga ko‘nikish, hayotiy faoliyat, shuningdek, mavjud muammolarni hal qilishda o‘zlashtirgan bilimlarini mohirlik bilan qo‘llay olish;

- mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lish, real borliq va yuzaga keluvchi muammolar mohiyatini anglay olish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ularni bartaraf etish yo‘llarini izlab topish;

- egallagan bilimlarni amaliyotda qo‘llashning samarali usullarini topish, yangi g‘oyalarni ilg‘ab olish va ijodiy fikrlash;

- axborot texnologiyalaridan o‘z vaqtida samarali foydalana olish va ularni qo‘llay bilish.

Demak, talabalar kreativ fikrlashlarini o‘stirishda uning mustaqil fikrlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta’lim tizimida talabalarni fikrlashga, o‘zlashtirilgan bilimlarni mushohada qilishga o‘rgatish zarurdir.

Sharq mutafakkirlarning asarlarida yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularni barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetkazishga oid pedagogik g‘oyalar, akmeshaxs tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari o‘z aksini topgan bo‘lib, ular bugungi kunda ham muhim pedagogik qiymatga ega. Ushbu asarlarda inson tafakkurini rivojlantirish, aqliy-axloqiy yetuklik va jismoniy barkamollik, estetik madaniyatni shakllantirish masalalari ham ilmiy, ham amaliy jihatdan o‘z yechimiga ega bo‘lgan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lgan doston, ertak, maqol va xalq qo‘shiqlarida, shuningdek, Yusuf xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mutafakkirlarning akmeologik qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishish chog‘ida yosh avlodda barkamol shaxsga xos fazilatlarni tarbiyalashga juda qadimdan alohida e’tibor berib kelinayotganligining guvohi bo‘lish mumkin. Jumladan, xalq maqollarida yoshlarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga oid qarashlardan samarali foydalanilgan bo‘lib, bu holat ayniqsa, pand-nasihat mazmunidagi maqollarda maslahat, nasihat, istak, buyruq shakllarida qo‘llanilgan. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodining ertak, doston, aytishuv, topishmoq kabi janrlarida uchraydigan pand-nasihat metodlaridan ta’limiy-axloqiy asarlarda ham samarali qo‘llanilgan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari pand-nasihat uslubida yozilgan asar sanaladi, unda pand-nasihat tarkibida qiyoslash uslubidan ham samarali foydalangan. Asarda yaxshilik bilan yomonlikni, rostlik bilan yolg‘onchilikni, yorug‘lik bilan qorong‘ulikni, samimiylik bilan quvlikni, kamtarlik bilan takabburlikni, bilimlilik bilan johillikni, saxiylik bilan baxillikni o‘zaro qiyoslash asosida ularning mohiyati ochib berilgan.

Yusuf Xos Hojib kishilarga munosabatda o‘rtamiyona yo‘l tutishni maslahat beradi va “Agar kishilarga o‘rtamiyona munosabatda bo‘lsang, do‘st dushmanga aylanmaydi”, - deydi.

“Qutadg‘u bilig” asarining pedagogik qiymatini belgilovchi jihatlardan biri unda muammo usulining maqsadga muvofiq qo‘llanilganligidir. Milliy pedagogik merosda jumboq – muammoli ta’limga alohida o‘rin ajratilgan bo‘lib, u o‘ziga xos ahamiyatga ega. Didaktik asarlarda munozaraga keng o‘rin ajratilgan bo‘lib, munozara asosida jumboq – muammo yechiladi. Chunonchi, “Qutadg‘u bilig” asarida Kuntug‘mish (Elig) va Oyto‘ldi o‘rtasidagi munozara quyidagi mazmunga ega: Elig Oyto‘ldini ilgiga chaqirib, uni yonimga o‘tir, deb taklif qiladi. Lekin Oyto‘ldi o‘tirmaydi. Elig unga boqib, taajublansa, Oyto‘ldi ko‘zini yumib oladi va yuzini yashiradi. Xonning yoniga o‘tirmay, yerga koptok qo‘yib unga o‘tiradi.

Eligning jahli chiqib sababini so‘raganda, unga quyidagilarni tushuntiradi: Elig Oyto‘ldiga o‘rin berganda uning yoniga o‘tirmagani “Xon yonida menga o‘rin yo‘q”, degani; yerga koptok qo‘yib, unga o‘tirgani – davlat koptok kabi barqaror emas, qo‘ldan chiqib ketadi, degani, Elig boqqanda ko‘zini yumib olgani – davlat ko‘r kishiga o‘xshaydi, kimga ilashsa, unga yopishib oladi; yuzini yashirgani esa, davlat jafo, unga ishonib g‘ururlanib ketma, deganim edi, deydi.

Ko‘rinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib asarning mazkur lavhasida birdaniga uchta metod – munozara, muammoli ta’lim, pand-nasihatdan foydalangan. Demak. Anglanadiki, o‘z davrida mutafakkir asarlarida zamonaviy pedagogik texnologiyaning elementlaridan unumli foydalangan.

Asrlar davomida yosh avlod tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etishda qo‘llanib kelinayotgan pandnomalardan biri Unsurul-Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asaridir. “Qobusnoma” boshidan oxirigacha pand-nasihatdan iborat asar. Ayniqsa, sakkizinchi bob “Anushiravon pandlarini yod olmoq zikrida” bobi bunga yaqqon misoldir. Pand-nasihat qiyosiy taqqoslash tahlili orqali olib boriladi.

Kaykovus “Qobusnoma” asarida barkamol inson (shaxs) tarbiyasi haqidagi qarashlarni bayon etar ekan, ayniqsa, jismoniy tarbiyani tashkil etish masalasiga katta e’tibor beradi. Buni asarning “Shikorga chiqmoq zikrida”, “Chavgon o‘ynamoq zikrida”, “Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida” kabi boblarida ko‘rish mumkin. Ularda mutafakkir barkamol inson (shaxs) avvalo sog‘lom bo‘lishi zarurligini, shuningdek, bilimlarni o‘zlashtirishda mushohada yuritish, fikrni dalillar asosida ifodalash lozimligini alohida uqtiradi. Xususan, asarning “Ilm talabi va qozichilik zikrida” bobida quyidagilar alohida ta’kidlanadi: “Barcha peshalarning (hunar) orasida ilmi tolib bo‘lsang, ... kitob va darsga haris bo‘lg‘il, ishdan malul (qayg‘uli) bo‘lmagil, harna eshitsang yod qilg‘il, taqlidga rozi bo‘lmag‘il ... oz so‘zlag‘il va uzoqni o‘ylag‘il ... Agar munozara qilmoq tilasang, xasmga (raqib) qarag‘il, agar uning bilan tortishmoqqa quvvating bo‘lsa va so‘z uzaysun desang dalillar va misollar bila munozara qilg‘il. Yo‘q ersa so‘zni muquf (qisqartir) qo‘yg‘il va bir misolg‘a qanoat qilg‘il, bir isbot ila tur, rad qilma, ehtiyot bo‘lg‘ilki, keyingi so‘zing avvalgisini teskari bayon qilmasin... Agar faqihlar munozara qilsalar so‘zni urf-odatdin boshlag‘il va urf-odatni qiyos, mumkinot bilan aytg‘il.

Munozara usulida mujbot (sabab) va nomunosabot, mumkinot va nomumkinot bo‘lsa, ayb ermasdur. Oxirgi maqsadni aniq ma’lum qilg‘il va so‘zni ziynat bila deg‘il. Bag‘oyat qisqa va bag‘oyat uzun so‘z aytmag‘il, bema’ni so‘z demag‘il”.

Mazkur misoldan ko‘rinib turibdiki, ilm olishda munozaradan samarali foydalanish, bu jarayonda shaxsiy fikrni bayon etish fikrlar xilma-xilligini yuzaga keltiradi. Shuningdek, munozara chog‘ida shaxsda faraz, isbot, yakun, bahs yurita olish ko‘nikmalari shakllanadi.

Sharqning buyuk siymolaridan Muslihiddin Sa’diy ta’lim va tarbiya to‘g‘risida fikr yuritar ekan, u bolalardagi tug‘ma qobiliyatni e’tirof etib yozadi:

Qobiliyat bo‘lsa aslida
Tarbiyat unga qiladi asar.
Qancha urinma, bo‘lmas sayqali,
Temir aslida bo‘lmasa javhar

Alloma tarbiyada qattiqqo‘l bo‘lishni, biroq aslo dilozor bo‘lmaslikni tavsiya etadi:

Xush xulq kishiga qattiq gapirma,
Sulh istab kelsa, jangga chaqirma.
Rahmdillik odamga oliy xulq, ammo
Dilozor yarasiga qo‘ymag‘il malham.
Aylama rahm-shafqat ilon-chayonga
Bundan ozor topar farzandi odam.

Bu o‘rinda qattiqlik va yumshoqlik ham doimo meyorida bo‘lishi lozim, biroq yovuzlarga nisbatan ayovsiz, yaxshilarga esa yumshoq muomala zarurligini uqtiradi.

Muslihiddin Sa’diy ham boshqa mutafakkirlar kabi ilmda munozara uslubini qo‘llashni tavsiya etadi. Lekin munozarani tashkil etish muayyan qoidalarga asoslanishi, unga amal qilinishi zarur. Xususan, bilimdon va nodonlar bilan bahslashishda doimo meyorni bilish zarur: “Johil bilan bahslashgan olim – izzat, umid qilmay qo‘ya qolsin. Basharti bellashuvda johil olimdan ustun chiqsa, ajablanarlik yeri yo‘qdir, chunki, hamisha tosh gavharni sindiradi”.

Xulosa qilib aytganda, milliy ta’lim-tarbiya tarixidagi pedagogik qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan Ushbu qarashlardan talabalar kreativ fikrlashlarini o‘stirishda foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Ulardan zamonaviy metod va usullar bilan uyg‘un holda maqsadga muvofiq foydalanish nafaqat ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda balki, talabalar kreativligini o‘stirishda ham yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
2. Barotov Sh. Bola shaxsini o‘rganish usullari /MTM o‘qituvchilari va pedagogika institutlari bo‘lajak o‘qituvchisi uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 56 b.
3. www.edu.uz
4. www.ziyonet.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA LINGVISTIK KOMPETENTLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH-IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURIYAT

Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna
Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta’lim
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. PhD

Annotatasiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining lingvistik kompetentliligini takomillashtirish hamda kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish, faoliyat jarayonida namoyon etishda uning nutq madaniyatiga alohida e’tibor berish haqida nazariy ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistik kompetentlik, kommunikativ qobiliyat, ijtimoiy pedagogik zaruriyat, eshitish, o‘qish, yozish, gapirish ko‘nikmalari

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya maqsadi bilan uning ba’zi natijalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash zarurligi talab etilmoqda. Ushbu talab bo`lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida lingvistik kompetentlikni takomillashtirish – ijtimoiy pedagogik zaruriyat ekanligini ko`rsatmoqda. Har bir shaxsning jamiyatdagi o‘z o‘rnini, o‘zligini anglashi, hayotiy-axloqiy me’yorlarni o‘zida mujassam etishi jamiyatda shu ma’naviy-axloqiy sifatlarni namoyon etib[1;], ijtimoiy hayotimiz, zamonamiz bilan hamnafas yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy pedagogik zaruriyat muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, ta’lim-tarbiyaning o‘zi ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayondir.

Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish kabi vazifalar belgilangan bo‘lib, bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida lingvistik kompetensiyani faollashtirish, ijtimoiy lingvistik tayyorgarligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi shaxsi pedagogik mahorati yuksakligining muhim mezonlaridan biri lingvistik kompetensiyadir. Ya’ni, u o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik aloqaning ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir etishga erishish omilidir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompetentligini takomillashtirish muammosi bilan bog‘liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, biroq globallashuv sharoiti talablari asosida xalqaro ta’lim standartlariga mos ravishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingivistik kompetentliklarini takomillashtirish tizimini takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining lingvistik kompetentligini takomillashtirish bilan bir qatorda kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish, faoliyat jarayonida namoyon etishda uning nutq madaniyatiga alohida e’tibor beriladi. Jumladan, nutqning sermazmunligi; nutqning sofligi; nutqning aniq va ravonligi; nutqning jiddiyligi; nutqning jozibadorligi, jarangdorligi; nutqning o‘zbek tili grammatik qoidalariga mosligi; nutqning tushunarliligi; nutqning sodda va ommabop xarakterda bo‘lishi kommunikativ qobiliyatni namoyon etishda muhim lingvistik omil hisoblanadi[]. Bu o‘rinda biz bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvistik kompetentligini takomillashtirish muhim ekanligini o‘rganishlar jarayonida aniqladik. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning pedagogik muammolari R.X,.Jurayev, J.G.Yuldoshev, N.J.Isakulova, Z.K.Ismoilova, R.G.Isyanov, Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimovlar tomonidan tadqiq etilgan[2, 14-b].

Ijtimoiy lingvistik qobiliyatni takomillashtirishda zarur bo‘lgan indikatorlarni ham aniqladik. Bizning nazarimizda ular mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish; pedagogika, psixologiya, fiziologiya, mamlakatshunoslik xususiy metodika fanlaridan yetarli ma’lumotlilik; ijtimoiy-siyosiy savodxonlik; tolerantlik tafakkurning shakllanganligi va keng dunyoqarashga ega bo‘lish; innovatsion va axborot kommunikatsiya texnologiyasini mukammal bilish; ijodkorlik, o‘z-o‘ziga talabchanlik, o‘z ustida doimiy mustakil ishlash va izlanuvchanlik; yangiliklarga intiluvchanlik, o‘z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lish; kommunikativlik, kreativlik; mas’uliyatlilik;

ilmiy-nazariy izlanuvchanlik; shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lish; ta’lim sohasidagi respublika va xalqaro tajribadan, sotsiolingvistik yangiliklardan, zamonaviy ta’lim-tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalaridan xabardorlik; ma’naviy komillik; adolatparvarlik; demokratik qadriyatlarning mazmun va mohiyatini egallash; ta’lim va tarbiya jarayonini innovatsion boshqarish; o‘z shaxsiy fikriga, qarashlariga, mustaqil va erkin fikrlay olish; layoqatlilik, to‘g‘ri gapira olish, erkin fikrlay bilish, bilimdonlik, mehnatsevarlik, tashkilotchilik, irodalilik, maqsad sari qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik, nutq madaniyatiga rioya etish, faoliyat natijasini oldindan ko‘ra bilish, qat’iyatlilik, zehnlilik, qiziquvchanlik, mas’uliyatlilikni his qilish, til muhitini yarata olish qobiliyatiga ega bo‘lish va boshqalardan iboratdir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida lingvistik kompetentligini takomillashtirishda qator pedagogik tamoyillarga amal qilish taqozo etiladi:

- ilmiylik;
- nazariy ma’lumotlarning amaliyot bilan aloqadorligi;
- til muhitining mavjudligi;
- o‘quv ma’lumotlarining hayotiyligi, ishonchliligi, davriyligi;
- lingvistik qoidalarga amal qilish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida bag‘rikenglik tamoyillariga tayanish;
- axborot almashish jarayonining erkinligi;
- tushunarlilik, ishonchlilik, soddalik va boshqalardan iborat.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida lingvistik qobiliyatini takomillashtirishning asosiy poydevori ularning metodologik, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, ijtimoiy faollik, kasbiy-pedagogik, metodik, texnik-texnologik, kreativlik, kommunikativlik, intellektual-ijodiy jihatdan tayyorgarligiga bog‘liq.

Lingvistik kompetentlilikni takomillashtirishda maqsadni to‘g‘ri qo‘yish, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni aniq loyihalashtirish, aytiladigan fikrlarni eshitish va tushunish, suhbatdosh tilida to‘g‘ri, aniq va ravon muloqot olib borish; fikrlar almashinuvida muloqot madaniyatiga ega bo‘lish; natijani doimiy monitoring qilib borish, tashxislash, til o‘rganish va o‘rgatish texnikasini chuqur bilish, pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish malakasiga egalik, o‘quvchilar uchun lisoniy muhit yarata olish texnikasini bilish bu borada muhim indikatorlar hisoblanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida lingvistik kompetentligini takomillashtirishda darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, internet manbalari, OAV materiallari, multimediya mahsulotlari, teleanjuman, video anjuman hamda ko‘rgazmali materiallarning samaradorligi kattadir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida lingvistik kompetentlilikni takomillashtirish bilan bir qatorda eshitish, o‘qish, yozish, gapirish kabi ko‘nikmalarni ham muakammal egallashlari zarur. Bu o‘rinda fonetik, leksik, grammatik, lingvistik, progmatik nazariy bilimlarga ega bo‘lish va ularni amaliyotda namoyon etish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lish muhim pedagogik talablar hisoblanadi.

Fonetik bilimda tovushlarni farqlash, intonatsiya va tovush ritmidan, ohangidan to‘g‘ri foydalanish, harflarning talaffuzini fonetik qoidalar asosida amalga oshirish, so‘zlarni ifodalashda nutq texnikasiga rioya etish talab etiladi. Shuningdek, gap turlari (darak, so‘roq, buyruq gap)ning fonetik talablariga mos ritm, ohang va intonatsiyadan oqilona foydalanish, eshitish texnikasini bilish, so‘zlashuv jarayonida so‘zlardagi

harflar va tovushlar mutanosibligini ta’minlash bo‘yicha og‘zaki mashq qilish malaka va ko‘nikmalari shakllantirilishi lozim.

Leksik bilim negizida - so‘zlarning tuzilish qoidalari, mazmunan so‘zlarning og‘zaki va yozma matnda to‘g‘ri yozish, gapirish va o‘z o‘rnida ishlatish, internatsional so‘zlarning ahamiyati kabi tushunchalarning mohiyatini bilishdan iboratdir. Shuningdek, o‘rganiladigan mavzuga oid so‘zlar, iboralarni matnda o‘z o‘rnida ishlata olish hamda to‘g‘ri talaffuz etish, o‘zak asosida turli qo‘shimchalar bilan (affiksatsiya yoki so‘zlarning bir-biriga qo‘shilishi) yangi so‘zning yasalishiga oid tushunchalarga ega bo‘lish nazarda tutiladi[4, 87-b].

Grammatik bilim zamirida so‘z turkumlari, ega va kesim, fe’lning o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon shakllari, ularning grammatik xususiyatlari, aniq hamda majhul nisbatlari va sintaksisning asosiy qoidalari haqida malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish yotadi[6;65]. Lingivistik bilimda esa sinf jamoasi muhitida, talabaning darsdan tashqari bo‘sh vaqtida hayotiy, sodda muloqot shakllarini o‘rganishi, tili madaniyati, madaniyatlararo aloqa shakllari, milliy va umuminsoniy qadriyatlari haqida bilim, malaka va ko‘nikmaga, tolerantlik tafakkuriga ega bo‘lish nazarda tutiladi.

Boshlang‘ich sinflarda muloqot qilish negizida gapirish texnikasiga, madaniyatiga ega bo‘lish nazarda tutiladi. Gapirish monologik hamda dialogik xarakterda bo‘lib, gapirish-monologik kompetensiyasi shakl va mazmunan bir tomonlama xarakterga ega bo‘lib, uning talablari bo`lajak o`qituvchilar boshlang‘ich sinf o‘quvchidan oilasi, tug‘ilib o‘sgan yeri, qiziqishi, kundalik hayoti, do‘stlari, yil fasllari hamda o‘zini qiziqtirgan boshqa sodda mavzularda qisqa, aniq va savodli gapira olishi, badiiy hamda media matnlarni ifodali o‘qishini muntazam so`rash kerak bo‘ladi.

Gapirish kompetensiyasi subyekt-subyekt tarzida namoyon bo‘ladigan talablardan iborat bo‘lib, ular ikkala subyektning bir-biri bilan savol-javobi, ma’lumot berilishi, munozara, fikr almashinuvidan iboratdir. Gapirish kompetensiyada subyekt bilan o‘zaro muloqot madaniyati, tinglash, xulosa chiqarish, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va o‘zaro hurmat, o‘z fikri va qarashlarini asosli bayon etish, ma’qullash yoki inkor etish qoidalariga bo‘ysunish, dialog uchun mikro va makro muhit yaratish, lingivistik qoidalarga og‘ishmay amal qilish, ziddiyatli vaziyat yaratmaslik zarur. Bu o‘rinda adolat, ilmiylik, haqqoniylik, ketma-ketlik, hayotiylik, o‘zaro hurmat, lisoniy madaniyat, erkin fikrlash kabi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Gapirish ko‘nikmasida mavzuning aniqligi, ravon til, to‘g‘ri ohang va talaffuz, lisoniy qoidalarga rioya etish. Faktlarning ishonchliligi, haqqoniyligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Nutqiy ko‘nikmani o‘stirishda salomlashish, o‘zaro tanishish, kundalik hayotdagi yangiliklar haqida ma’lumot berish va olish, tabriklash, voqea-hodisalar haqida o‘zaro fikr almashish uchun mavzularga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir[7, 83-b].

Yozishga oid kompetensiyada husnixat va orfografiya, punktuatsiya va orfografiya, grammatik qoidalarga rioya qilish, matn tuzilishi, yozishda talablarga tayanish taqozo etiladi. Pragmatik kompetensiya og‘zaki va yozma nutq matnida noaniq, yangi, tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘z, gap va iboralarni qayta so‘rash vaziyatini hosil qilishdan iboratdir.

Metodist olima Y.V.Kiselevaning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining birlamchi vazifasi

o‘quvchiga motivatsiya berish emas - o‘quvchida to‘g‘ri o‘qishi va rivojlanishida nimalar zarur bo‘lsa shularni bera olishdan iboratdir-, deya ta’kidlaydi[3, 6-b].

Pedagog va psixolog olimlarning fikrlariga ko‘ra 2 xil turdagi motivatsiya, ya’ni, “ichki” motivatsiya shaxsda allaqachon mavjud bo‘lgan yoki shaxsning berilgan topshiriqqa bo‘lgan javobida mavjud bo‘ladigan motivatsiya va “tashqi” motivatsiya tashqaridan erishilgan yoki tashqi turtkidan yaralgan motivatsiyadir.

Shuningdek motivatsiyaning 4 ta asosiy kategoriyasini aniqlaydilar:

1. Faoliyatning o‘zidagi qiziqishdan kelib chiqadigan holat-ichki motivatsiya.
2. Boshqa odamlarni xursand qiladigan holat yoki vazifa - ijtimoiy motivatsiyadir.
3. Yutuq motivatsiyasi - bunda boshqalar bilan raqobatlashish maqsadida vazifalarni yaxshi bajarish.
4. Ko‘makchi motivatsiya - bunda motivatsiya rag‘batlantirish yoki jazolash orqali paydo qilinadi[5, 38-b].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida lingvistik kompetentlilikni takomillashtirishda motivatsiyadan unumli foydalanishning ilmiy-metodik tizimi mavjud bo‘lib, uni tarkibiy qirralarini quyidagicha ifodalash mumkin. Ushbu tizim zamirida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida lingvistik kompetentlikni takomillashtirish jarayonida:

- o‘z ustida ijodiy ishlash qobiliyati rivojlanadi;
- lingvistik bilim saviyasini oshirishga maqsadli yondoshadi;
- xalqaro va mamlakatimizdagi ijtimoiy hayot tajribasini qiyosiy o‘rganishga ehtiyoji rivojlanadi;
- tanlagan kasbini chuqur egallash uchun bor qobiliyatini safarbar etadi;
- axborot kommunikatsiya texnologiyasidan unumli foydalanishga ishtiyoqi shakllanadi;
- o‘z-o‘zini refleksiya qilish, o‘z-o‘ziga motivatsiya berish borasida bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantib boradi;
- bilimlarni o‘zlashtirish bosqichlari: idrok, tushunish, fikrlash, umumlashtirish, mustahkamlash, xulosa qilish, tatbiq etish kabi jarayonlarni amalga oshiradi;
- psixologik mashqlar vositasida lingvistik qobiliyatni rivojlantirib borish imkoniyatiga ega boladilar;
- tanlagan kasbiga, mutaxassislik fanlariga nisbatan qiziqishi va ehtiyoji oshadi;
- darsda voqea-hodisalarga haqqoniy baho berishga o‘rganadilar;
- milliy an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, qadriyatlariga nisbatan yuqori tafakkuri shakllanadi.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mavjud lingvistik kompetentlilikni takomillashtirish ularni yetuk va o‘z kasbining malakali namoyondalari bo‘lib yetishishlari uchun zamindir. Buning uchun esa ulardan umumkasbiy bilim, lingvistik qobiliyat, kasbiga bo‘lgan ishtiyoq, qiziqish, o‘z ustida tinimsiz izlanish, mehnat, ijtimoiy lingvistik malaka va ko‘nikmalar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bbilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Gulboyev A.T. Pedagogik tashxis vositasida o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish. Ped. fan. nom. ...diss. –T.: 2010, –146 б.
3. Киселева Ю.В. Совершенствование профессиональной компетенции педагогов-художников в области экспертной оценки детского изобразительного творчества и поддержки детской одаренности // Корпоративный университет. Отдел по подготовке педагогических кадров художественно-эстетического цикла. Ж. М.: 2018.
4. To‘xliyev B., M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006.
5. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. TToshkent.2010.
6. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. –352 b.(92, 352 б)
7. Hamroyev A.R. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: ped. fan. dok. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2020. – 249 b.

O‘QUVCHILARDA NUTQIY QOBILIYATLARNI OSHIRISH MASALALARI

Komilova Z.P.
“University of economics and pedagogy”
NOTM Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatasiya. Maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutq va muloqotning o‘ziga xosligi hamda nutqiy qobilyatlarni shakllantirish usullari va bu boradagi tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik maktab yoshi, nutq, yozma nutq, og‘zaki nutq, “Qarama-qarshi so‘zlar” ,“To‘rtinchisi(uchinchisi, beshinchisi) ortiqcha”, “Oxirgi harfga so‘z ayt”, “Omma oldida chiqish qilish”, “O‘zini tanishtirish o‘yini”.

XX asrning o‘rtalaridan boshlab ta'lim sohasini rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan barcha ishlarga kelajakka qo‘yilgan investisiya deya qaralmoqda. Chunki ta'limning barcha bo‘g‘inlarining sifatini ko‘tarish orqali jamiyatdagi ijtimoiy, intelektual, ma’naviy rivojlanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga erishish mumkin.

Mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda, ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z xissasini qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos

keladi. Shu maqsadni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ta'lim tizimi sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi.[1] Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni intellektual jihatdan yetuk avlod qilib tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, maqsadga erishish uchun o‘quvchilarda nutq qobilyatlarini rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berish zarur.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga ma’naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashtiriladi. Nutq qobilyatini o‘stirish ta’lim – tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir. Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi o‘z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o‘z nutqida 3000-7000 so‘zni ishlatadi. Bola maktabga kelmasidan oldin o‘zi qanday gapirayotgani ustida o‘ylab o‘tirmasdan, o‘z nutqidan faqat aloqa va bilish vositasi tariqasida foydalanadi. 6-7 yoshli bola jumlalarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, uni o‘zlashtirishi ma’lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalar nutqining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular o‘z fikrlarini bayon etish uchungina emas, balki o‘z suhbatdoshining diqqatini o‘ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Nutq - bu faqat odamlar ega bo‘lgan mukammal muloqot shakli. Muloqot jarayonida odamlar fikr almashadilar, bir-biriga ta'sir qilishadi. Nutq ma’lum bir til orqali amalga oshiriladigan kommunikativ funksiyaning asosidir.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini me’yorlashda, ularning mutanosibligini ta’minlashda, milliy tilning tabiati va o‘ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya’ni qiroat bilan o‘qishning amaliy ahamiyatini o‘stirish, adabiy til me’yori va mezonlariga rioya qilish, o‘qish, o‘qish metodlarini takomillashhtirish yo‘llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg‘ularga boy bo‘lib, o‘qituvchi ana shu tuyg‘ularni ilg‘ashi, bola ruhiyatini ko‘rsatishi, ta’lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor berishi zarur.

O‘qituvchining turli fanlarni o‘qitishdan maqsadi o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun namunadir. O‘quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo‘lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e’tibor berih zarur.

To‘g‘ri va ifodali gapirish har bir o‘qimishli kishi uchun hayotiy zaruriyat bo‘lib qolgan hozirgi davrda o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatini oshirish muammosi o‘quv-tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biri deb qaralmog‘i kerak. Shuning uchun ham olimlar K.B. Barxin, B.I. Sokolov M.A. Ribnikova va boshqalarning metodik asarlarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘zaro muvofiq holda oshirish masalalariga alohida e’tibor berilgan. Olimlar tomonidan maktabda o‘qitish jarayonida ro‘y berayotgan quyidagi kamchiliklar tanqid qilinadi:

1. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi og‘zaki nutqning hayotiy ahamiyati haqida yetarli tushunchaga ega emasligi.

2. O‘quvchilarning nutqi mazmunan sayoz va qator kamchiliklarga ega. Shuning uchun o‘qituvchilar bolalar bilan ishlash jarayonida nutq bilan birgalikda psixik bilish jarayonlarini rivojlantirishga ham ahamiyat bermog‘i lozim.

- nutqiy qobiliyatlarni o‘stirishga mo‘jallangan turli xil usullardan dars jarayonida foydalanish:

- o‘quvchilar uchun og‘zaki nutqiy qobiliyatlarni o‘stirishga mo‘jallangan mashqlar tizimini tashkil qilish hamda izchillik asosida olib boorish;

-o‘quvchilar og‘zaki nutqni o‘stirishda monologik va dialogik nutq ko‘nikmasini shakllantirish.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda o‘qituvchining o‘rni kattadir. Bu o‘qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o‘quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi.

“*Qarama-qarshi so‘zlar.”* Bu o‘yin mantiqiy tafakkurning hamda nutqnining rivojlanishiga yordam beradi. O‘yinni individual tarzda ham, guruh bilan ham o‘tkazish mumkin. O‘yin sharti quyidagicha: o‘qituvchi bola yoki o‘quvchiga bir so‘zni aytadi, o‘quvchi shu so‘zning ma’nosiga qarama - qarshi bo‘lgan so‘zni topib aytishi kerak. Masalan: katta - kichik, issiq - sovuq, achiq - shirin, qorong‘u - yoruq, keng-tor, uzoq-yaqin va hokazo. Odatda bolalar o‘yin boshida biroz qiynalshadilar, aytilgan so‘zga javoban antonim so‘zni emas, sinonim so‘z bilan javob beradi, masalan: katta - baland, uzun - uzoq kabi. Ammo o‘yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so‘ng o‘quvchilar yaxshi o‘ynaydilar. O‘yin bir necha marta o‘tkazilganidan so‘ng o‘quvchilar mavhum tushunchalarni ham osonlik bilan tushunadilar va javob beradi, shunda o‘quvchilarning nutqi ham rivojlana boradi, masalan: chaqqon - yalqov, ishchan - dangasa kabi so‘zlarga ham tez javob topa oladi.

“*To‘rtinchisi(uchinchisi, beshinchisi) ortiqcha”.* Bu o‘yin rasmlarsiz hamda rasmlar bilan o‘ynaladi. O‘quvchiga yoki bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytiladi. Masalan: atirgul, boychechak, binafsha, qo‘ziqorin. O‘quvchi ular orasidan ortiqchasini aytganidan so‘ng undan fikrini asoslab berishi so‘ralishi kerak. Bu o‘yinlar o‘quvchilarning tafakkuri rivojlanishiga yordam berishi bilan birga nutqning o‘sishiga ham yordam beradi.

O‘yin individual tarzda o‘tkazilsa ham yaxshi samara beradi, guruhda musobaqa ko‘rinishida o‘tkazilsa o‘quvchilarning qiziqishi yanada ortadi.

“Oxirgi harfga so‘z ayt” bu xuddi baxru bayt singari o‘ynaladigan o‘yin bo‘lib, buni mavzulashtirilgan hamda mavzulashtirilmagan holatda o‘tkazish mumkin. Masalan, ot so‘z turkumiga olma-anor-rediska…, joy nomlari Andijon-Namangan-Navoiy…Bu o‘yin bolalarda topqirlikni hamda ziyraklikni oshirishga yordam beradi.

“Omma oldida chiqish qilish”. Bu o‘yinga a’zolari oldindan tayyorgarlik ko‘rishgani ma’qul. Chunki bunda ma’lum vaqt davomida notiqlik mahorati va guruhlar murojaat qilishning turli vositalari sinaladi va gapirish, eshitish san’atlari mashq qilinadi.

“O‘zini tanishtirish o‘yini”. 2 minut har bir ishtirokchi o‘zi haqida xohlagan narsalarni aytib berishi va so‘ngra aytilganlar video yoki audiokassetalar vositasida qaytarilib, shaxsning o‘zi va guruh tomonidan tahlil qilinadi.[2.73]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘qituvchi o‘zining yoqimli nutqi, mahorati, texnikasi bilan sinfga ta’lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi, ilxomlantira olishi zarur. Shuningdek nutqiy qobilyatlarni rivojlantirishda quyidagi tavsiyalardan foydalanish zarur.

1. Darsga norasmiy muloqot elementlarini kiritish. Ayni paytda didaktik o‘yinlardan foydalanish, ularda muloqot tashkilotchisi rolini muallim emas, o‘quvchilardan biri bajarishi mumkin.

2. E’tiborni javobning ijobiy jihatlariga qaratish. O‘quvchilar o‘rtoqlarining javoblarini xolisona baholashga maxsus o‘rgatiladi, ayni paytda mayda - chuydalargacha e’tiborni qaratib, o‘rtoqlarining javoblaridagi eng muvaffaqiyatli jihatlarini ajratib ko‘rsatishni o‘rganish. Kamchiliklarni qanday qilib yo‘qotish haqida bahslashish, ya’ni kamchilikni bitta o‘quvchining o‘ziga aytish orqali ta’sir qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. 2017-2021 Harakatlar strategiyasi. – T.: Adolat.,2017.
2. Komilova Z. “Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvida muloqotchanlikka kirishishning psixologik xususiyatlari” magistrlik dissertatsiyasi Andijon-2017

KASBIY MOBILLIK BO‘LAJAK MUTAXASSISNING MALAKA TUZILISHINING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Koshnazarova Maloxat Alimovna
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalashtirish muhandislari
instituti milliy tadqiqot universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ilmiy ta'rifning kasbiy mobilligi muammosini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan yoritishning turli tendentsiyalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mobillik, ijtimoiy mobillik, kasbiy mobillik, kasbiy-pedagogik mobillik, tizimli yondashuv.

Hozirgi kunda dunyo o‘zining dinamikligi bilan ajralib turmoqda: faoliyatning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lmoqda, iqtisodiyotda katta tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, eng yangi texnologiya va uskunalar ishlab chiqarishga jadal sur'atlarda joriy etilmoqda. Ilmiy-texnikaviy inqilob ham mutaxassislarning kasbiy mobilligini keskin oshirishni talab qilmoqda. Mutaxassislarning kasbiy mobilligini oshirishga O‘zbekistonda tez o‘zgaruvchan oliy ta'lim tizimi muhim hissa qo‘shmoqda.

Shunday qilib, muhandislik ta’limining yangi bosqichini joriy etish yaqin kelajakda nafaqat ishchi kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish muddatini optimallashtirish, balki oliy ta'lim negizida muhandislik ta’limi yo‘nalishlari faoliyati mazmuniga turli sohalardagi hamkorlarni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek yoshlar startaplari, volontyorlik va qo‘shma jamoat loyihalari markazlari, kovorking maydonlarini tashkil etish imkonini beradi [1, 2].

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy mobilligini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuniga kiritilgan so‘nggi o‘zgarishlar bilan ham ochildi [3].

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda soha standartlarini hisobga olishga yangicha yondashuvlar, ta'lim dasturlari mazmunini qat'iy tartibga solish" va "mehnat bozoridagi mavjud o‘zgarishlarga tez va moslashuvchan munosabatda bo‘lish", bir nechta ixtisosliklarga berilgan kompetensiyalarni kiritish, bo‘lajak mutaxassislarning bir vaqtning o‘zida bir nechta malakaga ega bo‘lish imkonini beradi[4].

Oliy ta'lim muassasalari talabalari bir vaqtning o‘zida bir nechta malakaga ega bo‘lish imkoniyati talabalarga "o‘z maqsadlari va bir nechta malakaga ega bo‘lish istagi" samaradorligidan kelib chiqib, o‘z ta'lim yo‘llarini individuallashtirishga imkon beradi[5].

Yuqori professional mobillik har qanday mutaxassisning martaba o‘sishining muhim tarkibiy qismidir. Bu fazilat muvaffaqiyatga erishishga, ish haqini oshirishga va hatto kadrlar zaxirasiga kirishga yordam beradi [6].

Kasbiy mobillik - bu kasbiy faoliyatning tegishli turlarini tez va samarali o‘rganish qobiliyati, shuningdek, mehnat bozoridagi doimiy o‘zgarishlarga samarali moslashish qobiliyati. Agar ilgari butun hayotini bitta korxona yoki kasbga bag‘ishlagan ishchilar qadrlangan bo‘lsa, hozirda vaziyat tubdan o‘zgardi [7].

Bugungi kunda dunyoda o‘zini aybdor his qilmasdan ish beruvchini yoki kasbini o‘zgartirishdan qo‘rqmaydigan mutaxassis qadrlanadi.

Kasbiy mobillik darajalari. Kasbiy mobillik past yoki yuqori darajada bo‘lishi mumkin [8]. Ularning ikkalasi ham mutaxassisning fikrlashi va xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

Past darajadagi kasbiy mobillik quyidagilarni nazarda tutadi:

✓ uzoq vaqt davomida bir xil martaba bosqichida qolish;

✓ yangi malakalarni egallash yoki kasbni o‘zgartirish uchun motivatsiyaning yo‘qligi;

✓ zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish va o‘zlashtirishni istamaslik.

Yuqori darajadagi kasbiy mobillik quyidagilarni nazarda tutadi:

✓ kasbiy mahoratingizni doimiy ravishda oshirish;

✓ raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

✓ tegishli sohalarda bilimlarni rivojlantirish;

✓ qo‘shimcha kasbiy ta'lim olish yoki kasbiy qayta tayyorlash;

✓ agar u sizni qoniqtirmasa, ishni o‘zgartirishdan qo‘rqmang [9].

Kasbiy mobillikning turlari. Karyera mobilligi pastdan yuqoriga qarab harakatlanadigan liftning bir turi. Bu odamga o‘zini turli yo‘llar bilan anglashga imkon beradi va u ikki xil bo‘ladi:

Vertikal kasbiy mobillik - bu mutaxassislikning pastdan yuqoriga o‘zgarishi va shunga mos ravishda lavozimda ko‘tarilish. Masalan, siz advokat sifatida ajoyib ish qildingiz va siz katta huquqshunos lavozimiga ko‘tarildingiz.

Gorizontal kasbiy mobillik - bu o‘z ijtimoiy sinfini o‘zgartirmasdan bir kasbdan boshqasiga o‘tish. Misol uchun, muhandis advokat o‘z lavozimini o‘zgartirishga qaror qiladi va unga bo‘ysunishda muvaffaqiyatli ma'lumotlar tahlilchisiga aylanadi [10].

Kasbiy mobillikning xususiyatlari. Kasbiy mobillik (tezkor kasbiy harakat) muayyan vaqt davrlariga xos bo‘lgan turli xil omillar va mobillik kanallari ta'sirida sodir bo‘ladi. XX asrning 90-yillarida guruh mobilligining dastlabki sababi mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar edi. Aynan o‘sha paytda kasbiy mobillik darajasi o‘zgara boshladi. Iqtisodiy va siyosiy vaziyatning o‘zgarishi odamlarning yangi kasblarni tezda egallashi va talabga ega bo‘lishi uchun o‘ziga xos turtki bo‘ldi [11]. Mehnat bozorida muhandis xodimlarga talab keskin oshdi.

Kasbiy mobillikni shakllantirish. Kasbiy mobillikni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun shaxs uni o‘z sohasining professionali sifatida tavsiflovchi ma'lum kompetentsiyalarga ega bo‘lishi kerak. Ushbu kompetensiyalar ma'lum bir asos bo‘lib, buning natijasida mutaxassis o‘z kasbi olamida osongina harakatlana oladi, shuningdek raqobatlasha oladi va o‘z ta'limini davom ettiradi [12].

Bo‘lajak muhandisning ijtimoiy tizimga integratsiyalashuvi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va yangi vaziyatlarga moslashishga tayyorligi.

Ta'lim kompetentsiyalari - bu dunyoni o‘rganish, foydali ko‘nikmalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish, o‘z malakasini oshirish, kasbni o‘zgartirish va o‘zini rivojlantirishga qaratilgan [13]. Umumiy ilmiy vakolatlar - mutaxassislik profili bo‘yicha asosiy umumiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, shuningdek, ijtimoiy va kasbiy faoliyatdagi o‘zgarishlarga moslashish qobiliyati.

Qadriyatga asoslangan - o‘zini kasbiy anglash va takomillashtirish, uzluksiz ta'lim va motivatsiya zarurligini his qilish, shaxsiy qadriyatlarni aniqlash istaklari va mehnat bozoridagi vaziyatdan kelib chiqib, o‘zini kasbiy pog‘onada o‘sishga tayyorlaydigan va bu yo‘nalishga tezda moslashtira oladigan tajribali muhandislardir [14]. Shuning uchun ular uchun har qanday kasbiy sinov va imtixonlardan o‘tish qiyin emas.

Kasbiy mobillikni rivojlantirish. Kasbiy mobillikni samarali rivojlantirish va oshirish nafaqat qat'iyat va o‘sishga bo‘lgan haqiqiy istak bo‘lib, balki muayyan asosiy harakatlarni amalga oshirishni ham talab qiladi [15]. Masalan:

1. O‘z-o‘zini anglash imkoniyatlarini topish va ulardan foydalanish. Agar siz hozir hech qayerda ishlamayotgan bo‘lsangiz, unda biror narsa qilishni boshlashingiz kerak. Rezyumeni ish qidirish xizmatlariga joylashtiring, takliflarni kuting va ularni rad qilmang, bo‘sh ish o‘rinlariga murojaat qiling. Yangi boshlanuvchilarga ham qo‘l qovushtirib o‘tirmaslik va o‘zini isbotlash va tajriba orttirish imkoniyatlarini boy bermaslik tavsiya etiladi. Shu bilan birga, siz duch kelgan birinchi taklifni qo‘lga kiritishingiz shart emas. O‘zingizning qiziqishlaringiz va afzalliklaringiz asosida tanlovingizni qiling.

2. Ikkinchi kasbni egallash. Oliy o‘quv yurtlariga maxsus ro‘yxatdan o‘tishning hojati yo‘q - siz istalgan yo‘nalish bo‘yicha kurs taklif qiladigan har qanday onlayn maktabda o‘qishingiz mumkin. O‘qishni tugatgandan so‘ng, siz, albatta, yuqori darajadagi kasbiy mobillikka ega bo‘lasiz, bu sizga yuqori maoshli lavozimga ishonish imkonini beradi.

3. Doimiy oldinga harakat qilish. Agar siz martaba uzoq vaqt davomida to‘xtab qolganini ko‘rsangiz, ish joyini o‘zgartirishdan qo‘rqmang. Yuqori lavozimlarni tashqi mutaxassislar bilan to‘ldiradigan kompaniyalar mavjud va shunga ko‘ra siz ulardan

ko‘tarilishingiz dargumon. Shuning uchun, sizning salohiyatingiz behuda ketmasligi uchun siz o‘sishingiz mumkin bo‘lgan joyda bo‘lishingiz kerak.

4. O‘z-o‘zini tarbiyalash. Hech bir malaka oshirish kursi kasbiy adabiyot, trening va seminarlardan olinadigan bilimlar hajmini almashtira olmaydi. O‘quv muhitida bo‘lganingizda, sizning martaba mobilligingiz oshadi. Kasbiy mobillik omillari: insonning shaxsiy ichki nizolaridan hayotiy holatlargacha butunlay boshqacha bo‘lishi mumkin [16].

Kasbiy mobillik yuqori darajadagi qo‘shimcha va o‘rta kasbiy toifaga kiradi. Ko‘pgina olimlar kasbiy mobillik tushunchasining mohiyati va tuzilishini ochib berar ekan, uning ruhi va xarakterini ham qayd etishadi [17].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, mobil shaxs o‘ziga xos shaxsiy va professional fazilatlarga ega bo‘lib, u hech qachon boshqa insonning mobillik darajasi haqida gapirmaydi, u faqat shartlar, haqiqatlar va tafsilotlarga amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Артюхова Т. Мобильность в контексте профессиональной деятельности. https://www.b17.ru/article/mobilnost_v_kontexste_professionalnoy/
2. Каплина С.Е. Концептуальные и технологические основы формирования профессиональной мобильности будущих инженеров в процессе изучения гуманитарных дисциплин. Автореф. на соиск. уч.ст. докт. пед. наук. – Чебоксары, 2008. – С.47.
3. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // *Scientific progress*. Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan. – Pp. 380-383. http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf
4. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // *Scientific progress*. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf
5. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o‘rni // Международный научно-образовательный электронный журнал *«Образование и наука в XXI веке».* ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск №24 (том 4) (март, 2022). - С.751-754. https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf
6. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59-62. http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552
7. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // *Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture*. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 Volume 2 Issue 4, April 2022. – Pp.136-139. https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330
8. Салаева М.С., Мамадалиева У.С.Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276-281.
9. Salaeva M.S., G‘ulamova S.R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 209-213.
10. Salayeva M.S. Uzluksiz ta’lim tizimida shaxs mobilligini shakllantirish Monografiya – T.: 2024. - 128 b.
11. Salayeva M.S. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual mobilligini rivojlantirish / “Xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Elektron to‘plam.. 2021-yil 5-may. - B.230-234.
12. Salayeva M.S., G‘ulamova S.R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 209-213.
13. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G., Radjabova D.A. Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // *Specialusis ugdymas / Special education*. 2022 1(43). Pp. 10571 – 10576. https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637
14. Salayeva M.S., Ergasheva G.M., Magdiyeva M.E., Shayunusova F.S. Scientific Aspects of Pedagogical Professionalism // Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology. ISSN: 1001-4055 Vol. 44 No. 6 (2023). – Pp.2264-2270.https://propulsiontechjournal.com/index.php/journal/article/view/3673/25
15. Salaeva M.S. Formation of professional mobility of educators of pre-school education organizations / Pr-of. Dr. Ayla Oktay anısına düzenlenen 8. Uluslararası Okul Öncesi Eğitim Kongresi. Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi Eğitim Fakültesi. 26-28 Ekim 2023. – Pp.225-226.
16. Salaeva M.S. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Выпуск №15 (том 3) (июнь, 2021). - С.480-484.

Salaeva M.S., Djumabayeva M. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // International Multidisciplinary Scientific Journal (IMSJ) ISSN: 2091-573X. With Impact Factor: 3.2. Volume 1. Issue 1, June 2021.- P. 36-37. Google scholarship https://www.sciencepublish.org/

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Курбонова Сайора Раджабовна
VOLIDA KIDS ООО должность Директор

Annotatsiya**.** В статье рассматривается вопрос применения творческих заданий как средство развития креативного мышления на уроках технологии внеурочной деятельности в начальной школе. Активным формам учебы, недостаточно освещенным в методике преподавания технологии, относятся игры и упражнения для развития креативного мышления.
Ключевые слова: креатив, технология, деятельность, самопознания, самообразование, интеллектуальная.

ВВЕДЕНИЕ

Развитие интереса к учебе младших школьников посредством применения проблемных заданий

Аннотация. В статье изучена сущность термина «проблемные задание», выявлено, что она является одним из аспектов концепции проблемного обучения. Она включает в себя несколько целей. В зависимости от того, какие цели поставлены учителем при преподнесении того или иного учебного материала, могут быть использованы методические приемы и способы создания проблемных ситуаций, которые были описаны выше. При использовании проблемных ситуаций создаются все условия для проявления познавательной активности. Учащиеся не получают готовые знания, а в результате постановки проблемной ситуации испытывают затруднения и начинают поиск решения, открывая новые знания самостоятельно.
Ключевые слова: проблемная ситуация, процесс обучения, младшие школьники.

На современном этапе для общества значимым и актуальным вопросом в сфере образования является повышение у учащихся стремления к обучению, что позволяет решать основное направление, предлагаемое государственным образовательным стандартом для начальной школы, то есть научить детей учиться.

Решение этих задач вызвало необходимость применения новых педагогических подходов и технологий в современной общеобразовательной школе» [16]. Значение познавательного интереса для детей сложно переоценить, поскольку он помогает справляться с психологическими нагрузками процесса обучения, тем самым сохраняется здоровье школьника, позволяет избежать низкий уровень освоения учебного материала, а значит и низкую успеваемость. Формирование и развитие интереса повышает заинтересованность учащегося к обучению, к приобретению новых знаний. Данную цель в образовании стремились достичь педагоги во все времена. Необходимо помнить, что только комплексный подход решает проблему развития интереса к процессу обучения – это анализ всех условий как в учебной, так и во внеучебной деятельности детей, исследование применяемых методик, какие учебные технологии и приемы

способствуют развитию такого важного качества личности, как интерес. Именно данное качество необходимо для достижения успехов. Исследователями в области образования отмечается тенденция к падению интереса у учащихся к приобретению знаний.

Я.А. Коменский отмечал: «Если учеба дается ребенку трудно, то в этом прежде всего виноваты методы, которыми его учат» [11, с. 166]. Это положение не утратило актуальности и значимости и в наше время. Современная система образования отыскивает и создает новые педагогические технологии. Как правило, они не используют традиционные формы обучения и воспитания, педагогический процесс обучения и воспитания рассматривается как система, базирующаяся на принципах нравственности, гуманности, личностного подхода в развитии творческих способностей учащихся. Система образования на данном этапе времени должна обеспечивать не только усвоение учащимися базового уровня знаний, но и создавать условия получения знаний учениками самостоятельно, формировать в детях стремление обучаться на долгие годы вперед. Достижение таких целей для системы образования сопряжено с внедрением новых направлений в учебно-воспитательном процессе начальной школы. Педагогам для формирования заинтересованности к процессу обучения у детей надлежит всесторонне рассмотреть применяемые технологии и методики, выбрать наиболее подходящие и рациональные.

Рассмотрение ряда источников позволило прийти к установлению проблемы: одна сторона – высокие требования, выдвигаемые к качеству получаемых знаний учащимися, вторая сторона – наметившаяся тенденция снижения интересов к обучению у детей.

Любой ученик проявляет в той или иной мере интерес к обучению. Сам интерес, его формирование служат объектами исследования в качестве мотивации в процессе становления личностных качеств ребенка. Психологами подчеркивается, что дети, испытывая потребность обладать индивидуальностью, воспринимают, по большей части, успех, как достижение определенного соревновательного уровня, а не как положительный багаж опыта. Исследователем и педагогом Р.И. Стручковой была установлена особенность в организации обучения потребностям достижений – создание условий позволяет стимулировать потребности достижения у детей:

– «своевременная и систематическая оценка результатов в соответствии с фактическими достижениями личности;

– ориентация на достижение оригинальных результатов в решении даже повседневных задач обучения и акцентирование внимания ученика на значении таких результатов;

– стремление постоянно улучшать качество выполнения мероприятия, развитие необходимости максимально совершенной работы;

– реализация отдаленных целей;

– постановка задач средней сложности, решение которых даст максимальное удовольствие;

– образование желания завершить начатое дело;

– развитие уверенности в себе и своих способностях, ответственность за проделанную работу» [24, с. 108].

Большое значение для развития интереса к обучению у детей младших классов занимает использование педагогами методик проблемных заданий, которые создаются специально с определенной целью. Педагогические проблемные задания учитель на уроках в младших классах создает вопросами, обладающих новизной материала, подчеркивающих особенных свойств и характеристик предмета изучения, способствующих активизации деятельности детей. Психологическая проблемное задание предлагается ребенку в индивидуальном порядке. Не стоит предлагать достаточно сложную или наоборот – очень простую познавательную задачу, поскольку она создаст проблемное задание для учащихся. Педагог, создавая проблемное задание для учеников, должен учитывать его сложность и специфику, то есть наличие всех компонентов.

Х.В. Уруновой перечисляются следующие такие компоненты:

– «выполнение действий, при которых возникает познавательная потребность в новом, неизвестном способе или условии действия;

– неизвестное, которое должно быть раскрыто в возникающей проблемного задания;

– возможности учащихся в выполнении поставленного задания, в анализе условий и открытии нового» [25, с. 174].

А.В. Хуторской останавливался на рассмотрении следующих методических приемов, позволяющих создать проблемные задания:

– «учитель подводит школьников к противоречию и предлагает им самим найти способ его разрешения;

– сталкивает противоречия практической деятельности;

– излагает различные точки на один и тот же вопрос;

– предлагает учащимся рассмотреть явление с различных позиций, например: командира, юриста, педагога;

– побуждает учеников делать сравнения, обобщения, выводы, сопоставлять факты;

– ставит конкретные вопросы на обобщение, обоснование, конкретизацию, логику, рассуждение;

– определяет проблемные теоретические и практические задачи (например: исследования);

– ставит проблемные задачи (например: с не достаточными или избыточными исходными данными, с заведомо допущенными ошибками, с ограниченным временем решения)» [27, с. 98].

Методики выстраивания проблемного обучения могут различными. Они зависят от функции, которую педагог оставляет за собой, от сложности предлагаемого проблемного задания, но в любом случае присутствует три главных фактора при организации учебного занятия. По мнению В.Н. Люсева: – «содержательную основу проблемного урока составляет проблемный вопрос (вопросы). Главным признаком проблемного вопроса является возбуждение интереса. В качестве проблемного задания может выступить сюжетная задача. В

рамках данного подхода работали многие педагоги, проводя свои занятия в форме урока-путешествия, урокапресс-конференции, урока-аукциона, урока-суда. В рамках таких уроков 24 необходимо, как правило, преодолеть препятствие – разрешить проблемные задачи; – когда проблема уже сформулирована, путь проблемного урока может быть разным: можно искать наугад и, перебирая возможные явления, выяснять, влияют ли они на решение – и если да, то насколько. Однако такой путь малопродуктивен. Поэтому второй путь создания задания– выдвижение гипотезы. Основным требованием к гипотезе является её обоснованность, доказательность, проверяемость. У исследователей может возникнуть несколько гипотез, которые необходимо обосновать;

– в качестве организационного принципа проблемного урока чаще всего выступает принцип совместной деятельности, в основе которого лежит групповой метод обучения с элементами дискуссии, обсуждения, игры. В числе основных факторов, побуждающих учащихся к активности, можно назвать: познавательный интерес;

продуктивный, творческий характер деятельности» [14, с. 856-858].

Построение учебного занятия по проблемному обучению сочетает внешние и внутренние элементы обучающего процесса, обеспечивает самостоятельную работу учеников и способы управления этой работой. Любой урок, учебное занятие в младших классах должны включать содержание, вызывающее у ребят неподдельный интерес, изумление, восхищение. Такую подачу материала им будет сложно забыть. В качестве таких сведений возможно использование какого-то открытия (по теме урока), необычного изложения материала, эффектного опыта-все, что превращает обычное занятие в проблемное и вызывающее интерес у учеников. Вызвать активное мышление у детей можно лишь при наличии сформированной потребности получения знаний у них, которая появляется лишь при преодолении затруднений, для чего необходимы сведения, знания, таким образом, речь идет о проблемных заданиях.

Вывод

Выявлено отношение интереса к позитивным эмоциям, способствующим повышению познания о предмете интереса и повышенному вниманию к предмету. Существует неразрывная связь между интересом и процессом приобретения знаний. Задача, заключающаяся в развитии интереса к обучению у младших школьников, одна из важнейших для поиска решений в педагогике и психологии. Понижения интереса к получению знаний сокращает результативность процесса обучения, т.к. именно интерес мотивирует познавательную деятельность ученика и служит главным инструментом эффективного обучения. Проблемное обучение базируется на использовании поисковых и исследовательских методов, когда ученикам предоставляется самостоятельная деятельность по поиску решения проблем, исследования проблем, когда ребенок свободен в творческом поиске, а это развивает ребенка всесторонне. Гармонично и всесторонне развитая личность – это личность с высоким уровнем мышления. Когда процесс обучения способствует развитию творческих задатков ребенка, то это развивающее обучение, роль педагога в

котором целенаправленно развивать мыслительные и познавательные способности учащихся, опираясь на закономерности развития мышления и специальные педагогические методики. Только такое обучение можно называть проблемным. Построение учебного занятия по проблемному обучению сочетает внешние и внутренние элементы обучающего процесса, обеспечивает самостоятельную работу учеников и способы управления этой работой. Любой учебный урок в младших классах должен включать содержание, вызывающее у ребят неподдельный интерес, изумление, восхищение. Такую подачу материала им будет сложно забыть. В качестве таких сведений возможно использование какого-то открытия (по теме урока), необычного изложения материала, эффектного опыта-все, что превращает обычное занятие в проблемное и вызывающее интерес у учеников.

Список литературы

1. Алиева М. А. Особенности формирования познавательного интереса у детей младшего школьного возраста // Известия Чеченского государственного педагогического института. 2018. № 1. С. 144-147.
2.Арапов К. А., Рахматуллина Г. Г. Проблемное обучение как средство развития интеллектуальной сферы школьников // Молодой ученый. 2012. № 8. С. 410-414.
3. Бтикеева М. А. Актуальные проблемы применения технологии проблемного обучения // Журнал актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2016. №2. С. 175-177.
4.Вилькеев Д. В. Познавательная деятельность учащихся при проблемном характере обучения основам наук в школе. Казань : Изд-во КГУ, 1967. 620 с.
5.Власова Е. Н. Условия реализации проблемно-деятельностного подхода в процессе обучения // Наука и школа. 2020. № 5. С. 109-113.
6. Гельвеций К. А. Учение об обществе. М. : Красанд, 2011. 390 с.
7.Иванова Н. В. Эффективные средства и приемы формирования познавательного интереса у младших школьников // ПНиО. 2019. №6. С. 70- 73.
8.Ильницкая И. А. Проблемное обучение – эффективная система развития творческого потенциала личности обучающегося // Современные направления развития педагогической мысли. 2019. №6. С. 125-132.\
9.Мирзаева, Д. (2022). Арт педагогикаси воситасида мактабгача таълим ташкилоти болалари ижодкорлигини ривожлантириш. *Общество и инновации*, *3*(1/S), 141-148.
10.Mavjuda Mahmudovna Nigmatova ZAMONAVIY DUNYODA BOLANING SHAXSIY RIVOJLANISHI MUAMMOLARI // Scientific progress. 2021. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-dunyoda-bolaning-shaxsiy-rivojlanishi-muammolari (дата обращения: 25.03.2022).
11.Nigmatova, M. M. (2021). MUAMMOLI VAZIYALARINI HAL QILISHDA INTERFAOL VOSITALARDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, *2*(7), 1079-1085.
12.Мирзаева, Д. Ш., Мухитова, Р. С. К., & Уйғуновна, И. Қ. (2020). Формы сотрудничества с семьями дошкольных образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 59-61.

13.Supxonovna H. N. Social competencies of primary school students //American journal of science and learning for development. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 110-112.
14.Suphanovna K. N. Improving the Mechanisms for the Formation of Socio-Legal Competencies of Students in the Lessons of Education in Primary School //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 25-28.

TAJRIBA-SINOV ISHLARINING SAMARADORLIK DARAJASI

Latipov Ravshanbek Ismayilovich,
TDPU v.v.b.professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagoglarda kasbiy madaniyatga doir nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda birinchi navbatda, mustaqillik, fikr almashish, tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: nazorat va tajriba guruhlar, kasbiy madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, tadqiqot ishi, kasbga bo‘lgan munosabat.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagoglarda kasbiy madaniyatga doir nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda birinchi navbatda, mustaqillik, fikr almashish, tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratildi.

Bunda fanlar, yangi pedagogik texnologiya, Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi mutaxassislikka doir bilimlar, kompyuter texnologiyasi va uni amaliyotga joriy etish, dasturlash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarning yuqori darajada o‘zlashtirilishi nazarda tutildi. Shu jarayonda talabaning “Jismoniy tarbiya va sport” fanlari sohasidagi kasbga bo‘lgan munosabati aniqlandi.

Ikkinchidan, “Jismoniy tarbiya va sport” fanlari sohasidagi pedagog kasbiy madaniyatining rivojlanganlik darajasini aniqlashga ahamiyat berildi. Bunda uning maqsadga erishishdagi qat’iyligi, yangi vaziyatlarda bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil qo‘llash, yangi muammolarni ko‘ra bilish, ijodkorlik bilan birga axborot vositalari va uslublari, maqsadli faoliyat dasturi asoslari kabi bilimlarni egallashi natijasida mutaxassislik faoliyati: Faoliyatni tashkil etish, jihozlash yangi texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasi, internet tarmoqlarida ishlash ko‘nikma va malakalari aniqlandi[1,35]. Bo‘lajak “Jismoniy tarbiya va sport” fanlari sohasidagi pedagoglarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ilmiy-texnik manbalar, axborot fanlaridan o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llash, o‘z vazifalarini mustaqil hal etish, shaxsiy axborot fondini tashkil etish malakalarini shakllantirish yuzasidan tegishli xulosalar chiqarildi.

Uchinchidan, “Jismoniy tarbiya va sport” fanlari sohasidagi pedagogning ijodiy salohiyati kasbiy-ijodiy tayyorgarligi, o‘z kasbini aniq tasavvur etishi, oliy ta’lim va professianal ta’lim maktablari faoliyatini bilishi, fikr almashish va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi bilan bog‘liqligi yuzasidan muayyan xulosalarga kelindi hamda shunga doir tavsiyalar berildi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida talabaning muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoa ijodiy faoliyati haqidagi bilimlari, ta’lim-tarbiya uslublari va yangi pedagogik texnologiya faoliyatiga asoslangan holda

vazifalarni amaliy hal etish ko‘nikma va malakalarining shakllanishi o‘z isbotini topdi[3,12].

To‘rtinchidan, talabaning mehnat faoliyatida ijtimoiy faollikni namoyon etishi, oliy ta’lim jarayonida yangi muammolarni ko‘ra bilishi, ularni hal etish yo‘llarini izlab topishi, muhokamalarda mustaqil fikr aytishi va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi muhimligi ilgari surildi. Bunga amal qilishi natijasida talabaning jamiyat taraqqiyotida fan-texnikaning rivojlanishi, yangi O‘zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy jabhalardagi yutuqlari, mehnat jamoasi faoliyatini ifodalovchi qonunlar haqidagi bilimlari, ta’lim-tarbiya uslublardan foydalanish, jamoada mehnat qilish ko‘nikma va malakalari shakllanishi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, jamiyat hayotida yetuk kadrlarning, har qanday vaziyatda mutaxassislikni egallashi, o‘z bilimlari asosida kasbiy madaniyatini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan kasbiy bilim, kasbiy yo‘nalish, kasbga bo‘lgan qiziqish. Kognitiv, mehnatga tayyor bo‘lish, kasbiy mahorat, kasbiy faoliyat-Empirik, mehnatga ijodiy yondashish, ijtimoiy faollik-Kreativ kabi komponentlarni o‘z ichiga olgan talaba kasbiy madaniyatini aks ettiriruvchi kognitiv, empirik va kreativ mezonlari sifatida qabul qilindi[1,56].

Ushbu mezonlarning shakllanganlik darajasi yuqori, o‘rta, quyi darajalarni tashkil etdi:

Yuqori darajaga Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi mutaxassisligini yaxshi tushungan talabalar kiritildi. Ular kasbiy madaniyatga doir bilimlarni chuqur egallab, o‘zlarining tashqi va ichki madaniyatlari bilan jamoat joylarida hurmat qozonadilar.

Bu guruhdagi Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi talabalarda o‘qituvchilik xususiyatlari ustun bo‘lib, ular o‘z bilimlari bilan ajralib turdilar. Ular Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi mutaxassislik yo‘nalishlari haqidagi bilimlariga amal qiladilar. O‘z do‘stlari o‘rtasida hurmatga loyiq bo‘lib, mustaqil ta’lim olishga harakat qiladilar, mustaqil va ma’suliyatli bo‘lishga intiladilar. Ularning bilish darajalari yuqori bo‘lib, o‘quv imkoniyatlaridan unumli foydalanadilar. O‘z bilimlari bilan boshqalarga namuna bo‘ladigan talabalarning diqqatlari barqaror, xotirasi mustahkam, fikrlash doirasi keng, tafakkur salohiyati yaxshi shakllangandir. Ular har bir topshiriqni mustaqil ravishda oxirigacha bajaradilar, har bir ishga ma’suliyat bilan qaraydilar.

O‘rta daraja-bu guruhdagi Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi talabalar kasb madaniyati mohiyatini tushunadilar, lekin doimo bunga amal qilmaydilar. Aniq maqsadga erishishning yo‘llari va omillarini tushunib yetmaydilar. Ular kasb haqida yetarli bilimga ega bo‘lib, mutaxassislikni to‘g‘ri ajratadilar hamda boshqa kishilarda bunday xususiyatlar yo‘qligini biladilar, lekin ijtimoiy hayotda tajribalari yetarli bo‘lmaganligi uchun xatti-harakatlarida salbiy holatlar uchraydi. Bo‘sh vaqtlarini aksariyat hollatda unumli o‘tkaza olmaydilar. O‘quv imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaydilar. Ular ta’sirchan, voqea-hodisalarga beriluvchan bo‘lib, o‘zlarining xatti-harakatlarini tushunadilar va bunda o‘zlarini ayblaydilar. Ammo ochiqchasiga qarshi kurashmaydilar[2,12]. Bunday guruhga xos xususiyat mustaqil bilimning

yetishmasligidir. Ularning tashqi ko‘rinishidagi qat’iylik shunchaki ko‘rinish bo‘lib, doimiy emasdir.

Quyi daraja-bu guruhdagi Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi talabalar kasbiy madaniyat tushunchasi va mohiyati haqidagi bilimlarga to‘liq ega emasligi bilan farqlanadilar. Ular o‘zlarining xatti-harakatlarini to‘g‘ri rejalashtira olmaydilar. Qo‘yilgan talablarni bajarishda xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar. Ularda kasb madaniyatini buzish hollari uchraydi. Mustaqil bilimga ega bo‘lgan talabalar ustidan kuladilar, ularni tan olmaydilar. Ularga hech qanday talab qo‘yilmaydi va nazorat qilinmaydi. Shuning uchun ham ular o‘z-o‘zini boshqara olmaydilar. Ularning faoliyatida mas’uliyatsizlik, befarqlik ko‘rinadi. Fikrlari tarqoq bo‘lib, o‘qishga munosabatlari o‘z tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada pasaygan bo‘ladi. Bu talabalarning barcha fanlardan o‘zlashtirish darajasining pasayishga sabab bo‘ladi. Shu sababli, guruh rahbari va fan o‘qituvchilari ular bilan yakka tartibda mashg‘ulotlar olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Bu guruh talabalarining faqatgina o‘qishiga emas, balki tarbiyasiga ham alohida e’tibor berish lozim.

Dastlabki olingan natijalarda xar bir mezon bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining baholash darajalari bo‘yicha ko‘rsatkichlari tajriba va nazorat guruhlarida bir biriga yakinligi kuzatildi. Bunda tajriba guruhlari va nazorat guruhlaridagi baholash darajalari bo‘yicha quyi darajdaga ega bo‘lgan talabalar ko‘pchiligi ya’ni 64,3% dan 73,1% gacha ekanligi tajriba sinov ishlari dasturini davom ettirish kerakligini bildiradi. Bu ko‘rsatkichlarning umumiy natijalari qiyosiy taxlili kuyidagi diagrammada keltirildi[3,89].



Nazorat va tajriba guruhlarining tajribadan oldingi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Tadqiqot ishi dasturidagi olib borilgan tajriba sinov ishlaridan so‘nggi natijalar olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Asadov Yu.M., Turdiev N.Sh., Akbarova S.N., Temirov D.Sh., Babadjonov S. O‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari // Uslubiy qo‘llanma. – T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy – tadqiqot instituti, 2016.

2. Sharipov Sh.S. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi. O‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari. – T.: TDIU, 2005.

3. Ro‘zieva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. P.f.d. olish uchun yozilgan dissertatsiya Avtoreferati-T., 2007.

4 Tojiev M. va boshqalar. O‘qituvchi faoliyatini loyihalash: Uzluksiz ta’limda modulli texnologiya// Monografiya. -T.: “Turon-Iqbol”, 2017 y.

5. Innsheon deslaration /Edusation 2030: Towards inslusive and euitable qualitu edusation ang lifelong learning for all (Word Edusation Forum, 19-22 may 2015, Insheon, Rerublis of Korea).

JISMONIY MADANIYAT TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINI KASBIY PEDAGOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI AHVOLI VA UNI PARAMETRLARI.

Latipov Ravshanbek Ismayilovich,
TDPU professori v.v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish mazmuni va shakllarini uslubiy jixatlari keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya va sport, kasbiy bilim, orzu-intilishlar, kasbiy madaniyat, muammoli vaziyat, tashkilotchilik.

Yurtdoshlarimizning madaniy saviyasi, bilim va dunyoqarashi kundan-kunga oshib bormoqda. Qadimiy an’analarimiz, tarixiy merosimizni asrab-avaylash jarayonlari rivojlanmoqda. Talabalar ongida demokratik qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi shakllanmoqda. Yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lida munosib ishlar amalga oshirilmoqda[3,5].

Albatta, ushbu ishlarni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va bo‘lajak jismoniy tarbiya fani mutaxassislarni voyaga etkazish muhim ahamiyatga ega. Chunki, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bu-o‘quv-tarbiya ishlarining samaradorligiga erishish, talabalarning kasbiy-pedagogik madaniyatini shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, o‘z mustaqil fikrini ifoda etishiga imkon berish, qiziqish va intilishlari, hayotiy manfaatlari masalalariga alohida e’tibor qaratish demakdir.

Hozirgi davrda oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda davlat va jamiyat talablarini bajarmoqda.

Shu sababli ham jamiyatning rivojlanish bosqichlari talabalarning egallagan bilimiga, o‘z mutaxassisligiga bo‘lgan munosabatiga, aqliy salohiyati va bilimiga bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan, bugungi talaba shaxsida jismoniy tarbiya fani bo‘yicha mutaxassislik kasbini egallashi, madaniyatli, insonparvar, vatanparvar xislatlariga ega bo‘lishi, demokratiya va so‘z erkinligi tamoyillarini amalda ta’minlashga erishish, ularda tanqid ruhini kuchaytirish mustaqil faoliyatini

takomillashtirish kabi xususiyatlarni shakllantirish oliy ta’lim jarayonidan chuqur o‘rin egallashi zarur. Ushbu masalalar bevosita kadrlar tayyorgarlik darajasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, komil shaxs ta’minotini belgilaydi.

Talabalarning kasbiy pedagogik madaniyati, avvalo, ularda ma’naviy salohiyat va ijtimoiy ahamiyatga molik sifatlarning kamol topishiga, ularni ishlab chiqarish, boshqarish doirasida amaliy tatbiq etishiga bog‘liq. Chunki talaba mutaxassis sifatida ma’naviy madaniyat sifatlarini o‘zida mujassam etishi, unga amal qilishi komillikka qo‘yilgan qadamning asosiy mazmunini tashkil etadi. Kasbiy pedagogik madaniyati shakllangan shaxs har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lishi bilan mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida faol ishtirok etadi, huquqiy, demokratik jamiyat qurishga muhim hissa qo‘shadi. Bu esa, Jismoniy tarbiya fani bo‘yicha mutaxassis kadrlarning xalqaro hamjamiyatda o‘z o‘rnini mustahkamlashga imkon yaratadi. Darhaqiqat, bugungi kunda kasbiy madaniyatga ega bo‘lgan etuk kadrlar tayyorlash fuqarolik jamiyatini qurishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda[3,19].

«Ta’lim to‘g‘risidagi» qonunda etuk kadrlar tayyorlash modeli ishlab chiqilgan. Bular davlat, shaxs va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish bo‘lib, talabalarda kasbiy pedagogik madaniyatni shakllantirish hamda ta’lim uzviyligiga erishishning asosiy negizini tashkil etadi[1,29]. Ushbu modelda insonni intellektual va ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash, uzluksiz ta’lim orqali kasbiy madaniyatga ega bo‘lgan barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirish ko‘rsatilgan. Demak, oliy ta’lim muassasalarida kasbiy pedagogik madaniyatga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash ularda bilimdonlik va iste’dodni shakllantirish, fundamental va amaliy bilimlarni egallashlariga erishish, bo‘lajak kadrlarda ustoz va shogirdlik an’analarini rivojlantirish bilan birga jahon standartlari talabiga javob beradigan mutaxassislik ma’lumoti va kasbiy pedagogik madaniyatga ega bo‘lgan yoshlarni voyaga etkazishdan iboratdir.

Bugungi kunda talabalarda kasbiy pedagogik madaniyatni shakllantirish kadrlar tayyorlashning negizini tashkil etadi. Chunki kasbiy pedagogik madaniyatga ega bo‘lgan kadrlar yangicha tafakkur qilish bilan birga, o‘zlarining mutaxassisligi, e’tiqodi, ongli intizomi, tajribasi, faoliyati bilan barkamollik kasb etadi, tashkilotchi va zukko bo‘ladilar[3,43].

Shuning uchun ham ularni ilm-fan yutuqlari va ishlab chiqarish bilan tanishtirib borish, kasbiy pedagogik madaniyat haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, ko‘nikma va malaka hosil qilish bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda muhim masalalardan biridir.

Bugungi kunda jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, namunaviy va ishchi dasturlar mavjud. Hozirda ushbu meyoriy hujjatlar yangi talablar asosida qayta ishlab chiqilmoqda. Ta’lim muassasalari o‘quv adabiyotlari bilan etarli darajada ta’minlangan. Barcha umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlari yaratilgan.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar davomida shuni aniqladikki, jismoniy tarbiya fani bo‘yicha yo‘nalishida muhim tadbirlar amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlarda bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport fani bo‘yicha mutaxassislarning intilishlari, ularning shaxsiy qiziqishlari, mustaqil fikrlashlari, faolliklari va dunyoqarashlari asosida kasbiy pedagogik madaniyatini shakllantirish uchun oliy

ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining sifat darajasiga e’tibor qaratish, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur o‘rganildi.

Meyoriy hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilishdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishlari Davlat ta’lim standartlarida bakalavriat bo‘yicha Sport ustasi sifatida faoliyat yuritishi uchun kerak bo‘lgan jihatlarga, jumladan, amaliy kasbiy va jismoniy madaniyat ta’lim metodikasiga ham kam e’tibor qaratilgan. Sport ustalari sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan yosh mutaxassislar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rovlari ham ularning amaliy kasbiy ta’lim, jismoniy madaniyat ta’lim metodikasiga ehtiyoji yuqori ekanligini ko‘rsatdi[4,65].

Holbuki, jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishiga oid dasturlar, darsliklar yaratilgan. Ularda ijtimoiy-gumanitar va mutaxassislik fanlarining umummetodologik asoslari, fanlarning predmeti, maqsadi, vazifalari va ularning yangilangan ta’lim jarayonidagi o‘rni, o‘qitishning didaktik vositalarining tasnifi, turlari va ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati ko‘rsatilgan. Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishida mazmuniga oid sport vositalari va ularning didaktik xususiyatlari, sport vositalari va metodikasi yaratilgan. Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalar, didaktik vositalar majmui va pedagogik innovatsiyalar, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish kabilar o‘rin olgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi mazmunida har tomonlama kamol topgan jismoniy madaniyat pedagogi shaxsini shakllantirish, uning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishda sport vositalarining o‘rni, talabalarda mukammal bilim va chuqur tasavvurlar hosil bo‘lishi uchun muhim imkoniyatlar yaratish xususiyatlariga e’tibor qaratilishi yuqori saviyada emas.

Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan o‘quv fanlari, sport vositalari, ularning turlari, qo‘llanilishi va ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlariga oid metodik tavsiyalar etarli darajada deb aytishga asos yo‘q. Lekin, shuni aytish kerakki, oliy ta’lim muassasalari talabalarining amaliy va mustaqil ishlari, ularning bilimlarni puxta o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalarini to‘la shakllantirish; jismoniy tarbiya fanining yo‘nalishida va h.k. fanlarga oid darslarida jadval, diagramma, modellar, maketlar, sport vositalaridan foydalanish kabilar kasbiy pedagogik madaniyatni shakllantirishning muhim omillari hisoblanadi[2,45].

Bo‘lajak jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishidagi pedagoglariga ko‘proq ma’lumot berish, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish va oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash yo‘llari, usullari va metodlari bilan tanishtirish, shuningdek, sport xonalarini didaktik vositalar majmui bilan jihozlash, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan qurollantirish metodikasi haqida talabalarga ma’lumot berish va didaktik vositalarni amalda qo‘llay olish ko‘nikmasini hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, jismoniy tarbiya fanining mazmunini takomillashtirishga alohida e’tibor berish va talaba shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiya masalalari muhim o‘rin tutadi. Bunda talaba shaxsiga bo‘lgan talablar bilan mutaxassis tayyorlash texnologiyasi va mexanizmining yaratilishi ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning negizini tashkil etadi[3,78].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sharipov Sh.S. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi. O‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari. – T.: TDIU, 2005.

2. Ro‘zieva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. P.f.d. olish uchun yozilgan dissertatsiya Avtoreferati-T., 2007.

3. Sharifbaeva X.Ya. «Kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (qiyosiy tadqiqotlar asosida)» mavzusidagi dissertatsiya. ped.fan.nom. diss.Avtoref. – T., 2007.

4. Hodges S., G. Shildren as readers. London: Edusation, 2009.

5. Innsheon deslaration /Edusation 2030: Towards inslusive and euitable qualitu edusation ang lifelong learning for all (Word Edusation Forum, 19-22 may 2015, Insheon, Rerublis of Korea).

HUNARMANDCHILIK ASOSIDA KASBIY-AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRIS MUAMMO VA YECHIMLARI HAQIDA

Magdieva Marxabo Erkinovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich talim fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (*kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik* va boshqalar)ga ajraldi.

Kalit so‘zlar: hunarmand, xalq hunarmandchiligi, kasbiy amaliy kompetensiya, an’ana, pedagogik imkoniyatlar

Respublikamizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, kasbiy faoliyatning individual psixologik tarkibiy qismi yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallash qobiliyati, ish natijalarini baholash qobiliyati, rivojlanish qobiliyatidir.

o'zining ijodiy individualligi, oldingi tajribani anglash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi tashkil etishga e'tibor berish. Shaxsiy komponent - o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini bilish, xohish san'at va hunarmandchilik bilan shug'ullanish, kasbiy faoliyatdan qoniqish.

Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, mas, paxta va pilla bor yerda to‘qimachilik, sifatli xomashyo bor yerda kulolchilik, jun va teri ko‘p yerda to‘qimachilik va ko‘nchilik, shunga qarab kosibchilik, o‘rmonlar ko‘p yerda yog‘ochsozlik, ma’danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo‘ylarida kemasozlik va boshqa rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning 3 turi shakllangan: 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik; 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik. Uy hunarmandchiligi kapitalizmga qadar bo‘lgan davrlarda hunarmandchilikning eng ko‘p tarqalgan turi bo‘ldi. Hunarmandchilikning bu turi natural xo‘jalikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaharlar rivoji buyurtma bilan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash va bozorga hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal o‘sishi bilan uzviy bog‘liq. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqariddi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vu-judga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha

ixtisoslasha bordilar. Shaharlardagi mahallalar hunarmandlarning kasbkoriga qarab shakllangan (XX asrning boshlarida Toshkentda ko‘nchilar, kulollar, egarchilar, beshikchilar, o‘qchilar, kosiblar mahallalari bo‘lgan). Ayrim mahalla, kvartal, shaharlar hunarmandchilikning ma’lum mahsulotlari bilan shuhrat qozona boshladilar.haqida fikr mulohazalar yoritib berilgan.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikdan ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z-ozini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

“Kompetentlik (ingl. “Competence”- qobiliyat) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bolgan bilim, konikma va malakalar-ning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi .

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yonalish boyicha integrativ bilimlar va harakatlarning ozlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni orga-nishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi malu-motlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va oz faoliyatida qollay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon boladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid malumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Biz har bir pedagogni ham kasbiy kompetentlikka to‘laqonli ega deb aytolmaymiz. Kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan pedagog o‘z bilimlarini izchilllik bilan boyitib boradi, kreativlikka intiladi, yangi axborotlarni tinimsiz ravishda o‘zlashtirib boradi, takrorlanmas bilimlarni izlab topadi,davr bilan hamnafas yuradi, bilimlarni qayta ishlaydi va ularni amaliyotda qo‘llashning samarali yo‘llarini o‘ylab topadi .

Bir qator aniq vazifalar: idrok, tasavvur va fikrlashni rivojlantirish, nazariy bilimlarni olish gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy fanlar sohasida badiiy va ijodiy faoliyatda amaliy ko'nikmalarni egallash. “Ko'p tomonlama fanlararo aloqalar yordamida sifat jihatidan yangi darajada, o'quvchilarni tayyorlash, rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari hal etiladi, o'qitishga kompleks yondashuv va o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun didaktik shart-sharoitlar uchun asos yaratiladi. o'n bir].

Fanlararo aloqalar bilimlarni bir fandan boshqasiga o'tkazish usullarini o'zlashtirishga yordam beradi, bu esa o'quv va ijodiy muammolarni hal qilishda o'quv jarayoniga diqqat va mantiqiy izchillikni kiritadi. “Chizmachilik”, kabi fanlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va semantik munosabatlar. "Rasm", "An'anaviy madaniyat tarixi", "Dizaynlash", "Shakllanish", istisno qilmaydi.

Butunning alohida qismlarining o'ziga xosligi va mustaqilligi, shu bilan birga u turdosh fanlarni o'rganishda umumiy mavzular va vazifalar asosida o'zaro bog'liq tarkibni ishlab chiqishni nazarda tutadi.Bilamizki, pedagogik kompetentlik pedagogik jarayon asosida namoyon bo‘ladi. Qachonki pedagogik jarayon to‘g‘ri vujudga

kelsagina ta’lim beruvchi o‘z kompetentligini samarali qo‘llay oladi. Xo‘sh o‘zi pedagogik jarayon nima? Shu tushuncha haqida bilib olamiz. Pedagogik jarayon - zarur bo‘lgan bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, shaxs va guruhning axloqiy-siyosiy, psixologik va jismoniy sifatlarini shakllantirish maqdsadida insonlar tomonidan (ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi) tashkil etilgan va yo‘naltirilgan faoliyat. Pedagogik jarayon boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi

Hunarmandchilik - milliy-an’anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saqlangan. Kam rivojlangan mamlakatlarning xalq xo‘jaligida hozir ham muhim o‘rin egallaydi.

Albatta, dekorativ-amaliy san’at ustalarini tayyorlashda hayotdan rasm chizish o‘quv jarayonining asosidir. Mahsulot yaratishda siz har qanday shaklni tasavvur qilishingiz kerak, turli pozitsiyalarda va uni kerakli burchakdan tasvirlash, bu ob'ektni, uning tafsilotlarini va dizaynini aniq tushunishni talab qiladi, ya'ni. tabiat haqidagi bilim. Ehtiyotkorlik asosida hayot chizish jarayonida individual faktlarni tanlash va o'rganish, dizaynni tahlil qilish, shaklning plastikligi, fazoviy holati, teksturasi, tasvirlangan ob'ektning asosini tashkil etuvchi eng muhim elementlar yoki hodisalar. Ilmiy bilim va amaliy ko'nikmalar to'plangan sari ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi va vizual xotira, atrofdagi voqelikni kuzatish va tahlil qilish qobiliyati. Talabalarning rang savodxonligini o'zlashtirish, ranglarning barcha xususiyatlarini va ularning o'zaro ta'sir qilish usullarini, garmonik munosabatlarni qurish naqshlarini bilish, shakl va rang o'rtasidagi bog'lanishlarni hisobga olish. Yangi konstruktivni ishlab chiqish tabiiy materiallarga asoslangan dekorativ va amaliy mahsulotlar uchun echimlar bo'lajak rassomlarning ijodiy izlanishlariga puxtalik va miqyos baxsh etadi. Shuning uchun jarayonda rasm chizish va rasm chizishni o'rganish

San'at va hunarmandchilik ta'limiga katta e'tibor beriladi.Xalq hunarmandchiligi o‘zbek xalqining mehnati samarasi, badiiylik, garmoniya va go‘zallikni anglashga yo‘naltirilgan ongli faoliyati mahsuli bo‘lib, o‘z mazmun-mohiyatida xalqning moddiy va ma’naviy boyliklarini mujassam etadi. Shunga ko‘ra, xalq hunarmandchiligi odamlarning kundalik maishiy ehtiyojlarini qondirish manbayi, xalq badiiy tafakkurining namoyishidir. So‘nggi bir necha yillarda o‘zbek xalq hunarmandchiligi keskin ravishda oyoqqa turib, nafaqat ichki bozorni, balki butun dunyo bozorini egallash yo‘lidan ketmoqda.

Hammamizga ma’lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning eng muhim maqsadi yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir. Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachiliksan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklarga ajraldi

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachiliksan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik,

binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va b.)ga ajraldi.

Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, mas, paxta va pilla bor yerda to‘qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (mas, Rishton-da) kulolchilik, jun va teri ko‘p yerda to‘qimachilik va ko‘nchilik, shunga qarab kosibchilik, o‘rmonlar ko‘p yerda yog‘ochsozlikg ma’danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo‘ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda

Demak, yoshlarda zamonaviy kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni ehtiyojlar asosida vujudga kelgan bo‘lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan kengayib, takomillashib boradi.

Bo‘lajak dekorativ-amaliy san’at ustalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish an’anaviy xalq madaniyati tarixini o‘rganish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning boshqa milliy madaniyatlar haqidagi bilimlarni egallashiga yordam beradi. Mutaxassislar ta'limi,

ham jahon miqyosidagi, ham muayyan mintaqadagi xalq urf-odat va an’analariga asoslangan shakllangan g‘oyaviy va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish yoshlarning zamonaviy ko'p millatli, ko'p madaniyatli rus jamiyatiga kirish jarayoni;

qadriyatlar, xulq-atvor me’yorlari, vatanparvarlik va milliy o‘zlikni anglash tizimini shakllantiradi.

"Shakllanish" fanida "yadro" mavjud bo'lib, ular tegishli bo'lgan kompozitsiyaning morfologik vositalarini, uning naqshlarini, qurish texnikasini, uyg'unlashtirish usullari va vositalarini o'rganish uchun asosdir.

har qanday ijodiy kasb mutaxassislari uchun. “Dizayn” fani egallashga qaratilgan maqsadi, vazifalari va murakkablik darajasi bo'yicha har xil bo'lgan aniq mahsulotlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini hisobga olgan holda konstruktiv, texnologik, estetik, stilistik, iqtisodiy va boshqa omillar.

Demak, kasbiy kompetentsiyani shakllantirish yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qodir, ma’naviy va moddiy madaniyatning yuksak badiiy namunalarini yarata oladigan, talabchan, raqobatbardosh, talabchan mutaxassisni tayyorlashni ta’minlaydi.

Atrof-muhit ob'ektlarining badiiy dizaynini amalga oshirishning an'anaviy va zamonaviy vositalari, usullari va texnologiyalari.

O‘quv rejasi doirasida talabalarni integrallashgan holda o‘qitish va fanlararo aloqadorlik o‘quv jarayonini o‘zgartiradi, uni maqsadli va samaraliroq qiladi. Fanlar uzluksizligi va ular o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o'ziga xos ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Амиргазин К. Ж., Удалов С. Р. Формирование компетентностей в процессе обучения декоративно-прикладному искусству // Омский научный вестник. 2012. № 2 (106). С. 223-225.

2. Гурьев А. И. Статус межпредметных связей в системе современного образования // Наука и школа. 2002. № 2. С. 41-45.

3. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003. № 5. С. 34-42.

4. Кенжебеков Б. Т. Методологические подходы к исследованию развития профессиональной компетентности специалиста // Профессиональное образование. 2004. № 5. С. 177-182.

5. Мишина А. В. Развитие искусствоведческой компетенции бакалавров художественных факультетов // НАУКОВЕДЕНИЕ: интернет-журнал. 2015. Т. 7. № 4 (июль – август). URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/razvitie-iskusstvovedcheskoy-kompetentsii-bakalavrov-hudozhestvennyh-fakultetov (дата обращения: 27.06.2017).

6. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T.: “Sano-standart”, 2015.

7.Erkinovna, M. M. (2021, February). The role and importance of the creative approach in the teaching of folk art and the science of artistic design. In E- Conference Globe (pp. 5-7).

8.Магдиева, М. Э. (2022). Использованию В Конце XIX–Начало XX Веках В Узбекистане Местных Тканей Для Пошива Одежды–Шёлковых, Полушелковых И Процесс Их Изготовления. Miasto Przyszłości, 28, 1-3.

9.Erkinovna, M. M. Teaching folk craft and artistic design in professional education. International Journal For Innovative Engineering and Management Research, 10(03), 355-356.

10.Erkinovna, M. M. (2023). Pedagogical Foundations of Women's Professional Competence Based on Crafts. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(4), 56-59.

11.Магдиева, М. Э. (2023). Традиционное Искусство Ткачества. Miasto Przyszłości, 33, 145-149.

“QOBUSNOMA” ASARINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mahmudova Shahrizoda Ravshan qizi
Nizomiy nomidagi Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir.Maqolada asarda o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatish masalalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kasb, qobilyat, mehnat, dehqonchilik, saxiylik, to‘g‘rilik, qobilyat, hunar.

Har bir millat milliy merosi bilan umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlarni bog‘lagan holda muqaddasdir. Har bir millatning o‘ziga xos meros va qadriyatlariga suyangan holda tarbiyalash, milliy asosda yosh avlodga yetkazish doimo dolzarb jarayonlardan biri bo‘lib kelgan.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy koʻnikma va malakalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayondir. Mehnat tarbiyasidan koʻzlangan maqsad, avvalo, oʻquvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir. [3]

“QOBUSNOMA” - Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta’limiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi (11-asr). Tabariston (Mozandaron) hukmdori Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al-Maoliy (Kaykovus, 1021—98) tomonidan fors tilida yozilgan (1082—83) va "Nasihatnomai Kaykovus" deb atalgan. "Qobusnoma" shu asarning oʻzbekcha tarjimasidir. muallif asarni oʻgʻli Gilonshohga bagʻishlagan. " Qobusnoma " asosini Qur’oni karim suralari, Muhammad (sav)ning faoliyati va koʻrsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Paygʻambarlarning xilqati (yaratilishi), Allohni ne’matiga shukur qilmoq haqida boʻlib, qolgan 40 bobi ota- onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san’atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni oʻrganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi koʻplab masalalarni oʻz ichiga oladi. Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaraladi. Odamlar 3 guruhga boʻlinib, ularning jamiyatda tutgan oʻrni belgilanadi; odamlarning fazilatlari ham 3 guruhga boʻlinadi: aqllilik, haqgoʻylik, juvonmardlik. Kaykovus dunyodagi mavjudotni birbiri bilan bogʻliq va murosasiz deb talqin qiladi. U kishi ruhiyatini ham 2 guruhga boʻladi: jismoniy sezgini modda, ruhiy hissiyotni esa "jon" bilan bogʻlaydi va bularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb koʻrsatadi. Uning fikricha, dunyodagi hamma narsalar yaralishi va mohiyat e’tibori bilan ilohiydir. Zero, inson Allohni tanimoq uchun avvalambor oʻzini bilmogʻi, ya’ni "sozga qarab sozandani tanimogʻi lozim", deydi. Bu kabi masalalar kitobda ixcham hikoyatlar, rivoyatlar, she’r va latifalar, maqol va hikmatlar yordamida bayon qilinadi. "Qobusnoma" rus va Gʻarb sharqshunoslarining , Sharq olimlari va pedagoglarining diqqatini anchadan beri oʻziga tortib keladi. Asar turk (1432, 1705), uygʻur (1786-87), nemis (1811), oʻzbek (1860, Ogahiy tomonidan), tatar (1881), fransuz va rus (1886) tillariga tarjima qilingan. Ogahiy tarjimasining 2 qoʻlyozma nusxasi Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik institutida, yana bir qoʻlyozma nusxasi Sankt-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Xalq kutubxonasida saqlanadi. "Qobusnoma"ning Subutoy Dolimov tomonidan hozirgi oʻzbek tiliga oʻgirilgan nusxasi Toshkentda 3 marta nashr qilingan. [1]

Kaykovus 412 hijriy yilda (milodiy 1021—1022) tugʻilgan. Uning avlodlari gilon qabilasidan boʻlib, Tabaristonda (hozirda Kaspiy dengizining janubidagi hudud) yashaganlar. Ammo biz Kaykovus haqida batafsil ma’lumotlarga ega emasmiz. Kaykovus oʻz hayoti davomida koʻrgan-bilganlari asosida oʻzining buyuk «Qobusnoma» asarini yaratäè. Kitobni u oʻgʻli Gilonshohga bagʻishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmish yoshlarda edi. [1]

«Qobusnoma» Sharqda, xususan Eronning oʻzida ham saqlanib kelayotgan an’anaga koʻra pand-nasihat tarzida yozilgan boʻlib, mana bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda, ularni har

tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo‘llanma bo‘lib kelmoqda. Lekin asarning «Qobusnoma» deb atalishining sababi, uning umuman Qobusga aloqasi haqida eslatilmaydi. Kitob Eronda sakkiz marta nashr etiladi. Bularning eng mukammali mashhur oli Rizo Qulixon Hidoyat tomonidan 1890—1891 yillarda chop etilgan nashri hisoblanadi. Asar keyinchalik Bombeyda, Isfaxonda Fatxulla ibn Amulla Vali Urduni Baxtiyoriy tomonidan chop etildi. Bundan tashqari, «Qobusnoma» ko‘plab Sharq va G‘arb tillariga o‘girilib, nashr etilgan. Jumladan, 1432 yilda Merjomak Ahmad ibn Ilyos tomonidan, 1705 yilda Hasan posha Nazmizoda Murtoza tomonidan, 1881 yilda Qozon tatarlari tilida Qayum Nosiriy tomonidan, 1860 yilda Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o‘zbek tiliga, G‘arb tillaridan — nemis, frantsuz, ingliz tillariga tarjima qilinib, chop etildi. Endi bir-ikki og‘iz so‘z Shamsul-maoliy Qobus haqida. Shamsul-maoliy Qobus o‘z davrining fozil kishilaridan bo‘lgan. U keng bilim egasi bo‘lish bilan birga she’rlar ham yozgan. Hukmdorligi davrida o‘z saroyida zamonasining peshqadam olimlari va shoirlarini yig‘ib, poytaxti Jurjonni yirik madaniy markazga aylantirgan. Tarixiy manbalarda Qobusning arab tilida yozgan, uchta kitobdan iborat mashhur «Nomalar» asaribo‘lganligi qayd etiladi. Bular «Kamol al-balag‘a» («Suxandonlik kamoloti»), maqol va hikmatlar to‘g‘risidagi «Al-forida fi-l amsal va-l adab» («Nodir nomalar»), «Risolai fil iftixor val kitob» («Tanbeh va maqtov nomalari»)dir.[1]. «Qobusnoma» murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Sho‘ro mafkurasi davrida asarning insonni aqliy, axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati hokim sinf axloqini targ‘ib qilish deb baholandi. Kaykovusning Vatan haqidagi, kasb-hunarni ulug‘lovchi, bilimlarni egallash haqidagi fikrlari, diniy qarashlari siyosiy nuqtai nazardan qoralanadi. Asarning qimmati faqat uning adabiy-badiiy, til xususiyati va tarixiy jihatlarida deb ta’kidlandi. Kaykovusning o‘zi ta’kidlaganidek, butun bir asr ana shu oxirgi bobida ta’rif bergan juvonmardlar tarbiyasiga bag‘ishlangan. Kaykovus unda «... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to‘rt bobda bayon etdim»[1], deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog‘lagan holda kamolga yetkazish yo‘llari va usullarini bayon etgan. Kitobda juvonmardlar egallashi zarur bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda ta’lim-tarbiya berish nazarda tutilgan: Kaykovus bilim olish haqida. Hunar va turli kasb egalari haqida. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida. Jismoniy yetuklik haqida. Chunki har bir juvonmard uchun tan, jon, havos va maoniy, ya’ni ham sipohiylik, ham ma’rifat, ham donishmandlikka ega bo‘lish zarur bo‘lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to‘rt yo‘nalishda zikr etilgan. Kaykovus ilmni uchga bo‘ladi: biror kasb-hunarga bog‘liq bo‘lgan ilm; ilm bilan bog‘liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odatdir. [2]

Shuningdek, ilm olish yo‘liga kirgan toliblarga ham yo‘llanmalar beradi: Hamma vaqt parhezli va qanoatbaxsh bo‘lish, bekorchilikdan o‘zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo‘lish, kitob o‘qishga berilish, ilm yo‘lida qayg‘u-hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun takrorlab borish, yod olish, ilmda haqiqat uchun kurashish, taqlid qilmaslik, doimo o‘z yonida kitob va boshqa o‘quv qurollarini saqlash, oz so‘zlab, ko‘p tinglash haqida fikr bildiradi. Ilm yo‘lida

munozaradan cheiknmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o‘z fikrini bayon qilish zarurligini ta’kidlaydi. [4]

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug‘lar ekan, uni mol-dunyodan ham yuqori qo‘yadi: «Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa sa’y ko‘rguzgilki, mol bila boy bo‘lg‘andan, aql bila boy bo‘lg‘on yaxshiroqdur, nedinkim aql bila mol jam etsa bo‘lar, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilg‘il, aql bir moldurki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas, suvga oqmas»— deb ta’riflar ekan, inson adabi ham aqlning belgisi, («al-adab-suratil aql») deya xulosa chiqaradi.Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta’kidlaydi: «Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo‘lsa-yu, ammo hunari bo‘lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo‘lur. Ulug‘lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo‘ymishlar, sen unga g‘urra bo‘lmag‘il ... Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo‘lg‘il». Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug‘lanadi. Kasb-hunar o‘rganishni bilim olish bilan qo‘shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada qaraydi.[2]

Kaykovusning bu qarashlari o‘sha davrning ilg‘or qarashlaridan sanaladi.Asarda munajjimlik, yer o‘lchash, musiqa, tibbiyot sohasidagi kasb egalarining faoliyati ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Ayniqsa, tibbiyot ilmiga oid qarashlari Kaykovusning zukko, donishmand, har tomonlama yetuk bilimga ega kishi bo‘lganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda o‘ta muhimligi bilan diqqatga sazovor. Masalan, «Dabirlik va kotiblik zikrida» bobida yozma nutqni yaxshi egallash, chiroyli yozish va mashq qilishni maslahat beradi. U xat yozishda saj’ga rioya etish, har bir so‘zni yoqimli, tushunarli, qisqa yozish, zukko va sezgir bo‘lishni ta’kidlaydi. Xattotlikning ulug‘ hunar ekanligi, ammo bu hunarda hech qachon soxtalik, pastkashlik qilmaslikni, sir saqlashni tavsiya etadi va bu borada ibratli hikoyatlar keltiradi. Kasb-hunarga oid uning «Dehqonchilik va bozor peshalari bayoni zikrida» bobi ham diqqatga sazovor. [1]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Habib Abdunazar. Unsur al-Maoliy, Qobusnoma, T., 1973 (to‘ldirilgan 3-nashri), T.,1994.
2. Kaykovus – Qobusnoma , Toshkent 1994
3. Abu Nasr Farobiy.Fozil odamlar shahri.. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston – yoxud axloq. Г., 1996 y.

“QOBUSNOMA”DA O‘QUVCHILARGA KASB-HUNAR O‘RGATISH MASALALARI

Mahmudova Shahrizoda Ravshan qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Maqolada asarda o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatish masalalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kasb, qobilyat, mehnat, dehqonchilik, saxiylik, to‘g‘rilik, qobilyat, hunar.

Har bir millat milliy merosi bilan umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlarni bog‘lagan holda muqaddasdir. Har bir millatning o‘ziga xos meros va qadriyatlariga suyangan holda tarbiyalash, milliy asosda yosh avlodga yetkazish doimo dolzarb jarayonlardan biri bo‘lib kelgan.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Mehnat tarbiyasidan ko‘zlangan maqsad, avvalo, o‘quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma’naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o‘zi bajarayotgan ishning natijalarini ko‘rsa, his qilsa, o‘sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Xalqimizning «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishni ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Mehnatdan qo‘rqma, minnatdan qo‘rq», «Odamning husni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Ta’kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do‘stlik, birodarlik, jamoa bo‘lib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o‘zining va o‘zgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarimiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o‘rgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e’tibor berishgan. O‘zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo‘lganlar. Mehnatsevarlik insonning butun hayoti va faoliyatida amalga oshadigan jarayondir. Halol mehnat kishi hayotining mazmunini tashkil etadi. Halol mehnat bilan tirikchilik qilish va yashash inson hayotining oliy bezagidir. Shu bois donolar “Mehnat kishilik jamiyatining eng zarur shartidir” deb bejiz aytmaganlar. Buyuk alloma Bahouddin Naqshbandiyning “Dil bayor-u dast bakor” nomli mashhur hikmati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zoti Oliyning o‘zlari bunga qattiq amal qilib kelganlar. U kishi talabalarni madrasaga qabul qilish paytida biror

kasbing bormi? deb so‘rar ekanlar. Hunarsiz odam o‘qishga qabul qilinmagan. Buning sababini Naqshband shunday izohlagan: “Agar kishining hunari bo‘lsa, u bilimini haqiqatga bag‘ishlaydi, o‘z mehnati bilan kun kechiradi, bor kasbi-yu bilimini kun kechirishga sarflaydi, halol mehnatni unutadi”, deydi.

Qadimdan ota-onalarimiz bola tarbiyasida mehnatga o‘rgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishda alohida e’tibor berganlar. Farzandlarini layoqatli, qobiliyatli qilib tarbiyalaganlar. Dehqonchilik, bog‘dorchilik, tikuvchilik, naqqoshlik, ganch-o‘ymakorlik, duradgorlik, zardo‘zlik kabi kasblar bir necha asrlardan buyon xalqimiz mehnat faoliyatidan keng o‘rin olgan. Kasb muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyat turidir. Unga umumiy yoki maxsus ma’lumot hamda amaliy tajriba yo‘li bilan erishiladi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o‘z mehnatini ayamasliklari, ayniqsa, maktab o‘quvchilarida mehnatga va mehnat ahliga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishdagi mas’uliyatni chuqur his qilishlari kerak.

Kaykovus o‘z tabaqasi farzandlarining mehnatiga qobiliyatsiz ekanligini, mehnatsiz na ilm, na ma’rifatga erishishi mumkinligini o‘zining hayotiy tajribasi orqali tushundi va o‘g‘li Gilonshohni mehnat qilishiga, hunar o‘rgatishga chaqirdi. Kaykovus yoshlarda har xil kasb egasi bo‘lishini, xilma xil hunar egallashni tavsiya qiladi, ya’ni u xalqqa hunar va kasbni harbiy kishiga harbiy ilmlarni, suvda suzishni, ot minishni, chavgon o‘ynashni, kamon tanlashni o‘rganishni tavsiya qiladi.

Kaykovus asarining 6-bobida ko‘p hunar o‘rganish bilan baland qadr va oliy martabali bo‘lish mumkinligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan.

“Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf keltirmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdur. Hunarsiz kishi ham tikanli buta kabi na o‘ziga va na o‘zgaga foyda berur.

Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo‘lsa, ammo hunari bo‘lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo‘lur. Agar kishida ham nasab gavhari va ham hunar ziynati bo‘lmasa, undan battarroqdur. Agar kishida nasab gavhari bo‘lsa, ammo hunar ziynati bo‘lmasa, u hech kishining suhbatiga loyiq emasdur. Garchi bu ikki gavhar hosil qilgan kishini topsang, etagini mahkam tutgil va undan qo‘lingni tortmagil, bilki u barcha kishilarning mushkulin oson qilgay.

Barcha hunardan so‘z hunari yaxshiroqdir, nedankim, hamma mahluqotdan odam yaxshiroq yaraldi va o‘zga jonivorlardan odam o‘n daraja ziyodadur va bu o‘n daraja odamning badanida hamisha bordur. Beshi tashqarisida ochiqdir, beshi ichida pinhondur. Ul pinhon narsalar: biri bor narsani yod olmoq, biri hamisha esda saqlamoq, biri hayoliga keltirmoq, biri shiddat bilan hujum etmoq, biri so‘zlash. Ammo ul beshtaki tashqarisida ochiqdir, bu — zavq, ya’ni eshitmoq, ko‘rmoq, hid bilmoq, totmoq, siypalamoq, ya’ni sezuv. Bular garchi boshqa jonivorlarda bo‘lsa ham, odamda bo‘lgandek emasdurlar. Bu sababdan odamzod o‘zga jonivorlarga podshoh darajasidadur.

Shularni bilganingdan keyin tilingni yaxshi hunar bilan o‘rgatgil va muloyim so‘zdan boshqa narsani odat qilmagil. Nedankim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyida ishlatgil, so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun

behuda so‘zlamagilki, foydasizdur. Bunday befoyda so‘z ziyon keltirur va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta’kidlaydi: “Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo‘lsayu ammo hunari bo‘lmasa, u xaloyiqning izzat-hurmatidan noumid bo‘lur. Ulug‘lik aql va bilim bilan bo‘ladur, nasl bilan emas. Otni senga ota-onang qo‘ymishlar, sen unga nomunosib bo‘lmagil, ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo‘lgil”, deydi.

Shuning uchun asarda turli kasb egalari ulug‘lanadi.Kaykovus kasb-hunar o‘rganishni bilim olish bilan qo‘shib olib borishni tavsiya qiladi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada deb qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari o‘sha davrning ilg‘or qarashlaridan sanaladi. Asarda Kaykovusning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tadbiq etishga o‘ta muhimligi bilan diqqatga sazovor. Masalan: “dabirlik va kotiblik zikrida” nomli 39-bobida “Ey farzand, agar dabir(ish yurituvchi) va kotib bo‘lsang, yozma nutqni yaxshi egallagin, xatni yaxshi bilgin va ko‘p yozmoqni odat qilgin, toki yaxshiroq mohir bo‘lgaysan”, deydi. U ham yozishda nasriy qofiyaga rioya etish, har bir so‘zni yoqimli, tushunarli, qisqa yozish, zukko va sezgir bo‘lishni ta’kidlaydi. Xatni ibratli hikoyalar, masallar, she’rlar, ibratli fikrlar bilan boyitgil deb maslahat beradi. U kotiblikning shartlari haqida gapirib, har doim podshoh(rahbar) huzurida hozir bo‘lishi, har bir qilinadigan ishni yaxshi anglab olish kerakligini aytadi. Har bir ishni tekshirib, kuzatib turish, biror ishni yoddan chiqarmaslik, xabarsiz qolmaslikni o‘rgatadi. Har daqiqa ish bilan mashg‘ul bo‘lish, barcha hisob-kitob ishlarini vaqtida bajarish kotibning vazifasi deb biladi u. “Podshohning sirini aytmagil va har bir ishdan podshohni ogoh qilgil”, deydi. Xattotlikning ulug‘ hunar ekanligini uqtirib, lekin bu hunarda hech qachon soxtalik, pastkashlik qilmaslikni, sir saqlay bilishni, yolg‘on xabar yetkazmaslikni maslahat beradi. Kaykovus ushbu maslahatlar bilan birgalikda yana quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tadi:

“Ey farzand, aldamchilik bilan shuhrat qozonmagil, agar kishi odamlar orasida yolg‘on-yashiqlarni so‘zlovchi bo‘lsa va buni kim so‘zlaganini bilmasalar, balki sening bo‘yningga tushar. Har qanday tahqirlangan, past ishni qilmagil. Hojat vaqtida bir turli ishni bajargilki, u bir kun ishingga yarab, ulug‘ ishlarga sababchi bo‘lsin va hech odam sendan dargumon bo‘lmasin. Netaykim, ko‘p muhtasham va fozil kishilar xato qilishdan halok bo‘ldilar”.

“Qobusnoma”ning kasb-hunarga oid “Dehqonchilik va bozor peshalari bayoni zikrida” nomli 43-bobi ham diqqatga sazovor. Kaykovus ushbu bobda avvalo dehqonchilik ilmini egallash, mazkur ishda yerni tarbiya qilish, tezkor va g‘ayratli bo‘lishni ta’kidlaydi. Boshqa hunarlar kabi bunda ham rostgo‘y bo‘lish, baxillikdan qochish kabi hislatlarga ega bo‘lishga undaydi. Ayniqsa uning bozor bilan bog‘liq kasb-hunarga oid kishilarga bergan o‘gitlari qiziqarli. Masalan:

“Agar hunar egallamoqni istasang, bozor hunarini tanlagil. Har bir hunarni qilsang ham ildam bo‘lgil va pokiza ish qilgil. Shunda sening ishing hamma hunarmandlarning ishidan yaxshiroq bo‘lgay. Do‘st va oshnalaring ko‘paysin. Oz foydaga qanoat qilgil va xaridorni ko‘p ushlab turish va og‘ir baho bilan o‘zingdan qochirmagil, toki mazkur hunarda rizqing ziyoda bo‘lsin. Xalq sening oldingga bir narsani olmoq va sotmoq uchun kelsa, do‘stimsan va birodarimsan demakdan chekinmagil, toki sening bundoq

mehribonligingni ko‘rib, ular mollariga og‘ir baho qo‘yishdan sharm qilsinlar va sening maqsading hosil bo‘lsin. Shunda hamisha hunarmandlarning orasida yaxshi oting chiqqay. Ammo rost so‘zlagil, baxillikdan parhez qilgil. Savdoyingni yaxshi ishga sarf etgil, qashshoqlarga in’om bergil va o‘zingdan pastroqlarga hojatmand bo‘lgil. Bozor xalqi bilan bozori bo‘lgil. Tosh va tarozini rost qilgil. O‘z aqchang haqida ikki dil va ikki hamyon bo‘lmagil. Sheriklaringga xiyonat qilmagil, har hunarni qilsang, unda hiyla qilmagil va hamisha hamma ishingni birdek qilgil. Agar moldor bo‘lsang, muhtojga qarz bermoqni g‘animat bilgil”, deb to‘g‘ri ta’kidlaydi.

Bu pandlar ham hukmdorga, ham oddiy fuqaroga barobar zarur hisoblanadi. Bu bilan u yoshlarda mehnatsevarlikni, mehnatkash insonga hurmat tuyg‘usini tarbiyalaydi. Jismoniy mehnat bilan birgalikda aqliy mehnat bilan ham shug‘ullanish lozimligini bayon etadi.

Kaykovus “Vazirlikning shart va rasmlari zikrida” nomli 40-bobida vazirlikning ishi, faoliyati, ular amal qilishi kerak bo‘lgan axloq-odob, xulq-atvor qoidalari haqida gapirib o‘tadi.

“Ey farzand, agar vazirlik mansabiga yetsang, turli hisobot yo‘llarini, muomala tariqini yaxshi o‘rganib olgil, podshohga hamma vaqt to‘g‘ri yo‘llarni bayon qilgil, insofli bo‘lgil. Barcha molni o‘z uyingga jam etmagilki, ko‘p narsaga hirs qo‘yg‘on kishi ko‘p narsadan tezroq ajralur. Podshohning molini yaxshi saqlagil”, deb uqtiradi. U vazifasidan foydalanib, barcha molni uyiga tashimaslikni, arzimas narsalarga nazar solmaslikni, mol yig‘ishni xohlasa vayron mamlakatlarni obod qilib daromad topishni aytadi. “Bilgilki, jahonni lashkar bilan, lashkarni zar bilan, zarni obodonlik bilan, obodonlikni aql-insof bilan qo‘lga kirgizsa bo‘lur. Demak, aql va insofdan g‘ofil bo‘lmagil”, deydi. Yolg‘on farmon chiqarmaslikni, o‘z so‘zini ulug‘ tutishni, o‘z farmoniga xilof ish qilmaslikni ta’kidlaydi.

“Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida” nomli 41-bobda “Ey farzand, agar sipohsolar bo‘lsang, lashkaringga ehson ko‘rgazgil, ham o‘z tarafingdan, ham podshoh tomonidan ularga yaxshilik rasmini tutgil. Hamisha haybatli bo‘lgil va urush qilmoq yo‘llarini bilgil”, deb bayon qiladi. U o‘z fikrini urushda bir Qadam ham orqaga chekinmaslikni, doim olg‘a bosish, oldinga harakat qilish kerak deb biladi. Qo‘shin boshlig‘i har doim lashkarga xushso‘z, xushmuomalada bo‘lishni, suv-nonni birgalikda baham ko‘rishni maslahat beradi.

Kaykovus 42-bobda podshohlik ya’ni davlatni boshqarish haqida gapirar ekan, “Ey farzand, agar podshoh bo‘lsang, yomon ishlardan saqlanuvchi bo‘lgil va ko‘zingni, qo‘lingni haloyiqning ayol va atrofidan yiroq tutgil. Pok va iymonli bo‘lgilki, bu poklikdur”, deydi. Davlat va o‘zining shaxsiy ishlarini ham aql yuzasidan bamaslahat o‘ylab sabr-toqat bilan, natija va oqibatini ko‘z oldiga keltirib amalga oshirishni aytadi. Hamisha rostgo‘y, kam gapiruvchi bo‘lishni talab qiladi. Uning fikricha, kimgaki ish buyursa ya’ni vazifa tayinlovchi shu vazifaga munosib kishini tayinlashi kerak. Agar ish bilmagan kishiga rahbarlik qilishni topshirsa, u ish bilmasligidan o‘z manfaatini o‘ylash harakatiga tushadi.

Podshohdagi olti hislatni u alohida ta’kidlaydi: haybat, adolat, sahovat, muhofazat, muloyimlik, rostgo‘ylik. Podshoh bo‘lsang, bu ishlarga ehtiyot bo‘lgil va olam podshohlarining holidan shundoq xabardor bo‘lib turgilki ularning nafas olganlaridan

ham xatto g‘ofil bo‘lmagil, undan so‘ng o‘z viloyating va Lashkar holidan ham ogoh bo‘lgil, deb tushuntiriladi.

Kaykovus o‘z asarida hayotiy va amaliy masalalarni keng ochib beradi. Uning kundalik turmushdagi xulq-odob qoidalariga oid fikrlari asarning “Mazax(hazil) qilmoq, shatranj(shaxmat) va nard o‘ynamoq zikrida”, “Shikor(ov)ga chiqmoq zikrida”, “Chavgon o‘ynamoq zikrida”, shuningdek, ovqatlanish, dam olish, hammomga boorish, mehmondorchilik, sharob ichishga bag‘ishlangan boblarida bayon qilingan bo‘lib, ular hozirgi paytda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Bunday xulq-odob qoidalari inson kamolotini ko‘rsatuvchi sevgini namoyon qiladi. Alloma bu masalalarni o‘z turmushida ko‘rgan, uchratgan, boshidan kechirgan va shular asosida jam qilgan. Bu hayotiy muammolarni Kaykovus hikoyalar, maqolalar, donishmandlarning hikmatli so‘zlari vositasida isbotlaydi. Shuning uchun ham “Qobusnoma” IX asr Sharq pedagogikasi tarixida g‘oyat qimmatli asarlar qatoriga kiradi.

Kaykovus “Sharob ichmak” nomli 11-bobida sharob(aroq, mast qiluvchi ichimlik) ichishning qoidasi, chegarasi va adog‘i haqida so‘z yuritadi: “Ey farzand, bilgilki, senga sharob ich deb aytmasman, ammo ichma deb ham aytmasman, negaki yosh yigitlar qari kishining so‘zi bilan yigitlik vaqtining ishlarini tark etmaslar”. Kaykovus yoshlarga sharobni iloji boricha ichmaslikni maslahat beradi: “Agar sharob ichmasang, bu bilan ham Haq taoloning, ham ota-onaning, ham xalqning xushudligini qozonasan”, deb uqtiradi. “Lekin majlislarda do‘stlaring senga sharob ichirmasdan qo‘ymaydi. Bunday hollarda sharob ichishning rasmini yodingdan chiqarmagil”, deydi. Sharobni haddan ziyod ichmaslikni, taom yegandan so‘ng agar tashna bo‘lsa uch martagacha iste’mol qilishni, lekin asr namozidan so‘ng icha boshlashni uqtiradi. “Chunki mast bo‘lganingni hech kim ko‘rmaydi va hech kim uyaltirmaydi”, deydi. “Sharobxo‘rlikdan ikki narsa hosil bo‘ladi: yoki bemorlik, yoki devonalik. Nahor paytidagi ichishning zarari behad ekanligini aytadi va juma kuni ichmaslikni odat qil, bundan sening nafsing, tomirlaring, ko‘zing, aqliy ruhing, tanang osoyishta topar”, deb maslahat beradi.

Inson salomatligida to‘g‘ri va oqilona ovqatlanish ham katta ahamiyatga ega. Bunga Kaykovus alohida bob ajratgan. U bir kecha-kunduz ikki mahal — erta tong va peshinda ovqatlanishni tavsiya etadi. Kechki ovqatni esa tavsiya etmaydi. U ohista, shoshilmasdan, do‘stlari bilan suhbatda bo‘lib, ularning luqmasiga boqmasdan ovqatlanishni ma’qul ko‘radi.

Mehmondo‘stlik xalqimiz tarixida ming yillardan beri o‘rin olib kelayotgan an’analardan biri. Axloq va nafosat manbai hisoblangan. Mehmondo‘stlikda do‘stlik, o‘rtoqlik, odamgarchilik, insonparvarlik, poklik kabi odob qoidalari buloq bo‘lib qaynaydi. Mehmondo‘stlik o‘zbek xalqining oliy fazilati, mehmon kelganda o‘zlari kambag‘al bo‘lsa ham mehmon oldiga choy damlab, uyda bor masalliqdan biror taom tayyorlash o‘zbek xalqining odati bo‘lgan. Mezbon oilasidagi kamchiliklar, yetishmovchiliklar to‘g‘risida og‘iz ochmagan, o‘zini xushchaqchaq, dilkash ko‘rsatgan. Mana shu mehmondo‘stlik odobi haqida “Qobusnoma”da quyidagi fikrlarni uchrtamiz:

“Ey farzand, bilginki, har xil begona odamlarni mehmon qilmagil, nedankim, har kun mehmon olsang, unga loyiq ishlarni ko‘ngil murodicha qila olmagaysan”, deydi.

Har oyda bir marta mehmon chaqirishni va har chaqirganda qiladigan harajatni bir marta qilib to‘la-to‘kis, bekam-u ko‘st dasturxon tuzatishni buyuradi. Odamlar kelganda barcha uy a’zolari bilan uni istiqbolga qilmaslikni, haddan ziyod kulmaslik va o‘ta darajada jiddiy qiyofaga siyosat bilan turmaslikni maslahat beradi.

“Ey farzand, agar mehmon bo‘lsang, har kishinikiga mehmon bo‘lib boravermagil, chunki hashmat shavkatingga ziyon yetkazursan. Agar mehmon bo‘lib bir yerga borsang, ko‘p och bo‘lib bormagil va tez yurib bormagilkim, taom yemakdan ma’zur bo‘lib o‘tirsang, mezbon ozor topar. Agar taomni ko‘p yesang, xalqning ko‘ziga yomon ko‘rinur. Shuning uchun mezbonning uyiga kirsang, o‘zingga munosib joyda o‘tirgil. U garchi oshno kishingning uyi bo‘lsa ham taom va nabizning ustida ish buyuruvchilik qilmagil, ya’ni uy egasiga xizmat buyurmagil”, deb uqtiradi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o‘sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo‘lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san’ati, ifodali o‘qish, hattotlik san’ati, she’r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo‘lish, shatranj va nard o‘yinini bilish kabilar ham o‘z ifodasini topgan.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o‘z qimmatini yo‘qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. T.:O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
2. Kaykovus. Qobusnoma. T. 1994.
3. O‘zbek pedagogikasi tarixi (qo‘llanma). prof. A.Zunnunov tahriri ostida. T. 1997.
4. Hoshimov K., S.Ochil. O‘zbek pedagogikasiantologiyasi. T.: O‘qituvchi, 2010.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI ALIXONTO‘RA SOG‘UNIY MEROSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi
Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda XX asrda yashab o‘tgan o‘zbek ziyolisi Alixonto‘ra Sog‘uniyning asarlaridan foydalanish metodikasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim**,** bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlari, 4 K tamoyili, pedagogika,

Ma’lumki, 2023 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olmoqda. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish, yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi.

Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda 4K tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti[1].

Buning uchun avvalo, pedagogning o‘zida mana shu 4 ko‘nikma, sifat mujassam bo‘lishi lozim. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirib ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun, keyinchalik ular o‘z o‘quvchilarini vatanparvarlik hislarini oshirishlarida, fikr-mantiq va ijodiy faoliyatga intilishlarida yordam berishlari uchun poydevor bo‘ladigan metodikalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlaridan foydalanish konseptini taklif qilamiz.

Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlaridan foydalanish: Alixonto‘ra Sog‘uniy taraqqiyparvar, fidoyi ajdodlarimizdan biri bo‘lib, uning ijodi va faoliyati to‘laligicha o‘rganilmagan. Sog‘uniyning odob-ahloqqa oid fikriyati qimmatli hisoblanadi. Uning yozib qoldirgan asarlari va tarjimalari mustaqillikni qadriga yetish, ilmga intilish, tarixiy saboqlar, falsafa, she’rlaridagi ijodiy motivatsion yondashuvlar o‘quv jarayonida 4 k tamoyilini o‘rganishga oid ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Sog‘uniyning ilmiy merosi, asarlaridan foydalanish pedagogik jarayonlarni ta’minlashda yaxshi usul bo‘laoladi.

4K Tamoyili Asosida Metodika: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda 4K tamoyili asosida metodikani amalga oshirish juda muhimdir. Bu tamoyil, kollaboratsiya (hamkorlik), kommunikativlik, kreativ fikrlash va kritik fikrlash bo'yicha qobiliyatni rivojlantirishni maqsad qiladi.

1. **Kollaboratsiya (Hamkorlik): Talabalar** Alixonto‘ra Sog‘uniyning hayoti va ijodini kollaboratsiya usulida o‘rganishadi, bunda ularni kichik guruhlarga ajratish tavsiya etiladi. “Turkiston qayg‘usi” , “Baxtlik nedur?” va boshqa asarlari talabalarni jamoatda ishlashga undaydi. Bo‘lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, Sog‘uniyning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlaridan foydalanib bir-birlari bilan hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun darslarni tuzishlari mumkin.
2. **Kommunikativlik:** Sog‘uniyning asarlaridan misollar, talabalarni fikrlarini ifodalashga, suhbatda ishtirok etishga va ma’lumot almashishga rag‘batlantiradi. Sog‘uniyning ona-tili qadr-qimmatiga oid fikrlari,aforizmlari orqali o‘zbek tilimizda aniq, ravshan til bilan fikrlarini ifodalash va suhbatlashish kabi shartlar beriladi.
3. **Kreativ Fikrlash:** Alixonto‘ra Sog‘uniyning ijodiy asarlari masalan, "Devoni Sog‘uniy" she’rlar to‘plami orqali talabalarni yangi yondashuvlar izlash va ijodiy fikrlashga intilishini oshirish mumkin. Boshlang'ich sinf o‘qituvchilari, Sog‘uniyning asarlaridan misollar keltirtib, o‘quvchilarni ijodiy yondashuvlar va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar tashkil etishlari mumkin.

4. **Kritik Fikrlash:** Sog‘uniyning tarjima asarlari, masalan, “Temur Tuzuklari”, “Movorounnahr va Buhoro” talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yordam beradi. Nima uchun tarjimon aynan shu asarlarni tanlagani, ulardan olinadigan ma’naviy ozuqa qandayligi kabi savollar o‘rtaga tashlanadi. Ushbu yondashuv muammolarni tahlil qilishga, mantiqiy fikrlashga va tanqidiy mulohazalarni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Biz bejiz ushbu metodika uchun Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlarini tanlab olmadik, chunki, “Turkiston qayg‘usi” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molik bo‘lgan tarixiy, axloqiy va ta’limiy-tarbiyaviy asardir. Asarda “huquqlar himoyasining kuchlik quroli” ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Alixonto‘ra Sog`uniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib, “Hozirgi o‘qimishlik tushungan vatan bolalarimiz agar milliy hislik bo‘lmas ekanlar, ulardan bizga yani o‘z xalqiga foyda yetishi hech vaqt mumkin emasdir.Balki, bolta sopini o‘zimizdan chiqarib , tub ildizimiz bilan bizni kesib quritishga qurol bo‘ladilar ”[3;65 bet]- deydi. Uning fikricha, bolalarda milliy tuyg‘u - axloqiy xislatlar ichida tarkib topishi zarur bo‘lgan masaladir. Buning uchun ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi insonlar katta ahamiyatga ega. Tabiiyki bunday ta’rif Sog‘uniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Alixonto‘ra Sog‘uniy hayotining oxirgi 30 yili davomida yozib qoldirgan ulkan ilmiy meros ichida “Turkiston qayg‘usi” tarixiy asari alohida o‘rin egallaydi. Bu asarda u kishining yigitlik va kamolotga yetgan davri xotiralari asosida tarixiy, tarbiyaviy, nodir asar vujudga keladi.

Asar avtobiografik ruhda yozilgan, muallifningning hayot yo‘li chizgilari bilan to‘yingan va u kishi atrofidagi millat uchun jonini tikkan mard o‘g‘lonlar haqida ham so‘z boradi.Yozuvchi voqealarni shunchaki hikoya qilib bermasdan, unga badiiy ifodani ham kiritadi. “Qalamim tilidan dardlik so‘zlarim qonlik ko‘z yoshima qo‘shilib, bu kitob varaqlari yuziga to‘kilmish edi. Shuning uchun buning otini “Turkiston qayg‘usi” qo‘ydim” deb yozadi.

Xulosa: Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlaridan foydalanish, 4K tamoyili asosida ta’lim berishga yordam beradi. Bu metodika, talabalarning kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash va kritik fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari Sog‘uniyning asarlari orqali o‘quvchilarda ijodiy yondashuvlar va insoniy rivojlanishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Sog‘uniy – Baxtlik nedur?. Toshkent “Munir” 2021 yil.
2. A.Sog‘uniy – Tarixi Muhammadiy. Toshkent “Munir” 2021 yil.
3. A.Sog‘uniy – Turkiston qayg‘usi. Toshkent “Sharq” 2021 yil.

ONA VATAN MANFAATI YO‘LIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN JASUR AJDODLARIMIZ BUGUNGI DAVR YOSHLARIGA NAMUNADIR

Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Pedagogika kafedrasi dotsenti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu - fan, maktabgacha va maktab ta’limi, sog‘liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda ona vatan manfaati yo‘lida faoliyat olib borgan jasur ajdodlarimizning ilmiy meroslari bugungi davr yoshlariga o‘rnak ekanligi yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: fidoyilik, g‘oya, milliy o‘zlik, istiqlol, davlatchilik g‘oyalari ma’naviy-ahloqiy qiyofa, Ko‘pchiligimiz Vatan himoyachisi
tushunchasini aksariyat xollarda juda oddiy manoda tushunamiz. Dastlabki sodda qarashlarga ko‘ra Vatan himoyachisi bu harbiy xizmatchi, ofitser va askarlardir. To‘g‘ri, avvalo shunday, harbiy xizmatchi, ofitser va askarlar Vatan himoyasining avangardi hisoblanadi. Biroq, Vatan himoyasi o‘z mazmuniga ko‘ra juda keng tushuncha bo‘lgani bois, uning himoyachilari ham juda ko‘pchilikni tashkil etadi.

Ma’lumki, har bir xalqning va uni siyosiy irodasini nomoyon etuvchi davlatning o‘z manfaatlari bor. Mazkur manfaatlar umumiy qilib aytganda milliy manfaat deb nomlanib, uning har bir qismi har turdagi soha egalari tomonidan himoya qilinadi. Jumladan, siyosatchilar ichki va tashqi siyosatda milliy manfaatni strategik jihatlarini himoya qilsa, elchi va konsullar muzokara stolida milliy manfaat diplomatik himoyasi uchun bor aql-idrokini ishga soladi. Bunday ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin albatta. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, o‘z kasbini chuqur bilimdoni bo‘lgan, professionallik va xalollik bilan xalq manfaati yo‘lida bor kuch-g‘ayratini sarf etayotgan barcha insonlar Vatan ximoyachilari hisoblanadi.

Ta’kidlash kerakki, xalqimiz tarixi Vatan manfaati yo‘lida o‘z bilimi, kuch-g‘ayrati, mol-mulki va aziz jonini ayamagan minglab ajdodlarimiz nomi bilan chambarchas bog‘liq. Milliy tariximizning so‘nmas yulduzlari – Jadidlar mana shunday Vatan himoyasini buyuk vazifa sanagan, bu yo‘lda moli-yu, jonini fido etgan xalqimizning aziz farzandlari hisoblanadi.

Jadidchilik o‘z davrida regressiv g‘oyalarga qarshi shakllangan progressiv g‘oya sifatida ilg‘or fikrlovchi yoshlar, ma’rifatparvar shaxslar va taraqqiyparvar ziyolilarni birlashtira oldi. Jadidchilik g‘oyasi va amaliyotida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni xorijga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Mavjud ichki va tashqi kuchlarning to‘sqinliklariga qaramay, Jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etish, iqtidorli yoshlarni xorijga o‘qishga yuborish, teatr truppalarini tashkil etish hamda gazeta va jurnallar chop qilish ishlarini uddasidan chiqa olishdi. Jumladan, tarixchi V.V.Bartoldning yozishicha, Toshkentda 1910 yili 16 yangi usul maktabi, Qo‘qonda esa 1911 yili 530 o‘quvchisi bo‘lgan 8 ta usuli jadid maktablari faoliyat ko‘rsatgan. Davlat Dumasi a’zosi S.Maqsudov esa, o‘zining «Turkiston» gazetasida e’lon qilgan maqolasida Toshkentda 1910 yili 20 ta, Qo‘qonda esa 16 ta yangi usul maktablari borligini ta’kidlaydi.

Jadidlar mazkur davrda gazeta va jurnallar chop etish va shu orqali o‘z g‘oyalarini xalqqa yetkazishga ham katta ahamiyat berdilar. Mazkur gazeta, jurnallardagi aksariyat maqolalar xalqni ilm olishga, yosh avlodga dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirishga undaydigan mazmunda edi. Jumladan, Mahmudho‘ja Behbudiyning 1913 yilda «Samarqand» gazetasida chop etilgan maqolasida «Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur» deyilgan bo‘lsa, «Oyina» jurnalidagi maqolasida «To‘y va ta’ziyag‘a sarf qilinaturg‘on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizg‘a davom etsak, din va dunyog‘a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur», degan fikrlar ilgari surilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jadidlar tomonidan tashkil etilgan maktablar, teatr truppalari, gazeta va jurnallar ayni vaqtda g‘oyaviy kurash vositalari hisoblanar edi. Ular mazkur vositalardan o‘z g‘oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish, g‘oyaviy

raqiblarga raddiya berish, ularning xaqsizligiga dalillar keltirish maqsadida foydalanishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2023 yilning 11-12-dekabr kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan «Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari»[1] mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatida ta’kidlaganlaridek: “Barchamizga ayonki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a’zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy asosda tubdan isloh qilish uchun g‘oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so‘z bilan aytganda, ular milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Afsuski, o‘sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirishga yo‘l bermadi”.

Darhaqiqat, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda xalqimiz u davrni yaxshi bilishi, faxrlanishi kerak. Yoshlar “Bizning bobolarimiz istiqlol orzusida kurashgan, o‘zini ayamagan, biz mustaqillik uchun nima qilayapmiz” deb o‘ziga savol berishi zarur. Mustaqillikning mustahkam zamini nima o‘zi? Avvalo, vatanparvarlik, bilim, ma’naviyat. Jamiyatimizda ana shunday vatanparvarlik ruhini, shukronalik ruhini kuchaytirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A. Avloniy. “Turkiy guluston yoxud axloq”.T.: O‘qituvchi 1992.
2. Tavallo. “Qarindosh va hamshaharlarimiz mazluma qizlar tilindan”. T.: 1916.
3. Sadriddin Ayniy. “Eski maktab” T.: G‘. G‘ulom 1998.
4. Rahimova. G. ” Jadidlar va ayollar masalasi” Adabiy meros. 1992.
5. Mahmudov F. Jadid adabiyotida milliy istiqlol mavzui. -T.: O‘zbekistan, 1999;

Alimova D A. Jadidchilik harakatiniig ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri.

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI ROLI

Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna
Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrasi
dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Atoullayeva Shaxnozabonu Azim qizi
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 303 guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu - fan, maktabgacha va maktab ta’limi, sog‘liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda ayollarimizning o‘rni va roli yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ayol, e’zozlash, e’tibor, xotin-qizlar, mehr-oqibat, sadoqat, lider, ma’naviy-ahloqiy qiyofa.

Barchamizga ma’lumki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos xususiyatdir. Darhaqiqat, hadisi sharifdagi “Jannat onalar oyog‘i ostidadur”, “Avval onanga, yana onanga va yana onanga, so‘ngra otanga yaxshilik qil”, degan benazir so‘zlarda ham ana shu cheksiz ehtirom namoyon bo‘lib turibdi.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shmoqdalar, ular jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida faoliyat ko‘rsatib, davlat hokimiyati va jamoat tashkilotlari faoliyatida keng ishtirok etishmoqda, yosh avlod tarbiyasiga, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy soha, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shmoqdalar

Respublikamizda ayollar bilan bog‘liq masalalar davlat va jamiyatning diqqat markazidadir. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 58-modda “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”, “Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi” deb ta’kidlanishida, hamda bunga hayotning barcha jabhalarida amal qilinishi fikrimiz dalilidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo‘lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o‘nta yaxshilik bo‘lib qaytadi. Duogo‘y momolarimiz, mushtipar onalarimiz va aziz opa-singillarimiz bu ehtirom va e’tiborning albatta qadriga yetadilar. Ayol qadri, inson qadri ulug‘langan yurtda esa, tinchlik va farovonlik, ahillik va baraka albatta barqaror bo‘ladi.”[6].

Yangilanayotgan O‘zbekistonda globallashuvning umuminsoniy va milliy kadriyatlarga, urf-odatlarimiz, an’analarimizga, ayniqsa ular asosida xotin- qizlarimiz xayot tarziga ko‘rsatayotgan ta’siri masalasi juda muhim. Mazkur holatni

informatsion, texnologik, huquqiy, axlokiy, diniy aspektlarini tahlil etadigan bo‘lsak, bugungi kunda global tarmoq birinchidan, undagi axborotlar tez yetib borishi va jamoatchilik fikrini to‘g‘ri shakllantirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan ma’lumotlarni g‘arazli maqsadlarda foydalanish, nopok g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanish xolatlari ham kuzatilmokda. Bu esa ayollarmiz ma’naviy- axlokiy qiyofasiga yot bo‘lgan behayo saytlar, turli reklamalar va o‘yinlar ko‘rinishida amalga oshirilmokda, natijada hali hayotiy tajribasi kam bo‘lgan yosh xotin-qizlarimizni ular hayotidagi eng muhim vazifalardan chalg‘itish, kelajakka teran ko‘z bilan qaramaslikka olib kelmoqda.

Ayol - jamiyat hayotining moddiy, ayniqsa ma’naviy asoslarini ta’minlovchi buyuk shaxsdir. Ayolning ma’naviy- axlokiy qiyofasini shakllantirish - bu davlat siyosati darajasidagi masala bo‘lib, unda Sharqona ayol, uning oila, mahalla, jamoatchilik va davlat boshqaruvidagi ishtirokini atroflicha o‘rganish talab etiladi. Bunda xotin-qizlarga ta’lim berish va ularni maqsadli yunaltirish, kasb-xunar o‘rgatish, shu orqali jamiyatda o‘z o‘rni va hurmatiga sazovor bo‘lish, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldorligini oshirib borishi juda muhimdir.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish uchun bir qancha vazifalar belgilab berilgan va ular bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilmokda. Ya’ni, oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tashkil etilishi, har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi yangidan joriy qilinganligi, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Xotin-kizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilinganligi, Prezidentimiz tashabbusi bilan jamoatchilikka, avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata oladigan, obru- e’tiborli ayollarni o‘z safida birlashtirgan “Okila ayollar” harakati tashkil etilgani, shuningdek, barcha mexnat jamoalarida xotin-kizlarning muammolariga samarali yechim topish uchun “Ayollar kengashlari” tuzilganligi fikrimiz dalilidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 7-mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida quyidagilarni alohida ta’kidlab mamlakatimizda xotin-qizlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularga daxldor ijtimoiy muammolarni hal etishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganligi ta’kidlandi. Jumladan:

–2022 yil 872 mingdan ziyod xotin-qizlarning bandligi ta’minlandi. 233 mingdan ko‘proq ayollarga 4 trillion 700 milliard so‘m kredit ajratildi. 252 mingdan ortiq opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlar va tadbirkorlikka o‘qitildi.

–2022 yili 14 mingga yaqin opa-singillarimizning uy-joy sharoiti yaxshilandi, qariyb 7 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarga ijara to‘lovlari qoplab berildi.

–so‘nggi yillarda “Ayollar daftari” doirasida ham katta tadbirlar amalga oshirilgani. Qisqa muddatda salkam 642 ming nafar opa-singillarimizga amaliy yordam ko‘rsatilgani alohida ta’kidlandi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, qizlarimiz, ayollarimizning jismonan baquvvat bo‘lishi bizning bundan keyingi taraqqiyotimizning muhim zaminlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘plab yosh qizlar, ayollarimizning asosiy maqsadi ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar jarayonida faollikni oshirish, yuksak ma’naviy fazilatlarni

mujassamlashtirish, milliy tafakkurni shakllantirishdan iborat. Yosh ayollar, qizlarni ish bilan band etish, tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishda, kichik va o‘rta biznesda, ayniqsa qishloq joylarida xotin – qizlar tashabbuslarini qo‘llab quvvatlash, ularga huquqiy va ijtimoiy shart – sharoitlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli «2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. 6-son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yildagi 21 dekabrdagi Pf-208 oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2022 yildagi PQ-323-son qarori / Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.07.2022-y., 07/22/323/0647-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son).
4. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalkaro xotin-kizlar kuniga bagishlab o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi. //Xalq so‘zi, 2023 yil 8 mart.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK JARAYONLARNI TASHKIL QILISHNING MOHIYATI, HOLATI VA MUAMMOLARI

Mamatova Mohiniso Davlatovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik jarayonlarni tashkil qilishning mohiyati, holati va muammolarining ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini didaktik jarayonlarni tashkil qilishning mohiyati, holati va muammolarning,nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: didaktik, jarayonlar o‘zi rivojlantirish, muammolar, kasbiy ehtiyoj pedagogik tamoyili.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi, 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va boshqa muhim strategik yo‘nalishlarga bag‘ishlangan dasturulamal hujjatlarga bog‘langanligi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan isloxotlarda vorisiylik: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” mavzusidagi

2017-yil 14- yanvardagi ma’ruzasida ilgari surilgan g‘oyalar mazmuni o‘rganish nazarda tutilgan.[1]

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlangan mamlakatlar qatoridagi ta’lim tizimiga tenglashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol shaxslar qilib tarbiyalash, boshlang‘ich ta’lim tizimidagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalash masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimi bu ta’lim oluvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta’minlovchi, ularning shaxs sifatida kamol topishlari va ularda insoniy fazilatlarni shakllantiruvchi ta’lim tizimi hisoblanib, bu ta’lim jarayoni insonparvarlik, demokratik tamoyillar asosida tashkil etiladi.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim tizimini jahon andazalariga mos ravishda tashkil qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida “shaxs manfaatlari va ta’lim ustuvorligi” masalalaridir.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni,[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar tug‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni, 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son Qarori,[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida ifoda etilgan boshlang‘ich ta’lim jarayonida insonparvarlik omilini ta’minlaydigan “shaxs manfaatlari va ta’lim ustuvorligi” g‘oyalarining muhim ahamiyati ko‘rsatib berilgan. O‘zbekistonda shaxs manfaatlari va ta’lim ustuvorligi mamlakatimizning ravnaqiga ravnaq qo‘shuvchi davlat siyosati darajasidagi masaladir.

Boshlang‘ich ta’lim tizimini modernizatsiyalash va uni jahon andazalariga moslashtirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan hisoblanib, uning asosiy maqsadi: o‘quvchilarni katta hayot faoliyatiga tayyorlash, ularni o‘qish, yozish va hisoblashga o‘rgatish, atrof-muhit va tabiatga nisbatan mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash, kreativlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlash kabi faoliyatlarini rivojlantirish, ularda xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishdan iborat.

Demokratik tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonlarida o‘quvchilarning erkin rivojlanishlari ta’minlanadi, ularning o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini namoyon etish, mustaqil fikr yuritish, mustaqil qarorlar qabul qilish, xulosalar chiqarish kabi qobiliyatlari shakllanadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu faoliyat o‘quvchilar uchun yetakchi faoliyat hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim. – o‘quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta’lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlarining o‘zaro muvofiqligi, istiqbolga yo‘naltirilganligi tushuniladi.

2020 yil 23 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonunining qabul qilishini mavzuning dolzarbligini belgilaydi [4]

Boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim jarayonlarini zamon talablari asosida tashkil etishda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki ular birinchi sinfdan to‘rtinchi sinfgacha bo‘lgan davr mobaynida o‘quvchilarning psixologik, jismoniy, fiziologik xususiyatlarini o‘zlashtira olishi, ularni rivojlantira olish tajribasiga ega bo‘lishi lozim.

Bu vazifalar ijrosini ta’minlashda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish jarayonidagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruratini qo‘yadi. Bu zaruriyat oliy ta’lim muassasalarida talabalarning zamonaviy bilim, salohiyatga ega bo‘lishini ta’minlash, elektron ta’lim texnologiyalaridan mustaqil foydalanish, yuqori jarajadagi pedagogik tayyorgarlik, pedagogik mahoratga ega, mustaqil fikrlay oladigan, zamonaviy dunyoqarashga ega qilib tarbiyalash ishlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Boshlang‘ich ta’lim didaktik jarayonlarda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni vujudga keltira olish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida o‘zaro hamkorlik asosida vujudga kelgan demokratik muhit shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zaro hamkorlik o‘rnatilganda sinfdagi barcha o‘quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlari hisobga olinadi. Bu holatda o‘quvchilar oddiy ta’lim-tarbiya oluvchilar emas, balki teng xuquqli a’zosi sifatida ishtirok etadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sinfdagi barcha o‘quvchilarga bir xil do‘stona munosabatda bo‘lishi, ular bilan bir xil muomala qilishi orqali sifatli va samarali ta’lim jarayonini amalga oshirishga erishadi.

Boshlang‘ich sinf didaktik jarayonlarda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida do‘stona hamkorlikni o‘rnatish uchun quyidagilar talab etiladi:

- ta’lim-tarbiya jarayonlarida kreativlik muhitini yaratish;
- ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini muayyan tartib asosida olib borish;
- sinfdagi o‘quvchilar jamoasi o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlikka asoslangan muhitni vujudga keltirish.

Hozirgi vaqtda boshlang‘ich ta’lim didaktik jarayonlarida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1. O‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro do‘stona va demokratik tamoyillar asosida o‘rnatiladigan hamkorligini ta’minlaydigan zamonaviy metolardan foydalanish;

2. Ta’lim oluvchilarga taqdim etiladigan keng hajmli axborotlarni o‘zlashtirishda o‘zaro fikr almashish va hamkorlik qilish muhitini yaratish;

3. O‘quvchilar o‘rtasida do‘stona, bir-biriga hurmat, hamkorlikda faollik ko‘rsatish kabi faoliyatlarini amalga oshirishlariga o‘rgatish;

Boshlang‘ich sinf didaktik jarayonlarning asosiy vazifalaridan biri har tomonlama yetuk, barkamol, ruxan va ma’nan sog‘lom insonlarni voyaga yetkazishdir. Bu mas’uliyatli vazifa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy rivojlantirib borish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini muntazam oshirib borish, o‘quvchilar orasidagi iqtidorli o‘quvchilarning bilim darajasini yanada rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yarata olish kabi talablarni qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.[5]

Bu esa boshlang‘ich ta’lim tizimida zamon talabiga javob beradigan, chuqur bilim salohiyatiga ega, mahoratli mutaxassislarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari yoshlari bilan bellasha oladigan holatda tayyorlash lozimligini bildiradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik qilish masalalari buyuk ajdodlarimizning ilmiy me’roslarida ochib berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy , Abu Ali ibn Sino , Abu Rayxon Beruniy kabi allomalarimiz ta’lim jarayonlarida hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratadilar. Boshlang‘ich ta’lim didaktik jarayonlarida hamkorlik masalasining samaradorligini ajdodlarimiz tajribasi ham kafolatlaydi.

Boshlang‘ich ta’limni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish tahlilidan quyidagi bir nechta holatlarga alohida e’tibor qaratish zarur ekanligi aniqlandi:

- ta’lim-tarbiya jarayonlarida o‘quvchilar mavqeyi jihatidan teng ekanligi;
- o‘quvchilarning har biri bilim olish huquqiga ega ekanligi;
- o‘quvchi shaxsining tanqid qilinmasligi;
- har bir o‘quvchi o‘z fikrini aytish huquqiga ega ekanligi va boshqalar

Tadqiqot doirasida sohaga oid normativ hujjatlar, adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etildi.

Q.T.Olimov o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida kasb-hunar ta’limi maxsus fanlari uchun zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratishning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqilgan. Jumladan, o‘quv-uslubiy adabiyotlarining yangi avlodini yaratish modeli va texnologiyasi ilmiy asoslanib, kasbiy ta’lim jarayonini takomillashtirish buyicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

N.A.Muslimov ham o‘z taqiqotlarida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisida kasbiy pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini” nomli ilmiy ishida mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalash kabi muammolarni tadqiq etgan.[6]

G.Q.Karimovaning ilmiy izlanishlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida pedagogik monitoring tizimini shakllantirish muhim ekanligini, o‘quvchilarning

bilimini baholashda monitoring tizimini shakllantirishdagi imkoniyatlari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarida ta’lim jarayonidagi pedagogik monitoring tizimini shakllantirish texnologiyasi, o‘quvchilarda o‘quv jarayoni pedagogik monitoring tizimini shakllantirishga doir mezonlar ishlab chiqilib, modeli yaratilsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni monitoring tizimini shakllantirish, samaradorligini ta’minlash muhim ekanligi ochib berilgan.

Sh.S.Sharipov ham ilmiy ishlarida o‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlash muammolari bilan shug‘ullangan bo‘lib, bo‘lajak kasb ta’limi va mehnat ta’limi o‘qituvchilarining ixtirochilik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqqan [7].

Olib borilgan ilmiy tahlillar boshlang‘ich ta’lim shaxs rivojlanishining u mumiy konuniyatlariga tuxtalib utar ekan, shaxs – muayyan ijtimoiy guruxning vakili bulgan biror faoliyat turi bilan shugullanadigan quyidagi muammolar borligini ko‘rsatdi:

- boshlang‘ich sinfning asosiy vazifasi o‘quvchini hayotga tayyorlashdir;
- o‘quvchiga manipulyativ yondashuv. Kattalarning shiori: “Sen ham shunday qil!”
- dasturda berilgan muayyan bilim, ko‘nikmalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish, bu “maktab modelining frontal mashg‘ulotlari” nusxasini anglatadi. Mehnatning ustuvor shakllari frontaldir. “O‘quvchini bilim, ko‘nikma bilan qurollantirish” bo‘yicha ko‘rsatma berish;
- o‘quvchi pedagogik tizim kuchlarini qo‘llash ob’ekti sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilar faoliyati tashqi tartib va rasmiy intizom evaziga bostiriladi;
- rivojlanish vektori o‘rnatilgan;
- barcha uchun umumiy, yagona va majburiy psixik rivojlanish;
- tarbiya xatti-harakatlarini to‘g‘rilash yoki cheklovlar, “takliflar” orqali qoidalardan chetga chiqishning oldini olishga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogikasi asosida ta’lim berish ta’lim tizimining islohoti davrida muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlariida individualizatsiya (har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini ochish) tamoyilining amalga oshirilishi zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tizimiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogikasini tatbiq etish imkoniyatini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasida to‘plangan tajribalardan foydalanish orqali bu tizimning takomillashuviga erishiladi. Shuningdek o‘quchilarda ijodkorlik, tanqidik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘zlangan maqsadga erishish imkonini beradi. B.R.Adizov “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish” deb nomlangan monografiyasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, bunda o‘qituvchining kreativlik faoliyati to‘g‘risidagi g‘oyalar, ta’limiy faoliyatdagi hamkorlik qonunlariga to‘xtalib o‘tgan [8]

Ma’lumki, shaxsiyatning asosiy poydevori hayotning dastlabki yetti yilida qo‘yiladi: o‘quvchining boshlang‘ich yoshida shakllangan fazilatlari va fe’l-atvorlari keyinchalik o‘zgarmaydi. Qisman o‘zgarib, tashqi ko‘rinishi o‘zgaradi, xolos.

Ta’limning asosiy qadriyatining bunday e’tirof etilishi shaxsning o‘ziga xos shakllanishidir. Biz har bir o‘quvchiga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini,

intilishlarini aniqlash asosida o‘zlarining rivojlanish yo‘llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasida amalga oshiriladigan har qanday faoliyat turli xil usullarda, ma’lum bir shart-sharoitlarda, turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning har bir faoliyati predmetga qaratilganligi uchun faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. O‘quvchi o‘z fikr-mulohazalari, g‘oyalari, o‘z qarashlarini aynan faoliyati jarayonida amalda qo‘llaydi, yangiliklar yaratadi. Aynan mana kabi faoliyat ularda ijodkorlikni rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabr “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdqilash to‘g‘risidagi” PQ-4312-son Qarori.

9. Hasanboyeva O., Hasanboyev J. Va b.q. Pedagogika – T.: Fan, 2006. – 282 b.

10. Hoshimov K., Ochil C. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘kituvchi, 2010.

11. Ibragimova R. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: Dok. dis. ped. fan. – Toshkent.: 2001. – 250-b.

O‘QUV JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI

Mamarasulov Maxmud Jumaboyevich
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorij mamlakatlardagi raqamli o‘quv jarayonining tajribasi tahlil qilingan va bu mamlakatlarda o‘quv jarayonini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirganligan islohotlar yoritilgan. Raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning samarasi va natijalari muhokama qilingan. Shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar uchun qulayliklar, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim boshqaruvini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanish kabi masalalarga to‘xtalib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: o‘quv jarayoni, xorijiy mamlakatlar, raqamlashtirish, ta’lim sifati, ta’lim boshqaruvi, raqamli texnologiyalar.
Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.
Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [1]. O‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish ta’lim jarayonlarini raqamlashtirishni taqozo etadi.

Raqamlashtirish butun dunyo bo‘ylab ta’lim berish usulini inqilob qildi. So‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini boshqarish uchun raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirmoqda.

Qo‘shma Shtatlarda ko‘plab kollej va universitetlar ro‘yxatga olish, hisob yuritish va moliyaviy boshqaruv kabi ma’muriy operatsiyalarni soddalashtirish uchun raqamli texnologiyalarni qo‘llagan. Ta‘limni boshqarish tizimlari (LMS) Amerika oliy ta‘limida keng tarqalgan bo‘lib, o‘qituvchilarga onlayn kurslar, topshiriqlar, baholashlar va boshqa o‘quv faoliyatini yaratish, boshqarish va topshirish imkonini beradi[2, 68-b.]. Hozirda ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida talabalarga istalgan joydan turib o‘qish imkonini beruvchi onlayn kurslar va dasturlarni taklif qilmoqda.

Birlashgan Qirollik Universitetlari Yevropada raqamli texnologiyalarni qo‘llovchi yetakchilardan biri bo‘lib kelgan. Buyuk Britaniyada raqamli texnologiya talabalarni o‘rganish, ularni o‘qitish va tadqiqotini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Ayrim universitetlarda talabalarga multimedia kontenti, onlayn baholashlar, interaktiv simulyatsiyalar va o‘quv qo‘llanmalar kabi turli xil resurslardan foydalanish imkonini beruvchi virtual o‘quv muhitini o‘rnatgan.

Avstraliya ham ta’limda raqamli texnologiyalarni tezda o‘zlashtirdi. Avstraliyada turli tashkilotlar raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga integratsiyalash hamda o‘qitishni yanada samarali tashkil etish bo‘yicha bir qanch ishlarni tashkil qilgan. Interfaol doskalar, planshetlar va noutbuklar Avstraliya maktablari, kollejlari va universitetlarida keng qo‘llaniladi[3]. Bundan tashqari, ko‘plab muassasalar elektron

imtihonlar va onlayn topshiriqlar kabi raqamli baholash usullarini qo‘llashadi, bu esa baholash va fikr-mulohazalarni yaxshilashga olib keladi.

Yaponiyada raqamli texnologiyalar o‘qituvchilar va talabalarning sinfda o‘zaro munosabatini o‘zgartirdi. Mamlakatda planshetlar va interfaol doskalardan o‘qitish vositasi sifatida foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. O‘qituvchilar multimediyali kontentni namoyish qilish uchun interfaol doskadan foydalansalar, talabalar o‘quv faoliyati bilan shug‘ullanish va onlayn resurslarga kirish uchun planshetlardan foydalanadilar [4, 37-b.]. Yaponiya, texnologiyaga asoslangan baholash usullari bo‘yicha ham yetakchi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar Kanada, Yangi Zelandiya va Singapur kabi boshqa mamlakatlarning ta’lim tizimini qanday o‘zgartirganiga oid bir qancha misollar mavjud. Bu misollar raqamlashtirishning ta’lim jarayoniga turli yo‘llar bilan foyda keltirishi, jumladan, samaradorlikni oshirish, talabalar faolligi va natijalarini yaxshilash hamda foydalanish imkoniyatini oshirishni ko‘rsatadi[5, 577-b.].

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish butun dunyo bo‘ylab asosiy tendensiya bo‘lib, ko‘plab mamlakatlar yangi ta’lim imkoniyatlarini taklif qilish va ta’lim sifatini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirmoqda. Yuqorida aytib o‘tilgan tajribalardan ko‘rganimizdek, bu yangi texnologiyalar ta’limni o‘zgartirish va talabalarning ta’lim natijalarini oshirish imkoniyatiga ega. Shunday ekan, butun dunyo bo‘ylab ta’lim muassasalari uchun raqamlashtirishni qo‘llash va raqamli texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlarni o‘rganish muhim.

AQSh va Buyuk Britaniyada Ta’limni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems, LMS) keng joriy qilingan. Bu yerda biz eng mashhur 5 ta ta’limni boshqarish tizimi bilan tanishib chiqamiz[6, 141-b].

SAP Litmos ta’limni boshqarish tizimi (LMS) va keng qamrovli o‘quv kontenti kutubxonasini taklif qiluvchi onlayn o‘quv platforma hisoblanadi. Uning asosiy xususiyatlarga tezkor joylashtirish va integratsiya, barcha ma’lumotlar shifrlanganligi va xavfsizlikda saqlanishini ta’minlash, har doim dolzarb bo‘lgan tayyor kontentlar, samaradorlikni o‘lchash hamda ishonchli hisobot va tahlillar kiradi.

Docebo ta’limni boshqarish tizimiga ixtisoslashgan xizmat ko‘rsatuvchi kompaniya sifatida faoliyat yurutuvchi dasturiy ta’minot [7]. Ushbu platformadan kursni ishlab chiqishdan kursni baholashgacha bo‘lgan barcha o‘quv jarayonlarida foydalaniladi.

TalentLMS butun jarayonni baholash uchun kontent yaratish, o‘qitishni boshqarish va hisobot berish uchun o‘lchovni taklif qiluvchi moslashuvchan onlayn kurslarni boshqarish platformasi. U ko‘p tashkilotli tuzilmani, mobil foydalanish imkoniyatini va foydalanuvchilar uchun o‘quv ko‘rsatkichlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

SkyPrep kompaniyalar, korxonalar va tashkilotlar uchun maxsus ishlab chiqilgan onlayn LMS platformasi. Bu intuitiv vositalar, ishlatish uchun qulay xususiyatlar va kuchli imkoniyatlar orqali kompaniyalar uchun o‘rganishni boshqarish jarayonlarini soddalashtiradi. Bu xodimlarni doimiy ravishda rivojlantirish va mijozlar hamda sheriklarni samarali o‘qitishga intilayotgan korxonalar uchun tejamkor, ixcham va zamonaviy yechimdir.

Cornerstone OnDemand – Cornerstone ta‘lim maqsadlariga ega bo‘lgan shaxslar yoki muassasalar uchun rivojlanish va yaxshi ishlashni ta‘minlaydi. Cornerstone OnDemand to‘rtta asosiy qiymatlarini taklif etadi: qulaylik, ishlash, xavfni kamaytirish va brend/holat. Kompaniya aniq natijalar orqali kuchli ko‘rsatkichlarni namoyish etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, AQSh va Buyuk Britaniya oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini boshqarish uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilish tobora keng tarqalmoqda. Ushbu texnologiyalar samaradorlikni oshirish, foydalanish imkoniyatini yaxshilash va talabalarning faolligini oshirish kabi qator afzalliklarni keltirib chiqardi. Dunyo raqamlashtirishda davom etar ekan, kelgusi yillarda bu texnologiyalar yanada kengroq qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin.

So‘ngi yillarda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida ham raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda ta’lim resurslarini elektron shaklga keltirish va ma’lumotlarning raqamli bazasini yaratish, shuningdek masofadan o‘qitishning maxsus platformalaridan keng foydalnish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, qator oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida MOODLE va HEMIS tizimi imkoniyatlaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu axborot tizimlari ta’lim jarayonining muxum elementlarini yaxlit holda birlashtirgani bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib o‘quv jarayonini raqamlashtirishda xorij tajribasini qo‘llash bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan o‘quv jarayonini raqamlashtirishning eng yaxshi amaliyotlari va innovatsiyalarini o‘rganish mumkin. Bu o‘rganishlar o‘quv jarayonini tizimlashtirish bo‘yicha eng so‘nggi qoidalari va texnologiyalarga ega bo‘lishga yordam beradi.

2. Ushbu o‘rganishlar O‘zbekiston ta’lim tizimiga xorijy mamlakatlardagi eng yaxshi o‘quv modellari va tizimlarini joriy etishga xizmat qiladi. Bu tajribalar bizga samarali o‘quv usullari hamda talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun qulay texnologiyalarni tanlashda yordam beradi.

3. Mamalakatimizning ta’lim tizimidagi muammo va qiyinchiliklarni aniqlab ularni bartaraf etish maqsadida xorij tajribasidan olingan yechimlarni qo‘llash mumkin bo‘ladi. Bu, infrastruktura, kadrlar, moliyaviy resurslar, o‘quv materiallari va texnologik vositalar, talabalar va o‘qituvchilar bo‘limlarining rivojlanishiga kattaissa qo‘shadi.

4. O‘quv jarayonini raqamlashtirishning xorij tajribasidan olingan eng ilg‘or natijalarini O‘zbekistonning ta’lim siyosati va maqsadlari bilan muvofiqlashtirish zarur. Bu, ta’lim tizimida raqamlashtirishning muhim yo‘nalishlarini aniqlash va to‘g‘ri yo‘nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Prezidentining O. R. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi //PQ-3775-sonli Qarori. – 2018.

2. Bradley V. M. Learning Management System (LMS) use with online instruction //International Journal of Technology in Education. – 2021. – T. 4. – №. 1. – C. 68-92.

3.Marrone R. et al. Digital technology in education systems around the world: Practices and policies //Report prepared for the South Australian Department for Education on behalf of the Centre for Change and Complexity in Learning, the University of South Australia. – 2021.

4.フォーサミュエル. Evaluating Educational Technologies: Interactive White Boards and Tablet Computers in the EFL Classroom //外国語教育論集. – 2018. – T. 40. – C. 37-48.

5.Кокова С. Ф., Дышекова А. А. Цифровая трансформация отраслей: стартовые условия и приоритеты //Журнал прикладных исследований. – 2022. – Т. 7. – №. 6. – С. 577-585.

6. Karadimas N. V. Comparing learning management systems from popularity point of view //2018 5th International Conference on Mathematics and Computers in Sciences and Industry (MCSI). – IEEE, 2018. – C. 141-146.

7. “La nuova Italia che avanza: Docebo”. Corriere Della Sera. Retrieved 2024-01-23.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

Masharipova Umida Abduvoxidovna
Toshkent davlat pedagogika
universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion pedagogik faoliyatning zamonaviy muammolarini anglash g‘oyalari, innovatsion ta’lim faoliyatining tizimli holati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, moddiy va intellektual resurslar, tizimli yondashuv, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat.

Inson hayoti va faoliyatining barcha sohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning ko‘lami va dinamikasi; axloqiy qadriyatlarni faol qayta ko‘rib chiqish; ommaviy axborot vositalarida, san’atda, adabiyotda, hayotda madaniy salohiyatni egallash va rivojlantirishning jiddiy muammolariga murojaat qilish zamonaviy jamiyatga xos sanaladi.

Yangi ijtimoiy-madaniy tartibni o‘rnatishda va uning tuzilmalarini ko‘paytirishda innovatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda innovatsiya nafaqat madaniyat rivojidagi omillardan biri, balki eng avvalo zamonaviy voqelikning murakkab ijtimoiy-madaniy hodisasidir.

Innovatsiyalarda aynan tizim ob’ekti sifatida qaraladigan innovatsion tizim quyidagilardan iborat:

1) innovatsiyalarning moddiy va intellektual resurslari;

2) yaratilgan yangilik maqsadi;

3) innovatsion tizimning tashqi muhiti bo‘lgan va yaratilayotgan innovatsiyalarning ehtiyojlari va parametrlarini aniqlaydigan bozor ("teskari aloqa").

Innovatsion faoliyatni o‘rganishda tizimli yondashuvdan foydalanish bu faoliyat barcha holatlarda tizimning o‘zi, ayniqsa, uning biron-bir shaklda tugal bo‘lishini anglatmaydi.

Muayyan elementlar to‘plamini to‘liq innovatsion tizimga birlashtiradigan tizimni tashkil etuvchi kategoriya - bu "yangi" tushunchasi, munosabatlar (narsa, mulk) tushuniladi, bu oldingi tizimning sifat jihatidan o‘ziga xosligini belgilaydigan o‘lchovning o‘tishini anglatadi. Shu sababli, qat’iy ma’noda, faqat ushbu xususiyatga ega bo‘lganlar (o‘lchovning o‘tishini ta’minlaydigan) innovatsion tizimning o‘zaro bog‘liq elementlari bo‘lishi mumkin. Shu sababli, hech qanday boshqa elementlar (narsalar, xususiyatlar, munosabatlar) innovatsion tizim tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

Ular unda faqat asosiy elementlar bilan birga, uning tizimli sifatini (yangiligini) ta’minlab, birga yashashi mumkin.

Zamonaviy innovatsion jarayon katta tanlash erkinligi va har xil innovatsion faoliyat turlari bilan ajralib turadi. Pedagogning muhim innovatsion erkinligi, bir tomondan, kasbiy zarur bilim va tajribani chuqurlashtirishga, pedagogik ijodkorlikni kuchaytirishga, ikkinchi tomondan, innovatsion faoliyatning natijaviyligiga olib keladi.

Innovatsion pedagogik faoliyatning zamonaviy muammolarini anglash uchun quyidagi g‘oyalarni ifoda etadi:

1. Pedagogik g‘oyalarning yangiligi va o‘ziga xosligi innovatsiyalarning maktab ta’lim tizimiga ijobiy ta’sirini kafolatlamaydi.

2. Maktabdagi eng samarali innovatsiyalar, qoida tariqasida:

- pedagogik nazariya va amaliyotning o‘zaro ta’siri asosida;
- bir necha ijodiy ishlaydigan pedagoglar yoki butun professor-o‘qituvchilar hamkorligida amalga oshiriladi;
- pedagogik an’analar bilan chambarchas bog‘liq;
- amalga oshirishning aniq shartlariga moslashtirilgan.

Innovatsion pedagog ko‘p sonli psixologik, pedagogik va metodik nashrlarni o‘rganishga, innovatsion va an’anaviy ish natijalarini kuzatishga va taqqoslashga majbur bo‘ladi, buning uchun ko‘pincha yangi diagnostika usullaridan foydalaniladi. Kiruvchi ma’lumotlarda asosiy va ikkinchi darajali, ishonchli va shubhali ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish muhimdir.

Bundan tashqari, innovatsion jarayonda, qoida tariqasida, tajriba almashishda, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqishda pedagogning ishtiroki kuchayadi.

Moddiy sohadagi o‘zgarishlarning (boshqaruv, qonunchilik, tashkiliy sohadagi yangiliklar) moddiy madaniyatdagi o‘zgarishlardan (fan va texnikadagi innovatsiyalar) kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan qarama-qarshilik mavjud bo‘lganda, madaniy kechikish deb ataladigan hodisa ham ogohlantiruvchi rol o‘ynashi kerak.

So‘nggi yillarda innovatsion ta’lim faoliyati tizimli tus oldi. U quyidagilar bilan ajralib turadi:

1) pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar xususiyatini o‘zgartiradigan maktab ta’limining gumanistik yo‘nalishi;

2) psixologik-pedagogik fanning eng so‘nggi tadqiqotlari natijalaridan ta’limga faol joriy qilish va ulardan tezkor foydalanish;

3) shaxs haqidagi g‘oyalarning o‘zgarishi, ijtimoiy fazilatlardan tashqari, uning mustaqilligi, aks ettirish qobiliyatini tavsiflovchi turli sub’ektiv xususiyatlarga ega, shu sababli pedagogik jarayonda uning o‘rni o‘zgaradi - bu uning asosiy tamoyiliga aylanadi;

4) pedagogga pedagogik ta’sir ob’ekti sifatida munosabatni doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish va ta’lim sub’ekti maqomini mustahkamlash [1].

Innovatsion faoliyat ta’limning innovatsion makonini tashkil etadi, unda eski an’anaviy bilim bazasiga ega bo‘lgan pedagog emas, balki faqat an’anaviy o‘qitish usullari va faoliyat shakllariga yo‘naltirilgan, balki ijodiy fikrlaydigan pedagog talab qilinadi.

Innovatsion pedagogik tajriba – bu pedagogik faoliyatdagi yangiliklarga olib keladigan pedagogik jarayonlar va hodisalarni, ularni samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘qitish, ta’limning mazmuni hamda texnologiyalaridagi o‘zgarishlarga olib boradigan yo‘l.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyati uning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va ta’lim berish amaliyotida pedagogik yangiliklarni yaratish, ishlab chiqish va qo‘llash, ta’lim muassasasida muayyan o‘quv va innovatsion muhitni yaratishni o‘z ichiga oladi [2].

O‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvni tatbiq etish, ba’zi mualliflarning fikriga ko‘ra bir qator qiyinchiliklarga duch keladi:

- birinchi navbatda shuni ta’kidlash kerakki, innovatsiyalarning paydo bo‘lishi va qabul qilinishi pedagoglar tarkibining yangi usulda ishlashga tayyor emasligi sababli samarasiz bo‘lishi mumkin;

- bundan tashqari, noaniqlik va hatto noma’lum qo‘rquv va salbiy oqibatlar ehtimoli ko‘pincha paydo bo‘ladi. Shu sababli pedagoglarning past faolligi va hatto innovatsion jarayonlarning sustligi;

- ba’zi hollarda yangiliklar zarur me’yoriy hujjatlar va o‘quv materiallari bilan ta’minlanmagan;

- innovatsion jarayonning o‘zi, uning amalga oshirilishini nazorat qilish va kamchiliklarni tuzatish haqida fikr yuritilmagan.

Shu bilan birga, ushbu masala bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va uning pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta’siri juda past darajada.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan hal qilingan vazifalar hajmi sezilarli darajada kengaydi va bu vazifalarning o‘zi ancha murakkablashdi. Ta’limni modernizatsiya qilish nafaqat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan chuqur bilimlarni talab qiladi, balki o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining rivojlanishini prognozlash, rejalashtirish va tashkil etish, monitoring va tahliliy faoliyat hamda o‘quv jarayonini, uni boshqarishni to‘g‘rilashni

talab qiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barkamol, ijtimoiy harakatchan va innovatsion madaniyatga ega bo‘lsa, ushbu barcha tadbirlarni sifatli bajarishi mumkin.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion kasbiy xatti-harakati - bu innovatsion potensial, shu jumladan kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashda innovatsiyalarni yaratish, idrok etish, innovatsiyalarni amalga oshirish, eskirgan, pedagogik jihatdan nomuvofiq tajriba va pedagoglarning metodologik voqelikni o‘zgartirishga bo‘lgan ijodiy intilishlaridan kelib chiqadigan funksional tizim. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyatiga yo‘naltirilganligi uning kasbiy faoliyatdagi yangiliklarga hissiy-baho munosabati, yangiliklarga sezgirlik darajasi, yangi narsalarga sezgirlik va kasbiy faoliyatda ijodkorlik istagi sifatida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Сафарова Г.А. Инновационная культура современного педагога в контексте дополнительной профессиональной подготовки //научные проблемы гуманитарных исследований.-2009.-№10.-С.63-67.
2. Арзымбетова Ш.Ж. Педагогические условия формирования инновационной деятельности учителей в УВП общеобразовательной школы / /Завуч.-2002.-№4.-С.19-21.
3. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, *2021*(4), 168-176.
4. Masharipova, U. (2019). FORMATION OF INNOVATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS PRIMARY SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *7*(6).
5. Masharipova, U. A. (2021). The Formation of Innovative Culture of Future Teachers of Primary School in the Process of Professional Development. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, *2*(2), 33-35.
6. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).
7. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 55-58.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARNING MUSTAQIL ISH FAOLIYATINI JADALLASHTIRISH YO‘LLARI

Meyliyev Sobirjon Xolmurodovich
Nizomiy nomidagi TDPU dotsent
Axmedova Sharofat Qaxramon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta’lim 3-bosqich talabasi
Toshmatova Nargizaxon Ergash qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’lim 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarning mustaqil ishlarni bajarishda o`ziga xos yondoshuvlarni o`z ichiga oladi. Ular mustaqil ish vazifalarining mazmunini va qo`yilgan maqsadini o`qituvchining ko`magisiz aniqlaydilar va mustaqil ravishda bajaradilar.

**Kalit so`zlar:** ta`rif, Teorema, xulosa, tushunchalar, aksioma, kriteriya va konsepsiyalar.

Hozirgi zamon talaba – o‘quvchilar hayoti xilma – xil bo‘lib, turli muammolar, qiyinchiliklardan iborat. Ular oldinga intilishlari uchun o‘zlaridagi bor qobiliyatlarini ishga solishlari kerak.

Xitoy maqollaridan bittasida shunday deyilgan – yangi yo‘l, ya’ni yangi bo‘lgan tezkor jamiyatga ham yo‘l olmoqlik, unga birinchi qadam qo‘yishdan boshlanadi. Lekin hayotiy paradoks shundayki, qancha mustaqil biz shug‘ullansak, qancha tez ma’lumot olishga intilsak shuncha yordamga muxtoj bo‘lamiz, bundan aniq, nozik muomila qilish bilan to‘siqlarni yengish kerak bo‘ladi. Bunday yordamni mustaqil ishlash ko‘nikmasi bor talabalar yoki o‘z ustilarida muntazam ishlab boruvchi, boy tajribaga ega bo‘lgan universitet o‘qituvchilaridan olishimiz mumkin [1, 3].

Talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilingan adabiyotlardan tashqari, qo‘shimcha adabiyotlar, zamonaviy ma’ruza matnlari, fanlar bo‘yicha o‘tkazilgan konferensiya, seminarlar materiallarini o‘rganib chiqishlarini taklif qilish kerak. Talabalarning mustaqil ish vazifalarini bajarish majburiy bo‘lib, fan bo‘yicha o‘quv va ishchi dasturlar talablariga muvofiq bajariladi. Fan bo‘yicha taqsimlangan o‘quv yuklamalaridan taxminan 55-60 foizi mustaqil ta’limga ajratilgan. Mustaqil ta’limni tashkil etish, uning maqsadi, mavzusi, hajmi, talabaning bilim sohasi darajasini inobatga olingan holda, yakka tartibda yoki talabalar guruxi tartibida bo‘lishi mumkin.

Berilgan vazifalarni talaba mustaqil qanday bajarganligi o‘qituvchi tomonidan baholab borilishi kerak. O‘quv jarayonida talabaning ishlash faoliyatini oshirishda mazmunli tomoni quyidagilardan iborat: talabalarga beriladigan vazifa materiallari har bir talabaning shaxsiy qobiliyatiga ko‘ra tanlanib, o‘z ichiga amalda qo‘llaniladigan, muammoli lekin qiziqarli mavzular tanlanishi kerak [4].

O‘quv protsessini faollashtirishning birinchi bosqichi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi suhbatga bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi talabaning fanga, o‘ziga va o‘z qobiliyatiga obyektiv ruxiy baho bera olishini inobatga olish kerak.

Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi talabaning sistematik izlanishiga shunday sharoit yaratib berish kerakki, o‘z ustida ishlayotgan har bir talaba erishgan yutuq va kamchiligiga bir xil baho beraolsin.

Uchinchi bosqichda har bir o‘qituvchi talabalarning qiziqishlariga qarab yakka tartibda – tabaqalangan ish olib borish kerak.

Shu borada L.S. Vigotskiy so‘zini keltiramiz “Yaxshi ta’lim berilgan deb shundagina hisoblash kerakki, agar u jamiyat rivojlanishini keltirib chiqarsa. Ta’lim hayotda shunday funksiyalar vazifasini bajaradiki, u o‘sish pog‘onasi va yaqin rivojlanish doirasida yotadi”.Talabaning mustaqil bilim olishini faollashtirishni aniq bir misolda ko‘ramiz.

Rejalashtirilgan va umumlashtirilgan ma’ruza mazmuni ustida ishlash.

Ma’ruza mazmuni aniq, lo‘nda qilib, bir ko‘rinishda sodda qilib tushuntirilgan bo‘lishi kerak. Masalan, tutilgan daftar muqovasining orqa ichki qismida o‘qituvchining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi, ilmiy unvoni, ilmiy ishlari ro‘yxati (bo‘lsa) ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Ma’ruza daftarining har bir varag‘ining birinchi betida o‘qituvchi tomonidan biror mavzuga bag‘ishlangan ma’ruzada keltirilgan ta’rif, teorema, hulosa, tushuntirshalar, aksioma, kriteriya, konsepsiyalar va boshqalar (adabiyotlarda keltirilganlaridan farqliroq) yozilgan bo‘lib, ikkinchi betida talabaning ma’ruzaga o‘zining fikri, qarashlari, qo‘yilgan savollarga javoblari aniq misol va faktlar bilan yozilgan bo‘lishi kerak. Bunday usul talaba bilan o‘qituvchi, xatto kursdoshlar orasida dialog, baholashishni keltirib chiqarib, talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va talabini kuchaytiradi. Unda ma’ruzadagi har bir keltirilgan qismlarga jiddiy qarashga undaydigan savollar paydo bo‘lib, baxslar kichkina ma’ruzalarga aylanib boradi. Bahsda ishtirok etmagan talabalar baxs natijalarini qisqacha yozib boradilar.

Har qanday ma’ruzani eshitish – intelektual qobiliyatning murakkab ko‘rinishi bo‘lib, talaba birinchidan “eshitish ko‘nikmasi” bo‘lishi ikkinchidan o‘tilayotgan materalni tushunib uqishi, kerakligini daftariga yozib borishni bilishi kerak. Shu bilan birga ma’ruza paytida talaba eshitilgan materialni tahlil qilib, o‘tilagan materialning mantiqiy rejasini tushunib yetmog‘i kerak.

Bunday qarash boshida talabada qiyinchilik tug‘diradi. Shu maqsadda bir nechta qoidalar keltiramiz:

1. Ma’ruza boshlanishi bilan (mavzu, maqsad, ma’ruza rejasi, kerakli adabiyotlar) talaba ma’ruzaning o‘qilish tartibiga, qo‘yilgan masalaning mohiyatiga ahamiyat bergan holda materialning mazmuni yoritilishi, isbotlar so‘ngra hulosa bilan tugatilishi, talaba ongida mustahkamlanishi kerak.
2. Ma’ruzani yozishda ishonchli isbot talab qiluvchi holatlarga ahamiyat berib, o‘qituvchi tomonidan aniq misollar va talabalarning mustaqil ishlashlari uchun savollar, mavzu o‘yicha test savollari keltirilgan bo‘lishi kerak.
3. Talabaning xusni – xati chiroyli bo‘lib, ma’ruzani tartib bilan yozishi kerak. Mavzu va mavzuchalarni ajratib yozishi, savol va javoblarni, ta’rif, teorema, natija va hokazolarni nomerlab boshqa rangli siyohda yozib, asosiy jumlalarni tagiga chizib borsa, o‘tilgan material talaba ongida mustahkamlanadi.

Ma’ruza ustida ishlash talabaning mustaqil fikr yuritishiga asos bo‘lib, umumlashgan ma’ruza materiallarida keltirilgan vazifalarni yechishda yordam beradi,

masalan ilmiy xarakterdagi tezislar, referatlar yozib, muammoli masala testlarini ham tuzishlari mumkin bo‘ladi[4, 5].

Umumlashgan ma’ruzalar algoritmi quyidagi savollarga javob beradi:

a) qanday mulohazalar ustida ishlash kerak

b) qanday umumiy fikr almashuvlar kiritilishi kerak

v) qaysi o‘quv materillaridan foydalanish kerak

g) qanday materallar bilan mavzuni boyitish mumkin

d) umumlashgan ma’ruzalarni qanday va qaysi parametrlarga qarab solishtirish mumkin.

Umumlashgan ma’ruzalar ustida ishlash sistemasiga ma’ruza bayonida keltirilgan vazifalarni bajarishi ham kiritiladi. Bunday vazifalarni uch turga bo‘lish mumkin.

1) Reproduktiv darajali topshiriq (umumlashgan ma’ruzaning kengaytirilgan rejasini tuzish, ma’ruza materiallari bo‘yicha tezislar tuzish);
2) Produktiv darajali topshiriq (muammoli masalalarga javob berish, muammolarni paydo bo‘lishiga sababchi asosiy tendensiyalarni aniqlash);
3) Ijodiy darajali topshiriq (mavzu bo‘yicha tekshiruvchi testlar tuzish, referat yozib himoya qilish).

Shaxsni shakillantirishda umumlashgan ma’ruza aktual mavzuni “muhit” o‘z ichiga oladi. Universitet Konsepsiyasida “Bilim olish insoning maxsus umumlashgan muhitga ta’sirida shakillanib boradi. Bilim olish muhiti shaxsiy faoliyatdan, kuzatuvdan va o‘zlashtirishdan tushunib olishni o‘rgatadi” [5].

Hulosa qilib, shuni aytish kerakki o‘qituvchining ko‘magida talabada qo‘yilgan maqsadlariga erishishda mustaqil ishlash ko‘nikmasi hosil bo‘ladi, o‘z qobiliyatiga ishongan hamda uzluksiz ijodiy ish olib borishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. P Akhtar, J Frynas, G Mellahi, K Ullah(2019).Big data-savvy teams’ skills, big data-driven actions and business performance. *In: Brit J Manage*, 40(3), S. 253–264. https://doi.org/10.1111/1467-8551.

2. Cretchley J, Rooney D and Gallois C. (2010) Mapping a 40-year history with Leximancer: Themes and concepts in the Journal of Cross-Cultural Psychology. Journal of Cross-Cultural Psychology 41: 318-328.

3. De Mauro A, Greco M, Grimaldi M, et al. (2018) Human resources for Big Data professions: A systematic classification of job roles and required skill sets. Information Processing & Management 54: 807-817.

4. Croteau A-M and Raymond L. (2004) Performance Outcomes of Strategic and IT Competencies Alignment1. Journal of Information Technology 19: 178-190.

5. . Salayeva M.S, Shoyunusova F.S. “Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar kelajagiga e’tibor” PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS, Australia, Melbourne. November 1, 2022. Session 1, Part 5. Pages 53-60. https://doi.org/10.5281/zenodo.7269286

AVLONIY IJODIY MEROSIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TARBIYA G‘OYASINING TARG‘IB ETILISHI

Mirzayeva Farog‘at Odiljonovna
Nizomiy nomidagi TDPU
Pedagogika kafedrasi dotsenti
Yusupova Shahlo Otabekovna
Pedagogika va psixologiya
ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalaridan biri Abdulla Avloniyning hayot yo‘li, xalq ma'rifati yo‘lidagi zo‘r jasorati, uning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, dars, jadid, jamiyat, ma’rifat, ma’naviyat, millat, ta’lim, tarbiya.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, Vatanimiz tarixining g‘oyat murakkab davrida – XX asr boshlarida o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga qo‘shgan beqiyos hissasini inobatga olib, o‘zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo‘lga qo‘yishda katta xizmatlar qilib kelgan ma’rifatparvar adib, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi [1. 4].

Abdulla Avloniy o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913 yilda «Turon» nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professonal teatrga aylanishi uchun katta to‘siqlar bor edi. Bu to‘siqlarning asosi Chor hukkumati edi, nima uchun chor hukumati bunga qarshilik qilganini barchamiz juda yahshi bilamiz, ammo adibning vatanparvarligi o‘z faoliyatida muhabbati oldida, bu cheklovlar hech ham to‘siq bo‘la olmadi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg‘onishiga yordam ko‘rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabatda bo‘lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi pyesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo‘lidagi zo‘r jasorati edi. Abdulla Avloniy bunday katta ishni o‘z teatr jamoasi bilan uddalashga erishgan va ular insonlarga ma’naviyat urug‘larini sochishga ularning asil kimning avlodlari ekanligini eslashga yana bir katta dastak bo‘lgan. Abdulla Avloniyning ham adabiyotga ham san’atga bo‘lgan mehri o‘zgacha edi va ular o‘zlarining faoliyatlarini teatrda ham yuksak darajada o‘lib borganlar va teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi:

“Avloniy truppa” uchun “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Ikki muhabbat”, “Portug‘oliya inqilobi” kabi drammalar yozdi, “Uy tarbiyasining bir shakli”, “Xiyonatkor oilasi”, “Badbaxt kelin”, “Jaholat”, “O‘liklar” kabi sahna asarlarini

tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi" Ammo bu asarlar nashr qilinmadi adib o‘z aoliyatidan ortga chekinmadi va doimo ilm yo‘lida jonbozlikda yetakchilik qildilar. 1916 yili ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib, "Turon" truppasi bilan birga "Layli va Majnun" spektaklini qo‘yadi. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a'zolari bilan Avloniy 1914-1916 yillari Farg‘ona vodiysida gastrollarda bo‘ladi [3. 8].

1914-1915 yillarda Advakat Ubaydulla Xojayev bilan "Sadoyi Turkiston" gazetasida hamkorlik qildi. Gazetadag she'r va maqolalar Abdulla Avloniyning qalamiga mansub bo‘lib, ular tezda katta mavqe' va e'tibor qozondi. Abdulla Avloniy 1917 yil to‘ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan edi. Adib o‘z faoliyatini barchaga yetishiga barcha ma'naviy yuksalishini doimo istagan shuning uchun ham ko‘p bora o‘z safarlarini uyushtirgan. Abdulla Avloniy ilg‘or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag‘larga dunyoviy ilmlarni o‘qitadigan "Usuli jadid", ya'ni yangicha ilg‘or usuldagi maktablar ochdilar va bu maktablarda xalq bolalarini o‘qitdilar. Ular o‘z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatdilar. Abdulla Avloniyning vatanga bo‘lgan muhabbatini tatr olamizdagi faoliyatidan ham ko‘rib guvohi bo‘lishimiz mumkin adib teatredan tushgan ezgu ishlarga maktablaru madrasalar qurish yangi o‘quv asarlar yaratishga sarflaganlar, nimaga adib bugungi kunda ham ez'zozlani buyuk ma'rifatbarvar deyilishining asosiy sababi ham ularning ezgu buyuk ishlariva mehnatlaridandir. Abdulla Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o‘quv asbob va jihozlarini o‘zgartirdi, o‘z qo‘li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag‘al kishilarning bolalari bo‘lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do‘stlarining ko‘magida "Jamiyati xayriya" tashkil etadi va bu jamiyatga o‘zi raislik qiladi. Abdulla Avloniy tashkil etgan maktablalarning asosiy o‘quvchilari sharoiti og‘ir o‘quvchilar bo‘lgan siz aytishingiz mumkin, nima uchun deb, - albatta har bir inson ilm olish huquqiga ega, ammo har bir inson ham bunga sharoiti to‘g‘ri kemasligi mumkin. adib o‘zi mehnatda toblangani uchun o‘quvchi-yoshlarga bilim berish bilan ularni sharoitini yaxshilashga, o‘qib bilimga ega bo‘lib, bir ma'naviyatchi inson bo‘ishiga tilakakdosh bo‘lganlar. Shu bilan birgalikda "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» nomli kitob do‘konini ochdi. Avloniyning maktabi o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalariga ko‘ra mashg‘ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o‘z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o‘z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob-kitob, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi. Adibning har bir fanda ilg‘or har bir sohada yuqtuqlarga bo‘y ekanligi bilan o‘z maqsadi yo‘lida tinim bilmaganlarini, maqsadlariga erishib nafaqat o‘z hayotlarini balki o‘z ona vataniga ulkan ishlar qilib, iz qoldirganlarini guvohi bo‘lamiz. Abdulla Avloniy 1917-yil to‘ntarishidan keyin, 1918-yildan boshlab Respublikamizda o‘qituvchilar uyushmasi, qorovullar, tunukachilar, konchilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining

kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Adib har doim o‘z vaqtini ezgu va ulug‘ ishlarga sarf etganlar va buni bizga ham tavsiyalarida qoldirganlar. Sobiq eski shahar ishchi dehqon Sovet Ijroiya Komitetiga rais qilib saylanadi. Avloniy Turkiston Respublikasi milliy Komissariyatining mas'ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug‘ullanadi.1919-1920 yillarda Avloniy Afg‘onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida bosh konsul bo‘lib ishladi. Abdulla Avloniy konsul bo‘lib ishlagan yillar oz’ yurtlari va Afg‘oniston xalqlari orasida do‘stona munosabatni shakillantirishda jonbozlik ko‘rsatib Afg‘on shohi tamonidan ham izzat va e’tiborga musharaff bo‘lgan adiblardan biri bo‘lib hisoblanadi [3. 19].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Avloniy ijodiy merosi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g‘oyasining targ‘ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma’naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu ulug‘ adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 2020-yil 8-oktabr №5598-sonli Farmon.

2. Shavkat Mirziyoyev.O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi,” Xalq so‘zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.

3. Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 6et.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING RISKOLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Mingboyev Shuxrat Mingboy o‘g‘li,
MTTDMQTMOI, tayanch doktaranti

Annotasiya. Maqolada “risk”, “pedagogik risk” va “riskologik kompetensiya” tushunchalari tahlil etilib, maktabgacha ta’lim tizimida risk tushunchasini qo‘llanishi hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari faoliyatida uchraydigan risklarning mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari riski, pedagogik risk, risk, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, ehtimollik, risq, xavf, xavf-xatar, moliyaviy risk, ekologik risk, riskologik kompetensiya, riskologik immunitet.

Kirish: O‘zbekistonda barcha sohalar singari ta’lim tizimida ham tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Maktabgacha ta’lim tizimini dunyo hamjamiyati talablariga muvofiq zamonaviy ma’no va mazmun kasb etishi uchun eng muhim omillardan biri maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining kasbiy kompetensiyasilarini davr talabalariga muvofiq adaptatsiyalashdir.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohatlarning samarasi hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati direktorning kasbiy tayyorgarlik darajalariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning kasbiy faoliyatida maqsadni belgilash tajribasi, ijobiy va maqbul qarorlar qabul qila olishi, har qanday ijtimoiy o‘zgarishlarga moslasha olish mahorati katta ahamiyatga ega. Ta’lim tashkiloti direktori innovatsion firklashi, riskologik immunitetga ega bo‘lishi davrning o‘ziga xos talablarni tushunishi, ularning kompetentligini shakllantiruvchi eng muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanib, ular islohatlar davrida ta’lim xizmatlari bozorida yuzaga keladigan vaziyatlar orqali bujudga keladi.

Maqsadi va vazifasi: Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, rahbar va pedagok kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standrtlar asosida takomillashtirish borasida izchil tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplariga quyidagilarga katta e’tibor qaratish nazarda tutilgan.

ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;

ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik [1].

Yuqorida keltirilgan prinsiplarni to‘laqonli amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbariga ham yuksak mas’uliyat yuklaydi.

So‘ngi yillarda maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarini ta’lim tizimida raqobatbardoshligini oshirish uchun kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8- maydagi PQ-4312-son qaroriga asosan Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Unga ko‘ra maktabgacha ta’lim sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini tahlil qilish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarurligini belgilaydi[2].

xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko‘p darajali uzluksiz ta’lim tizimini yaratish;

ta’lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta’lim standartlari, o‘quv-metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli-vaziyatli o‘qitish usullari va treninglari, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta’lim tizimi xodimlariga qo‘yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo‘li bilan maktabgacha ta’lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, maktabgacha ta’lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil qilish uchun, shu jumladan mamlakat hududlarida, ta’lim muassasalari sonini oshirish;

maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining xorijdagi yetakchi universitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta’lim tashkilotlarida stajirovka o‘tashini tashkil qilish;

o‘zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta’minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish;

strategik boshqaruv, moliyaviy va NR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish[3].

Muhokama: Hozirgi zamon sharoitida ta’lim tashkiloti rahbarlarining maqomi va uning boshqaruv funksiyalari tubdan takomillashi bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmonida “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASIda xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida maktabgacha ta’lim tizimida bir qator quyidagi ustuvor vazifar maqsad qilib olingan[4].

Istiqbolda amalga oshiriladigan ishlar maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlariga ham ma’lum talablar qo‘yadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari boshqaruv faoliyatini olib borish jarayonida rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiradi. Zamonaviy jihatdan maqsadga muvofiq firklashi va harakat qilishi shart.

Bugungi kunda rahbar nafaqat boshqaruv jarayonida va uning natijalarida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan risklardan mahoratli foydalanishi hamda zamonaviy tushuncha asosida barcha sohalarda ommalashayotgan riskologik kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta’lim xizmatlari bozorida yuqori darajada raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishi mumkin.

O‘z-o‘zidan savol tug‘uladiki, riskologik kompetensiya nimani aks ettiradi va samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbari qanday riskologik kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak?

Riskologik kompetensiya zamonaviy dunyoda keng ko‘lamda kontekslarda foydalanilmoqda, mazkur tushunchani batafsilroq tahlil qilsak.

Risk tushunchasi Kembrij raqamli lug‘atida “Yomon narsa sodir bo'lish ehtimoli, biror narsa qilish yoki xafa bo'lish yoki yo'qotish yoki mag'lub bo'lish ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatga kirish” ma’nolarini anglatadi.

Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati bu tushuncha haqida quyidagi tarif keltirilgan. Risk - ta’sir ko‘rsatish natijasi – bu, taxmin qilingan maqsaddan chetga chiqishdir (ijobiy yoki salbiy)[5].

Ushakovning izohli onlayn lug‘atida esa quyidagicha tarif beriladi.

Risk - mumkin bo'lgan xavf. Bozor sharoitidagi o'zgaruvchanlik tufayli tijorat biznesida mumkin bo‘lgan yo‘qotish yoki muvaffaqiyatsizlik.

Risk tushunchasi yuqorida keltirilgan tariflardan tushunish mumkinki, risk bu har qandan faoliyat turida uchrashi ehtimoli bo‘lgan kutulmagan xavf-xatarlardir

Pedagogika ensiklopediyasida kompetensiya atamasiga quyidagi tarif beriladi;

Kompetensiya – bu shaxsning biror - bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi[4].

Xulosa qilib, Shuni tushunimiz kerakki, riskologik kompetensiya – bu jamiyatda mavjud bo‘lgan, har qanday sohada kutulgan va kutulmagan, ma’lum yoki noma’lum voqia, hodisa, holatlar hamda xavf-xatarlarning sodir bo‘lish, yuzaga kelish ehtimolidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab risklar mavjud. Bular quyidagilar;

pedagogik risklar, moliyaviy, sanitarik-gigenik, ekologik, axborot texnologiyalar, tabiiy-texnik risklar va boshq

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari faoliyatida eng ko‘p uchraydigan risklar bu pedagogik risklardir.

Shular jumlasiga:

Maktabgacha ta’lim tashkilotida xodimlarni boshqarish bilan bog‘liq vujudga keladigan risklar;

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari va ularning ota-onalari bilan yuzaga kelishi mumkin risklar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kutulmagan tabiiy-texnik voqia, hodisalarning sodir bo‘lish (zilzila, yong‘in va boshq.) ehtimolining mavjudligi;

Maktabgacha ta’lim tashkiloti(MTT) va uning atrofida joylashgan hududlarda ekologik hamda sanitarik-gigenik shartlarga amal qilmaslik holatlari;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan barcha rahbar, hodimlar tomonidan foydalinadigan barcha turdagi gadjetlarda ma'lumotlarni saqlash, olish, uzatish yoki yolg‘on va noma’lum axborotlarning is’temoli oqibatida turli vaziyatlar yuzaga kelish ehtimolining mavjudligi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan mulohazalardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida risk va riskologik kompetensiya tushunchasini qo‘llanishi va ko‘pgina hollarda kutulgan natijaning noma’lum holati, ular xavflarni oldini olish yoki kamaytirish uchun Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlariga ma’lim darajada bilim, ko‘nikma hamda kompetensiyaga ega bo‘lishi lozimligini bildiradi. Risklarni tushunish, anglash hamda uni boshqarish uchun Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlariga riskologik immunitetni shakllanishi bugungi kunning davr talabi hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida Qonuni 23.09.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.08.2019, PQ-4312.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023, PF-158.
4. Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati “Kafolat print companiy” nashryoti, Toshkent-2022.
5. Pedagogika ensiklopediya II jild “O‘zbekiston milliy enkislopediyasi”, Toshkent-2015, bet-184.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY-HUQUQIY ME’YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Muxammadieva Xadicha Karomatovna
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v.b. (PhD)
Karimova Sabina Muxiddin qizi
4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishning,nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy- huquqiy, o‘zini o‘zi rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish, kasbiy ehtiyoj hurmat hissini shakllantirish tamoyili.

Mustaqillik yillarida tom ma’noda uzluksiz ta’lim mazmuni tubdan yangilandi. Yangilangan ta’lim mazmunida o‘zgarayotgan jamiyat, global axborotlashuv jarayonining mohiyati aks etishiga, shuningdek, shaxs kamolotini ta’minlash borasida yuzaga kelgan ijtimoiy zaruriyatning inobatga olinishiga e’tibor karatildi.

Uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida bo‘lgani kabi boshlang‘ich ta’limning ham huquqiy negizlari yaratildi. Bugungi kunda respublika miqyosida tashkil etilayotgan boshlang‘ich ta’limning umumiy mohiyati “Boshlang‘ich ta’lim Konsepsiyasi”da belgilab berilgan tamoyillar asosida yo‘lga qo‘yilmoqda.

Mazkur metodologik hujjatga ko‘ra boshlang‘ich ta’lim quyidagi maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilishi lozim: bolalarning psixologik va fiziologik salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash; barcha faoliyat turlari bo‘yicha bolalar tashabbusini uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash; muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarining shakllanishiga erishish; o‘ziga ijobiy baho berish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni qo‘llab-quvvatlash; o‘quv mustaqilligini shakllantirish (o‘qishga bo‘lgan xohish va ko‘nikma, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlar darajasini kengaytirib borish [1].

Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayoniga faol jalb etish, shaxslararo muloqotni samarali tashkil etishga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishlariga erishishda ular tomonidan

ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa muayyan ijtimoiy-huquqiy me’yorlar asosida tashkil etiladi. Ko‘p holatlarda ijtimoiy va huquqiy me’yorlar asosida tartibga solinadigan munosabatlar jarayoni ishtirokchilarning madaniyatlilik darajasini ham ifodalashga xizmat qiladi. Jamoa joylarida o‘zini tutish, kinoteatrlarga tashrif buyurish, umumiy ovqatlanish muassasalarida maishiy xizmat turlari, jamoa transportidan foydalanish, shuningdek, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish jarayonida shaxsning umumiy madaniyati namoyon bo‘ladi. Shu bois oila, maktabgacha tarbiya va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida bolalarni so‘z yuritilgan jarayonlar uchun taalluqli bo‘lgan ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish, ularga qat’iy rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

Muammoni yoritishda, eng avvalo, “madaniy xulq-atvor” tushunchasi qanday mohiyatga egaligini aniqlab olish lozim. Ushbu tushuncha anglanganidek, “madaniy” va “xulq-atvor” tushunchalarining o‘zaro birlashuvi asosida shakllangan. Manbalarda “madaniy” atamasi “madaniyat” tushunchasi negizida shakllangan. Shu sababli dastlab “madaniyat” tushunchasining mazmuni bilan tanishib olamiz.

Manbalarda “madaniyat” tushunchasiga shunday ta’riflar beriladi:

1. Lotincha “cultura” atamasidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi; mumtoz lotin tilida “madaniyat” tushunchasi “yerni parvarish qilish”, “yerga ishlov berish” ma’nosida qo‘llanilib kelingan... Keyinchalik “madaniyat” tushunchasi bilimdon, ma’rifatli, yuksak tarbiyali insonlarni ta’riflashda ham ishlatila boshlanadi.[2]

2. Dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlar boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar uchun umumiy axloq qoidalari tizimi; shaxs xulq-atvori, muomalasi va xatti-harakatlarining ma’lum ketma-ketlik asosida shakllangan tizimi; jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qo‘lga kiritilgan yutuqlar majmui; inson faoliyatining mahsuli, natijasi[6][3]

Arabcha “madiniyat” (Madina shahrida VII ayerdan boshlab targ‘ib etila boshlagan yangi dunyoqarash tarafdorlari va ular izdoshlarining qarashlari, nuqtayi nazarlari va amaliy xatti-harakatlari majmui) so‘zidan olingan bo‘lib, kishilarning tabiatni, borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma’naviy boyliklar, ularni qayta tiklash hamda rivojlantirish yo‘llari, uslublari majmui; inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko‘rsatkichi.[4]

4. Insonning ijodiy kuchi aks etadigan fikriy, ma’naviy yoki badiiy faoliyat mahsuli.

Tushunchaning mohiyatini quyidagi uch talqinda ifodalash mumkin:

1) moddiy va ma’naviy qarashlar mohiyati;

2)bir qator bilimlar sohasi: tafakkur, mehnat, nutq, xulq-atvor va boshqalarning rivojlanish bosqichlari;

3)inson mohiyatini ifodalovchi ijtimoiy va mental rivojlanish darajasi [5]

5. Intellektual, ma’naviy va estetik taraqqiyotning umumiy jarayoni; huquq, tartib, axloqiy talab va boshqalarga asoslangan jamiyat holati (shu jihatiga ko‘ra “madaniyat” so‘zi “sivilizatsiya” atamasiga mos keladi); qandaydir jamiyat, kishilar guruhi yoki

tarixiy davrning mavjudligi yoki turmush tarziga xos belgilarning ifodalanishi; intellektual, yanada aniqrog‘i, badiiy faoliyat (musiqa, adabiyot, rassomlik, teatr, kino va hokazolar)ning shakl va u yordamida yaratilgan boyliklar.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan anglanadiki, “madaniyat” tushunchasining shakllanishi bevosita insoniyat tarixi taraqqiyotining muayyan davri bilan bog‘liq. Ovchilik va terib-termachlab kun ko‘rgan insoniyat tomonidan yerga ishlov berish, ya’ni dehqonchilik sirlarining o‘rganilishi ana shu tushuncha bilan ifodalana boshlagan. Dehqonchilikning paydo bo‘lishi mo‘l-ko‘l oziq-ovqat manbalarini izlaydigan odamlar guruhining o‘troq hayotga moslashishini ta’minladi. Endilikda muqim bir joyda yashaydigan inson dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish haqidagina emas, shu bilan birga turmush tarzida ma’lum qulayliklarni yaratish to‘g‘risida ham o‘ylay boshladi.

Dehqonchilikning rivojlanishi bilan birga o‘troq qabila va urug‘lar chorva (ot, tuya, sigir va boshqa) hayvonlarini ham tobora ko‘proq qo‘lga o‘rgatdi. Shu bilan birga chorva hayvonlarini ko‘paytirish to‘g‘risida ham g‘amxo‘rlik qila boshladi. Inson hayotida muhim o‘rin tutgan bu ikki sohaning rivojlanishi o‘z navbatida kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda yangi yo‘nalishlarning yuzaga kelishini ta’minladi.

Maishiy hayotda ro‘y berayotgan doimiy o‘zgarishlar kishilarda nafaqat moddiy, shu bilan birga ma’naviy ehtiyojlar doirasini ham kengaytirdi.

Moddiy borliq va insoniyatga xos hayotiy faoliyat mazmunini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj esa ilmiy bilimlarni keng ko‘lamda rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Bu davrda kelib, “madaniyat” tushunchasi “jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qo‘lga kiritilgan yutuqlar” [6] mohiyati ifodalay boshladi. Shunga ko‘ra “madaniyat” tushunchasiga inson faoliyatining mahsuli uning darajasini ifodalovchi sifat ko‘rsatkichi, shuningdek, xulq-atvor mohiyati nuqtayi nazardan yondashish ham mantiqan to‘g‘ridir.

Demak, “madaniy xulq-atvor” tushunchasi shaxs xulq-atvorining insoniyat tomonidan asrlar davomida o‘zlashtirilgan hayotiy tajribalarga muvofiq asoslangan qoida, me’yorlarga muvofiq ekanligini anglatadi.

Shaxsga xos bo‘lgan madaniy xulq-atvor jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti, shuningdek, yo‘llarda yurish)da yaqqol namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy sharoitda yoshlarni jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti)da o‘zlarini tuta bilishga o‘rgatish nihoyatda muhim. Zero, keyingi vaqtlarda yoshlar jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovkatlanish muassasasi va jamoa transporti)da jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan ijtimoiy me’yorlarga rioya qilmayaptilar.

Jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovqatlanish muassasasi va jamoa transporta)da ijtimoiy me’yorlarga rioya qilmaslik atrofdagilar uchun noqulayliklarni yuzaga keltirish bilan birga shaxsning qanday tarbiya ko‘rganligidan ham dalolat beradi.

Boshlang‘ich ta’lim davrida bu yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish imkoniyati yanada oshadi. Chunki, ijtimoiy va huquqiy

me’yorlar mohiyati muayyan darajada “O‘qish”, “Tarbiya”, “Atrofimizdagi olam” va “Konstitutsiya alifbosi” kabi o‘quv fanlari mazmuniga singdirilgan.

Xo‘sh, o‘quv fanlari negizida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish qanday amalga oshiriladi? Bu jarayonda hech shubhasiz asosiy subyekt bo‘lgan o‘qituvchi faoliyatni tashkil etishda nimalarga e’tibor qaratishi lozim? Quyida ana shu savollarga javob topishga e’tibor qaratiladi? Kasbiy faoliyati nuqtayi nazaridan o‘qituvchi bolalarga ta’lim berish (ularni atrof-muhit bilan yaqinroq tanishtirish, o‘qishni va yozishni o‘rgatish) va tarbiyalash (o‘quvchi shaxsida ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnat, estetik va hokazo sifatlarni shakllantirish)dan iborat vazifani bajaradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishda ham o‘qituvchi faoliyati ikki muhim yo‘nalish, ya’ni o‘qitish va tarbiyalashdan iborat bo‘ladi.

Mazkur jarayonda asosiy maqsad o‘quvchilar ongiga ijtimoiy va huquqiy me’yorlar, ularning ijtimoiy va har bir shaxs uchun xususiy ahamiyatiga oid nazariy bilimlarni singdirish orqali hurmat hissini tarbiyalash bo‘lib, bu maqsadga erishish uchun o‘qituvchi muayyan vazifalarni bajarishi lozim. Jumladan:

- ijtimoiy me’yorlar orasidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kundalik faoliyati uchun ahamiyatli bo‘lganlarini ajratib olish;
- ajratib olingan ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga oid tushunchalarning murakkablik darajasini tahlil qilish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy hamda huquqiy me’yorlarni o‘zlashtirilish imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga oid tushunchalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan puxta o‘zlashtirishga imkon beradigan yo‘llar, omillar, samarali shakllar, metodlar va vositalarni aniqlash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishni uyg‘ota olish uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tanlay bilish;
- o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga muvofiq faoliyatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash; - o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy me’yorlar, ularning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati, shaxsiy yo‘naltirilganligiga doir nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash olishlari uchun ta’lim hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar o‘rtasida integratsiyani qaror toptirish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga doir bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini nazorat qilish va baholash.

O‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirish yo‘lida pedagogik faoliyatni tashkil etar ekan, undan ijtimoiy me’yorlar to‘g‘risida ma’lumot beradigan manba va vositalardan yaxshi xabardor bo‘lish talab qilinadi.

Tanlangan muammoni nazariy o‘rganish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilish imkoniyatlarini inobatga olgan holda

o‘qituvchining quyidagi vositalardan xabardor bo‘lishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning samarali o‘zlashtirilishiga yordam berishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qonuni.

13. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabr “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.

18. Abdullaeva B.S. Sovershenstvovanie metodicheskogo obespecheniya v nachalnыx klassax v ramkax realizatsii gosudarstvennoy programmы. 2014 g.

19. Abdullayev M., Xakimov E. Vvedenie v etiku (kratkiy kurs). – Fergana: Fargona, 2001. – 94 s.

20. Boshlang‘ich ta’lim Konsepsiyasi / Mualliflar: Q.A.Abdullayeva, R.G‘.Safarova,M.O.Ochilov, K.N.Nazarov, N.U.Bikbayeva, M.Zaynitdinova // Boshlang’ich ta'lim j. – Toshkent: 1998. 6-son. – 12-18-6.

21. Adizov B.N. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. Fan. Dok. Diss... –T.: 2003. – 320 b.

22. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan.dok... diss. – Buxoro, 2002. – 276 b.;

BOSHLANG’ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Muxammadieva Xadicha Karomatovna
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v.b., (PhD)
Saidaxmatova Laura Marat qizi
4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatini shakillantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. boshlang’ich

sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatini shakillantirishlarga hurmat hissini shakllantirishning,nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Tayanch so‘zlar: kreativlik, qobiliyatini, uzluksiz malaka ilmiy-pedagogik kasbiy ma’naviy-ma’rifiy hurmat hissini shakllantirish tamoyili.

Mamlakatimizda yosh avlodning jismonan va ma’nan barkamol bo‘lib voyaga yetishiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilishi zamirida, albatta, mustaqil tafakkurli, ijodkor va yuksak ma’naviyatli shaxsni kamol toptirish maqsadi mujassam.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangicha tizim asosida yo‘lga qo‘yish borasida belgilangan vazifalar yoshlar ta’limtarbiyasiga daxldor muhim chora-tadbirlar ijrosini taqozo etadi. Shuningdek, 2018 yil 17 iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi hamda 2019 yil 29 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [1] PF-5712-son Farmonida ham yoshlar ta’lim-tarbiyasiga qaratilgan kompleks vazifalar o‘z ifodasini topganligi masalaning jamiyat va millat hayotida dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasini ko‘rib chiqishdan oldin, “ijodkorlik”, “qobiliyat” va “kreativlik qobiliyat” kabi tushunchalarga to‘xtalib o‘tish kerak. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, biz “ijodkorlik” tushunchasiga mutlaqo yangi, o‘ziga xosligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan biror narsani yaratishga qaratilgan faoliyat sifatidagi bir nechta ta’riflarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin kreativlikni rivojlantirish masalasini ko‘rib chiqishdan oldin o‘quvchilarning qobiliyatlari kabi tushunchalarga to‘xtalib o‘tish zarur “ijodkorlik”, “qobiliyat” va “ijodkorlik”.

Tahlil qilib ilmiy adabiyotlarda kontseptsiyaning bir nechta ta'riflarini aniqlash mumkin “kreativlik” biror narsa ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat
sifatida mutlaqo yangi va o‘ziga xosligi, o‘ziga xosligi va bilan ajralib turadi
o‘ziga xoslik Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi.

Zamonaviyga tegishli ijodkorlik haqida ko‘plab mulohazalar mavjud olimlar.

Masalan, V.A.Suxomlinskiy [2] “kreativlik” faol ishning nihoyatda muhim jihati ekanligi fikrlash quvonchi ayniqsa kuchli bo‘lgan o‘quvchi.va I.P. Volkov [3] kreativlik degan xulosaga kelishimiz mumkin boshlang'ich maktab o‘quvchisi uchun bolaning asl mahsulotni yaratishi yoki Har qanday mahsulot, siz mustaqil ravishda ishlash jarayonida olingan bilim, ko‘nikma, ko‘nikmalarni, shu jumladan qo‘llashni qo‘llagan o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalar uzatiladi va birlashtiriladi faoliyat usullari yoki yangi yondashuvni yaratish topshiriqni bajarish.

Ushbu olimlarning turli nuqtai nazarlari va yondashuvlarini hisobga olgan holda, biz “kreativlik” ning quyidagi ta'rifiga amal qilishimiz mumkin:an’anaviy umum e’tirof etilgan tafakkur namunalaridan farq qiluvchi va mustaqil omil sifatda iqtidorlilik tarkibiga kiradigan mutlaqo yangi g‘oyalar va mahsulotlarni qabul qilish va yaratishga tayyorligi bilan tavsiflangan shaxsning ijodiy qobiliyati sifatida. tizimning doimiy parametrlari doirasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish.

Jo Pol Guilfordning kreativlik kontseptsiyasida ijodkorlikning 6 ta asosiy o‘lchovi mavjud:

1) muammolarni aniqlash va qo‘yish qobiliyati;

2) ko‘p sonli muammolarni keltirib chiqaradigan spontanlik;

3) taklif qilingan yoki bildirilgan g'oyalarning o‘ziga xosligi, o‘xshashligi, g'ayrioddiyligi, yangilikka bo‘lgan katta intilish, biror narsa bilan bog'liq bo‘lgan g'oyalarni amalga oshirish qobiliyati, g'ayrioddiy javoblar;

4) semantik moslashuvchanlik - ob'ektning asosiy xususiyatini aniqlash va undan foydalanishning yangi usulini taklif qilish qobiliyati;

5) majoziy moslashuv moslashuvchanligi, ya'ni. ob'ektga bo‘lgan munosabatni uning yangi tomonlarini, odam odatda darhol ko‘rmaydigan xarakterli xususiyatlarini ko‘rish uchun o‘zgartirish qobiliyati;

6) semantik o‘z-o‘zidan moslashuvchanlik - vaqt va ifoda vositalari bilan tartibga solinmagan vaziyatda xilma-xil va g'ayrioddiy g'oyalarni mujassamlash qobiliyati J.Gilford kontseptsiyasiga asoslanib, E.Torrance “kreativlik”ni aql, shaxsiy xususiyatlar va samarali fikrlash qobiliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan qobiliyat deb tushundi. U ijodiy jarayonni muammoni idrok etish, yechimini izlash, gipotezalarning paydo bo‘lishi va shakllantirish, gipotezalarni tekshirish, ularni o‘zgartirish va natija topishga ajratdi.

Agar inson bunday fikrlash turiga ega bo‘lsa, shuni ta'kidlash mumkinki, muammoni hal qilishda u o‘zining barcha sa'y-harakatlarini yagona to‘g'ri echimni topishga qaratmaydi, balki barcha mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarda turli xil echimlarni izlay boshlaydi. iloji boricha ko‘p variantlar.

Bunday odamlar ko‘pchilik biladigan va faqat ma'lum bir tarzda foydalanadigan elementlarning yangi birikmalarini yaratishga yoki bir qarashda umumiyligi bo‘lmagan ikki element o‘rtasida bog'lanishlarni shakllantirishga moyil. Ijodiy fikrlash asosida turlicha fikrlash usuli yotadi, u quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1) Tezlik - insonning maksimal miqdordagi fikrlarni ifodalash qobiliyati (bu holda ularning sifati emas, balki miqdori muhim).

2) Moslashuvchanlik - ko‘p sonli g'oyalarni ilgari surish qobiliyati.

3) O‘ziga xoslik - yangi nostandart g'oyalarni o‘zida mujassamlash qobiliyati (bu umumiy qabul qilinganlarga to‘g'ri kelmaydigan javoblar va qarorlarda o‘zini namoyon qilishi mumkin).

4) To‘liqlik – “mahsulotingizni” maksimal darajada yaxshilash yoki unga tayyor ko‘rinish berish qobiliyati.

Har qanday g'oya yoki tugallangan ishning timsoli, agar inson eng nozik, sezilmaydigan elementlarni, uning natijalarida o‘ziga xos, o‘z ishidan ajratib turadigan o‘ziga xos narsani sezsagina ijodiy bo‘ladi.

Pedagogika va psixologiyada “kreativlik” atamasi “ijodiy faoliyat” tushunchasi malaka ishida ko‘rib chiqiladi.

Kreativlik faoliyat - bu faoliyat sub'ektining o‘z ishiga munosabati (o‘z ishidan qoniqish, uni amalga oshirishda mustaqillikka intilish, uni hal qilish jarayonida ijobiy motivatsiya) va ijodiy muammolarni hal qilish jarayoni (ilgari olingan bilimlarni

mustaqil ravishda uzatish).ko‘nikmalar, yangi vaziyatga faoliyat usullari, ko‘rish muammolari, ma'lum ob'ektning yangi funktsiyasini ko‘rish).

Kreativlik faoliyat natijasi va ayni paytda shaxsni yanada rivojlantirish, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhim shartidir.

“Kreativlik” atamasi, psixologiyada uzoq vaqtdan beri va keng qo‘llanilishiga va adabiyotda juda aniq ta'riflar mavjudligiga qaramay, juda noaniqdir. “Kreativlik" eng keng tarqalgan psixologik tushunchalardan biridir. Rus psixologiyasida ko‘plab mualliflar unga batafsil ta'riflar berishgan.

Hozirgi vaqtda qobiliyatlarning eng keng tarqalgan g'oyasi aniqlangan quyidagi uchta xususiyatga asoslanadi.

1) Kreativliklar - bu bir shaxsni boshqasidan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlar;

2) faqat biron bir faoliyat yoki bir nechta faoliyatni amalga oshirishning muvaffaqiyati bilan bog'liq bo‘lgan xususiyatlar;

3) Kreativliklar insonda allaqachon shakllangan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarga kamaymaydi, garchi ular ularni egallashning osonligi va tezligini aniqlaydi.

Ijodkor odam mustaqil ravishda muammolarni qo‘yadi va ularni o‘zi hal qiladi.

Albatta, ichki motivatsiya ijodkorlikning eng kuchli dvigatellaridan biridir. Motivatsiya ijodiy muhitning etishmasligini qoplashi mumkin.

Insonning ijodkorlikka intilishi uchun uning ichki motivatsiyasini muhit oziqlantirishi kerak. Ushbu olimlarning fikriga ko‘ra, “Kreativ” atamasi olingan bilimlarning ma'lum bir to‘plami sifatida tushunilgan, bular insonning qobiliyatlari, faoliyatni boshlash uchun zarur shartlar, shuningdek, ushbu ishning muvaffaqiyati.

Agar bu kreativlik yuqori darajada rivojlangan bo‘lsa, u qandaydir vazifani yoki faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga erishadi.

Chet el psixologiyasida ijodiy qobiliyatlar ijodkorlik sifatida belgilanadi, ular J.Gilford asarlari nashr etilgandan keyin faol o‘rganila boshlandi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari - tezkorlik, fikrning moslashuvchanligi, o‘ziga xoslik, qiziquvchanlik, aniqlik va jasorat.

Siz ushbu ko‘rsatkichlarni kengaytirishingiz mumkin:

fikr tezligi - vaqt birligida paydo bo‘ladigan g'oyalar soni;

- fikrning moslashuvchanligi - tez va ichki harakatlarsiz bir g'oyadan ikkinchisiga o‘tish qobiliyati; bir kontekstda olingan ma'lumotlardan boshqasida foydalanish mumkinligini ko‘rish;

- fikrlashning moslashuvchanligi - yaxshi rivojlangan ko‘chirish qobiliyati. Fikrlashning moslashuvchanligi o‘rganilayotgan hodisalarning bir sinfidan boshqasiga osongina o‘tish, yechim usullarining qat'iyligini engish, buzilgan gipotezadan tezda voz kechish, intellektual xavf va paradokslarga tayyor bo‘lishni ta'minlaydi;

o‘ziga xoslik - umumiy qabul qilinganlardan, paradoksal, kutilmagan echimlardan farq qiladigan g'oyalarni yaratish qobiliyati. Bu ketma-ket mantiqiy tahlil paytida ko‘rinmaydigan barcha bog'lanishlar va bog'liqliklarni yaxlit ko‘rish bilan bog'liq;

- qiziquvchanlik - ajablanish qobiliyati; hamma narsaga ochiqlik va qiziqish;

- jasorat - noaniq vaziyatlarda qaror qabul qilish, o‘z xulosalaridan qo‘rqmaslik va shaxsiy muvaffaqiyat va obro‘ni xavf ostiga qo‘yib, ularni oxirigacha bajarish qobiliyati.

Demak, ijodning tabiati murakkab va qarama-qarshidir. Ko‘pgina tadqiqotchilar ijodkorlik haqidagi qarashlarida quyidagilarga qo‘shiladilar: ijodkorlik o‘ziga xos insoniy hodisa, shaxsning umumiy, muhim xususiyatidir.

Boshqa olimlarning fikricha, ijodkorlik - bu transformativ funktsiyani bajaradigan inson faoliyatining bir turi.

Ijodkorlik shaxsning qobiliyatlari, motivlari, bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishini nazarda tutadi, buning natijasida yangiligi, o‘ziga xosligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan mahsulot yaratiladi.

Insonning qobiliyatlari uning individual xususiyatlarida markaziy nuqta bo‘lib, u insonning shakllanishini belgilaydigan va uning individualligining yorqinlik darajasini belgilaydigan qobiliyatdir.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, men A.I. Savenkova [4]boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlari rivojlanishining bunday ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqadi:

1. Tafakkurning o‘ziga xosligi - umume'tirof etilgan, taniqli g'oyalardan farq qiladigan yangi, o‘ziga xos va kutilmagan g'oyalarni ilgari surish qobiliyati. Bolaning fikrlash va xatti-harakatlarida o‘zini namoyon qiladi (o‘z rasmlari va ijodiy ishlarining tabiati va mavzusida ifodalangan).

2. Fikrlashning moslashuvchanligi - muammolarni hal qilishning muqobil strategiyalarini topish va muammoni hal qilish yo‘nalishini tezda o‘zgartirish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan yangi echimlarni tez va oson topish qobiliyati.

3. Fikrlash samaradorligi - ko‘p sonli g'oyalarni yaratish qobiliyati. U o‘zini namoyon qiladi va turli muammolarni va faoliyat mahsulotlarini hal qilish variantlari soni bilan baholanishi mumkin.

4. G'oyani rivojlantirish - mavjud g'oyalarni batafsil, ijodiy ishlab chiqish qobiliyati, bajarilgan ijodiy ishning batafsil va tafsilotida aniq namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, biz ijodiy qobiliyatlar insonning turli xil ijodiy faoliyatni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatini belgilaydigan fazilatlarning individual xususiyatlari ekanligini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qonuni.

24. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabr “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni.
6.Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
7. Maktab o‘quvchilarining kreativlik faoliyatini rivojlantirish: darslik. nafaqa. tahririda A. M. Matyushkin. M.: Ma'rifat, 1991. 160S.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Muxammadieva Xadicha Karomatovna
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v.b. (phd)
Abduraxmonova Dilshoda Sayfidin qizi
4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan.
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish ham o‘quvchi yoshlarning qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlaridan tashqari, ularning ijtimoiy-jamoaviy faoliyat yuritishga qaratilgan harakatidir.

Kalit so‘zlar: jamoada ishlash ko‘nikmalari, o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘quvchi, ijtimoiy-jamoaviy faoliyat tamoyili.

Bugungi kunda respublika miqyosida tashkil etilayotgan boshlang‘ich ta’limning umumiy mohiyati “Boshlang‘ich ta’lim Konsepsiyasi”da belgilab berilgan tamoyillar asosida yo‘lga qo‘yilmoqda. Mazkur metodologik hujjatga ko‘ra boshlang‘ich ta’lim quyidagi maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilishi lozim: bolalarning psixologik va fiziologik salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash; barcha faoliyat turlari bo‘yicha bolalar tashabbusini uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash; muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarining shakllanishiga erishish; o‘ziga ijobiy baho berish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni qo‘llab-quvvatlash; o‘quv mustaqilligini shakllantirish (o‘qishga bo‘lgan xohish va ko‘nikma, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlar darajasini kengaytirib borish [1]

Zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayanib o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini tarbiyalash ma’naviy rivojlanish darajasi, o‘z-o‘zini anglashi hamda maqsadlari, qiziqishlari va intilishlarini jamiyat manfaatlariga moslashtira olishi alohida ahamiyatga ega.

Har qanday jarayon harakatdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish ham o‘quvchi yoshlarning

qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlaridan tashqari, ularning ijtimoiy-jamoaviy faoliyat yuritishga qaratilgan harakatidir.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirishning asosiy maqsadi – bir maqsadga yoki maqsadga erishish uchun birgalikdagi (o‘yin, o‘qish, mehnat) faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan har qanday guruhda o‘quvchilarda o‘zligini namoyon qila olish, erkin faoliyat ko‘rsatish malakalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish ta’lim jarayonining negizi bo‘lgan, doimiy diqqat va e’tiborni talab qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan pedagogik muammodir. Aytish o‘rinliki, har bir shaxsning jamiyat maqsad va manfaatlariga mos keluvchi intilishlari uning ma’naviy dunyosi, nuqtai nazarlari va shu asosda shakllangan ideali orqali tartibga solinadi.

Ochiq axborot tizimidagi, internet global tarmog‘idagi yangilanishlar, “ommaviy madaniyat rivoji”, akseliratsiya jarayonini bir qadar tezlashtirib yubordi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda kichik maktab yoshidan boshlab o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish zamirida, ularda ijtimoiy va shaxsiy mohiyatga ega hamkorlik faoliyatini mazmunan tarkib toptirish, yuksak axloqiy ideallarni shakllantirish ma’naviy ehtiyojga aylandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda “jamoada ishlash”, “ko‘nikma”, “rivojlanish”, “tarbiyalash”, “shakllantirish”, “pedagogik shart - sharoit”, “omil”, “pedagogik ta’sir” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Muammoni ijobiy hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to‘laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Bir qator pedagogik adabiyotlar tahlili va pedagogik lug‘atlarda “jamoa” hamda “jamoada ishlash”, “ko‘nikma” tushunchalari keng qo‘llaniladi. “Jamoa” tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarini keltirishimiz mumkin.

Bir qarashda “oddiy” ammo ilmiy tadqiqot ishimizning **asosiy tushunchalari hisoblangan: “jamoa”** hamda “jamoada ishlash”, “ko‘nikma**” tayanch apparati terminlariga** maqolamiz avvalida **izoh berib o‘tishni lozim topdik.**

O‘quvchilar jamoasini takomillashtirish masalasi Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kaykovus, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning asarlarida o‘z ifodasini topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek, biz maqolalarimiz avvalida bir qator pedagog, psixolog sotsiolog, huquqshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini nazariy jihatdan o‘rganib chiqdik. Jumladan, R.X Djuraev, S.T Turg‘unov, A.Musurmanova, M.M. Mahmudov, X.Ibraimov, E.G‘oziev, F.A.Akramova, Sh.R.Barotov, M.M.Bafaevlarning, ilmiy-pedagogik psixologik izlanishlariga asoslanib aytishimiz mumkinki, jamoa bu o‘zaro

bog‘langan shaxslar bilan aniq maqsadlar va maqsadga erishish uchun jamlangan guruhlar yig‘indisi.

Demak guruhlar odatda jamoani tashkil qiluvchi asosiy komponent hisoblanib biz buni quyidagicha izohlaymiz: ajratish mezonlarining xilma-xilligiga qarab: katta va kichik, rasmiy va norasmiy, birlamchi va ikkilamchi, inguruh va autoguruh, referent guruhlar va boshqalar .

G‘arb pedagogikasida kichik guruhlar nazariyasi quyidagicha talqin qilinadi: sotsiometriya, guruh o‘zgaruvchanligi, psixoterapevtik va boshqalar.

Shuningdek g‘arbda ijtimoiy guruhlarning shakllanishi, ishlashi va taraqqiy etishi, qonunlarini tushuntiruvchi nazariyalar sifatida talqin qilinadi.

Biz maqolalarimiz davomida kvazi guruhlar, qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar (urug‘, qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat).

Ijtimoiy pedagogik kuzatuv va tajribalarimiz asosida aytishimiz mumkinki, har bir shaxs hamisha malum ijtimoiy guruhlap doirasida faoliyat ko‘rsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi, ko‘cha-kuydagi norasmiy guruhdagi do‘stlari davrasi, o‘quv jamoasi va hokazolardir.

Shaxsning yakka va turli jamoalar doirasida o‘zini tutishi, xulq-atvori, mavqei, unga o‘ziga xos guruhiy ta’sirlar, guruhdagi shaxslararo moslik, liderlik, guruhiy taz’yiqqa beriluvchanlik kabi qator hodisalar aslida o‘sha guruhlarni boshqarish, o‘zaro munosabatlar sharoitini yaratish - bu o‘quvchilarni bir-birlari bilan o‘zaro muloqotga o‘rgatishning zaruriyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, o‘zaro bir-biriga ta’sir usullari, o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladigan muhim omillardan biridir.

Shuningdek olima o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda: ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirish; zamonaviy keng dunyoqarash va bag‘rikenglikni rivojlantirish; yoshlarda mafkuraviy immunitet va milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish; fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish kabi to‘rtta ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi.

A.Zunnunov, B.Ma’murov bolalar muhitida ijtimoiy jamoaviy munosabatlarga alohida urg‘u berib, bu munosabatlar o‘quvchi yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda, umumbashariy va milliy urf-odatlarni, marosimlar, an’analar hamda qadriyatlar shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy qiymatga ega ekanligiga alohida urg‘u beradilar.

Inson hayotida jamoa tushunchasi katta ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, uning mohiyati va amalga oshirish yo‘llari hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Ilmiy adabiyotlarda jamoada tarbiyalash, jamoani boshqarish, jamoa fikri tarzida talqin qilingan.

Bunday talqinlarda o‘quvchilarni jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jamoada o‘z fikriga ega bo‘lish tarzida tushuniladi, bunda hal qiluvchi holat insonning ongli maqsadga qaratilgan faoliyati bo‘lib, o‘z sifatlarini takomillashtirish, o‘zgartirish asosida qadriyatli yo‘nalishlarni egallashga intilishni ko‘rsatib o‘tish lozim.

Shunga ko‘ra o‘quvchilarini jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish shaxsning ijtimoiy mohiyatli xususiyati va sifatlarini takomillashtirishiga

yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, uning ongi va xulqidagi kamchiliklarni o‘zi bartaraf etishiga qaratilgan faoliyatdir.

Ijtimoiy psixologlar Olport, Maslou, K.Rodjerslar nazariyasida ham o‘quvchilarni yangicha pedagogik tafakkur asosida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Faylasuf olim A.G.Spirkinning fikricha, “Hayot o‘z o‘rnini anglash va o‘ziga baho berishning yaxlitligi”dan iborat. Inson o‘zini anglashining asosini shaxs e’tiqodi va shu e’tiqodga uning munosabati tashkil etadi.

Agar inson o‘z e’tiqodini jamiyat taraqqiyotinig ijtimoiy obyektiv jarayonlari, unda yashovchi kishilar manfaati bilan mushtarakligi tarzida tushunsa, bu uning ongliligini bildiradi. Bunday ijtimoiy ong shakllanmagan taqdirda jamoa fikrini hurmat qilish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish jarayonini amalga oshirish mumkin emas.

Onglilikning yuqori darajasi insonning shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uzviy bog‘liqligini anglashi, umuminsoniy manfaatlarni o‘zinikidan yuqori qo‘yishidadir.

“Jamoa” tushunchasi amaliyotda qo‘llanish tartibiga qarab turli darajalariga ega. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitlarida **“konsolidatsiya” ya’ni birgalikdagi faoliyat va “solidare” birlashish va mustahkamlanish** bilan tavsiflanadi, boshqa darajadagi esa ob’ektlar yoki bilim sohalarining odatdagi ko‘rinishini o‘zgartirishda yangicha yondashuv rivojlanishning yuqori darajadagi guruhi bo‘lib, insonlararo munosabatlar ijtimoiy va shaxsiy mohiyatga ega hamkorlik faoliyatining mazmuni bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarni jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish tushunchasining mazmun mohiyatini to‘la anglab yetish uchun uchun pedagogik psixologik lug‘atlarga murojaat qildik.

Yuqorida fikr bildirganimizdek, o‘quvchilarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish axloqiy, jismoniy hamda ijtimoiy takomillashuviga intilishlarining kuchayishi bilan izohlanadi.

Shaxs shakllanishida intellektual, irodaviy, axloqiy o‘zini-o‘zi tartibga solish, o‘z xatti-harakati maqsad va ideallari, shaxsiy sifatlarini o‘zgartirishi asta-sekin barqaror maylga aylanadi. O‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy sifatlarini anglab, ularni kuzatish, tahlil qilish va tasniflashga odatlanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni" // Xalq so‘zi gazetasi, **2020 yil 24 sentyabr**

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021yil 26 martdagi PQ-5039-son “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 26 mart

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 6 noyabr

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

5.Abdullaeva Sh.A. O‘quvchilarni tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning pedagogik asoslari.: Ped. f. dok. Disser. avtoref.-T., 2005.- 32-b

6.Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. -T.: “Fan va texnologiya”, 2012 yil, -104 b.

7.Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 30 b.

8.Aliev B., Meliqulov A. Axborot xurujlaridan xabardormisiz?. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 30 b.

9.Adizov B. R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 218 b.

10.Jo‘raev R.H., Safarova R.G‘., Ibragimov X.I, Musaev U.Q. Pedagogika fani konsepsiyasi //J. Xalq ta’limi. –2004. –№5. –B. 4-33.

1. Jo‘raev. Q. O‘smirlarni o‘zligini anglash va o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatish Xalq ta’limi j.-T., 2003. № 6. 79-82 b.

2. Jo‘raev Q . O‘zlikni anglash va o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatishda oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi Xalq ta’limi j. –T., 2002. № 5 , 56-57 b.

3. Adizov B.N. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. Fan. Dok. Diss... –T.: 2003. – 320 b.

4. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan.dok... diss. – Buxoro, 2002. – 276 b.;

BOSHLANG'ICH TA’LIM O’QUVCHILARIDA BAHOLASH MUSTAQILLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA SHARTLARI

Muxammadieva Xadicha Karomatovna
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v.b. (phd)
Komiljonova Xusniyabonu Mansurbek qizi
4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich ta’lim o’quvchilarida baholash mustaqilligini rivojlantirish bosqichlari va shartlarining ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Bilimni va o’quvchining bilimga intilishini baholash muammosi, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o’quvchisi doimo dolzarb bo’lib kelgan va dolzarbligicha qolmoqda, ayniqsa, hozirgi zamonda.

Kalit so’zlar: baholash, mustaqilligini rivojlantirish, bilim, o’quvchining bilimga intilishini baholash shakllantirish tamoyili.

O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to’g‘risida”gi O’RQ-637-son Qonuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha

chora-tadbirlar tug‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni, 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PQ-4910-son Qarori [1]

Boshlang‘ich maktab ta’lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang’ich ta’limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo’ldi: darsni ikki fan o’qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o’qituvchi tomonidan o’tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan o’zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas.

Bilimni va o’quvchining bilimga intilishini baholash muammosi, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o’quvchisi doimo dolzarb bo’lib kelgan va dolzarbligicha qolmoqda, ayniqsa, hozirgi zamonda.

Baholash faoliyatini samarali shakllantirish, zamonaviy maktabda baholash ko’nikmalarini rivojlantirish ishlatiladigan tushunchalarni chuqur tushunmasdan va har tomonlama tahlil qilmasdan mumkin emas: “o’quv faoliyati”,”baholash”, “baholash”, “ko’nikmalar”, “baholash ko’nikmalari”.

Baholash va belgilash sinonim emas.Baholash - biror narsaning yoki kimningdir qiymati, darajasi yoki sifati haqidagi fikr; Baho - bu o’quvchining bilim darajasining davlat tomonidan belgilangan belgisi.

O’qituvchi o’quvchining javobini baholaganda, u birinchi navbatda ma'lum bir bola tomonidan bajarilgan aniq ish haqida shaxsiy fikrini bildiradi. O’qituvchi baho qo’ysa, uning ortida bilim olish jarayoni namoyon bo’ladi.

O’z-o’zini hurmat qilish - bu shaxsning o’zini, uning imkoniyatlarini, fazilatlarini va boshqa odamlar orasidagi o’rnini baholash. O’z-o’zini hurmat qilish individual xatti-harakatlarning eng muhim regulyatorlaridan biridir.

Bolalarda o’zini o’zi qadrlashning muvaffaqiyatli rivojlanishi (uning adekvatligi, barqarorligi, tashqi sharoitlardan mustaqilligi, farqlanishi) faqat ijobiy umumiy o’zini o’zi qadrlash, ya'ni bolani boshqalar tomonidan so’zsiz umumiy qabul qilish sharoitida mumkin.

Bu, ayniqsa, birinchi sinf o’quvchilari uchun, ayniqsa, oilada bunday o’zini o’zi qadrlamaydigan va shuning uchun o’qituvchi tomonidan qo’llab-quvvatlash, tushunish va qabul qilishga ko’proq muhtoj bo’lganlar uchun juda muhimdir. Maktab hayotining boshida 6-7 yoshli bola to’liq yoki qisman atrofidagi kattalarning bahosiga bog'liq.

Zamonaviy maktabda kichik maktab o’quvchilarining o’quv va kognitiv faoliyati natijalarini baholash o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladi, u bolani standart nuqtai nazardan baholaydi, shu bilan birga hammaga asosiy baholashni o’rgatadi. Baholash - bu o’quvchi erishgan ta'lim natijalari sifatini aniqlash.

Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo’lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g’oya va tushunchalarni kiritish ko’zda tutilgan.

Nazorat va baholash harakatlarini ishlab chiqishning quyidagi bosqichlari va bosqichlari ajratiladi. Boshlang'ich ta'limning turli bosqichlarida va o’quv yilining turli bosqichlarida nazorat-baholash faoliyati vazifalari izchil hal qilinadi.

Ta'limning boshlang'ich bosqichining bir qismi sifatida:
1-bosqich - maktabgacha ta'limdan maktabgacha ta'limga o’tish (1-sinf);

Nazorat va baholash faoliyatini shakllantirish nuqtai nazaridan 1-sinfning asosiy maqsadi o’quvchilarni o’z harakatlarini berilgan namuna bilan solishtirishga o’rgatishdir (va namunaning to’g'ri bo’lishi shart emas: boshqa birovning harakati qanday bo’lishidan qat'i nazar, namuna bo’lib xizmat qilishi mumkin. uning to’g'riligi).

Bolalar tasodif, o’xshashlik, farqni aniqlashni o’rganishlari va taqqoslash uchun namuna tanlashda kelishib olishni o’rganishlari kerak. Sekin-asta batafsil elementma-element taqqoslashdan kamroq batafsil taqqoslashga o’ting. Ta'limning ushbu bosqichida o’quvchilar faoliyatida markaziy o’rin tezkor nazoratga beriladi.

1-sinf baholash faoliyati ikki turdagi baholashni o’z ichiga oladi:

Retrospektiv baholash, bunda o’quvchining o’zini-o’zi baholashi o’qituvchi bahosidan oldin bo’ladi. Bu baholar o’rtasidagi nomuvofiqlik munozara predmetiga aylanadi, bu bir tomondan baholash mezonlari ustida ishlashga sabab bo’lsa, ikkinchi tomondan o’quvchilarga o’z-o’zini nazorat qilish harakatlarini maxsus vazifa sifatida shakllantirish imkonini beradi.

O’qitishning ushbu bosqichida berilgan mezonlar bo’yicha baholashning turli shakllari (chizgichlar, bosqichlar, baholash varaqalari va boshqalar) paydo bo’ladi, nazorat va baholash usullarini mashq qilish uchun maxsus mashqlar va topshiriqlar darsga kiritilgan. Barcha test ishlarining bosqichlari mavjud: ishning o’zini bajarish, mezonlarni ishlab chiqish, o’quvchilar o’z ishini berilgan mezonlar bo’yicha baholash, o’qituvchi va uning o’quvchilar ishini bir xil mezonlar bo’yicha baholashini tekshirish, o’qituvchining baholashi va o’quvchilarning baholashini o’zaro bog'lash, aniqlash va baholashdagi nomuvofiqliklarni tahlil qilish.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1-sinfda o’z-o’zini baholash uchun faqat ob'ektiv, bir ma'noli baholash mezoni mavjud bo’lgan va baholashning sub'ektivligi muqarrar bo’lgan (masalan, go’zallik, ozodalik) tanlanmagan vazifalar tanlanadi;

Reflektiv baholash. Refleksiv o’z-o’zini hurmat qilishning asosi - o’z bilimi va nodonligi, o’z imkoniyatlari va cheklovlari haqidagi bilim - ikkita qobiliyat: o’zini tashqi tomondan ko’rish qobiliyati, o’z nuqtai nazarini yagona mumkin bo’lgan narsa deb hisoblamaslik; o’z harakatlarimni tahlil qilish qobiliyati (nima uchun bu menga kerak).

O’quvchilar shubha qilish va xato qilish huquqiga ega bo’lishi kerak; bola har qanday vaqtda mashq qilish va tuzatish imkoniyatiga ega ekanligini tushunishi kerak.

Bola o’zi uchun maxsus belgilarni o’ylab topishi mumkin, u ma'lumni noma'lumdan ajratish va belgilash uchun foydalanadi (men yaxshi bilaman, lekin qanday material ustida ishlashim kerak).

O’qishning birinchi yilida kattalar va bolalar faqat bolaning o’zi taqdim etgan yutuqlarni baholaydilar.

Bolaga bugungi kunda baholash uchun o’qituvchiga yoki tengdoshlariga ko’rsatmoqchi bo’lgan ish qismini tanlash huquqi beriladi. Baholashning bunday yondashuvi o’quvchilarni mas'uliyatli baholash harakatlariga undaydi.

Darhaqiqat, har bir kishi uchun har xil bo’lgan o’quvchilarning individual yutuqlari baholanadi.1-sinfni tugatgandan so’ng, o’qituvchi qulay sharoitlarda o’quvchilar quyidagilarni qila olishlariga ishonch hosil qilishi kerak:
Harakat (alohida operatsiyalar) va natijani tayyor namuna bilan solishtiring;
Berilgan mezonlar asosida o’z harakatlaringizni baholang va o’z bahoingizni o’qituvchi bahosi bilan solishtiring; O’z yutuqlaringizni bolaning o’zi belgilagan yoki tayinlagan mezon bo’yicha baholash uchun taqdim eting;
Bilimda ma'lumni noma'lumdan ajratish (ob'ekt bilan harakat qilish usullari)
2-bosqich - sinf jamoasini shakllantirish sharoitida monitoring va baholash shakllari va usullarini takomillashtirish (sinovdan o’tkazish) (2-sinf - 4-sinfning birinchi yarmi);

Ikkinchi bosqichda (2-4-sinflar) o’quvchilarning faoliyat usullarini o’zlashtirishni operativ (protsessual) nazorat qilish bo’yicha ishlari takomillashtiriladi. Ushbu bosqichda nazoratning ushbu turi o’quvchilar uchun maqsad emas, balki boshqa muammoni hal qilish vositasi – “xatoga moyil” joylarni aniqlash, xatolarning mumkin bo’lgan sabablarini va ularni bartaraf etish usullarini izlash.

O’quv materialining o’zlashtirilishini nazorat qilish faqat o’quvchilarning xatolari va qiyinchiliklarining sabablarini aniqlash bilan bog'liq bo’lganda samarali bo’ladi.

Maktab o’quvchilarining o’quv ishlarini tuzatish, agar u faqat xato faktiga emas, balki diagnostika ma'lumotlariga asoslangan bo’lsa, natijalar beradi.

O’quvchilar umumiy harakat usullarini aks ettirishga qaratilgan har xil turdagi vazifalarni o’zlashtirish ustida ishlaydilar.

Bunday binolar yordamida 2-sinfda boshqa turdagi nazoratni shakllantirish bo’yicha ish boshlanadi - harakat usulining asosini tahlil qilishga qaratilgan refleksiv.

“Yordamchi stol” va “topshiriqlar jadvali”dan foydalangan holda korreksiyalovchi mashg‘ulotlar tizimi hamda o’quvchilarning individual mustaqil ishlari tizimi to’liq ishlab chiqilmoqda.

Baholash harakatlariga kelsak, bu bosqichda uni butunlay farqlash kerak. O’quvchilar o’z ishlarini ko’plab ko’nikmalar yig'indisi sifatida ko’rishlari kerak, ularning har biri o’z baholash mezoniga ega. Bola va kattalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari mavzusi - rasmiylashtirilgan baholash usuli (masalan, test ishining beshta topshirig'idan eng osoni birgalikda aniqlanadi va 1 balldan “narx” bilan belgilanadi, boshqa topshiriqlar esa bolalarning o’zlari, sinf tomonidan baholanadi..

Butun ishning mumkin bo’lgan maksimal balli hisoblab chiqiladi va har bir O’quvchi o’z natijasini mustaqil ravishda baholaydi.

Bu bosqichda bashoratli baholash ustida ish boshlanadi. Bolalar allaqachon o’zlariga “Yechimga dosh bera olamanmi?” Degan savollarni berishni boshlaydilar, mustaqil ishlash uchun "intilish" darajasida vazifalar tanlanadi - bu murakkablikdagi vazifalar to’plamidan ular hal qilish uchun biror narsani olishlari kerak

Kichik yoshdagi maktab o’quvchilarida nazorat va baholash harakatlarini shakllantirishning 2-bosqichi oxirida quyidagilar sodir bo’ladi:mumkin bo’lgan “xato xavfli” joylarni aniqlang, masalan, matnda; xatolarning mumkin bo’lgan sabablarini aniqlash va ularni individual ravishda bartaraf etish va tuzatish rejasini ishlab chiqish;u yoki bu harakat usulini qo’llash chegarasini belgilang, vazifalar guruhidan ushbu hal

qilish usuliga mos kelmaydiganini tanlang;vazifalarni murakkabligi bo'yicha tasniflash, individual mustaqil ish uchun topshiriqlarning hajmi va murakkablik darajasini tanlash;o'z harakatlaringizni baholashni rasmiylashtiring, masalan, turli ko'nikmalar yig'indisiga asoslangan ballar (mezonlar to'plami bo'yicha);

3-bosqich-reflektiv - boshlang'ich maktabdan boshlang'ich maktabga o'tish (4-sinfning ikkinchi yarmi - 5-sinf). Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda (tegishli darajadagi topshiriqlar bo'yicha) nazorat va baholashning to'liq tsikliga kiradilar.

Ta'limning ushbu bosqichida bunday ishlarni beshinchi sinf o'quvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasidagi ko'p yoshdagi hamkorlik doirasida samarali qurish mumkin.

O'quvchilar tomonidan nazorat va baholash predmeti kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining harakatlari, ular bilan ishlashga tayyorgarlik rejasi, beshinchi sinf o'quvchilarining bolalarga nisbatan xatti-harakatlari, belgilangan vazifalarni hal qilish uchun belgi-ramziy vositalar, ularning o'quv materialida o'z yutuqlari, ularning qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llarini qayd etish.

Shu maqsadda, ushbu bosqichda o'quvchilar "bilimlar xaritasi" ni yaratish va undan o'quv materialida sinfning traektoriyasini kuzatish, unga o'quv yilidagi individual yutuqlar va qiyinchiliklarni yozish uchun ishlashni boshlaydilar. Treningda yangi, nostandart vaziyatlarda refleksiv nazorat va aks ettiruvchi-prognostik baholash etakchi o'rinni egallaydi.

Ta'limning boshlang'ich bosqichi natijalari bo'yicha o'quvchilarning nazorat va baholash faoliyatining to'liq tsikli quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- nima tekshirilishini aniqlash (mezonlar bilan ishlash);
- tuzilgan mezonlar bo'yicha test topshiriqlarini (shu jumladan "tuzoq" bilan) tuzish;
- vazifalarning murakkabligini ta'kidlash, qiyinchilik balllarini belgilash;
- topshiriqni (ishni) tekshirish uchun namuna yaratish yoki izlash;
- olingan ma'lumotlarni namuna bilan solishtirish;
- xatolarni tavsiflash va ularning sabablari haqida farazlarni ilgari surish;
- tuzatuvchi topshiriqlar va yangi individual test ishlarini tuzish yoki izlash va ularni keyinchalik amalga oshirish;
- o'qituvchiga (tengdoshga) o'z yutuqlarini (natijalarini) jamoatchilik bahosiga taqdim etishga tayyorligi to'g'risida xabar berish;

O'quv yili davomida:

1-bosqich - (O'quvchilar va o'qituvchilar) birgalikda yil uchun vazifalarni shakllantirish va rejalashtirish (sentyabr);

Uning asosiy vazifalari:

- O'quvchilarning ma'lum o'quv yilida o'quv jarayonida keyingi harakati uchun zarur bo'lgan bilim, qobiliyat va qobiliyat darajasini aniqlash;

- bilim va ko'nikmalarni to'g'rilash, ularsiz harakat qilishning iloji yo'q va shu bilan yo'qolgan ish usullari va usullarini tiklash;

- ularni bartaraf etishning keyingi yo'llarini aniqlash uchun bilim va harakat usullarida ma'lum "kamchiliklar" holatini yaratish;

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, o’qituvchi va o’quvchilar birgalikda joriy o’quv yili uchun vazifalarni belgilaydilar (muammo va savollar xaritasini tuzadilar).

Ushbu bosqichda markaziy o’rinni o’quvchilar bir oy davomida ishlaydigan “boshlang'ich test” egallaydi. Uning yordami bilan o’quvchilar o’zlarining dastlabki ishlarining natijalarini kuzatish va baholash uchun o’zlarining harakatlarini tashkil etishga, xususan, ularning natijalarini tahlil qilish qobiliyatiga, yuzaga keladigan xatolar va qiyinchiliklarning sabablarini izlashga va ularning e'tiboriga qaratiladi. asos qilib, darsdan tashqari o’z tuzatish ishlarini qurish.

Ushbu bosqichdagi o’quv jarayoni konsentratsiyali ta'limni tashkil etish orqali qurilishi mumkin, bu, bir tomondan, yilning o’quv maqsadlarini qisqa vaqt ichida belgilashga imkon beradi, boshqa tomondan, mustaqil ravishda individual tuzatishni tashkil qiladi. o’quv natijalarini ommaga taqdim etish bilan o’quvchilarning darsdan tashqari ishi.

2-bosqich - yilning fan muammolarini jamoaviy hal qilish (oktyabr va aprel oyining birinchi yarmi);

O’quv yilining ikkinchi bosqichida nazorat va baholash harakatlarining barcha turlari to’liq yo’lga qo’yilgan: refleksli nazorat va baholashdan diagnostik tezkor nazorat va aniqlovchi baholashdan samarali nazorat va bashoratli baholashgacha. Ushbu bosqichda o’qituvchining nazorat-baholash faoliyatining asosiy roli faqat O’quvchilarning “talablari bo’yicha” ishlash, alohida o’quvchilarga nisbatan tashqi ekspert funksiyasini bajarishdir.

Shu maqsadda maxsus tashkiliy shakl – o’quv mashg‘ulotlari joriy etilmoqda, unda... Darsdan farqli o’laroq, har bir bola tomonidan qo’yilgan aniq vazifalar mustaqil ravishda hal qilinadi.

3-bosqich - aks ettiruvchi (aprel-may) bosqichlardan iborat:

- yakuniy test ishini tayyorlash va o’tkazish;

- uning natijalarini tahlil qilish va muhokama qilish: yakuniy va boshlang'ich ish natijalarining o’zaro bog'liqligi; o’quv yili boshida berilgan vazifalarning bajarilishi yoki bajarilmasligini aniqlash va tegishli sabablarni aniqlash (bilimlar xaritasi bilan ishlash);

- O’quvchilarning o’quv yili yakunlari bo’yicha shaxsiy yutuqlari, O’quvchining “portfelini” ommaviy taqdimotiga tayyorgarlik ko’rishda;

O’quv yilining ushbu bosqichida asosiy e'tibor o’quvchilar tomonidan o’quv materialidagi harakat "yo’li" ni (marshrut bo’ylab barcha to’xtash joylari bilan) qayta qurish va ularning yutuqlarini jamoatchilikka taqdim etish, ijodiy ustaxonalardan foydalaniladi.

Shunday qilib, kichik maktab o’quvchilarining nazorat va baholash mustaqilligini rivojlantirishning asosiy pedagogik shartlari quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

Boshlang’ich sinflarda bir o’qituvchining dars berishini integratsiyaning bir usuli,deb hisoblasak ham bo’ladi. Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo’lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullaming biridan yuz o’girib, ikkinchisida barcha darajada o’qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

28. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PQ-4623-son Qonuni.
29. O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to’g‘risida”gi O’RQ-637-son Qonuni.
30. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar Strategiyasi to’g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
31. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
32. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
33. Asaulyuk E.P. Integrirovannыy podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektivы nauki. 2011. №10 str.222-226
34. Hasanboyev J., To’raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.
35. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta’lim muassasalarida multimedia exnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo’llanma)– Qarshi: 2011.
36. Tolipov O,,., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006

BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI KENG KO‘LAMDA JORIY ETISH VA O‘QUVCHILARNING TAHLILIY HAMDA KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Nasurulazoda Maftuna Zokirjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mamlakatimizda ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilib, yosh o‘quvchilarimizni jahon andozalari darajasida zamonaviy, bilimli, malakali shaxs bo‘lib yetishishini maqsad qilgan. Ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, kasbiy fazilatlarni singdirish, ularning qobiliyat va iste’dodini yuzaga chiqarish, jismonan va ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu muhim vazifalar rejalashtirilgan va izchil amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, xalqaro tadqiqotlar, PISA.

KIRISH

Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir.

O‘qituvchi darsda boshqaruvchi o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltiradi. Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e’tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas’uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas’uliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dunyoning turli mintaqalarida kreativ tushinchalar insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, tabiiy, falsafa, san’at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo‘lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Ta’limning vazifasi o‘quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Bular sababli ular globallashuv jarayonida tez o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishiga yordam beradi.[1,26-b]

Kreativ fikrlashni o‘quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlari rivojlanadi. Maktablarda ham o‘quvchilarni kreativ fikrlashga bo‘lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda. Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki: o‘quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o‘z hissalarini qo‘shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg‘ularni ularda oshirishdir. [2,120-b]

Xalqaro tadqiqotlar esa o‘quvchilarda kreativ fikrlashini oshirish orqali ularning tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta’minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. O‘quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va rag‘batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari shuningdek yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o‘rganish shakllari shakllantirilishi kerak. Bu kabi rivojlanish uslublari ta’lim olishi sust o‘quvchilarni o‘z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardek maqsadli va amaliy mumkin.

PISA 2022 tadqiqotlari faqatgina 15 yoshli o‘quvchilarning kreativ fikrlash jarayoniga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bu xalqaro tadqiqot faqatgina ijodkor o‘quvchilarni ajratmasdan, balki o‘quvchilarning fikrlashini orttirish hamda fikrini ifodalashda va bu kabi qobiliyatlarini o‘qitish jarayoni maktab faoliyati yoki ta’limning boshqa xususiyatlari bilan qanchalik uzviyligini baholaydi. PISA tadqiqotlarining oldidagi asosiy ishi ta’lim sohasi va pedagogikada katta natijalarga erisha oladigan kreativ fikrlash ko‘nikmasiga tegishli xalqaro darajadagi ma’lumotlar berishdan iborat.

Shuni takidlash kerakki kreativ fikrlash ko‘nikmasi ta’lim olish jarayonida shakllanishi, uning o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida kreativ fikrlashining imkoniyatlari aniq natijalarga olib keladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning o‘zlashtirishidan kelib chiqqan holda, beriladigan topshiriqlar maktabda o‘qitiladigan fanlar bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi, amaliy hamda test topshiriqlari sinfda yoki sinfdan tashqari bajariladigan topshiriqlarga yaqin oddiy va sodda bo‘lishi kerak. PISA tadqiqotlarida kreativ fikrlashning turli jihatlari haqida ma’lumot yig‘ish biroz qiyin. Ammo bu asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. PISA dasturida o‘quvchilarni kreativ fikrlashini baholash test va umumiy ma’lumot qismlaridan tashkil topgan. Testlarda mulohaza qilish, baholash uchun zarur topshiriqlar bilan ishlash jarayonida beriladigan ma’lumotlar o‘quvchini kreativ fikrlashini rivojlantirish darajasida bo‘ladi. To‘plangan umumiy ma’lumotlar o‘quvchilarning kreativ fikrlashini o‘stirishga qaratilgan boshqa kreativ yondashuvlar (ochiqlik, maqsadga yo‘nalish, ishonchlilik) sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardagi aktiv ishtiroki orqali to‘ldiriladi. [3,60-b]

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo‘zg‘otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta’lim tizimida innovatsion deyilganda ta’lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta’limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. [4,8-b]

O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va etiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. "Baliq skeleti" texnologiyasi Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida "Yo‘l qoidalari" mavzusida "Svetofor nima uchun

kerak?" muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq sklitini boyitib boradilar. [5,75-b]

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgilab berdi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta’limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berildi. Unda " Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart - sharoitlar yaratadi", deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda : "Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv - uslubiy majmualarini yaratish va o‘quv - tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash".[6,96-b]

Umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatilgan edi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining umumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog‘idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o‘quvchilarni darslarga bo‘lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi. O‘quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko‘lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan, innovatsion g‘o‘yalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o‘rinli ravishda o‘z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O‘quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi, deb o‘ylayman. Men o‘z ish faoliyatim davomida ko‘pgina innovatsion g‘o‘yalardan, turli xil didaktik o‘yin mashqlardan keng ko‘lamda foydalanaman. Oddiygina yaratgan ovyin mashqlarimiz ham o‘quvchi uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi. Men o‘qish darslarida ayniqsa, “Yosh aktyorlar”, “Quvnoq quyonchalar”, “Bu meniki”, “Charxpalak”, “Zanjir”, “Davom ettir”, “Maqollar zanjiri”, “Sinkveyn” metodi, “Venn diagrammasi”, “Zig-zag” texnologiyasi, “Topib o‘qi” kabi usul va ta’limiy mashqlardan ko‘p foydalanaman. Bu albatta, ko‘pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi. [1,718-b]

XULOSA

Ba’zi o‘qituvchilar nazarida o‘quvchini kreativ fikrlashini oshirish o‘quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko‘rinadi. Aslini olganda esa, o‘quvchilar mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi. Kreativ fikrlashning afvzal tomonlaridan yana biri o‘quvchiga yotlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta’lim muassasalarida multimedia exnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo‘llanma)– Qarshi: 2011.

2. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006

3. Babayeva D. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.

4. Internet ma’lumotlar.

5.https://tsbm.uz/uploads/news/49e2a80e5889f9ea332de232a2928e17.jpg http://psycnet.apa.org/record/1988–98009–002 (accessed on 29 March 2018).
6. Begetto, R. and M. Karwowski (2017), “Toward untangling creative self-beliefs”, inKarwowski
7. Tompkins, G. (1982), “Seven Reasons Why Children Should Write Stories”, LanguagArts, Vol. [3] 59/7, pp.718–721, https://www.jstor.org/stable/41405103.

O‘QITUVCHILARDA KREATIV SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING JARAYONI

Nazarova Zarrina Allaberdiyevna
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘qituvchilarda kreativ sifatlatini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish va o‘ziga xos xususiyatlari, bu kasbning umumiy faoliyat bilan uyg‘unlik imkonini beruvchi xususiyatlar, sifatlarning optimal majmuasi, shu bilan birga uning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shuvchi yaxlitlik haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ, o‘qituvchi, sifatlar, rivojlanish, takomillashtirish, dizayner, dinmika, transformatsiya, kasbiy-pedagogik, ilg‘or tajriba, pedagogik vazifalar, o‘quv va tarbiyaviy vaziyat, modul.

Bugungi kundagi axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan davlatlar qatorida taraqqiyot sari yuz tutishi bugungi kun o‘quvchisi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda u faqatgina maktab darsliklarida keltirilgan ma’lumotlarni o‘qib o‘rganuvchi emas, balki o‘zi ijodiy izlanib, yangi axborotlarni egallab, bilimlar cho‘qqisiga yetishi hamda jahon arenasida boshqa rivojlangan davlat bolalari bilan to‘la raqobatga kirisha oladigan shaxs sifatida shakllanishi talab etilmoqda. Bu esa pedagogika fani oldiga bolalarda bilim olish va insoniy fazilatlarni va madaniy tajribalarni o‘zlashtirish kabi muhim va dolzarb muammoni qo‘ymoqda. Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta’lim-tarbiyaning uzviy bog‘liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlarimizda ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu esa bugungi kun o‘qituvchisidan katta mas’uliyatni talab qiladi”, [1, 17-b.], deb ta’kidladilar.

O‘quvchi-yoshlarni bilimdon va ma’nan yetuk insonlar sifatida shakllantirishda ularning fanga, ta’lim olishga, bilim egallashga bo‘lgan ichki psixologik yo‘nalishini shakllantirishda pedagog-tarbiyachilarning tutgan o‘rni alohida. Aynan o‘qituvchi bolalar uchun andoza sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda birinchi muallim bolalar uchun ulug‘ zot sifatida gavdalanadi va bolalar uchun andoza bo‘ladi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativligi (ijodkorligi) uning xarakatchanligi, bolalarni tushuna bilishi, kommunikativ va pertseptiv (bolani tushuna olish) qobiliyatlari bilan bir qatorda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakatchanlik, qiziquvchanlik hamda bilishga bo‘lgan ishtiyoq kuchli bo‘lishi psixolog olimlar tomoniddan ilmiy jihatdan asoslangan. Faqatgina bunday qiziqish va ishtiyoqni ijobiy tomonga yo‘naltirish talab etiladi. Buning uchun esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan yanada ko‘proq izlanishni, ijodkorlikni va novatorlikni talab etadi.

O‘qituvchillarda kreativlik shaxsini shakllanganligini ifodalovchi asosiy komponentlarni M.Ochilov[2, 68-b], B.Adizov[3, 26-b], Safo Ochil[4, 72-b], va boshqa olimlarimiz ishlarini o‘rganib chiqib quyidagi yo‘nalishlarga ajratdik:

Gnostik komponent O‘qituvchillarda kreativlikshaxsi shakllanganligi faoliyatida markaziy o‘rin tutadi. U o‘z ichiga o‘z faoliyati jarayoni xususiyatlari natijalarini o‘rganish va tahlil qilish; boshqa odamlarga ularning yosh va tipologik xususiyatlarini hisobga olib ta’sir ko‘rsatish faoliyati mazmuni va qobiliyatini o‘rganish va tahlil qilish. Bu faoliyat aspekti ushbu uquvlar bilan tavsiflanadi: o‘quvchilarni o‘z fani sohasidagi eng yangi yutuqlar bilan tanishtirish; o‘z faoliyatini va o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish; o‘qitishda o‘zining kuchli va bo‘sh tomonlarini anglash; o‘z faoliyatida pedagogik nazariya tavsiyalarini hisobga olish; o‘quv jamoalarini o‘rganishda psixologik nazariyaga tayanish; o‘z amaliy faoliyatida metodik tavsiyalarni joriy qilish; o‘z fanini erkin bilish; turli o‘quv yillari talabalari bilan tarbiya ishining xususiyatlarini bilish; pedagogik vaziyatni tahlil qilish va ularga o‘z ta’sir ko‘rsatish natijalarini ko‘ra bilish.

O‘qituvchi faoliyatining loyihalash komponentining mohiyati ushbu uquvlardan iborat bo‘lib, o‘quv fanining aniq maqsadlarini kasbiy faoliyat talablarini hisobga olish bilan ifodalash; aqliy harakatlarni tarbiyalash bosqichlarini hisobga olish; mazkur kursni o‘rganishda o‘quvchilarning mumkin bo‘lgan qiynalishlarini va ularni yengib o‘tish yo‘llarini ko‘ra olish; bilim, uquv va malakalarni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradigan oqilona faoliyat turlarini aniqlash; o‘quvchilarning o‘z faoliyatiga munosabatini hisobga olish va uni to‘g‘rilash uquvi; o‘z faning integratsilashgan ta’limni amalga oshirishi (fanlararo aloqalarini o‘rnatish); mavzu bo‘yicha illyustrativ materialni tanlash; o‘qitishga tabaqalashtirilgan yondoshuv.

O‘qituvchillarda kreativlikshaxsi shakllanganlik faoliyatining konstruktiv komponenti quyidagilardan iborat: axborot mazmunini tanlash va uning kompozitsiyasini ishlab chiqish; qo‘yilgan talablarning mazkur axborot o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan faoliyatini loyihalash; o‘z faoliyatini va o‘zini tutishini o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun loyihalashtirish. Shu munosabat bilan o‘qituvchillarda kreativlik quyidagi uquvlarga ega bo‘lishi lozim: bir mashg‘ulot uchun materialni tanlash; undagi asosiy tushunchalarni va qonuniyatlarni ajratish; mashg‘ulotda amaliy va nazariy o‘quv materialining to‘g‘ri munosabatini topish; mashg‘ulotlarning bir bosqichidan boshqasiga mantiqiy o‘tishlarni rejalashtirish; nazariy materialni soddadan murakkabga tomon joylashtirish; qo‘yilgan maqsadlarga asoslangan holda topshiriqlar va masalalar tizimini ishlab chiqish; mashg‘ulotning oqilona strukturasini uning maqsadlariga muvofiq ravishda tanlash; mustaqil ishlari uchun topshiriqlarni ishlab chiqish.

O‘qituvchillarda kreativlik shaxsi shakllanganligining tashkiliy komponenti o‘z ichiga quyidagilarni oladi; o‘z faoliyatini va o‘quvchilar bilan o‘zaro ishni tashkil

etish; faoliyatning bir tomoniga muvofiq ravishda o‘qituvchi quyidagilarni tashkil etish uquvlariga ega bo‘lishi lozim: o‘z vaqtini, o‘quvchilarning individual va jamoa bo‘lib ishlashlarini; ular bilan o‘zaro ishlashni; talabalar faoliyati ustidan tizimli nazoratni; o‘qitishning faol shakllarini; o‘quv materialini mustaqil o‘rganishni; AKT ni qo‘llashni va axborotni uzatishni.

O‘qituvchillarda kreativ sifatlar shakllanganligini o‘zaro munosabatlarni tavsiflaydigan kommunikativ komponent quyidagi usullarni nazarda tutadi: odamni har tomonlama va xolis qabul qilish; suhbatdoshda ishonch uyg‘otish; konfliktlarni ko‘ra bilish va konstruktiv hal qilish; muloqatdosh sherigini to‘g‘ri va odob bitlan tanqid qilish; o‘ziga nisbatan bildirilgan tanqidni qabul qilish va hisobga olish.

Bundan tashqari, o‘***qituvchillarda kreativlik shaxsi shakllanganligi faoliyatning konstruktiv*** komponentida o‘quvchilarni bir holatdan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha pedagogik qarorlarni shakllantirish va qabul qilishga doir ishlarni ham qaralsa, u mazmunan maniqiyroq bo‘ladi. Psixologlar E.G‘oziev, M.G.Davletshin, Z.Nishanova, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev ishlariga tayanadigan faoliyatli yondoshuvni izchil amalga oshirilishi o‘qitish maqsadi sifatida o‘qitish sub’ektida ma’lum faoliyatni bajarishga kasbiy tayyogralikni tarbiyalashni ko‘zda tutadi. U holda o‘qitishning asosiy natijasi kasbiy vazifalarni amalga oshirish, faoliyat masalalarini hal etish o‘quvlarini tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Faoliyatli yondoshuvning amalga oshirilishiga T.Adizova va N.Egamberdiyevalar pozitsiyasi faol o‘qituvchini shaxsini shakllantirishga qaratilgan darajaga mos keladi; u o‘qituvchi faoliyatining ushbu turlarini ajratadi: gnostik, o‘quv-metodik, kreativ, kommunikativ-tashkiliy. “Pedagogik faoliyatning strukturaviy elementlari sifatida quyidagilar keladi:

1. Fan uchun xos bo‘lgan bilimlar tarkibini mutaxassis kasbiy faoliyatining tipik masalalari strukturasiga integratsiyalash. O‘quv fanini o‘qitish va o‘z ustida ijodiy ishlab borishi bilan tasniflash.

2. O‘z fanning o‘quv-metodik mazmunini tushungan va o‘qitish dasturini o‘quvchilarning bilish faoliyatlari elementlari bo‘yicha yetkaza olishi.

3. Kreativ faoliyat – barcha ajratilgan mavzular bo‘yicha o‘quv dasturiga muvofiq ravishda uz o‘quv-metodik ta’minotni ishlab chiqishi.

4. O‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro munosabatini kommunikativ-tashkiliy aspektlarini o‘zicha olgan jarayonini ishlab chiqish.Reyting baxolash tizimini tug‘ri nazoratni tashkil etish” [5, 511-b.]

Faoliyatning konstruktiv va loyihalash komponentlari muallif tomonidan gnostik element tarkibiga kiritilgan. Bu bilan bir vaqtda O‘qituvchillarda kreativlik faoliyatining kreativ va kommunikativ-tashkiliy komponentlarini mustaqil komponentlar sifatida qarash taklif etiladi. Bunday yondoshuvda e’tibor o‘quvchilarning o‘zicha boshqariladigan o‘quv faoliyati jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ishlashlarini tashkil etish zaruratiga qaratilgan. Faoliyatning bu turlari o‘qituvchillarda kreativlik shaxsi shakllanganligi kasbiy-yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasini loyihalash, tuzish va amalga oshirishda o‘qituvchi tomonidan to‘la amalga oshiriladi.

Pedagogik kreativlik - pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim-tarbiyaviy jarayon samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi

g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyat sifatida izohlanmoqda.

Pedagogning kreativlik faoliyati uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ faoliyat negizida har bir mutaxasisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Kreativ faoliyat bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ faoliyati an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tafakkur tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo‘lish.

Bugungi o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda avvalida rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg‘ulot turlaridan voz kechib, o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya’ni yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish, ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lishi kerak. O‘quv mashg‘ulotlariga yetishmayotgan omil - kreativlik hisoblanadi.

Xulosa qilib mavjud holat tahliliga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ sifatlarni rivojlantirish quyidagi to‘rt yo‘nalish bo‘yicha harakat qilishni talab etadi:

1) o‘qituvchining ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyish etishi va erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

2) ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishiga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalanish;

3) pedagogik muammolar yechimini topishda ijodiy va innovatsion yondashuv ustivorligini ta’minlash;

4) belgilangan ta’limiy-tarbiyaviy vazifalarni to‘laqonli bajarish orqali kutiladigan natijaga erishish.

Biz ilmiy-nazariy ma’lumotlar tahliliga asoslanib boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ sifatlarni rivojlantirish tuzilmasi ishlab chiqildi.

Pedagog kreativlik faoliyatiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi. 2019.08.23.
2. Z.Nazarova. Devolopment of creative qualities in school teachers improvement of the pedagogical system. 2023 p.107-111
3. Allaberdiyevna, Nazarova Z. "TECHNOLOGY for Improving the Innovative Mechanisms of Formation of A Creative Teacher." European Scholar Journal, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 194-195.
4. Z.Nazarova. Ijodkor o‘qituvchi ilmiy – uslubiy jurnal Toshkent: 2023. 118-124-b.
5. Назарова З.А. (2019). МОТИВАЦИЯ ОДИН ИЗ ФАКТОРОВ УСПЕШНОГО ОБУЧЕНИЯ. Мировая наука, (5 (26)), 511-514.
6. Nazarova Zarrina A. (2014). Innovative modelling in learning activities. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, 12 (2 (eng)), 42-45.www.internet. manblari

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Ne’matullayev Azizjon Nurullayevich
Toshkent davlat pedagogika universiteti
stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda Sharq allomalarining ilmiy merosini o‘rganishga doir taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Sharq mutafakkirlari ilmiy merosi, axloq, tarbiya, madaniyat, ijobiy sifatlar.

Zamonaviy globallashgan zamonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga qo‘yilayotgan konseptual talablar alohida ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod tarbiyasi juda murakkab va mas’uliyatli vazifa hisoblanib, barkamol shaxs tarbiyasi uzoq va uzluksiz davom etadigan murakkab jarayondir. Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida ham yosh avlod vakillari tarbiyasiga alohida e’tibor berilganligi tarixiy yozma manbalardan bizga ma’lum. Bugungi kunga kelib ushbu masala o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas va hattoki, bu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalar ekanlar: “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”. [1].

Mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarni hamda pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyalarni modernizasiyalashtirishning zarurati va mazmun mohiyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarorida asoslab berildi. Qarorga ko‘ra O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish talab etilmoqda.

Jamiyat ma’naviy hayotini rivojlantirish o‘sha jamiyatda faoliyat ko‘rsatuvchi kishilarning intelektual salohiyati: ma’naviyati va marifati, ilm-fani va ta’lim-tarbiyasi to‘g‘risidagi bilimlarning nechog‘lik ilmiy asoslanganligi, to‘g‘ri nazariy va amaliy negizlar asosida shakllanganligiga bog‘liq. Shu sababli ham barkamol avlod ilmiy dunyoqarashini jahon ta’limi talablariga mos qilib shakllantirish o‘ta muhim muammodir.

O‘tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, ta’lim tarbiya masalalarini muayyan ilmiy yo‘nalishda o‘rganmagan bo‘lsalarda, biroq allomalarning qo‘lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo‘lish, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug‘ mutafakkirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlardan mustaqil O‘zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, talabalarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ilk uyg‘onish davrida yashab ijod etgan, buyuk donishmandimiz Muhammad al-Xorazmiy bo‘lib, u bilim olishda talabalarning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilmiy izlanuvchilarning ilmiy manbalarni to‘plash, ulardan foydalanish va kuzatganlarini tushuntira olish malakalarini hosil qilishga katta baho berdi. U birinchilardan bo‘lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi va ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo‘lishini o‘zining ilmiy asarlarida asoslab bergan. Darhaqiqat, alloma qoldirgan boy ilmiy merosi o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuning uchun, mutafakkirning yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda va ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdagi qarashlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Abu Nasr Forobiyning ta’limiy-axloqiy yo‘nalishdagi qimmatli asarlari bizgacha yetib kelgan. Bular, “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Fozil odamlar shahri”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql to‘g‘risida risola” kabi asarlarida asosan inson kamoloti to‘g‘risidagi ta’limotni ilgari suradi. Forobiy ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rni borligini alohida ta’kidlaydi. Forobiy “Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo‘lsin, diyonatli bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimni egallasin.” - deya ta’kidlaydi.[3, 281-b.]

Yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda pedagogik qarashlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladigan qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniydir. Uning ilmiy bilimlarni egalash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egalashda esa shaxsda intilish va qiziqish, muhitning rolini alohida ta’kidlaydi.

Beruniyning qarashlarida hozirgi kunda bizning ta’lim-tarbiya sohamizda amal qilib kelinayotgan ta’lim tamoillarining bir nechtasi o‘z ifodasini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, alloma 11 asr oldin tushungan va ilgari surgan qoidalar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmaganligi uning o‘tkir zehn sohibi, o‘ta ilmli kishi bo‘lganligini yana bir bor isbotlaydi.

Mutafakkirlarning inson kamoloti to‘g‘risidagi ta’limotlari orasida Sharqda “Shayx ul Rais”, G‘arbda esa “Avitsenna” nomi bilan mashhur bo‘lgan alloma Abu Ali ibn Sinoning insons kamoloti to‘g‘risidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Ichki quvvatning ta’sirlari va ta’sirlanishlari takrorlanaversa, ular uchun kuchli bir malaka hosil bo‘ladi.

Talabaga bilim berish o‘qituvchining mas’uliyatli burchidir. Shunga ko‘ra, Ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo‘l-yo’riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- Berilayotgan bilimlarni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- Ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- Talabalarni xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- Fanga qiziqtira olish;
- Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- Bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi va aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- Har bir so’zning bolalar hissiyotini uyg‘otishi darajasida berishga erishish zarur.

Demak, allomaning ushbu fikrlari davlat, jamiyat va hozirgi kunda ta’lim-tarbiya sohasida o‘qituvchi shaxsining kasbiy mahoratiga qo‘yib kelayotgan talablari bilan aynan o‘xshash ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Yusuf Xos Xojib ijodining bosh masalalaridan biri – komil insonni tarbiyalashdir. Adib o‘z asarlarida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo‘lsa, shu asosda u o‘z tamoyillarini izchil bayon etadi. “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari ta’lim va tarbiya, ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga doir ma’naviy manbadir. Yusuf Xos Xojib “Qutadg‘u bilig” asarida bilim haqida shunday fikrni keltiradi, ya’ni, “Kishi uyga, oddiy emas, qorong‘i uyga o‘xshaydi. Uquv-idrok esa mash’al kabi unga nur sochadi, shu uyni yoritadi, ya’ni kishini ravshanlikka eltadi. Olamdagi turli ezguliklar uquv-idrok tufayli sodir bo‘ladi”. [4, 64-b.]

Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhfatul ahror» va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rganish, inson ijobiy fazilatlari haqidagi fikrlari ifodalangan.

Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni lug‘atit turk” asarida ―ilmli, aqlli odamlarga

yaxshilik qilib so‘zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o‘rganib, amalga oshirgin, deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e’zozlab, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi.

Alisher Navoiyning “Xazoyinul maoniy”, “Mahbubul qulub” va boshqa shu singari asarlarida yetuk, barkamol insonning axloqi, ma’naviyati, o‘zgalarga munosabati, iste’dodi va qobiliyati to‘g‘risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar kechayotgan hozirgi kunlarda o‘quvchi yoshlarning milliy ma’naviy merosimiz asosida ma’naviy rivojlantirish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki, yoshlarning ma’naviy tarbiyasida Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy ta’limoti hamda Ma’mun akademiyasi olimlari merosidan foydalanish yanada samarali bo‘lishiga olib keldi. Haqiqatdan ham bu ma’naviy merosimiz turli pedagogik muammolarni hal etishda, eng muhimi, ma’naviy barkamol insonni rivojlantirish va bu bilan pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda ulkan imkoniyatlarga egadir.

Sharq mutafakkirlari ijodini o’rganish yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy g‘oyani shakllantirishning maqbul tizimini ishlab chiqish va hayotga joriy yetish borasida quyidagi takliflarni bildirish mumkin;

- hayotni anglashga qiziqish hissini o‘stirish, atrof-muhit va inson xarakterining murakkabligini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
- Vatanga, xalqiga sadoqatli bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;
- Sharq mutafakkirlarining didaktik asarlari yordamida talabaning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlar uyushtirish;
- Talabalarning ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot-tashviqotchilik faoliyatini takomillashtirishga alohida ahamiyat berish;
- Mutafakkirlarimiz ijodi yordamida talabalarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari, mazmun, shakl va metodlar birligini ta’minlash hamda talaba shaxsini kamol toptirish.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘zining buyuk yurtdoshlari, dunyo ilm-fani, jumladan tarbiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olimlar bilan faxrlanish tuyg’usi shakllantirish orqali Vatanga muhabbat, uning tarixi, an’analariga qiziqishi ortadi, xalqimizning buyuk allomalari merosini mustaqil ravishda yanada chuqurroq o’rganishga ishonch hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. T.: 2016-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori.

3. Forobiy N.A “Fozil odamlar shahri” – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.

4. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”).Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 200 b.

5. Abdullayeva B.S, Tursunova M.B, Xaydarova M.X “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani” Darslik. –Toshkent-2022. – 270 b.

6. Davurova G.A. “Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari pedagogika nazariyasining metodologik asosi sifatida”. “Abay Qo‘nonbev va Sharq mutakkirlarining pedagogik qarashlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax-2020-yil. – 296 b.

7. O’sarova G. “Sharq mutafakkirlari ilmiy merosining yosh avlod tarbiyasidagi o’rni va ahamiyati” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7

8. Nazarova Z. “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmun, shakl va metodlari. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: https://inscience.uz/index.php/socinov/index

Internet manbalari

https://lex.uz/docs/-4676839

file:///C:/Users/User_1/Downloads/sharq-mutafakkirlari-ilmiy-merosining-yosh-avlod-tarbiyasidagi-o-rni-va-ahamiyati.pdf

file:///C:/Users/User_1/Downloads/Tarbiya_fani_oqituvchilarining_ijtimoiy_kompetens.pdf

ABDULLA AVLONIY QARASHLARIDA MILLIY PEDAGOGIKANING ROLI

Nurbayeva Marvarid Tavakkalovna
Toshkent TMCI Pedagogika va psixologiya kafedrasi
O‘zbek tili va adabiyoti fani katta o‘qituvchisi
Negova Marjona Sanjar qizi
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Zamon va davr talabi har qanday jamiyatda, eng avvalo, komil, barkamol shaxsni tarbiyalashni, kamolga yetkazishni taqozo etadi. Ilm – ma’rifat taraqqiyotning muhim omili sanaladi. Zotan, qaysiki jamiyat, qaysiki davlat bo‘lishidan qat’iy nazar, uning taqdiri, kelajagi, taraqqiyoti, albatta, farzandlari, yetishib kelayotgan yosh avlodiga daxldor.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilganidek, “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi”. [1, 53-modda].

Har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma’naviy meros – o‘tmishning yutug‘i. Uni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma’naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina mustaqillik ravnaqi uchun kurashga o‘zida kuch va qudrat topa oladi.

O‘zbek xalqi ta’lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo‘lib, avlodlarda insoparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shunday boy merosga kiradi. Lekin bu boy merosimizdan, undagi odob-axloqqa oid durdonalardan yetarlicha foydalanishimiz zarur.

Hozirgi kunda oldimizda maktabdagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarimiz sohasida bu durdonalardan to‘laroq foydalanishdek vazifa paydo bo‘lmoqda. Maktablarda har bir sinfda har bir haftada o‘tiladigan tarbiyaviy soatlarni ma’naviyat darslariga aylantirish bu vazifani ado etish uchun yaxshi imkoniyatlar ochib beradi. 5-sinfdan boshlab buyuk mutafakkir allomalar:
Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xulq-odobga oid asarlarini, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganishga, ularning mazmunini sharhlashga, hayot muammolarini yechish uchun ularning pandnomalarini taqqoslashga bag‘ishlansa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki jamiyatda yashayotgan har bir kishi maktab partasida o‘tirar ekan, bu o‘gitlarni bevosita o‘rganishi ular ongiga istasa-istamasa ta’sir etadi.

Shaxsning ma’naviy madaniyatini shakllantirishga qo‘yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, adabiyot, pedagogika, psixologiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

O‘ziga xos maqsad va vazifalar bilan jamiyat tarkibiga kirib kelgan pedagogik qarashlar XIX–XX asrlar oralig‘idagi buyuk ma’rifiy g‘oyalar targ‘ibi bo‘ldi. Buning asoschisi sifatida bir talay ma’rifatparvarlar orasida Abdulla Avloniyni alohida tilga olish maqsadga muvofiqdir. Abdulla Avloniy o‘zbek adabiyoti tarixida ma’rifatparvar kuychi sifatida e’zozlanadi. Uning she’rlari, doston va dramatik asarlari o‘zining badiiy pishiqligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi.

Abdulla Avloniy bolalarning ta’lim-tarbiyasiga oid ko‘plab asarlar ijod etgan. Ayniqsa, uning “Vatan”, “Gulistondan bir manzara”, “Bola ila gul”, “Maktab bolasi”, “Yolg‘onchi cho‘pon”, “Yalqov” kabi she’rlarida bu masala yanada yorqinroq jaranglab turadi.

Avloniy maktabi insonparvarlik va erkin tarbiya asosida qurilgan, dunyoviy va ilg‘or ilm-fanni bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo‘ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. U “Muallimi avval”, “Muallimi soniy”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kitoblarining muallifi sifatida ham qadrlidir. [2]

Shu o‘rinda adibning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloq tushunchasining tarkibiga kiruvchi bir qator muhim masalalarni tahlil etilgani haqida ba’zi mulohazalar yuritsak. Masalan, asarda “Tarbiyaning zamoni” degan qism bor. Unda tarbiyaning uyda, so‘ngroq maktab, madrasada olib borilishi haqida gap ketarkan, bunday ishga imkonsiz xalqning og‘ir moddiy tirikchiligi achinish bilan qayd qilingan. “Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o‘qimagan, “usuli ta’lim” ko‘rmagan muallimlar”, “matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislar” o‘tkir hajv ostiga olinadi. Bu bilan tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi: “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”, – deb uqtiradi Avloniy. [3, 11-b.]

“Turkiy guliston yoxud axloq” asrimiz boshlaridagi pedagogik fikr taraqqiyotidagina emas, balki umuman bu davr ijtimoiy-estetik tafakkur rivojida ham sezilarli iz qoldirdi.

Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiya uzviy bog‘liq ekanini ham ta’kidlaydi: “Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”, – deydi.

Tarbiya xususiy ish emas , ijtimoiy ishdir. Tarbiya “pedago‘giya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtindan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan asrab o‘sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgoni kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl mariziga yaxshi xulq degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur. Ba’zilar “tarbiyaning ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas:

Yomon hech tuzalmaydi darmon ila,
Ipak o‘lmas ip rangli alvon ila.
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,
Bo‘lur yaxshi payvand, parvo bilan.
Bilur har kishi aslin rangidan
Va yokim ulangandagi zangidan”, – demishlar. Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta ta’siri bo‘ladur. Oramizda masal borki, “Sut ila kirgan jon ila chiqar”, mana bu so‘z to‘g‘ridur.

Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb hisoblaydi adib.

Avloniy xulqlarni an’anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi.

Adib vatan muhabbatini, uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan – bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmoq, yashartmoq kerak. Shoir Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbatidir: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

Tarix silsilasi Avloniyning asrlar o‘sha yurt va millat taqdiri uchun qayg‘urganini ko‘rsatib turibdi. Shunday ekan, bugungi shiddatkor davrning barkamol shaxsni kamol toptirishdek mas’uliyatli, sharafli vazifani egallab turgan kasb egalari buyuk ajdodlarning o‘git va ko‘rsatmalariga amal qilmog‘i, aynan Avloniy saboqlarini dasturulamal sifatida faoliyatlarida qo‘llamoqlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: “Ma’naviyat”. 2004.

2. Safo Matchonov, Sharafjon Sariyev. Adabiyot, T.: Sharq. 2011.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018

MILLIY PEDAGOGIKADA ABDULLA AVLONIY QARASHLARI

Nurbayeva Marvarid Tavakkalovna
Toshkent Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Negova Marjona Sanjar qizi
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada jadid adabiyoti namoyandasi Abdulla Avloniy ijodining o‘ziga xos jihatlari, xususan, shoir asarlarida farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi mulohazalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: inson, tarbiya, ajdod, avlod, olam, zamon, zakovat, aql-idrok, odob-axloq, oila, ota-ona, farzand, ilm, adabiyot.

Zamon va davr talabi har qanday jamiyatda, eng avvalo, komil, barkamol shaxsni tarbiyalashni, kamolga yetkazishni taqozo etadi. Ilm – ma’rifat taraqqiyotning muhim omili sanaladi. Zotan, qaysiki jamiyat, qaysiki davlat bo‘lishidan qat’iy nazar, uning taqdiri, kelajagi, taraqqiyoti, albatta, farzandlari, yetishib kelayotgan yosh avlodiga daxldor.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilganidek, “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi”. [1, 53-modda].

Har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma’naviy meros – o‘tmishning yutug‘i. Uni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma’naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina mustaqillik ravnaqi uchun kurashga o‘zida kuch va qudrat topa oladi.

O‘zbek xalqi ta’lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo‘lib, avlodlarda insoparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shunday boy merosga kiradi. Lekin bu boy merosimizdan, undagi odob-axloqqa oid durdonalardan yetarlicha foydalanishimiz zarur.

Hozirgi kunda oldimizda maktabdagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarimiz sohasida bu durdonalardan to‘laroq foydalanishdek vazifa paydo bo‘lmoqda. Maktablarda har bir sinfda har bir haftada o‘tiladigan tarbiyaviy soatlarni ma’naviyat darslariga aylantirish bu vazifani ado etish uchun yaxshi imkoniyatlar ochib beradi. 5-sinfdan boshlab buyuk mutafakkir allomalar:
Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xulq-odobga oid asarlarini, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganishga, ularning mazmunini sharhlashga, hayot muammolarini yechish uchun ularning pandnomalarini taqqoslashga bag‘ishlansa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki jamiyatda yashayotgan har bir kishi maktab partasida o‘tirar ekan, bu o‘gitlarni bevosita o‘rganishi ular ongiga istasa-istamasa ta’sir etadi.

Shaxsning ma’naviy madaniyatini shakllantirishga qo‘yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, adabiyot, pedagogika, psixologiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

O‘ziga xos maqsad va vazifalar bilan jamiyat tarkibiga kirib kelgan pedagogik qarashlar XIX–XX asrlar oralig‘idagi buyuk ma’rifiy g‘oyalar targ‘ibi bo‘ldi. Buning asoschisi sifatida bir talay ma’rifatparvarlar orasida Abdulla Avloniyni alohida tilga olish maqsadga muvofiqdir. Abdulla Avloniy o‘zbek adabiyoti tarixida ma’rifatparvar kuychi sifatida e’zozlanadi. Uning she’rlari, doston va dramatik asarlari o‘zining badiiy pishiqligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi.

Abdulla Avloniy bolalarning ta’lim-tarbiyasiga oid ko‘plab asarlar ijod etgan. Ayniqsa, uning “Vatan”, “Gulistondan bir manzara”, “Bola ila gul”, “Maktab bolasi”, “Yolg‘onchi cho‘pon”, “Yalqov” kabi she’rlarida bu masala yanada yorqinroq jaranglab turadi.

Avloniy maktabi insonparvarlik va erkin tarbiya asosida qurilgan, dunyoviy va ilg‘or ilm-fanni bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega

bo‘lishini ta’minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo‘ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. U “Muallimi avval”, “Muallimi soniy”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kitoblarining muallifi sifatida ham qadrlidir. [2]

Shu o‘rinda adibning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloq tushunchasining tarkibiga kiruvchi bir qator muhim masalalarni tahlil etilgani haqida ba’zi mulohazalar yuritsak. Masalan, asarda “Tarbiyaning zamoni” degan qism bor. Unda tarbiyaning uyda, so‘ngroq maktab, madrasada olib borilishi haqida gap ketarkan, bunday ishga imkonsiz xalqning og‘ir moddiy tirikchiligi achinish bilan qayd qilingan. “Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o‘qimagan, “usuli ta’lim” ko‘rmagan muallimlar”, “matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislar” o‘tkir hajv ostiga olinadi. Bu bilan tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi: “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur”, – deb uqtiradi Avloniy. [3, 11-b.]

“Turkiy guliston yoxud axloq” asrimiz boshlaridagi pedagogik fikr taraqqiyotidagina emas, balki umuman bu davr ijtimoiy-estetik tafakkur rivojida ham sezilarli iz qoldirdi.

Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiya uzviy bog‘liq ekanini ham ta’kidlaydi: “Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”, – deydi.

Tarbiya xususiy ish emas , ijtimoiy ishdir. Tarbiya “pedago‘giya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtindan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan asrab o‘sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgoni kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl mariziga yaxshi xulq degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur. Ba’zilar “tarbiyaning ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas:

Yomon hech tuzalmaydi darmon ila,
Ipak o‘lmas ip rangli alvon ila.
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,
Bo‘lur yaxshi payvand, parvo bilan.
Bilur har kishi aslin rangidan
Va yokim ulangandagi zangidan”, – demishlar. Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta ta’siri bo‘ladur. Oramizda masal borki, “Sut ila kirgan jon ila chiqar”, mana bu so‘z to‘g‘ridur.

Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb hisoblaydi adib.

Avloniy xulqlarni an’anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi.

Adib vatan muhabbatini, uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan – bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmoq, yashartmoq kerak. Shoir Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbatidir: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

Tarix silsilasi Avloniyning asrlar o‘sha yurt va millat taqdiri uchun qayg‘urganini ko‘rsatib turibdi. Shunday ekan, bugungi shiddatkor davrning barkamol shaxsni kamol toptirishdek mas’uliyatli, sharafli vazifani egallab turgan kasb egalari buyuk ajdodlarning o‘git va ko‘rsatmalariga amal qilmog‘i, aynan Avloniy saboqlarini dasturulamal sifatida faoliyatlarida qo‘llamoqlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: “Ma’naviyat”. 2004.

2. Safo Matchonov, Sharafjon Sariyev. Adabiyot, T.: Sharq. 2011.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018

NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MATN TURLARINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Nuriddinova O‘lmasoy Vapoyevna
Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta’lim
kafedrasi dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga oid tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy qarashlari, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda matndagi leksik birliklar va matn turlarining lingvodidaktik asoslari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so`zlar: nutqiy kompetensiya, kompetentlikka asoslangan yondashuv, bilim, ko'nikma, malakalar majmui, lingvodidaktik asoslar, matn turlari

Azaldan xalqimiz, buyuk mutafakkirlarimiz aniq, ravon, tushunarli so‘zlashga, fikrini to‘liq, mazmundor, ta’sirchan yozma yoritishga, og‘zaki va yozma savodxonligini takomillashtirishga e’tibor qaratgan. Xususan, mutafakkir olim Forobiyning ta’kidlashicha, “…Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism(nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi”[2;67]. Nutqni adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda tuzishda matnning ahamiyati salmoqli o‘rin egallaydi. “Matn”so‘zi rus va ingliz tili ilmiy manbalarida nashr etilgan adabiyotlarda “tekst” (lotincha “textum” asosida shakllantirilgan “text”) shaklida ishlatilib, “bog‘lanish”, “birikish”, “aloqa” kabi ma’nolarni ifodalaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da kontekst – [lot. contextus –

qo‘shilish, ulanish, bog‘lanish] - q. matn. Muayyan bir kontekst har bir so‘zning, ma’lum bir leksemaning konkret, mavhum bo‘lmagan aniq ma’nosiga oydinlik kiritadi degan ma’noni bildiradi. Shu nuqtayi nazardan “kontekst” so‘zining lug‘aviy ma’no va semantik birlik sifatidagi xususiyatidan, mohiyatidan kelib chiqib aytish joizki, “kontekst” atamasi nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim terminlardan biri sanalib, tilshunoslik va mantiqqa oid leksema bo‘lib, grammatik, morfologik ifodalarni muayyan ma’lumot matni asosida tushunishga yordamchi vositadir. Bu ta’limiy vosita bilan nutqiy vaziyatida bu holatning nazariy-konseptual asosini yoritishni ta’minlaydi. Shu sababli o‘quvchilarda kontekstli yondashuvga yo‘naltirishda, nutqiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. “Matn voqelik – ong – olam nazariyasi – matn tuzuvchi-retsepiyent – matn proyeksiyasidan iborat tizim unsuri hisoblanadi”[7;14]. Matn tuzuvchi respondent konteksning ma’no va mazmunning mutanosibligini sodir bo‘layotgan voqelikni grafik vositalar orqali aks ettirish ta’sir darajasini oshiradi hamda grammatik-assotsiativ mohiyatni tadqiq qilishni kengaytiradi. Bizning fikrimizcha, matn komponentlarida matn proyeksiyasi nutq uyg‘unligiga moslashishi zarur.

Olima D.Muhamedova matn atamasini quyidagicha qayd qiladi: “1)matn deyilganda, tugal mazmunga ega bo‘lgan bir yoki undan ortiq gaplardan tuzilgan ifoda; 2)qissa, roman, gazeta yoki jurnal maqolasi, ilmiy monografiya, har xil turdagi hujjatlar va shu kabi nutqiy asarlar mazmuni”[4;35]. Bizningcha, matn tugal mazmunni ifodalashi bilan birga matn sarlavhasini yorituvchi, aniqrog‘i, kontekstni to‘liq ifodalash uchu fikrlar ketma- ketligi keltiriladi.

“Matnni sintaktik jihatdan mazmuniga ko‘ra va leksik-grammatik vositalar yordamida o‘zaro bog‘langan gaplar yig‘indisi tarzida tushunish ham xato sanalmaydi. Matn deganda murakkab sintaktik butunlik va erkin gaplardan iborat butunlikni tushunish kerak. Matnning sintaktik tahlili gaplar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish, matnni gapdan kattaroq sintaktik birliklarga, murakkab sintaktik butunlikka parchalashni o‘z ichiga oladi”[8;19]. Ayonki, matn tarkibini matn sarlavhasini yoritib beruvchi gaplar jamlanmasi tashkil etadi. Bu gaplar inson miyasida birin-ketin tizimlashtiriladi, bu jarayonda o‘ylash, mulohaza qilish, eslash, ba’zi ko‘rinishlar ko‘z oldida gavdalantirish, xulosa qilish natijasida nutqda yuzaga keladi. Nutq jarayonida gaplar guruhlanadi, mavzu jihatdan qurilishi va ohangiga ko‘ra birlashadi va alohida sintaktik birlik – murakkab sintaktik butunlik hosil qiladi. Biroq matndagi barcha gaplar ham murakkab sintaktik butunlikka kirmaydi, ayrimlari uning tarkibiy qismi bo‘lmaydi. Matn strukturasida sintaktik birliklarlar bir silsila bo‘lib ongli harakatlanadi. Shaxslar matn orqali bir necha yil oldingi shaxslarning bir-biriga bo‘lgan kommunikativ munosabatidan xabardor bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, matn ajdodlarning munosabatlarini avlodlarga yetkazishda ham xizmat qiladi.

Matn yaratilishi modullariga axborot generatori va artikulyatorlari kiradi. Nutq, xususan, matn yaratilishi nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning o‘ziga xos qoidalariga ham bo‘ysunadi. Har bir matnning o‘ziga xosliklari tahlil asosida oydinlashadi, matnga ixtiyoriy tanlangan so‘z, so‘z birikmasini yoki tafakkurimizdagi muayyan gapni kirita olmaymiz. Chunki, bu kolorit matndan anglashiladigan ma’noga va ifodalangan mazmunga mos kelmaydi. Shuning

uchun matn g‘oyasi uchun foydalanilgan turli leksik, morfologik, sintaktik birliklar ma’lum maqsadni ko‘zlab, lisoniy qoidalar asosida biriktiriladi va so‘zlarni yozish orfografiyasiga, ishoraviy belgilarning ishlatilish o‘rniga rioya qilish kerak. Matnni sintaktik tahlil qilish uchun o‘quvchilardan tilshunoslikning “Leksikologiya”, “Morfologiya”, “Frazeologiya” bo‘limlari haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lishi talab qilinadi. Xususan, frazeologik birliklarni butunligicha bir so‘zga teng kelgan holda sintaktik tahlil qilishi uchun iborani matndan aniq topa olishi va iboralarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, ularning statik holatda tahlilga olinishi nazarda tutiladi. Ushbu tushunchaning g‘oyaviy-nazariy tavsifi tadqiqotchi M.Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasining tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyasida batafsil bayon etilgan[3;5]. Badiiy matnning tahlili va muhokamasi o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga asos bo‘la oladi.

“O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi: a)fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash; b)fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo); d)tavsifning mavzuga muvofiqligini va tasnif qiymatini aniqlash; e)tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash; f)imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash. Ona tili ta’limi jarayonida pedagogikaning ta’lim va tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilinadi hamda izchil amalga oshirib boriladi”[6;21]. O‘quvchilar o‘zaro so‘zlashuv va nutqiy vaziyatda nutqini mantiqiy izchil ifoda qilishi uning kognitiv- kommunikatsion yondashuvlarga egaligidan dalolat beradi. O‘zbek tili ta’limi tarixiga oid adabiyotlar, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi[5;7]. Matn turlarining kognitiv-semantik tomonidan o‘rganish, fikrlar orasidagi lokal-informativ bog‘liqlik propozitsiyalarning jamlash, umumlashtirish bosqichlarini keltirib chiqaradi. “Ma’lum bo‘ladiki, matnni o‘qib tushunish, o‘qib eshittirilgan matn mazmunini tushunish, matnni yod olish o‘quvchilarning retseptiv va reproduktiv nutqinigina o‘stirishga yordam beradi”[10;61]. Matnni o‘qib tushunish hamda matn mazmunini tushunish ko‘nikmalari bo‘limlardagi olgan bilimlari va fikrlash mahsuli sinovdan o‘tadi. Metodist Sh. Sariyev matn mazmunini o‘rganish va tahlil qilish, idrok qilish uchun ifodali o‘qish va yod olishga, matndagi voqealarga munosabat bildirish, voqealar tizimi va tasviriy vositalarni aniqlashga, matndagi asosiy g‘oyani aniqlashga, matn mazmunini qayta hikoyalashga, matndagi ma’lumotlarga tayanib hikoyani davom ettirishga, izlanish va ijodiylikni talab qilishga, lug‘at ishiga, mustaqil ravishda hikoya tuzish yoki yozishga doir savol-topshiriqlar ishlab chiqqan[11;54]. Shuningdek, hikoyani davom ettirish orqali ijodkorlik, kreativlik o‘sadi, Buning natijasida esa ravon so‘zlash, o‘rinli gapirish bilan bog‘liqligi mustahkamlanadi. Metodist olima U.Masharipovaning fikricha, “Ona tili darsliklariga

kiritiladigan mashq materiallari quyidagi mezonlar asosida tanlanishi o‘quvchilar nutqiy ko‘nikma va malakalarini o‘stirishning muhim omili sanaladi:

-bog‘lanishli matn xarakterida bo‘lishi;

-o‘rganilayotgan til bilimini o‘zlashtirishni ta’minlashi va mustahkamlashi;

-o‘quvchilar hayotiga bog‘liq va yoshiga mos bo‘lishi;

-davr taraqqiyotini o‘zida aks ettirishi;

-ta’limning shu bosqichida o‘qitiladigan fanlar bilan bog‘lanishi”[9;34].

Matndagi ilmiy konsept va badiiy ifoda muhim belgi sanaladi. Matn asosida proporsional moslashtirish, mazmun uyg‘unligi e’tiborli jihatlardan biri sanaladi. Shuningdek, proporsional so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib *proporsionalis*-mos, mutanosib, teng degan ma’noni anglatadi. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali rivojlantirish modeli nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari, vositalari, kommunikativligi hamda o‘zlashtirish darajalari dinamikligini ta’lim maqsadlariga proporsional moslashtirish asosida quyidagi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois matnning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratdik: matnga mutanosib leksik, morfologik, sintaktik birliklarni qo‘llash; kontekstga grammatik konstruksiyali qurilmalarni moslashtirish; ilmiy terminlarni ifodalash va kommunikativlikning dinamikligini rivojlanshtirish; matn mazmunidan mantiqiy fikrlash va subyektiv munosabatni o‘stirish.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini matn turlari orqali rivojlantirishdagi samarani ko‘zlovchi maqsadlardan biri ularning so‘z boyligini oshirishdir. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, badiiy asar matni ustida ishlash va badiiy kompetensiyani rivojlantirishni nutqiy kompetensiya bilan proporsional tarzda moslashtirib o‘stirish ayni haqiqatdir. N.Abdurahmonovning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”[1;24]da o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish hamda badiiy asarlardan olingan matnlar ustida ishlashning ijobiy natijalari haqida fikr yuritilgan. Ayonki, “Ona tili” darsliklarida ilmiy, rasmiy, publitsistik matnlar bilan birga badiiy matnlar ham o‘rin olgan. Badiiy matnni tahlil qilish va uni talqin qilish vositasida o‘quvchilarning so‘zni ishlatish va matnga mos so‘zlarni tanlab qo‘llash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi, badiiy idrok, tafakkur o‘sadi. Ularda matn mazmuniga mos leksik birliklarning ma‘nolari va farqli jihatlarini bilgan holda so‘z qo‘llash mahorati shakllanib boradi. Buning natijasida og‘zaki va yozma savodxonlik darajalarining o‘sish ko‘rsatkichi rivojlanadi.

Demak, ilmiy matnning mazmunini saqlagan holda qayta uni so‘zlab, gapirib berish ulardan ilmiy terminlarni mukammal bilish va so‘zlarning ma’nodoshlari bilan almashtirib nutqida qo‘llashni tatbiq qilish o‘rinli. Bizning fikrimizcha, sintaktik birliklar o‘quvchilardan grammatik bilimlar majmuyidan foydalanishni taqozo qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, bog‘lanishli matn va gaplarning semantik birikishi, so‘zlarning tobe va teng bog‘lanish bo‘yicha bilimlarni amaliy qo‘llashni talab qiladi. Bu faoliyatda nutq rivoji, ijodiy va ilmiy tafakkur o‘sish, ilmiy-nazariy bilimlarga tayanish, pedagogik jarayonda o‘quvchi psixologiyasiga e‘tibor qaratish, ularni baholash, motivlarni aniqlash yaxlit holda mujassamlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahmonov N. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.1989. –B.176

2. Azimova I.A. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol fanlari nomzodi diss.avtoref. –Toshkent:O‘zMU, 2008. - 12-13б.
3. Богуславский А.. Введение в психолингвистику. Москва, 2001. –С.270
4. Долгова О.В. Синтаксис как наука о построении речи. –М: Высшая школа, 1980. –С.40-41.
5. Natalia Dmitrievna Galskova. Examining Content and Language Integrated Learning (CLIL) Theories and Practices. DOI: 10.4018/978-1-7998-3266-9.ch001. –P.20, Moscow
6. Nunan.D. “Listening in language Learning”. In “Methodology in Language Teaching” Eds. Jack C.Richards, Willy A.Renandya, Cambridge university press 2002. –P. 432.
7. Преемственность и перспективность в обучении русскому языку. –1982. –С-63
8. Safarova R.G. Shaxsni shakllantirish omillari\\ Ta’lim tarakkiyoti J.. 2001. –B.60-63.
9. Ziyodova T.U.Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish. Ped.fan.nom. ...diss. –Toshkent, 1995. 16-19 b
10. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan. nom. ... diss. –Toshkent, 2019. – B.30
11. Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari: ped.fan.nom.diss. avtoref. –Toshkent, 2009. – B.12.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING TA’LIM TIZIMIGA OID QARASHLARINING O‘ZIGA XOSLIGI.

Urganch RANCH texnologiya
Universiteti o‘qituvchisi
Nyutonova Xilola Lochinbekovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlarning jamiyatda ijtimoiy hamkorlik, milliy ma’naviy kelajak avlodni shakllantirish, til, din masalasi, oila va oila munosabatlari, etik va estetik, urf odat, qadiriyatlar masalasi, yoshlar tarbiyasi haqidagi ijtimoiy falsafiy g‘oyalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlari: milliy ma’naviy, marifatparvar, milliy taraqiyot, milliy uyg‘onish, yangi usul maktablar, oliy dargoh, milliy davlatchlik, ibtidoiy maktablar.

Jadidlar qisqa muddat bo‘lsa ham millat uyg‘onishiga o‘z hissalarini qo‘shgan. Jadidlar XX asrda millatimizni rivojlanishi uchun jadidchilik maktablarini va chet mamlakatlarga yuborishni rejalashtirgandi. Jadidchilik keng tarqalishida Ismoil Gosprenskiy tashkil qilgan Tarjimon gazetasini o‘rni katta. 1893-yilda Samarqand, Buxoro, Toshkentga tashrif buyuradi. U Amur Abdul Ahadni jadidlar maktabini tashkil qilishga dav’at etadi, va shu bilan birga Andijonda Shamsul domla, Qo‘qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori, Samarqandda Abduqodir Shahuriylar birinchi b’lib jadidchilik maktablarini ochadi, Behbudiy, Munavvarqori , Cho‘lpon, Abdulla Avloniylar jadidlar maktabi uchun darsliklar yaratishadi.

Jadidchilik nafaqat o‘sha Turkiston yoshlariga balki XX asrdagi katta renessansga turtki bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jadidchilikning keng tarqalishida asosiy sababchi matbuot hisoblanadi. Uni e’tibor qaratadigan tarafi shundaki u hozrgi ijtimoiy tarmoqlar kabi ommaga tez tarqalgan. Matbuotni maqsadi ommaviy xurlik tarafga yetaklash, milliy mustaqillikga erishish edi. Keyingi qismda gazetada nashr etiladigan nashrlar turli xil kontentlar bilan boyitish zarur edi, va bu dolzarb masala edi. Jadidchilik avval ma’daniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, “Turkiy tillarni” rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy bilimlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar huquqlari tenglashishiga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar “Panturkizm” g‘oyalarini targ‘ib qilishgan [1].

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmish va merosga ega. Maxmudxo‘ja Bexbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulqori Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qaloqlikdan xalos etishnng yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar. Bu fidoiy zotlar mustabid tuzum va jaholatga, manaviy qullik va zulm-zo‘ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar. Bu ma’rifatparvarlar bobolarimiz dunyo kezib, dunyo xalqlarining ilmu urfoni, madaniyati bilan tanishib, mustamlaka o‘lkani, uning kishanlarini ilm chirog‘i bilangina ozodlik sari boshlamoq, parchalamoq mumkin, jonini fido qilishni chuqur his etdilar. SHu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab maorif ishlarini rivojlantirishda ham amaliy ham nazariy jihatdan ozmi-ko‘pmi shijoat namunasini ko‘rsatdilar. Turkistonlik jadidlardan biri Hoji Mu’in Shukrullo “Millatning taraqqiysi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko‘rub, muhofaza qilmoqchi bo‘lsak, avval saodat eshigi bo‘lgan maktabimizni zamong‘a muvofiq isloh qilish kerak” deb yozgan edi. Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jadid matbuotining keng va qamrovli munozaralariga sabab bo‘ldi. Maktablari qanday bo‘lishi kerak, ular qaysi yo‘nalishda rivojlanishi zarur, kabi muammolar o‘z davri mualliflarining diqqat markazida bo‘ldi.

Munavvar qori Abdurashidxonov asrlar davomida hukm surib kelgan maktab va madrasalardagi o‘qitish tizimini isloh etishni ilgari suradi. Maktablarda hali asl mazmuni va ma’nosini tushunishdan yiroq bolalarga Fuzuliy, Navoiy, Xo‘ja Hofiz, Bedilning muhabbat haqidagi she’rlari o‘qitiladi va uningcha: “bir bolaga Fuzuliy o‘rniga ilmi qiroat, Navoiy o‘rniga masoili e’tiqodiya, Xo‘ja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badalig‘a ilmi hisob o‘qitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon o‘lur”. Balog‘atga yetmagan bolalar ulardagi falsafiy ma’noni uqmagan, hatto ularni o‘qiyotgan domlasi ham tushunmagan holda “johil domlalarni ta’limi falonni qoshi qora, ko‘zi qora, yuzi oq, so‘zi shirin, deb bolalarni fasod axloqig‘a birinchi sabab o‘ladurg‘on” asarlarga aylanayotganligini ta’kidlagan muallif, bularningo‘rniga matematika, geografiya, islom tarixi kabi dunyoviy ham diniy ilmlarni o‘qitish foydali, degan fikrda edi. “Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyning yo‘li” maqolasining muallifi Niyoziy Rajabzoda o‘lkadagi boshlang‘ich maktablarning zamon talabiga javob bera olmayotganligini dalillar bilan keltiradi: “... xoh Buxoro, Samarqand, Toshkand, xullas, umum Turkiston

shaharlarinda bo‘lgan musulmon qarindoshlarimiz insof ila fikr qilsalar, maktablarimizni ko‘p parishon va beintizom holatda ko‘rarlar [2]. Muddati tahsil ko‘p uzoq bo‘lganligi uchun ko‘p kishilar bolalarini 8-10 yil maktabga qo‘yolmaydurlar. Chunki qudrati iste’dodlari yetmaydir. Shuninguchun maktabda yurgan bolalarimizdan 10 yo 8 nafardan 2 yo 3 nafar ahli savod bo‘lub chiqadurlar” Uning fikricha, diniy bilimlarni chuqur o‘rganish zarur, lekin “hunarlik va boy bo‘lmoq uchun albatta ilmu ma’rifat lozimdur. Ilmu ma’rifat uchun maktab, madrasalar isloh qilinub, nizom va tartibga kirgizulmog‘i lozimdur” [3]. Angliya, Germaniya mamlakatlari, deydi u, ilm-fan taraqqiysi natijasida “er yuzining boyliklarini o‘zlariga qoratub olibdurlar”. Ilm-ma’rifatdan mahrum bo‘lgan millat esa, “san’at va hunar sohibi bo‘lgan millatlarning oyog‘i ostida ezilurga majbur bo‘ladur”. “Oyina” jurnali o‘zining 1914 yil 27-sonida hukumat statistik ma’lumotlari asosida Samarqand viloyati shaharlari bo‘yicha aholi, madrasa, maktab va talabalar soni keltirilgan jadvalni chop etadi. Keyingi asrlar, xususan, xonliklar davrida ham mintaqadagi yirik shaharlar, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon shaharlarida hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar faoliyat yuritgan.

Sadri Ziyo ma’lumotlariga qaraganda XX asrning boshida birgina Buxoro shahrida 13 ta kutubxona, 96 ta qiroatxona bor edi. Buxoro shahridagi hukmdor saroyidagi kutubxonada xitoy, uyg‘ur, pushtu, fors, arab va boshqa tillardagi qo‘lyozmalar saqlangan. Kutubxonada kitobdor, mushrif, risolachi va mirzolar xizmat qilganlar. Saroy kutubxonasida amirlarning shaxsiy kolleksiyalari bilan birga 47.500 jild turli tillardagi qo‘lyozma va toshbosma kitoblar saqlangan [4].

1915 yili professor A.A.Semenov amirlik kutubxonasi bilan tanishib chiqib, uni tartibga keltirish va qisman tavsif qilishga erishadi. A.A.Semenov amirning kutubxonasi miniatyurali qo‘lyozmalar bilan to‘la ekanligini qayd etgan edi. Xiva shahrida ham xon saroyida juda boy kutubxona mavjud edi. Bu yerdagi qimmatli qo‘lyozmalar asrlar mobaynida to‘planib kelgan. Ayniqsa, Xiva xonligining ma’rifatparvar hukmdori Muhammad Rahimxon Feruz davrida kutubxonaga katta e’tibor berildi. Juda ko‘p asarlar qayta ko‘chirildi, tarjima qilindi, toshbosma usulda chop etildi, yangi-yangi asarlar yaratildi. Shaharlardagi deyarli har bir madrasa o‘z kutubxonasiga ega bo‘lib, ularda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan turli darslik, qo‘llanma va adabiyotlar, adabiyot, islom dini, tarix, tibbiyot, geografiyaga oid qo‘lyozmalar saqlangan.

Xususan, Buxoro amirligida XX asr boshlarida yirik madrasalar qoshidagi kutubxonalarda bir necha o‘n minglab qo‘lyozmalar saqlangan. Kutubxonalar uchun alohida vaqf mulklari ajratilgan. Kutubxonalarda kitoblarni saqlashdan tashqari yangi kitob bilan boyitib borish uchun ham vaqflar ta’sis etilgan. Kutubxonalarda musulmon davlatlaridan kelgan ko‘plab adabiyotlar bor edi. Kutubxonalar nodir kitoblarni to‘plash, ulardan hech bo‘lmaganda nusxa ko‘chirish orqali ham to‘ldirib borilgan. Buxoro madrasalarida kutubxonalar maxsus binolarda joylashgan, ularda harorat va havo namligi kuzatib borilgan, kitoblar a’lo sifatli qog‘ozlarga yozilib, charm muqovalar bilan muhofaza qilingan hamda maxsus charm sandiqlarda saqlangan. Buxoroda o‘z davrining taniqli ulamolari, xususan, qozilarga, hamda amaldorlar, ya’ni beklarga tegishli xususiy kutubxonalar ham mavjud edi. Buxoro shahrida eng boy

shaxsiy kutubxona amirzoda Hashmatga tegishli edi [5]. U Buxoro amiri Muzaffarning o‘g‘li bo‘lib, o‘zidan bir necha asarlar ham qoldirgan. Maktab-maorif ishlari bilan bir qatorda, jadid ma’rifatchiligining yana bir yorqin ifodasi bo‘lib, ilk o‘zbek milliy matbuoti, biroz o‘tib turli ma’rifiy jamiyatlar paydo bo‘la boshladi. Jamiyatlar bevosita ma’rifatchilikning ham ma’naviy, ham moddiy davomiyligini ta’minlashni vazifa etib belgila-gan edi. Tijorat va boshqa mablag‘ manbalarini yaratib, jadid maktablari to‘xtab qolmasligi, gazetalarning muntazam chiqib turishi, alohida iste’dod ko‘rsatgan mahalliy bolalarni xorijga tahsil olish uchun yuborish kabi ezgu ishlar jamiyatlarning asosiy maqsadlari edi [6].

Tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor to‘yg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar.

Xulosa. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o‘zlari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, nashr etar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatar edilar. Bu yo‘lda hatto o‘z mablag‘larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur. Bugunda ma‘rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma‘naviyat va ma‘rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo‘lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma‘rifatchi-jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma‘naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Poziljonov, J. (2023, January). jadidchlik va milliy uyg‘onishda g‘oyaviy qarashlar hamda targ‘ibot usullari. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON TEACHING, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.
2. Naim KARIMOV - filologiya fanlari doktori, professor “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent2016
3. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston CHor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –T.: SHarq, 2000
4. Do‘stqoroev B. O‘zbekiston jurnaloistikasi tarixi (1-qism. 1870 – 1917 noyabr). Darslik.-T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009.
5. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: “Universitet”, 2006
6. www.Ziyo-net.uz
7. www.Google.uz

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA CHET TILLARINI O‘RGATISH METODIKASI

Ozodova Muqaddas
Nizomiy nomidagi TDPU 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqola, o‘qituvchilarga, metodistlarga va talabalar ota-onalarga chet tillarini o‘rganishda muhim bo‘lgan muammo va tajribalarni ta‘kidlaydi. O‘qitish jarayonida kommunikatsiya, o‘qitish materiallari, o‘quv-uslubni muvaffaqiyatli tartibga solishda ko‘rsatmalarni taqdim etadi. Maqola, o‘qitishda integrativ, uslublarni qollashni tavsiya qiladi. Boshlang‘ich sinflarda chet tillarini o‘rgatish metodikasining samaradorligi va mustaqbollariga oid qisqa qarorlar va taxminiy natijalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: integrativ o‘qitish uslubi, Kommunikativ o‘qitish uslubi, O‘rganuvchilar, interaktiv o‘yinlar.

Agar siz odam bilan u tushunadigan tilda gaplashsangiz, bu uning boshiga kiradi. Agar siz u bilan uning tilida gaplashsangiz, bu uning yuragiga kiradi.

- Nelson andela

Zamonaviy sharoitda ingliz tilini o‘rganish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu til xalqaro bo‘lib, madaniyatlararo va tilaro muloqotning yetakchi vositasi bo‘lib xizmat qiladi, global o‘ziga xoslikni shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi va dunyoda eng ko‘p o‘rganiladigan chet tili hisoblanadi. Bunday sharoitda ingliz tili maktabda ham, kollejda ham, universiteda ham o‘qish uchun majburiy bo‘lishi ajablanarli emas. Chet tilini bilish bugungi kun ziyolilari uchun eng muhim talablardan biri. Tilni bilish darajasini belgilovchi maxsus sertifikatga ega bo‘lish esa ma‘lum imtiyozlar berishi ham hech kimga sir emas. Shu bilan birga, ko‘p odamlar ingliz tilini o‘rganishi bir necha bor ta‘kidlangan, ammo faqat bir nechtasi buni yaxshi biladi. Zamonaviy sharoitda tilni yaxshi o‘rgatish muhimligi hamma tomonidan e‘tirof etilganiga qaramay, nolingvistik ma‘lumotga ega bo‘lgan, ingliz tilini yaxshi biladigan shaxs mamlakatimizda juda tez-tez uchrab turadigan hodisa emas.

Psixologlar va fiziologlar chet tillarini erta o‘qitishni joriy etishni bolalarning tillarga tabiiy joylashuvi va ularni o‘zlashtirishga hissiy tayyorligi bilan asoslaydilar. Ham mahalliy, ham xorijiy psixologiyada bolaning chet tilini kattalarga qaraganda osonroq o‘rganishi haqida dalillar mavjud. Bunday holda, ular odatda maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning umuman tillarni, xususan chet el tillarini o‘zlashtirishga nisbatan sezgirligiga (sezgirligiga) murojaat qilishadi. Turli tadqiqotchilar uchun sezgir davrning davomiyligi turli yo‘llar bilan belgilanadi: Eliot – 1,5 yoshdan 7 yoshgacha, Penfild va Roberts uni 4 yoshdan 8 yoshgacha aniqlaydilar. Aynan shu yoshda bolalar tabiiy qiziquvchanligi va yangi narsalarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoji bilan ajralib turadi. Ular til materialini keyingi bosqichlarga qaraganda ancha moslashuvchan va tezroq o‘zlashtiradilar.

Xorijiy tillarni 3-4 yoshdan o‘ragtish mumkin. Chunki aynan shu davrda-idrok, tasavvur, diqqat va eng muhimi, xotira rivojlanadi. Bu yoshda bolada obrazli tafakkur ustuvor bo‘ladi, bu o‘z navbatida, unga ko‘rgazmalar, obrazlar orqali yangi so‘z va

iboralarni tez, oson eslab qolishga yordam beradi. Bola 3-4 yoshdga to‘lmaguncha unga xorijiy tillardagi so‘zlarni o‘rgatish tavsiya etilmaydi. Boisi, bu davrgacha bolada o‘z ona tilini o‘rganish tizimi shakllanadi, ona tilida kundalik iboralarni o‘rganadi, o‘z fikrini bayon etish ko‘nikmasi paydo bo‘la boshlaydi. Ona tilida zarur nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan bola chet tillaridagi so‘zlarni qabul qilmaysi, ularning mazmunini tushunmay, ko‘r-ko‘rona yod oladi, xolos.

Xorijiy tilni o‘rganishni boshlagan kichik yoshdagi bolalar bilan ishlash murakkab jarayo. Negaki, o‘qituvchi oldida Bolani til o‘rganishiga qiziqtirish, uning ishtiyoqi so‘nmasligi uchun turli noodatiy, o‘yin o‘ynash, sevimli multfilmini xorijiytilda tomosha qilish, ertak tinglash yoki quvnoq harakatlarga boy qo‘shiqni yodlash orqali qo‘yilgan haakatlarga boy qo‘shiqni yodlash orqali qo‘yilgan asosiy maqsad-xorijiy tilda erkin muloqot qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lib boradi.

1-sinfdan boshlab chet tilini o‘rgatishda o‘yin usulidan foydalanish samarali bo‘lib, bunda o‘quvchining kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanadi. O‘yin alohida tashkil etilgan mashg‘ulot bo‘lib, bunda bolaning emotsional his-tuyg‘ular va aniq imkoniyatlarining safarbar etilishini, biror-bir qaror qabul qilishni- qanday yo‘l tutish, fikr bildirish, qanday qilib yutuqqa erishish kabi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. Bu vazifalarni amalga oshirish bolaning fikrlash qobiliyatini jadallashtiradi. Agar bola chet tilida gapirsa, bu ta‘limiy imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Bolalar o‘zlari o‘ylamagan tarzda chet tilini o‘rgana boshlaydilar. O‘yin bolalar uchun juda qiziqarli mashg‘ulot bo‘lib, bunda a‘lochi o‘quvchi ham, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi ham teng ishtirok etadi. Bundan tashqari, chet tilini sust o‘zlashtiradigan o‘quvchi o‘yinda birinchi bo‘lishi mumkin, hamma bilan tengligini his qilish, quvonch va zavq muhiti, vazifalarni bajarishdagi osonlik-bulrning hammasi nutqda ntanish tilda so‘zlashishdagi tortinchoqlikni yengishga yordam beradi va ta‘lim natijalariga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi.

O‘yin nomi: “Flashcard Estafeta Poygasi”

Daraja: barcha darajadagi o‘quvchilar uchun mos

Sinf: 1-2 sinflar uchun

Vaqt: 5-10 daqiqa

Foydasi: Lug‘at va Xotira: tarqatma kartalarni olish va to‘g‘ri so‘z yoki rasmni aniqlash xotirani mashq qiladi va so‘z boyligini mustahkamlaydi.

Jamoa bilan ishlash va hamkorlik: jamoalarda birgalikda ishlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi.

Qoyidasi: Sinfni jamoalarga bo‘ling va har bir jamoaga inglizcha so‘zlar yoki rasmlar bilan tarqatma kartalar to‘plamini bering.

Kartochkalarni xonaning bir burchagiga, jamoalarni boshqa burchagiga joylashtiring.

Siz: "boring!" deganingizda har bir jamoadan bitta o‘quvchi kartochka uchun yuguradi, bitta kartani oladi va o‘z jamoasi yoniga qaytadi.

U kartani keyingi jamoadoshiga topshirishadi, u esa kartani qaytarib olib borish va boshqasini olish uchun yuguradi.

Musobaqa barcha jamoa a‘zolari tugagunicha davom etadi.

Birinchi bo‘lib to‘g‘ri yakunlagan jamoa g‘alaba qozonadi.

O‘yin nomi: Simon Deydi

Daraja: barcha darajalar uchun

Sinf: 1 sinflar uchun

Foydasi: Tinglash qobiliyatlari: ingliz tilidagi ko‘rsatmalarga rioya qilish tinglab tushunishni yaxshilaydi.

Lug‘at: harakatlar va tana qismlari bilan bog‘liq so‘z boyligini tanishtiradi va kuchaytiradi.

Jismoniy faollik: harakat va jismoniy muvofiqlashtirishni rag‘batlantiradi.

"Simon bo‘lish uchun bitta o‘quvchini tanlang."

Simon "Simon aytadi" bilan boshlanadigan buyruqlarni beradi, masalan "Simon oyoq barmoqlaringizga Tegin deydi" yoki "Simon qarsak chaling deydi."

Boshqa o‘quvchilar buyruqni faqat "Simon aytadi" so‘zlari bilan boshlansagina bajarishlari kerak

Agar Simon avval "Simon aytadi" demasdan buyruq bersa, talabalar unga rioya qilmasliklari kerak.

"Simon aytadi" deyilmagan buyruqqa amal qilgan o‘quvchilar o‘yindan chiqishadi.

Qolgan oxirgi talaba keyingi Simonga aylanadi.

Eng muhimi, bola har bir mashg‘ulotdan zavq olishi, yangi ma‘lumotni qiziqish bilan qabul qilishi kerak. Aksincha bo‘lsa, kichkintoyda xorijiy tilga nisbatan qiziqish bo‘lmaydi. Hamma narsa rejali va tartibli bo‘lishi lozim. Shunda bola darsdan nima kutayotganini biladi va o‘zini yengil his qiladi. Darsni alohida ko‘rgazmali “signal”lar bilan boshlab, bolaga boshqa tilda gaplashish vaqti kelganini bildirish zarur.

Eng muhimi, kichik yoshdagi bolalarga hech qanday bosim o‘tkazmaslik, gapirish yoki gapirmaslik huquqini hurmat qilish, har bir xato uchun tanqid qilmaslik, aksincha, kichik muvaffaqiyatlarini ham katta yutuq sifatida rag‘batlantirib borish maqsadga muvofiq. Natijada, har qanday murakkab fe‘l-atvorga ega bola ham muloqotga kirishadi.

Mutaxassislarning fikricha, hech kim poliglot bo‘lib tug‘ilmaydi. Shunchaki kichik yoshdanoq bolani avval o‘z ona tilida fikrini erkin bayon etishga o‘rgatish, u bilan har kuni suhbatlashishga alohida vaqt ajratish, keyinchalik esa chet tillarini o‘rganishga qiziqtira olish, bunda interaktiv o‘yin metodlaridan foydalanish darkor. Natijada bolada chet tillarni o‘rganishga moyillik paydo bo‘ladi, bir necha tilda so‘zlashish qobiliyati shakllanadi. Bundan tashqari, kichik yoshda biror xorijiy tilni o‘rganish, keyinchalik bola maktabda qo‘shimcha tillardan saboq olishida adaptatsiya jarayonini yengillashtiradi. Bora-bora, turli tillarning grammatik va leksik asosini solishtirish orqali, o‘quvchi bir vaqtning o‘zida bir necha tilni o‘rganishga qiynalmaydi. Bu jarayonda eng muhimi, bolaning nutq madaniyatiga rioya qilayotgani, muloqot jarayonida boshqa tillardagi so‘zlarni qo‘shib gapirmayotganiga e‘tibor qaratishdir.

O‘qituvchilar o‘quvchilarning xususiyatlarini va qanday o‘rganishlarini hisobga olgan holda darslarni o‘quvchilarning rivojlanish darajasidan moslashtirishlari kerak. Shu munosabat bilan, sinf mashg‘ulotlari bolalarga quvonch va qiziqish uyg‘otishi, zarur yordam va yordam ko‘rsatishi, mazmunli va yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ko‘p

intellektning barcha jihatlarini rivojlantirishga yordam beradigan darslar o‘tkaziladi o‘qituvchilar sinfda o‘quvchilar o‘zlarini qulay his qiladigan va ingliz tilini o‘rganishda muvaffaqiyatga erishadigan muhit yaratishga qodir. Bolalar jismoniy muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lish orqali dunyoni tushunadigan faol talabalar va mutafakkirlardir.

Bizning maqsadimiz bu bir o‘quvchining ta‘limiga ko‘maklashish, o‘qitishning turli uslublarini qo‘llash va biz o‘qitadigan har bir sinfda taqdim etilgan intellektning barcha shakllarini rivojlantirish. Bu oxir-oqibat har bir o‘quvchiga muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi, albatta, Uning va bizning o‘z qiziqishlarimizga rioya qilsak.

Maqola yakunida, boshlang‘ich sinflarda chet tillarini o‘rgatishda amaliy metodikalar o‘rganish jarayoni juda muhimdir. Chet tillarini o‘rganishning samaradorligi uchun, o‘quvchilarga ilg‘or yondashuv, jismoniy harakatlar va ma‘naviy rivojlanishni ta‘minlovchi mexanizmlar bilan birgalikda ta‘lim berish muhimdir. Maqbul va sodda metodikalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o‘rganishni osonlashtiradi. Shuningdek, muassir texnologiyalardan foydalanish va o‘quv dasturlarini harakatga o‘tkazish chet tillarini o‘rganishni oson va qiziqarli qiladi. Keyinchalikda, boshlang‘ich sinflarda chet tillarini o‘rgatishda metodikalar va dasturlar doimiy tarzda yangilanib, o‘quvchilarning zarur malakalarini oshirish va ularga global o‘zaro munosabatlar o‘rnatishga yordam berishi kerakdir. Bu usullar bilan, o‘quvchilar dunyodagi mustaqil xaridlarini o‘rganish, mavqeylarini oshirish va kengaytirish uchun to‘g‘ri yo‘lga yo‘l topishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘qitish stili va Intellekt turlari” Azamat Akbarov Burch Sarayevo Xalqaro Universiteti professori

2. "Yosh bolalarga chet tillarini o‘qitishning psixologik xususiyatlari" frantsuz tili o‘qituvchisi Gromova Galina Aleksandrovna GBOU 485-maktab Sankt-Peterburg

3. CHET TILINI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI Rajabova Farangiza Raimovna Rajabova Madinabonu Raimovna

4. Bolalar uchun 12 ta ta‘lim va interaktiv ingliz tilini o‘rganish o‘yinlari (firstcry.com)

5. "Kichik bolalarga chet tillarini o‘rgatishning psixologik xususiyatlari" | Mavzu bo'yicha chet tili bo‘yicha maqola: | Ta‘lim ijtimoiy tarmog‘i (nsportal.ru)

6. Shaxsiy shaxsiyatning mahalliy nazariyalari L.S.Vygotskiy (davomi), S.L.Rubinshteyn va A.N. Leontyev

7. Rivojlanayotgan inson miyasi: paleonevrologiya va o‘rta pleystotsen taqdiri E. Bruner

8.https://tsuull.uz/uz/content/chet-tilini-bilish-bugungi-kun-ziyolilari-uchun-eng-muhim-talablardan-biri

O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MAKTAB, OILA VA JAMIYATNING BIRGALIKDAGI FAOLIYATI

Ochilov F.I ChDPU “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD).
Jo‘rayeva Ruxshonabonu To‘ychizoda,
ChDPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.
Izatulloyeva Parvina Fariddunovna,
ChDPU qoshidagi Akademik litseyning 2-kurs o‘quvchisi.

Annotatysiya. Ushbu maqolada maktab, oila va jamiyatning bir-biriga uzviy bog‘liqligi, ular o‘rtasidagi hamkorlik turlari, o‘quvchilar tarbiyasida maktab, oila va jamiyat hamkorligining zaruriyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktab, oila, jamiyat, ta’lim, tarbiya, muloqot, o‘qituvchi, farzand, ota-ona, hamkorlik, yuksalish.

Inson kamolotida oilaning o‘rni beqiyosdir. Na oila, na maktab, na davlat muassasalari, ularning har biri alohida-alohida holda bola shaxsiyatiga ta’sir qiluvchi ijobiy omillarning vazifalarini bajara olmaydi. Zero, ta’limning to‘liq va tartibli jarayoni ushbu o‘zaro bog‘liq uchta ta’lim sohasini uzluksiz amalga oshirishni taqozo etadi. Bu jarayonning asl tashabbuskori maktabdir. [3; 102-b.]

Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulug‘bek shunday deganlar: “Oilada ota-onalar, ayniqsa, o‘qimishli ota-onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim” [2]. Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko‘proq e’tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo‘latmasligi lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro‘ olib keladigan, yuzlarini yorug‘ qiladigan farzand bo‘lib ulg‘ayishadi.

Alisher Navoiy bobomizning tarbiyaga oid qarashlari deyarli barcha asarlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, “Hayratul-abror” asarida tarbiyaning asosiy uslublarini sanab ko‘rsatib, bola tarbiyasiga va uning shaxs sifatida shakllanishiga katta ahamiyat berib, bola “baxt chirog‘i” – deb ta’riflangan [1]. Demak, bola baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Bu agar oilada tarbiya uslubi to‘g‘ri tatbiq etilsa, bola hayotda o‘z baxtiga tez erishadi, degan g‘oyani ifodalaydi.

S.Makarenkoning ta’kidlashicha, maktab va oila o‘rtasidagi muloqotning eng oson usuli bu o‘quvchining o‘zi. Bu usulning afzalligi nafaqat faolligi, balki bolaning o‘qituvchi talablarini qabul qilishi va uni oilada amalga oshirishidadir. [5]

Uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan xalqimiz o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid ulkan merosga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, vatanparvarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda bola tarbiyasiga, ularni jahon talablariga mos bilim olishlariga, hunar egallashlari, har tomonlama yetuk inson bo‘lib voyaga yetishlariga ota-onalar mas’uldirlar. Tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi. [4]

O‘qituvchi va sinf rahbari o‘quvchining uyiga borib, uning oilaviy hayoti muhiti haqida kerakli ma’lumotlarni topadi. O‘qituvchining o‘quvchi uyiga kelishi o‘quvchi

uchun ham, uning ota-onasi uchun ham muhim voqeadir. Ushbu imkoniyatdan maktab, ota-onalar va hatto o‘quvchining o‘zini ham bir-biriga bevosita bog‘lash uchun foydalanish kerak. Ammo o‘qituvchi ota-onani maktabga chaqirish yoki farzandini jazolash, xullas o‘quvchi ustidan shikoyat qilish maqsadida uning uyiga borsa, xato qiladi.

Maktab va oila o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikning eng muhim shakli ota-onalar yig‘ilishidir. Mazkur yig‘ilishda ta’lim va tarbiyaning eng muhim masalalari muhokama qilinadi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari belgilab olinadi. Ota-onalar yig‘ilishi mavzulari quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Farzandingiz qanday o‘qiydi?”, “Keling, bolalarning sevimli mashg‘ulotlari haqida gaplashaylik” yoki “Darslar tugagach” (bunda ota-onalar farzandlarining bo‘sh vaqtlarida bajaradigan ishlari haqida gapiradilar), “Mustaqil hayot ostonasida”. Ota-onalarning javoblarini sinf majlisida o‘quvchilar tomonidan berilgan javoblar bilan ham solishtirish mumkin.

Yosh avlodni tarbiyalashdek umumiy vazifani bajarishda maktab va oila mustahkam ittifoqchi hisoblanadi. Shuning uchun o‘zaro obro‘-e’tiborni saqlab qolish uchun ular o‘rtasida o‘zaro ishonchli munosabatlar bo‘lishi kerak.

So‘nggi paytlarda bolalarni tarbiyalash ishlariga jamoat tashkilotlari ham keng jalb etilmoqda. Ko‘pgina tashkilot va muassasalar tomonidan maktab o‘quvchilari turli xil foydali jamoat ishlariga jalb etilib, qarovsiz qolgan bolalarga yordam qo‘lini uzatish, o‘smirlar huquqbuzarliklarining oldini olish maqsadida aholi yashash punktlari qo‘mitalarida mehnat so‘rovlarida maxsus postlar tashkil etilgan. Bunda ko‘ngillilar guruhlari, politsiya bolalar uylari va boshqa muassasalar ko‘plab tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradilar.

Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko‘p yillar davomida birga yashagan, bir-birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o‘ni, mavqei hamda imkoniyatlarini yaxshi biladilar.

Oila, mahalla, maktab hamkorligi rejasini tuzish quyidagicha:

- Tarbiyaviy ishlar o‘tkazish dasturi va shu dastur asosida mahallada yashovchi har bir bola bilan bu tarbiyaviy ishlarni olib borish.

- Mahallada bolalar dam olishlariga, qiziqarli ishlar bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat yaratib berish.

- Mahallada tarbiyaning ta’sirini oshirish kabi ko‘plab ishlarni olib borish, o‘quvchilarni har tomonlama axloqli tarbiya topishlariga keng imkoniyat yaratadi.

Bola tarbiyasida maktabning o‘rni ham juda beqiyosdir. Har bir bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, o‘zining kelajakdagi qiladigan ishlarini jajji ongida tasavvur qiladi. Maktabda olgan bilimlari, ta’lim-tarbiyasi, bu ishlarning amalga oshishida, albatta, o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga amal qilinganida samaradorlik yanada yuqoriroq bo‘ladi:

- ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi.

- hamkorlik jarayoni sub’ektlarining teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati.

- ota-ona farzandining maktabgacha bo‘lgan davrdagi jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash.

Bularning barchasi bolaning yetuk inson bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatlardan biri hisoblanadi. Tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va maktab o‘zining shart-sharoiti, atrof-muhitni tahlil qilib: o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona; maktab, oila, mahalla, jamoatchilik; oila, mahalla, maktabgacha ta’lim muassasalari, maktab; yo‘nalishlariga amaliy tarbiya ishlarini tatbiq etib va shu kun talabi darajasida targ‘ibot ishlari olib borilsa, natijada tarbiya masalalari bo‘yicha ijobiy yutuqlarga erishish mumkin..!

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yosh avlodni yaxshi xulqli, Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga ahamiyat berish lozim. Chunki bularsiz tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Mahalla, maktab, oila hamkorligining ijobiy tomonlari shundaki, bolaning dunyoviy bilimga ega bo‘lishi, fikrlarining keng bo‘lishi, noto‘g‘ri ta’sirlarga berilmasligi, uyda va maktabda bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishini ta’minlashga, xalqiga va jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo‘lib ulg‘ayishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989 y. 262 b.

2. Atamurodova R. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari va ta’lim. https://www.youtube.com/watch?v=FoC6M9vNiAo

3. Axmadaliyev B.S., Farmonov O‘.N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: 2022.

4. Axmadaliyev A.K. Oila pedagogikasi. – T.: 1994

5. Makarenko A.S. Ota-onalar kitobi. [Tarjimon. Ziyo Aminov]. Toshkent, O‘zo‘quvpeddavnashr, 1954. 176 bet.

“KERAKSIZLIKKA QARSHI” INNOVATSION PEDAGOGIK KURASH

Ochilov F.I. ChDPU “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD).

Olimova Shaxnoza Farxod qizi,
ChDPU “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 4-kurs talabasi.

Izatulloyeva Parvina Fariddunovna,
ChDPU qoshidagi Akademik litseyning 2-kurs o‘quvchisi.

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda o‘zining samaradorligini yo‘qotib borayotgan ayrim metodlarga innovatsion pedagogik yondashish orqali ularning samaradorligini oshirish, shu bilan birga, keraksizlikka qarshi kurash haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, texnologiya, metod, keraksizlik, pedagog, fikrlash dunyosi, g‘oyalar zanjiri, erkinlik.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Shavkat Mirziyoyev

.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6198-son Farmoni [2], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-sentyabrdagi “Innovatsion faoliyatni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 721-son qarori [3; Lex.uz sharhi]. Ushbu qaror “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasi (Innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari)da keltirilgan va yuqorida berilgan sharh ham aynan shu moddaga bag‘ishlangan. Ushbu farmon va qarorlardan kelib chiqib, biz tobora rivojlanib borayotgan asrda yashar ekanmiz, bir narsani anglab yetmog‘imiz lozim, ya’ni “Harakat passiv bo‘lgan joyda kuchli bilim ham foydasiz bo‘ladi. Faol bo‘lmagan bilim ipsiz kamonga o‘xshaydi.” [5]. Maxmud Az-Zamaxshariyning ushbu so‘zlarida agar biz harakatni susaytirsak, qancha bilim, malaka, ko‘nikmamiz bo‘lmasin befoyda. Sizda biror g‘oya bormi, siz uni imkon boricha tezroq amalga oshirishga harakat qiling toki sizning yaratmoqchi bo‘lgan barcha narsalaringiz keraksizlik ummoniga g‘arq bo‘lmasin. Keling, hayotimizdagi keraksizlikka qarshi innovatsion pedagogik kurashishni boshlaylik! Biz boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari, umuman, barcha pedagoglar davlatimizni bir ustunimiz. Agar biz o‘z ustimizda ishlasak, yangiliklarga intilsak, biz tarbiyalayotgan kelajagimiz yoshlari bizdanda kuchli, bizdanda aql va barkamollikda tengi yo‘q bo‘la oladi.

“Keraksizlik” metodi. Buning uchun 3 ta ustunli jadvalda dars jarayonida keraksiz deb hisoblangan 5 ta narsalar nomini yozamiz va ushbu narsalardan foydalangan holda keltirilgan keraksiz metod, deb hisoblayotgan metodlarimizni va narsalarni innovatsion yondashgan holda kerakli qilishga harakat qilamiz. Masalan, “Aqliy hujum” metodini olsak, bu metod uchun bir jadval yaratamiz:

	Keraksiz metod	**Keraksiz mahsulot**	**Keraksiz jihoz**
1	Aqliy hujum	Yelim idishlar	Doska
2		Bo‘sh ruchka	Shkaf
3		Qopqoqlar	Kitob jovoni
4		Mato parchalari	Kiyim ilgich
5		Turli xil barglar	Chiqindi chelak

Ushbu jadvalga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, biz “Aqliy hujum” metodidan dars jarayonlarida ko‘p foydalanamiz, biroq bu metod kichik yoshdagi bolajonlarimiz uchun biroz zerikarli hisoblanadi. Keraksiz mahsulotlar qatoridagi berilgan mahsulotlar yordamida ko‘rgazmali qurollar tayyorlab, aqliy hujumda foydalansak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu o‘rinda sizda savol tug‘ilishi mumkin, keraksiz jihozlar bizga nega kerak? Biz, aynan, bu jihozlardan yasalgan ko‘rgazmalarni joylash

uchun foydalanishni taklif qilamiz, dars jarayonida yaratilgan har bir ko‘rgazmali qurollar shkaflardan joy oladi, dars jarayonida doskaga yopishtirib qo‘yiladi. Biz hozir bu keraksizlik pedagogik dunyoimizning bir tarafini ko‘rib chiqdik va uni kerakli qilishga urinmoqdamiz.

Aslida, bugungi ta’lim jarayonimizda bizga eng kerakli narsa bu biroz erkinlik va biroz tartib hisoblanadi. Bolalarning fikrlash dunyosi hamda ulardagi g‘oyalar zanjiri qachon rivojlanadi, qachonki ularga erkinlik berilsa! Viktor Gyugoning ajoyib bir fikrlarini shu o‘rinda keltirib o‘tmoqchimiz: “Sivilizatsiya nima? Bu ilg‘or inson ongi tomonidan har qadamda qilingan doimiy kashfiyotlar; demak, taraqqiyot so‘zining o‘zi.” [6]. Insonlar yangilik yaratishlari va qaysi sohada bo‘lmasin rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoitga muhtoj bo‘ladilar. Agarda biz o‘zimizdagi bor keraksizliklarni yangilab turmasak, rivojlanayotgan bu davrning qoloq bir zanjiriga aylanamiz!

Keraksizlikka qarshi innovatsion pedagogik kurash o‘zi nima? Bu butun ta’lim sohasidagi eski qarashlarni yangilashga qarshi kurashdir. Bu jarayonda yaxshi natijaga erishish uchun eng avvalo, har bir pedagog o‘z yo‘nalishi bo‘yicha qaysidir mavzularni tushuntirishda noodatiy usullardan yoxud yangicha metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarning dunyoqarashini oshirish uchun hozirda ko‘p qo‘llanilayotgan keraksizlikka qarshi metodlardan biri mavjud. Ushbu metodda siz biron bir mahsulot nomini aytasiz, misol uchun “skripka” qog‘oz qistirishda foydalaniladigan ushbu narsadan yana qanday maqsadda foydalanish mumkinligini so‘raymiz. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘zining fikrlash qobiliyatidan kelib chiqib, bir yo‘nalishda foydalansa bo‘ladigan mahsulotni turli xil vaziyatlarda foydalanish ham mumkinligini kashf qilishadi. Bu kichik bir tajriba metodi orqali siz o‘quvchida biror hayotiy jarayonlarda baxtsiz hodisalarni yoxud boshqa bir hodisalarga tezkor yechim topa olish qobiliyatini rivojlantira olasiz.

So‘zimiz so‘ngida bir narsani ta’kidlab o‘tmoqchimiz, agar biz pedagoglar harakat qilmasak, yangiliklarga intilmasak, 45 daqiqaning egasi bo‘la olmasak, vatanimiz taraqqiyotini orqaga tortishga asosiy sababchilardan bo‘lib qolamiz. Buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur bobomiz shunday deydi: “Biron ishni qilishga qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib, bitirmagunimcha undan qo‘limni tortmadim” [4].

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasida ishlovchi har bir muallim eng birinchi navbatda, o‘z ishini sevishi va uni chin dildan bajarmog‘i shart va zarur. Unutmang, siz kimlarningdir kelajagini gullatishingiz yoki kimlarningdir kelajagini vayron qilishingiz mumkin. Shifokor yaxshi bo‘lmasa, 1 yoki 10 bemorga ziyon yetkazishi mumkin; haydovchi yaxshi bo‘lmasa, 5-6 kishi umriga zomin bo‘lishi mumkin; biroq agar o‘qituvchi yaxshi bo‘lmasa, minglab insonlar umriga zomin bo‘lishi mumkin. Biz ishonamiz kelajagi buyuk yurt pedagoglari yaqin yillar mobaynida davlatimizni yuksaklarga ko‘tarishga bor kuchi va bilimi hamda intilishlari bilan erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. www.Ziyonet.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son qarori. www.Lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-sentyabrdagi 721-sonli “Innovatsion faoliyatni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. www.Lex.uz

4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: Nashriyot matbaa birlashmasi, 1991. 144 b.

5. Maxmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. [U.Uvatov tarjimasi.] – T.: “Kamalak”, 1992.

6. Viktor Gyugo. Klod Gyo. O‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida. Shohona ishrat. Hikmatlar. Toshkent. 2014.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING AHAMIYATI

Pardaev Bekmurat
TDPU Boshlang‘ich ta’limda ona tili va
uni o‘qitish meodikasi kafedrasi.

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilar ijtimoiylashuvi muammosining dolzarbligi, uning pedagogik jarayondagi o‘rni, ijtimoiy-pedagogik ahamiyati xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni evolyutsiyasi tarixi, unga ta’sir etuvchi omillar, ijtimoiylashuv agentlari, bosqichlari xususida tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so’zlar: Ijtimoiylashuv, agent, ijtimoiylashuv omili, ijtimoiy hamkorlik, qayta ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv qurboni, ijtimoiy ong, ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta’sir.

Shaxs ijtimoiylashuvi muqarrar va murakkab hayotiy jarayondir. Insonning shaxs sifatida shakllanishi sifati va uning imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi ijtimoiylashuv jarayonining samarali borishiga bog‘liq. Talabalarni ijtimoiylashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish shaxs, oila, davlat va jamiyat rivojlanishining muhim shartidir. Ijtimoiylashuv atamasining mohiyatini tushunishga qaratilgan manbalarni tahlil qilish bizga quyidagilarni aniqlash imkonini berdi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ijtimoiylashuv so‘zi “ijtimoiy ohangga ega bo‘lmoq, umumlashtirmoq” ma’nosini bildiradi [11; 178].

Ensiklopediyada “Ijtimoiy moslashuvning samaradorligi ko‘p jihatdan inson o‘zining ijtimoiy munosabatlarini qanchalik chuqur anglashiga bog‘liq. Shaxsning xulq-atvori, faoliyati, xulq-atvori orqali atrof-muhitga kirishi moslashuv mukammalligini yaratadi. Shaxsning katta yoki kichik guruhlar muhitiga moslashishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi” [9; 235].

Xalqaro ta'lim atamalari lug‘atida: "Ijtimoiylashtirish - bu jamiyat va oilaga nisbatan shaxsning kutilgan axloqiy rollarini o‘zlashtirish jarayoni, shuningdek, boshqa odamlar bilan o‘zini qoniqtiradigan munosabatlarni rivojlantirish". “Ijtimoiylashuv - bu shaxsning, ayniqsa bolaning o‘zi mansub bo‘lgan guruh, jamiyat madaniyati,

me’yorlari, urf-odatlari va an'analarini tushunish va qabul qilishga moyilligini singdirish jarayoni, deb izohlanadi [11;75].

Insonni ijtimoiy mavjudot sifatida ko‘rish g‘oyasi qadimgi davrlarga, Konfutsiy, Platon va Aristotel davriga borib taqaladi. Platon “Davlat” asarida bolalarni yoshligidan ijtimoiy tarbiyalash g‘oyasini ilgari suradi va uni tashkil etishning ma’lum bir tizimini taklif qiladi: “Farzandlaringizning bilim va adablarini o‘z bilim va adabingiz bilan cheklamang, ularni kelajak zamon uchun tayyorlang, ular sizning davringizga tegishli emas, ular kelajak odamlaridir”, degan hikmatlari ota-onalar va o‘qituvchilar uchun hamon qimmatlidir [8; 112].

XX asrning 90-yillarida I.Kon va A.Mudriklarning tadqiqotlari tufayli ijtimoiylashuv atamasi pedagogikada o‘zining munosib o‘rnini topdi va murakkab pedagogik hodisa sifatida butun dunyo tadqiqotchilari ijtimoiylashuv jarayonini pedagogikaning oddiy tushunchasi sifatida emas, balki uning muhim kategoriyasi sifatida tadqiq qilinq boshlandi. Turli lug‘atlarda kategoriya narsa va tushunchalarning eng umumiy xususiyatini ifodalovchi falsafiy tushuncha sifatida talqin qilinadi.

N.Egamberdiyevaning “Ijtimoiy pedagogika” darsligida ta’lim, tarbiya, o‘qitish va ijtimoiylashtirish tushunchalari asosiy pedagogik tushunchalar sifatida berilgan. Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiylashuv dinamik jarayon (Aflotun), uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni beqiyos (Aristotel), kamolotning yuqori darajasiga erishish zarurati (Forobiy), ijtimoiy hayotga inson materialini tayyorlash faoliyati (F.Giddings), jamiyatning madaniy taraqqiyotini muvozanatda ushlab turuvchi markaziy yadro, pedagogikaning muhim kategoriyasi (N.Egamberdieva), jamiyatga kirib borish jarayoni (L.Kolberg), yashash va yashash imkonini beruvchi malakalar tizimini egallash. jamiyatning to‘la huquqli a'zosi sifatida ishlash (I. Kon), nafaqat bilim olish, me'yorlar va qadriyatlar tizimini o‘zlashtirish, balki ularni faol ravishda oshirish va boyitish (A. Mudrik), o‘quvchini jamiyatga integratsiya qilish jarayoni. hayot (Q.Ibrohimov, Sh.Abdullaeva), kishilar uchun zamon sinovidan o‘tgan, murakkab va muqarrar jarayon bo‘lib, ma’naviy dunyoni o‘zida mujassamlashtirgan va yillar davomida baholanadigan ma’naviy-ma’naviy xulq-atvor va hodisalarning modellarini o‘zlashtirishga qaratilgan (O. Musurmonova).

Biz yuqorida qayd etilgan olimlarning fikriga qo‘shilamiz va ular asosida ijtimoiylashuvga o‘z ta’rifimizni quyidagicha berdik: Ijtimoiylashtirish - bu shaxs mansub bo`lgan ijtimoiy muhitdagi mavjud tartiblar, me’yorlar, munosabatlar, xatti-harakatlardir. misollar, odob-axloq, ilg‘or bilim va g‘oyalar, qadriyatlar tizimi, xulq-atvor madaniyatini o‘rganish asosida ushbu jamiyatning to‘la huquqli a’zosi bo‘lish va uni faol oshirish va boyitish jarayoni.

I.Shcheglovning fikricha, ijtimoiylashuv mahalliy ijtimoiylashuv agentlarining intellektual darajasi bilan bevosita belgilanadi, bu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, birinchi navbatda, shaxs va bundan tashqari, butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi; . Ma'lumki, ijtimoiylashuv agentlari shaxsning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiylashtirish agentlari - bu har bir shaxsni ijtimoiy rollarga tayyorlash uchun mas'ul bo‘lgan odamlar guruhi. Ijtimoiylashuv agentlari shaxsga ijtimoiylashuv vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi. Ular odatda ikkita toifaga bo‘linadi: asosiy va ikkilamchi agentlar. Birlamchi ijtimoiylashuv - bu shaxslararo

munosabatlar sohasi, ikkilamchi ijtimoiylashuv - bu ijtimoiy munosabatlar sohasi. Shaxs ijtimoiylashuvning asosiy yoki ikkilamchi agenti bo‘lishi mumkin. Har bir ijtimoiy guruh insonga faqat ijtimoiylashuv jarayonida o‘rgangan narsalarni berishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, o‘quvchi kattalardan, bola bo‘lishni esa tengdoshlaridan o‘rganadi: qanday kurashishni, qarama-qarshi jins bilan o‘zini qanday tutishni, do‘stlashishni va adolatli bo‘lishni o‘rganadi.

Tengdoshlarning kichik guruhi eng muhim ijtimoiy funktsiyani bajaradi - bu o‘quvchining qaramlikdan mustaqillikka, bolalikdan kattalikka o‘tishini osonlashtiradi. Birlamchi agentlar bir-birining vazifalarini almashtirish yoki to‘ldirish qobiliyatiga ega bo‘lsa, ikkilamchi agentlarda bu imkoniyat yo‘q. Ushbu agentlarning birinchisi universal, ikkinchisi esa ixtisoslashgan. Masalan, ota-onalar va tengdoshlarning rollari almashinadi. Ikkinchisi ko‘pincha birinchisining o‘rnini bosadi, ular turli ijtimoiylashuv vazifalarini bajaradilar. Ba’zida qarindoshlar ota-onalarning ijtimoiy mas’uliyatini o‘z zimmalariga olishlari kuzatiladi. Ammo ikkilamchi agentlar haqida ham shunday deyish mumkin emas, chunki ular tor sohaga ixtisoslashgan: ular shifokor yoki o‘qituvchi bo‘lolmaydi. Va birlamchi ijtimoiylashuv agentlari universaldir. Ushbu ijtimoiylashuv agentlarining yana bir farqi shundaki, ikkilamchi ijtimoiylashuv agentlariga o‘z roli uchun haq to‘lanadi, birlamchi ijtimoiylashuv agentlariga esa ularning vazifalari uchun haq to‘lanmaydi.

Shaxsni shakllantirishda ijtimoiylashuv agentlarining rolini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ota-onalar, o‘qituvchilar va ularning o‘rnini bosuvchi boshlang‘ich agentlar o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish masalasiga jiddiy qarashlari va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashlari kerak. Jamiyat murakkab organizmga o‘xshaydi, chunki o‘z hayot aylanishini tugatgan hujayralar yangilari bilan almashtiriladi, ota-onalar va boshqa kattalar jamiyatda yangi avlodlar bilan almashtiriladi.

Yoshlar jamiyatning to‘la mustaqil va faol a’zosi bo‘lib yetishlari uchun ma’lum ijtimoiylashuv bosqichlaridan o‘tish zarur. Ijtimoiylashuv jarayonining har bir bosqichi ma'lum ijtimoiy rollarning rivojlanishi va yangi maqomga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Birlamchi ijtimoiylashuv davrida ma'lumotni assimilyatsiya qilish qobiliyati o‘quvchining biologik intellektiga, reaktsiya tezligiga, diqqat va xotirasiga bog‘liq. Biroq, ular ulg‘aygan sari biologik instinktlarning roli pasayadi va ijtimoiy omillarning roli, aksincha, o‘sib boradi, ularni bilim, ko‘nikma va ularning faoliyati bilan bog‘liq madaniy qadriyatlar bilan qurollantiradi. Bu bosqich insonning ijtimoiylashuvsining asosiy davri hisoblanadi, bu davrda inson shaxsiy fazilatlarining 70 foizini oladi. Aynan shu davrda talaba o‘z Egosini rivojlantiradi, bu bosqichda ijtimoiylashuv jarayonini e’tiborsiz qoldirish tuzatib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib keladi; Bundan tashqari, ijtimoiylashuv birlamchi va ikkilamchi bosqichlarga bo‘linadi. Birlamchi ijtimoiylashuv tug‘ilishdan to voyaga yetgunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ikkilamchi ijtimoiylashuv insonning asosiy ta'lim olgandan keyin butun hayoti davomida davom etadi va ilgari o‘rganilgan me'yorlar va qadriyatlarning buzilishi bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiylashtirish - bu ijtimoiylashuv jarayoni va natijasi va sanab o‘tilgan omillar, rollar, kutishlar va sanktsiyalar. Agar birinchi navbatda ijtimoiylashuv bilan bog‘liq ta'sir choralari pedagoglardan kelib chiqsa, ular o‘zlarining mavqeini yaxshilashni, o‘z

qobiliyatlari va ehtiyojlarini amalga oshirishni xohlaydigan sotsializatorlarda namoyon bo‘ladilar. Ijtimoiylashuvning turli bosqichlarida sabab va tashqi omillarning nisbati bir-biridan farq qiladi va har bir shaxs uchun o‘ziga xosdir. Iqtidorli, ijodiy odamlar uchun aql tashqi sharoitlardan ustun turadi, lekin o‘qituvchi o‘quv vaziyatini, o‘quvchilarni motivatsiya va jazolash mexanizmlarini nazorat qiladi. Ijtimoiylashuvning muhim muammolaridan biri turli omillar, ijtimoiylashuv tizimlari (oila, ko‘cha, maktab, mahalla, masjid, qamoqxona) tomonidan tavsiya etilgan turli xil madaniy qadriyatlarning muvofiqligida namoyon bo‘ladi. Uni bartaraf etish uchun yuqoridagi ijtimoiylashuv mexanizmlaridan foydalaniladi. Bu odamlarning turli rollari va maqomlarining natijasidir: bola, dam oluvchi, talaba, mahkum. Shuning uchun ham ijtimoiylashuv turli an'analar, me'yorlar, qadriyatlar, ideallar va boshqalarning o‘zaro murosasi bilan tavsiflanadi va aynan shu holatda shaxsning xarakteri va ruhiyati barqaror bo‘ladi. Ushbu turdagi murosaga odamning boshqa odamlar bilan kelishib olishi tushuniladi. Ijtimoiylashuv bosqichlarini kuzatishlar mamlakatimiz pedagogika va psixologiyasi bilimlarida o‘z ifodasini topadi.

R.Mavlyanova ijtimoiylashuv bosqichlarini dastlabki ikki yil, maktabga borish, o‘smirlik, yoshlik kabi davrlarga ajratadi [6; 152]. B.Pardayevning fikricha, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida ikki bosqich mavjud: ijtimoiy moslashuv – shaxsning uning hayoti uchun muhit bo‘lib xizmat qiluvchi ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishi va ichkilashtirish – inklyuziyani anglatuvchi ancha murakkab jarayon. ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar va insonning ichki dunyosi. Bundan tashqari, har safar yangi ijtimoiy muhitda odam nimanidir o‘rganishi kerak va aksincha, yana nimanidir o‘rganishi kerak. Butun ijtimoiylashuv jarayoni ikki bosqichni o‘z ichiga oladi: deijtimoiylashuv - eski qadriyatlar, me'yorlar, rollar va xatti-harakatlar va nazorat qoidalari, eng muhim bosqich - resosializatsiya, ya'ni. Men uchun yangi qadriyatlar va rollarni o‘rganish asosan shartli yoki yangi vaziyatga mos kelmaydi [9.74]. Ijtimoiylashuv bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishi bilan shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir kuchayishi kutilmoqda. Agar mehnatga qadar bolalik va o‘smirlik davri passiv ijtimoiylashuv bosqichi deb hisoblansa, kamolot davri mehnat bosqichida boshlang‘ich kasbiy faoliyatni o‘zlashtirishning faol shakliga aylanadi. A.Petrovskiy ijtimoiylashuvni moslashish, individuallashtirish va integratsiya bosqichlariga ajratadi [8.112].

Turli xalqlarning ijtimoiy amaliyoti xilma-xil bo‘lsa-da, barcha tarixiy sharoitlarga xos bo‘lgan ikki bosqichli tipik jihatni aniqlash mumkin. Birinchisi, mustaqil iqtisodiy agent rolini o‘zlashtirish, ikkinchisi - o‘z oilasini qurish. Bu insonning biologik turning davom etishi jarayonida ishtirok etishini anglatadi. Odamlarning turmush darajasi insonning ijtimoiylashuv davri sifatiga ta'sir qiladi. Maqolada biz insonning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillarga ham to‘xtalamiz. Ijtimoiylashuv jarayoniga genetik-biologik va ijtimoiy omillar ta'sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy sharoitda sanab o‘tilgan omillar ta'sir doirasi tobora kengayib borayotgan ommaviy axborot vositalari va Internet kabi ijtimoiylashuv agentlariga yo‘l ochadi. Yoshlar internet tarmog‘i orqali kirib kelayotgan virtual olam oilada, tengdoshlar o‘rtasida real hayotda yuzaga keladigan ichki va tashqi ziddiyatlarni bartaraf etish, o‘z kayfiyati, qarashlari, hayotiy pozitsiyalari, his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ularini ifoda etish uchun harakat erkinligini ta’minlaydi. qaramlik holatlari. Shuningdek, global tarmoqda

zo‘ravonlikni targ‘ib qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ularning ta’siri ostida o‘quvchilar va yoshlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos bo‘lmagan axloqsiz va g‘ayriinsoniy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yadilar, shuning uchun bu masalaga ijtimoiylashuv agentlarining, ayniqsa, oila a’zolarining e’tiborini kuchaytirish zarur. . Shaxsiy ijtimoiylashuvda "qayta ijtimoiylashuv" va "teskari ijtimoiylashuv" tushunchalari mavjud. "Resocialization" atamasi birinchi marta amerikalik olimlar A.Kennedi va D.Kerber tomonidan qo‘llanilgan. M.Gevorkyan ijtimoiylashuvni jamiyatga va ijtimoiy muhitga "ikkinchi darajali" qaytish jarayonini ifodalash uchun shaxsning ijtimoiylashuvida muayyan vaziyatga duch kelgan, masalan, bolalar uyidan oilaga qabul qilingan yoki axloq tuzatish kolonnalariga tushib qolgan hollarda foydalangan. bugungi kunda u ijtimoiy muvaffaqiyatsizlik sharoitida inson xatti-harakatlarini ongli ravishda o‘zgartira oladigan tushuncha sifatida keng qo‘llaniladi [3; 207].
Amerikalik sotsiolog I.Goffman resosializatsiya belgilarini ajratib ko‘rsatadi: tashqi dunyodan ajralish, bir xil toifadagi odamlar bilan doimiy muloqot, eski ijtimoiy rollardan, odatlardan, qadriyatlardan voz kechish va yangilariga ko‘nikish [4;75]. A.Mudrikning ta'kidlashicha, inson hatto nosog‘lom ijtimoiylashuv va degradatsiya muhitining qurboni bo‘lishi mumkin [5.48].
Shunday qilib, ijtimoiylashuv muhim pedagogik kategoriya bo‘lib, unda o‘qituvchilar va ota-onalarning shaxs rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar, bosqichlar va omillarga alohida e’tibor qaratishlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining samarali ijtimoiylashuviga ta’sir qiladi. xavfsizlik. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijtimoiylashuviga e’tibor yoki e’tiborsizlik uning butun hayot yo‘lini belgilab berishini unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Щеглов И.А. Социализация личности как теоретическая проблема [Электронный ресурс] // Теория и практика общественного развития. 2014. № 3
2. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т.; Т.4. - М.: Педагогика, 1984. - с. 153.
3. Геворкян Э. В игре нет правил. М.: ООО «Издательство АСТ», 2001. С. 207.
4. Кривов Ю.И. Проблема социализации поколений и современная педагогика. Дисс... канд. пед. п., Москва, 1992. - с.75.
5. Мудрик А. В. Социализация человека: учеб. пособие. 3-е изд., исп. я доп. М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2020. С. 48.
6. Мавлонова Р., Рахмонкулова Н., Вохидова Н. к «Педагогика». Дарслик. Тошкент, 2010., 152-б.
8. Петровский А.В. - М.: Педагогика, 1990. - С.112.
9. Педагогическая энциклопедия. Наука.Т. 2001, стр. 235.
10. Пардаев Б.У. Компоненты и факторы социализации школьников // Вестник науки и образования № 9(87). Часть 3. 2020.
11. O‘zbek tili izohli lug‘ati. Государственное научное издательство «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi», 2006 г. 75,178 - бб.

YOSHLAR ILMIY DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHDA, SINCHKOVLIK TARBIYASINING O‘RNI

Qarshiboyeva Dilfuza
JDPU Umumy psixologiya
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib, Yoshlar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda, sinchkovlik tarbiyasining o‘rni masalalari o‘rgnilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy dunyoqarash, sinchkovlik, shaxs , pedagog, tafakkur, dunyoqarash, milliy-madaniyat,barkamol inson.

Odatda biron shaxs o‘rta yoki oliy ma’lumotga ega bo‘lsa, o‘zini ilmiy do‘nyoqarashim keng deb hisoblaydi.Ammo bu fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. To‘g‘ri inson hamma bilimlarni to‘laligicha egallay olmaydi.Lekin bir soha buyicha chuqur mutaxassis bo‘lishi va boshqa sohalardan ham ko‘pqirralilik tusho‘nchasiga ega bo‘lishi mumkinligini ham inkor etish qiyin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chikib, mutaxassislik bilimi va ilmiy dunyoqarash tushunchalarining mohiyatini yoritishga urinamiz. Mutaxassislik bilimlarini, shartli(majoziy) ma’noda insonning har biri alohida–alohida vazifani bajaradigan a’zolari (ko‘z ,quloq,bosh,burun ,oyoq va hakozo deb qarasak,ilmiy dunyoqarashni insonning tanasi deyish o‘rinli bo‘ladi. Shunga ko‘ra ilmiy dunyoqarashga dastlabki ta’rifni, «ilmiy dunyoqarash-insonning bitta vazifasini emas, balki jamiyatimizning ko‘pqirrali ishlarini bajarishga ko‘maklasha olishlarini belgilovchi bilimlilik darajasi» deb ifodalash mumkin.

Ishonchli tadqiqotlar natijasiga ko‘ra tor mutaxassislikka ega xatto chuqur bilimga ega bo‘lgan kishilar (ayniqsa ta’lim tizimida), uning o‘rnida bo‘lgan ilmiy dunyoqarashi keng mutaxassislarga nisbatan jamiyatga o‘rtacha uchdan ikki hissa kam foyda keltirar ekan (xuddi ko‘z faqat ko‘rgani). Buni davlat miqyosidagi masshtabga ko‘paytirilsa, uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchi yoshlar, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy do‘nyoqarashini rivojlantirish masalasi naqadar dolzarb muammo ekanligini tassavvur qilish qiyin emas. O‘quvchida, o‘anday bo‘lsa «energiya saqlanishi» umumjahon qonuni buzilmaydimi degan savol tug‘ilishi ta’biiy. Bunga quyidagicha javob aytish mumkin.

Dunyoqarash-shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma’naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko‘rsatuvchi kuchli motivlardandir.

Dunyoqarash-tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar majmui bo‘libu shaxsni ma’lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o‘rin egallashga chorlaydi.

Ilmiy dunyoqarash ta’rifi(formulasi)da, so‘z xususan shaxsning ichki imkoniyati(potensiali)ni uyg‘otib, bilishga chanqonlik. Muttasil «qiynash» holatiga o‘tqazishning psixologik va pedagogik jihatlarini ochib berish orqaligina, olgandan ko‘ra bera olishga erishish mumkinligi ko‘zda tutilmokda. Ana shu savolga javobning o‘zidayoq yoki biz ta’riflagan olgandan ko‘ra bera olish qonuni mohiyatini hech bir

ikkilanmasdan insoniyat evolyutsiyasining bitmas tuganmas oltin xazinasi deyish mumkin, aynan ana shoʻnday ilmiy dunyoqarashi keng ijodkor kishilar hisobigagina jamiyat har doim olgʻa harakatlanadi.

Bundan xulosa shuki, kishi oʻz mutaxassisligiga doir qanchalik chuqur bilim (ilm) ga ega boʻlishidan qat'iy nazar , ilmiy dunyoqarashi ham keng boʻlishi shart, shundagina u yetuk mutaxassis boʻla oladi. Buni yana oldin soʻz yuritgan inson tanasi va a'zolari bilan taqqoslab dalillash mumkin. Insonnig bekamu koʻst yashashi (nogiron boʻlib qolmasligi) uchun uning tanasidagi barcha a'zolari sogʻlom (toʻrt muchasi sogʻ) boʻlishi lozim, shundagina u toʻkis yashaydi, mehnati ham unumli boʻlganidek, uning ilmiy dunyoqarashi keng, koʻp qirralik bilimga ega boʻlishi ham xuddi shoʻnday jamiiyatga koʻp foyda keltiradi.

Yoshlar va boʻlajak mutaxassislarning umumta'limiy va kasbiy savodxonligini oshirish barobarida ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishni ta'minlash, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masala xisoblanadi.

Shaxs ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishning shakl, usul, uslub va metodologik asoslari keng oʻamrovli. Ammo shular ichidan yetakchi bosh mezonni ajratib olib, uning tarkibiy elementlarining uygʻunligini ta'minlamasdan ushbu muammoni yechishga kirishish bexuda urinish boʻlib kolaveradi. Xoʻsh, bosh mezonni qanday aniqlash mumkin? Bosh mezonni aniqlash uchun buyuk ajdodlarimizning hikmat durdonalarida keltirilgan aynan inson tanasi (biz simvol (ramz) qilib olgan) ga tegishli hikmatdan izlaymiz.

Ajdodlarimizning «bosh boshlaydi, oyoq tashlaydi» degan hikmati aynan biz izlayotgan bosh mezonni aniqlash imkonini beradi. Bundan koʻrinadiki ilmiy dunyoqarash (tana)da asosiy mezon tafakkur, ya'ni «bosh» bizni qayoqqa boshlasa, oʻsha tomonga «oyoq» tashlaymiz. Inson fe'l-atvoridan ma'lumki, kishi biron yoʻnalishda harakatlanishi uchun bosh qotirib, oʻz yoʻlini avvalo sinchikovlik bilan kuzatadi, ya'ni oldinda turgan toʻsiqlarni chamalaydi (kunduzi boʻlsa koʻzi, burni, qulogʻi orqali, qorongʻulikda boʻlsa qoʻli bilan paypaslab va xokazo) va shundan soʻng oyogʻini tashlaydi.

Bundan koʻrinadiki, ilmiy dunyoqarash (tana)ni boshqarishning bosh mezoni sinchikovlik hisoblanadi. Aynan ana shu sinchikovlik (yoki uning aksi boʻlishi loqaydlik)gina kishilarni buyuk kashfiyotlarga aylantirib kelgan. Fikrimizni dalillash uchun koʻz oldimizga «Nyutonning olmasi», «Arximedning vannasi» yoki «Nils Finzenning tilla qoʻngizi va mushigi»ni kelitirishning oʻziyoq yetarli. Jumladan, Nyutongacha ham qancha odamlar olmaning daraxtdan yerga tushishi, Arximedgacha vannadan unga tushganda suv toshib chiqishining guvohi boʻlishgan, lekin loqaydligi tufayli e'tibor berishmagan.

Bundan xulosa shuki, shaxs nafaqat ilmiy doʻnyoqarashini va xatto har qanday kaspiy bilimlarini shakllantirish, rivojlantirishda sinchikovlik tarbiyasining oʻrni beqiyos hisoblanadi. Sinchikovlik tarbiyasi pedagogik tadqiqotlarda deyarli kam oʻrganilganligini hisobga olib unga dastlabki ta'rifni keltirishga urinamiz. Uni taxminan «Yoshlarni ilm fan va tevarak-atrofdagi voqea, xodisa va narsalarning oʻzi uchun (va ba'zan fan uchun ham, noma'lum jihatlarini payqashi, ta'sirlanishi va ularga nisbatan nega shunday deya e'tiroz bildirishi ruhida tarbiyalash» deb ta'riflash

mumkin. Masalan, chirmoviq, pechaklar nega chapga buralib o‘sadi, sportchilar nega chapga aylanishadi, ayollar kiyimi tugmasi nega chap tomonda, arablarda nega chapga qarab yoziladi, onalar bolasini nega chap bag‘riga bosib ko‘taradi, chap ko‘l nega musiqaviy, nega chap quloq yaxshi eshitadi, miltiq otishda nega chap ko‘zni yumib nishonga olishadi va xokazo, bu ro‘yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Ko‘pincha lokaydligimiz tufayli, e’tibor bermay ko‘nikib yashayveramiz va ilmiy do‘nyoqarashimiz turlicha qolaveradi.

Yoki baxshilar nima uchun aynan doira chalib ta’sirqkiladi, nega chaqmoq va momoqaldiroq bo‘lganda qo‘ziqorinlar bir necha soatda o‘sib chiqadi kabi odatiy xollarning chuqur ilmiy asoslarini deyarli shu soha egalarining ham bilmasligini qanday izohlash mumkin. Biologiya o‘qituvchisining pechaklarning nega chapga buralib o‘sishi, tikuvchilik o‘qituvchisining ayollar tugmasi nega chapda bo‘lishi, avtomobil o‘qituvchisining rul nega chap tomonda joylashganligi sabablarinng ilmiy mohiyatini asoslab bera olmasiligi (tadqiqotlarimizga ko‘ra) ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosining jiddiyligini qayta-qayta takrorlashga asos bo‘ladi.

Sinchikovlik tarbiyasi orqali o‘quvchi, talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning psixologik, pedagogik va tashkiliy jihatlari, ilmiy do‘nyoqarashni aniqlash mezonlari va testlari, uni takomillashtirishning dinamikasi grafik sxemalari haqida batafsil so‘z yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. V.Karimova “Psixologiya” . Toshkent 2000 y

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA DARSINING INTERFAOL METODLARI

Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi
Jizzax Davlat pedagogika universiteti,
Pedagogika-psixologiya va musiqa yo‘nalishlarida
masofaviy ta‘lim kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshang‘ich sinflarda musiqa madaniyati fanining umumdidaktik tamoyillari haqida shuningdek,musiqa fanining ta‘lim tarbiyadagi ahamiyati va o‘rni to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf,didaktika, tamoyillar, san‘at, obraz, psixologiya, sistemalilik ilmiylik,ko‘zgazmalilik,estetik zavq.

San‘at mazmuni – hayot, atrofimizdagi voqelik, insonning o‘zi va uning ichki dunyosi, o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ularidir. San‘at inson faoliyatining boshqa turlaridan farqli ravishda badiiy obrazlar yaratish orqali voqelikni o‘zlashtiradi. U kishining hissiyoti va ongiga bevosita ta‘sir qiluvchi shaklda olamni go‘yoki yangidan yaratadi. Lekin san‘atkor hayotni, hodisani, narsalarni nusxa qilib ko‘chirmaydi. U biror obrazga xos bo‘lgan eng umumiy, tipik xususiyatlarni saralab olib, ularning hammasini anglab tushunib, obraz qiyofasini o‘zgartiradi, so‘ng uni rasm, she‘r, musiqa asari shaklida gavdalantiradi. Albatta, har qanday san‘atkorning asari muallifning shaxs hissiyotini o‘z ichida saqlab qoladi. Chunki tashqi dunyoning obyektiv materiali san‘atkorning

ongida alohida qayta ishlab chiqilib, original, o‘ziga xos ijod bo‘lib qayta vujudga keladi. biroq, shu bilan birga har bir ijodiy asar jamoat ongining mahsuloti deb ham hisoblanadi. Negaki, u muayyan bir ijtimoiy psixologiya, mamlakat, tarixiy hodisa bilan bog‘liq bo‘ladi. badiiy ijodiyotning ijtimoiy tomoni shunda namoyon bo‘ladiki, inson o‘z zamondoshlari hamda xalqi o‘tmishi va odamzod bilan aloqadorligini badiiy obrazlar orqali his etadi. Haqiqiy san‘at abadiy badiiy qadriyatlar ijod qilar ekan, xuddi avlodlarning uzluksiz bog‘liqligini amalga oshiradi. Musiqa hamisha musiqiy obrazlar orqali ochib beriladigan u yoki bu mazmunga ega bo‘ladi. bular tabiat manzaralari, ijtimoiy hayotdagi hodisa va vaziyatlar, insonning ichki ma’naviy olami. Musiqa kishining hissiyotlari, kayfiyatlarini ifodalashga qodir. Shu bilan birga uning tabiat manzaralarini tasvirlash, harakat obrazlarini gavdalantirish, hayotning samimiy ovozlari (qushlarning sayrashi, momaqaldiroqning guldirashi)ga taqlid qilishga ham layoqati bor. Biror-bir musiqa asarining mazmunini «o‘qiy olish», uni tushunib yetish, hamda qanday tuzilganligini «ko‘rish» uchun avvalo musiqa tilini bilish, musiqiy fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Musiqa madaniyati darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va printsiplari asosida tuziladi. Mazkur printsiplar o‘qituvchi hamda o‘quvchi tomonidan bajariladigan barcha ta‘lim asoslari -dars mazmunini metodlari va darslaming tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo‘nalishlarini belgilab beradi. Musiqa madaniyati darslarining didaktik printsiplari besh turdan iborat:

• 1. Musiqa ta‘limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomiylik printsipi.

• 2. Darsda o‘quvchilaming onglilik va aktivlik printsipi.

• 3. Musiqa madaniyati darslarida ko‘rgazmalilik printsipi.

• 4. O‘quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi printsipi.

• 5. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustaxkamligi printsipi

Ma’lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o‘zlashtirish va undan badiiy - estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat e‘tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg‘ota bilish, onglilik va aktivlikni vujudga keltiradi. Musiqani ongli idrok etish va navbatida badiiy ohang va mantiqiy jixatdan xotirada turg‘un saqlanishni talab etadi. Musiqa darslarida onglilik va aktivlik ayniqsa, vokal - xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo‘lib qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, faoliyatlarida ham, onglilik va aktivlik musiqani nazariy va amaliy jixatlarini to‘g‘ri bilish va o‘zlashtirishni osonlashtiradi[1].Musiqa tarbiyasida musiqaning o‘zi o‘ziga ko‘rgazmali vositadir. Chunki, u ko‘z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi.

Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko‘rgazma sifatida ijro etib ko‘rsatiladi. O‘qituvchining o‘zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko‘rgazma bo‘lib xizmat qiladi[2].Bundan tashqari, texnik vositalar, ko‘rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham, musiqa darsida ko‘rgazma sifatida muhim rol o‘ynaydi Boshlang‘ich sinflarda musiqa ta‘limi berish harakatlari, asosan, musiqa asarlarini tinglash, xor bo‘lib qo‘shiq kuylash, cholg‘u asboblar ijrosiga jo‘r bo‘lish, asarlarni nazariy tahlil qilish, ritmik tuzulmalarini chapakda yoki turli raqs harakatlarida ifodalab berish texnologiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ta‘lim mazmunida esa o‘quvchilarning musiqiy bilim va malakalarini o‘stirib borish bilan bir

qatorda, ularda badiiy va musiqiy did, mustahkam xotira, tasavvurchanlik, mustaqillik hamda tashabbuskorlik kabi xislatlarni rivojlantirib borishga yo‘naltirilgan omillar ham o‘z ifodasini topganligi bilan tavsiflanadi[3].Bunday xususiyat va jihatlarga xos musiqiy ta‘limni samarali amalga oshirish, tabiiyki, ancha murakkab kechadi va o‘qituvchidan o‘ziga xos bilim, malaka va mahoratni talab etadi. Shu o‘rinda, o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi nimadan iborat degan haqli savol tug‘iladi. O‘qituvchi dars loyihasini ishlab chiqar ekan, birinchi navbatda, sinf ahli yoki maxsus tanlab olingan o‘quvchilar guruhining alohida-alohida ish turlari yoki yakka tartibdagi topshiriqlar bilan band qilish vazifalarini belgilab olishi kerak. Bu xildagi ta‘limning afzalligi shundan iborat bo‘ladiki, u o‘quvchilarda o‘quv materiallarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirib borish uchun individual faoliyat yuritish orqali erishish mumkinligini anglatadi va shu xilda ta‘lim olish usullariga ularni odatlantirib boradi. O‘qituvchi o‘quv materiallariga tegishli didaktik vositalarni, jumladan, o‘quvchilar individual ravishda tinglaydigan, kuylaydigan va raqs harakatlarida ifodalaydigan musiqa asarlarini o‘ziga xos mazmun-mohiyati va xususiyatlariga ko‘ra ko‘nikma va malaka egallash uchun zarur bo‘lgan musiqiy-nazariy o‘quv materiali tarzida bersa yoxud ularni mazmunan yanada boyitish maqsadida butun sinf jamoasining hamkorligi va birgalikda o‘rganishi uchun moslashtirib bersa bir qator ijobiy natijalarga erishishi mumkin[4]. Masalaga shu nuqta nazardan yondashib aytadigan bo‘lsak, musiqa ta‘limi mazmunida o‘zaro integrastiyalashgan o‘quv materiallari (masalan, musiqiy-badiiy tuzulma, ijro tavsifiga ko‘ra bir-biriga yaqin bo‘lgan musiqa asarlari)ga tegishli vazifalarni hal qilishni nazarda tutib didaktik vositalarni qo‘llash kerak. Bunday vaziyatda o‘quvchilarlarning musiqa sohasida nazariy va amaliy darajaga ega bo‘lgan imkoniyatlaridan kelib chiqib darslarda tinglanadigan musiqa asarlari, kuylash uchun mo‘ljallangan qo‘shiqlar, ritmik tuzulmalarni chapakda ifodalash mumkin bo‘lgan kuylar, cholg‘u asboblariga jo‘r bo‘lish, shuningdek, musiqiy savodxonlikka o‘rgatuvchi o‘quv materiallari yoki turli tadbirlar uchun tanlanadigan musiqa asarlari mazmunan uyg‘unlashtirilib o‘tilsa o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi yanada oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qizi Qarshiboyeva, M. K. (2024). MAQOM SAN’ATI VA UNING MAKTAB DARSLIKLARIDA O ‘QITILISHINING MAQSAD MAZMUNI. Innovative Development in Educational Activities, 3(3), 32-35.

2. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA TA’LIMI MAZMUNINI INTEGRASTIYALASHNING BA’ZI MASALALARI D.Yu. Ro`ziyev, buxdu dostenti

3. Суннатова, С. И. Қ., & Халилов, Ф. Н. (2022). Детский хор. Методы и приёмы организации и управления детскими хорами. Science and Education, 3(5), 1477-1483.

4. Qobilova N. OQUVCHILARDA IRODA RIVOJLANISHINING OZBEKISTON OLIMLARI TOMONIDAN TADQIQ ETILGANLIK HOLATI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2023. – №. I.

O‘QUVCHILARINING AQLIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TATBIG’I

Qodirova Xalimaxon Nurmuxammad qizi
TDSHU o‘qituvchisi PhD.
Mo‘minova Nilufar Murod qizi,
Inoyatova Guzal Ilhomovna
TDSHU Filologiya va tillarni o‘qitish (fors-ingliz)
yo‘nalishi kechki ta’lim 3-bosqich talabalari

O‘qituvchining o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoit va izchillikda ta’sir ko‘rsatish hamda mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni (N.Saidahmedov).

Yuqorida keltirilgan ayrim ta’riflarning o‘zaro har xilligidan ko‘rinadiki, pedagogik texnologiya tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazalardan yondashish mumkin.

Pedagogik texnologiya-axborotlarni o‘zlashtirish, ulardan amalda foydalanish ulardagi yangi ma’no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog‘liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o‘rgatish jarayonidan iborat. [1]

Pedagogik texnologiya-ta’lim metodlari, usullari, yo‘llari hamda tarbiyaviy vositalar yig‘indisi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.[2]

Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan ona tili va o‘qish savodxonligi, matematika, tarbiya, tabiiy fanlar darslari o‘z mohiyati , maqsad va vazifalariga ko‘rat a’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim darslariga o‘quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e’tibor berish lozim. Chunki, bolalar boshlang‘ich sinflardanoq “dars” degan muqaddas so‘zdan bezib qolmasliklari kerak. Bugungi kunda o‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan , darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o‘qituvchilar turli didaktik o‘yinlardan foydalanmqda. Interfaol metod, pedagogik texnologiyalar- ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati ta’sir ostida bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usul va texnologiyalarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari-norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish , seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarni tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Pedagogik texnologiyalardagi interfaollik , ta’sirchanlik o‘quvchi va o‘qituvchi , o‘quvchi-o‘quvchi suhbatlarida sodir bo‘ladi. Interfaol usullar, pedagogik texnologiyalarning bosh maqsadi- o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan

fikr-mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi. Natijada bosqichma-bosqich ularning aqliy tafakkurlari hamrivojlanib boradi. Pedagogik texnologiyalar, interaktiv ta’limdan foydalanishda axborot kommunikatsion texnologiyalar ham bizga yaqindan yordam beradi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o‘z navbatida kompyuter darslari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media-ta’lim metodlaridan iborat. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yin-texnologiyalar orqali suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Agar o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida, u yuqori sifat va samaradorlikni ta’minlagan bo‘lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirilgan ta’lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta’lim jarayonlarini pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz: Interfaol texnologiyalar o‘quvchi faoliyatini faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy va aqliy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o‘yin-texnologiyalardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, aqliy ko‘nikmalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Interfaol , pedagogik texnologiyalar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish , xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Bularning barchasi o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy , aqliy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarining tarbiya darslari o‘z mohiyati , maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zamirida axloqiy tarbiya asoslari yotadi. [7]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aqli tafakkurni rivojlantirib borish mobaynida bolalarga mustaqil holda bajarishi uchun topshiriqlar, vazifalar berib borish ularni mustaqil fikrlashga undash bilan bir qatorda, muammoli vaziyatlardan qanday qilib chiqib ketish ko‘nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Maktab ta’lim tizimida mustaqil ta’lim tizimini olib borishning o‘zi o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi. , faol bilishga undaydi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘quv topshiriqlari, tarbiyaviy topshiriqlar, tashkiliy vazifalar va rivojlantiruvchi vazifalarga yo‘naltiriladi. O‘quv topshiriqlari yuzasidan izlanish, tayyorgarlik, taqdimot ko‘nikmalarini shakllantirish, muloqotga kirishish, ma’lumotlarga qiziqish, fanlarni chuqur o‘zlashtirishga erishilsa, tarbiyaviy topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda tolerantlik, kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy mushohada, o‘zgalarni tinglay olish, erkin muloqotga kirishishni ta’minlaydigan shaxsiy jihatlarni shakllantiramiz. O‘quvchilarga tashkiliy, rivojlantiruvchi vazifalarni yuklash bilan esa ularda

yetakchilik, liderlik xususiyatini shakllantirib, tashkilotchilik qobiliyati, guruh, jamoa bilan ishlash faoliyatini boshqara olish malakalarini tarbiyalab, rivojlantiramiz. [3]

O‘quv vazifalarni muammoli topshiriq, muammoli mavzu shaklida qo‘yish o‘quvchilarning tafakkurlarini uyg‘otishimizga sababchi bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi qanday hajm va murakkablikdagi mustaqil bajariladigan vazifani o‘quvchiga berish va bu topshiriq yuzasidan muammoni tanlash imkoniyatiga ega. Topshiriq va vazifalar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda variativlik va tabaqalashtirilgan holda , osondan murakkabga qarab amalga oshiriladi va nazorat qilib boriladi. Bu yondashuvning kuchli jihati shundaki, jarayon mbaynida o‘zaro ishonch muhiti yuzaga keladi. Bolalarda o‘z kuchi va bilimiga bo‘lgan ishonch ortadi. O‘zini idora qilishning muayyan tizimi shakllanadi.O‘qituvchining ishonchini oqlashga bo‘lgan qo‘rquv hisobiga ham ularda mas’uliyat hissi rivojlanadi. Jarayonda o‘qituvchining qunt bilan o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilishi esa faoliyatni yanada mazmunli va to‘laqonli amalga oshishiga xizmat qiladi. O‘quvchilarning mas’uliyati va qiziqishini oshiradi va albatta bu tafakkurimizning rivojlanishining aniq bosqichlaridan biri bo‘ladi deb ayta olamiz.

O‘yinli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtinivchi faoliyati tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘mini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.[4]

O‘yin ijtimoiy tajribalami o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. L.S.Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi. A.N.Leontev o‘yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog`liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi. O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalami bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:

- ✓ maftunkorlik ;
- ✓ kommunikativlik ;
- ✓ o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- ✓ davolovchilik ;
- ✓ tashxis;
- ✓ millatlararo muloqot;
- ✓ ijtimoiylashuv .

Tadqiqotchilar o‘yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhim qirralari S.V.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi foliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbir) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo‘llanadi.

Maktabda o‘qitiladigan har bir fan, asosan tarbiya fanining har bir mavzusi o‘quvchi ma’naviy qiyofasining boyishiga hissa qo‘shib boradi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalari bolalarga kuchli ma’naviy ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega.Tez aytish, maqollar, ertaklar tajribada sinalgan, minglab yillar davomida jamiyat a’zolarini eng yaxshi fazilatlar sohibiga aylantirgan tarbiya vositalari hisoblanadi.Tez aytish, maqollar, xalq ertaklari mazmun jihatidan boy, shakl jihatidan xilma-xildir.Ularning paydo bo‘lishi ham uzoq o‘tmishdan boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.Xalqning umumiy dahosi mahsuli bo‘lgan folklor materiallari aynan bir xalq, bir millat tomonidan yaratilsa ham, umuminsoniy qiymati kuchli hisoblanadi.

Ta’lim maqsadlari o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirib olishga emas, aksincha, bola bilimni qidirib, topishiga erishish, o‘z xulosasini chiqara olishga o‘rgatish, tanqidiy munosabat bildira olishiga erishish bugungi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalari, pedagogik texnologiyalardan foydalanishning bosh maqsadiga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda darsning noan’anaviy tarzda tashkil qilinishi o‘qituvchi va o‘quvchining samimiy munosabati, kichik guruh a’zolarining faolligi, jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish, bolada guruh ishtirokchisi sifatida tashabbuskorlik, aniq maqsadga intilish, ijodkorlik, o‘z fikrini bayon qilish madaniyati, bunyodkorlik sifatlarini shakllantiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbir to‘g‘risida”gi PQ-4307-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarorlari hamda davlat va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa bir qator me’yoriy hujjatlar asosida umumta’lim maktablarida axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishni yanada kengaytirishga oid vazifalar belgilab berilgan.

Pedagogik texnologiyaning tarkibi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, axborotlarni avloddan-avlodga uzatish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish va o‘zlashtirilishiga erishish , turli metodikalarni qo‘llash va takomillashtirishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik texnologiyalar insonparvarlik, demokratik, do‘stona muhit, o‘zaro hurmat, hamkorlik va g‘amxo‘rlik, qo‘llab-quvvatlash tamoyiliga amal qiladi. Misol tariqasida, 1-sinf Tarbiya darsligida o‘quvchilarning tafakkurini boyitish, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish uchun turli xil pedagogik texnologiyalar keltirilgan: “FSMU” texnologiyasi, “Fikrlarning shiddatli hujumi”, “Yalpi fikriy hujum”, “Bumerang” texnologiyalari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Sh.M.Mirziyayev. Ta’lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan videoselektor ma’ruzasida. 30.10.2020
2. Sh.M.Mirziyayevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari.
3. Abdullaeva Q.A., Safarova R.G‘. va boshq. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. Boshlang‘ich ta’lim.1998. №6.12–18–b.
4. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fanidan ma’ruzalar matni.39-b

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Qo‘ng‘irotova Anorxol Inoyatovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Termiz filiali “Tibbiy biologiya va gistologiya”
kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Bu maqolada oliy pedagogika ta’lim muassasalarining bitiruvchilarida raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiini yuksaltirish maqsadida ularning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijodiy faoliyat yuritishi uchun xizmat qilishiga qaratilgan tarzda innovatsion faoliyat usullarining samaradorligini oshirishi lozimligi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shu bilan bir qatorda dars jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishni bilish komponentligini rivojlanishi, talabalarda hayotiy va kasbiy faoliyatni yuksaltirish etish uchun muhim ma’lumotlarni o‘zlashtirish, ularning maqsadli yo‘naltirishga erishish zaruriyati masalalari talqin qilingan.

Kalit so‘zlar. raqamli ta’lim texnologiyalari, innovatsion faoliyat, bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy tayyorgarlik, axborot-kommunikatsiya, hayotiy va kasbiy faoliyat, qobiliyat zaruriyat, natija.

Ta’limning rivojlanish yo‘nalishlaridan biri yangi davr – raqamli ta’lim hisoblanadi. Bugungi rivojlangan davrda har bir pedagogning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yangiliklardan qisqa muddatda xabardor bo‘lishini ta’minlash, ularning zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan unumli foydalanishga, yetarli axborot egasi bo‘lishga qaratilgan talab va ehtiyoj har doimgidan ko‘ra oshib bormoqda.

Darhaqiqat, jamiyatni raqamlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etib, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish har bir sohada eng muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda, hayotiy zaruratga aylanmoqda[1;]. Bu obyektiv va subyektiv jarayon bo‘lib, butun dunyo hamjamiyatiga xosdir.

Bugungi raqobatlashuv jarayonida ta’lim tizimiga yangiliklar kiritish maqsadida yondashuv, ilg‘or davlatlar tajribalari asosida dars jarayonini tashkil etish, fan-texnika va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning zamonaviy yangi usullarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, jamiyatni axborotlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etib, hayotiy zaruratga aylanmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini muvaffaqiyatli isloh qilish, ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta’lim mazmuniga ham izchil ravishda o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda, natijada zamonaviy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida asosiy ta’limiy maqsadlarning rivojlanishi, malakali mutaxassis sifatida shakllanish, kasbiy mahoratga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda[2;].

O‘zbekison Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi asosiy g‘oyalar har tomonlama kamol topgan jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va o‘zlashtirish, jamiyat, davlat va oila oldidagi o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni

ko‘zda tutadi[9;13]. Shuning uchun oliy va umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining o‘quv fanlari bo‘yicha davlat ta’lim standartlari asosida moslashtirilgan bilimlarni muntazam ravishda o‘zlashtirishlarini ta’minlashi, ularda bilim olishga bo‘lgan zaruriyat, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli ta’lim muhitida kasbiy-metodik jihatdan tayyorlash borasida o‘quvchi yoshlarni vatanga sadoqatli, yuksak axloqli, ma’naviyatli, ma’rifatli etib tarbiyalash, mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lishni tarkib toptirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda ularda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, ona vatanni va tabiatni sevishga o‘rgatish, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish kabi vazifalar belgilab berilgan[3;89].

Uzluksiz ta’lim tizimi oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan har bir o‘quv faniga, shu jumladan, biologiya fanini o‘qitishda qo‘yiladigan umumiy talablar ishlab chiqildi, bular quyidagilar[4;56]:

- Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, hayotiy mavqei va e’tiqodiga asos bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni ular tomonidan ongli, mustahkam va chuqur o‘zlashtirilishiga erishishda kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish;
- hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda o‘quvchilarning faol hayotiy mavqeini egallash va mustaqil hayotga moslashishiga yordam beradigan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishi,jamiyat davlat va oila oldidagi burchi va mas’uliyatini his etishini shakllantirish;
- o‘quvchilarning kuzatish,tajriba qo‘yish, mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirish, hayotda va ishlab chiqarishda vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni mustaqil va ijodiy hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarda tabiatga nisbatan ongli, ijodiy munosabatnitarkib toptirish, mehnatsevarlik, davlat va jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo‘lishga yo‘naltirish, o‘zgalarning mehnati va tabiiy boyliklarniqadrlashni o‘rgatish;
- biologiya o‘quv dasturidan o‘rin olgan mavzular mazmuniga bog‘liq holda shakllantiriladigan umumiy va xususiy biologic tushuncha va ko‘nikmalarni bilish, o‘quvchilar tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishiga erishish;
- bo‘lajak o‘qituvchilarni aniq dalillarga asoslangan bilimlar bilan bir qatorda raqamli ta’lim metodologik bilimlar bilan qurollantirish;
- bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash metodik tizimining tarkibi va mazmunini kengaytirish hamda chuqurlashtirish lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishiga yordam beruvchi muhim pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi[6;73]:

Moddiy-texnik shart-sharoitlar (o‘quv tashkilotlari, o‘quv xonalari, amaliy mashg‘ulot jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televideniye, kompyuter, nusxa ko‘chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, magnitofonlar) va hokazolar kiradi.

Oliy pedagogika ta’lim muassasalarining bitiruvchilarida shakllantirilayotgan va rivojlantirilayotgan raqamli ta’lim kasbiy kompetentsiyalari ularning umumiy o‘rta

ta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida samarali xizmat qilishiga qaratilgan tarzda uzviylikka bog‘liq bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida fikr yuritilgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilar bugungi axborotlashgan jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlay olishga doir iqtidorga ega bo‘lishi ta’limning sifat va samaradorligining ortishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan, 5-6-sinflarda “Botanika ”darsini o‘tish jarayonida darslik mazmuniga quyidagi tushunchalarni elektron doskadan foydalangan holda rasmli slaydlar asosida tushuntirish talab etiladi[5;102].

1. Morfologik tushunchalar – har bir sistematik guruhga mansub o‘simliklarning tashqi tuzilishi haqidagi tushunchalar;
2. Anatomik tushunchalar – o‘simlik organlarining ichki hujayraviy tuzilishi haqidagi tushunchalar;
3. Fiziologik tushunchalar – o‘simlik organlarida boradigan hayotiy jarayonlar (gullash, changlanish, urug‘lanish, ko‘payish va h.k) haqidagi tushunchalar;
4. Ekologik tushunchalar – o‘simliklar va ularning organlarida yashash muhitiga bog‘liq holda vujudga keladigan o‘zgarishlar, tashqi muhit omillarining o‘simliklarga ko‘rsatgan ta’siri haqidagi bilimlar;
5. Sistematik tushunchalar – o‘simliklar dunyosi, bo‘limlari, sinf, oila, turkum, turga xos bo‘lgan belgilar haqidagi bilimlar;
6. Agronomik tushunchalar – madaniy o‘simliklarning biologiyasi, ularni ekish va parvarish qilish, ko‘paytirish usullarini o‘z ichiga oladi;
7. Sitologik tushunchalar – hujayra va uning organoidlari, ularda boradigan jarayonlar haqida bilimlar;
8. Embriologik tushunchalar – o‘simliklarning ko‘payishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi bilimlar majmuasi;
9. Evolyutsion tushunchalar – yerda o‘simliklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqidagi bilimlar majmuasini o‘z ichiga oladi;
10. Gigiyenik tushunchalar – parazit bakteriya va zamburug‘lar keltirib chiqaradigan kasalliklar va ularning oldini olish chora-tadbirlari haqidagi bilimlarni botanika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalarini tarkib toptirish va ularni malaka darajasiga ko‘tarish maqsadga muvofiq ekanligini belgilaydi.

O‘quvchilarda tarkib toptiriladigan botanik, amaliy va o‘quv mehnati ko‘nikmalari quyidagicha ifodalanadi[10;32]:

- Laboratoriya jihozlari va asboblari bilan ishlash ko‘nikmalari – urug‘ning tarkibini aniqlash, ikki va bir pallali o‘simlik urug‘larining tuzilishini o‘rganishda lupa va mikrosop bilan ishlash hamda o‘simlik rivojlanish siklini mikropreparat yordamida o‘rganish;
- O‘simliklardan gerbariy tayyorlash – o‘simlik organlaridan gerbariylar tayyorlash, urug‘lar kolleksiyasi, meva va gullarni fiksatsiya qilish;
- Kuzatish – kuzatish rejasini tuzish, kuzatish maqsadini amalga oshirish, kuzatish ob’ektidagi o‘zgarishlarni hisobga olish, rasmini chizish, kuzatish natijalarini umumlashtirish va xulosa yozish;

- Tabiatda ongli munosabatni tarkib toptirish ko‘nikmalari – o‘simliklarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini aniqlash, respublika “Qizil kitobi”ga kiritilgan o‘simliklarni bilish, ularni muhofaza qilish tadbirlarida faol ishtirok etish;

Zamonaviy ta’lim texnologiyasining maqsadi – mutaxassis modeli talablariga mos ravishda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimidan iborat bo‘lib, u raqamli ta’lim texnologiyalar asosida o‘z aksini topadi. Bundan tashqari respublikamiz Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga ko‘ra bo‘lajak pedagoglar ta’lim tizimining ob’yektiv va sub’yektiv jarayon ishtirokchisi bo‘lib, mustaqil ta’limning sifat va samaradorligini oshishiga ishtirok etadi[7;54].

Biologiya fanini o‘qitishda qo‘yiladigan umumiy va metodik talablar asosida zamonaviy pedagogik (didaktik –o‘yin, modulli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish) texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari ishlab chiqildi, bu esa o‘qitish jarayonining zaruriy shakli bo‘lgan darsdan tashqari ishlar uy vazifasi, darslik va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash, darslikda har bir mavzu oxirida berilgan test topshiriqlari, krossvord,chaynvord, kriptogrammalarni yechish, ijodiy savollarga javob topish, kuzatish va tajribalar o‘tkazish, o‘zlarini qiziqtirgan mavzu yuzasidan ma’ruza yoki matn tayyorlash kabilarni o‘z ichiga oladi[4,42].

Botanika fanini o‘qitishda ko‘proq mustaqil ishlarga e’tibor qaratish zarur. Botanika o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishlari, mustaqilligi, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishda ommaviy mashg‘ulotlar muhim rol o‘ynaydi. Biologiya o‘qituvchisi o‘quvcilarning xohish istagi, qiziqishlarini hisobga olgan holda turli tadbirlar, qiziqarli kechalar, kompyuterda rasmli chizmalar va krassvordlar tuzish kabi qiziqarli kechalarni o‘tkazishi lozim. O‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida “Navro‘z bayrami”ni, “Biz ibn Sino vorislarimiz”, “Orol dardi – olam dardi” mavzularida kechalarni o‘tkazish tavsiya etiladi. O‘quvchilarning darsda, darsdan tashqari ishlarda, tirik tabiat burchagida, maktab tajriba maydonchasida, ekskursiya davomida bajaradigan mustaqil ishlari o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Mazkur asosga tayanib shuni aytish mumkinki, yangi ta’limiy natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatiga ega bo‘lgan innovatsion tashkiliy shakllardan samarali foydalanish uchun raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilar mazkur o‘qitish shakllarini to‘g‘ri tadbiq qila olish mahoratiga ega bo‘lishi zarur. Chunki umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dars o‘tadigan zamonaviy o‘qituvchi ijodiy fikrlash va uni amalda qo‘llash orqali ta’limiy forumlar, treninglar tashkilotchisi bo‘lishi zarur, raqamli kompyuter testlarini o‘tkazish o‘quvchilarning bilim salohiyatini qo‘llab-quvvatlash uchun o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakatini tashkillashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur, raqamli ta’lim savodxonligi asosida o‘quvchilarning darsga qatnashish ishtiyoqi va ular iqtidorining uyg‘unlashishiga, bilim darajasi samaradorligini oshishiga ko‘maklashadi, bu esa o‘quvchilarning barcha fanlar qatorida biologiya faniga qiziqishini oshiradi[8;94].

Ta’lim-tarbiya jarayonlariga raqamli ta’lim muhitida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish

va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Nazariy manbalar tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi.Shuning uchun raqamli ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchining kompyuterni bilish savodxonligi darajasi zamonaviy internet – texnologiyalari vositasida universal o‘quv faoliyatini rivojlantirishning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevralda ” Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 20.02.2018 y. 06/ 18/5349/0792-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi ”Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

3.Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma- T: TDPU.2003. -174 b

4.Daminov M.I. Biologiya ta’limida modulli o‘qitish texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. Buxoro. 2006. -56-bet

5.J.O.Tolipova, A.S.To‘xtayev, O‘. Pratov, T.Norboboyeva 6- sinf Botanika o‘qitish metodikasi Toshkent “O‘zbekiston” 2003.

6.Yo‘ldoshev G‘.Sh. Usmonova S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T: O‘qituvchi. 2004. 98 b

7.Muslimov N.A. Quliyeva Sh. H. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T: Fan va texnologiyalar. 2007. – 54 bet.

8.Muslimov N.A. , Usmonboyev M., Mirsoliyeva M. “ Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompotentlik” moduli bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua. – T: 2016. – 147 b

9.Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari. Kasb-hunar ta’limi. -2004. N 6. – 24 b

10. J.Tolipova, A.T.G‘ofurov. Biologiya ta’limi texnologiyalari (metodik qo‘llanma) T: “O‘qituvchi”, 2002 yil.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBIYALITINI RIVOJLANTIRISHDA MOTVATSIYANI UYG‘OTISH

Qo‘chqorova Shaxnoza Satvaldievna
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Boshlang`ich sinfda bolalar ijodiyotini shakllantirishning asosiy xususiyatlari bolani ixtirochilikka yo‘naltirishning pedagogik va psixologik shartlari o‘rganiladi.

Boshlang`ich sinfda bolalarning fikrlash rivojlanishiga ta’sir qilish uchun,

atrofdagi voqelikning obyektlari va hodisalarini tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishdan tashqari, bolalarga topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatish, ular bilan ishlash tartibini aniqlashtirish xususityalariga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang`ich sinf, elementar matematika, bolalar ijodi, san’at, mehnat, texnologiya, pedagogika va psixologiya.

Boshlang‘ich sinflarda amaliyot shuni ko‘rsatdiki, ijodiy topshiriqlardan foydalangan holda murakkab mashg‘ulotlar o‘tkazish haqiqatan ham atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni shakllantirish chuqurligiga ta’sir qiladi va bolalarning idrokini, xotirasini va tasavvurini rivojlantiradi. Ammo mualliflar tomonidan belgilangan bu sinflarning o‘rni (oyda bir marta) shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ish tizimini shakllantirishga yordam bermaydi.

Boshlang`ich sinfda o‘quvchilar ijodiyotini muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy shartlarini hisobga olgan holda, I.Rejametova turli xil faoliyat va san’at turlarining o‘zaro ta’siriga asoslangan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun integratsiyalashgan sinflar tizimini ishlab chiqdi. Xalq amaliy san’atining turli turlarining o‘zaro ta’sirini kuchaytirish orqali maktab o‘quvchilarining madaniyatini shakllantirish masalalari S.Bulatov tomonidan ishlab chiqilib, xalq amaliy san’atining barcha turlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va shaxs shakllanishiga hissa qo‘shishini ta’kidlaydi.

M.Eshonkulova konsepsiyasida integratsiya bolalar faoliyatining turli turlari (o‘yin, o‘quv, musiqiy, tasviriy, badiiy va nutq) o‘zaro bog‘liqligini qo‘llash orqali badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi va bu munosabatlarni o‘qitish orqali mustahkamlaydi. "Yestetik, badiiy faoliyat va turli xil san’at turlarining mazmunini birlashtirish ularning bolaga ko‘p qirrali ta’sirini ta’minlaydi, turli xil his-tuyg‘u organlari tomonidan voqelikni idrok yetish va idrok yetilgan tasvirlarni uzatish asosida obyektlar va hodisalarni turli tomonlardan bilishga yordam beradi. yoki u yoki bu faoliyat uchun xos bo‘lgan (musiqiy, tasviriy, badiiy va nutq, teatr va o‘yin) yekspressiv vositalardan foydalangan holda badiiy faoliyatning turli shakllarida bolaning tasavvuri bilan yaratilgan "(5).

Integratsiyaning asosi barcha asosiy kognitiv jarayonlar (idrok, fikrlash, tasavvur, shuningdek xotira, ye’tibor) va "badiiy faoliyatning turli turlarida o‘ziga xos ifoda vositalari bilan o‘ylab topilgan va uzatiladigan" tasvirning o‘zaro bog‘liqligidir (80.3).

Integratsiya mexanizmi - bu turli xil yekspressiv vositalar yordamida turli faoliyatda yaratilgan tasvir. Adabiyotda bunday ifodali vositalar so‘zdir (majoziy ta’riflar, metaforalar, qiyoslar). Tasviriy san’atda - shakl, rang, kompozitsiya, ritm, hajm, plastika va boshqalar. Turli materiallardan hunarmandchilik va tasvirlarni yaratishda - shakli, o‘lchami, hajmi, materiallarning tuzilishi, rangi, nisbati, tarkibi va boshqalar.

Muayyan ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan badiiy va ijodiy qobiliyatlar ijodiy faoliyatning boshqa turini o‘zlashtirish jarayonida shakllanishi mumkin. M.Djumayev ijodkorlikni rivojlantirish uchun integratsiyalashgan sinflardan foydalanishning quyidagi vositalarini ishlab chiqdi:

- bolalarning muayyan faoliyatiga ustuvor e’tibor: o‘yin, vizual, teatrlashtirilgan,

konstruktiv, musiqiy, bu optimal tashkil etilgan holda, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi, hissiy farovonlik muhitini yaratadi, uning hayotini to‘ldiradi. qiziqarli tarkibga yega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bola;

o‘qituvchilarning integratsiya asosida qurilgan mazmun va ta’limni tanlashga, shuningdek, bolalar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishga va bu yo‘nalishdagi ishning turli uslub va uslublaridan foydalanishga ijodiy yondashishi.(7).

Boshlang`ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun integratsiya imkoniyatlarini ishlab chiquvchi integratsiya jarayonida san’atning o‘zaro ta’sirining xarakterini aniqladi:

- predmetlararo aloqalardan keng foydalanish;

- o‘quv fanlarini sinfdan tashqari ishlar bilan uyg‘unlashtirish;

san’atning ayrim turlarini poliartistik asosda o‘qitish (boshqa san’at turlaridan o‘xshash va rag‘batlantiruvchi vositalarni jalb qilgan holda);

- maktab o‘quvchilarining ko‘p badiiy ta’limiga kompleks yondashuv (har bir yosh bosqichida darslarning mazmuni va davomiyligi bo‘yicha san’atning o‘zaro ta’siri).

"Integratsiya umumiy uslubiy yondashuvni, maqsad, vazifalar, tamoyillar birligini va har bir san’at turining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni amalga oshirishning turli usullarini nazarda tutadi" (6).

Ta’lim va ijodkorlik o‘rtasidagi munosabatlar muammosini hisobga olgan holda, ko‘plab mualliflar maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini shakllantirish uchun ularga ta’sir qilishning yeng samarali usullari va usullarini ishlab chiqadilar.

Boshlang`ich sinfda o‘quvchilarni turli materiallar bilan ishlashga o‘rgatishda turli mualliflar namuna, namunali variantlardan foydalanishni, topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko‘rsatishni, o‘qituvchining tushuntirishini va o‘yin motivatsiyasini taklif qilishni taklif qildilar. Ammo, bizning fikrimizcha, bolalarning aqliy va ijodiy faolligini oshiradigan usullar, ayniqsa, turli xil materiallar bilan ishlashda, ko‘pincha material va tanlangan texnikaga qarab hunarmandchilikni bajarish tartibini rejalashtirishni o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi.

O‘qitishning eng samarali usullari va usullarini tanlashda biz ijodiy faoliyatni rivojlantirishning asosiy bosqichlaridan chiqdik:

- tayyorgarlik, shu jumladan qog‘oz, gazlama, tabiiy va chiqindi materiallarning xossalari bilan tanishish, ular bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ushbu texnikada, ma’lum bir tasvirning yekspressivligini yetkazishda mashq qilish;

- hunarmandchilikni yaratishda bolaning o‘zining asl yelementlarini yaratishi. Boshlang`ich ta’lim amaliyotida matematika mashg‘ulotlarida dastlabki

bosqichlarida, asosiy vazifa bolalarda qog‘oz, gazlama, tabiiy va chiqindi materiallar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lgan davrda qo‘llash yaxshidir.

Turli materiallar bilan ishlashda namunalardan foydalanish, ayniqsa, o‘rganishning dastlabki bosqichlarida, bolalar turli materiallar va asboblar bilan ishlashning asosiy ko‘nikmalari va qobiliyatlarini o‘zlashtirganda oqlanadi. Ammo modelga rioya qilish o‘qituvchining tushuntirishi, asosiy va ikkinchi darajali

tafsilotlarni ajratib ko‘rsatish va bolalarni modelni faol tekshirishga jalb qilish bilan birga bo‘lishi muhimdir. Bolalarning faol ishtiroki ularga tasvirni yaxshiroq idrok yetish, tahlil qilish, asta-sekin hunarmandchilikni bajarish ketma-ketligini rejalashtirish va uni yuqori sifatli bajarishga o‘rgatish imkonini beradi.

G.Rustamova tomonidan bolalarda matematik ta’limni rivojlantirishda TRIZ texnologiyasi metodlaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu o‘rinda o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi, TRIZ o‘zi nima? Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun zarurmi? Ushbu texnologiyaning qanday afzal tomonlari bor? Matematik tushunchalarni boyitishda yordam beradimi? [9].

TRIZning konseptual asoslari bolalarda yaratuvchanlik, ijodiy tasavvur va dialektik fikrlashni shakllantirish TRIZ texnikasi va metodlaridan samarali foydalanish, bu borada muvaffaqiyatga erishishning asosiy zaruriyati hisoblanadi [6]. TRIZning maqsadi nafaqat bolalarning tasavvurini rivojlantirish, balki ularni doimiy ravishda, davom etayotgan jarayonlarni tushunib, fikrlashga o‘rgatish hamdir. Bolalarga ta’lim berishda pedagog (tarbiyachi) uning tabiatidan kelib chiqib yondashish zarur. M.X.Eshonqulova o‘z tadqiqotlarida “TRIZ – bu topqirlik, mohirlik va iqtidorlikni rivojlantiriuvchi masalalarning nazariyasidir” [10] deya ta’kidlaydi.

Taniqli pedagog L.S.Vigotskiyning nazariy qarashiga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bola o‘quv dasturini o‘zining yosh xususiyatiga ko‘ra tushunishi va shu darajada qabul qilishi kerak [6].

Ushbu texnologiya quyidagi prinsiplarni qamrab oladi:

– tizimlarning rivojlanish qonuniyatlarining obektivligi prinsipi – tizimlarning

tuzilishi, ishlashi va o‘zgarishi obektiv qonunlariga bo‘ysunadi. Demak: kuchli qarorlar – bu obektiv qonuniyatlarga, hodisalarga, ta’sirlarga mos keladigan qarorlar;

– qarama-qarshilik prinsipi – tashqi va ichki omillar ta’sirida qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi, kuchayadi va hal etiladi. Muammo qiyin, chunki, yashirin yoki aniq qarama-qarshiliklar tizimi mavjud. Tizimlar obekti qonuniyatlar, hodisalar va ta’sirlarga asoslangan ziddiyatlarni bartaraf etishda rivojlanadi. Demak: kuchli qarorlar qarama-qarshiliklarni yengib chiqadigan qarorlardir;

– aniqlik prinsipi – tizimlarning har bir guruhi, shuningdek, ushbu guruh doirasidagi alohida vakillar, ma’lum bir tizimni o‘zgartirishni osonlashtiradigan yoki qiyinlashtiradigan xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar resurslar bilan belgilanadi: ichki – tizim qurilgan narsalar va tashqi - tizim joylashgan muhit va vaziyat. Demak: kuchli qarorlar – bu muayyan muammoli vaziyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan qarorlar .

Boshlang`ich sinfda bolalar materiallar bilan yerkin muloqot qilishadi, ularning xususiyatlarini va tasvirni yaratish xususiyatlarini o‘rganadilar.

Treningning tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchining tushuntirishi muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qanchalik aniq va tushunarli bo‘lsa, ular qanchalik katta natijalarga erishishlari mumkin. Harakat usullarini namoyish qilish bilan birga kelgan so‘z uni yanada ongli qiladi, vazifani bajarish tartibini rejalashtirishga yordam beradi, maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvir mavzusi haqidagi yaratuvchanlikka, ijodkorlikka intiluvchi ini aniqlaydi[8].

Boshlang`ich sinfda bolalarni turli xil materiallar bilan ishlashga o‘rgatishda

ko‘pincha harakat usullarini ko‘rsatishning har xil turlari qo‘llaniladi. Volumetrik hunarmandchilikni yaratishda ko‘pincha "origami" va egri chiziqli katlamalar, bosqichma-bosqich displey va o‘qituvchining to‘liq ko‘rinishida tayyorlangan mahsulotlar qo‘llaniladi. Qog‘oz bilan tajribaga yega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘qituvchi yoki bolaning tushuntirishlari bilan bolaning qisman ko‘rinishi va ko‘rinishidan foydalanish yaxshiroqdir. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar o‘rganadigan matematik tushunchalar va so‘zlarning roli juda yuqori bo‘lib qolmoqda, chunki bolalarning harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati. Og‘zaki ko‘rsatmalarni vizual ko‘rsatmasdan qo‘llash faqat hunarmandchilikni ishlab chiqarish oson bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mumkin.

Boshlang`ich sinfda o‘quvchilar yangi materiallar bilan tanishtirishda aniq berilgan savollar idrokni faollashtirishga yordam beradi va bolalarda atrofdagi voqelik obyektlari va hodisalari haqida to‘liqroq tushuncha hosil qiladi. So‘z qog‘oz, mato, tabiiy va chiqindi materiallar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.

Turli materiallar bilan ishlashni tashkil qilishda shuni yesda tutish kerakki, ulardagi rang ikki shaklda taqdim yetiladi - sun’iy (qog‘oz, mato va "chiqindi" materialning rangi) va tabiiy (barglar, somon, qayin qobig‘i, konuslarning rangi). Bolalarni yorqin to‘yingan rang o‘ziga jalb qiladi va tabiiy materiallarning go‘zalligi xiralashgan. Bolalar, birinchi navbatda, tabiiy materiallarning rangi bilan yomon birlashtirilgan yorqin rangli shakllarga jalb qilinadi.

Boshlang`ich sinfda bilim olish zarurati tushunchasi shakllanmaguncha, o‘qituvchi o‘z faoliyatida boshqa stimullardan - o‘yin va ijobiy his-tuyg‘ulardan foydalanadi.

Boshlang`ich sinfda o‘quvchilar Ijodiy faoliyatni shakllantirishning ikkinchi bosqichida tasavvur, idrok, fikrlash va xotirani rivojlantirishga ta’sir qiluvchi mashqlar katta rol o‘ynaydi. Hunarmandchilikni, tasvir obyektlarini tekshirish jarayonida bolalar obyektlarning shakli, rangi, o‘lchamiga ye’tibor berishlari, ularni bir-biri bilan taqqoslashlari, umumiy va farqlarni ajratib ko‘rsatishlari kerak. Go‘zalni ajratib ko‘rsatish qobiliyati bolalar ishining sifati va estetikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. A.I.Savenkovning san’at yordamida iqtidorni rivojlantirish va tarbiyalashga bag‘ishlangan tadqiqotida haftada bir marta idrok, xotira, fikrlash, tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish taklif qilingan[4].

Boshlang`ich sinfda bolalarning fikrlash rivojlanishiga ta’sir qilish uchun, atrofdagi voqelikning obyektlari va hodisalarini tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishdan tashqari, bolalarga topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatish, ular bilan ishlash tartibini aniqlashtirish muhimdir. ish va uni qanday bajarish kerakligi.

Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun turli mualliflar turli mashqlar va darslarni o‘tkazish shakllarini taklif qilishadi. Bu bolalar uchun hunarmandchilikni o‘z detallari bilan to‘ldirish, namunaviy variantlardan foydalanish, bolalar bilan suhbatlar va rejaga muvofiq ishni bajarish taklifi.

Boshlang`ich sinfda o‘quvchilar ijodiyotini shakllantirish uchun namuna va bola tomonidan yaratilgan hunarmandchilikni taqqoslash ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday tahlil maktabgacha yoshdagi bolalarga tasvirlarni yanada takomillashtirish

imkoniyatini ko‘rsatadi.

Boshlang`ich sinfda o‘quvchilar tomonidan yaratilgan turli materiallardan tasvirlarning aksariyati amaliy maqsadga ega bo‘lishi mumkinligi sababli, amaliy faoliyatda bolalarning ishini tahlil qilishni, bolalar tomonidan yaratilgan hunarmandchilik sifatini tekshirishni tashkil qilish mumkin.

Turli materiallar bilan ishlashda bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun nafaqat o‘qitish usullari va usullari, balki hunarmandchilikni yaratish bo‘yicha ishlarni tashkil yetish ham muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang`ich sinfda bolalarning birgalikdagi faoliyatida bir qator tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin - bolalarning birgalikdagi harakatlariga hissiy munosabati (ijobiy his-tuyg‘ular, qiziqishlar, tajribalar), har bir bolaning ijtimoiy faolligi ("men" ning jamoa manfaatlariga bo‘ysunishi, muloqot tajribasini to‘plash, jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, mustaqil faoliyatda tajriba to‘plash, shaxsiy xususiyatlar.

Mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishda turli xil faoliyat va san’atning integratsiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchi bosqich (yakuniy) maktabgacha yoshdagi bolalarning tugallangan ish bilan o‘zaro ta’siri bilan tavsiflanadi.

Boshlang`ich sinfda o‘quvchilar bilan turli materiallar bilan ishlashda vazifalarning bunday qurilishi juda samarali. Bu nafaqat qiziqarli kompozitsiyalarni bajarishga imkon beradi, balki qog‘oz, mato, tabiiy va chiqindi materiallardan tasvirlarni yaratishda turli xil texnikalarni tasvirda birlashtirishga imkon beradi. Bolalar hunarmandchiligining sifati, ularning mustaqilligi, bilish faolligi keskin oshib bormoqda.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Hozirgi vaqtda ijodkorlik inson mavjudligining asosi sifatida qaraladi. U

bilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, muhim narsani yaratuvchi va jamiyat taraqqiyotining sifatini, inson mavjudligi va uning rivojlanishining mohiyatini belgilaydigan faoliyat sifatida qaraladi.

2. Boshlang`ich sinfda o‘quvchilar Ijodiy faoliyatning samaradorligi tashkilotning sharoitlariga, shaxs tomonidan qabul qilingan ma’lumotlarning miqdori, uning hissiy holati, individual xususiyatlari va unga yega bo‘lgan bilimlar miqdoriga bog‘liq.

3. Boshlang`ich sinfda o‘quvchilar badiiy va ijodiy faoliyatni shakllantirish shartlari - bilim faoliyatining ma’lum darajasi, maktabgacha yoshdagi bolalarning idrok etish, xotirasi, fikrlash va tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan rivojlanayotgan muhitni tashkil etish, turli materiallar bilan ishlash ko‘nikma va qobiliyatlari, ijodkorlikning paydo bo‘lishi va shakllanishi elementlarini rag‘batlantiradigan ma’lum bir hissiy muhitni yaratish.

4. Turli materiallar bilan ishlash bolalar ijodiyotini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi, agar siz turli xil materiallar va ish usullaridan foydalangan holda qiziqarli, estetik kompozitsiyalar yaratishga imkon beradigan integratsiyalashgan sinflar kabi tashkil etish shakllaridan foydalansangiz.

5. Kollektiv va individual badiiy va ijodiy faoliyatni har tomonlama

rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirishga yordam beradi.

6. Turli materiallar bilan ishlashda bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun eng samarali usullar quyidagilardir: - mashg‘ulot boshlanishidan oldin bolalarning material bilan tajriba o‘tkazish; - qog‘ozni o‘zgartirishning yangi usullarini ko‘rsatish orqali sinfda xayrixoh muhit yaratish, mato, tabiiy va chiqindi materiallar - jismoniy mashqlar orqali texnik ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish; - bolalarning mustaqilligi va faolligini rag‘batlantirish; - bolalar hunarmandchiligiga xayrixoh, ammo xolisona baho berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.

2.Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi “2022-2023 yillarda

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 310-son qaror.

https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/2022-2023_yillarda_eshlarga_oid_davlat_siesatini_amalga_oshirish_dasturi_

3. Djumayeva M.M. Boshlang`ich sinflarda tabbiy fanlarga oid ko‘nikmalarni shakllantirish. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.Tom 1 № 1 (2023):http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/812

4.Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434

5.Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165- 173

6.Djumayev M.I The transformation of te english language’s variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607

7.Djumaev M.I.. Matematika o‘qitishda kombinatorika masallarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari Fizika, matematika, informatika jurnali. 2023 yil 2/1 son. 19- 27

8.Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. J Mathe & Comp Appli, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705

9.Djumayeva M.M. Tabiiy fanlarni o‘qitishda kreativ yondoshuv masalalari Zamonaviy ta`lim: Yangicha yondashuvlar va dolzarb tadqoqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya 2023 yil 16-17 may 368-372

10.Djumayeva M.M. Tabiiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensive o‘qitishning psixologik-pedagog jihatlari Respublika ilmiy amaliy anjuman. 2023 yil 2 iyun 494-497

MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Rabbimov M.T. dots. - JDPU
Rabbimov I.M. – magistr O‘zMU Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muxammad ibn Muso al-Xorazmiyning ta’limiy-axloqiy va pedagogik qarashlari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: astronomik jadval, algoritm, al-jabr, al-muqobala, zij.

O‘rta asrlarda yashab ijod etgan, o‘zining o‘lmas va noyob asarlari bilan bashariyat ilm-fani va madaniyati tarixidan munosib o‘rin olgan, mashhur olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy 780 yilda Xorazmda tug‘ilganligi va 847 yillarda Bag‘dod shahrida vafot etganligi taxmin qilinadi.

Muhammad Xorazmiy ijodi asosan xorazm faniga va qo‘shni mamlakatlar Hindiston va Yaqin Sharq mamlakatlarining ilmiy fikrlariga asoslangan. Muhammad Xorazmiy asarlarining soni hozirgacha ma’lum bo‘lmasada, uning fan tarixida muhim o‘rin tutgan arifmetika, algebra, astronomiya va geografiyadan yozgan 5 ta asari bizgacha yetib kelgan. “Fi hisob al-jabr va al-muqobala”, “Astronomik jadval” va “Hisob al-Hind” nomli asarlarini yozadi. So‘ngra “Suratul arz” ni va yahudiylar kalendari haqidagi risolasini yozadi. Bu asarlar dastlab arab tiliga, so‘ngra lotin tiliga bir necha marta tarjima qilinadi. Xorazmiyning bu asarlari bir necha asrlar davomida o‘sha zamon olimlari va keyingi davr olimlari uchun ham asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. . [1, 2].

Xorazmiy o‘zining arifmetik asari orqali butun dunyoga hind raqamlarini va ularga asoslangan o‘nli pozitsion hisoblash sistemasini yaratdi. U bu asarida oltita amal (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, darajaga ko‘tarish va ildiz chiqarish) dan tashqari ikkilantirish, uchlantirish va yarimtalashni alohida amal hisoblagan va ularni ratsional sonlar va kvadrat irratsionalliklarga tadbiq qiladi. Xorazmiyning bu amallar uchun quyidagi uch misol xarakterlidir:

1) $\mathbf{2}\cdot\sqrt{\boldsymbol{x}}=\sqrt{\mathbf{2}\cdot\mathbf{2}\cdot\boldsymbol{x}}=\sqrt{\mathbf{4}\boldsymbol{x}}$,
2) $\mathbf{3}\cdot\sqrt{\boldsymbol{x}}=\sqrt{\mathbf{3}\cdot\mathbf{3}\cdot\boldsymbol{x}}=\sqrt{\mathbf{9}\boldsymbol{x}}$,
3) $\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{2}}\cdot\sqrt{\boldsymbol{x}}=\sqrt{\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{2}}\cdot\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{2}}\cdot\boldsymbol{x}}=\sqrt{\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{4}}\boldsymbol{x}}$.

Agar $\boldsymbol{x}$ kvadrat son, masalan 9 bo‘lsa, bu ildizlar quyidagicha hisoblanadi:

1) $\mathbf{2}\cdot\sqrt{\mathbf{9}}=\sqrt{\mathbf{2}\cdot\mathbf{2}\cdot\mathbf{9}}=\sqrt{\mathbf{36}}=\mathbf{6}$,
2) $\mathbf{3}\cdot\sqrt{\mathbf{9}}=\sqrt{\mathbf{3}\cdot\mathbf{3}\cdot\mathbf{9}}=\sqrt{\mathbf{81}}=\mathbf{9}$,
3) $\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{2}}\cdot\sqrt{\mathbf{9}}=\sqrt{\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{2}}\cdot\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{2}}\cdot\mathbf{9}}=\sqrt{\mathbf{9}\cdot\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{4}}}=\mathbf{3}\cdot\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{2}}=\frac{\mathbf{3}}{\mathbf{2}}$.

Hisoblashda rim raqami va sonlarni so‘z orqali yozib bajarishdagi noqulayliklarni bartaraf qildi, bu bilan hisoblashni ixchamlashtirdi. Xorazmiy o‘zining asari bilan fanga hozirgi vaqtda elektron hisoblash mashinasining asosi bo‘lib kelayotgan algoritm tushunchasini kiritdi. Algoritm olimning nomidagi “al-Xorazmiy” iborasini Yevropa tillarida buzib o‘zgartirilgan talaffuzidir. Xorazmiy matematikaning

taraqqiyotida yana muhim o‘rin tutgan algebraga doir “Hisob al-jabr va al-muqobala” nomli asarini yaratadi, bu asari bilan algebraga asos soladi va algebrani alohida fan darajasiga ko‘taradi.

Xorazmiyning algebraik asari asosan, uch bo‘limdan iborat bo‘lib: birinchi bo‘limda al-jabr va al-muqobala yordamida birinchi va ikkinchi darajali bir noma’lumli tenglamalarni yechish, ratsional va irratsional ifodalar bilan amallar bajarish hamda tenglama yordamida sonli masalalarni yechish yo‘llari beriladi. Ikkinchi bo‘lim geometriyaga tegishli bo‘lib, bunda miqdorlarni o‘lchash va o‘lchashga doir masalalarga algebraning ba’zi bir tadbiqlari ko‘rsatiladi. Uchinchi bo‘limda algebraning amaliy tadbiqi, ya’ni meros bo‘lishga doir masalalar beriladi.

Muhammad Xorazmiyning algebra va al-muqobala haqidagi kitobi arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini o‘z ichiga olganligini va ular meros ulashish, vasiyat tuzish, mol-dunyo taqsimlash uchun va sud hamda savdo ishlarida, yer o‘lchashlarda kanallar o‘tkazish va yuza o‘lchashlarda zarurligini ta’kidlaydi.

Haqiqatan, Xorazmiy asari, o‘z mazmuni bilan nazariyaning elementlarini o‘z ichiga olgan amaliy matematikaning bir qismidir. Olim asarining “Vasiyat haqida maqola” deb atalgan oxirgi qismida islom huquqi normalariga qarab, merosxo‘rlar o‘rtasida taqsimlash haqida turlicha mazmunda 60 dan ortiq murakkab masalalarni tenglama yordamida yechish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Xorazmiyning tenglama yechish usullaridan namunalar keltiramiz. Masalan, kvadrat va yigirma bir dirham o‘n ildizga teng; u hozirgi belgilashlarda quyidagicha:

$$\boldsymbol{x^2 + 21 = 10x}$$

Xorazmiy asarida hech qanday formula va simvollar ishlatilmaydi. U tenglamalarni va ularni yechishni so‘z bilan bayon etadi.

Xorazmiy qoidasi bo‘yicha bu tenglamani yechish usulini hozirgi belgilashlarda ham bajarsak (misolda $\boldsymbol{a = 1,\ \ b = 10,\ \ c = 21}$);

Yechish	Hozirgi belgilashlarda
1) ildiz sanog‘ini yarimlat, bu 5 bo‘ladi;	1) $\boldsymbol{\frac{b}{2} = \frac{10}{2}}$=5
2) yarimlangan ildiz sanog‘ini o‘z-o‘ziga ko‘paytir-bu 25 bo‘ladi;	2) $\boldsymbol{\frac{b}{2} \cdot \frac{b}{2} = \left(\frac{b}{2}\right)^2 = 5 \cdot 5 = 25}$;
3) yarimlangan ildiz sanog‘ining kvadratidan yigirma birni ayir-bunda 4 qoladi;	3) $\boldsymbol{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c = \left(\frac{10}{2}\right)^2 - 21 = 4}$;
4) to‘rtni kvadrat ildizdan chiqarsang 2 bo‘ladi;	4) $\boldsymbol{\sqrt{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c} = \sqrt{\left(\frac{10}{2}\right)^2 - 21} = \sqrt{4} = 2}$;
5) yarimlangan ildiz sanog‘idan 2 ni ayirsang uch bo‘ladi;	5) $\frac{b}{2} - \sqrt{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c} = \frac{10}{2} - \sqrt{\left(\frac{10}{2}\right)^2 - c} = \sqrt{5-2} = 3$;
6) agar hohlasang yarim ildiz sanog‘iga 2 ni qo‘shsang 7 bo‘ladi;	$\frac{b}{2} + \sqrt{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c} = \frac{10}{2} + \sqrt{\left(\frac{10}{2}\right)^2 - 21} = 5 + 2 = 7$;

Oxirida har ikkalasi izlangan ildiz bo‘ladi ya’ni,

$$x_{1,2} = \frac{b}{2} \mp \sqrt{\left(\frac{b}{2}\right)^2 - c} = \frac{10}{2} \mp \sqrt{\left(\frac{10}{2}\right)^2 - 21} = 5 \mp 2$$

$x_1 = 3, \quad x_2 = 7.$

Muhammad Xorazmiyning algebraik asarining asosiy maqsadi, musulmon huquqi normalariga qarab, merosxo‘rlar o‘rtasida mulkni taqsimlash masalasining nazariy va amaliy jihatdan yoritishga qaratilgan. Bu masalani sof arifmetik usulda hal qilish bo‘lgani sababli, obyektiv ravishda algebraik usulni qo‘llaydi va algebraning asosiy bo‘limi-tenglamalarni meros taqsimlashga mohirlik bilan tadbiq qiladi.

Xorazmiyning arifmetika algebra va geometriyaga doir asari kundalik amaliy maqsadlar (meros taqsim qilish, yer o‘lchash, ariqlar qazish va hokazo) ga moslab tuzilgan nazariy elementlarni o‘z ichiga olgan amaliy elementar matematikadan iborat.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Xorazmiy astronomiyaga doir ham asar yozgan. Xorazmiyning astronomiyaga doir yozgan muhim asarlari qatorida, u tuzgan muhim astronomiya jadvallari (“Zij”) ham astronomiya fanini rivojlantirishda katta rol o‘ynagan. Bu jadvallar asrlar davomida Sharqda va G‘arbiy Yevropada qo‘llanma bo‘lib kelgan.

Xorazmiy bundan tashqari, geografiya va geodeziya fanlariga oid ham muhim ilmiy ishlar olib borgan. U Ptolomeyning geografiya haqidagi asarlarini ishlab chiqib, arab tilida, “Kitob surat al-arz” degan asar yaratadi. Bu kitob Sharqda va G‘arbda geografiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Xulosa qilib aytganimizda, bu buyuk mutafakkir turli fanlarga oid yaratgan asarlarida ilm-fan, maorif, bilimga e’tiqod, ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim bo‘lgan insonparvarlik, halq manfaatini himoya qilish, komil inson va yetuk jamoaga erishish kabi masalalar yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.S.A.Axmedov O‘rta Osiyoda matematika taraqqiyoti va uni o‘qitish tarixidan. O‘qituvchi nashryoti.Toshkent.1977yil.
2.A.Zunnunov. Pedagogika tarixi. Darslik. Sharq nashriyoti.Toshkent.2004 yil.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna
JDPU, Pedagogika ta’limi nazariyasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o‘quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga

yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Kalit soz’lar: o‘yinli texnologiyalar, mehnat faoliyati, o‘qish faoliyati, ijodiy faoliyat, ijtimoiylashuv, o‘yion faoliyati, tarbiyaviy jarayon.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o‘quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta’rificha, o‘yin shaxsga xos bo‘lgan ichki psixik (ruhiy) xulq shaklidir. L.S. Vigotskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi. A.N. Leontev o‘yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi.

O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi.

Ular quyidagilar.

- *maftunkorlik;*
- *kommunikativlik;*
- *o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;*
- *davolovchilik;*
- *tashxis;*
- *millatlararo muloqot;*
- *ijtimoiylashuv.*

Tadqiqotchilar o‘yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhun qirralari SA.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbir) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishiariga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo‘llanadi.

Pedagogik o‘yinlar:

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteriga - «ijod maydoni»ga ega bo‘ladi. O‘yin uchun hissiy ko‘tarinkilik xosdir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar. O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi.

O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta’biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- *o‘ynash uchun olingan rollar;*
- *bu rollarni ijro etish vositasi bo‘lgan o‘yin harakatlari;*
- *predmetlarni, ya’ni haqiqiy narsalarni shartli, o‘yin narsalari o‘rnida qo‘llash;*
- *o‘yinda ishtirok etuvchilarning real o‘zaro munosabatlari;*
- *(o‘yinda shartli ravishda yaratilgan syujet— ijro sohasi.*

O‘yindan tushunchalar, mavzu va hatto o‘quv predmeti bo‘limini o‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, taibiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo‘llaniladi. O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoatchilik, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog‘ishtirish, o‘xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal echimni topa olish, o‘quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Ijtimoiylashuv o‘yinlari jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko‘nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o‘yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar «o‘yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi. Pedagogik o‘yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo‘yiladi. Pedagogik o‘yinlar asosida talabalarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

- *didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;*
- *o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;*
- *o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;*
- *o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;*
- *didaktik vazifaning muvqffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan boglanadi.*

Tadbirkorlik o‘yinlari nazariyasi umuman boshqa o‘yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog‘langan. Tadbirkorlik o‘yinlari mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leontev, P.YA. Galperinlarning ishlarida nazariy asoslangan. Tadbirkorlik o‘yinlari o‘z xarakteriga ko‘ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi. Tadbirkorlik o‘yinlari bilish va o‘qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o‘yinlariga taqlidiy (imitasion) o‘yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo‘ldi. Taqlidiy o‘yinlarga o‘z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o‘yinlar asos bo‘lgan.

A.A. Verbiskiy tadbirkorlik o‘yinlariga o‘qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o‘yinlarida mashq qilish faoliyati va bo‘lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir suniy va tabiiy tizim sifatida o‘zaro nisbatlanadi. Shu tufayli tadbirkorlik o‘yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksi (mazmuni) ishora vositalari, ya’ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Turg‘unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: “Sano-Standart”, 2012 – 100 b.
2. Turg‘unov S.T., Axmadjonova N.M. Maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruv faoliyati algoritmi. // Xalq ta’limi. –Toshkent, 2012 – №1. – B. 133-134
3. Jumaboyev M “O‘zbek bolalar adabiyoti”,Toshkent ”O‘zbekiston” 2012 y, 21b.
4. Maxmudov Y.F, Xudoyqulov X.J. “Milliy g‘urur-ma’naviy komillik mezoni”.T, Dizayn-Press 2011.327b.
5. Rahimova R. “Tarbiyachiga 1001 maslahat”., Toshkent.,2007 yil.
6. Sodiqova Sh. “Maktabgacha pedagogika” Toshkentyuyu., 2013 yil
7. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova .maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent, O‘zPFITI nashriyoti – 2015 yil
8. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.-T.:"Tib-kitob", 2010.
9. Sodiqova Sh. A Maktabgacha pedagogika T. : Tafakkur bo‘stoni. 2019

BOSHLANG‘ICH SINF O'QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna

JDPU, Pedagogika ta’limi nazariyasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Muayyan ilmiy dunyoqarashga ega bo’lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to’laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo’lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil,tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo’lga qo’yilishi, uning turli yo’nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek o’z-o’zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Kalit soz’lar: ta’lim, tarbiya, dars jarayoni, ilmiy dunyoqarash, aqliy tarbiya, ilm-fan, texnologiya, tafakkur, ijodiy tafakkur, erkin va mustaqil fikrlash.

Hozirgi ta’lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo’nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llashdan iborat. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o’z bilim va tajribalarini o’sib kelayotgan avlodga o’rgatishdan iborat bo’lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz.

Ilmiy dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur va shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo’ladi.

Muayyan ilmiy dunyoqarashga ega bo’lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to’laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo’lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil,tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo’lga qo’yilishi, uning turli yo’nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek o’z-o’zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o’qitilishi yo’lga qo’yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o’zlashtirilishi muhim o’rin tutadi.

Shaxs ilmiy dunyoqarashining rivojlanishida aqliy tarbiya mihim ahamiyat kasb etadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to’g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy bilish qobiliyati, tafakkurini rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat bo’lib, uni samarali yo’lga qo’yish asosida dunyoqarash rivojlanadi.

Ta’lim muassasalarida olib boriladigan aqliy tarbiya o’quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo’lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish va ularda ijodiy, erkin va mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinad;

1. O’quvchilarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish;

2. O’quvchilarda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish;

3. Olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llay olish ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.

4. Bilimlarni doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish.

5.Bilimlarni o’zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlari ya`ni nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy hayol va xususiyatlar ya`ni maqsadga intilish, fanga qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o’z fikrini asoslab bera olishi, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarishni rivojlantirish.

Aqliy tarbiya va ta’lim birligi asosida shaxsda tafakkur ya’ni ijtimoiy voqea hodisalarning o’quvchilar ongida to’laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli rivojlanadi. Manbalarning ko’rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qancha murakkab bo’lib, quyidagi belgilanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi;
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o’zlashtirib olish jarayoni;
3. O’quvchilarning fikrlash ko’nikmalariga ega ekanligi;
4. Bilimlarni mustaqil egallashga bo’lgan qiziqish.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e’tiqod o’ziga xos o’rin tutadi.

Ilmiy qarash (yunoncha “Idea”-g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig;indisi)-muayyan hodisa, jarayonining mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya bo’lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o’zlashtirilganda yuzaga keladi. Bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O’quvchilarni ijodiy fikrlashga o’rgatish, ularda ixtirochilik ko’nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish ko’nikmasi shakllantirishi va ma’lum qarashlarni ilgari surishiga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali olib borish shaxsda ilmiy dunyoqarashning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Ilmiy dunyoqarash inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z oldiga nafaqat maxsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo`ymoqda. Ya’ni, o‘z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o‘zlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.[7]

Pedagogik texnologiyaning har turli ta’riflari mavjud bo’lib, har bir ta’rif ma’lum nuqtai nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayrim asosiy ta’riflar va ularning sharxlarini ko’rib chiqamiz.

Pedagogik texologiya-barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san’atda qo’llaniladigan usullar, yo’llar yig‘indisi (Izohli lug‘at).

Bilimni egallash murakkab ziddiyatli jarayon bo'lib, u insondan avvalo fiziologik jihatdan barkamollikni, ya'ni besh asosiy sezgi organlarini bus-butun bo'lishini hamda bilim olish uchun tinimsiz mashq qilishni, qunt bilan mehnat qilishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. ’’O`zbekiston’’ nashriyoti, 2022.

2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. – Toshkent. M54 "O'zbekiston" NMIU, 2020.

3. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" -T.: maruza Qurbanova Mahliyo 2022-yil 30-mart

4. Zamonaviy ta’limga qo'yiladigan talablar". -T.: 2021-yil 27-noyabr.

5. Xasanboyev J, To‘rakulov X., Xaydarov M., Xasanboyeva O. Pedagogika fanidan izoxli lug‘at. – T., 2008.

6. S.I.Mirhaitova “Pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanmasi. 2020-yil

7. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg‘ulotlari. – T., 2013.

Niyozov G‘.,Axmedova M.E. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: Noshir, 2011.

BOShLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI IJODIY O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Rasulova Zohida Sindarovna
Guliston davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim uslubiyati
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lum sohaga oid qiziqishlarini rivojlantirish uchun ham turli yo‘llardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada o‘quvchilarning qiziqishlarini o‘yinlar orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi haqida tushuntirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: farmonlar, xalq ta’limi tizimi, kompetentlik, qiziqishlari, maqsad, muvofiqlashtirish, tasavvur, rivojlantirish, sifatli ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, PF-5538-sonli[1] farmoni ishlab chiqildi. Shu farmon asosida ta’lim tizimida bir qancha o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.[1, 2-b] Jumladan:

- ✓ iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish:

- ✓ o‘quv muddatlarini o‘zgartirmagan holda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;
- ✓ o‘quvchi-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lum sohaga oid qiziqishlarini rivojlantirish uchun ham turli yo‘llardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kompetentlik – ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama deb ham yuritadi. Shundan kelib chiqib fikrlaydigan bo‘lsak, o‘quvchilarning biror kasb sohasiga oid bilimlarini hosil qilish uchun ham turli yo‘llarni izlab topib tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish ham maqsadga erishuvchi yo‘llardan biridir. Ta’lim o‘quvchilarga faqat bilim berishdan iborat emas, uni hatti-harakatga keltirish uchun ham xizmat qilish kerak. Bolalarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘llash, munosib kasb topish, tanqidiy-tahliliy fikr yurita olish, qarorlar asosida mushohada yuritish zamon talabidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kompetentligini hosil etishda o‘yinlarning ham ahamiyati juda kattadir. O‘yinlarning asosiy maqsadi - tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O‘yin insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va boshqalar mashqlar, shuningdek, san’at, ayniqsa uning ijro shakllari bilan qo‘shilib kelgan. Ma’lumki, inson o‘z hayotida o‘yin, o‘qish, mehnat, dam olish kabi mashg‘ulotlar bilan band bo‘ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o‘yin asosiy faoliyat hisoblanadi, keyin esa u o‘qish bilan baravar davom etadi, undan so‘ng esa o‘yin kamayib, uning o‘rnini o‘qish va mehnat egallaydi. O‘yinlar hayotda muhim o‘rin tutadi. O‘yinlar yordamida insoniyat o‘sgan, ulg‘aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo‘lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma’naviy kamol topgan. O‘yinning vazifasidan kelib chiqib fikrlaydigan bo‘lsak, dars jarayonida foydalanish maqsadga xosdir. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalarini rivojlanishida o‘yin faoliyati yetakchilik qiladi. 7-8 yoshli bolalar asosan taqlidchilik asosida fikr yuritadi. Ularning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib ham kasbga oid yo‘naltirish muhimdir. Bola ko‘proq o‘zining fikrlarini o‘yin jarayonida namoyon qiladi, kasblarga oid muloqot jarayonini ham o‘rganadi, nutqlarini sayqallab boradi, jamoada o‘zini tutishni o‘rganadi, o‘zgalar fikrini eshitishni o‘rganadi, do‘stlik tuyg‘ulari rivojlanadi. Bolalarni jamoa qilib ham tarbiyalash biroz qiyinroq vazifa hisoblanadi. Shuning uchun o‘yin faoliyati ahamiyatlidir. Boalarning fikr hosil bo‘lishi uchun tasavvur uyg‘otish zarur. Kasbga oid, axloqiy bilimlar hosil bo‘lishi uchun, fikrlashi uchun ham o‘yinlar orqali shakllantirilishi mumkin. Bunda har bir obyektlar ko‘z oldiga keltiriladi, vazifalari aytiladi, harakatlari tushuntiriladi. Bolaning tasavvuridan kelib chiqib berilgan vazifaning natijasi sifatli va muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘qituvchilardan o‘quv predmeti mazmunidagi ishonchsiz dalillardan voz kechish, ijtimoiy voqelik hodisalariga tanqidiy yondashish, natijalarni bashorat qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etilmoqda. Buning uchun o‘quvchilarda mustaqil fikrlarini o‘stirish, dialog, munozara, qaror qabul qilish, har bir mavzuga alohida yondoshish, muloqot vaziyatlarini modellashtira olish ko‘nikmalarini

takomillashtira olish nihoyatda zarur. Shunga ko‘ra o‘qituvchi o‘quv materiallarini o‘quvchilarga o‘yinlar yordamida taqdim etish metodidan samarali foydalanishi lozim.

Maktabga qadam qo‘ygan o‘quvchi moddiy borliqni tasavvur qilish, uni his etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Uning uchun olam yagona va bir butun hodisadir. O‘quvchilar mazkur olamni o‘z nuqtai nazarlariga ko‘ra tasavvur etadilar. O‘quvchilar sinfdan-sinfga o‘tganlari sari ularning moddiy borliq haqidagi tasavvurlari ham kengayib boradi. Ulardagi bilim faoliyati kengaygani sari, biror bir sohaga oid qobiliyat ham paydo bo‘ladi va atrof-muhitga to‘g‘ri munosabat uyg‘onadi. Bunday vaziyatda ularning munosabatlarini namoyon etuvchi yo‘llardan biri bu o‘yindir. O‘yin orqali bola o‘z munosabatlarini aks ettiradi, uning ijobiy va salbiy holatlari, ichki kechinmalari namoyon bo‘ladi.

Ko‘plab pedagoglar tomonidan o‘yinning o‘quvchi hayotida muhim o‘rin egallashi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ajdodlarimiz bolalarni tushunish uchun ularning o‘yin jarayonlarini kuzatish lozimligini uqtirganlar. Zardushtiylik dinida ham bolalarga muhofaza etishni, yashash sirlarini o‘yinlar orqali ko‘rsatib berilgan, qabila sardorlarini aniqlab olishgan va yetakchilik vazifalarini o‘rgatishgan. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilar uchun qulay vaziyatni vujudga keltirish, ularning o‘z hissiy olamlarini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratish uchun o‘qituvchi ta'lim jarayonida o‘yinlardan unumli foydalana olishi kerak. Kattalardan farqli tarzda o‘quvchilar o‘zlarining muloqot imkoniyatlari, ishchanliklari, sinfdoshlariga bo‘lgan munosabatlari, lug‘at boyligidagi so‘zlar farqini ular bilan amalga oshiradigan o‘yin yordamida namoyon qiladilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘yinlar faoliyatining mustaqil turi sifatida muayyan darajada hamma vaqt jamiyat hayot tarzini belgilagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi[7]. Mamlakatimizda ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondoshuvlar, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g‘oyasi asosida ijodiy va ijtimoiy faollikka, mustaqil ravishda istiqbol vazifalarini hal etishga qodir yangi avlodini kamol toptirish, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, milliy madaniy-tarixiy an'analar asosida tashkil etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada, yurt istiqboli uchun mas'uliyatli, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan noan'anaviy pedagogik yondashuvlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim texnologiyalardan foydalanish salmog‘i ortib bormoqda. Bularning barchasida yagona bir maqsadni, ya'ni Yangi O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart va muhimdir. Shu bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘yinlar vositasi orqali kasbiy kompetentlik elementlarini takomillashtirishga qaratilgan ta'lim tizimini kengaytirish zarurati mavjud. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasidagi “yangi, demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat'iyotli va omilkor bo‘lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab etmoqda” kabi g‘oyalar taklif etildi, bu borada ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish,

barkamol shaxs tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish zaruriyati yanada kengaytirildi[2]. [2, 4-b]

Mamlakatimiz rivojlanishining yangi davrida amalga oshiriladigan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri “adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” etib belgilandi. Jamiyatning hayot tarzi bilan tanishtirib borish uchun o‘qituvchi, murabbiylar birdek mas’ul hisoblanadi. Sifatli ta’lim esa o‘z-o‘zidan dars jarayonining loyihalashtirishga bog‘liq hisoblanadi. Shunga ko‘ra har xil o‘yin faoliyatini ta’lim jarayonida qo‘llash muhimdir. Didaktik, ta’limiy, ishchan, milliy o‘yinlar asosida darsni tashkil etish va bolalar hayotida qo‘llash orqali ham sifatli ta’lim berishga imkon yaratadi. Bolalarning ma’lum sohaga oid qiziqishlari tobora rivojlanib boradi, unda kasbiy kompetensiyaga oid bilimlar, fikrlar hosil bo‘ladi. Darslikdagi materiallar bilim hosil qiladi, o‘yinlar hosil bo‘lgan bilimlarini rivojlantiradi, xotirasida saqlab qoladi va egallagan kompetensiyalarini umumlashtirishga harakat qiladi. Zero buyuk bobomiz Mir Alisher Navoiy aytganlaridek: “Yoshlikda olingan bilim, toshga o‘yilgan naqsh kabidir”.
[3, 156-b]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli farmoni 6 b.
2. O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 29.04.2019 yildagi PF-5712-son 12 b.
3. Usmanxodjayev T.S va boshqalar – Milliy va harakatli o‘yinlar T.: “ Iqtisod-moliya” 2015y darslik 340 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK ASARLAR ORQALI KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Raximova Gulbaxor
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Bahriddinova Yulduz talaba
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada talabalar o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirish zarurati haqida fikr yuritiladi. Ajdodlarimizning pand-nasihat hamda o‘gitlaridan iborat bo‘lgan ma’naviy tarbiyaning yirik qismini tashkil etuvchi adabiy didaktik asarlar mazmun-mohiyatini yosh murg‘ak qalblarga singdirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, didaktik adabiyot, pand-nasihat, ma’naviy tarbiya, ko‘nikma.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga adabiy didaktik asarlarni o‘qish va uqish, mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, talabaning badiiy ijod namunalarini to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatish orqali ular o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, talaba badiiy matnni chuqur idrok qilmasa, undan estetik zavq olmasa, ularda ma’naviy

va ma’rifiy, komillik tuyg‘usini shakllantirish qiyin kechadi. Chunki kitobning inson hayotida tutgan o‘rni benihoyadir. Yoshlikdan bolada kitobga mehr-muhabbat uyg‘otish uning ruhiy, ma’naviy oziqlanishiga yordam beradi. Maktabdagi tarbiya ishlari, avvalo ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarga ta’lim berishda faqat ma’lum bilimlar bilan cheklanmay, kitobxonlik orqali ularda kuchli e’tiqod, iroda va xarakter sifatlarini ham tarkib toptirishi, qobiliyat va iste’dodlarini o‘stirishi ham lozim. Shu nuqtai nazardan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy-tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o‘qish darslarining tub mohiyatini tashkil etishda didaktik asarlarga suyanishsa, nazarimizda, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’naviy tarbiyaning katta qismi ma’naviy qadriyatlar, jumladan, ajdodlarimiz pand-nasihat, o‘gitlaridan olinadi. Bu pand-nasihat va o‘gitlar esa ulardan bizga qoldirilgan asarlarida mujassamlashgan. Haqiqiy o‘qimishli kitobxon esa ma’nan ozuqa bo‘lib, mazmunan uning ma’naviyatini yuksaltirishga qodir kitobni boshqalaridan osongina ajrata oladi. Ana shu mazmundagi kitoblarni o‘qish esa go‘yo fozilu olimlar suhbatidan bahramand bo‘lish bilan tengdir. Jumladan, shunday mazmundagi kitoblar sirasiga Kaykovusning “Qobusnoma” asarini kiritish mumkin. Afsuski, bugun ko‘p yoshlarimiz bu asarlarning mazmunidan bexabar qolmoqdalar, bu esa ayrim yoshlarning “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona, bilib-bilmay, tushunib-tushunmay ergashayotganlarida sezilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarning “Oqish”, “Tarbiya”, “Kitobim-oftobim” darsliklarida “Qobusnoma”dan namunalar kiritilgan. Bu namunalarni ilmi tahlil, ya’ni matn mazmunini tahlil etish usuli orqali o‘quvchilarga o‘rgatilsa, bolalarning tushunishlari oson bo‘ladi. “Qobusnoma” kitobning mazmuni shundan iboratki, shoh Kaykovus o‘zining hayotiy tajribalari bilan o‘g‘li Gilon shohni tarbiyalashni istaydi va o‘zining bu pand-nasihatlarini o‘g‘li uchun eng qimmatbaho meros deb ta’kidlaydi. U o‘z asari “Qobusnoma”da o‘g‘li Gilon shohga murojaat qilib deydi: “Ey farzand, umidim shuki, sen bu pandlarni qabul qilgaysan. Bilgilki, xalqning rusmi odati shundayki, yugurib-elib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladilar va narsalarini o‘zlarining yaxshi ko‘rgan kishisiga qoldirib ketadilar. Men dunyoda mana shu so‘zlarni hosil qildim, sen mening uchun eng qimmatbaho xazinasan. Menga safar vaqti yaqinlashdi, dunyodan nima hosil qilgan bo‘lsam, sening oldingga qo‘ydim, toki o‘zingga bino qo‘ymagaysan va o‘zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan”.

Kaykovus yana ushbu bobda o‘g‘liga nasihat qilib deydi: “… o‘z farzanding seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmatini joyiga qo‘y, zero, sen ularga qanday munosabatda bo‘lsang, xuddi shunday o‘zingga qaytgay”. U bu bilan ota-onaning ko‘nglini ranjitmaslikka, ularni hurmatini qilib, shirinso‘z bilan xushmuomala bo‘lishga undaydi. Kaykovus o‘g‘lini xalqqa yaqinlashishga, uning manfaatini ko‘zlashni farzandiga uqtiradi: “Xalqning ozgina yaxshiligini ko‘p ko‘rgil, qaysi narsa xalq manfaatiga yaqin turishini o‘rgan”, - deydi.

Kaykovus o‘z asarida tarbiyaga alohida e’tiborni qaratar ekan, tarbiyani inson aqlini va shaxsiy hayotni shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Bunda inson ruhiyatini yuksaklarga ko‘tarishni ilgari suradi, salbiy illatlarning sabablarini izlaydi. Xususan,

insonni tarbiyalashda hayotda tarbiyaning ta’sir o‘rni yuqori ekanligini e’tirof etishni burch deb biladi. Uning fikricha, yoshlarga tarbiya berishdan maqsad ularni nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham munosib shaxslar qilib yetishtirishdir. Shuning uchun muallif asarda yoshlarning xulq-atvoriga, fe’liga alohida e’tibor beradi. Shuningdek, do‘stu dushmanga ham qanday munosabatda bo‘lish kabi masalalarni ham yoritgan. Bola boshidan deyilganidek, farzandni tug‘ilgandan tarbiyalash, odob-axloq me’yorlarini o‘rgatish, ilmu hunarli qilish, bolaning mehnatga bo‘lgan ko‘nikmasini hosil qilish zarurligini, aks holda “kechikkan” tarbiyaning hech bir ta’siri bo‘lmay, zarur samarani bermasligini aytib o‘tgan. “Qobusnoma”da yoshlikda bor kuch-quvvatni bilim olish, kasb-hunar o‘rganishga sarflash ayni muddao ekanligi ta’kidlangan.

Hamma vaqt parhezli va qanoatbaxsh bo‘lish, bekorchilikdan o‘zini tiyish, doimo shod-xurram va harakatchan bo‘lish, kitob o‘qishga berilish, ilm yo‘lida qayg‘u-hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun takrorlab borish, yod olish, ilmda haqiqat uchun kurashish, taqlid qilmaslik, doimo o‘z yonida kitob va boshqa o‘quv qurollarini saqlash, oz so‘zlab, ko‘p tinglash haqida fikr bildiradi. Ilm yo‘lida munozaradan cheiknmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o‘z fikrini bayon qilish zarurligini ta’kidlaydi. Yana u olimning aytgani bilan qilgan ishi bir bo‘lishi kerakligi, ilmni chuqur o‘rganish, har bir kasb, sohaning bilimdoni bo‘lishda doimo kamtar, oqil, xalqparvar, har bir narsani oldindan ko‘ra biladigan bo‘lish kerakligini ham ko‘rsatib o‘tadi. Zero, ilmni faqat kitobdan o‘rganish bilan cheklanib qolmay, aql, tafakkur bilan hukm chiqarish zarurligini ham ta’kidlaydi.
Kaykovusning “Qobusnoma” asarida tarbiya, axloq masalalari asosiy o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, “Ota-onani hurmatlash haqida” bobida g‘oyat muhim bir fikrni bayon qiladi, bu o‘rinda xalqimizning “Nima eksang, shuni o‘rasan” degan mashhur bir maqolini ishlatadi. Unga ko‘ra kishi odamlarga yaxshilik qilsa, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat qilsa, uning bu ezgu ishlari boshqalardan qaytadi, mabodo yomonlik, dilozorlik qilsa ham qilmishlari boshqalardan, albatta, o‘ziga qaytadi.

Bu kabi masalalar kitobda ixcham hikoyatlar, rivoyatlar, she’r va latifalar, maqol va hikmatlar yordamida bayon qilinadi. Jumladan, 3-sinf o‘qish kitobida “Go‘zal fazilat – inson husni” nomi bilan quyidagi parcha keltirilgan: “Farzand aqlli va dono bo‘lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado etadi. Agar farzand ota-onaning ko‘nglini sal bo‘lsa-da ranjitsa, ularning qalbini azoblagan bo‘ladi. Ko‘rdingki, ota-ona seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazdi. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan. Chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho berolmaydi”. Matn tahlili asosida o‘quvchilarga farzandning ota-ona oldidagi vazifasi nimalardan iborat ekanligi uqtiriladi. Matndagi “ranjitmoq” so‘zini bolalarga “xafa qilmoq”, “ko‘nglini qoldirmoq” tarzida yanada sodda va aniqroq qilib tushuntirish lozim bo‘ladi. Ya’ni, o‘qituvchi bolalarga ota-onasini ranjitmaslik uchun o‘zini har taraflama yaxshi tutishi, ularni hurmat qilishi, so‘zlarini qadrlashi, gaplarini ikki qilmasligi, a’lo baholarga o‘qishi, yaqunlari va do‘stlari bilan inoq bo‘lishi zarurligini uqtiradi.

Matndagi “…ota-onang seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazdi”, degan o‘rinlarda ota-onaning farzand oldidagi burchi, mehr-muhabbati ifodalanadi. Ya’ni har

bir ota-onaning bolasini ham jismonan, ham aqlan pishiq bo‘lib tarbiyalanishidagi mehnatlari ko‘zda tutiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, yosh kitobxonlarimiz bo‘sh vaqtlarida bunday mazmundagi asarlarni o‘qib o‘z ma’naviyatlarini mohiyatan boyitadilar. Chunki jamiyatning ertangi kunini tinch va obod bo‘lishi, eng avvalo, yoshlarimiz olayotgan, o‘zlashtirayotgan ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Qaysi xonadon, mahalla, oilada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha xonadon, mahalla, oila ahil-totuvlikka oshno, topgan-tutganida baraka bo‘ladi. O‘z-o‘zidan yurt obodligi va ozodligi ham mustahkamlanib, yuksalib boraveradi. Boshlang‘ich ta’limda didaktik asarlar orqali kitobxonlikni shakllantirish asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

– talabalar kitobning inson hayotida tutgan o‘rni beqiyos ekanliginini yanada teran his qiladilar.

– bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari darsliklarda uchraydigan adabiy janrlarni farqlay olishlari bilan bir qatorda, badiiy o‘qish asoslariga oid eng muhim qoidalar, tasnif va tushunchalarni ham anglay oladilar.

- didaktik adabiyotlarni o‘qish va o‘rganish orqali kichik yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga doir bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladilar.

- kitob – umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda unga ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘st, ma‘naviy kamolotini ta’minlashda kuchli qudratga ega vosita ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Xullas, kitob insonni komillik sari yetaklovchi, uning ma’naviy zahirasini oshiruvchi qudratli kuchdir. U insonlarni moziyga sayohat qildiradi, sharqona qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimizning noyob jamlanmasi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodidan bahramand etadi, voqelikni bizning tasavvurimiz g‘alviridan o‘tkazadi. Kitob o‘qigan insonning avvalo madaniyati, ma’naviyati yuksak bo‘ladi, nutqi ravonlashadi, suhbatdoshni har qanday ilmlar bahsida o‘z bilimlari bilan bahramand eta oladi.

Adabiyotlar

1. Safo Matjon. Kitob o‘qishni bilasizmi? – T.: O‘qituvchi, 1993. – 144 b.
2. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. – Buxoro: Durdona, 2019. – 420 b.
3. Raximova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2022. – 308 b.
4. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy - uslubiy izlanishlar. – T.: Nizomiy nomidagi TDPI, 2009. –135 b.
5. Кайковус Унсурулмаолий. Қобуснома. –Т.: Истиқлол, 1994. – 173 б.

PEDAGOGIKA OLIYGOHLARI TALABALARINI O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (IQTISODIY FANLARNI O‘QITISH MISOLIDA)

Ruziyev Shuxrat Islamovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada ta'limni intensivlashtirish masalalari zamonaviy pedagogika fani va amaliyotining eng dolzarb muammolaridan biri ekanligi xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, pedagogika oliygohlari talabalarini o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirishda didaktikaning eng muhim muammolaridan biri: talabalarni qanday faollashtirish kerak, faollikni oshirish uchun qanday o'qitish usullaridan foydalanish kerakligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv faoliyat, muammo, yechim, ta’lim, o‘quv, bilim, usul.

Аннотация: В статье отмечается, что вопросы интенсификации образования являются одной из наиболее актуальных проблем современной педагогической науки и практики. Также анализируется одна из важнейших проблем дидактики в совершенствовании метода активизации учебной деятельности студентов педагогических вузов: как активизировать студентов, какие методы обучения использовать для повышения активности.

Ключевые слова: познавательная деятельность, проблема, решение, образование, обучение, знание, метод.

Abstract: The article mentions that issues of intensification of education are one of the most urgent problems of modern pedagogic science and practice. Also, one of the most important problems of didactics in improving the method of activating the educational activity of students of pedagogical universities: how to activate students, what teaching methods to use to increase activity is analyzed.

Key words: cognitive activity, problem, solution, education, training, knowledge, method.

Darhaqiqat, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish muammosini hal qilish amaliyotda tekshirilgan shart-sharoitlar va talabalarni faollashtirish vositalarini ilmiy tushunishni talab qiladi. Ta'limni insonparvarlashtirish sharoitida ommaviy ta'limning mavjud nazariyasi va texnologiyasi doimiy o'zgaruvchan dunyoda yashash va ishlashga qodir, o'z xulq-atvor strategiyasini dadil ishlab chiqishga qodir kuchli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. axloqiy tanlovlar va ular uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, ya'ni. o'z-o'zini rivojlantiradigan va o'zini o'zi anglaydigan shaxs. Ta'lim muassasasida har bir talabaning faol ishtirokini ta'minlaydigan, bilim nufuzini va talabalarning o'quv ishlari natijalari uchun individual mas'uliyatini oshiradigan bunday dars shakllari alohida o'rin tutadi. Ta'limning faol shakllaridan foydalanish texnologiyasi orqali bu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish mumkin.

Faol ta'limga bo'lgan ehtiyoj shundan iboratki, uning shakllari va usullari yordamida an'anaviy o'qitishda erishish qiyin bo'lgan muammolarni samarali hal qilish mumkin:

Nafaqat kognitiv, balki kasbiy motivlar va qiziqishlarni shakllantirish, mutaxassisning tizimli tafakkurini tarbiyalash.
Kollektiv fikrlash va amaliy ishlarni o'rgatish, ijtimoiy ko'nikmalar va o'zaro ta'sir va muloqot qilish, individual va birgalikda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, biznesga, ijtimoiy qadriyatlarga va jamoaning va umuman jamiyatning munosabatlariga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash.
Ta'lim - tizimli ta'lim olishning eng muhim va ishonchli usuli. O'rganish o'qituvchi tomonidan boshqariladigan muayyan bilish jarayonidan boshqa narsa emas. Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘la o‘zlashtirishi, aqliy quvvati va ijodkorligining rivojlanishini ta’minlaydigan o‘qituvchining yetakchi roli hisoblanadi.
Kognitiv faoliyat - bu hissiy idrok, nazariy fikrlash va amaliy faoliyatning birligi. U hayotning har bir bosqichida, talabalar faoliyatining barcha turlarida va ijtimoiy munosabatlarida (mahsulotli va ijtimoiy foydali mehnat, qadriyatga yo‘naltirilgan va badiiy-estetik faoliyat, muloqot), shuningdek, turli predmetli-amaliy harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. o'quv jarayoni (eksperiment, dizayn, yechim tadqiqot vazifalari va boshqalar).
O'rganish, boshqa jarayonlar kabi, harakat bilan bog'liq. O'quv jarayonidagi harakat bir ta'lim muammosini hal qilishdan ikkinchisiga o'tadi, talabani bilim yo'lida: jaholatdan bilimga, so'ngra to'liq bo'lmagan bilimdan to'liqroq va aniqroq bilimga o'tadi. Ta'lim bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni mexanik "o'tkazish" ga kamaytirilmaydi, chunki Ta'lim - bu o'qituvchi va talabalarning yaqindan o'zaro ta'siri bo'lgan ikki tomonlama jarayon: o'qitish va o'rganish.
Talabalarning o'qituvchining darsiga munosabati odatda faollik bilan tavsiflanadi.
Faoliyat (o'rganish, o'zlashtirish, mazmun va boshqalar) talabaning o'z faoliyati sub'ekti bilan "aloqa" darajasini (intensivligini, kuchini) belgilaydi.
Faoliyat tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:
• tarbiyaviy vazifalarni bajarishga tayyorlik;
• mustaqil faoliyatga intilish;
• topshiriqlarni bajarishda vijdonlilik;
• tizimli kadrlar tayyorlash;
• shaxsiy darajangizni va boshqalarni yaxshilash istagi.
Ushbu shartlarga rioya qilish bosma mashqlar kitoblari va topshiriq kitoblaridan foydalanish orqali osonlashadi.
Ko'pgina o'qituvchilar uy qurilishi didaktik tarqatma materiallardan foydalanadilar.
E.A. Genike ularni an'anaviy ravishda quyidagi turlarga ajratadi:
– “o‘qituvchi tomonidan oldindan tushuntirishsiz yangi bilimlarni idrok etish va tushunish uchun talabalarning mustaqil ishi uchun didaktik materiallar;
– darslik matnini jadval yoki rejaga aylantirish topshirig‘i bo‘lgan karta;
– chizma va diagrammalarni og‘zaki javobga aylantirish vazifasi qo‘yilgan karta;
- ko'rgazmali qurollar namoyishini kuzatish, o'z-o'zini kuzatish uchun topshiriqli karta;
– mustahkamlash maqsadida talabalarning mustaqil ishi uchun didaktik materiallar va bilim va ko'nikmalarni qo'llash;
– mulohaza yuritish uchun savollar bilan karta;
– topshiriqni bajarish uchun sxema (chizma) bo‘yicha topshiriq yozilgan karta;

– bilim va ko‘nikmalarni nazorat qilish maqsadida talabalarning mustaqil ishi uchun didaktik materiallar. Bir necha usulda foydalanish mumkin. Butun guruh uchun - 2-4 variant va individual topshiriqlar sifatida. Bilimlarni takrorlash va mustahkamlash maqsadida amalga oshirilishi mumkin;

- Test topshiriqlari. Men ularni alohida-alohida va butun guruh uchun ham ishlataman. So'nggi paytlarda test topshiriqlari o'z kamchiliklariga ega bo'lsa-da, samaraliroq bo'ldi. Ba'zan talabalar javobni taxmin qilishga harakat qilishadi.

Oliy maktab talabalarining faolligini oshirish uchun muammoli yondashuv keng qo‘llaniladi. Muammoni bayon qilish va uni hal qilish yo'llarini izlash aqliy faoliyatning turli turlarini rivojlantirishga yordam beradi: tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Беспалько, В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения/В.П.Беспалько. - М.: Издательство ИРПО МО РФ, 1995. – 336 с.
2. Коджаспирова, Г.М. Педагогика/Г.М. Коджаспирова. - М.:ВЛАДОС, 2004.352 с
3. Кукушин, В. С. Теория и методика обучения: учебное пособие / В. С. Кукушин. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2005. - 474 с. Орлов, А.А. Введение в педагогическую деятельность: учеб.- метод. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / А.А. Орлов.- М.: Академия, 2004. – 281с.

Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).

PEDAGOGIK KOOPERATIV TA’LIM ASOSIDA TALABALARNING TOLERANTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Ro‘ziboyeva Ma’mura Abdunabiyevna
University of economics and pedagogy
Pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti.

Annotatsiya. Maqolada kooperativ ta’limni tashkil etishning zarurati va imkoniyatlari yoritib berilgan. Muallif nazariy materiallarni tahlil etish asosida "kooperatsiya", "kooperativ o‘qitish", "kooperativ ta’lim" tushunchalari mohiyatini ochib bergan.Shuningdek, maqolada kooperativ guruhlarning o‘ziga xosliklari, ularni shakllantirish usullari,shartlari hamda kooperativ ta’limning keng qo‘llash imkoniyatiga ega metodlarining mohiyati va qo‘llash usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kooperatsiya, hamkorlik, raqobat, kooperativ o‘qitish, kooperativ ta’lim, kooperativ guruhlar, metod, faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik.

Talabalarim mendan yangi narsalarni o‘rganmaydilar;
ular bu yangi narsalarni o‘zlari kashf etadilar.
Mening asosiy vazifam-ularga o‘zlarini ochishga,
o‘z g‘oyalarini rivojlantirishga yordam berish.
I.G.Pectalotsi

Zamonaviy jamiyat bizning ko‘z o‘ngimizda tez sur’atlar bilan murakkablashmoqda. Savodli odamning asosiy fazilatlari - o ‘qish, yozish, hisoblash

qobiliyati endi yetarli emas. Shu sababli, ilgari ijtimoiy muhit tomonidan o‘z-o‘zidan shakllangan hamkorlik ko‘nikmalarini o‘rganish kerak .

Jamiyat faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik kabi shaxsiy fazilatlarga ega odamlarga muhtoj. Ushbu fazilatlarni darsda mustaqil o‘quv faoliyati jarayonida rivojlantirish mumkin, shuning uchun men o‘z ishimda o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda hamkorlik qilish, o‘quv jarayonida ularning hamkorligini tashkil etish muhim deb bilaman. Men o‘z oldimga qo‘ygan asosiy vazifalar-bu talabalarning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish orqali guruh ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish, talabalar o‘z bilimlariga ega bo‘lgan darslar tizimini yaratishdir.

Kooperativ ta’lim - bu o‘quvchilarning sinfini kichik guruhlarga bo‘lish jarayoni bo‘lib, ular birgalikda yangi tushunchani kashf qilishlari va bir-birlarini o‘rganishlariga yordam berishlari mumkin[1].

Tayyorgarlik bosqichi. Quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: ushbu texnologiyadan foydalanish maqsadlarini aniq anglash, muammoni aniqlash, maqsadlarga muvofiq guruh ishlarining tuzilmalarini tanlash, jihozlarni tayyorlash. O‘qituvchi rejalashtirishi kerak: ish joyini qanday tashkil qilish kerak; guruhda qancha talaba bo‘lishi kerak; har bir guruhga kim kirishi kerak; ijobiy o‘zaro bog‘liqlik holatini qanday ta’minlash kerak; qanday materiallarni tayyorlash va ularni o‘quvchilarga qachon tarqatish kerak.

O‘quv topshirig‘ini bajarish. O‘qituvchi talabalarga topshiriqlarni taklif qiladi, ishning mazmuni va maqsadini tushuntiradi, ishni individual baholash usuli haqida gapiradi. Xuddi shu bosqichda talabalar guruhda ishlash qoidalarini eslatishlari kerak: erkin fikr almashish (har kim o‘z fikrlarini bildirish, o‘z variantlarini taklif qilish, g‘oyalarni ilgari surish huquqiga ega; har kimga xato qilish huquqi beriladi). Har bir ishtirokchining fikrini hurmat qilish (panelist tomonidan bildirilgan fikr e’tibordan chetda qolmasligi, eshitilishi kerak). Tanqidga bag‘rikenglik. Ushbu bosqichda o‘qituvchi "o‘zini o‘zi boshqarish" rejimini ta’minlaydi, guruhlarning ishiga aralashmaslikka harakat qiladi, ammo agar kerak bo‘lsa, savollari bo‘lganlarga yordamga keladi, intizomga rioya qilinishini nazorat qiladi.

Natijalardan umumiy xulosa, bajarilgan ishlarning har bir ishtirokchisi va unda ishtirok etishining aks ettiruvchi tushunchasi. Hamkorlik sharoitida ishlash o‘quv ishlarining juda samarali rejimidir. Treningdagi hamkorlik sizga materialni yaxshiroq o‘zlashtirish va uni uzoqroq eslab qolish imkonini beradi.

Kooperativ ta’lim-bu umumiy muammoni hal qilish uchun birlashtirilgan kichik guruhlardagi o‘quvchilarning o‘zaro ta’siri usuli.

Ammo, Xitoy donoligi aytadi “bilmasligingizdan qo‘rqmang – o‘rganmasligingizdan qo‘rqing, o‘qituvchilar faqat eshiklarni ochadilar, keyin siz o‘zingiz borasiz”[2].

Kooperatsiya sharoitida faoliyat quyidagilarni ta’minlaydi. O‘quv jarayonining samaradorligi va mahsuldorligining yuqori darajasi, materialni tushunish darajasi oshadi, nostandart yechimlar soni ortib boradi, yangi g‘oyalar tez-tez ilgari suriladi, muammolarni hal qilishning kutilmagan variantlari taklif etiladi, o‘rganishga qiziqishning keskin o‘sishi kuzatiladi; o‘rganilayotgan materialga ijobiy munosabat shakllanadi; guruhda ishlash aloqa imkoniyatlarini ochadi. Talabalar o‘z harakatlarini

to‘g‘ri baholashni o‘rganadilar. Guruhda do‘stona va do‘stona muhit shakllanadi. Guruhda ishlash kognitiv motivatsiyani va qiziqishni oshirish qobiliyatini rag‘batlantiradi.

Nazariy asoslash L. S. Vygotskiy shunday deb yozgani bejiz emas:"bolalar bugun faqat birgalikda qila oladigan narsani, ertaga ular o‘zlari qila oladilar". Xo‘sh, o‘quv faoliyatining guruh shakli nima? Sinf bir nechta kichik guruhlarga bo‘linadi (3 dan 6 kishigacha)[3]. Har bir guruh o‘z vazifasini oladi. Vazifalar barcha guruhlar uchun bir xil yoki farqlanishi mumkin. Har bir guruh ichida uning a’zolari o‘rtasida rollar taqsimlanadi. Guruhdagi vazifani bajarish jarayoni fikrlar, xulosalar, baholar almashinuvi asosida amalga oshiriladi. Guruhda ishlab chiqilgan qarorlar butun sinf tomonidan muhokama qilinadi.

Men o‘quv guruhlarini talabalarning o‘quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda to‘ldiraman, shu bilan birga kuchli, o‘rta va zaif talabalar birlashtirilgan heterojen tarkib guruhlari o‘zlarini yanada samarali ko‘rsatdilar. Kam o‘qigan talabalar qo‘shimcha tushuntirish olish imkoniyatiga ega. Kuchli o‘quvchilarning nazorati tufayli ular kamroq xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Guruh ishi sharoitida o‘rtacha talabalar tushunarsiz muammolarni tezda hal qilishadi, muammolarni hal qilishning samarali usullarini o‘zlashtiradilar.

Guruh ishi kuchli talabalar uchun ham foydalidir: o‘rtoqlarga o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam berish, ular o‘zlarining malakalarini, ko‘nikmalarini ikki marta tekshiradilar va mustahkamlaydilar. Guruhda ishlash paytida talabalar ma’lumot almashadilar, bilimlarni o‘zaro baholaydilar, javoblarni taqqoslaydilar, xatolar qayerda bo‘lganligini qidiradilar. Guruhda ishni to‘g‘ri tashkil etish bilan demokratiya, do‘stona muloqot, birgalikdagi ish natijasi uchun javobgarlik muhiti yaratiladi. Guruhdagi ish har bir ishtirokchini do‘stining fikrini tinglashga, javoblarining to‘g‘riligini isbotlashni o‘rganishga, jamoaviy qarorni ishlab chiqishga va umumiy ishning muvaffaqiyati haqida qayg‘urishga o‘rgatadi. Talabalar aqliy faoliyat usullarini rivojlantiradilar, bu ularning o‘quv faoliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Talabalar o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Dastlabki minimal bilimlarni olish o‘rganilayotgan materialning mustahkamligini o‘z ichiga oladi Pedagogik faoliyatning maqsadi va vazifalari o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘rganilayotgan materialni har bir talaba uchun fikr, mulohaza mavzusiga aylantirishdir. Talabada jamoada ishlash, o‘zini va faoliyati natijalarini namoyish etish, maqsadga erishish, o‘qitish va o‘qitish qobiliyatini shakllantirish juda muhimdir.

Kooperativ ta’lim-bu o‘quv jarayoni deyarli barcha talabalar bilim jarayonida ishtirok etadigan tarzda davom etadigan kognitiv faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli.

Jamoatchilik fikri- tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning eng muhim usuli bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarish natijalariga qamrab muntazam rag‘batlantirib borishda namoyon bo‘ladi[4].

Yetakchi pedagogik g‘oya asosiy pedagogik g‘oya-bu turli darajadagi rivojlanish, imkoniyatlar va individual xususiyatlar talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.

Guruh ishi shaklini o‘qitishda hamkorlik qilish tizimi guruh shakli-bir xil yoki har xil akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan 4-6 kishidan iborat doimiy guruhni tashkil etish. Juftlik shakli-bu juftlik ta’lim faoliyatini tashkil etishda asosiy narsa o‘zaro o‘rganish va o‘zaro nazorat. Guruhga savol beriladi. 5-10 daqiqa ichida guruhlar jamoaviy fikrni ishlab chiqishga yoki xulosa chiqarishga harakat qilib, qo‘yilgan masalani muhokama qiladilar. Keyin har bir guruh vakili barchaga aniq javobni taqdim etadi. Bunday texnologiyaning asosiy maqsadi talabalarni o‘z fikrlarini bildirishga va munozarada faol ishtirok etishga undashdir. Berilgan vazifalar quyidagilarga qisqartiriladi:

- muammoning yechimini toping;
- xulosa chiqarish;
- o‘z mahoratingizni qo‘llang.

Ushbu texnologiyaning afzalligi shundaki, unga barcha talabalar jalb qilinadi. Guruh va juftlik o‘qitish usullaridan foydalanish menga ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi. Guruh ishini baholash men o‘z ishimda guruh ishining xususiyatiga, materialga va uning muammo bo‘yicha dars tizimidagi joyiga qarab bir nechta baholash usullarini qo‘llayman.Guruhning barcha a’zolari bir xil belgilarga ega, ammo guruh loyihasini kim himoya qiladi, qo‘shimcha ball oladi. Har birining individual belgisi.

Darsda ishning guruh shaklini o‘qitish usuli bo‘yicha to‘rt turga bo‘lish mumkin:

- tushuntirish
- illyustrativ;
- reproduktiv;
-evristik (qisman qidirish);
- tadqiqot.

Guruh ishining tushuntirish va tasviriy usuli. Ushbu usulning ahamiyati shundaki, "o‘qituvchi tayyor ma’lumotni turli yo‘llar bilan yetkazadi va talabalar ushbu ma’lumotni idrok etadilar, anglaydilar va xotirada saqlaydilar". Guruh ishi sharoitida ma’lumot uzatish funktsiyasi o‘qituvchidan talaba maslahatchisiga o‘tadi. Masalan, ushbu guruh ishi usuli hisoblash muammolarini hal qilishda ishlatilishi mumkin. Jonson muvaffaqiyatli kooperativ ta’limning beshta asosiy mezonini aniqladi[1]:

Har bir o‘quvchining muvaffaqiyati boshqa o‘quvchilarning vijdonliligiga bog‘liq. Talabalar o‘zaro mas’uliyatni va jamoada ishlashni o‘rganadilar.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash. Talabalar bir-birlarini bevosita qo‘llab-quvvatlaydilar. Ular fikr almashadilar, manbalar va materiallar almashadilar, ishning birgalikdagi natijasini olish uchun bir-birlarining ishlarini baholaydilar. Ular bir-birlariga yangi materiallarni tushuntiradilar va bilimlardagi bo‘shliqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Ma’suliyat. Har bir talaba guruh ishida ishtirok etadi va berilgan muammo ustida ishlashga hissa qo‘shadi. Har bir ishtirokchi guruh faoliyati natijasi uchun javobgardir.

Har bir ishtirokchi o‘zi uchun mumkin bo‘lgan ishni bajaradi, masalaning mohiyatini tushunishga va uni boshqa talabalarga tushuntirishga harakat qiladi.

Ijtimoiy kompetentsiya. Talabalar o‘zaro ishonch va hurmatni o‘rganadilar. Talabalar muloqot paytida o‘z fikrlarini aniq va aniq ifoda etishni o‘rganadilar va yuzaga keladigan muammolarni hal qiladilar.

Kooperativ ta’lim usullari. Kooperativ ta’limotlarga misollar:

Ta’lim orqali o‘qitish

Guruh jumboq yoki mozaika

"Men-Siz-Biz"Texnikasi.

O‘qitishning alohida turi-bu ichki ta’lim. Biroq, kooperativ ta’lim va kompaniya ichidagi ta’lim o‘zaro bog‘liqdir. Kooperativ ta’lim guruha ichidagi ta’limning bir qismi bo‘lishi mumkinligi sababli, ichki trening, guruh ichidagi ta’lim insonning uzluksiz ta’limini ta’minlaydi.

Guruh ichidagi o‘qitish tizimi kattalarga, talabaga butun mehnat faoliyati davomida o‘z malakasini oshirishni, bilim darajasini oshirishni va yangi kasbiy muhim kompetentsiyalarni shakllantirishni ta’minlaydi.

Shuning uchun guruhda o‘qitish insonning muvaffaqiyatli faoliyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, talabaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Ushbu turdagi mashg‘ulotlar quyidagi printsiplarga asoslanadi. Uning barcha ko‘rinishlarida kompaniya ichidagi mashg‘ulotlar, birinchi navbatda, ishlash istagiga asoslangan. Printsiplar:

- mustaqillik;
- refleksivlik-o‘quv jarayonini doimiy tushunish;
- tajribaga tayanish;
- kooperativlik-qo‘shma faoliyatni tashkil etish;
- shaxsiyat-talabaning ehtiyojlariga e’tibor;
- innovatsiya-yangi narsalarni o‘rganish;
- aktuallashtirish - olingan bilimlarni amalda qo‘llash.

Kontent bo‘limida o‘quv jarayonini individuallashtirishga alohida e’tibor beriladi. Bu individuallashtirish guruh ichidagi ta’limni eng samarali bo‘lishiga imkon beradi, chunki bunday guruh ichidagi mashg‘ulotlar talabaning ehtiyojlariga qaratilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Johnson, D, Johnson, R. (1999). Learning together and alone: cooperative, competitive, and individualistic learning. Boston: Allyn and Bacon.
2. Блонский П.П. Память и мышление. – М., 2003.
3. Выготский Л.С. Культурно-историческая теория психического развития. – М., 1998.
4. B.X.Xodjaev “Umumiy pedagogika”, “sano-standart” nashriyoti .Toshkent-2017yil.

AVESTO TA’LIMOTIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI VA TARBIYASINING VUJUDGA KELISHI

Barno Saidova Narzullayevna
Amaliy fanlar universiteti
Pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika tarixida xotin-qizlarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati haqida ilmiy asosga ega bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan va tahlil qilingan. Bugungi kunda talabalarga o‘tmishda har bir sohada faol, jasoratli ajdodlari borligini faxr va g‘urur tuyg‘usiga aylantirish bugungi kun pedagoglari oldida turgan eng muhim vazifadir. Shu jihatdan maqolada o‘tmishdagi ayollarning jamiyatdagi mavqeyi va ta’lim-tarbiya jarayonidagi roli haqida ma’lumotlar ilmiy asoslangan holda keltirib berilgan.

Kalit so‘zlar: insoniyat tamadduni, milliy qadriyatlar, tarixiy manbalar, savodli odamlarning xo‘jaligi, madaniyatli turmush, adabiy va ilmiy asarlar, qabila rahbariyatidagi oqsoqollar, tamaddun, tadrijiy rivojlanish.

Kirish. Jahon tarixi sahifalarida ta’limning boshlanishi Qadimgi Sharq mamlakatlarida paydo bo‘lgani haqida ma’lumotlar ko‘p. Ayniqsa, eng qadimgi Sharq tarixida birinchi ta’lim muassasalari Mesopotamiya shaharlarida miloddan avvalgi 3-mingyillikda paydo bo‘lgani borasida ilmiy dalillar keltirilgan. Biroq barcha tarixiy manbalar va ulardagi faktlar tarixiy yondashuv asosida o‘sha davrlardagi ta’lim jarayonini savodli odamlarning xo‘jaligi hamda madaniyatli turmushini tashkil etish ehtiyojlaridan kelib chiqqani bilan bog‘lab talqin etiladi. Ushbu jarayonda, ya’ni ta’limning vujudga kelishi, uning tadrijiy rivojlanishida pedagogik omillar qanday shakllangan, qanday takomillashtirilgani esa aniq ilmiy muammoga aylanmagan.

Ma’lumki, “Avesto” o‘z mohiyatiga ko‘ra diniy asar, ammo u insoniyatda tabiatga nisbatan hurmat hissini uyg‘otib, ona-zaminga tabiatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida qarashni o‘rgatadi. Shu sababdan asarga nisbatan nafaqat o‘tmish ajdodlarning diniy merosi sifatida qarash, balki qadim tarixi, madaniyati va tafakkur tarzini o‘rganish uchun juda muhim bo‘lgan bebaho, tarixiy manba sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi.

“Avesto” qadimgi ajdodlarimizning o‘ziga xos qadriyat va urf-odatlarining mohiyatini teologik-falsafiy asosda aks etgan. Unda “men ezgu fikr (niyat)larni, ezgu so‘zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman. Men mazdayasna qonunlariga asoslangan targ‘ibotlarni ulug‘layman”, degan fikrlar keltiriladi. Demak, zardushtiylikda iymonning uch tayanchi: fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi va amallarning insoniyligi ta’limotning asosini tashkil etadi. Bu qarashlar shaxs tarbiyasida muhim omil sanalgani bois “Avesto”da ta’lim, tarbiya, axloq, insonning ma’naviy kamolot darajasi maxsus o‘rganilganini qayd etish lozim bo‘ladi.

“Avesto”da ayol “rita sia bonu” yoki “asha bonu” deb nomlangan. Sanskrit tilidan tarjima qilingan ushbu so‘zlar yorug‘lik, haqiqat va sadoqatni anglatadi. “Bonu” so‘zi bugungi kunda ham eng yaxshi fazilatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan ayol ismlarining qo‘shimchasi sifatida ishatiladi. Masalan, forsiy tilida “kad” so‘zi “uy”, “o‘choq” ma’nosini anglatadi. O‘choqni muqaddas tutib, uy-ro‘zg‘orni mahorat

bilan boshqaradigan ayol “kadbonu” deyiladi. Qadim zamonlardan buyon “bonu” so‘zi nur, yorug‘lik va vafo sifatida ishlatilgan. “Ona” so‘zi ham sanskrit tilida alohida ma’noga ega, u “matri”ga o‘xshaydi va “tarbiyachi” degan ma’noni anglatadi. “Savsari” sanskrit tilida opa-singillar ma’nosini ifoda etib, bu ham xayrixohlik va muqaddaslikni anglatadi. Ko‘rinib turibdiki, ayollar va xotin-qizlarga munosabat o‘zgacha nozik, mukammal bo‘lgan va qadimgi davrlardan boshlab ajdodlarimiz ona, ayol tushunchalarini sadoqat va muqaddaslikning ramzi deb hisoblashgan, ularga oilada bolalarining tarbiyachisi sifatida muhim maqom berishgan. “Avesto” zamonidagi jamiyatda oila “nmana”, oilaning eng katta ayoli “nmanapatni”, ya’ni uyning bekasi maqomiga ega bo‘lgan.

O‘rta Osiyo hududining Pomir tog‘lari va tog‘oldi mintaqalaridan topilgan haykalchalar, tosh yozuvlari, yozma manbalar shaklidagi tarixiy yodgorliklar, qadimda ushbu maskanlarda ayollar jamiyatda katta mavqega egaligidan dalolat beradi. Insoniyat tarixi rivojlanishining ilk bosqichlarida ayol-ona hamisha eri va oilaning boshqa erkaklari yo‘qligida, uyda o‘tirib, uyda olovni saqlab turganida, bolalarni tarbiyalab, oziq-ovqat tayyorlab, mevalar yig‘ib, kiyim-kechak tikib, chorva mollarini boqib, hattoki yer haydagan paytlarda O‘rta Osiyo xalqlarining ta’lim tizimiga tamal toshi qo‘yilgan edi. O‘shanda mehnat tarbiyasi ta’limning bosh mezoni hisoblangan. Kelajakda odamlarning chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarining intensiv o‘sishi nafaqat tegishli aqliy rivojlanishni, balki ma’lum bir jismoniy rivojlanishni ham talab qilar edi[1].

O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardan qolgan boy merosi deyarli butunlay xalq ijodiga asoslangan va ular mehnatsevarlik, halollik va adolatparvarlikka bag‘ishlangan. Bu manzarani ayollarning eng yaxshi an’anaviy qo‘shiqlar, go‘daklar uchun allalar, ertak va afsonalar, kichik va katta she’rlarni avloddan avlodga o‘tkazishda asosiy vositachi yoki bog‘lovchi halqa bo‘lganliklarida ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, o‘sib borayotgan bolalarda odob-axloq va vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalash uchun ibratli hikoyalar hamda rivoyatlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda oila, uning doirasida ayol bolalarni yoshligidan milliy urf-odatlar asosida tarbiyalab kelgan. Shunday qilib, antik davrda uydagi ta’lim bolalarning jismoniy va intellektual rivojlanish maktablarining dastlabki boshlang‘ich nuqtasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnatga, jismoniy chidamlilikka, hunarmandchilikning har xil turlariga, xalq ijodi va milliy g‘ururga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash aynan oiladan boshlanadi. Ayollar boshchiligidagi oila maktablari bolalar tarbiyasining asosiy omiliga aylantirilgan.

Qadimgi odamlarning ta’lim-tarbiyasi jarayonida axloqiy va diniy tushunchalarda ifoda etilgan xalqning ma’naviy qadriyatlari muhim rol o‘ynagan. Aynan shu jihatlar bois zamonaviy pedagogika ilmida yozma manbalardagi bizgacha yetib kelgan milliy ta’lim an’analarini o‘rganishga, ularni saqlashga va albatta, ulardan saboq olishga ko‘proq e’tibor qaratish hamda unga tayanish lozimligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qadimgi zamonda umumiy ta’lim, jumladan ayollar ta’limi, qizlarning ta’limdagi qamrovi balkim ommaviy bo‘lmagan, barchada bunday ikmoniyatdan foydalanish sharoiti bo‘lmagan, ammo bu jarayoni mutloq bo‘lmagan degan ma’noni anglatmaydi. Ayollar zimmasiga yuklanadigan

barcha tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lgan amallar aynan, tizimli pedagogik munosabatlar ifodasi bo‘lsa-da, ammo tizimli o‘rganilmaganligicha qolib ketgan. Binobarin, tarixning ma’lum davrlarida Sharq, jumladan O‘rta Osiyo ayollari savodsiz, faqat uyda o‘tirganlar, degan ilmiy farazlar ilgari surilgan va o‘ylaymizki ular g‘arazli maqsadlar yo‘lidagi uydirmalardan boshqa narsa emas edi. Ma’lumki, ta’lim va tarbiya o‘z mohiyat-e’tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat o‘z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o‘zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Bilimli, tarbiyali, ma’naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shishga intiladi. Shu hayotiy falsafa O‘rta Osiyo xalqlarining ajdodlari uchun qadim zamonlardan boshlab dasturulamal bo‘lganini aynan ilmiy ma’lumot va xulosalar isbotlaydi. Qadimdan ajdodlarimiz porloq kelajak albatta ta’lim va tarbiya jarayonining natijasida qo‘lga kiritilishi mumkinligiga ishongan va shu maqsadda barcha hikmat hamda o‘gitlar yaratilgan. Ularga ko‘ra, insonning qadri unga biror narsani ishonib topshirish, uni biror muhim vazifaga mas’ul qilish bilan shakllanadi. Ayol ham bashariyat tarixining turli bosqichlarida, dunyoning turli nuqtalarida va albatta vaqt nuqtai nazaridan turli davrlarda eng yuksak mas’uliyatga musharraf bo‘lib kelgan. Yuqorida keltirilgan ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ko‘ra quyidaga xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Ayol kishi naslni davom ettirishdagi omillar ichida asosiy unsurdir. Uning asosiy vazifasi o‘zidan keyin jismoniy va ruhiy salohiyatga ega bo‘lgan sog‘lom va yetuk kelajak davomchilarini dunyoga keltirishdir. Bunday mas’uliyatli vazifani ado etishi uchun ayrim ishlardan ozod etilishi, ba’zi imtiyozlarga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, u o‘z vazifasini to‘la-to‘kis ado etolmasligi mumkin. Bu vazifani ado etishi uchun ayol fahm-farosatli, muloyim, es-hushi joyida hamda sog‘lom bo‘lishi kerak.

Ayol kishi oilada ham, butun jamiyatda ham o‘z o‘rnini topishi uchun unga berilgan imkoniyatlardan to‘la foydalanishi lozim. Chunki har bir ayol-qiz xuddi erkaklar kabi ilm olishga, salomatligini mustahkamlash yo‘lida, qo‘lidagi mol-mulkini ko‘paytirish yo‘lida harakat qilishga, shuningdek, obro‘ va martabasini himoya qilishga va boshqa insoniy huquqlarga ega. Bu imkoniyatlar esa ularni kamolotga erishishlarida asosiy omil vazifasini o‘taydi. Qolaversa, bunday mahorat darslari o‘ziga xos metod va usullarni talab etishi ham ayni haqiqat bo‘lib, alohida ilmiy muammo sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Bugungi kun pedagog va tarixchi olimlari oldidagi eng asosiy vazifalardan biri, pedagogika tarixini, ayniqsa, o‘zbek pedagogikasi tarixini mukammal o‘rganishlar asosida tahlil etish va yoritib berishdir. Tadqiqot ishimizni yoritish davomida o‘zimizning mintaqamizda bu masalaning aniq bir mavzu sifatida, muammo sifatida o‘rganilmaganligiga shoxid bo‘ldik. Afsuski, shu paytgacha ayollar ta’limi va tarbiyasining tarixiy taraqqiyotini tizimlashtirgan holatda o‘rgangan tarixchi yoki pedagog olimlarimiz yuq. Ular xotin-qizlar ta’limining ba’zi jihatlarini, ayniqsa adabiyotga qo‘shgan hissasini o‘rgangan, xolos. Aslida esa, O‘rta Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishida, uning dunyoga tanilishida ayollarning mehnati yuqoridir. Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizga ancha muddat bo‘lishiga qaramasdan hali ham ochilmagan va tahlil qilinmagan muammolarimiz mavjud, ayniqsa bugungi kun siyosatida ayol ulug‘lanmoqda, ularning jamiyatdagi mavqeyi ko‘tarilmoqda. Gender pedagogika fani rivojlanmoqda, xotin-qizlar xuquqini himoya qilish, ularning

kamsitilishini oldini olish, ayollarning jamiyatdagi nufuzini oshirish bugungi kunning eng asosiy maqsadidir. O‘tmish haqidagi ma’lumotlarni ta’lim jarayoniga olib kirish, yoshlarimizga pedagogika tarixi haqida to‘liq va asosli ma’lumot berish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagoglarimiz oldida turgan eng ulug‘ maqsaddir. Sukut saqlangan va o‘rganilmagan manbalarni pedagogik jihatdan o‘rganish hamda kelgusida darsliklar, metodik qo‘llanmalar mazmuniga singdirish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

2. Гафуров Б.Г. Точикон: таърихи қадимтарин, қадим ва асри миёна. Китоби якум. – Душанбе: «Ирфон», 1998. – 704 б.

3. Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.

4. Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б.

5. Назаров Р. Философия образования эпохи зороастризма. БУЛЛЕТИН оф ИИСАС. Волуме 14, 2011.//Авеста. Древнейшие гимны и иранские тексты /пер. и комментарии Джалили Дустхох (на тадж.яз). – Душанбе, 2001. – 78 б.

6. История таджикского народа. Том ИИ. Эпоха формирования таджикского народа. – Душанбе, Алҳудо, 1999. – 791 б.

7. Айнӣ Б. Таърихи инқилоби Бухоро. –Душанбе, «Адиб», 1987, – 240 б.

8. Народы Средней Азии и Казахстана. Этнографические очерки. – М.: Изд-во АН СССР, Т. И, 1962. – 791 б.

9. Ливщиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – СПб., 2008. – 414 б.

10. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: «Наука», 1970. – 288 б.

11. Брагинский И.Б. Из истории персидской и таджикской литератур. – М.: «Наука», 1972. – 524 б.

STEAM TA’LIMINI JORIY QILISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
katta o‘qituvchisi, dots.v.b. (PhD)

(Tabiiy fanlar misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM yondashuv asosida boshlang‘ich ta’limda “Tabiiy fanlar”ning o‘zaro fanlararo bog‘liqligi ifoda etilgan. Ya’ni, “Tabiiy fanlar” o‘zaro qay tartibda fanlar bilan integrativ jarayonga kirishishi va fanlararo aloqadorlik STEAM yondashuv asosida qanday yoritilishi bayon etilgan. Mamlakatimizda ilk bor STEAM ta'limi umumta'lim maktablarida boshlang‘ich sinflarida “Tabiiy fanlar”ning o‘qitilishi joriy qilinmoqda. Har qanday yondashuv ta'lim sohasiga taqdim qilinadigan nazariyalar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, Tabiiy fanlar, integratsiya, fanlararo bog‘liqlik, STEAM.

Jahon miqyosida bugungi kundagi ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirish orqali ta’lim oluvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlay oladigan ta’lim mazmunini yaratishni taqozo etmoqda. Uzluksiz ta’lim mazmunini sifat jihatdan boyitish va uning samaradorligini oshirishda ta’limga bo‘lgan yangi talablar bilim oluvchilarning qiziqishi, iqtidori, qobiliyati kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish hamda umumiy ta’limda tabiiy-texnik bilimlarning integrativ STEM yondashuvlar orqali tabiiy-ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etadi[2; 192-b.].

Mamlakatimizda ta’lim tizimining faoliyatini takomillashtirish zarurati, XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘lgan kadrlarga ehtiyoj, O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta'minlay olishga qodir shaxslarni tayyorlay oladigan ta’lim mazmunini yaratish borasida konseptual tadqiqot ishlarining olib borilishi umumiy o‘rta ta’limni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlab berish masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Bu yo‘lda ilg‘or xorijiy tajribalari PIRLS, TIMSS, PISA xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o‘quv fan dasturlari, o‘qitish metodikasi va ta’lim sifatini baholash tizimini yaratish pedagogik jihatdan muhim hisoblanadi.

Ta’limda yangi STEM yondashuvi rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanilib, jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda va STEM ta’limi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Xorijiy davlatlarda kichik yoshdagi bolalarda STEM ta’limini tashkil etish muammolari Aaron D. Isabelle, Gilbert A. Zinn, Yehudit Judy Dori, Zemira R. Mevarech, Sanders. M, Robert M. Capraro, Mary M. Capraro, James R. Morgan tomonidan tadqiq qilingan va ular tomonidan mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha didaktik ta'minotlar yaratilgan. Adabiyotlar tahlilga ko‘ra, STEM ta’limiga oid ilmiy va uslubiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish metodikasini pedagogik muammo sifatida o‘rganish hamda uni takomillashtirish zarurati mavjud [3; 32-b.].

STEM ta’limiga o‘tish dunyoning ilg‘or davlatlarida jadal tashkil etilmoqda. Mutaxassislarni tayyorlash uchun STEM ta’limiga o‘tish zaruriyati dastlab AQShda Tadqiqotlarning Milliy Kengashi (National Research Council, NRC) va Milliy Ilmiy Fond (National Science Foundation, NSF)lari tomonidan targ‘ib etilgan. AQSh Prezidenti B. Obama AQSh ta’lim tizimida islohotlarni olib borish va STEM ta’limiga o‘tish dolzarbligini ta'kidlagan. 2009 yil 6 iyulda AQSh Kongressda STEM ta’limiga o‘tish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi harakatlarni olib borish to‘g‘risida Qonun qabul qilingan (STEM Education Coordination Act of 2009). Mazkur qonunga ko‘ra Milliy Ilmiy Texnologik Kengash (National Science and Technology Council) STEM ta’limi bo‘yicha federal 5 yillik strategik reja ishlab chiqadi va har yili Kongress oldida strategik rejani amalga oshirishi yuzasidan hisobot beradi[7; 156-b.].

Mamlakatimizda ilk bor STEAM ta’limi umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinflarida “Tabiiy fanlar”ning o‘qitilishi joriy qilinmoqda. Har qanday yondashuv ta’lim sohasiga taqdim qilinganda qo‘yidagilar nazarga olinishi lozim. Birinchidan,

taklif qilinayotgan, masalan, STEAM ta’limi modulida o‘quvchining yoshi va uning psixologik xususiyatlari inobatga olinishi; ikkinchidan, uning tarkibiy qismida uzviylik ta'minlanishi; uchinchidan, u ta’limiy natijani berishi, ya'ni o‘quvchida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishi lozim.

Kichik yoshdagi bolalarga STEAM ta’limini joriy qilishning psixologik – gigienik talablariga e'tibor qaratgan holda, o‘quv jarayoni turli sarguzasht, o‘yin, qiziqarli tajribalar bilan bog‘liq tashkil etilishi boshlang‘ich ta’limda muhim sanaladi. STEAM ta’limining ijobiy tomonlari – bu bolalarda tahliliy fikrlashni va aniq fanlarga qiziqishni rivojlantiradi, bolalarni nafaqat individual, balki jamoa bilan ishlashga o‘rgatadi.

M. Sanders STEAM ta’limiga o‘tishning muammolarini tahlil qilish jarayonida “Endilikda mehnat bozori insondagi kuchli mushaklar, o‘tkir ko‘zlar, mustahkam iroda kabilar bilan baholanmaydi” - deb ta’kidlaydi Chunki zavod va fabrikalarda bu sifatlar talab qilinadigan barcha ishlarni robotlar, ya'ni su'niy intellekt bajaradi. Endilikda insonlarga o‘z o‘rnini jamiyatda topishlari uchun ularga jamoa bilan ishlash, yaratuvchanlik, muhandislik va boshqa shunga o‘xshash talablar qo‘yilmoqda. Uning g‘oyasida yangi avlodni STEAM dasturi asosida o‘qitish ularda intellektni rivojlantirishga, topqirlik orqali aniq masalalarni yechishni o‘rganishda o‘quvchilar ko‘proq savol berishlari va ularning yechimlarini topishga qaratilgan bo‘lishi uqtirilgan[9; 145-b.].

Mamlakatimizda STEM ta’limi o‘quvchilarni texnik ijodkorlikka yo‘naltirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. A.To‘ychievning robototexnika yo‘nalishida o‘quvchilarda texnik ijodkorlikka oid kompetensiyalarni robototexnika elementlari asosida takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining texnik ijodkorlikka oid kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari, o‘quvchilarning texnik ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti, texnik ijodkorlik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajalarini aniqlash mezonlari hamda texnik ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot ishi robototexnikani rivojlantirishga va o‘rta umumiy ta’limning tabiiy-texnikaviy tarkibiy qismlarini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ta’lim berishda amaliy ahamiyat kasb etadi[3; 43-b.].

2030 yilga borib Xitoy sun’iy intellekt sohasida etakchilikka aylanishni rejalashtirmoqda. Bunday sharoitda texnik va ilmiy ta’lim dasturlari (STEM) mamlakatda tobora ommalashib borayotgani ajablanarli emas. Chunki oxirgi yillarda Xitoy hukumati boshlang‘ich va o‘rta sinflarda IT(axborot texnologiyalari) kurslari yo‘lga qo‘yilmoqda va dasturlash ham xuddi ingliz tili kabi etakchi fanga aylanishi hamda 2030 yilga borib Xitoyda yalpi ichki mahsuloti sun'iy intellekt hisobiga 26 % ga o‘sishi kutilmoqda. Bu esa Xitoyda STEM fanlarini o‘rganish kelajakda mehnat bozorida imkoniyatlarning oshishiga olib keladi[3; 33-b.].

Maktab o‘qituvchilarini va oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarga STEM ta’limini o‘rgatish dolzarbdir. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga dars ishlanmalari ishlab chiqilmoqda. Masalan “Tabiiy fanlar”da “Jonli va jonsiz tabiatni o‘rganamiz”

mavzusini o‘qitishda darsning umumiy maqsadida jonli va jonsiz tabiatga nimalar kirishini o‘rganish; jonli va jonsiz tabiatning harakatlanishdagi farqni o‘rgatish; o‘quvchilarda jonli va jonsiz tabiatga munosabat ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari qo‘yiladi. Darsning turli (o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish, bilimni faollashtirish, yangi mavzuni o‘rganish, yangi mavzuni mustahkamlash) bosqichlarida o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan yakuniy natijalar belgilanib olinadi. Darsning har bir bosqichida erishilishi lozim bo‘lgan yakuniy natijalar tarkibiy qismlarini belgilab olishda o‘quvchining yoshi va uning psixologik-fiziologik xususiyatlarini inobatga olish lozim[6; 156-b.].

Maktabda “Tabiiy fanlar”ni o‘rganishning muhim vazifalari –bu o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Buning uchun bolalar bilan tabiatni kuzatish kundaligini yuritish yoki ularni rang - barang tajribalar o‘tkazishning o‘zi etarli emas. Eng avvalo, pedagog maqsadli to‘g‘ri strategiya g‘oyasini ishlab chiqishni o‘rganishi hamda uni amalga oshirish yo‘llarini bilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda**,** an’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o‘rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Bu jarayonni bevosita “Tabiiy fanlar” uyg‘unligida amalga oshishini ta’kidlash joiz. Chunki STEAM dasturi tarkibida bu fanlar hamohanglikda mavjud holatda bir-biriga tayanadi. Fikrimizcha, bu kabi ta’lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi, shuningdek, universitetga kirish va keyingi o‘qishni osonlashtiradi.

Chunki, boshlang‘ich sinflarda integratsion yondashuvni yanada samarali yo‘lga qo‘yish o‘quvchilarda texnologiya va tabiiy bilimlarni o‘zlashtirishga yanada qiziqish uyg‘otishi, ularning ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni mustahkamlashga yordam berishi ta’kidlanadi. Buning uchun bunday tadqiqotlar doirasida boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni takomillashtirish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va loyihalash, mustaqil izlanish, kasbiy muammoli vaziyatlarni ijobiy hal etish kompetensiyalarini shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz balan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. “Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi”. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent. “Ilm Ziyo”, 2009. – B.192.

3. Sangirova Zamira Bozorboyevna umumta’lim maktablarida STEAM yondashuv asosida o‘quv-loyiha ishlarni tashkil etish metodikasi (tabiiy fanlarni o‘qitish misolida) pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi 2022. B.32-43.

4. Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi “Development prospects of primary education integration(on the example of exact and natural sciences)” // Jamiyat va innovatsiyalar jurnali. P.221-225. Special Issue-7 (2021).

5. Saloxitdinova N.M., Erdanayev R.X. “Raqamli dunyo sharoitida ta’limga

innovatsion yondashuvning pedagogik asoslari” Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021/10/06. B. 271-274

6. Saloxitdinova N.M. Raqamli dunyo sharoitida boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlar integratsiyasining rivojlanish istiqbollari. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi ilmiy-uslubiy jurnal №1/2023. ISSN 0000-0000. B. 150-156.

7. Saloxitdinova N.M. “Mutaxassislikka kirish” I qism. O‘quv qo‘llanma. UO‘K:37.013 KBK: 74.0 S18 ISBN 978-9910-9606-3-5 “NIF MSH” Toshkent 2023. B.156.

8. Saloxitdinova N.M. “Boshlang‘ich ta’limda texnologiya va tabiiy fanlarning o‘zaro fanlararo bog‘liqligi” Ilm sarchashmalari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. -9-son. 2023. B.95-98.

9. Saloxitdinova N.M. STEAM yondashuv asosida fanlararo aloqadorlikning metodik asoslari “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnal (Buxoro davlat pedagogika instituti) №4(6) 2023. ISSN 2181-3787 E-ISSN 2181-3795. B. 141-145.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ УЧЕБНОЙ КНИГИ СТУДЕНТА

Сарсекеев Бауржан Сапарович
Евразийский гуманитарный институт
им. А.К. Кусаинова,
доктор педагогических наук, профессор

Аннотация. В статье актуализируется инновационная практика подготовки вузовского учебника, раскрывается технология разработки учебной книги, ориентированной на формирование профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов через соединение содержания изучаемой дисциплины с методами и технологиями обучения.

Ключевые слова: школьный учебник, учебная книга студента, проектирование учебной книги, методы и технологии обучения, задания.

Современная педагогическая наука накопила значительный материал по проблемам школьного учебника, что нельзя сказать об учебных книгах для высших учебных заведений. В данной статье рассматриваются пути модернизации учебника для ВУЗа в условиях обновления содержания образования. Научная новизна заключается в том, что подготовка учебной литературы для студентов исследуется на основе компетентностного подхода.

Прежде чем перейти к раскрытию темы рассмотрим некоторые аспекты теории учебника. В учебниковедении утвердилось понятие учебника как массовой книги для учащихся, основном средстве обучения. Постепенно педагогическая мысль эволюционировала к определению учебника как основного источника «для построения проекта организации всего учебного процесса» [1, стр. 48], сценария «предстоящей деятельности обучения» [2, стр.

23]. Уместно отметить, что в развитии теории учебника складывались крайние точки зрения. Так, если польский ученый М. Савицкий считал, что книга воздействует на воображение читателя с помощью слова, и возражает против кибернетических моделей учебников, то В.П. Беспалько рассматривал учебник «как средство автоматизации управления учебно-воспитательным процессом» [3, стр.87]. В настоящее время формируется понимание учебника как многофункциональной книги, соединяющей функции пособий разных видов.

Изучение школьного учебника в единстве с методами обучения обуславливает необходимость соблюдения двустороннего характера учебного процесса. По В.В. Краевскому и И.Я. Лернеру, рассматривающих содержание обучения как педагогически адаптированный социальный опыт человечества в содержание образования входят знания, умения, навыки, опыт творческой деятельности, а также опыт эмоциональных отношений в форме личностных ориентаций [4]. Такому подходу соответствует четыре элемента учебника: информационный, репродуктивный, побуждающий к творческой деятельности, способствующий усвоению опыта эмоционального отношения.

Описываемые исследования учебника шли в рамках парадигмы классического образования, в котором разработка учебника рассматривалась в знаниецентрической парадигме с акцентом на раскрытие содержания материала. Это обуславливало теоретизированность обучения, в то время, когда для успешности образования в учебнике следует предусмотреть функции, способствующие общему развитию личности, в особенности функции развития способностей и компетенций, способствующих активной социализации обучаемых в жизнь общества. Следует добавить, что в настоящее время возрастают запросы к качеству учебника, где главными требованиями становятся психологические, логические, лингвистические, методические, эстетические аспекты так, как без решения этих проблем учебник не выдерживает конкуренции с другими средствами обучения, в особенности с цифровыми технологиями. Рассмотрим альтернативные подходы к разработке учебника.

Одним из направлений совершенствования учебника является подготовка учебника в составе учебно-методического комплекса (УМК), для методического обеспечения изучаемого курса. В Казахстане в состав УМК входят учебник, рабочая тетрадь на печатной основе и методическое руководство для учителя. Однако, ограниченное тиражирование рабочих тетрадей, где даются задания на развитие умений и дополнительная информация по изучаемому курсу, сводит на нет концепцию УМК.

Альтернативным книжно-бумажной форме становится электронный учебник (ЭУ). Преимуществом ЭУ является высокая мобильность, возможность постоянно дополнять учебник. Проблемой здесь является умение школьников работать с информацией, обрабатывать и использовать ее.

Традиционные учебники, разработанные на основе знаниевого подхода не в состоянии выполнять возлагаемые для высшей школы функции развития способностей и компетенции будущего педагога. Ориентированные на

изложение информации они недостаточно способствуют формированию профессиональных умений, учебных, воспитательных и методических компетенций. Поэтому как альтернативу мы рассматриваем компетентностный подход, акцентирующий внимание на результатах обучения. Такой учебник, направленный на изменение организации учебной деятельности, позволит студентам усвоить все разнообразие учебно-воспитательного процесса, методы и технологии обучения, использование книжных учебных средств на основе сформированных компетентностей.

Согласно компетентностному подходу целью обучения являются не триада «знания, умения, навыки» обуславливающие ориентацию на содержание образования, а компетенции/компетентности, которые должны быть достигнуты в ходе учебного процесса [5]. В связи с этим, основным направлением нашего поиска является исследование функциональных возможностей учебной книги для формирования компетенции/компетентности студентов как результатов образования.

Концепция предлагаемой нами учебной книги ориентирована на поисковую деятельность, организуемую с помощью заданий, выполнение которых оказывает практическую помощь в понимании роли знаний в обучении. Мы рассматриваем учебник как инструмент организации учебной деятельности обучаемых, позволяющих сформировать специальные компетенции студентов и предлагаем выстроить структуру учебной книги по схеме «Задание – Текст – Задания и упражнения». Это позволит эффективно применять усвоенные знания в практической деятельности и успешно адаптироваться в профессиональную жизнь после окончания ВУЗа.

В основу содержательной адекватности подготовки учителя начальных классов мы взяли базовое понятие «компетенция/компетентность», поэтому первым шагом в подготовке учебной книги было составление списка компетенций будущего педагога, ее конкретизация на предметном уровне.

На основе составленного списка разрабатывается структура учебной книги. Единицей проектирования личностного содержания образования становится образовательная ситуация и способы действия в этих ситуациях. В результате субъекты учения вовлекаются в разрешение проблем.

Реализация концепции требует, чтобы учебник отражал цели, содержание, организационные формы и дидактические процессы. Поэтому проектирование учебной книги состоит из ряда этапов:

1. Определить цели (компетенции).

2. Структурировать содержание учебных текстов (на 2-3-х страницах).

3. Определить умения, которые необходимо сформировать у обучаемых студентов на данном занятии.

4. Отобрать наиболее эффективные для поставленных целей формы, методы и способы обучения.

Учебная книга разрабатывается как инструмент управления учебной деятельностью студента. Перед темой даются задания на актуализацию

изучаемой темы, анализ собственных знаний и представлений по теме. Это делается для создания условий к принятию новой информации.

Далее предлагается учебный текст, который студенты должны проработать. На этом этапе предлагаются разные способы обучения и задания, позволяющие сформировать свое собственное понимание прочитанного.

На третьем этапе идет выражение мысли через усвоенные понятия и представленную информацию, создается личностное понимание содержания.

Методическое построение определяется принципами целеполагания, обсуждения учебного материала и развития самостоятельности мышления. Реализация принципов идет посредством заданий в начале и в конце текста, проектирования способов деятельности для обсуждения предлагаемых ситуаций, выработки своей собственной позиции, сравниванию ее с позицией других студентов [6; 7]. Задача автора состоит в том, чтобы добиться оптимального соотношения между предлагаемым содержанием учебного материала и способами деятельности обучаемых студентов.

Смысл отбора содержания, его системного структурирования и разработки заданий состоит в том, чтобы предоставить студентам возможность обсудить свои знания, чему способствует предложенный алгоритм действий, позволяющий усилить личностную направленность образования. В общем виде структура темы выглядит следующим образом: 1. Название темы; 2. Проблемное задание; 3. Учебный текст; 4. Задания к теме [6; 7].

Постановка заданий перед учебным текстом выполняют мотивационную функцию, способствуя самоорганизации и целевой ориентации учебной деятельности. Модели обучения предполагают индивидуальную мыслительную деятельность, работу в парах, группах, коллективную деятельность. Так, в разработанном нами учебном пособии «Модели обучения педагогическому мастерству» при изучении темы «Основные компоненты и содержание педагогического мастерства» в начале текста даются 3 задания:

1. Объединитесь в пары для работы над текстом. Бегло просмотрите содержание темы и определите места в тексте, где вы будете делать остановки для обсуждения.

2. Распределите ответственность в парах за обсуждение каждой части: кто из вас будет формулировать, записывать и задавать вопросы по конкретной части, а кто будет высказывать свое мнение.

3. Определите время на подготовку и презентацию результатов своей работы [6, стр. 10].

После выполнения этих заданий идет изучение текста, и затем студенты выполняют задания, данные в конце параграфа. Работа над текстом идет в соответствии с предложенным способом деятельности:

1. Объединитесь в микрогруппы по 3 человека. Обсудите текст и сравните пометки, которые вы поставили на полях. Сравните ваши пометки с пометками других членов микрогруппы.

2. Обсудите в микрогруппе тему, разделив ее на три части: информация, которая вам известна, информация о которой вы частично знали, полностью

новая информация. Подготовьте одного из членов микрогруппы к выступлению на общем обсуждении всей группы.

3. Объединитесь в микрогруппы по 3 человека. Сформулируйте вопросы к тексту. Задайте сформулированные вопросы членам микрогруппы. Подумайте, на какие вопросы своих коллег вы можете ответить. Поделитесь своими знаниями с членами группы [6, стр. 13].

Особенностью такого жанра учебного пособия является соединение содержания педагогического образования с методами и технологиями обучения, развивающими учебно-методические умения будущих педагогов [7, стр. 36, 43-44, 75]. Построение управленческой модели идет с учетом возможности совместной работы студентов.

Предлагаемая модель учебной книги студента меняет функции преподавателя: роль преподавателя трансформируется с позиции источника информации на организатора учебного процесса. Это требует умения создавать развивающее пространство, вводить в проблему, организовывать взаимодействие студентов, предлагать им способы деятельности, руководить общим обсуждением и т.д.

Соединение возможностей учебной книги с технологиями обучения позволяет создать условия для развития личности, оказывает влияние на формирование практических умений студентов, обеспечивает переход от информационного знания к интегрированным знаниям, что является условием формирования профессиональной компетенций будущих учителей.

Таким образом, модернизация учебной книги на основе соединения содержания предмета и технологии обучения, при соответствующих управленческих инструментариях делают процесс обучения эффективным. Представленная концепция и технология создает студенту ряд возможностей: организовывать свою работу, выбирать форму выполнения задания, применять свой план решения; соотносить новые знания с ранее приобретенными, способствует пониманию предмета и выработке специальных умений [6; 7].

Перспективность исследования мы видим в проектировании учебника в рамках психодидактического подхода, с учетом психических закономерностей учебной деятельности, создании условий для подготовки педагогов обладающих умениями и навыками решения профессиональных задач.

Библиография

1. Лернер И.Я. Состав содержания образования и пути его воплощения в учебнике. В кн.: Проблемы школьного учебника. Вып. 6. (Вопросы теории учебника). – Москва: Просвещение, 1978. - С. 46-64.

2. Скаткин М.Н. Об усилении воспитывающей и развивающей функции учебника. В кн.: Проблемы школьного учебника. Вып. 7. (Вопросы повышения воспитательной роли учебника). – Москва: Просвещение, 1979.- С. 20-39.

3. Беспалько В.П. О некоторых предпосылках построения дидактической теории учебника. //Советская педагогика. – 1980 - № 1. - С. 85-88.

4. Краевский В.В., Лернер И.Я. Дидактические основания определения содержания учебника. В кн.: Проблемы школьного учебника. Вып. 8. (О конструировании учебника). – Москва: Просвещение, 1980. - С. 34-49.

5. Франсуа-Мари Жерар, Ксавье Рожье. Разработка и анализ школьных учебников. Пер. с франц. АВ OVO, 1998. –372 с.

6. Сарсекеев Б.С. Модели обучения педагогическому мастерству: учебное пособие для студентов педагогических специальностей. – Астана, 2016. – 59 с.

7. Сарсекеев Б.С. Педагогическое мастерство: учебное пособие для студентов педагогических специальностей. – Нур-Султан, 2022. – 124 с.

MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARINI TUZISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISh MEXANIZMLARI

Smetova Jumabiyke Hamidullayevna
Toshkent amaliy fanlar
universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mustaqil ta’lim topshiriqlarini tuzishda didaktik yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari, OTMda talabalarni tarbiya fanini o‘qitish asosida fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning kompetensiyalarini aniqlash, tarbiya fanlaridan mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish va topshiriqlar bilan ishlashda metod, usul va texnologiyalarni tanlash, talabalarni mustaqil ta’lim asosida mantiqiy fikrlashga, ijodiy izlanish doiralarini kengaytirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, loyihalashtirish, tizim, tarbiya fanlari, mustaqil ta’lim, tajriba, jarayon, pragmatika, didaktika, metodika, modul, kompetentsiya.

Globallashuv jarayonida didaktik tizimni ishlab chiqish ta’lim sohalari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi didaktik talab muhim pedagogik vazifalardan biridir. “Didaktika” tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarini keltirish mumkin. Tadqiqotimiz avvalida biz **dissertatsiyaning tayanch apparati terminlariga izoh berib o‘tishni lozim topdik. Asosiy tushunchalar sifatida** “didaktika”, “didaktik tizim”, “o‘qituvchi faoliyatining didaktik tuzilmasi”, “model”,“didaktik jarayonlar”, “ta’lim jarayoni” terminlarini belgilab oldik. Ta’lim-tarbiya nazariyasi, ya’ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Didaktika ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismdir. Didaktika grekcha so‘z bo‘lib, “didasko” - o‘qitish, o‘rganish degan so‘zlardan kelib chiqqan. “Didaktika”ning so‘zma-so‘z tarjimasi ta’lim nazariyasini anglatadi. Didaktika-ta’lim nazariyasi tushunchasini anglatadi.

Zamonaviy o‘qitish jarayoni asoschisi Yan Amos Komenskiy har bir bola ta’lim olishi lozimligini uqtiradi, umumta’lim deganda xotin qizlarning ham tahsil olishini ko‘zda tutadi. Komenskiyning fikricha, tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iborat bo‘lib, uni aqliy, axloqiy va diniy tarbiya bilan amalga oshirish mumkin. Uning bu karashlari “Buyuk didaktika” asarida o‘z ifodasini topgan

bo‘lib, unda ko‘rsatmalilik, onglilik, izchillik kabi didaktik tamoyillar ahamiyati nazariy jihatdan asoslab berilgan. “Buyuk didaktika” asarida “pan sofiya g‘oyasini” (pan gerkcha — butun, hamma, sofiya — donolik, aqllilik) “Hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish” demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig‘indisini beradi. “Hammani har narsaga o‘rgatmoq kerak” degan fikr ko‘p marta takrorlanishini ko‘ramiz.

Shundan kelib chiqib biz didaktik tizim tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak.

Didaktik jarayon mexanizmlari: Modul dastur, namunaviy o‘quv rejalar, ishchi o‘quv rejalar, o‘quv materiallari (darsliklar, qo‘llanmalar, ko‘rgazmalar), dars jihozlari va vositalari, qo‘shimcha va yordamchi vositalar. Aynan shu narsalar ishtirokida didaktik jarayonlar mexanizmlari asosida amalga oshiriladi. Izchillik qoidalariga amal qilgan holda biz “modul” tushunchasiga alohida e’tiborimizni qaratib, uning lug‘aviy ma’nolarini tahlil qilib chiqdik. Pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo‘laklarni ifodolovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo‘laklar, ya’ni modullar eng kichik bo‘laklardan hamda ularning turli miqdoridagi to‘plamlaridan iborat bo‘ladi.

Didaktik jarayon mexanizmlari:

- pedagogik tizim bo‘lib, unda pedagogik ob’ektlar va jarayonlarning xususiyatlari qaytadan shakllantiriladi;
- umumlashtirilgan real jarayon;
- tajribaning namoyon bo‘lishi;

–ma’lum bir qolipdagi harakatlar tizimidan iborat.

OTM tarbiya fanini o‘qitish ta’limi jarayonida, didaktik tizim mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish asosida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ta’limiy jarayon ishlarini tashkil etishga tayyorlash dissertatsiyaning tajriba-sinov ishlari bosqichida ilmiy-nazariy gipoteza tarzida amaliyotga tatbiq etildi va sinovdan o‘tkazildi. Uzoqqa mo‘ljallangan umumiy aniq reja strategik maqsad uzviyligini ta’minlashni, ular davomiyligi va ustuvorligini talab etadi.

Didaktik tizimni mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish asosida fasilitator va tyutorlik faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish texnologiyasi, didaktik o‘yinlarning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega, didaktik tizim ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi mutlaqo yangicha ta’limiy metodik yondashuv, amaliy-o‘zgartiruvchi funksiyalarga qaratilishini taqozo qiladi. Bu masala mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ham diqqat markazida bo‘lib, ta’lim va ilm-fan, o‘qitishning yangi, zamonaviy usullarini joriy qilish uchun tezkor hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolardan biri sifatida qaralgan[8].

Demak, mustaqil ta’lim topshiriqlari sifatini yaxshilash va innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish, oliy ta’limning yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirishni bosqichma-bosqich joriy etish, interaktiv ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun ta’lim portalini tashkil etish: elektron ma’lumotlar bazasini, talabalarning davomati va o‘zlashtirishini hisobga olish elektron tizimini (elektron jurnal, kundaligi va tabel) yaratish, boshqa elektron xizmatlar ko‘rsatish zarurligi ta’kidlandi.

Didaktik tizimni mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish asosida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi pedagogik loyihalashtirish bosqichlarini to‘g‘ri rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihalashtirish bosqichlari quyidagilardan iboratdir:

1-bosqich: mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish mexanizmi;

2-bosqich: loyihalashtirish;

3-bosqich: bunyod etish bosqichi;

4-bosqich: samarali natijaga erishish, baholash.

Pedagogik mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish (1-bosqich) maqsadlarni belgilash, pedagogik tizimlarni yaratish, pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni hosil qilish hamda ularning yechim yo‘llarini aniqlashdan iboratdir.

Pedagogik loyihalashtirish (2-bosqich) pedagogik mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish amaliylik darajasigacha olib borib, uni bevosita amalga oshirishdir. Pedagogik bunyod etish (3-bosqich) pedagogik loyihalashtirishni yanada sayqallash va uni ta’lim-tarbiya sohasiga real qo‘llash imkonini beruvchi universal darajaga olib kelishdir, o‘qitish va bilish. Pedagogikaning bu bosqichlarining har birida albatta dastlab maqsadlar aniq belgilanishi lozimdir. Samarali natijaga erishish, baholash (4-bosqich). Talabalar dars mashg‘ulotida o‘zlari tuzgan va foydalangan savollar asosida baholanadi (har bir savol mantig‘iga e’tibor qaratiladi).

Har bir savolga o‘qituvchi guruhda tavsif berib boradi.

1.Bugungi dars mashg‘ulotidagi eng kuchli savol.

2.Bugungi dars mashg‘ulotidagi eng yaxshi mantiqiy savol

3.Bugungi dars mashg‘ulotidagi eng oddiy savol

4.Bugungi dars mashg‘ulotidagi eng ko‘p dallil talab etilgan va muhokamaga sabab bo‘lgan savol.

Talabalar tomonidan o‘qituvchilarga o‘z imkoniyatlarini nomoyon etish qanday texnologiya yoki usullarda bo‘lmasin quyidagicha rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi:

–men savol tuza olmayman,

–men javob bera olmayman

– men bajarishim kerak

–men yo‘l topishim kerak

–men albatta bajaraman mazmundagi javoblarga tayaniladi. O‘qituvchi dars mashg‘ulotida fasilitator vazifasini ham bajaradi.

Manbalarga tayanib fasilitator tushunchasini kengroq tahlil qilib o‘tadigan bo‘lsak, bu tushuncha klassik psixolog Karl Rodjers tomonidan fanga kiritilgan. Inglizcha so‘z “*facilitate*” – “engillatmoq, hamkorlik qilmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Demak, o‘qituvchining asosiy vazifasi yengillatish va shu bilan bir vaqtda o‘quv-biluv faoliyatini stimullashtirish, ya’ni guruhda zarur intellektual va hissiy muhitni, psixologik qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish zarurati hisoblanadi.

Shu sababli ham aksariyat hollarda bu sohada talabalar bilan ishlashda aniq maqsadga yo‘naltirilgan lingvometodik va psixoterapevtik amaliyotlardan keng qo‘llaniladi. Bunda asosan quyidagilar bajarilishiga e’tibor qilinadi:

-talabani boricha qabul qilish;

-talabani imkonqadar tushunishga harakat qilish;

-talabadagi ichki intilishlar va imkoniyatlarni aniqlab olish;

-talabani imkoniyatlarini ma’lum bir darajada amalga oshishiga ko‘maklashish;

-talabaga ochiq xolisona munosabatda bo‘lish;

-talabaning mustaqil yetuk shaxs sifatida o‘zini to‘laqonli his etishiga imkon yaratish. O‘qituvchi dars mashg‘ulotida tyutor vazifasini ham bajaradi.

Keyingi tushuncha–“tyutor”, ingliz tilidan tarjima qilganda “ustoz, tarbiyachi, repititor” degan ma’noni bildiradi. Zamonaviy pedagogikada tyutor –bu o‘qituvchi-maslahatchi, koordinator demakdir. Uning maqsadi – o‘quvchining, unga qulay bo‘lgan tartibda, dars mashg‘uloti davomida, bilim va malakalarni maksimal darajada mustaqil o‘rganishiga asoslangan mustaqil ta’lim topshiriqlari muhitini yaratishga asoslaniladi.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, tyutorning bajaradigan ishi fasilitatorniki bilan o‘xshash. Faqat bir jihati bilan farq qiladi: *fasilitatorlikda ijobiy, stimullashtiruvchi o‘quv jarayoni muhitini yaratishga urg‘u beriladi, tyutorlikda esa tashkiliy-koordinatsiyalovchi holatlarga e’tibor qaratiladi.* O‘qituvchining yuqorida aytib o‘tilgan rollari talabaning erkinlik va mas’uliyatlilikni tarbiyalaydi.

Demak, didaktik tizimni fasilitator asosida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi mustaqil ta’lim topshiriqlari metodik ta’minoti oliy ta’lim tizimni ifoda etib, innovatsion jarayon sifatida jamiyatning filolog, pedagog xodimlar kasbiy kompetentliligiga qo‘yadigan talablari va ularning shaxsiy ehtiyojlarini ta’minlash, motivlarini chuqurlashtirish, individual xususiyatlarini e’tiborga olish, kasbiy faoliyatlariga qulay sharoitlar paydo qilishni nazarda tutadi. Shuningdek, fasilitatorlik va tyutorlik faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish, muayyan vaziyatlarda filolog- metodist pedagoglarning shaxsiy tajribalari asosida maqbul qarorlarni mustaqil qabul qilish, refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish, ijobiy o‘zaro ta’sir uchun maqbul muhit yaratish, pirovard natijada ona tili ta’lim sifati va samaradorligiga erishishni ta’minlaydi. Mazkur mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish mexanizmi asosida o‘qituvchi va talabalar quyidagi xususiyatlarini ajratish imkoniyati mavjud. Fanlar kesimida o‘rganib chiqqanimizda:

–didaktik ta’limiy topshiriq – bu o‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘yadigan vazifalardir;

–o‘quv topshiriqlari o‘qish maqsadini amalga oshirishga mo‘ljallangan;

–didaktik ta’limiy topshiriq mazmuni, murakkabligi jihatdan o‘quv topshirig‘idan keng.

Masalan, tarbiyahsunos pedagoglar Onaxon Jabborova, Zuxra Umarova boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanini o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanmasida berilgan shunday didaktik vazifa qo‘yilgan bo‘lsink-i, kasbiy kompetensiyasini o‘stirish bo‘yicha tarbiya mavzusida ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, bu didaktik vazifani bajarish uchun bitta emas, aksincha mustaqil ta’lim o‘quv topshiriqlari kompleksidan foydalaniladi va mustaqil ta’lim o‘quv topshiriqlarini kim ta’limga tatbiq etsa, ta’lim vositasi, kim uni qabul qilib, bajarsa faoliyat predmeti vazifasini bajaradi[8].

Aytish o‘rinliki, pedagogik ta’lim paradigmasida nafaqat ta’lim jarayoniga, balki talabalarning o‘zlashtirish natijalari metodik yondashuv muhimligini ko‘rsatmoqda. Didaktik yondashuv, interfaol ta’limiy o‘yinlar o‘qituvchi va talaba o‘rtasida iliq

psixologik muhit yaratishini tajribalarimiz davomida guvohi bo‘ldik. Shunga ko‘ra birgalikdagi ijodiy faoliyat - didaktik mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish mexanizmining asosi sifatida talqin etdik.

Oliy ta’limda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda tarbiya faninig amaldagi holati va istiqbollari, metodik jihatdan tahlil etildi. Shaxsga yo‘naltirgan ta’limni tashkil etish va ta’limda shaffoflikka erishish, ta’limda moslashuvchanlikni kuchaytirishi hamda talabalar mobilligini kuchaytirish tartbiya fani o‘qitish metodikasida mustaqil ta’lim o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, dars mashg‘ulotlarida savol, mustaqil ta’lim topshiriqlarning berilishi tahliliy o‘rganildi, mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzishda didaktik yondashuvdan foydalanish usullari shuningdek, mustaqil ta’lim topshiriqlari didaktik va nazariy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Birinchidan, didaktik tizim mustaqil ta’lim topshiriqlari va mustaqil o‘quv topshiriqlari tuzish mexanizmi ta’limiy jarayon va dars mashg‘uloti bosqichlari pedagogik loyiha va texnologik xarita asosida amalga oshiriladi.

Dars mashg‘ulotining tuzilishi, shakllari, usullari va didaktik vositalar modulga kiritaladi. O‘tkazish mexanizmi- bu interfaol ta’lim usullariga kiradi va asosan quyidagi bosqichlardan iboratdir:

1. *O‘tgan mavzuni takrorlash* –yuzasidan savollar talabalar tomonidan beriladi, maqsad avvalgi bilimlarni esga solish. Bunda oldingi o‘rganilgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan yangi mavzuga tegishli ma’lumotlar orasidagi uzluksizlik va uzviylikni ta’minlashga erishishga harakat qilinadi (eng yaxshi savollar muallifi talabalar baholanadi).

2. *Anglash* - yangi axborotlarni o‘rganish. Bunda oldingi o‘rganilgan ma’lumotlar axborotlarga aylantiriladi va ular negizida yangi axborotlarni o‘zlashtiradi (eng kuchli savollar muallifi, o‘qituvchi tomonidan talabalar baholanadi va rag‘batlantiriladi).

3. *Fikrlash* - yangi g‘oyalar va axborotlarni aytib berish va muhokama qilishdan iborat (eng faol talabalar, o‘qituvchi tomonidan talabalar baholanadi va rag‘batlantiriladi. Haqiqatdan ham didaktik tizimni eng kuchli savollar muallifi, o‘qituvchi tomonidan talabalar baholanadi va rag‘batlantiriladi).

Mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish asosida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ta’limiy jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishimiz uchun ona tili ta’lim mazmuni samaradorligini oshirish bo‘yicha bajariladigan ishlar galdagi vazifalarimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Djon Dyui. Obshestvo i yego problemi John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Dj. Dyui. Obshestvo i yego problemi. — Perevod s angliyskogo: I. I. Myurberg, A. B. Tolstov, Ye. N. Kosilova. — M., 2002.
2. Axmedova M.E Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari ped. fan. dok. uchun yoz. diss. avtoref T.:2023-54-b.
3. Zaripov L.R.Kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ped. fan. dok. un yozilgan diss. avtor T.:2023-60-b.\
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. – 315 b.;

SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON" ASARIDA TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI

Sodiqova Dilfuza Ropijonovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
Ergashev Kamol
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada Sharq klassik adabiyotining yetuk namoyondasi Sa'diy Sheroziyning “Guliston” asaridagi pand nasihatlari, inson kamolotida tarbiyaning o‘rni haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: pand-nasihat, tarbiya, talim, odob axloq, oila, jamiyat, qanoat, qarilik va zaiflik, suhbat

Ta’lim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan va shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiradigan shuningdek, ma’lum bilimlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar, tajriba va kompetentsiya yig‘indisi bo‘lgan intellektual, ma’naviy-ma’rifiy ta’limning yagona yo‘naltirilgan jarayoni – shaxsning ijodiy, jismoniy va kasbiy rivojlanishi, uning ta’lim ehtiyojlari mahsulidir. Tarbiya bugungi hayotimizdagi muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Qadim tariximiz namoyondalari ham bu haqda o‘z mustaqil fikrlarini bildirib kelmoqdalar. Masalan, alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy talant egalaridan biri Kamoliddan Husayn Voiz Koshifiy o‘zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga alohida e’tibor beradi. Ota-onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o‘rin tutadi. Bola to‘g‘ri so‘zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerakligini aytadi.[2] Sharq klassik adabiyotining yirik namondasi bo‘lmish Sa’diy Sheroziy ham o‘zining asarlarida talim-tarbiya masalasiga juda katta e’tibor qaratadi. Jumladan, “Guliston” asari Sharq klasssik adabiyotining o‘ziga xos didaktik hikoyalar va she’riy aforizimlar to‘plamidir. Bu asar “pand-u nasihat va odob-axloq kitobi sifatida ham shuhrat qozongan. Sa’diy Sheroziy o‘z davrining yetuk pedagogi, dono inson, do‘st, murabbiy, shoir va yetuk ustozi ham bo‘lgan.

“Guliston” asari sakkiz bobdan iborat bo‘lib, ularning har birida axloqiy tarbiyaning u yoki bu jihatlari borasida so‘z yuritiladi. Uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob — podshohlar siyrati zikrida: ikkinchi bob – darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob – qanoat fazilati zikrida; to‘rtinchi bob – sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob – ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob – qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob – tarbiyat ta’siri zikrida; sakkizinchi bob – suhbat odobi zikrida.

Asarning har bir bobida fikr mahsuldorligini oshiruvchi hayotiy hikoyatlar keltirilgan. Masalan, tarbiya ta’siri zikrida bobida berilgan hikoyat g‘oyat mazmundorligi bilan diqqatni tortadi. “Bir darveshning xotini homilador edi, oy-kuni yaqinlashib qolgandi. Darvesh umrida farzand ko‘rmagandi .”Basharti, alloh taolo menga o‘g‘il farzand bersa egnimdagi hirqamdan boshqa barcha mollarimni faqirlarga

inom qilardim, - dedi. Ittifoqo o‘g‘il farzand ko‘rdi va ahdi bo‘yicha bor-u yo‘g‘ini faqirlarga berdi. Bir necha yil Shom safarida yurib qaytgach, boyagi darvesh mahallasiga borib, uning hol ahvolini so‘radim. Odamlar uning shahar zindonida yotganini aytdilar. Men zindonga tushish sababini so‘radim. Bir kishi dedi: “O‘g‘li ichib mast bo‘lib, bir odamni o‘ldirib qochdi. O‘g‘lining jinoyati uchun otaning bo‘yniga zanjir, oyog‘iga kishan soldilar. Men dedim: Bu kulfatni uning o‘zi Ollohdan tilab olgan edi!.”

Hushyor kishi xotinin bo‘yida bo‘lib,
Yaramas bir bola tug‘ilsa hamon.
Oqil nazdida u boladan ko‘ra,
Tug‘ilgan yaxshi zaharli ilon[3]

Ko‘rib turibmizki, asarda tilab olgan farzandining qilgan ishi uchun ota mana shu ahvolga tushib qoldi. Bunga sabab nima edi, ayb otadami yoki farzanddami degan savol kelib chiqadi. Ota farzandli bo‘lishidan oldin qilgan niyati uning barcha mol-dunyosini ehson qilishi, shu qilgan ishlari-yu farzandining ulg‘ayib qilgan bu ishlari buning hammasi, albatta, tarbiyasizlikdan kelib chiqqan ish. Ota vaqtida farzandining tarbiyasiga e’tiborliroq bolganida uni yoshligidan to‘g‘ri qilib tarbiyalaganida bu holat yuz bermas edi. Bu hikoyat orqali Sa’diy Sheroziy ota-onalar farzand tarbiya qilayotganda ularga e’tiborliroq bo‘lishi kerakligini eslatib o‘tmoqda.

Muslihiddin Sa’diy ham boshqa mutafakkirlar kabi ilm o‘rganishning ahamiyati, bilim olish jarayonida amal qilinishi lozim sanalgan shartlar, mazkur shartlarga muvofiq faoliyatni tashkil etish qoidalari, ilm ahli va ularning odobi masalalari yuzasidan to‘xtalib o‘tar ekan, mavjud bilimlarni chuqur egallagan olimlarning xalq o‘rtasida obro‘-ye’tiborlari yuqori bo‘lishini aytadi. Bayon etilayotgan hikoyatlar mazmunida jamiyat a’zolarini oqil va dono kishilarni hurmat qilishga undovchi da’vat o‘z ifodasini topgan. Ayni o‘rinda ilmli kishilarning o‘z bilimlarini jamiyat hamda insonlar uchun foyda keltiruvchi ishlarga sarf etishlari muhimligi alohida ta’kidlanadi: “Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo‘ladi: biri mol- mulk yig‘ib foydalanmagan va ikkinchisi esa ilm olib unga amal qilmagan odam”. Xususan:

Harchan o‘qibsan, bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan,
Ustiga kitob ortilgan eshak,
Na olim va na donodir beshak”[3]

Sa’diy bilimli va fozil kishilarning so‘z va amal birligiga tayanishlari maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi. Ezgu so‘zlarni aytuvchi olimlarning bildirilgan fikrlarga o‘zlari amal qilmasliklari kishilar oldida obro‘larining tushishiga sabab bo‘luvchi omillardan biridir degan g‘oyani ilgari suradi.

Yana bir hikoyat. Bir olim shahzodaga ta’lim berar, lekin uni kaltaklab, qattiq azoblardi. Bir vaqt shahzoda toqat qila olmay shikoyat qilgani otasi huzuriga bordi va ko‘ylagini ko‘tarib, majruh badanini ko‘rsatdi. Otasining yuragi achidi, muallimni chaqirib unga dedi: «Mening o‘g‘limga bergan bu aziyatingni biror fuqaro farzandiga ravo ko‘rmaysan, buning sababi nima?» Muallim dedi: «Buning sababi shuki, andisha bilan gapirmoq va maqbul harakat qilmoq lozimdir. Bu qoida barchaga barobar,

xususan, podshohlarga aloqadordir, chunki ularning qilgan ishlari va gapirgan gaplari tillarda doston bo‘lib ketadi, lekin avomning gapirgan gap-u xatti-harakati bunday ahamiyatga molik emas.

Darvesh agar yuz nomaqul ish qilsa
Biriga ham do‘stlar qilmas e’tibor
Ammo podshoh biror hazil so‘z desa
Iqlimdan iqlimga o‘tadi takror.[3]

Shuning uchun shahzodalarning ustozlari podshoh farzandlarining axloqini tarbiyalashda yanada ziyodroq sa‘y harakat ko‘rsatmoqlari vojibdir».

Kimga yoshligidan berilmas odob,
Ulg‘aygach bo‘ladi baxtsiz, dili g‘ash.
Ho‘l novda egilar qay xilda egsang,
Quruqni to‘g‘rilar faqat o‘t-otash[1]

Ustodning tutgan tadbiri va oqilona javoblari podshohga ma‘qul tushdi.va unga libos va boshqa in‘omlar berdi hamda martabasini oshirdi.

Tilla-kumush bari chiqsa ham toshdan
Barcha toshda oltin bo‘lmog‘i gumon.
Suhayl nur sochadi har yoqqa birdan,
Bir yerda charm-u, bir yerda saxtiyon [1]

Bu hikoyatda ham ko‘rinib turibdiki, podshohning farzandi qanday talim olmog‘I kerakligi, u ham kelajakda bir yurtni boshqaradigan shaxs bo‘lishi uning aytgan gaplari-yu qilgan amallari tildan tilga ko‘chib yurishi, xalq orasida qanday nom qoldirishi, albatta, uni qanday talim olganiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, har bir inson farzand tarbiya qilayotganida tarbiyaga yuzaki qaramay, e’tiborli bo‘lmog‘i darkor. Allomaning fikricha, quyidagi fazilatlarni o‘z qiyofasida mujassam eta olgan insongina haqiqiy ma’noda komil, yetuk inson sanaladi: bilimli, mehnatsevar, kamtar, oliyjanob, himatli, saxovatli, saxiy, shijoatli, g‘ayratli, hat’iyatli, mard, jasur, jismonan kuchli, to‘g‘ri so‘z, bergan va’dasiga vafodor, adolatli, do‘stga sodiq, o‘z kuchi va mehnatiga tayanib ish ko‘ruvchi insonlar.

Xulosa o‘rnida mutafakkirning komil insonni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi “Guliston” asari Sharq xalqlarining pedagogik fikrlari tarixida o‘ziga xos uslubga ega didaktik asar sifatida tan olingan. Ushbu asar muallifning boy hayotiy tajribasi asosida yaratilganligi bilan ham qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sa’diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968-yil.

2. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH International scientific online conference [200-203 betlar]

3. K.Xoshimov va b. Pedagogika tarixi.Toshkent-2005

BOSHLANG`ICH TA`LIM O`QITUVCHILARINI PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Soibnazarova Muqaddas
JDPU katta o`qituvchisi

Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi - murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umum e'tiborli va ma'naviy qiziqishga molik jarayonga aylanadi. Ta'lim tizimining umumiy maqsadi - teng huquqli demokratik davlat talabiga javob beradigan barkamol jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir.

O'qituvchini kasbiy pedagogik tayyorgarligini tekshirish usullaridan biri - bu attestatsiya. Attestatsiyaning maqsadi o'qituvchining o'ziga mos kasbiy-pedagogik mahorat darajasini va o'qituvchining barcha faoliyatining tomonlarini tekshirishdan ibrat.

O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodimizning tarbiyachisidir. U o'quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashi va dunyoqarashni shakllantirish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ta'lim va tarbiya berishida, mahorat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- ta'lim berish mahorati;
- ta'limning zamonaviy usullarini qo'llay olish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- inson omilini ta'minlovchi fazilati;
- bilimlarni holisona baholash va nazorat qila olish mahorati;
- mehnat ta'limiga bo'lgan ehtiyojni qondira olish mahorati.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish, o'z malakasi saviyasini oshirish ustida ha doim ishlashi, bu borada o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

a) ta'lim-tarbiya ishining aniq maqsadga yo'naltirilganligini, ilmiy jihatdan asos-langanligini hamda uning mazmunini to'g'ri tanlanganligini aniqlash;

b) ta'lim sifatini aniqlash, rivojlanish bosqichlari, taraqqiyot darajasini belgilash hamda istiqboldagi yo'nalishlarini yoritish;

v) ta'lim va tarbiyaning muqobil samarali uslublarini ishlab chiqish, o'quvchi va o'qituvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga, pedagogik jamoaning barcha a'zolari orasida o'zaro ishonchga, do'stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan yagona maqsad sari intilish kabi vazifalarni aniqlashga e'tibor berish zarur.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi - bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy rivojlanishidir.

O'qituvchilarini kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini kasbiy-pedagogik mahoratini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Boshlang'ich ta'limi o'qituvchisining kasbiy - pedagogik faoliyatga moslashish muammolarini o'rganish uchun, avvalo, bu tushunchaning mohiyatini, ijtimoiy - ma'naviy asoslarini aniqlash hamda uni takomillashtirish yo'llarini bilish zarur. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish uquvini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z xatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi. Faoliyat usullarini tanlash shaxsning ma'naviy dunyosiga faqat boshqa shaxs – pedagogning ma'naviy dunyosi bilan ta'sir ko'rsatish mumkin degan qoida bilan aniqlanadi.

O'rta ta'lim o'qituvchilarini integrativ yondashuv asosida kasbiy - pedagogik faoliyatini rivojlantirish mezonlari pedagogik-psixologik, metodik, umum-muhandislik hamda ixtisoslik fanlar mazmuni quyidagilardan tarkib topadi:

- motivatsion xislatlarga egaligiga ko'ra - kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga undovchi rag'bat (eng yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilish, axborot resurs markazi orqali yangi axborotlarni olish ehtiyoji, ilg'or tajribalarni o'rganish ehtiyoji, pedagogik mahoratning yuqori darajasiga erishishni ko'zlash, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ko'zlaganlik, o'qituvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqot qilish xohishi, pedagogik jamoasidagi barcha kasbdoshlari tomonidan tan olinishga intilish, ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini bilishga intilish, ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan yangi materiallar, texnika va texnologiyalar haqida bilimlarga ega bo'lish, konstruksiyalash, loyihalash va boshqa shu kabilar);
- intellektual salohiyatga ko'ra - pedagogik fikrlash (pedagogik dalil, hodisa, jarayon hamda tizimlarni tahlil qila olish);
- pedagogik vaziyatlarda ijodiy, moslashuvchan, tanqidiy, tizimli, harakat- chan, tezkor fikrlay olish, pedagogik eruditsiya, pedagogik sezgirlik, pedagogik ziyraklik, pedagogik bashorat qila olish, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, bashoratlash, pedagogik ijodkorlik, mehnat vositalari, texnologik jarayonning asoslari; ishlab chiqarish jarayoni funksiyalari, texnologik mashinalarning umumiy tuzilishi, ishlash prinsipi, analiz, sintez, texnika va texnologiyalar orasidagi umumiylik, tipiklik hamda xususiylikni bilish va boshqalar;
- irodaviy sifatlariga ko'ra - pedagogik muloqotda chidam va o'zini tutib tura olishda, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda, pedagogik maqsadlarga erishishda, o'z faoliyatining ahamiyatini oshirishda, o'zligini rivojlantirishda, texnik fikrlashda, texnik obyektlarni ishga tushirishda, sozlashda, ta'mirlashda, rejalash- tirilgan texnologik jarayonni oxiriga yetkazishdagi qat'iylik;
- hissiy sifatlariga ko'ra - o'quvchilarning o'y-kechinmalari, quvonch va tashvishlarini tushuna olish, hamfikrlik, mamnunlik, bolajonlik, ochiqlik, hissiyoti, o'quvchilarning yosh-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olish, texnik obyektlar hamda amaliy harakatlarning murakkabligini his qilish, texnologik jarayonlarni,

izlanuvchanlik, ixtirochilik, kashfiyot, texnik ijodkorlik, shuningdek, ruhiy muhitni boshqara olish;

- amaliy ko'nikmalarga egaligiga ko'ra - pedagogik qobiliyatlar, pedagogik ko'nikmalar, rejalashtirish, grafik-chizma ishlarini bajara olishi, texnologik xaritalarni o'qiy olish, texnologik jihozlarni boshqarish, sozlash, nuqsonlarini bartaraf etish, texnik obyektlarga ishlov berish ko'nikmalari, bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko'chira olishi, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo'llay olishi, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olishi, o'zini kasbiy-axloqiy jihatdan tutishi;

- o'z-o'zini boshqara olishiga ko'ra - faoliyati va o'zini tahlil qilish, baholash; faoliyati, individual muloqot metodini ijtimoiy-kasbiy sohadagi tajribalar bilan qiyosiy baholash; ijodiy jarayonda refleksiya qila olish qobiliyati, o'z individualligining rivojlanishi, kasbiy faoliyati va xulqidagi shaxsiy fazilat hamda kamchiliklarini aniqlay olish qobiliyati, kasbiy rivojlanishda davom etish imkoniyatlarini aniqlash ko'nikmasi, unga nisbatan o'z munosabatini boshqara olish. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy shakllanishining yuqorida ko'rsatilgan tarkibiy omillarining yaxlitligi fikrlash va pedagogik faoliyatning yangi asoslarda amalga oshirishini ta'minlaydi, bu esa uning betakror kasbiy tajribasi ahamiyatining ortishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxo'jayeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2000.

2. Моисеев А.М. Качество управления школой: каким оно должно быть.- Москва, 2001.

3. Кузьмина Н. В., Пожарский С. Д., Паутова Л. Е. Акмеология качества профессиональной деятельности специалиста: монография. - СПб.; Коломна; Рязань: Изд-во Рязан. обл. ин-та развития образования, 2008.- С.375.

TALABA YOSHLARNI INTELLEKTUAL IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Sultanqulova Gulnora Furqatjon qizi
Yangi asr universiteti Maxsus
pedagogika kafedra o‘ qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba yoshlarni o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammolari va echimlarini ishlab – chiqib tatbiq etishni nazarda tutadi.

Klati so‘zlar: intellekt, bilim, talaba, axloq, ijodiy intellect, ko‘nikma, malaka, tajriba

Biz shunday asrda, jamiyatda yashamoqdamizki, har bir shaxs, har bir xalqdan jahon sivilizastiyasi erishgan barcha intelektual ijodiy salohiyatni o‘zlashtirgan holda jahon andozalari darajasida fikrlay olish, o‘z milliy ma’naviy-madaniy merosini jahon miqyosiga olib chiqa bilish talab etiladi. Bunday ulkan vazifalarga faqat intelektual

ijodiy salohiyatni va ma’naviyat, ma’rifatni har tomonlama tiklash, rivojlantirish orqali erishiladi.

Rivojlanayotgan jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy shakllanishidir.[2, 54-b.]

Chindan ham intellektual salohiyatni yuksaltirish bugungi kunda milliy taraqqiyotning asosiy sharti va mezoniga aylanmoqda. Chunki intellektual jihatdan qoloq xalq hech qachon rivojlanmaydi. Dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar eksport qiladigan mahsulotlarining ko‘pchiligi intellektual mulk hisoblanadi.

Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma’naviy taraqqiyot yo‘liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o‘z fuqarolarining ma’naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e’tiborni qaratmoqdalar.[1, 110-b.]

Intellekt inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatini, ongli xatti-harakatinig yuksak shakli hisoblanadi. Intellekt tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko‘lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi.

Ta’limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to‘la egallashlariga erishish, shaxsning ta’lim diqqat markazida bo‘lishini va talaba yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va intellektual salohiyatni yuksaltirish uchun o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg’ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan pedagoglar ham kerak.[5, 54-b.]

Buning uchun, barcha fan o‘qituvchilarini intelektual salohiyatiga va faniga qarab, innovastion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy mashg’ulotlarda qo‘llash malakalarini oshirib borish lozim. Insoniyat sivilizastiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini o‘ta qati’y hamda murakkab talablar asosida yo‘lga qo‘yish zarurati kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Talaba yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi:

- Talaba yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi hislatlarini uyg’otish va rivojlantirish rejalashtiriladi.
- Mana shu hislatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual ijodiy salohiyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.
- Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.[7, 79-b.]

Mana shunday rejaga solinib olib boriladigan ishlarni amalga oshirish ta’lim-tarbiya tizimi jarayonida ham yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirib boradi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini oshirib boradi.

Ijodiy intelektual saloxiyatli va murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayoni mohiyatini to‘laqonli anglay olgan, favqulodda ro‘y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta olish salohiyatiga ega bo‘lgan malakali mutaxassisni tayyorlash zaruriyati ta’lim jarayonini ham ijodiy yondashuv asosida tashkil etish lozimligini taqozo etmoqda.[10, 20-b.]

Talaba yoshlarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har doim bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi; pedagog va o‘quvchilarning ijodiy hamkorligidagi faoliyatni doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Ijodiy intelektual saloxiyat ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir talaba yoshning faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bu ijodiy rivojlanish usullari hisoblanib, undan foydalanganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashғulotga aylanadi. Ijodiy va interfaol usullar qo‘llanilganda pedagoglar, talaba yoshlar yordamida va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. Talabalar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar.[9, 162-166-b.]

Intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlari

Ko‘p qirrali jarayon: Ko‘p qirrali jarayonda o‘quv maskani, oila, mahalla va keng jamoatchilik, kino, teatr, televideniya, adabiyot va san’at ishtirok etadi.

Uzoq muddat davom etadigan jarayon: Bu jarayonga bolaning tug’ma iste’dodi kiradi. Bu xususiyatda ta’limdan farqli ravishda u bola tug’ilganidan boshlanadi, maktab davrida, undan keyin, va butun umr davom etadi

Yaxlit holda amalga oshiriladi: Intellektual ijodiy salohiyatning ta’limdan farqlantiruvchi xususiyati yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Bunda tarbiyaning turlari bir-biri bilan uzviy bog’langan.

Yoshlarning faolligi, ikki tomonlama xususiyat: Bunga yoshlarning tug’ma iste’dodi hamda olgan bilimlari asosidagi intellektual ijodiy salohiyati kiradi. Bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, bunda bolaning o‘zi ham faol ishtirok etadi.

Qarama-qarshiliklarning ko‘pligi: Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o‘z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo‘lgan intellektual ijodiy salohiyat bilan ta’lim-tarbiya tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar o‘rtasida o‘quvchilarga qo‘yilgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o‘rtasidagi kurashlarda namoyon bo‘ladi.[11, 4-b.]

Yurtimizda o‘sib kelayotgan ma’naviy yetuk, yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani barchamizga ayon. Chunki, fuqarolik, huquqiy-demokratik jamiyat qurish va uning rivojini ta’minlash yoshlarning ta’lim tarbiyasi qay darajada tashkil etilganligiga bevosita bog’liqdir.

Shu boisdan ham talaba yoshlarni ma’naviy axloqiy, huquqiy qadriyatlar, fuqarolik burchini bajarishga ongli ravishda munosabatda bo‘ lish ruhida tarbiyalash ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarini qamrab oluvchi serqirra jarayonga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, har birimiz jamiyatda o‘ z ijtimoiy o‘ rnimizga egamiz va oilada, mahallada, ta’lim muassasalarida har tomonlama intellektual ijodiy rivojlangan avlodni tarbiyalar ekanmiz ijtimoiy pedagoglar hisoblanamiz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Конопкин О. А. Психологические механизмы регуляции деятельности. М., 1980. С. 110.

2. Мирославский Ю. А. Саморегуляция и активность личности в юношеском возрасте. М.: Педагогика, 1991. С. 54.

3. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. М.: Просвещение, 1968. С. 324.

4. Матанцева Т. Н., Смирнова С. И. Психология саморегуляции и самооценки подростков с задержкой психического развития. Киров: Изд-во ВятГГУ, 2010. С. 163.

5. Kuzmina V.P. EHmpatiya v detsko roditel'skih otnosheniyah… [Empathy in children-parent relationships...]. 54.

6. Поливанова К. Н. Психология возрастных кризисов. М.: Изд. центр «Академия», 2000. С. 32.

7. Божович Л. И. Указ. Соч

9. Матанцева Т. Н. Возрастные и специфические особенности личностной саморегуляции подростков с задержкой психического развития // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. 2012. № 1(1). С. 162–166

10. Freud Z. Psixoanalizli ta’lim [Psychoanalytic studies]. Minsk. “Belarus”. 1991.

11. Vygotsky L. S. Muloqot muammosi psixologiyasi [Problems of General psychology] // Proc. art.: in 6 vols. Moscow. 1982. Vol. 2, 4.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI RAQAMLI TA‘LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Taylakova Guli Bekmuratovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Informatika kafedrasi mudiri, dotsent v.b., (PhD)

“*Agar biz bolalarimizni kecha o‘qitganimiz kabi o‘qitsak,*
biz ularni kelajagini o‘g‘irlagan bo‘lamiz”.
Djon D‘yui

Annotatsiya. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish muhim jarayon. Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanib, dars

jarayoniga tayyorlik darajasini oshirish uchun kerakli qadam va tavsiyalarni ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: multimedia texnologiyalari, axborotlashtirish, raqamli ta‘lim, elektron ta‘lim resurslari, axborot, zamonaviy, elektron ta‘lim.

O‘zbekistonda mavjud barcha oliy ta‘lim muassasalari yangi raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda axborot texnologiyalar fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Shu munosabat bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘rgatish orqali talabalarning ta‘limdagi ahamiyati, ularning umuman mehnat bozoridagi kasbiy funksiyalari oshib ketishi va bu o‘z navbatida rivojlantirishga bo‘lgan moyillikning oshishiga va kasbiy kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishiga olib keldi.

Har bir oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim siyosati, sifati va kasbiy faoliyat imkoniyatlari bilan ijtimoiy himoyalangan, doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashgan va kasbiy kommunikativ kompetensiyasi rivojlangan, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorgarligini hal etishga qaratilgan bo‘lishi lozim [1].

Axborotlashtirish muammolarini hal qilish uchun bolalikdanoq axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ehtiyojlari va imkoniyatlarini shakllantirish zarur.

Jamiyatni axborotlashtirishning asosiy yo‘nalishi boshlang‘ich maktabdir. Shu munosabat bilan zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi zamonaviy mikroprotsessor va kompyuterlar asosida amalga oshiriladigan axborotni to‘plash, izlash, to‘plash, saqlash, ishlab chiqarish, qayta ishlash, uzatish va undan foydalanish bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalarsiz mumkin emas [1].

Ta‘limni axborotlashtirish - ommaviy kommunikatsiya va kompyuter tarmoqlari bazasida yagona axborot- ta‘lim makonini yaratish jarayoni bo‘lib, uning tayanch kategoriyasi – axborot- ta‘lim tizimlari, uni yaratish tamoyillari esa integrativ va gumanistik asosga ega. Axborot jamiyati doirasida, bir tomondan, mutaxassis faoliyatining asosiy shakllari va usullari o‘zgaradi, bu muqarrar ravishda uning kasbiy tayyorgarligi mazmunining o‘zgarishga olib keladi. Boshqa tomondan, uni qurshab turgan ijtimoiy-iqtisodiy va ta‘lim muhiti o‘zgaradi, ta‘lim mazmunini o‘zgartirish talablari bilan birgalikda mutaxassisni tayyorlash shakllari, vositalari va usullarining o‘zgarishiga olib keladi. Bularning barchasi mutaxassislarni, shu jumladan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ham kasbiy tayyorlash tizimi uchun yangi rivojlanish modelini izlashni talab qiladi.

K.V.Sokolova axborot jamiyatida kichik yoshli maktab o‘quvchilarini AKTdan foydalanish doirasida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiylashtirish”ning muhim ahamiyatni ta‘kidlab, bu jarayonlar o‘zaro bog‘liq ikki yo‘nalishda olib qaralishi lozimligini qayd etadi: boshlang‘ich ta‘lim tizimiga informatika va axborot texnologiyalarini deyarli barcha o‘quv fanlariga kiritishdir.

L.L.Bosovaning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan “Informatika va AKT” mustaqil o‘quv predmetini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladigan informatika va AKT vositalari va usullarini aniq bir maqsadga qaratilgan tarzda o‘zlashtirish yoki boshqa o‘quv predmetlari o‘rganish va sinfdan tashqari ishlarda

o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilim olish qobiliyatini shakllantirish, axborot-o‘quv, eksperimental-tadqiqot faoliyati, mustaqil axborot faoliyatining turli- tuman ko‘rinishlarini amalga oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni AKT vositalari bazasida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. [3]

O‘quv-metodik ta‘minotning yangi avlodi tarkibida lokal va global tarmoqlarning axborot resurslari bilan bog‘langan ta‘limiy vazifali elektron nashrlar sifatida taqdim etiladigan ta‘lim vositalari muhim o‘rin tutishini aytadi.

Bunda ta‘limiy vazifali elektron nashrlar quyidagi maqsadlarga erishishga mo‘ljallangan:

- ✓ “o‘quv ma‘lumotlarini multimedia texnologiyalari, gipermatn, gipermedia, telekommunikatsiya vositasida taqdim etish;
- ✓ interaktiv o‘zaro aloqada foydalanuvchi bilan teskari aloqani amalga oshirish;
- ✓ ta‘lim berish natijalari va ta‘lim olish jarayonlarini nazorat qilishni avtomatlashtirish;
- ✓ o‘quv- tarbiya jarayonini axborot-metodik ta‘minlash va ta‘lim muassasani boshqarishni avtomatlashtirish”.

Raqamli ta‘lim resursi – grafik, matnli, raqamli, nutqiy, musiqiy, video, foto va raqamli ko‘rinishda taqdim etilgan boshqa axborotni o‘z ichiga olgan, zamonaviy ta‘limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirirlgan axborot manbai.

“Raqamli ta‘lim resursi” tushunchasi bilan “raqamli resurs”, “axborot resursi” va “ ta‘lim resursi” tushunchalari bog‘liq. “Axborot resursi” tushunchasi “raqamli resurs” tushunchasidan ham “ta‘lim resursi” tushunchasidan ham keng.

Raqamli ta‘lim resursining axborot turi bo‘yicha tasnifini keltiramiz: matnli ma‘lumotli raqamli ta‘lim resursi (darslik, o‘quv qo‘llanma, xrestomatiya, ensiklopediya, masalalar to‘plami, lug‘at, davriy nashrlar), vizual ma‘lumotli raqamli ta‘lim resursi (rasm, fotosurat, poraqamli ta‘lim resursiet, jarayon va mashg‘ulotlarning videlavhasi, namoyish, videoekskursiya), kombinatsion ma‘lumotli raqamli ta‘lim resursi (darslik, o‘quv qo‘llanma, ensiklopediya, masalalar to‘plami, lug‘at, davriy nashrlar), audio ma‘lumotli raqamli ta‘lim resursi (ovozli musiqiy chiqishlar, jonli va jonsiz tabiatning ovozi), videoma‘lumotli raqamli ta‘lim resursi (tirik va tirik bo ‘lmagan tabiatning audio-video obyektlari, o‘quv predmetlari bo‘yicha ekskursiyalar, ensiklopediyalar), interaktiv modellar (o‘quv predmetlari laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv predmetiga doir virtual laboratoriyalar), murakkab tuzilishga ega bo ‘lgan raqamli ta‘lim resursi (darslik, o‘quv qo‘llanma, ensiklopediyalar). [5]

“Raqamli ta‘lim resursi” termini bilan bir qatorda “elektron ta‘lim resursi” termini ham ishlatiladi. Elektron ta‘lim resurslari texnik jihatdan – dasturlar va ma‘lumotlar to ‘plami, iste‘molchi nuqtayi nazaridan – o‘rganish predmeti bo ‘lgan obyektlar, jarayonlar, abstraktsiyalarni ifodalovchi mazmunli elementlar to ‘plami.

Raqamli ta‘lim resurslari o‘quv jarayonini tashkil qilishda quyidagi imkoniyatlarni taqdim qilishini aniqladik:

-katta hajmdagi axborotni joylashtirish (bu ayniqsa elektron interaktiv ensiklopediyalar yaratish uchun muhim);

-kerakli ma‘lumotlarni tezkor izlash va foydalanish;

-ko‘plab murakkab hodisa va jarayonlarni ko‘rgazmali (tushunarli) tarzda taqdim etish;

- grafik bezakdan foydalanish;

- turli shakl - vizual, tovush vositasidagi va h. k. shaklda taqdim etilgan ma‘lumotlarni bir vaqtning o‘zida qabul qilish;

- o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil ravishda egallash va taqdim etish faoliyatining turli shakllarini tashkil etish;

- o‘quvchilar bilimini obyektiv va sifatli tekshirish, masalan, test orqali;

- bilimlarni egallashning individual jarayonini boshqarish.

Ta‘lim jarayonida raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanish o‘quv materialini turli-tuman shaklda taqdim etishga erishish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning idrok qilishning turli kanallaridan foydalanishi tufayli ortiqcha zo‘riqishi xavfidan qochib, ularning o‘rganilayotgan mavzuga e‘tiborini iloji boricha uzoqroq ushlab turishga imkon beradi. Bundan tashqari, assotsiativ eslab qolish nazariyasiga ko‘ra turli sensor yo‘llar orqali takrorlangan ma‘lumotlar (masalan, matn, video, grafika va tovush kabi) yaxshiroq o‘zlashtiriladi va ancha uzoq saqlanadi. [6]

Raqamli ta‘lim resurslari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchiga yosh o‘quvchilarda asosiy umumiy o‘quv faoliyatini shakllantirishda yangi imkoniyatlar ochadi. Sifatli elektron darsliklar, qoida tariqasida, maktab o‘quvchilarida boshqa o‘quv qo‘llanmalarini jalb qilmasdan, barcha zarur bilimlarni shakllantirishga erishish uchun mo‘ljallangan [4]. O‘rganilgan har bir mavzu bo‘yicha topshiriqlar xilma -xil, interaktiv bo ‘lib, sizga yakka holda ham, juftlikda ham, guruhda ham ishlash imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishning turli shakllariga ko‘nikishadi, barcha topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, o‘zlarini baholashni o‘rganadilar va maqsadli fikrlarni oladilar va bularning barchasi o‘qituvchining qo‘shimcha harakatisiz amalga oshiriladi.[3]

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanish ko‘nikmasi shakllantirilsa, kelajakda o‘quvchilarga raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanib mashg‘ulotlar olib borilsa o‘quvchilarni yangi mavzu bilan qiziqtirishi, barcha kerakli ma‘lumotlarni ixcham shaklda berishi, yangi materialni tahlil qilish, darsni qiziqarli va esda qolarli qilib qo‘yishi mumkin. To‘g‘ri, darsda multimediali taqdimotlar, interaktiv testlar, viktorinalar yordamida o‘qituvchi o‘quv natijasiga bevosita ta‘sir qilmaydi. Biroq, bu zamonaviy ta‘lim muhitini yaratishga hissa qo‘shadi, o‘quvchilarda foydali odatlarni shakllantiradi, -masalan, topshiriqlarni bajargandan so‘ng o‘zlarini baholaydi, jamoada ishlashga tayyor bo‘ladi va xatolarini tezda tuzatadi. Oxir -oqibat, biz raqamli resurslardan ta‘lim maqsadlarida foydalanish tabiiy deb biladigan, aniq maqsadga erishadigan intelektual yetuk o‘quvchilar avlodini tarbiyalaymiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari” to ‘g ‘risidagi PF-6079 son Farmoni.

2. Abduqodirov A.A., To ‘rayev B.Z. “Informatika va axborot texnologiyalari” sohasidagi bo‘lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish nazariyasi va metodikasi. Monografiya. “Navro‘z”. Toshkent – 2015. 176-b.

3. Босова, Л.Л. Подготовка младших школьников в области информатики и ИКТ: опыт, современное состояние и перспективы - М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. - 271 с.

4. Gafurovna, L.S. (2023). Mechanism for the Use of Digital Educational Resources by Future Primary School Teachers. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157),1(10), 123-128

5. Khalikova U.M. (2020). Information and communication technology (ICT) in presschool education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.

6. Мендель В.В. Аспекты использования информационно-компьютерных технологий в образовательном процессе / В.В. Мендель, О.А. Тринадцатко // Современные проблемы науки и образования. – 2020. – №2 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://scienceeducation.ru/ru/article/view?id=29755

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM SIFATINI BAHOLASH USULLARI

Tashbayev Naim Sadikovich
MTTDMQTMOI, Ta’lim sifatini nazorat
qilish monitoringi bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim sifatini baholash jarayonda qo‘llaniladigan usullar borasida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim sifati, monitoring, pedagogik tashxis, faoliyat mezonlari, ta’lim jarayoni, metodik yordam.

Ta’lim sifatini baholashda mazkur jarayonda qo‘llaniladigan usullar muhim ahamiyatga ega. Pedagogikada usul – o‘rganilayotgan hodisalarga yondashish, ilmiy bilish va haqiqatni aniqlashning rejali yo‘li; harakat usuli yoki tartibi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, narsa, hodisa yoki biror jarayonni o‘rganish va amalga oshirish ketma-ketligi, keng ma’noda o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish, ma’lum ob’yektni o‘zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlar tushuniladi.

Pedagogik tadqiqotlar tizimida ta’lim sifatini baholashda kuzatish usuli ilmiy ma’lumot olish uchun yetakchi o‘rinni egallaydi va uning ikkita asosiy turi mavjud: o‘z-o‘zini kuzatish va boshqa narsa-ob’yektlarni, ularda kechadigan voqea-hodisalarni kuzatish.

Kuzatuv bolaning turli xil faoliyatlarda ta’lim olishi va o‘zini tutishi haqida aniq va ob’yektiv ma’lumot yig‘ishga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, mazkur jarayon maqsadli yo‘naltirilgan, doimiy, ob’yektiv, integrallashgan, refleksiv, tavsifiy va ishonchli bo‘lishi lozim. Kuzatuv aniq tanlangan bola yoki bir guruh bolalarga

nisbatan, kuzatuvchi tanloviga muvofiq ochiq maydonda, guruhda, oshxonada, sayrda, uyda olib boriladi.

Bolalarni kuzatishda bola shaxsi noyobligi va yaxlitligini hurmat qilish, uning individual o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish, mustaqil harakat qilishga, xatolikka yo‘l qo‘yish ehtimoli bo‘lgan taqdirda ham bolaning bunga haqli ekanligini tan olish muhim ahamiyatga ega.

Kuzatish har doim aniq maqsadga ega va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun maxsus reja bo‘lishi zarur. Pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatishni tashkil etishda kuzatuvchidan tartiblilik, ehtiyotkorlik va aniqlik talab etiladi.

Ta’lim sifatini baholash jarayonida anketa usuli ham keng qo‘llaniladi. Mazkur usul orqali eng kam vaqt sarflagan holda o‘rganilayotgan ob’yekt haqida katta miqdordagi ma’lumotlarni olish mumkin. Anketa pedagogik va ijtimoiy tadqiqotlarda ma’lumot olishning asosiy usuli sifatida o‘rganilayotgan muammoni respondentlar o‘rtasida so‘rovnoma savollari yoki ko‘rsatkichlari tizimi asosida aks ettiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimining sifatini o‘rganish bo‘yicha anketa so‘rovnomalari asosan ota-onalar o‘rtasida o‘tkaziladi. Shu boisdan anketa so‘rovnomasini o‘tkazishda so‘rov varaqalarining qaytarilishini va savollarga berilgan javoblarning to‘liqligini ta’minlash, respondentlarning mustaqil javob berishlari uchun shart-sharoitlar yaratish ma’lum bir qiyinchiliklarni tug‘dirishi mumkin.

Zamonaviy pedagogika amaliyotida ta’lim sifatini baholashning sinov-test usuli ham keng qo‘llaniladi. Testlar yordamida bolaning o‘qishga tayyorligini, o‘qitish darajasini, o‘quvchining intellektual qobiliyatini va boshqa psixologik-pedagogik xususiyatlarini baholash mumkin.

Test sinovlari bitiruvchilarning maktabga tayyorgarlik darajasini va ta’lim sifatini ob’yektiv ravishda aniqlashga yordam bersada, tarbiyalanuvchilar shaxsini, ularning rivojlanish xilma xilligini hurmat qilish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadi bolalarga akademik bilimlar berishga qaratilmaganligi yuzasidan maktabgacha ta’lim tizimida mazkur usuldan foydalanish unchalik ma’qullanmaydi. Biroq mazkur usuldan bolaning psixologik rivojlanishini aniqlashda keng foydalanish mumkin.

Maktabgacha ta’lim sifatini baholashda maktabgacha yoshdagi bola portfoliosi usulidan ham foydalaniladi. Portfolio – bu materiallar yig‘indisi bo‘lib: rasmlar, hikoyalar, bajarilgan topshiriq natijalari, fotolavhalar, ibora, so‘z birikmalari, fikr, mulohaza yozilgan qaydnomalarni o‘z ichiga oladi. Bu yig‘ma materiallar bola tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning hayotiy sharoitlarda qo‘llay olinishi haqida tasavvur beradi.

Portfolio bola rivojlanish istiqbolini tahlil qilish va baholash uchun qo‘shimcha ma’lumotlar manbasi sifatida qo‘llaniladi. Bola portfoliosini yaratishda kuzatuv va qaydnomaga tegishli yozuv va belgilar kiritiladi.

Portfolio texnologiyasini qo‘llash pedagog uchun oila bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligini tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Aniq o‘yinli mashq, ijodiy topshiriqlardan foydalanib, bolaning mustaqil faoliyatini kuzatish asosida pedagog har bir bola rivojlanishining individual ta’lim yo‘nalishini belgilaydi hamda ota-onalarga ta’limiy va tarbiyaviy jarayonning to‘laqonli ishtirokchisi bo‘lishi mumkinligini

yetkazib beradi. Portfolio bo‘limlari asta-sekinlik bilan, maktabgacha yoshdagi bolaning imkoniyatlari va erishgan yutuqlariga muvofiq to‘ldirib boriladi.

Pedagogik hodisa to‘g‘risida ma’lumot olish, ta’lim-tarbiya jarayonining dolzarb muammolarini hal qilish usullari to‘g‘risida xulosalar chiqarishga yordam beradigan vositalardan biri bu ekspert usulidir. Ekspert usuli – bu murakkab pedagogik muammolarni har tomonlama o‘rganish, tahlil qilishga imkon beradigan yondoshuvlardan biri bo‘lib, u to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.

Mazkur usulda pedagogik jarayon mutaxassislar tomonidan sifat va miqdoriy jihatdan baholash orqali tahlil qilinadi va natijalar qayta ishlanadi. Ekspert baholash usuli asosan murakkab pedagogik jarayonlar, hodisalar yoki vaziyatlarni tahlil qilishga imkon beradi.

Ushbu usul bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lib, ekspertizani tashkil etish bosqichida ekspertizaning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, muammo tavsiflanadi; ekspert guruhining huquq va majburiyatlari, ekspertizani o‘tkazish muddatlari belgilanadi, zarur mutaxassislarga tanlanib, ekspert guruhi shakllantiriladi.

Ekspertizaning asosiy bosqichi ma’lumotlarni to‘plash, tadqiqotlar o‘tkazish va ekspert baholash, mavjud materiallarni tahlil qilishdan iborat. Pedagogik ekspertiza uchun ko‘pincha anketa so‘rovnomalari, testlar va nazorat-diagnostika mashqlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ekspertizaning yakuniy bosqichida natijalarni tahlil qilish asosida kamchiliklar aniqlanadi va uni hal qilish, rivojlanishni bashorat qilish va innovatsion yechimlarga asoslangan ekspert xulosasi qabul qilinadi hamda tegishli hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Ta’lim muassasasining holati to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni olish va asoslangan qarorlarni qabul qilish tizimi pedagogik monitoring orqali ta’minlanadi. Ta’lim sifatini monitoring qilish muammosi pedagogika nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb muammolaridan biridir.

Pedagogikada “monitoring” tushunchasi muayyan voqelikni tekshiruvchi, nazorat etuvchi va uning natijalarini umumlashtiruvchi jarayon sifatida talqin qilinadi [1].

Monitoring tizimini o‘quv jarayonining oraliq va yakuniy natijalarini, ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlovchi va baholovchi, shuningdek, o‘quv jarayonini tartibga solish va tuzatish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi uzluksiz va tartibli harakatlar majmui sifatida izohlash mumkin. Ta’lim tashkilotlarida monitoringning nazorat, ekspertiza, boshqaruvni axborot bilan ta’minlash kabi tarkibiy qismlari mavjud.

Ta’lim sifatini monitoring qilish keng va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lganligi bois M.V.Krulext va I.V.Telnyuklar [2] maktabgacha ta’lim tizimini monitoring qilishning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatadilar:

- maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish sohasidagi salbiy yoki tanqidiy holatlarning o‘z vaqtida oldini olish maqsadida ma’lumot to‘plash, ta’lim xizmatlarining sifatini milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada tizimli va muntazam ravishda tartibga solish;

- boshqarish siklining nisbatan mustaqil aloqasi, amalga oshirilgan harakatlarning identifikatsiyasi va baholanishi, pedagogik tizim haqiqiy natijalarining uning yakuniy maqsadlariga muvofiqligi to‘g‘risida yakuniy xulosalar;
- og‘ishlarning darajasi, yo‘nalishi va sabablarini to‘g‘ri baholash qobiliyati.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini nazorat qilish bolalar faoliyati natijalarini o‘rganish; kuzatish; portfolio; o‘yin test topshiriqlari; nazorat va baholash mashg‘ulotlarini o‘tkazish; pedagoglar, ota-onalar va bolalar bilan suhbat; so‘rovnoma o‘tkazish; ish hujjatlarini tahlil qilish kabi usullar asosida amalga oshiriladi.

Ta’lim bosqichlaridagi ta’lim sifatini baholash bo‘yicha yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning aksariyati moslashuvchan modellarga asoslangan bo‘lib, sifatni baholash usullari va ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchandir.

Bugungi kunda ta’lim amaliyotida sifatni baholash bo‘yicha qat’iy me’yor va ko‘rsatmalardan voz kechish tendensiyasi mavjud. Mazkur holat pedagogik tizimlarning samaradorligini baholashning statistik usullaridan voz kechgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotida yaratilgan o‘quv muhitini, tarbiyalanuvchining rivojlanishini baholashga o‘tishga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi O‘RQ-595 son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/4646908

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/5841063

3. Pedagogik atamalar lug‘ati. Djurayev R.X., Tolipov O‘.Q. va boshq. – Toshkent, Fan, 2008. 198 b.

Крулехт М.В., Тельнюк И.В. Экспертные оценки в образовании: / Учебное пособие. – М.: Академия, 2002. – 112 с.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tashtemirova Gulnoza Tashpo‘latovna
Nizomiy nomidagi TDPU
tayanch doktoranti

Bugun global rivojlanayotgan va raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilayotgan sharoitda yoshlarning kitobxonligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Har qanday taraqqiyot va rivojlanishining markazida inson turadi va bu holat o‘qituvchining yoshlarni kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi kundagi maktablrning ustuvor vazifalariga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab, yosh avlodni kitob mutolaasiga o‘rgatish, pedagoglarning kitobxonlik darajasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarida ham yaqqol aks etgan: “Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik madaniyatini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvarda qabul qilgan “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi qoridagi fikrlarimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo‘llari atroflicha belgilab berildi.

Jumladan, mamlakatimiz ta’lim sifatini baholash bo‘yicha PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash; xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ko‘zda tutildi.

PIRLS - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonida dars maqsadlari o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga asoslangan holda belgilanadi, bu esa ta’lim-tarbiya jarayonida yuqori natijaga erishishni kafolatlaydi, o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi va o‘quv harakatlarini aniq baholash imkoniyatini yaratadi.

Kitob o‘zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, o‘quvchini insoniyatning ma’naviyat tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, his-tuyg‘ularini yuksaltiradi. U yoki bu asar o‘quvchi tomonidan qanchalikchuqur va to‘liq qabul qilinsa, bu asar uning shaxsiga shunchalik katta ta’sir ko‘rsatadiki, o‘quvchi o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yib, yomon illatlardan saqlaydi. Shuning uchun ham ta’limning yetakchi vazifalardan biri o‘quvchilada kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish, undagi voqea va xodisalarni tahlil etishga o‘rgatishda.

Buning uchun avvalombor, har bir o‘qituvchi u qasi fandan dars berishidan qat’iy nazar, o‘quvchini kitob o‘qishga qiziqtirish yo‘llari, shart-sharoitlarini bilish zarur.

Kitobning dunyoga kelishi ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liq bo‘lgani kabi, uni mutolaa qilish ham o‘zining tadrijiyligiga ega. Shu ma’noda zamonaviy kitoblarning kitobxon xususiyati, nashrdan kuzatilan maqsad hamda mavzuga ko‘ra farqllanishi mutolaa jarayonlarini oqilona tashkil etish uchun qo‘l keladi. Xususan ular ommaviy kitobxonlarga, mutaxassislarga hamda bolalarga mo‘ljallangan kitoblarga, nashrdan kuzatilgan maqsadga ko‘ra esa, rasmiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, o‘quv, adabiy-badiiy, ma’lumotnoma, reklama va hokazo kitoblarga ajratiladi. Ilmiy adabiyotlarning keng tarqalgan turi monografiyalardir. O‘quv adabiyotlarga esa darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va boshqa adabiyotlar kiradi. Mavzuga ko‘ra esa, kitoblar kutubxona bibliografiyasi asosida tasniflashtiriladi.

Kitobga muhabbat va mustaqil o‘qishga qiziqishning mohiyati to‘g‘risidagi ziddiyatli fikrlarni qiyoslashni erta va eng so‘nggi tadqiqotlarga murojaat etib davom ettirish ham mumkin, ammo ular kitobni inson hayotiga kiritish muammosi o‘rganilayotganida barchasi qanchalik “oson” va barchasi qanchalik “murakkab” ekanligi to‘g‘risidagi xulosa uchun mavjud asosga hech nima qo‘shimcha qilmaydi.

Darhaqiqat, kitob o‘zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, o‘quvchini insoniyatning ma’naviyat tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, his-tuyg‘ularnini yuksaltiradi. U yoki bu asar o‘quvchi tomonidan qanchalik chuqur va to‘liq qabul qilinsa, bu asar uning shaxsiga shunchalik katta ta’sir ko‘rsatadiki, o‘quvchi o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yib, yomon illatlardan o‘zini saqlaydi. Shuning uchun ham ta’limning yetakchi yetakchi vazifalaridan biri o‘quvchilarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish, undagi voqea xodisalarni tahlil etishga o‘rgatishdir. Buning uchun avvlambor, har bir o‘qituvchi u qaysi fandan dars berishidan qat’iy nazar, o‘quvchini kitob o‘qishga qiziqtirish yo‘llari, shart-sharoitlarini bilish zarur.

O‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda kitobxonlik va kitob mutolaasining ahamiyati beqiyos. O‘quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirish asosida mustaqil fikrlash sohalarini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko‘p asrlar mobaynida ajdodlarimiz o‘z farzandlari va shogirdlarini kitob mutolaasiga o‘rgatishga alohida e’tibor qaratganlar. Kitobxonlik yordamida yosh avlodni ulkan madaniy merosimiz va jaxon ilm-fani yutuqlari bilan yaqindan tanishtirsh imkoniyati vujudga keladi.

Shaxsda kitob o‘qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish lozim. Shaxsni kitoblar bilan tanishtirishda uzluksiz ta’limning izchil, tizimli va maqsadli amalga oshiriladigan dastlabki bo‘g‘ini – boshlang‘ich sinflar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinflarda tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik, psixologik talablar negizida tizimli faoliyatning yo‘lga qo‘yilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Keyingi yillarda o‘quvchi yoshlarning kitobxonlik madaniyatini ijtimoiy – pedagogik fenomen sifatida ko‘plab tadqiqotlarning mavzusiga aylandi. Ilm-fan jamiyatning yutuqlari, taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi, kitob yoshlikda eng yaxshi murabbiy, qariganda esa undan yahshiroq do‘st yo‘qligi xususidagi fikr va g‘oyalarni juda ko‘p eshitamiz. Kitobning inson xayoti, kishilik jamiyati ma’naviy taraqqiyotidagi beqiyos o‘rni qadimdan ma’lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go‘zalikka muxabbat uyg‘otish, undan zavqlanish, yovuzikdan nafratlanish tuyg‘usini rivojlantirda. Kitob o‘quvchida dunyoni anglab olishda ko‘mak berish bilan bir qatorda uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirdi, ijobiy xarakterni tarkib toptiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo‘llarini o‘rgatadi.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasini kengroq talqin qilish uchun, avvalo, madaniyat tushunchasining ma’nosini tahlil qilish zarur. Mazkur tushuncha ma’nosi zamirida aniq ijtimoiy hodisalar, voqea-jarayonlar, tabiat bilan inson o‘rtasidagi bog‘liqlik va taraqqiyot qonunlari yotadi. Inson mehnatining mahsuli, yaratgan tafakkur durdonalari “madaniyat” sifatida qabul qilinadi va tarixga muhrlanadi. Kitobxonlik madaniyati tushunchasi ma’naviy madaniyat turkumiga kiradi. Ma’naviy madaniyat – fan, san’at, adabiyot, falsafa, axloq, ma’rifat, inson ongi va tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ijtimoiy hodisalar yig‘indisi hisoblanadi. Ma’naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lgan falsafiy va pedagogik madaniyat mutolaa qoidalari hamda kitobga bo‘lgan muhabbat va bilimga intilish masalalarini ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa kilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

4. Safarova D.S. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchi-yoshlarni turli yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish //Sovrkmennoye obrazovaniye O‘zbekistan).-2017-№.6

5. Ibragimov X.I. Uzluksiz ta’lim jarayoni subyektlarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya 20-21 oktabr 2020 yil.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH SHART SHAROITLARI

Temirov Ma’ruf Shuhrat o‘g‘li
Xalqaro Innovatsion Universitet o‘qituvchisi
Roziqova Mo‘mina Lochinbek qizi
Xalqaro Innovatsion Universitet talabasi

Annotatsiya. Ta’lim tizimini takomillashtirish borasida bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, bilim ko‘nikma va malakalarini muntazam oshirib borishi, ularda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, kompetentlik, ta’lim, dars, kommunikatsiya, tarbiya, kasbiy kompetensiya, innovatsiya.

Zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonlari hozirgi kunda xalqaro mehnat bozorining asosiy talabi hisoblanib kelmoqda. Buning sababi shundaki, jamiyatda erkin fikrlovchi, o‘zini bemalol namoyon qila oladigan, o‘ziga obyektiv jihatdan baho beradigan kishilar juda muhim. Ular jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchilari hisoblanadilar.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo‘lishi, iqtisod, fan madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uzluksiz ta’lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan isloh qilishga qaratilgan. “Milliy dasturni” amalga oshirishda mavjud ta’lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarni tubdan o‘zgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribalarga, ta’lim jarayonini hamma bosqichlarida, uzluksiz ta’lim tizimi ta’lim muassasalarining hamma shakli va turlarida ilg‘or-metodik ta’limlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg‘or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta’minlash kiradi. Ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, bilim ko‘nikma va malakalarini muntazam oshirib borish yo‘lida ham o‘ziga xos talablarni belgilab beradi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirishda ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsison texnologiyalarni tadbiq etish orqali o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion faolligini oshirish hamda innovatsion jarayonlarga qiziqish va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi [1,104-b].

Kompetensiya – o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, hozirgi davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni topish ko‘nikmasini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z faoliyati davomida qo‘llashni talab qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, ta’lim-tarbiya maskanlaridagi o‘quv tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini yanada oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetentligini yuksaltirish, ularni sohaga oid zamonaviy ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalangan holda kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiytexnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda foydalana olish hamda istiqbolli vazifalarni hal qilish ko‘nikmalarini

yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va uning tahliliy ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratish muhim vazifa hisoblanadi. Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo‘lganligi sababli ularning har biri o‘z kompetentligiga mos bo‘lishi lozim. Bugungi kunda "professional kompetensiya" atamasi tez-tez ishlatiladi. Tushuntirish lug‘atlarida kompetensiya tushuncha va bilim sifatida ta’riflanadi. Lotin tilidan tarjima qilinganda “competentia” inson bilimli, bilim va tajribaga ega bo‘lgan bir qator masalalarni bildiradi. Lotin: competo – erishaman, bo‘ysunaman, yondashaman. Bir so‘z bilan aytganda, kasbiy kompetensiya bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga aylantirish qobiliyatidir. Kasbiy kompetensiyalar - bu kasbiy vazifalarni yoki muayyan kasbiy vazifani bajarish qobiliyati. Siz ishni samarali bajarishingiz va kerakli natijaga erisha olasiz deb taxmin qilinadi. Shuningdek, quyidagi kompetensiya turlari ajratiladi: - individual kompitensiya: o‘zingizni targ‘ib qilish va natijalarga erishishga yordam beradigan shaxsiy xususiyatlar. - yetakchilik qobiliyatlari: boshqaruv emas, balki yetakchilik. Chunki hamma rahbarlar ham rahbar bo‘la olmaganidek, hamma ham rahbar bo‘la olmaydi. Bu ko‘proq insonning shaxs va mutaxassisning rivojlanishi uchun qanchalik yetakchilik qilishi yoki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi mumkinligi anglatadi. - funksional kompetensiyalar. Faqat inson faoliyati sohasini nazarda tutadi. - ijtimoiy kompetensiya: ijtimoiy guruh ichidagi kognitiv va xulq-atvor qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.O‘qituvchining o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi omil maqsad bo‘lib, shu maqsadga erishishda barcha o‘qituvchilarda tabiatan faollik va layoqat mavjud bo‘ladi, agar belgilangan maqsad umumiy manfaatlar uchun xizmat qilmasa va u o‘z vaqtida, muvofiqlashtirilmasa, bo‘lajak o‘qituvchilarda mazkur maqsadga, o‘zaro aloqa va munosabatlarning maqsadi, mazmun-mohiyatining o‘qituvchilar tomonidan o‘ziga xos tushunilishi ularning pedagogik kompetentligi shakllanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi [2].

Ma’lum bir faoliyatni tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon-bu inson oldiga qo‘yilgan maqsad bo‘lib, unga erishish uchun vazifalari belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘lyo‘riqlqrini tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. O‘qituvchilar o‘rtasidagi aloqa-axborot almashinuvi, kommunikatsion jarayonlar hamda o‘zaro munosabatlarning samimiyligi va natijaviyligi, bir tomondan axborotlarning yangiligi va ishonchliligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning ma’lum bir yo‘nalishidagi tasavvuri va kompetentligi shakllanganlik va rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi aloqalarning vujudga kelishida, yani axborot almashinuvida, munosabatlarning o‘rtasidagi aloqalarning vijudga kelishida, yani axborotlar almashinuvida, munosabatlarning qaysidir (ijobiy yoki salbiy) tarzida shakllanishida maqsad asosiy rol o‘ynaydi va o‘z navbatida, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi rivojlanishiga ham ta’sir etadi. O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda o‘zaro ta’sir jarayoni mazkur jarayonining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi qator omillar orqali ifodalanadi.

Mazkur fikrga asoslangan holda, o‘qtuvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish vositasi hisoblanuvchi va bu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga to‘xtalib o‘tamiz. O‘qituvchilarda kasbiy kompatentlikni rivojlantirish vositalaridan biri – ular faoliyat ko‘rsatayotgan va yashayotgan muhit bo‘lib, bu

o‘qituvchilarda kasbiy kompatentlikni rivojlantirish jarayoni subyektlarining o‘zaro ta’sirini amalaga oshiruvchi tashqi omillardan biri hisoblanadi. Bunday ta’lim – tarbiyaviy muhitda o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi ishtirokchilarning suhbati va o‘qituvchining o‘zini-o‘zi rivojlantirishi asosida kompetentlikning rivojlantirish rivojlanish jarayoni vujudga keladi, mazkur omil ota-onalar, ijtimoiy muhit va jamiyatning zamonaviy talablari ta’siri ostida bo‘ladi. Ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining pedagogik jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda qulay ta’limiy muhitning shakllanishi uchun boshqarishning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g‘oyalar yo‘nalishini aniqlay olishi, ilg‘or tajribalarni va fan texnika yutuqlarini muntazam o‘rganib borishi, ularni o‘z faoliyatiga tadbiq etib borishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning subyektivligi va faolligini oshira olishi zarur hisoblanadi.

Zamonaviy talablar asosida kompiyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida tashkil etish, ta’lim tizimidagi yangi pedagogik texnologiyalarni joriy va ijobiy tajribalarni ommalashtirish ta’lim sohasidagi eng muhim masalalardan hisoblanadi. Zamonaviy shart-sharoitlarda pedagogik muhitni tashkil etish va uni olib borish qobiliyati orqali pedagogning mutaxassisligidan kelib chiqib, kasbiy tayyorgarligi, ya’ni pedagogik boy tajribaliligi, o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini muvofiqlashtirish, ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashda kompetentli bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.M.Temirov Mutaxassislikka kirish uslubiy qo‘llanma // №71 Intelekt nashriyot 2024. 104 b.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlar o‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/12/1] ISSN 2181-7324, FALSAFA http://journals.nuu.uz Social sciences.

3. Жуманова, Н. Ш. Развитие инновационных систем в образовании / Н. Ш. Жуманова, Н. Х. Тошпулатова, А. С. Комилова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 4 (108). — С. 777-778. — URL: https://moluch.ru/archive/108/25968/ (дата обращения: 04.02.2022).

4. Данилюк А.Я. Принципы модернизации педагогического образования // Педагогика. 2010. № 5. С. 37-46.

INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI BOSHLANG‘ICH MAKTABDA O‘QITISH VA TA’LIMNI BIRLASHTIRISH MUAMMOSI

Toshxo‘jaeva Nargiza TAFU dotsenti v.b.
Saitqulova Movluda TAFU talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada integratsiyalashgan darslarni o‘tkazishning psixologik va pedagogik asoslari haqida so‘z yuritilib, unda integratsiyalashgan darslarning boshlang‘ich maktabda o‘qitish va ta’limni birlashtirish muammosi nazariya va amaliyot uchun muhim ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: integratizm, populyatsiya, avtonom element, bilim, ko‘nikma, ko‘nikma, yaxlitlik, integratsiya, tizim.

Boshlang‘ich maktabda o‘qitish va ta’limni birlashtirish muammosi nazariya va amaliyot uchun muhim va zamonaviydir. Uning dolzarbligi maktabga qo‘yilgan yangi ijtimoiy so‘rovlar bilan belgilanadi. Bu fan va ishlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Integratsiya – bu farqlash jarayonlari bilan bir qatorda sodir bo‘ladigan fanlarning yaqinlashishi va bog‘lanish jarayoni. Bu o‘qitishning sifat jihatidan yangi bosqichida fanlararo aloqalarni amalga oshirishning yuqori shakli bo‘lib, yangi butun tizimli “bilimlar monoliti”ni yaratishga hissa qo‘shadi.Jamiyatning jadal rivojlanishi sharoitida fan hayotning barcha sohalarida mustahkam o‘rnashgan. Uslubiy tushuncha sifatida tizimli yondashuv o‘zining falsafiy asosi sifatida tizimlilik printsipiga asoslanadi [1].

Tizimli yondashuvning uslubiy asosi o‘zaro bog‘liqlik printsipidir.

“Tizim” atamasi ilmiy adabiyotlarda turli ma’nolarda qo‘llaniladi. Va turli mualliflar tomonidan ko‘rib chiqilgan ushbu kontseptsiyaning qirqdan ortiq ta’riflari mavjud. Ular tizimli yondashuvning mohiyati to‘g‘risida turli xil nuqtai nazarlarni ochib beradi, asosiy tushunchalarga (tizim, yaxlitlik, tashkilot, tuzilish, bog‘liqlik, munosabat, tartiblilik, funktsiya, yo‘nalish) ta’riflar beriladi va ushbu tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar tushuntiriladi.

Entsiklopedik lug‘atida tizimning quyidagi ta’rifi berilgan: “tizim (yunoncha tizimdan - qismlardan tashkil topgan butun) - aloqa, ma’lum bir yaxlitlik, birlikni tashkil etuvchi bir-biri bilan munosabatlar va aloqalardagi ko‘plab elementlar”. A.D.Ursulning fikricha, “tizim deganda yaxlit birlikni tashkil etuvchi uyushgan to‘plamni tushunish mantiqan to‘g‘ri keladi”. N.F.Reymersning so‘zlariga ko‘ra, “tizim – bu ma’lum bir birlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari aloqalar bilan birlashtirilgan o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarning har qanday moddiy-energetik yoki kontseptual to‘plami”. Tizimli yondashuvning uslubiy funktsiyalari V.G.Afanasyev, I.V.Blauberg, L.A.Petrushenko, V.N.Sadovskiy, A.I.Uemov, E.G.Yudin asarlarida ishlab chiqilgan [2].

V.A.Engelxardt butun va qism o‘rtasidagi munosabatlarni tavsiflashda uchta muhim fikrni qayd etadi. Muallif “integratizm” atamasini kiritadi. Ushbu atama analitik va sintetik, tarkibiy va tizimli qarashlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning etakchi, asosiy tomonini ko‘rsatadi.

“Integratsiya” tushunchasi har qanday qismlarni bir butunga birlashtirishni anglatadi va ma’lum populyatsiyalarda ilgari avtonom elementlarning o‘zaro bog‘liqligi jarayonlarini tavsiflash uchun ishlatiladi. Fanlarning, birinchi navbatda, tabiiy va ijtimoiy integratsiyani turli fanlarning bir butuniga oddiy birikma sifatida ifodalash mumkin emas. Tizimli yondashuv o‘quv jarayonini dunyoning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanishi kabi didaktik printsiplarga muvofiq amalga oshirishga imkon beradi.

G.D.Kirillova tizimli yondashuvga e’tibor va ehtiyojni quyidagicha ta’kidlaydi: tizimning ichki yaxlitligi xususiyati fazilatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi;

elementlarning o‘zaro bog‘liqligi asosidagi qonun uning tartibliligi, tashkil etilishi, tuzilishi va nisbiy barqarorligini tushuntiradi; elementlarning o‘zaro bog‘liqligi va xarakterli yoki tarkibiy bog‘liqliklar tizimning rivojlanishini, «xatti-harakatlarini” ochib beradi [3].

Tizimli yondashuvning ushbu xususiyatlari har qanday dialektik jarayonni ochishda zarurdir. Ular maktabdagi ta’limning tabiatiga ham mos keladi. O‘qitish usullari va usullarining xilma-xilligi muammosini o‘rganish emas, balki turli maqsadlarga, tarkibning o‘ziga xos xususiyatlariga, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos keladigan usul va usullardan foydalanishni ko‘rib chiqish mumkin.

Dunyo haqidagi bilimlarga integratsiya va tizimli yondashuv ko‘p jihatdan o‘xshashdir. Integratsiya-bu yaxlitlikka ega bo‘lgan jarayon yoki harakatlar.

Yaxlitlik – bu yagona tizimning elementlari sifatida ishlaydigan tarkibiy qismlarning ichki, organik o‘zaro bog‘liqligi usuli. Bunday yaxlit munosabatlar sinergetik ta’sirni yaratadi.

Tizim integratsiyasi o‘z mezonlariga ega.

M.S.Asimov, O.M.Sichivitsa va A.Tursunov falsafa nuqtai nazaridan integratsiya umumiy ilmiy, sanoat, fanlararo va intizomiy bo‘lishi mumkin deb hisoblashadi. Tashkilotning shakllari, darajalari va darajalari unga xosdir.

Pedagogik jarayonda integratsiya deganda, tarqoq qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq rivojlanish jarayonining tomonlaridan biri tushuniladi. Integratsiya jarayonining mohiyati tizimga kiradigan har bir element ichidagi sifatli o‘zgarishlarda yotadi.

Maktabning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning dunyoga yaxlit, o‘zaro bog‘liq bir butun sifatida yaxlit qarashlarini shakllantirishdir.

Ta’lim mazmunida inson muammosi va uning dunyoga munosabati markaziy o‘rinni egallaydi: “inson va tabiat”, “inson va jamiyat”, “inson va inson”. Muammo “qanday qilib integratsiya qilish kerak?” integratsiyalashgan darslarni tayyorlash va o‘tkazish tajribasini to‘plash yordam beradi. Hozirgi vaqtda boshlang‘ich ta’limda darslar tizimining o‘z-o‘zidan yangilanishi, ularni yangi o‘quv mazmuni bilan to‘ldirish liniyasi va tarkibiy qismlar bo‘yicha amalga oshirilmoqda [5].

Boshlang‘ich maktab darajasida ta’limning kamchiliklari ko‘pincha muvaffaqiyatsizlikning natijasidir, ularni ijtimoiy choralar bilan birgalikda tuzatish mashg‘ulotlari ma’lum darajada yo‘q qilishga yordam beradi. Bunga bolaning qobiliyatlari va moyilligini iloji boricha erta aniqlash va o‘rganishni uning manfaatlariga yo‘naltirish yordam beradi. Bu maktabni yangilash uchun asosiy talablarni anglatadi.

Inson faoliyati – bu biron bir maqsadga erishishga qaratilgan amaliy va aqliy harakatlarning butun zanjiri yoki tizimi. Inson faoliyatida biologik va ijtimoiy haqiqiy birlik ishonchli tarzda namoyon bo‘ladi. Faqat o‘yin, ta’lim, sport, mehnat, ijtimoiy faoliyatda bolani faollashtirish mumkin va bu uning rivojlanishidagi eng muhim omil.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘qituvchining mazmuni, shakllari, o‘qitish usullari, ish uslubi insonparvarlik va jamiyatni demokratlashtirish g‘oyalariga muvofiq qayta qurilishi kerak. Bu o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasidagi aloqa uslubining o‘zgarishiga ham tegishli. Maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini, ayniqsa

boshlang‘ich maktab yoshini ommaviy ravishda rivojlantirish, o‘quv jarayonida nafaqat axborot (bilim, ko‘nikma, ko‘nikma), balki bolaning tafakkurini rivojlantirish bilan bog‘liq ilmiy bilimlarning (ta’limning) rivojlanish funktsiyasini amalga oshirish sharti bilan mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Amonashvili Sh. L. Salom bolalar! – M.: Ta’lim, 1988. -208 b.
2. Azimov M. S., Tursunov A. Fanlarning zamonaviy tendentsiyalari // Falsafa masalalari. -1981.- №3.
3. Balaxmetov K. J. Yangilanish yo‘lidagi maktab. – Qozog‘iston, 1985. -138 b.
4. Bahareva L. N. Boshlang‘ich maktabda mahalliy tarix asosida o‘quv mashg‘ulotlarini birlashtirish // Boshlang‘ich maktab. -1991.- №8.- 48-51 b.

Bahareva L. N. Boshlang‘ich maktabda o‘quv mashg‘ulotlarini birlashtirish // Boshlang‘ich maktab. – 1991.- №8. - 48-51 b.

O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH YO‘LLARI

Turopova Maxliyo Erkin qizi
Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchi
Abduhalimova Marjona
Xalqaro innovatsion universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutq va uni o‘stirish tushunchasi,nutq turlari, o‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan talablar, nutq o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishdagi muhim vosita, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liqligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, nutq turlari, nutq o‘stirish, aspektlar, ichki,t ashqi, og‘zaki nutq, yozma nutq.

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari(so‘z,so‘z birikmasi) asosida tafakkurni ishga solish tushuniladi. Nutq o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash boshqa insonlarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq kishi faoliyatini muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Nutq o‘stirish o‘zi nima?Agar nutq o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi,lug‘ati,sintaktik qurilishini,bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi.Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, [o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o‘zlashtiriladi.Buning o‘zi yetarli emas,chunki u nutqni yuzaki o‘zlashtiradi.Nutq egallashning qator aspektlari mavjud:

1. Adabiy til me’yorlarini o‘zlashtirish.
2. Jamiyatimizning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini o‘zlashtirish.
3. O‘quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. [1,301-b.];

Tilning mana shu ijtimoiy ahmamiyatidan kelib chiqib, maktabda o‘quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e’tibor beriladi.
Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi:
1. So‘z ustida ishlash
2. So‘z birikmasi va gap ustida ishlash
3. Bog‘lanishli nutq ustida ishlash

So‘z, so‘z birikmasi va gap ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib leksikologiya (frazeologiya va stilistika bilan birgalikda),morfologiya,sintaksis xizmat qiladi,bog‘lanishli nutq esa mantiqqa,adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Kishilar tildan fikr bayon qilish sifatida foydalaniladi.Ular o‘z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o‘ylab oladilar bu ichki nutq hisoblanadi.

Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan bo‘ladi. O‘ylangan (fikrlangan) nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining o‘ziga qaratiladi.

Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil: farqi-tashqi nutq a’zolarining harakati natijasida tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi, ichki nutqda nutq a’zolarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi.Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og‘zaki nutq tovush nutqi,yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko‘rish va harakat (qo‘l harakati) sezgisi asosiy o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi, yozma nutqdan bevosita aniq sharoitdan ajratiladigan holda hamda kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi. Og‘zaki nutq ko‘pincha dialog tarzida,yozma nutq esa monolog tarzida bo‘ladi. [1,302-b.];

O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan talablar. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:
1. O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin.
2. Nutqda mantiqiylik bo‘lsin.
3. Nutq aniq bo‘lsin.
4. Nutq til vositalariga boy bo‘lsin.
5. Nutq tushunarli bõlsin.
6. Nutq ifodali bo‘lsin.
7. Nutq to‘g‘ri bo‘lsin.

O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin. Hikoya yoki insho o‘quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo‘lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko‘rsatuvdan olgan ma’lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo‘ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko‘rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so‘zlashga yo‘l qo‘yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi. Nutq o‘stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya’ni material yig'ish, uni muhokama qilish, to‘ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

Nutqda mantiqiylik bo‘lsin. O‘quvchilar nutqi mantiqan to‘g'ri bo‘lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o‘rinlar tushirib qoldirilmasligi va o‘rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo‘lmagan ortiqchalikka yo‘l qo‘yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyligi narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o‘ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

Nutq aniq bo‘lsin. O‘quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so‘z, so‘z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o‘rgansin.

Nutq til vositalariga boy bo‘lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Albatta, boshlang'ich sinf o‘quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo‘yib bo‘lmaydi, ammo o‘qituvchi o‘quv ishlarida ularning so‘z boyligini oshirib borishni har vaqt ko‘zda tutishi kerak.

Nutq tushunarli bo‘lsin. Og'zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi zarur. So‘zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o‘quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

Nutq ifodali bo‘lsin. Agar nutq ifodali, ya’ni jonli, ishontiradigan bo‘lsa, eshituvchiga yoki o‘quvchiga ta’sir etadi. Og'zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta’sir etsa, og'zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o‘quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so‘zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta’sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo‘lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so‘zlardan xoli bo‘lishini taqozo etadi.

Nutq to‘g'ri bo‘lsin. Maktab o‘quvchilari uchun nutqning adabiy til me’yorlariga mos va to‘g'ri bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og'zaki nutq esa orfoepik jihatdan to‘g'ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to‘g'ri bo‘lishi uchun so‘z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega. Yuqorida sanab o‘tilgan talablar o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo‘lib, ta’lim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi. [1,304-b.];

Nutq- o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishdagi muhim vosita hisoblanadi. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi,uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvafaqqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda material materialni tayyorlash, takomillashtirish va mantiqiy fikrlashga yo‘naltiriladigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi,shu bilan birga ,fikr nutqni yaratadi. Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi.Shunday qilib nutqni tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi,nutq tafakkurni asosi hisoblanadi, fikr nutq yordamida yuzaga keladi.

Ikkinchi tomondan nutqning o‘sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiriladi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish boshqa predmetlari bilan ham bog‘liq. O‘quvchilar nutqini o‘stirish boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi. Masalan, ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishini o‘rgatadi. Ona tili darslarida yozma nutqni o‘stirish uchun keng imkoniyatlari mavjud.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi barcha darslarda, sinfdan, maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta’sirli so‘zlashi, shuningdek, har doim o‘quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozish zarur. Bu bilan bolalarni ifodali so‘zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o‘rgatadi, tilga sezgirlikni uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “NOSIR” nashriyoti 2009
2.Matchonov S., G‘ulomova X. Nutq madaniyati. // “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali.-Toshkent, 2000.
3.Sariyeb Sh. Savod o‘rgatish darslarida nutq o‘stirish. // “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali.-Toshkent, 1997
4.Safarova R. Nutqiy ko‘nikmalarni tekshirish asoslari. // “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali.-Toshkent, 1997

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BUNYODKORLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Turganov Yo.I.
Jizzax DPU o‘qituvchisi
Musrmonov Maqsudbek
Jizzax DPU talabasi

Mehnatkash va bag‘rikeng, olijanob xalqimiz, sizdek bilimli, faol va shijoatli o‘g‘il-qizlarim bor ekan, biz har qanday qiyinchiliklarni albatta yengib o‘tamiz.

Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda bunyodkorlik madaniaytini shakllantirishni ayrim vositalari va shakllari keltirilgan hamda ularning ahamiyati keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Vatanparvarlik, sadoqat, burch, faxrlanish, milliy g‘oya, ma’naviy etuklik.

Uzluksiz ta’limning asosiy bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich maktab dasturlarida o‘quvchilarda bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish mazmuni turli fanlarning mavzularida ma’lum darajada o‘z ifodasini topgan bo‘lishiga qaramay uning metodikasi ishlab chiqilmagan. Boshlang‘ich ta’lim dasturlarini tahlil etishdan shu

narsa ma’lum bo‘ldiki, birinchidan ijtimoiy gumanitar fanlar dasturlarida bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishga oid bo‘limlar, mavzular etarli darajada emas. O‘quvchilarda bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish mashg‘ulotlarini ishlab chiqdik. Ular «O‘zbekiston vatanim», «Davlat ramzlari», «Yurtimiz bayramlari», «Huquqbuzurlik va jazo», «Sog‘liqni saqlash», «Kasbim faxrim», «Meniki va bizniki», «Tinchligimiz bebaho boylik», «Ona tabiatni asrash». «O‘zbekiston mening vatanim», «Konstitutsiyamiz bosh qomusimiz»kabi mavzular o‘rin olgan. Mavzular tahlili shuni ko‘rsatadiki ularda o‘quvchilarning bilimi, aqliy va axloqiy faoliyati, ruhiy holati inobatga olingan bo‘lishiga qaramay ushbu mavzularning mohiyati va mazmunida bunyodkor g‘oyalarning burchlari nimalardan iborat ekanligi va amalga oshirish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan[1].

Quyidagi mashg‘ulotlar ma’naviy-ma’rifiy soatlarda amalga oshirilishi o‘quvchilarni Yangi O‘zbekiston hayoti va faoliyatini takomillashtirish bilan birga, ularda bunyodkorlik g‘oyalarini shakllantirishda muhim hisoblanadi.

1-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i va gerbini o‘rganish.

Mashg‘ulotning ta’limiy maqsadi: O‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i haqida ma’lumot berish.

Tarbiyaviy maqsadi: O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i bilan g‘ururlanish his-tuyg‘ularini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsadi: O‘quvchilarga davlat bayrog‘iga sadoqat burchini tarbiyalash.

O‘qitish usullari: Ma’ruza qilish, savol-javob, ko‘rgazmalilik.

O‘qitish vositalari: Kompyuter slaydlari, doska.

O‘qitish shakllari: O‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash.

O‘qitish shart-sharoitlari: Proektor, kompyuter, O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i.

O‘qituvchi: Qadrli o‘quvchilar! Xalkimizning buyuk davlat barpo etish g‘oyasi, salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, eng avvalo, davlat ramzlari va timsollarida o‘z ifodasini topgan. SHy bois ajdodlarimiz hayotida ramzlar va timsollar juda e’zozlangan. Odamlar davlat timsollari uchun o‘z jonlarini ham fido etganlar. Jangu jadallarda bayroqning qulashi yoki dushman qo‘liga o‘tishi mag‘lubiyat bilan barobar turgan.

Bunga tariximizdan juda ko‘p misollar keltirish mumkin. Masalan, 1221 yilning kuzida mo‘g‘ul bosqinchilari olti oylik qamaldan so‘ng Xorazm poytaxti Gurganjga yopirilib kirganida SHayx Najmiddin Kubro shahar mudofaasi rahnamolaridan biriga aylanadi. Tengsiz kurashda o‘z ko‘ksini dushman nayzasiga qalqon qilib, yurt ozodligi yo‘lida shaxid bo‘ladi. Aytishlaricha, SHayx o‘limi oldidan mo‘g‘ul yalovbardoridan bayrog‘ini tortib olib, erga qulaydi. Yovga nisbatan nafrat shu qadar kuchli ediki, mug‘ullar keyinchalik SHayxning jonsiz qo‘lidan bayroqlarini tortib ololmagan va uning panjalarini kesib, bayroqlarini ajratib olgan[2].

SHayx Najmiddin Kubroning yurt ozodligi yo‘lidagi bu jasorati - mana, qariyb sakkiz yuz yildirki, barcha avlodlarga zo‘r bir ibrat namunasi.

2-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi

Mashg‘ulotning ta’limiy maqsadi: O‘quvchilarga davlat madhiyasi mazmuni haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsadi: O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini o‘rganish asosida o‘quvchilarda bunyodkorlik hoyalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini yodlash va ijro etish.

Mashg‘ulot uslubi: madhiyani ijro etish. Uning mazmunini suhbat, savol-javob metodlari asosida o‘quvchilar ongi va qalbiga etkazish.

Mashg‘ulot jihozi: madhiya matni, ovoa uzatish moslamalari.

Darsning borishi: Ovoz uzatish moslamalari orqali o‘quvchilarga davlat madhiyasi eshittiriladi.

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, ehribon!
YAshnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!
N a q a r o t:
Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!
Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!
N a q a r o t:
Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekistan,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Hurmatli o‘quvchilar! Ushbu davlat madhiyasining so‘zlari Abdulla Oripov qalamiga mansubdir. Mana, 1992 yil 10 dekabrdan buyon madhiyamiz jaranglaganda, hammamiz uni tik turib eshitamiz, imkonini topsak, jo‘r bo‘lib kuylaymiz. Madhiyamiz turli munosabatlar bilan chet ellarda yangraganda, biz uni boshqa davlatlar madhiyalari bilan qiyoslash imkoniga ega bo‘lamiz. Madhiya musiqasini Mutal (Mutavakkil) Burhonov yaratgan. U har qanday o‘zbekistonlikning ruhini ko‘tarib, qalbini jo‘sh urdiradi, faxr tuyg‘usini kuchaytirib yuboradi.

Madhiya matnini O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozgan. Mo‘‘jazgina bu madhiyada Abdulla Oripov ijodiga xos eng muhim jihatlar o‘ta ixcham tarzda o‘z aksini topgan.

Madhiya mazmunida vatanparvarlik, yurt madhi, bosh mavzui hisoblanadi.

Madhiyada-O‘zbekiston degan yurtga ta’rif beriladi. U *jon O‘zbekiston, serquyosh, hur o‘lkam, ona yurt, olamni mahliyo aylagan diyor* tarzida turli-turli

ifodalar bilan madh etiladi. Bunda bir muhim narsaga diqqat qilish kerak. Birinchi misrada hur o‘*lka* deb ketaverish ham mumkin edi. Lekin, axir, madhiya xuddi har bir fuqaroning qalb so‘zi, ko‘ngil ifodasi yanglig‘ aytilishi kerak-ku. Shuning uchun shoir topadi birinchi shaxs, ya’ni fuqaro tilidan o‘lkam deydi. Shu birgina tovush *(-m* egalik qo‘shimchasi) madhiyani go‘yo yigirma besh million kishining) o‘zinikiga - "shaxsiy mulki"ga aylantirgandek...

Vatanniig serquyoshligi, hurligi, unda *to a6ad ilmu fan, ijod* yashnayajagi, *shuhrati* jahon turguncha porlayajagi, *elga baxt, najot, do‘st larga yo‘ldosh, mehribon, istiqlol mash’ali, tinchlik posboni, haqsevar* ekanliga va hokazolar aytilgan. Madhiyada yana qanday so‘zlar o‘rin olgan?

O‘quvchi: Madhiyada *el, xalq, o‘zbek* degan so‘zlar tilga olinadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, yana *ajdodlar* va *avlodlar ham* eslab o‘tiladi. CHunki xalq tushunchasi hamisha ana shu ikki "qism"ning bir butunligidan iborat.

Avvalo, u *ulug‘ xalq* deyilgan. Madhiyada xalqning xususiyaglari bilan Vatanning fazilatlari uyg‘unlashib ketgan. Biz ularni, shartli ravishda, ikkiga bo‘ldik, xolos. Amalda, yurt haqida aytilganlarning barini el to‘g‘risida ham deb qabul qilish kerak.

O‘quvchi: Madhiyada istiqlolga ta’rif berilgan. Naqarotning uchinchi misrasida jaranglagan:

Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,

so‘zlarining ma’no-mohiyatida istiqlol sharofatini ulug‘lash yotganini sezish qiyin emas. Ikkinchi (asosiy) bandning uchinchi misrasida esa istiqlol so‘zi bevosita tilga olinadi ham:

Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni...

O‘quvchi: Madhiyada abadiylik ruhi kuchli singdirilgan. *YAshnagay to abad ilmu* fan, *ijod, Ajdodlar mardona ruhi senga yor, Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot* hamda *Haqssvar,ona yurt*, mangu bo‘l obod misralari bevosita shunga xizmat qildirilgan.

O‘qituvchi: Xulosa qilib shuni aytish kerakki, davlat madhiyasi, bayrog‘i va gerbi mamlakat ahli - har bir fuqaro uchun muqaddas qadriyatli hisoblanadi.

Demak, o‘quvchilarda bunyodkorlik tushunchasini shakllantirish ularning ma’naviy etukligi va ta’lim-tarbiya ko‘rganligini anglatuvchi pedagogik kategoriya hisoblanadi. Shuning uchun ham u ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun, xususan, bunyodkorlik uchun ahamiyatlidir. CHunonchi, bunyodkorlik o‘quvchi shaxsidagi insoniy fazilatlarni, qadr-qimmatni, iymon-e’tiqodni oshiruvchi ta’lim-tarbiyaning mevasi va aql suyanchig‘i, ma’naviyatli insonning sha’ni va hikmatidir. Shuning uchun ham u – Vatanga, jamiyatga, mehnatga, tilga, urf-odatga, tarixga bo‘lgan munosabatlarda, hatti-harakatlarda, xulq me’yorlari va qoidalarida ifodalanuvchi hodisa hisoblanadi.

O‘quvchilarda bunyodkorlikning shakllanishi natijasida uning ijtimoiy-siyosiy faolligi, madaniy-ma’rifiy tayyorgarligi va individual sifatlari kamol topadi. Buning natijasida uning ijtimoiy-siyosiy faolligi, dunyoqarashi davr talablariga munosabati rivojlanadi. O‘quvchi bunyodkor sifatida o‘zining davlat, xalq, oilasi oldidagi burchi, mas’uliyati, majburiyati, haq-huquqlarini teranroq anglaydi.

Bunyodkorlik g‘ururi, ongi, tafakkuri rivojlanib insonparvarlik, vatanparvarlik, dovyuraklik, intizomlilik, ishbilarmonlik kabi sifatlari kamol topadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hamraeva A. O‘quvchilarda bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish. “Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar”-T. 4-2014. 137-141 b.

2. Tojiev M., Ziyomuhammadov B. Milliy pedagogik texnologiyaning ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbig‘i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o‘rni. Monografiya. /T.: «MUMTOZ SO‘Z». 2010..

SHaxodjaev M.A. Yoshlarning axloqiy – huquqiy ta’lim – tarbiyasida Burhoiddin Marg‘inoniy merosidan foydalanish. Uslubiy qo‘llanma. –T.: “Ezgulik manbai”, 2006. -49 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING PSIXOLOGIK PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING IMKONIYATLARI

To‘raqulova Iroda Xolbo‘tayevna
JDPU pedagogika va psixologiya
fakulteteti dekani, p.f.n.dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining psixologik pedagogik kompetentligini shakllantirishda ta’lim tizimining imkoniyatlariga bag‘ishlangan ilmiy nazariy adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, texnologiya, motivatsiya, dunyoqarash, Pedagogik kompetentlik, axborot texnalogiya, pedagog-tarbiyachi, ta’lim- tarbiya.

Jahonda ta`lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha ta`lim tizimi mutaxassis kadrlarni kompetensiyaviy talablarga asosida yuksaltirish hamda jahon oliy ta’lim muassasalarida yosh pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy kompetentlikning mazmuni, tizimli tarzda tashkil etishning metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan jumhuriyatimizda pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan-yilga oshirilib, turmush sharoitlari yaxshilanib kelinmoqda. Pedagog xodimlar malakasini oshirish ilmiymetodik markazlari kengaytirilmoqda, ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda, har 4-5 yilda qayta tayyorlashdan o‘tishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.8

Demak, tarbiyachi-maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo‘yicha yetuk bilimli va yuksak fazilatli shaxs sanaladi.

Pedagoglik kasbi jamiyatdagi eng mas’uliyatli kasblardan biri bo‘lib, qadimgi vaqtlardan unga katta e’tibor qaratilgan. Yurtimizda yosh pedagoglarning salohiyatini rivojlantirish maqsadida Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning

takomillashtirgan tizimini joriy etish ,2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilanib qo‘yilgan4

Ushbu masalaning nazariy jihatlarini tahlil qilishga o‘tishdan oldin uning lug‘aviy tomonlari haqida so‘z yuritsak. Pedagogik kompetentlik (*lot*. kasbiy moslik) – pedagogdagi ijodiy imkoniyatlarning yanada kengroq tasarruf etilishi, pedagogik ko‘nikmalarni yosh mutaxassislarga yetkazish, ular bilan pedagogik muloqotga kirishish mahorati hisoblanadi.

Mazkur pedagogik masala dolzarbligini e’tirof etgan holda uning nazariy jihatdan o‘rganilganligi borasida fikr yuritamiz. Tarbiyachi kasbi o‘zida yuksak ijtimoiy mas’uliyatni aks ettirganligi bois, bu borada bildirilgan ilmiy fikrlar, g‘oyalar va nazariyalarning ildizi uzoq moziyga borib taqaladi.

Psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta’lim- tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish,kabi masalalarni o‘rganadi.

L.M. Dolgova. V.V. Bashevning ta’kidlashicha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo‘lib, ular shart-sharoitlar o‘zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart - sharoitlarga turli jarayonlarda namoyon bo‘ladi.

Qo‘llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilab boradi. Jamiyatga qiziqish bilan qaraydigan hamda samarali faoliyat ko‘rsatuvchi inson quyidagilarga qodir bo‘lishi kerak, ya’ni tajribali mutaxasis:

- o‘zi tushib qolgan vaziyatni o‘rgana olishi;
- boshqa odamlar aloqa o‘rnata olishi;
- tezkor qarorlar qabul qila olishi;
- qabul qilingan qarorlarni o‘rganib o‘z ish faoliyati yuzasidan individual va jamoaviy harakatlarni tashkillashtira olishi;
- faoliyatning yangi samarali usullarini egallay olishi lozim;

Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma’lim bir amaliy harakatlar natijasi sifatida ko`rish mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, sub’ektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan maktabgacha ta'limni muassasalarini tashkil etish, innovatsiyalar, yangi zamonaviy texnologiyalar va bolalar bilan ishlash usullarini rivojlantirish hamda joriy etish uchun alohida shart-sharoitlarni talab qiladi. Bunday vaziyatda kasbiy kompetentsiya ayniqsa muhimdir, uning asosi pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi hisoblanadi.

Olimlar A.S. Belkin va V.V. Nesterov shunday deb hisoblaydi: "Pedagogik ma'noda kompetentsiya - bu ta'lim sohasida samarali faoliyat uchun zarur shartsharoitlarni yaratadigan kasbiy vakolatlar, funktsiyalar to'plami"7.

Kasbiy ta'limga nisbatan kompetensiya - bu bilim, ko‘nikma va amaliy tajribani muvaffaqiyatli ishlash uchun qo‘llash qobiliyatidir.

Tarbiyaching maxoroti yuksak pedagogik tafakkur ta‘lim- tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilmlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib u

doimiy ravishda tarbiyachi bilmlarni oshirib borish o‘tmish qadriyatlarini O‘rta Osiyo mutafakkurlari asarlarida yoritilgan murabbiylarini ulug‘lash to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hamda zamonaviy axborot texnalogiyalar, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida tarkib topadi.

Tarbiyachilarimiz qanchalik sifatli kadr bo‘lib, o‘z kasblarini sevib maktabgacha ta’lim tarbiyachilariga ta’lim-tarbiya bersalar shunchalik yoshlarimiz kelajagi porloq bo‘ladi. Inson qaysi kasbda faoliyat olib borsa ham o‘z ishiga, mashg‘ulotiga qunt bilan,mehr bilan yondashsa,uning sir asrorini mukammal egallaydi,shu bilan birga o‘z-o‘zini anglaydi,shu sohada kamol topadi.

Yosh tarbiyachining psixologik va pedagogik kompetensiyasining optimal darajasi turli xil o‘zaro ta’sirlardagi amaliy muammolarni hal qilishda sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish bilan psixologik va pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish bilan tavsiflanad.

Har bir tarbiyachi o‘z shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun kasbiy faoliyatni amalga oshirishda o‘zini namoyon qiladigan kasbiy faoliyatning ichki motivlarining ustunligi, o‘z aksini mustaqil ravishda amalga oshirish, kasbiy nuqsonlarni ta’kidlash va ularni yo‘q qilish usulini rejalashtiradi.

O‘z vazifalarini, faol, yetakchilik mavqeyini hal qilish uchun kasbiy ham jamiyat salohiyatidan foydalangan holda hamkorlik va samarali hamkorlik strategiyasini amalga oshirishi zarur. Kompetensiyalar bilimlar, ko‘nikma va malakalar hamda o‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil xarakatlanishga bo‘lgan motivatsiyaning uyg‘unlashgan majmuini o‘zida aks ettiradi.

Kompetentli pedagog kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin.Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim, va ko‘nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni xam o‘z ichiga oladi.

Kasbiy standartda tarbiyachilarimiz uchun maqsadli sohalar hamda sifat ko‘rsatkichlari belgilanib qo‘yilgan bo‘lib maqsadli sohalar quydagilardan iborat:

-ta’lim muhitini tashkil etish;

-ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish;

-bolalarga ta’lim tarbiya berish;

- bolalarning rivojlanish jarayonini kuzatish;

- oila bilan hamkorlik;

- kasbiy rivojlanish;

Pedagoglar faoliyatining sifat ko‘rsatkichida tarbiyachilarning har bir toifa talabiga mos ravishda bilim darajasi tekshirilaladi.

Kasbiy standart yurtimizda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog xodimlarini bilim salohiyatini tekshirish, ularni zamonaviy talablarga mos holda ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, o‘z kasbiga nisbatan qiziqish uyg‘otish, jamiyatda tarbiyachi kasbiga yanada e’tibor qaratish uchun xizmat qiladi.

Tarbiyachilar “Pedagogning kasbiy standarti”da belgilab qo‘yilgan talablar doirasida ish olib borishlari lozim. Hozirgi zamon tarbiyachisi kasbiy mahoratini doimiy tarzda oshirib borishi, ilg‘or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to‘liq anglashi va uni mashg‘ulotlarida mohirona foydalanishini taqozo etadi.

Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarini faol qo‘llash, ta`lim samaradorligini oshirish tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Tarbiyalanuvchilarning ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir.

Tarbiyachi mashg‘ulotda boshqaruvchi, bolalar esa ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to‘liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini faol usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi. Ayni shu omillarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddoadir.

Chunki, biz o‘z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo‘ygan ekanmiz, shubhasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomilashtirishimiz zarur.

Xulosa qilib aytganda, keyingi besh yilda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilaètgan tub islohotlar bugun yurtimizdagi har bir xonadonga kirib bordi, shahar va qishloqlarimizda ko‘rkam maktabgacha ta'lim tashkilotlari qad rostladi. shu ma'noda, sohaning huquqiy asoslari alohida qonun bilan mustahkamlanishi Davlatimiz rahbari tomonidan kelajak avlod ta'lim-tarbiyasiga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yaqqol namunasi sanaladi.

Zero, O‘zbekistonda dunyo tajribasida birinchi marta maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ish faoliyatini tartibga solish maqsadida vazirlik tashkil etildi, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat olib boradigan maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etildi, mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta`lim xizmatlarini ko`rsatish yo'lga qo'yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yhati

1.Sh.M.Mirziyoyevning “1-oktyabr Ustoz va Murabbiylar” kuniga bag'ishlangan bayram tadbiridagi nutqidan. 2020-yil 30-sentyabr.

2.Maktabgacha Pedagogika Darslik .Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Kayumova, Malohat A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent - 2019

3.Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: ―Tafakkur bo'stoni‖ 2018-y.

4. А.Г. Компетентность и компетенции: монография / А.Г. Сергеев; Владим. гос. ун-т.Владимир: Изд-во Владим. гос. ун-та, 2010.

5.Хуторской А.В. Ключевые компетенсиы как компонент личностноориентированной парадигмы. // Народное образование.– 2003

BOSHLANG‘ICH SINFDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMDAN FOYDALANISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

Umarov Alisher Yusubjanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi prorektori,
pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinfda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanishning metodik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, integratsiyalashgan ta’lim, integratsiyalangan dars ishlanmasi, metodika, boshlang‘ich ta’limda integratsiya, pedagog amaliyoti, insonparvarlik.

Jamiyatning shakllanish, rivojlanish sharti hamisha ta’lim bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Hozirgi kunda XXI asr ta’lim tizimi ancha murakkablashgan va texnologiyalar rivojlangan asri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayni damda istalgan sohamizda imkoniyat, qulaylik, yangiliklarni ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, mamlakatizda ham ta’lim sohasida islohotlar amalga oshirilmoqda va qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Fanlarni o‘zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar takrorlanishining oldini olish, ya’ni bir xillikka barham berishdan iborat.

Integratsiya darslari bugungi o‘quvchilarni zamon bilan birgalikda darslar orqali rivojlanishiga olib keladi. Ya’ni integratsiyaga oid, milliy dasturimiz asosida tuzilgan qo‘llanma kitoblardagi har bir mashq, rasm, turli qizaqarli savollar o‘quvchilarni har tomonloma chet mamlakatlar yoshlari bilan ayni boshlang‘ich sinfdan boshlab raqobatlashaoladigan darajaga olib keladigan darsliklar tuzilgan.

Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida dunyo tizimining alohida qismlari bog‘liqligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berish emas, balki bolani barcha elementlari bir-biriga bog‘liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o‘rgatish kerak. Bu maqsadni boshlang‘ich maktab amalga oshirishi kerak. Integratsiya-predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashni bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqalarni o‘rganish maqsadga muvofiq.

Umumiy o‘rta ta’lim mazmunini shakllantirish barcha maktab predmetlarini o‘qitishni insoniylashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini kuchaytirishni ta’minlashga qaratilgan. Jamiyatshunoslik, o‘qish, sinfdan tashqari o‘qish, tasviriy san’at va musiqa jamiyatning chuqur insonparvarlik tabiatini yorqin aks ettirishga qaratilgan. O‘quvchilarni bunday ruhda tarbiyalashda tabiiy-matematik fanlar sikli muhim o‘rin tutadi. Umumiy ta’lim mazmuni o‘quvchilarda turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. O‘quv predmetlarini o‘rganish o‘quvchining o‘tilgan mavzuni anglash jarayonini, uning tasavvurini rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsini har tomonlama madaniy rivojlantirish, insoniyat yaratgan barcha madaniy boyliklarni bilish “O‘z xotirangni boyitsanggina

madaniyatli bo‘lasan” degan fikrga asoslangan. Bunday umumlashtirish bolani bilish va ruhiy rivojlanishning yangi pog‘onasiga ko‘taradi. Shu asosda shakl mantiqiy tafakkur, turli voqea-hodisalar o‘rtasida aloqalar va bog‘liqliklarni ko‘ra bilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi va rivojlanadi. O‘quvchi qarama-qarshiliklarni topa bilish, ularning rivojlanish yo‘nalishlarini to‘g‘ri tushunish va ularni o‘z vaqtida yechish yo‘llarini topishni o‘rganadi[1].

Umumiy o‘rta ta’lim kelajakda bolalarga xohlagan fanni egallash imkonini beruvchi bilimlar asosini yaratadi. O‘quv predmeti fanlarning mustahkam asosiga ega, zamonaviy ilmiy ma’lumotlarni tushunishga yetaklaydi, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi. Barcha o‘quv predmetlarining politexnik mazmuni hayot bilan bog‘liqligi o‘quvchilarni ishlab chiqarishda qatnashishiga hamda oddiy ish qurollari bilan ishlashga yo‘naltiradi. Bu bilan umumiy rivojlanishning chuqur asoslari o‘rgatiladi. Ular bilan muloqot qilganda o‘quvchilar badiiy ma’lumotlar oqimini mustaqil hal qilish va ularga to‘g‘ri baho berishga o‘rganadilar. Umumiy o‘rta ta’lim uchun ma’naviy-tarixiy ahamiyatga ega asarlarni tanlash kerak. Bunday asarlar bolani davrning ma’naviy hayotiga olib kiradi. Turli nuqtai nazarlarda va turli tasvirlar orqali ular hayotiy voqea va hodisalarni, o‘tgan zamonlarda bo‘lib o‘tgan janglarning to‘liq tasvirini ko‘rsatadi. Shuning uchun umumiy o‘rta ta’limda o‘zaro aloqalar va o‘zaro to‘ldirishlar katta ahamiyatga ega. Bolalarning yosh xususiyatlari murakkab tasvirli xulosalar chiqarishga to‘sqinlik qilmaydi.

Mehnat ta’limi mazmuni va mundarijasini ajratish ham o‘z xususiyatiga ega.

Bolalar mehnatining mazmunini va tashkil etishni aniq mahalliy ishlab chiqarish, xalq xo‘jaligi ehtiyojlariga tayangan holda, zamonaviy kasblar talablari asosida tuzish kerak. Bunday mehnat o‘quvchilarni umumiy mehnat hamda aniq kasbiy ko‘nikmalar bilan tanishtiradi, mehnatni fan asosida tashkil qilishni hamda bir mutaxassislikdan ikkinchisiga o‘tishni ta’minlaydi. Dehqon, mexanizator, chilangarlik kasblari o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga yo‘naltiradi va ularning ishchi psixologiyasini shakllantirishga yordam beradi. Umumiy o‘rta ta’lim mazmunining umumiy va o‘ziga xos prinsiplari shulardan iborat.

Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o‘rganishning barcha bosqichlarida o‘rganilayotgan mavzularning aniqligi, izchilligi hamda o‘zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o‘quv materialining ixcham va yig‘iq ekanligi, o‘quv materialini o‘rganishni tashkil etishning ayrim zamonaviv usullarini kiritish orqali erishish mumkin. Boshlang‘ich maktabdagi har bir predmet bu integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matematik sikl fanlari bilan uzviy bog‘liq, bu kichik maktab o‘quvchilari uchun tushunarli bo‘lgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tabiatni o‘rganish faqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlari bilan bog‘liq. O‘quvchilarning bu xususiyatini hisobga olib, qiziqishlarini quvvatlash uchun bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini yangi mazmun bilan to‘ldirib turish kerak. Bu o‘quvchilarga hayotdagi o‘zaro aloqalarni ochib berishga hamda tabiatdagi turli-tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishga ko‘mak beradi .

Predmetlararo aloqalarni amalga oshirish integratsiya turlaridan biridir. Tabiat bilan tanishtiruvchi darslarda bu maqsadning tanlanishini quyidagicha tushuntirish mumkin:

Bu holatda nutq o‘stirish hozir o‘qilayotgan obyektlarga bo‘lgan jonli qiziqish asosida o‘tadi. Matematika, tabiatshunoslik, o‘qish va husnixat nutq o‘stirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Shvetsiyalik insonparvar pedagog I.G. Pestalotsi ta’kidlaganidek, «...aql notinch sezgili idrok qilishdan aniq tushunchalarga ko‘tariladigan manbadir»[2, 20]. Bu tushunchalarni anglash esa nutq san’ati bilan birga vuradi. Erkin tabiat tasvirlari bolada mantiq bilan birga ta’sirchanlikni ham rivoj1antiradi. Har bir darsda nutq o‘stirish masalalari hal qilinadi. Bunda o‘rganilayotgan materiallarning o‘ziga xosligi va nutq o‘stirish masalasini tanlashning maqsadga muvofiqligi hisobga olinadi. O‘quvchilar bunday darslarni juda yaxshi ko‘radilar. Ular ko‘p yangi, kerakli tushunchalar beradi, o‘quvchilar boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishlari zarur bo‘lgan holatlarni yaratadi. Bunday holatda o‘quvchilar o‘rganilayotgan materialni yaxshiroq o‘zlashtiradilar, bilimlar tizim holiga keladi va o‘quvchilar uchun juda zarur bo‘lib qoladi.

Dunyo ta’lim tizimini o‘rgangan holda, mamlakatimizda integratsiyalashgan ta’lim 2022-yildan boshlang‘ich sinflarga joriy etildi. Bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar ko‘rsatdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tasavvur olamlari kengaya boshladi, ko‘proq ma’lumotlar va bilim ola boshlashdi. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’lim berishning zamonaviy metodlarining o‘rni va ulardan foydalanishda quyidagi tavsiyalarni berib o‘tishni joiz deb bildik:

- vaqtdan unumli foydalanish kerak;
- fanlarning o‘zaro bir-biri bilan bog‘ligiga ahamiyat berish lozim;
- o‘qituvchi o‘z ustida muntazam ishlashi maqsadga muvofiq;
- integratsiya darslari aynan o‘quvchilarda o‘z natijasini ko‘rsatyotganligini tahlil qilish kerak, ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur;
- yosh xususiyatlariga alohida e’tibor berishi kerak;
- o‘qituvchi fikrlash qobilyatini rivojlantirishi, yangilik yaratishga moyil bo‘lishi kerak;
- o‘quvchilarning qiziqishlariga o‘qituvchi ahamiyat berishi lozim;
- har bir dars muayyan yo‘naltirilgan maqsadga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq;
- o‘qituvchi darsga bir kun oldindan tayyorgarlik ko‘rishi kerak;
- darsni qiziqarli qilib tashkillashtirish zarur;
- o‘qituvchi integratsiya darslarida metodlardan foydalanishni bilishi shart hisoblanadi.

O‘qituvchilar integratsiyalashgan darslarni o‘tishda yuqoridagi takliflarni inobatga olsa, dars o‘tish jarayoni va o‘quvchilarning darsni tushunishi murakkab bo‘lmaydi hamda darsning samaradorlik darajasi ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent-2006.

2. Mavlonova R., Raxmonqulova N. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish va ta’lim prinsiplari. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent “O‘qituvchi” 2006.

3. Umarov A.Y. Ijtimoiy-hamkorlik sharoitida pedagogik kadrlar tayyorlashning integrativ mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss.-Toshkent.-2023.-217 b.

4. Umarov A.Y. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati. PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023.

5. Kadirov U. FACTORS AND IMPORTANCE OF FORMING PERSONAL CONSCIOUSNESS IN THE INFORMATION SOCIETY. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 18, | November,2023.

6. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S. Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

TALABA-QIZLAR TAZYIQ VA TAJOVUZGA UCHRASHINI OLDINI OLISHDA TARIXIY MANBALARNING O‘RNI

Uktamova Umida Sunatullaevna
Jizzax davlat pedagogika universitet o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ayollarning oiladagi zo‘ravonlik muammosi va uning sabablari, zo‘ravonlik oqibatlari, oilaviy zo‘ravonlik, urf-odatlar, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, din, tarixiy manbalar, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy muammolar tahlil qilinadi, amalga oshiriladi. Tarixiy jarayonlarning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishda davom etayotgan zo‘ravonlik oqibatlari, ayolning turmushi o‘ta og‘ir ahvolda ekanligi, erining uni qiynash maqsadida qayta turmush qurishiga to‘sqinlik qilayotgani, doimiy ravishda haqorat qilinayotgani haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qur'oni Karim, Tavrot, zulm, tajovuz, zo‘ravonlik, qadr-qimmat, xiyonat, gender tengligi, madaniyat, an'analar, sivilizatsiya, soch turmagi, atrofingizdagi odamlar, urf-odat va an'analarni saqlash, ko‘pxotinlilik yoki poliandriyaning bir shakli, har birini yomon tushunish boshqa.

Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada. Bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishi bilan ham bog‘liqdir.

Har qanday shaklda amalga oshiriladigan kamsitilish ayolni erkaklar ega bo‘lgan imkoniyatlardan mahrum qilib, muqarrar ravishda uning amaldagi tengsizligiga olib boradi. Ayolning insoniy qadr-qimmatini paymol qiladigan zo‘ravonlik (kamsitilish) qilishning eng xavfli shakli hisoblanadi.

Zamonaviy talaba-qizlarning turmush tarzi an’anaviy tasavvurlar doirasiga sig‘masligi sababli ularga faol turmush tarzi, kiyinishi, soch turmaklash uslubi, atrofidagilar, ayniqsa erkak shaxslar bilan bemalol muloqotda bo‘lishini aytib pisanda qilishganida ular noxush his-tuyg‘ularni boshdan kechirishadi. Shaxsiy muloqot paytida ko‘pgina ayollar bunday vaziyatda o‘zlarini noqulay his etishi, garchi hech qanday aybli ish qilmagan bo‘lsada, ruhi tushib ketishini ochiq e’tirof etadilar. Bunday hol shuni ta’kidlaydiki, zamonaviy talaba-qizlarning insoniy qadr-qimmatiga zarracha bo‘lsa ham putur yetkazilishini naqadar nozik va og‘rinish bilan idrok qiladilar. Bu ularning yuksak insoniy ruhi va ongidan dalolatdir.

Tarixdan bilamizki, ayollarning jamiyatdagi holatiga munosabat turli davrlarda davlat siyosatiga qarab o‘zgarib keldi. Zero, xotin-qizlar har qanday jamiyatda ham oilaning asosini tashkil etgan. "Ayollar bir qo‘llari bilan beshik tebratsalar, bir qo‘llari bilan dunyoni tebratadi", degan gap bejiz aytilmagan. Shu boisdan masalaga chuqurroq yondoshadigan bo‘lsak, har bir jamiyatning taraqqiyoti, adolatligi va insonparvarligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Davlatlar siyosatining buyukligi, haqqoniyligi ham ana shu ayollarga munosabatning natijasiga qarab belgilanadi. Tarixga bir nazar tashlaylik. Ayollarga munosabat ular huquqlarining tarixiy ildizlari qaerga borib taqaladi. Ko‘ramizki, ayol degan eng noyob mavjudod haq-huquqsiz qul, uni sotsa ham, - sotib olsa ham, hatto o‘ldirish ham mumkin. Yoki bo‘lmasa, ayol siyosatchi, davlat arbobi, shoira, olim, jamiyatga eng zarur inson. Ko‘rib turibmizki, agar biz ko‘xna tariximiz sahifalarini varaqlab chiqsak ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni bo‘lgan. Hatto buyuk temuriylar saltanatida Amir Temurning suyukli rafiqasi Bibixonim mamlakati ijtimoiy hayotida katta rol o‘ynagan, oqila-mehribon ona sifatida Jahongirga eng yaqin maslahatchi, bolalarning tarbiyachisi sifatida tanilgan. Amir Temur Hindistonga yurish qilgan chog‘da Samarqandda tarixiy madrasini bunyod etishga rahnamolik qilgan donishmand ayol Bibixonim edi. Ayol — tabiatning qudratli va buyuk in’omi bo‘lib, harakatchan, mukammal, turli qiyinchiliklarga bardoshli, ayni paytda yoqimli va nozik, sevuvchi va tushunuvchi mavjudot sifatida o‘zini ko‘rsatdi. Balkim mana shu xislatlari orqali, tabiat unga hayotning davomiyligini ta’minlashdek vazifani ham yuklangan.[1, 48-b.]

Talaba – qizlarni oila qurgandan so‘ng farzand ko‘rish ne’mati ato etiladi. Tarixda ham farzand ko‘rish bu mo‘jiza hisoblanib, ushbu xizmat evaziga zamon va avlodlar o‘rtasidagi aloqa uzilmay kelgan. Faqatgina shu tufayligina, ya’ni ayolning insoniyat, tabiat, jamiyat oldidagi o‘z majburiyatini to‘la-to‘kis bajarib kelayotgani bois, uning jamiyatdagi holati erkaklar holatidan past bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ham uning ozodlikka, mustaqillik va teng huquqlilikka bo‘lgan intilishini tabiiy deb hisoblash lozim. Voyaga yetmagan qizlarning erta turmushga uzatilishi, katta oilalarda kelinlarning huquqsizligi, uning nafaqat eriga, balki ota-onasiga ham bo‘ysunishi, kelinning homiladorlik masalalarini, akusher va ginekologlarga uchrashni o‘zlari hal qilolmasligi, nikohga kirgandan so‘ng o‘qishni davom ettirish mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi, kabi masalalarning unga bog‘liq emasligi kelinga nisbatan noto‘g‘ri munosabatlarning isbotidir.

Ayolning kundalik hayotiga nazar tashlasangiz boshqalardan farqli o‘laroq, aynan ayol insoniy qadr-qimmatining yerga urilishi, huquqlarining cheklab qo‘yilishi

ob’ekti bo‘larkan va bu hol aynan oilada, ya’ni ayol o‘z umrining eng ko‘p qismini o‘tkazadigan go‘shada sodir etilarkan. Uyda erning zo‘ravonligi yaqqol namoyon bo‘lib turibdi va er xotinni nazorat qilib turish, qo‘rqitish maqsadida har kuni jismoniy, ma’naviy, baqirib-chaqirib va iqtisodiy tahqirlash yo‘li bilan xotinni kamsitib keladi.

Ko‘pchilik oilalar faqat qizlarga tegishli axloqiy qadriyatlarni tashviqot qiladilar, bu o‘g‘il bolalarnikidan ancha farq qiladi. Agar bolalar, o‘smirlar yoshligidan biror kasb-hunarni o‘rganishga va katta bo‘lganda o‘z oilasini boqishga yo‘naltirilsa, qizlar yaxshi erga tegish, eriga, qaynonasiga xizmat ko‘rsatish, ularning aytganlarini bajo keltirish, o‘zidan kattalar bilan tortishmaslikka yo‘naltiriladi. Agar qiz yaxshi ma’lumotli, durustgina kasb egasi bo‘lib, oila iqtisodiga o‘z hissasini qo‘shayotgan bo‘lsa ham uning oiladagi maqomi oshmaydi. Amalda ayollar butun umri davomida avvalo o‘z oilalari tomonidan, keyin eri va uning oilalari tomonidan ruhiy ta’sir ostida bo‘ladi. Ayollarning turli oilalarga tushib qolishi ularda har xil qadriyatlar tizimini o‘zlashtirishga majbur qiladi, bu ayollarga ba’zan salbiy ta’sir o‘tkazadi. Ayol ularga moslashuvi, o‘zining ma’naviy-ahloqiy va hayotiy qarashlariga muvofiq kelmaydigan harakatlarni bajarishi kerak. Oila va jamoatchilik fikri uni kamsitilgan vaziyat bilan murosa qilishga, oilani saqlab qolish uchun qo‘rquv va xavotirda yashashga majbur qiladi. Bunday holat bilan kelisha olmaydiganlar eri bilan ajralishga, bola tarbiyasini o‘z zimmasiga olishga yohud hayotini fojiali tugatishga ham boradi.

Olimlar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo‘lib yashashi uchun zarur bo‘lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar.

Ayollar olovning xususiyatlarini o‘rganish, uni turmushda qo‘llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi zaruratlarni bajarganlari haqida hikoya qilinadi. Kiyim-kechak va oyoq kiyimlarini ham ayollar kashf etishgan.

Islomga qadar ayrim arab mamlakatlarida oilada qiz farzand tug‘ilsa, fojea alomati deb qaralgan, shu bois, uni tiriklayin ko‘mishgan. Bu odat vahshiylik hisoblanmas, aksincha, ayollarni bunday xo‘rlash odatga aylangan edi. Islomda esa ayol va bolalarni o‘ldirish man etilgan. Qur‘oni Karimda shunday deyiladi: “(Ey insonlar), bolalaringizni qashshoqlikdan qo‘rqib o‘ldirmangiz, ularga ham, sizlarga ham Biz rizq berurmiz. Ularni o‘ldirish, shubhasiz, katta xatodir” (“Al-Isro”,).[2, 31-b]

O‘tmish zamonlarda ayollarni kamsitish jamiyat turmush tarzi uchun odatiy hol bo‘lib kelgan. Bunday holatni ba‘zi huquqiy odat va normalar orqali asoslashga harakat qilingan. Masalan, Mesopotamiya va unga yaqin hududlarda shumer huquqiga ko‘ra, bir ayol eriga: “Sen mening erim emassan” desa, ya’ni ajrashmoqni istasa, u ayol daryoga tashlanib o‘ldirilar edi. Faqat erkak xotiniga: “Sen mening xotinim emassan” deydigan bo‘lsa, erkak unga bir miqdor kumush pul berishi lozim edi. Albatta, bunday adolatsizliklar ayollar ma’naviy-ruhiy holatiga kuchli ta’sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham ayollar har qanday zo‘ravonlik va adolatsizliklarga sabr-toqat bilan yashashga majbur bo‘lganlar. Manbalarda aytilishicha, agar bir erkak ayolning homilasini tushirishga majbur etishi natijasida u ayol o‘lsa, o‘sha erkakning qizi o‘limga mahkum etilardi. Ayolga muqobil erkak esa o‘ldirilmaydi, ayolga muqobil

ayol, hur erkakka muqobil hur erkak, qulga muqobil qul o‘ldirilardi. Bu huquqqa ko‘ra, birovning jinoyati boshqaga ko‘chirilmoqda. Aybdor, jinoyatchi erkak o‘rniga ma’sum bir qiz o‘ldirilmoqda.

Qadimgi Yunonistonda ham ayollarning ahvoli ayanchli edi. Ayollarga bozordagi bir buyumday munosabat qilinar edi. Ular hech qanday huquq va erkinliklarga ega emas edilar, lekin ayollarga oldiga qat’iy burchlar qo‘yilgan. Unga ko‘ra, ular butun umri davomida erkakning buyrug‘iga itoat etish, uning xohlagan istaklarini bajarishga majbur edilar. Ayol umrbod bir erkakning ixtiyorida bo‘lib, hayot-mamoti o‘sha erkakka topshirilardi. O‘sha erkak istagan ayoliga er sifatida o‘z xohishini taklif etar va ayolni zo‘rlab o‘z tasarrufiga olardi. Barcha mol-mulk erkakning ixtiyorida bo‘lgan. Uning roziligisiz ayol hech bir tasarruf huquqiga ega emas edi. Ajralish ishlarida er mutloq haq xisoblanardi. Ba’zi bir hollardagina ayol ham ajralish istagini bildira olar edi. Bunday hollarda ayol boshiga adolatsiz bo‘xtonlar yog‘ilardi. Spartaliklar esa ayolga ba‘zi bir madaniy haq-huquqlar bergandilar.

Qadimgi yahudiylarda ham ayollarga munosabat yuqorida aytilganlardan farq qilmas edi. Ular qiz bolaga qulga qaraganday qarashardi. Otasi uni sotish huquqiga ega bo‘lgan. Otasining o‘g‘il farzandi bo‘lmagandagina qizi meros olish huquqiga ega bo‘lishi mumkin edi. Ajralish huquqiga faqat erkak kishi ega edi. Yahudiylarning fikricha, Momo Havo hazrati Odamni yo‘ldan ozdirib, jannatdan haydalishiga sabab bo‘lganligi uchun ham ayol tavqi la‘natga hukm qilingan. Ular ayolga tubanlik manbai sifatida nafrat bilan qarashardi. Xiyonatda ayblangan ayollarni esa toshbo‘ron qilib o‘ldirishgan yoki tiriklayin yerga ko‘mishgan. Jumladan, Tavrotda ayol o‘limdan achchiqdir (yomondir), Alloh nazdida yaxshi kishi xotinidan qutulgan odamdir, ayollar orasida yaxshisini topolmadim, degan fikr bildirilgan.[3, 39-b.]

Ayniqsa, ajrashgan ayolning turmushi juda nochor ahvolda bo‘lgan, eri uni qiynalsin deb boshqasiga turmushga chiqishiga to‘sqinlik qilar, tinimsiz haqoratlar edi. Shuning uchun idda muddati tugaydigan vaqtda uni yana nikohiga olar va takror qo‘yardi. Qabul qilingan idda muddati bir yil bo‘lgani uchun, ajrashish cho‘zilib ketardi. Er bu holni uch bor takrorlay olardi. Erning o‘limidan so‘ng esa ayollar bir yil matom tutishardi va bir yil idda kutishardi. Cho‘ldagi badaviylar johiliyat davrida bir oz ayolni hurmatlashar, shahardagi madaniy hayotda esa tamoman aksi edi. Makkaga nisbatan Madinada ayollarning ahvoli yaxshiroq edi. Bu davrda qurayshlar uy boshqarishda ayollarga ba‘zi huquklarni berganlar. Ammo erkaklar hech qanday istisnosiz xohlaganlaricha uylana olardilar. Quraysh va Hind kabi ba‘zi qabilalarda qiz bolalarni tiriklayin ko‘mib yuborish odati bor edi. Bu ishni ular qiz bola baribir oilaga yaxshilik keltirmaydi deb o‘ylab amalga oshirar edilar. Ko‘chmanchi arablar ayrim yashab qolgan qizlariga og‘ir ishlarni qildirar, tinimsiz haqoratlar edilar. Ba’zan esa olti yoshlarga kirganda, uni yasantirib, "Qarindoshlarimiznikiga olib boraman", deb cho‘lda avvaldan hozirlangan chuqurga tashlab, ustidan tuproq tortib yuborishardi. Ba’zi rivoyatlarda aytilishicha, homilador ayollarni chuqurga tushirib tug‘dirishar, agar tug‘ilgan farzand qiz bola bo‘lsa, uni o‘sha zahoti chuqurga ko‘mib kelishardi.

Sharqda oilaviy muammo sifatida uy qurilishi yoki "oiladagi zo'ravonlik" deb hisoblash odatiy holdir. Odamlar bunday muammolarga dosh bermaslikka harakat qilishadi. Aksariyat hollarda, zo'ravonlik qurboni xijolat bo'lib, to'qnashuv tufayli

sukut saqlashga majbur bo'ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollar nega jim bo'ladi. Ba'zilar moliyaviy yordamisiz qolishdan qo'rqishadi, boshqalari bolalari va hayotlari uchun qo'rqishadi. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayol qiyin vaziyatda edi. Ayniqsa, hatto muammoni eng yaqin odamlar ham hal qilishda davom etishganda. Oxir-oqibat, u doimiy qo'rquv, tushkunlik va o'z joniga qasd qilish bilan tugaydi. Shuning uchun talabalarni nikohga tayyorlayotganda, biz quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz:

Birinchidan, talaba oilaning muqaddasligini va oilaviy javobgarlik nimadan iboratligini tushuntiradi.

Ikkinchidan, o'zbekistonlik oilalarning milliy qadriyatlari zo'ravonlik va kelinlarning asri sifatida tushuntirilgan.

Uchinchidan, talabalar qizlarining aytishicha, ular kelin bo'lgan uyning qadriyatlarini sodiqligi, ularga tezda oilaga o'rganishga yordam beradi.[4, 57-b.]

Ayni shu masalada so‘z yuritilganda hayolimga doimo bitta jumlalar kelaveradi. Bu fikr qachon va kim tomondan aytilgan, kitobda o‘qidimmi yoki ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rdimmi bunisi yodimda yo‘q. Ammo, ushbu so‘zlar jon jonimga, qon qonimga singib, jo bo‘lib ketgan hamda hayot yo‘limda menga dastur ul – amal bo‘lmoqda. Mana o‘sha so‘zlar: “Ayol ojiza emasdir, ayol mo‘jizadir. Men ayolman ojiza ekanman deb emas, men ayolman mo‘jiza ekanman deb, har bir holatdan chiqishni o‘rganishingiz shart. O‘zingiz hamda kelajagingiz uchun ....” Qani endi jamiyatimizdagi barcha talaba qizlarning ongiga shu g‘oyalar singsa, dunyoqarashlari chiroyli tarzda shakllansa, ijtimoiy muhitdagi boshqa ayollar fikri-yu zikrida doimo aks etib tursa, o‘z haq – huquqlarini himoya qila olganda nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. O‘z umrini yashab bo‘lgan ayrim urf-odatlarning yana paydo bo‘lishi kishida xavotir uyg‘otadi. Bu urf-odatlar ayol , sha’ni va qadr-qimmatini yerga uradi, eriga qaram qilib qo‘yadi. O‘zbek oilalarida eng ko‘p mojaro vaziyatlari "kelin-qaynona" munosabatlari asosida kelib chiqadi. Bu yerda gap axloq-odob jihatlarida emas, balki ayolni (kelinni) jismoniy va ruhiy ezishda boradi. Kelinning har bir harakatini qat’iy nazorat qilish, shaxsiy hayotiga, hatto er-xotin hayotining nozik sohalarigacha, qo‘pollik bilan aralashish shular jumlasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida08.02.2021 yildagi O‘RQ-671-sonda tasdiqlangan. https://lex.uz/docs/5272639
2. Xotin-kizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish tugrisidagi konvensiya 1979. https://lex.uz/docs/2685528
3. Xolmatova M. Jamiyatda ayollarning o‘rni (tarixiy-falsafiy tahlil). /Ekologiya va ayol. Farg‘ona. 2001. 109-110 betlar
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi «Ijtimoiy reabilitatsiya kilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy maishiy zurlik ishlatishning oldini olish tizimi takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida»gi PQ-3827-son karori https://lex.uz/ru/docs/3804821

5 Tanzila Narbaeva., O‘zbekistonlik xotin-qizlar ilm, ma’rifatga yo‘g‘rilgan islohotlar, ezgu ishlar yo‘lida ona Vatan ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda https://strategy.uz/index.php?news=879

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA FAZOVIY MUNOSABAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH

Urazova Zulfiya Murtazayevna
Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha
ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.n.,

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida geometrik jism tushunchasini rivojlantirish hamda fazoviy munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish jarayoni yoritilgan.

Kalit so‘z: fazoviy munosabat, geometrik shakl, obyekt, tushuncha, tasavvur, taqqoslash.

Hozirgi kunda ta’limni tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanishdan ko‘zlangan maqsad atrofimizni o‘rab turgan tabiat, unda ro‘y beradigan hodisa, voqealarni va jamiyatdagi o‘zgarishlarni anglash, tushunib yetish jarayonini zamonaviy usullar vositasida tez yetkazib berishdan iboratdir.

Odamlar tashqi dunyoni turlicha talqin qiladilar va ular haqida turlicha bilimga ega bo‘ladilar. Shuning uchun ham atrofimizdagi olam va undagi hodisalarni o‘quvchilar anglashi uchun turli axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Maktabda o‘qib yurgan bolalar buyum va narsalarning geometrik tuzilishi haqida ozmi-ko‘p tasavvurga ega bo‘ladilar. Ularning bilim va malakalari hali sodda, g‘o‘r bo‘lsada ba’zi buyum va narsalarni tuzilishiga, ko‘rinishiga qarab farqlay oladilar. Shuningdek, aytilgan gaplarni eshitib qaysi buyum haqida gan ketayotganini anglaydilar va bir to‘p buyumlar orasidan o‘ziga tanish bo‘lganini ajrata oladilar. Bizning maqsadimiz mana shu holatni yanada kuchaytirish, takomillashtirish va tartibga solishdan iborat.

Atrofimizni o‘rab turgan borliqdagi barcha buyum va narsalar qaysidir ma’noda o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Bunday munosabatlarni sodda ko‘z bilan bir qarashda aniqlash qiyin, chunki bu munosabatlar buyumlarning joylashuvida, o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi[2, 4-b]. Natijada, esa geometrik jism tushunchasi shakllanadi. Umuman, bizga tanish bo‘lgan barcha buyumlar geometrik jismlardir. Ammo ularni aniqlash, farqlash va biror xossasiga qarab guruhlarga ajratish uchun aqliy faoliyat zarur. Shu sababli o‘qitish jarayoni shakllanib borayotgan bilimlarga mos holda tashkil qilinishi lozim va geometrik jismlar bilan bajariladigan almashtirishlar, harakatlar tushunarli bo‘lishi muhim. Aytilganlardan kelib chiqqan holda, o‘quvchilar uchun fazoviy tushunchalar va munosabatlar haqida tasavvur berish davomida ixtiyoriy buyumlar orasida, ularni qaysi xususiyatlari bo‘yicha taqqoslanayotganiga qarab bir necha xil munosabatlar o‘rnatilishi mumkinligini tushunish kerak. Shuni ta’kidlash lozimki, fazoviy munosabatlar buyumlarning o‘zaro joylashuviga, buyumlar shakliga, bir buyumning ikkinchisiga qay darajada aloqadorligiga, biror guruhga tegishli yoki yo‘qligi kabi taqqoslashlar yordamida o‘rnatiladi.

Psixologik va metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qitishning dastlabki pallalarida geometrik tushunchalar faqat gap-so‘zlar orqali, og‘zaki ifodalangan bo‘lib, o‘quvchilar tasavvurida aniq, bir geometrik shakl yoki buyum hali o‘zining haqiqiy ta’rifiga mos kelmagan bo‘ladi. Fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqar ekanmiz, bolalarning u yoki bu fazoviy belgi yoki munosabat bilan tanishuvi, asosan kuzatish orqali amalga oshiriladi[2, 97-b] degan xulosaga tayandik. Kuzatish jarayoni esa o‘qituvchining gap-so‘zlari bilan amalga oshiriladi. Fazoviy belgi va munosabatlarni kuzatish davomida bolalar ularni qabul qilishga o‘rganadilar, ya’ni turli tasvir, shakllarida ko‘radilar va o‘qiydilar.

Fazoviy munosabatlarni so‘z bilan ifodalash haqida gapirilganda, biz shu munosabatni o‘quvchilar tasavvurida yetarli darajada ochib beradigan so‘zlar bog‘lashini nazarda tutamiz. "Munosabat" so‘zini biz, barcha sinflarda to‘plamlarning tartiblangan juftligini belgilash uchun emas, balki boshka so‘z birikmalari bilan birgalikda, qaralayotgan figuralar orasidagi bog‘lanishni xarakterlovchi tushuncha (masalan, kesishish munosabati) sifatida ishlatdik. Tajribalarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, munosabatni yuqoridagi ma’noda 2-sinfdanoq qo‘llash mumkin ekan. Birdaniga "fazoviy munosabatlar" so‘z birikmasini ishlatish maqsadga muvofiq emas. Ammo ta’kidlash lozimki, figuralar orasidagi har bir aniq munosabatni tushunish, o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonida fazoviy obyektlarning geometrik xususiyatlari ko‘rina boshlaydi.

Holat munosabatlari haqidagi tasavvurlar shakllanishida va ri- vojlanishida bolalarning diqqati shu munosabatlarni o‘rnatish uchun ma’lum bir anik obyekt mavjudligini his kilishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Obyektlarning o‘zaro joylashuvi "tepada", "pastda", "yonida", "bir tomonida" kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. Holat munosabati ko‘pincha qaralayotgan obyektlarning umumiy elementlari borligi bilan xarakterlanadi va "tegishli", "ustida yotadi", "kesishadi" so‘zlari bilan ifodalanadi[3, 34-b].

Tartib munosabatining shakllanishi qandaydir usulda berilgan obyektlar qatori bilan yoki berilgan to‘plamni tartiblashga imkon beriladigan alomatlarga bog‘liq. Tartiblash alomatlari turli-tuman bo‘ladi: kuzatuvchiga nisbatan joylashish tartibi, obyektlarni o‘lchamlarga nisbatan tartiblash va hokazo. Asosiy g‘oyasi moslik tushunchasi bilan bog‘lik, munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish uchun shu moslikda qatnashayotgan figuralar yoki to‘plamlarning bir-biriga mos keluvchi elementlarini qidirib topish muhimdir. Shuningdek, o‘quvchilarga qaralayotgan moslik bo‘yicha bir obyektga bitta yoki bir nechta, bir nechta obyektga bitta obyekt mos kelishi mumkinligini tushuntirish lozim.

Bunday munosabatlarni o‘rganar ekanmiz, ular nafaqat figuralar, buyumlar, figura elementlari orasida, balki tabiati bir-biridan tamomila farq qiluvchi obyektlar orasida ham o‘rnatilishi mumkinligini ta’kidlaymiz. Fazoviy munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish jarayonini boshqarish mumkin.

Xulosa o‘rnida, o‘quvchilarni o‘qitish tizimini shunday tashkil etish lozimki, ular qaysi jarayonlar qanday ketma-ketlikda bajarilishini yaxshi o‘zlashtirsinlar. Shuningdek, har bir amal va jarayon o‘qituvchi nazorati ostida bajarilishi muhim. Bunday amal va jarayonlar qaralayotgan tushunchalar ma’nosini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish: O‘rta va oliy ped.o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. /Bikbayeva N.U., Ibrohimova Z., Qosimov X. –T.: O‘qituvchi, 1995. - 183 b.

2. Galkina O.I. Razvitiye prostranstvennix predstavleniy u detey v nachalnoy shkole.-M.,1961. -126 s.

3. E.Yangabayeva, Z.Urazova. Boshlang‘ich sinflarda geometrik elementlarni o‘rganishda fazoviy munosabatlar (metodik qo‘llanma) "Ma’rifat-madadkor" nashriyoti, T-2003 y.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Uralova Gulbahor O‘ktamovna
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v.b., PhD
Yusupova Nigora Shuxratjon qizi
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Boslang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorlik qobiliyatilarini rivojlantirish, o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlari, ularni ijodkorlikka o‘rgatishning kelajakda ko‘zda tutilayotgan natijasi beqiyosligi bilan baholanadi. Ushbu maqolada fanlar negizida ijodkorlik darslarini loyihalashtirish hozirgi kun zamon talabi asosida yangi avlod shakllanishiga ta’siri haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, qobiliyat, estetik qadriyatlar, aqliy chamalash, ijodiy faoliyat, qiziqish, ijodiy imkoniyatlar.

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda “ijod”, “ijodkorlik” kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo‘lganligi bejiz emas. “Ijod” so‘zining lug’aviy ma’nosi: “yaratish”, “yangilikni kashf etish” so‘zlariga monand keladi. Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir.Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o‘zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan qobiliyatini ifodalaydi. Obyektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo‘lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog’liq. Bugungi kunda mustaqillik

tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan , texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog’liq. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo‘lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo‘lmagan narsadan muhimini ajrata bilish. Boshlang’ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi.

Ular quyidagilardan iborat :

1. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari.
2.Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.
3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg’ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish.
4. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi :

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ular egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

-dastur materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi ;
-mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;
-tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi ;
-o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi ;
-topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi ;
- o‘z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi ;
-mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi ;
-mavzularni o‘rganishda o‘z fikrini dalillay olishi;
-o‘z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari, ularning o‘quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo‘ladi va bu borada o‘quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.Agar shaxsning faoliyati jamiyat taraqqiyotida sezilarli iz qoldirgan bo‘lsa, u daho deyiladi. Daho - bu ozchilikka ega bo‘lgan qobiliyatlar rivojlanishining eng yuqori darajasi. Bu sifat shaxsning o‘ziga xosligi bilan uzviy bog'liqdir. Dahoning o‘ziga xos xususiyati, qobiliyatlarni rivojlantirishning boshqa darajalaridan farqli o‘laroq, u, qoida tariqasida,

o‘zining “profilini” ko‘rsatadi. Yorqin shaxsning har qanday tomoni muqarrar ravishda ustunlik qiladi, bu esa ma'lum qobiliyatlarning yorqin namoyon bo‘lishiga olib kelad.

Qobiliyatlarni aniqlash hali ham psixologiyaning eng qiyin vazifalaridan biri hisoblanadi. Turli vaqtlarda ko‘plab olimlar ushbu sifatni o‘rganish uchun o‘zlarining usullarini ilgari surdilar. Biroq, hozirgi vaqtda insonning qobiliyatini mutlaq aniqlik bilan aniqlashga, shuningdek uning darajasini aniqlashga imkon beradigan texnika yo‘q.- “Sizning ijodingiz” - ijodiy imkoniyatlar diagnostikasi.

Texnikalar soni va ularning aniq ro‘yxati diagnostika tekshiruvining maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Shu bilan birga, ishning yakuniy natijasi insonning qobiliyatini ochib bermaydi. Qobiliyatlarning rivojlanish darajalari doimiy ravishda o‘sib borishi kerak, shuning uchun tashxis qo‘yilgandan so‘ng, ma'lum fazilatlarni yaxshilash uchun ish olib boorish.Bu sifatni oshirishning eng muhim mezonlaridan biri shart-sharoitlardir. Qobiliyatlarning rivojlanish darajalari doimo dinamikada bo‘lishi, bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishi kerak. Ota-onalar farzandiga uning aniqlangan moyilliklarini amalga oshirish uchun sharoit yaratishi muhimdir. Biroq, muvaffaqiyat deyarli butunlay insonning ishlashi va natijalarga e'tibor qaratishiga bog'liq.tarkibiy qismlaridan biri quyidagi qobiliyatlar ekanligiga ishonishadi:

tavakkal qilish qobiliyati;
turlicha fikrlash;
fikrlash va harakatda moslashuvchanlik;
fikrlash tezligi;
original g'oyalarni ifodalash va yangilarini ixtiro qilish qobiliyati;
boy tasavvur;
narsa va hodisalarning noaniqligini idrok etish;
yuqori estetik qadriyatlar;
rivojlangan sezgi.Ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo‘yicha yuqorida keltirilgan nuqtai nazarlarni tahlil qilib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ularni ta'riflashda yondashuvlar farqiga qaramay, tadqiqotchilar bir ovozdan ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlash sifatini ijodiy qobiliyatlarning muhim tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko‘rsatishadi.Zamonaviy maktabning vazifasi bolalarni to‘g'ri tanlash, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatini o‘rgatish, ya'ni ijodiy fikrlashga o‘rgatishdir.Har xil faoliyat turlariga bo‘lgan munosabatda ijobiy motivatsiyani shakllantirish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishning ajralmas shartidir.Kognitiv qiziqishni rivojlantirish nafaqat ijodiy muammolarni hal qilish sohasida, balki nazariy materialni o‘rganish sohasida ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali vositasidir. Bizning kuzatishlarimizni taqqoslab, so‘rov natijalariga ko‘ra, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar, test natijalariga ko‘ra, biz bolalar turli xil murakkablikdagi vazifalarni bajarish osonroq degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ular test qog'ozlaridan qo‘rqmaydilar, chunki natijalar yaxshilanadi, bu ularni ilhomlantiradi. Yigitlarning darsga, burchlariga munosabati ancha jiddiylashdi.Har bir sinfda bo‘lgani kabi, yaxshi yoki zaifroq o‘qiydigan bolalar bor, buning sabablari maktabga tayyorgarlik, ota-onalarning o‘z farzandlariga bo‘lgan munosabati, bolalarning sog'lig'i holati va bolalarning individual

tipologik xususiyatlari. Muammo ustidagi ishim hali ham davom etmoqda. Darslarimda muntazam ravishda diqqatni, xotirani rivojlantirish, tasavvurni, fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha vazifalarni kiritaman, ularda grafik tasvirlar, geometrik shakllar, matematik atamalar va vazifalar, matematik lug'atni kengaytirishga yordam beradigan o‘yinlar kiradi. O‘qituvchi rioya qilishi kerak bo‘lgan maslahatlar (A. Disterveg) orasida bunday maslahatlar mavjud .Talabalaringizning ehtiyojlariga mos keladigan o‘quv rejasini tuzishga harakat qiling va nihoyat, o‘rganish doimiy va uzluksiz ishlaydi: umumiy pedagogik, didaktik, uslubiy, mantiqiy, psixologik va boshqalar, bu umuman olganda o‘qituvchiga eng yuqori rivojlanishga erishishga yordam beradi.

Ta'lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Ulug‘ donishmandlardan biri “... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit”, degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi. Ma'lumki, ta'limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday

bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Sinkveyn”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, FSMU, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Swod tahlil”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta'limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o‘qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: “Har qarichi muqaddas bo‘lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g‘urur va iftixor, sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko‘raylik”, - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko‘zlangan maqsadga erishishga o‘z hissangizni qo‘shasiz degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
3. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm-ziyo, - 2009. 49-bet.
4. Асаулюк Э.П. Интегрированний подход в обучении младших школников // Перспективи науки. 2011. №10 стр.222-226

XALQ OG‘ZAKI IJODI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Uralova Gulbahor O‘ktamovna Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti v.b., PhD
Abduvaitova Gulhayo Alisher qizi Boshlang‘ich ta’lim 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek xalq ijodi yodgorliklari, jamiyatda global o‘sish jarayoni ketayorgan bir davrda ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy boyligimizning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu maqolada milliy qadriyatlar, madaniy milliy merosimizga hissa qo‘shgan allomalar fikrlari, yondashuvlari aks etgan manbalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, ma’naviy qadriyatlar, madaniy milliy meros, yodgorliklar,

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta’kidlaganidek: “Tengsiz ma’naviy boyligimiz bo’lmish mumtoz san’atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrabavaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg’or fikrli olimlar va san’atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir”[2]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari»ning 100 jildligi nashr etish yo’lga qo’yildi. Bu loyihaning amalga oshishi shubhasiz mamlakatimiz ma’naviy hayotida ulkan voqea bo’ladi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitobxonlikka, umuman ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Zero, ma’naviyat masalalari hamma davrda eng dolzarb mavzulardan biri bo’lib kelgan. XX asr boshida ma’rifatparvar jadidchilar til, adabiyot va tarbiya masalasi o’z davri uchun muhimligini urg’ulashgan. Bu bejizga emas, millatning mavjudligi, erkinligi, ozodligi, taraqqiyoti uning tilidan, tafakkuri – ma’anaviyatidan boshlanadi.

Biz bugun global jamiyatda yashayapmiz. Tilimizga, madaniyatimizga, o’zligimizga bo’layotgan ma’naviy tahdid ko’lami ham globaldir. Biz har qancha ma’naviyat to’g’risida qayg’urmaylik, jon koyitmaylik, bizni qurshab turgan muhit ommaviy madaniyat ta’siri ostida ekan, bolalarimiz tili va tafakkuri shu madaniyat ostida shakllanayotgan ekan bizning qilayotgan barcha urinishlarimiz o’z samarasini bermaydi. Shu ma’noda bugungi folklorni o’rganish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Inson ma’naviyatini yuksaltirishda folklorning o’rni haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug’ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo’shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o’yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg’ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an’ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg’aygani sari go’yo bu muhitga begona bo’la boshlaydi. Bu begonalik

eng, avvalo, har qadamda o’z ta’sir kuchini ko’rsatayotgan ommaviy madaniyat ta’siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma’naviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa, ta’lim jarayonining barcha bo’g’inlarida, maktabgacha ta’limdan to oliy o’quv yurtida til o’qitishda, o’rganishda folklorga va yana folklorga qaytib ish ko’rish lozim bo’ladi.

Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobigako’p jihatdan bog’liq bo’ladi. Yaxshi tarbiya ko’rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o’ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o’zholicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo’lib, ungaturli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura, g’oya, siyosiy va ijtimoiy qonun-qoidalar bir-biridan farqqilgan. Ta’lim va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Shu asnoda xilma-xil ta’lim-tarbiya tizimlari tarkib topgan.

Yangicha qarashlar, ta’limotlar, nazariya va amaliy tajriba namunalari paydo bo’lgan. Hali insoniyat yozish-o’qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og’zaki ijodi namunalarida aks etgan.Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish darajasiga yetgan. Yozish-o’qish paydo bo’lgandan keyin ham xalq og’zaki ijodi o’z mavqeini yo’qotmagan, aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan holda ta’sirchanligi yanada ortib borgan. Boshlang’ich ta’lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo’nalishlari bilan uzviy bog’liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko’lamini kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta’lim olishini ta’minlaydigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan barchafanlar,ularning bo’limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e’tibor bilan tanlanadi. O’quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o’sib borishini ta’minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo’lgan voqea va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o’tiladi. Buning uchun har bir fanning mazmuniga kirgan mavzular mutaxassis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og’zaki ijodi namunalari ham o’ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalq og’zaki ijodi namunalarining yoshlarga ta’lim va tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi. Xalq ommasining turmush kechirish jarayonida to’plangan ta’lim-tarbiya borasidagi tajribalar va bilimlar yig’indisi xalq pedagogkasining mazmunini ifodalaydi.

Mustaqil O’zbekistonning rivojlanish yo’li negizlari bo’lgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, vatanparvarlik hamda milliy tarbiyani amalga oshirishda xalq og’zaki ijodi namunalari eng ta’sirchan vosita bo’lib xizmat qiladi.

Respublikamiz olimlari tomonidan xalq og’zaki ijodi namunalari va ularni yoshlarga o’qitish muammosi muntazam o’rganib kelingan. H.Zarifov, I.Afzalov,

M.Alaviya, M.Murodov, G’.Jahongirov, T.Mirzaev, M.Obidova, Z.Husainovalarning tadqiqotlarida xalq og’zaki ijodi namunalarining turli janrlari, paydo bo’lishi va taraqqiyot masalalari nazariy jihatdan asoslangan

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-marifiy o’zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma’naviy qadriyatlarni o’rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Kaykovus singari Sharq mutafakkirlari e’tirof etgan inson ma’naviy kamolotining zaruriy shartlaridan biri mustaqil va mantiqiy tafakkurdir. Bu jarayonda o’quvchi mukammal faollik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko’rsatadi. Madaniy merosimizga o’zlarining beqiyos hissalarini qo’shgan allomalarimiz Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg’ariy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar ijodini o’rganish kelajak avlod uchun katta ma’rifiytarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ularning har biri jahon sivilizatsiyasining rivojiga tegishli hissasini qo’shib kelgan. Bu silsilada Yusuf Xos Hojibning nomini ham faxr va iftixor bilan tilga olish mumkin. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» hamda Mahmud Qoshg’ariyning «Devoni lug’otit-turk» asarlari ma’naviyat durdonalaridan biridir. Shu o’rinda «qomusiy» so’zini qo’llaganimiz tasodifiy emas. Har bir yaratilgan asar o’quvchini, kitobxonni bir yo’nalishda tarbiyalaydi. «Qutadg’u bilig» asari esa davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasm-rusumlarini, axloqiy prinsiplarini o’zida mujassamlashtirgan, qomusiy asar sifatida yuzaga keldi. Bu asar didaktik yo’nalishga ega bo’lib, unda davlatni idora qilish usullari, oddiy xalqdan tortib oliy darajadagi mansab egalari elikxonlargacha olim, shoir, dehqon, chorvador, kosib singari ko’plab tabaqa, toifa, ijtimoiy guruhlarning fe’l-atvori qanday bo’lishi lozimligi, davlat qurilishi, turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatdagi o’rni va ahamiyati, umuman, siyosiy-ijtimoiy, axloqiy-tarbiyaviy masalalar o’sha davr talabi nuqtayi nazaridan yo’l-yo’riqlar badiiyat qonunlari asosida tavsiflangan.

Milliy ilmiy merosimizning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ta’lim va tarbiyadagi hikmatlardadir. Al-Xorazmiy, Al-Farg’oniy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari ko’plab daholar bundan tashqari jadidchilik namoyondalaridan Behbudiy, Avloniy, Fitrat kabi allomalarimiz ham ilm-fan, adabiyot va san’at, umuman, madaniyatni rivojlantirishga beqiyos hissa qo’shganlar. Xalqimizning mard va qahramon farzandlaridan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurlarning hayoti, ularning bosib o’tgan yo’li, butun faoliyati bugungi va kelgusi avlod uchun ibrat ekanini hamisha yodda tutish lozim.

Buyuk allomalarimiz va xalq qahramonlarining faoliyati har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatga egaligi va xalqimizning milliy-ma’naviy merosi ekanligini anglashimiz zarur.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. T. 2020 23-sentyabr.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag’ishlangan marosimdagi nutqi // Xalq so’zi gazetasi, 2019-yil, 7-aprel. – №68(72-98) son. –B.1.

3. Mirziyoyev Sh.M “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz.” - T.: O’zbekiston, 2017. 16-b. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi nutq. 2016 -yil , 8- sentabr.

4. O.Tursunov, S.Jamalov “Yoshlar tarbiyasida qadriyatlarimizning roli”. T., “Sharq”. 2000 yil.

5. E.Xoliqov, M.Lafasov, M.Rustamov “Merosimiz ildizlari” T.,“Ma’naviyat” 2008 yil.

6. S.Komilova “Yoshlar tarbiyasida ilmiy merosimizning o’rni” T., “Mehnat” 2000 yil.

O‘QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA YO‘NALTIRISHDA O‘QITUVCHINING MAHORATI

Usmanova Matluba Sattarovna
Guliston shahar 17-umumta’lim maktabi
Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, o‘z tasavvurlari va o‘ziga xosligidan foydalanib, yangi ijobiy g‘oyalar yoki yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda o‘z fikriga tayanishi, mustaqil bo‘lishlarida o‘qituvchining o‘rni va mahorati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘z: kretivlik, virtual reallik, pedagogik jarayon, axborot, o‘qituvchi, o‘quvchi, kelajak, hamkorlik, mulohaza, texnalogiya, yangilik.

Bugun dunyoda yuz berayotgan jadal suratdagi ilmiy texnologik o‘zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch - kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to‘rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish. Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo‘lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o‘laroq yaratilgan.[4] Bugun kunda ko‘plab o‘qituvchilar tomonidan interfaol metodlar, innovasion pedagogik va axborot texnologiyalar dars jarayonlarida bevosita qo‘llanmoqda. Bu orqali o‘qituvchi dars jarayonida kamroq energiya sarflab, ko‘proq ma'lumot berish orqali samaradorlikka erishadi hamda o‘quvchilar ko‘zlari bilan ko‘rishlari orqali ma'lumotlarni uzoq vaqt davomida

xotiralarida saqlab qoladilar. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o‘z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.[8] Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni harqanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Kreativlik - bu bir vaqtning o‘zida yangi va qadrli g‘oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create” so‘zidan olingan bo‘lib, yaratish ma’nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli yo‘nalishdan yondashishni anglatadi. Bolani ijodkor shaxsga aylantirish pedagogik jarayon texnologiyasiga bog‘liq.[2]

O‘quvchilar orasida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar turli xil o‘qitish strategiyalaridan foydalanishlari mumkin, masalan, so‘rovga asoslangan ta’lim, loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim va dizayn fikrlash. Ushbu yondashuvlar amaliy, tajribali o‘rganish, hamkorlik va mulohaza yuritishga urg‘u beradi va ular o‘quvchilarni yangi g‘oyalar va tushunchalarni kashf qilish va tajriba qilishga undaydi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlaydigan va qadrlaydigan muhitni yaratishi mumkin, masalan, o‘quvchilarga o‘z g‘oyalari va ishlarini baham ko‘rish imkoniyatini berish, o‘sishni rag‘batlantiradigan fikr-mulohazalarni taqdim etish va o‘quvchilar ijodini nishonlash va e’tirof etish. Ijodiy fikrlash konsepsiyasini tushunish ijodkorlik nima ekanligini, u qanday namoyon bo‘lishini, original va innovatsion g‘oyalarni yaratish bilan bog‘liq kognitiv jarayonlarni aniq tushunishni o‘z ichiga oladi.[7]

Ijodiy fikrlash - bu yangi va foydali g‘oyalar, tushunchalar yoki muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan kognitiv jarayon. Ijodiy fikrlash faqat badiiy yoki xayoliy harakatlar bilan cheklanmaydi, balki hayotning barcha sohalarida, jumladan, fan, biznes va kundalik muammolarni hal qilishda qo‘llanilishi mumkin. Ijodiy fikrlash ko‘pincha o‘ziga xoslik, o‘ziga xoslik va yangilik kabi muayyan xususiyatlar bilan bog‘liq. Ammo shuni tan olish kerakki, ijodkorlik har doim ham mutlaqo yangi narsalarni yaratishni o‘z ichiga olmaydi.[3] Ijodiy fikrlash, shuningdek, mavjud g‘oyalar, tushunchalar yoki echimlarni rekombinatsiya qilish yoki o‘zgartirishni o‘z ichiga olishi mumkin. O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun o‘qituvchilar tavakkal qilish, izlanish va tajriba o‘tkazishni qadrlaydigan va rag‘batlantiradigan muhitni yaratishi kerak. O‘qituvchilar, shuningdek, o‘quvchilarga hamkorlik qilish, muammolarni hal qilishda qatnashish va fikrlash jarayonlari haqida fikr yuritish imkoniyatini berish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchilar ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun aqliy hujum, aql xaritasi va analogiya tuzish kabi turli strategiyalardan

foydalanishlari mumkin. Ijodiy fikrlash konsepsiyasini tushunish ijodkorlik bir nechta kognitiv jarayonlar va xususiyatlarni o‘z ichiga olgan murakkab kognitiv jarayon ekanligini tan olishni o‘z ichiga oladi. Qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish va tegishli strategiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishlari va rivojlantirishlari mumkin.

O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik jarayonlarni loyihalash bilan bog‘liq muammolarni tahlil qiladigan maqolada qo‘llanilgan ilmiy metodlarga quyidagilar kiradi:

1. Gipotezani tekshirish: Bu usul ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ma’lum pedagogik jarayonning samaradorligi to‘g‘risida sinovdan o‘tkaziladigan gipotezani shakllantirish, gipotezani tekshirish uchun eksperiment ishlab chiqish, ma’lumotlarni to‘plash va jarayonning samaradorligi to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun natijalarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.
2. Korrelyatsion tadqiqotlar: Bu usul ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tekshirishni o‘z ichiga oladi, masalan, o‘qitishning muayyan yondashuvidan foydalanish va o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.
3. Eksperimental dizaynlar: Bu usul boshqariladigan sharoitda bir yoki bir nechta o‘zgaruvchilarni manipulyatsiya qilish va manipulyatsiyaning qiziqish natijasiga ta’sirini o‘lchashni, masalan, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi
4. Kuzatuv tadqiqotlari: Bu usul ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan omillarni tushunish uchun tabiiy sharoitda, masalan, sinfda shaxslar yoki guruhlarning xatti-harakatlarini kuzatish va hujjatlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ilmiy metodlar tadqiqotchilarga o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun turli pedagogik yondashuvlarning samaradorligi to‘g‘risida empirik ma’lumotlarni to‘plashda yordam beradi. Usulni tanlash tadqiqot savoliga, mavjud resurslarga va tadqiqotning axloqiy jihatlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilarning ijodiy fikrlashiga ta’sir etuvchi bir qancha omillar mavjud.[4]

Guruhda ishlash va hamkorlik o‘quvchilarning o‘z g‘oyalari bilan bo‘lishishi, fikr almashishi va bir-biridan o‘rganishi mumkin bo‘lgan qo‘llab-quvvatlovchi muhitni ta’minlash orqali ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishi mumkin. Hamkorlik faoliyati ham o‘quvchilarda muammoni yechish qobiliyatlari va ijodkorliklarini rivojlantirishga yordam beradi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarga ijodiy echimlarni talab qiladigan haqiqiy muammolar va muammolarni taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, o‘z bilim va ko‘nikmalarini murakkab masalalarni yechishda qo‘llashga undaydi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni davom ettirishga undaydigan fikr-mulohazalarini bildirishi mumkin. Fikr-mulohaza yozma izohlar, yakkama-yakka muhokamalar yoki tengdoshlarni baholash orqali berilishi mumkin. O‘z ishining kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatib, o‘quvchilar xatolaridan saboq olishlari va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishda davom etishlari mumkin. Umuman olganda, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini takomillashtirish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi, u qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish, ijodkorlik va hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratish, o‘quvchilarni savol-javob, izlanish va muammolarni hal qilishga undashdan iborat. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini takomillashtirish masalasi bo‘yicha tadqiqot

olib borgan rus olimlari ko‘p bo‘lgan. Vygotskiy kognitiv rivojlanishda ijtimoiy o‘zaro ta’sirning rolini ta’kidlagan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan taniqli rus psixologi va pedagogi edi. U ijodiy fikrlash boshqalar bilan hamkorlik qilish va muloqot qilish, shuningdek, turli g‘oyalar va tajribalarga ta’sir qilish orqali rivojlanadi deb hisoblardi. Leontiev inson faoliyati rivojlanish va o‘rganishning asosiy omili ekanligini ta’kidlaydigan faoliyat nazariyasini ishlab chiqqan rus psixologi edi. U ijodiy fikrlash muammolarni hal qilish faoliyatida faol ishtirok etish va yangi g‘oyalar va istiqbollarni o‘rganish orqali rivojlanadi, deb hisoblagan. Kuznetsov rus psixologi bo‘lib, u turlicha fikrlash va yangi va original g‘oyalarni yaratish muhimligini ta’kidlaydigan "mahsulli fikrlash" kontseptsiyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, ijodiy fikrlash yangi tajribalarga ochiqlik, moslashuvchan va xayoliy fikrlash qobiliyati va tavakkal qilishga tayyorlikni o‘z ichiga olgan samarali fikrlash uslubini tarbiyalash orqali rivojlanadi. Ponomarev rossiyalik pedagog bo‘lib, “ijodiy faoliyat” kontseptsiyasini ishlab chiqqan bo‘lib, u muammolarni hal qilish va innovatsiyalarda ijodiy fikrlash rolini ta’kidlaydi. U ijodiy fikrlash qiziqish, tasavvur, yangi g‘oyalar va istiqbollarni yaratish qobiliyatini o‘stirish orqali rivojlanadi, deb hisoblagan. Bu va boshqa rus olimlari ijodiy fikrlash va uni o‘quvchilarda rivojlanishiga yordam berish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan pedagogik yondashuvlarni tushunishimizga katta hissa qo‘shgan.

Xulosa qilib aytganda, refleksiv faoliyat fikriy-ijodiy, tanlovga asoslangan, mas’uliyatlilik, mustaqillik kabilarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi sifatida e’tirof etadi. O‘quv faoliyatining asosiy natijalari ta’lim mazmuni va o‘quv jarayonining tarkibiy qismlarida o‘z ifodasini topadi. Bunday sharoitda o‘quvchilarning o‘quv predmeti mazmunini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi mazkur mazmun sifat jihatdan yangi mohiyat kasb etganligi uchun ham ortib bormoqda. Chunki kreativ faollik ham ta’lim mazmuni, ham o‘quvchi shaxsining tajribasini boyituvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shaxsning kreativ faolligi uning o‘ziga xos imkoniyatlari sifatida talqin etiladi. Shu bilan bir qatorda, kreativ faollik xulq-atvor ko‘rinishlarini ifodalovchi model sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarda kreativ faollikning rivojlanishi yangi paradigma doirasida jadallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A. Ismoilov,X. J. Daminov Z. A. Kosimova G. A. Primov “Kreativ fikrlashni baholash”.Toshkent- 2021
2. M. Madraximova, “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik faoliyatini shakllantirish muammolari va metodlari”, Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya: Nukus -2014.
3. N. B. Nuraliyeva “Boshlang‘ich ta’limda triz-texnikasini qo‘llanishi” | journal of new century innovations. Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Volume-7 79-80- betlar.
4. Pedagogika ensiklopediyasi 2-jild 198 b.
5. Pedagogika ensiklopediyasi 3-jild T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 322 b
6. Rixsiboyev Oybek Alisherovich. Ta’lim jarayonida axborot komunikatsiyon texnologiyalarning o‘rni. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8. uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. 1414 bet.

7. R.A.Mavlonova Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O‘quv qo‘llanma. T.: “G‘.G‘ulom”, 156-bet .
Yo‘ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari:-T.: “Tarbiyachi”, 2004 y.

O‘QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.

Uzoqov Asomiddin Shoymardon o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada o‘qituvchilarda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishda qo‘yiladiga talablar va ularni amaliyotda qo‘llash, shuningdek bugungi yoshlarning tadbirkorligi, ijodkorligi, har qanday holatda ham o‘z fikrini erkin bayon qilishi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zi: kommunikatsiya, pedagog, o‘qituvchi, rivojlanish, qobiliyat, muloqot, ishontirish, o‘quvchi.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bogliqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o‘ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o‘z to‘gri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo‘lmogi lozim. O‘quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so‘zsiz o‘qituvchiga, uning o‘quv-tarbiya jarayonini to‘g‘ri boshqara olishiga va o‘quvchilar bilan o‘rnata oladigan muomala va munosabatlariga bog‘liq.Kommunikativ qobiliyat [1] – bu pedagogik o‘zaro harakat sohasida maxsus ko‘rinishga ega bo‘lgan muloqotga qobiliyatlilikdir.Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko‘rsatiladi: 1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqish, yuz, qo‘l, gavda harakatlarini “o‘qish” ko‘nikmasi) 2) insonni o‘z-o‘zini anglay olishi (o‘z bilimi, qobiliyati, o‘z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko‘zi bilan baholash); 3) muloqot vaziyatini to‘g‘ri baholay olish ko‘nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo‘lish belgilari haqida ko‘proq axborotlarni ajarata olish, ularga e’tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to‘g‘ri idrok etish va baholash).Tahlil etish gnoseologiya, psixologiyada bilish va amaliy faoliyatga doir barcha harakatlarni o‘z ichiga oladi, pedagogikada esa, tadqiq qilinayotgan narsa-hodisalarning alohida tarkibiy qismlarga ajratish qonuniyat va usullarini o‘zida aks ettiruvchi bilish jarayoni sifatida ifoda etiladi. O.O.Kashenkoning[2] fikricha, o‘z-o‘zini tahlil etish falsafa va psixologiyada o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini baholashning tarkibiy qismi sifatida aks ettirilsa ham mustaqil kategoriya sifatida ishlatilmaydi. Biroq o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi va rivojlanishi o‘z-o‘zini tahlil etish asosida amalga oshishini esda tutish zarur.O‘qituvchining kommunikativ ta’sir etish usullari[8].Chunki aynan pedagogik voqelikda o‘z-o‘zini tahlil etish

ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularning o‘zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan “Men-kontseptsiyasi”ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiylaridan biridir.

O‘z-o‘zini tahlil etish usullari quyidagilarga e’tibor qaratishni talab etadi:

1) ijtimoiylikka yo‘naltirilgan o‘zaro harakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o‘ziga xosliklari, qadriyatlari tizimi kabilarni ob’ekt sifatida ko‘rib chiqish;

2) o‘z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash;

3) noma’lumdan ma’lumni ajratib olish;

4) qarama-qarshiliklarni aniqlash.

O‘z-o‘zini tahlil etish o‘z-o‘zini anglashdan avval kelib, aynan uning asosida shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlari umumlashgan ko‘rinishga o‘tadi. O‘z-o‘zini anglash natijasida shaxsda o‘zining kimligini anglash, o‘zining jamiyatdagi o‘rnini tushunib etish, boshqalarning ko‘z o‘ngida kim sifatida gavdalanishini his etish kabilar shakllanadi. O‘z-o‘zini anglash o‘z-o‘ziga munosabat sifatida shakllanuvchi hissiy va mantiqiy jihatlarni o‘zida aks ettiradi.

O‘qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o‘quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo‘lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O‘zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo‘lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo‘nalishlari mavjud:

- o‘quvchilarni ishontirish;
- o‘quvchilar ongiga ta'sir etish;
- o‘zgalarga taqlid qilish.

O‘quvchilarni ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi fikr mulohazalarini ta’sirchan nutq orqali o‘quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, hatti-harakatiga ta’sir etadi va uni qisman o‘zgartiradi. Ishontirish o‘qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo‘lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib, ta'lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. O‘quvchi ongiga ta'sir ko‘rsatish bilan bog'liq bo‘lgan ishontirish usuli o‘qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida o‘rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo‘lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo‘ladi.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab kamolotga yetkazishdan iborat. Pedagogik ta’sir[3] ko‘rsatishning asosiy tarbiyaviy usullari hayotdan, millatning yashash tarzidan, milliy an'ana va urf-odatlardan kelib chiqib tanlanadi. Ular o‘quvchilar tarbiyasini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish nuqtai nazaridan tanlab oladi.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyat olib borish o‘qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo‘lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O‘qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so‘z qudratini

takomillashtirib boradi. U o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so‘z boyligini go‘zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo‘lishiga intiladi. Zero, go‘zal va ta'sirchan so‘zlay bilish ham san'at. Bu san'atdan bebahra bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o‘qitishdan qat'iy nazar, o‘qituvchining asosiy quroli so‘z boyligidir, u so‘z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi ni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y, 6-son, 70-modda.
2.O‘zbekiston Respublikasi Respublikasi Prezidentining“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-2124-sonli qarori.
3.Sh.O‘roqova.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy fanlar misolida intellektual rivojlantirish metodikasi “ TAFAKKUR MANZILI ”– 2023. – T. №. 4.–C. 135-138.
4.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. - 174 b.
5.Butayorova M. X. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish-O‘quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim omili sifatida “TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI.” – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 113-118.
6.Turobov M. O‘QUVCHILARINING MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA IDROK ETISHNI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTI “Interpretation and researches.” – 2024. – T. 1. – №. 1.

ZAMONAVIY O‘QITUVCHI QIYOFASIDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li
Nizomiy nomidagi TDPU
dotsent v.b., (PhD)

Annotatsiya. Maqolada o‘qituvchining deontologik madaniyatini rivojlantirishda axloqiy talablar, me’yorlar, prinsiplar va xatti-harakatlar qoidalari, o‘qituvchining kasbiy faoliyati, uning maqsadi keng doirada tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: deontologiya, pedagogik mahorat, iroda, yuksak tafakkur, siyosiy iroda, axloqiy ideallar, gumanistik qadriyatlar, pedagogik etika.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyatlar yuklangan. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etadi: “O‘zbekistonda eng obro‘li inson muallim bo‘lishi kerak”[1, 32-b]. Ushbu fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisiga nisbatan qo‘yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati anglaniladi.

Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Mustaqillikdan keyin ushbu muammo ko‘plab olimlarning, ziyoli ahlining, hatto ota-onalarning diqqat e’tiborida bo‘ldi. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, darsliklar yaratila boshlandi, bu sohada izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmokda. Hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o‘qituvchisidan pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o‘z fanini chukur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo‘lishni talab qiladi.

O‘qituvchining ishiga nafaqat boshqa odamlarning ruhiy holati, balki ularning kelajagi ham bog‘liqdir. Odamlar bilan ishlash, ayniqsa bolalar bilan ishlash spontanlik yoki harakatsizlikka toqat qilmaydi. O‘z-o‘zini anglash nazoratidan chiqib ketishi bilanoq, o‘qituvchi xatolarga yo‘l qo‘yadi va ko‘pincha tuzatib bo‘lmaydigan xatolarga yo‘l qo‘yadi. Ularning topshirig‘iga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘qituvchilar tomonidan muayyan axloqiy talablarga rioya etilishi, ularning mustaqil va ongli tanlovi ustidan ijtimoiy nazorat zarur. Aynan shu tanlov orqali “yaxshi yoki yomon” tushunchasiga tayanish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyati o‘qituvchining boshqa odamga (bu holda o‘quvchiga) ta’sirining darajasi va yo‘nalishini aniqlash uchun javobgardir: yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli. Ushbu javobgarlikning chegaralarini, aniqrog‘i, pedagogik aralashuvning chegaralarini aniqlash pedagogik deontologiyaning vazifasidir. Masalan, tibbiy axloqshunoslikda tibbiy aralashuvni amalga oshirish uchun bemorning rasmiy (hujjatli) roziligini olish normalari mavjud. Agar bemorning aqliy faoliyati cheklangan bo‘lsa, unda bunday kelishuv qarindoshlar yoki yaqin odamlar tomonidan beriladi. Maktab o‘quvchilarida va ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda tushunish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati doimo cheklangan. Biroq, bu yerda pedagogik va tibbiy ta’sir o‘rtasidagi o‘xshashlik cheklangan. O‘qituvchi ovozni ko‘tarish, taqiqlash yoki maqtash uchun har bir aniq holat uchun ota-onadan rozilik so‘rash imkoniyatiga ega emas. Ammo bunday harakatlar ta’sirining natijalari ular bilan hisoblanmaslik uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin emas. Bundan kelib chiqadiki, agar o‘qituvchining qaror qabul qilishdagi erkinligi cheksiz bo‘lsa, u holda uning qabul qilingan qarorlar uchun javobgarligi darajasi yanada yuqori bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi normativ va qonunchilik hujjatlari asosida ma’lum qarorlarni qabul qiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni[1], 2024-yil 1-fevral kuni 21 moddadan iborat “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunida[2] pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to‘lash, rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi.

Pedagogik deontologiya bu o‘qituvchining kasbiy burchini halol, vijdonan bajarishiga mos keladigan axloqiy, huquqiy tamoyillar va qoidalar majmuidir.

Zamonaviy o‘qituvchining deontologik asosining muhim (asosiy) tarkibiy qismi unga kasbiy tayyorgarlik ko‘rgan mutaxassis sifatida yuklangan axloqiy burch talablarida yotadi. Ushbu talablar uning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi: u qayerda (qaysi muassasada) va kim bilan (qaysi toifadagi odamlar)

ishlaydi, shuningdek u o‘z ishida qanday ustun maqsadlarni belgilaydi va kasbiy etika, axloqiy ideallar, tamoyillar mazmuni, ushbu ko‘p millatli jamiyatdagi ijtimoiy va pedagogik faoliyatning gumanistik qadriyatlari pedagogik etika ushbu axloqiy me’yorlarni, qadriyatlarni, shuningdek, pedagogik faoliyatga xos talablarni shakllantirish bilan shug‘ullanadi va pedagogik deontologiya ularni anglash va amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Yuqoridagilar diagramma sifatida ifodalanishi mumkin (1-rasm).



Har bir professor-o‘qituvchilar jamoasi eng yaxshi an’analarni qadrlashi, mustahkamlashi, ularni o‘z saflariga qo‘shilgan har bir yangi xodimga doimiy ravishda singdirishi kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchi bunday an’analarni o‘rganishi va hatto universitetda o‘qish jarayonida ham ularni hurmat qilishni o‘rganishi kerak. Har bir talaba o‘z guruhida ijodkorlik va ijod ruhiga ega bo‘lishini ta’minlash uchun harakat qilishi kerak.

Deontologik ongning shakllanishi o‘qituvchining butun hayoti davomida sodir bo‘ladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, kelajakdagi o‘qituvchi o‘zining shaxsiy qarorlarini to‘g‘ri qabul qilishga, o‘z-o‘ziga ishonch kabi tuyg‘ularni tarbiyalashi kerak, ya’ni u o‘zining qadriyatlar yo‘nalishlariga muvofiq ongli ravishda harakat qilishiga imkon beradigan o‘z e’tiqodlarini rivojlantirishi kerak.

Kasbiy faoliyat jarayonida o‘qituvchining qat’iy e’tiqodi deontologik kredoga aylanadi (“kredo” lotincha kredodan - ishonaman) – e’tiqod, qarashlar, dunyoqarash asoslari”) - o‘qituvchining ichki dunyoqarashini shakllantiradi, bu regulyator bo‘lgan kasbiy burch ongiga asoslanadi.

O‘qituvchining deontologik tayyorgarligi quyidagilar asosida shakllanadi:

- pedagogik deontologiya asoslarini o‘zlashtirish darajasi;
- kasbiy burchni anglash darajasi;
- kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari;
- har bir o‘qituvchi shaxsiyati ijodining individual o‘ziga xosligi.

Ushbu tizim elementlaridan birini egallamaslik (“deontologik ong, deontologik o‘z-o‘zini anglash, deontologik ishonch, deontologik kredo”) o‘qituvchining deontologik tayyorgarligi to‘liq shakllanmasligiga sabab bo‘ladi.

O‘qituvchining deontologik tayyor emasligi uning professional bo‘lmagan harakatlarida namoyon bo‘ladi, ya’ni:

- tarbiyachi, o‘qituvchi tomonidan o‘zlarining kasbiy burchlarini tushunmasliklari va natijada o‘quvchilar bilan munosabatlarni to‘g‘ri tahlil eta olmasligiga olib keladi;

- kasbiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirishning yetishmasligi, ya’ni o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi anglash tushunchasining yo‘qligi, bu esa kasbiy-deontologik o‘z-o‘zini anglashni deontologik e’tiqod va kredoga aylanishiga to‘sqinlik qiladi. O‘qituvchining xulq-atvorini pedagogik deontologiya tamoyillariga muvofiq ravishda tartibga soluvchi asosiy tushuncha bu- deontologik e’tiqod va ishonch.

Demak, birinchi navbatda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida, o‘rta maktab, litsey, kasb hunar maktablari, kollej o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilaridan boshlab ta’lim tizimidagi barcha ishchilarning deontologik tayyorgarligini shakllantirish zarurati paydo bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020). // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” gi Qonuni. (01.02.2024). // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024 y., 03/24/901/0082-son.

3. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 320 b.

4. Ziyomuhammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. O‘quv qo‘ll.-T.: TIB-KITOB, 2009. -183 b.

5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kopetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

6. Muslimov N.A. va boshqalar. Профессионалная компетентност будущего учителя: теория и технология обучения Учебное пособие . -T.: TDPU, 2014

7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 b.

8. Кертаева Г.М. Основы педагогической деонтологии. 2019. 6-40 б.

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYA YORDAMIDA TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISH

Xaitova Nazokat Fayzullayevna
JDPU dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’limni geymifikatsiyalashtirishning kelib chiqishi, rivojlanishi shuningdek, uning bugungi kundagi holati hamda jahon davlatlarida ta’limga o‘yin elementlarini joriy qilish amaliyoti haqidagi fikrlar o‘rin olgan. Ta’lim jarayoniga geymifikatsiyani qo‘llash bo‘yicha AQSH, Shvetsiya, Rossiya va Kanada tajribasi bilan o‘rtoqlashilgan.

Kalit so‘zlar: geymifikatsiya, ta’lim, didaktika, metodik salohiyat, o‘yin elementlari.

Ushbu maqolada biz boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga ta’lim berishda geymifikatsiyaning psixologik, didaktik va metodik salohiyatini tavsiflash, o‘yin elementlari yordamida elektron ta’lim resurslarini yaratishga imkon beradigan ayrim vositalar borasida fikr yuritamiz.

XXI asrda esa ta’limni axborotlashtirish, ochiq ta’lim resurslari hamda ta’limiy dasturlar paketlarining keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq ravishda gamifikatsiya yoki geymifikatsiya atamasi paydo bo‘ldi.

Ma'lulmi, geymifikatsiya atamasi amerikalik pedagoglar 2008 yilda M. Porenski, 2012 yilda K. Kappalarning monografiyalari nashr etilgandan so‘ng pedagogikada keng tarqaldi. K. Kappning shunday firk yuritadi: gemifikatsiya - bu «o‘yin texnologiyalarini o‘yindan tashqari jarayonlarga, shu jumladan ta’limga joriy etish , shuningdek «turli xil muammolarni o‘rganish va hal qilishga odamlarni jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish uchun o‘yin mexanikasi, estetikasi va o‘yin tafakkuridan foydalanish»[1]. Oksford lug‘atida esa geymifikatsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: «Mahsulot yoki xizmat bilan aloqani oshirish uchun odatiy o‘yin marketing elementlaridan (masalan, fikrlar, raqobat elementlari, o‘yin qoidalari) boshqa faoliyat sohalarida, ko‘pincha onlayn marketing texnikasi sifatida foydalanish” [2]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, «geymifikatsiya» tushunchasi va «o‘yin» tushunchasi aslida bir xil emas. Geymifikatsiya o‘yinning ba’zi elementlaridan professional, ammo qisman ko‘ngilochar maqsadlarida foydalanishni o‘z ichiga oladi [3]. O‘yin esa, tizim bo‘lsada, abstrakt vaziyat bo‘lib, unda ishtirokchilar ma’lum bir rolga va qoidalarga ega bo‘ladilar, ma’lum bir natijaga erishadilar. Odatda bunday o‘yinlardan olingan natija ta’lim yoki mehnat maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lmaydi [4]. Geymifikatsiya, hozirgi ta’lim metodikasida mavjud bo‘lgan ko‘plab o‘yin amaliyotlaridan (masalan, an’anaviy o‘yin, rol o‘ynash, simulyasiya) ham farq qiladi, chunki bunda dars, ya’ni reallik o‘yinga aylanib qolmaydi, aksincha realligicha qoladi, ammo shu bilan birga o‘quvchiga reallikka aloqador o‘yin munosabatlari beriladi [5].

Geymifikatsiyani ta’lim texnologiyasi va ta’lim muhiti sifatida joriy etish tajribasi katta qiziqish uyg‘otmoqda. Raqamli pedagogikani ta’lim tizimi sifatida rivojlantirishda ijobiy tajribaga erishilganligi to‘g‘risidagi fikrlar turli anjumanlarda va maqolalarda keltirilgan5. Geymifikatsiya va raqamli pedagogikada ta’lim taraqqiyotida muhim burilish yasashi mumkin [6]. Shu sababli ham AQSh Ta’lim vazirligi 2013 yildan beri ta’limni geymifikatsiyalashtirish sohasidagi ishlanmalarni moliyalashtirib kelmoqda[7]. Shvetsiyadagi maktablarda qurilish muhandislik tushunchalarini o‘rgatadigan Minecraft o‘yini, Rossiyada geymifikatsiya elementlarini o‘z ichiga olgan eng taniqli ta’lim loyihalaridan biri bo‘lgan ingliz tilini o‘rganish uchun LinguaLeo onlayn-resursi, Kanadada Shon Yang tomonidan yaratilgan ClassCraft dars-o‘yinlari bunga yaqqol misoldir [8]. Ushbu resurslar dunyo davlatlarida katta mashhurlikka erishdi hamda ta’lim bozorida juda yaxshi mavqega ega.

Kompyuter o‘yinlari orqali o‘qish allaqachon amaliyotgan kirib kelib bo‘lgan. O‘yinlarda simulyasiya va strategiyalardan foydalanish mumkin [9]. Ular asosida maktab o‘quvchilari ayrim sabablarga ko‘ra real hayotdan olish qiyin bo‘lgan tadqiqot yoki amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtira oladilar [10]. Masalan, o‘yindagi vazifani bajarish va ball yig‘ish uchun o‘quvchi ham matematikani, ham o‘qishni, ham imloni integratsiyalab o‘rganishi mumkin. Har qanday o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari darslarga zavq-shavq, qiziqish, intilish bilan kirishishini istaydi, o‘z vaqtini behudaga yoki o‘quvchini intizomini nazorat qilib o‘tkazishni xohlamaydi. O‘yin elementlarining

darsga joriy etilishi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Va bu geymifikatsiya texnologiyalarining didaktik xususiyatini tasdiqlaydi va o‘quv jarayoniga geymifikatsiyani kiritish uchun psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi [11].

Butun kursni bo‘lsama-da, hech bo‘lmasa uning bir qismini geymifikatsiya qilish uchun bir qancha asoslar ko‘rsatish mumkin:

1. O‘quvchining o‘rganishga motivatsiyasini rag‘batlantirish. Bunga «o‘yin» jarayonidagi raqobat va o‘quvchining shaxsiy qiziqishi orqali ham erishish mumkin.

2. Ta’limni yanada innovatsiyalash. Ko‘pgina bolalar uchun maktab zerikarli, eskirgan yoki nokerak tizim sifatida tushuniladi8. Amaliyot va nazariya o‘rtasidagi katta farqlar kerakli bilimlarni ham “chiqitga” chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bu endigina 1-sinfda o‘qiyotgan bolalar uchun xosdir. Agar ta’lim jarayonida bolaning yoshiga va qiziqishiga xos zamonaviy tendensiyalar paydo bo‘lsa, ta’lim yanada samarali bo‘ladi.

3. Ta’limni yanada funksionallashtirish. Geymifikatsiya «o‘yinchilar»ni harakatga keltirish, faollashtirishga yordam beradi.

4. Darsni yanada qiziqarli qilish. Geymifikatsiya reallikdan kelib chiqqan va elektron shaklga ko‘chirilgan hayot, muhit va onlayn ta’limdir. O‘yin inson uchun bolaligidan berish tanish bo‘lgan tabiiy holat. Har bir insonning o‘yinga bo‘lgan ehtiyoji har xil, ammo barchada bu ehtiyoj bor. Agar o‘qituvchi har bir o‘quvchining o‘yinga qiziqishini uyg‘ota olsa, uning darsga munosabati bir necha barobar ortishiga erisha oladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan firr va mulohazalar hisobga olgan holda, shuni aytishimiz mumkinki, ta’limni geymifikatsiyalashtirish – o‘yin elementlari, o‘yin texnologiyalari va o‘yin dizaynining o‘quv jarayoniga qo‘shilishi bo‘lib, ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasiining sifat jihatidan o‘zgarishiga, o‘quv muammolarini hal qilishda motivatsiya, talabalarning faolligi, ularning diqqatini va konsentratsiyasini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kapp K. The Gamification of Learning and Instruction. John Wiley & Sons, 2012.

2. English Oxforf Living Dictionnaries online. URL: https://en.oxforddictionaries. com/definition/gamification (дата обращения: 12.04.2018).

3. Титова С.В., Чикризова К.В. Геймификация в обучении иностранным языкам: психолого-дидактический и методический потенциал // Педагогика и психология образования. 2019. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/geymifikatsiya-v-obuchenii-inostrannym-yazykam-psihologo-didakticheskiy-i-metodicheskiy-potentsial.

4. Орлова О.В., Титова В.Н. Геймификация как способ организации обучения // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2015. № 9. С. 60-64.

5. Botirov, D. B., Tangirov, K. E., Mamatkulova, U. E., Aliboyev, S. K., Khaitova, N. F., & Alkorova, U. M. (2020). The importance of teaching algorithms

and programming languages in the creation of electronic education resources. *Journal of Critical Reviews*, *7*(11), 365-368.

6. Nazokat K. PRACTICE OF DEVELOPMENT OF STUDENTS MOTIVATION WHEN USING GAMIFICATION: Khaitova Nazokat, Lecturer of the Department of Methods of Early Education, Faculty of Early Education, Djizak State Pedagogical Institute, Uzbekistan //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 4. – С. 188-192.

7. Khaitova N. PRACTICE OF DEVELOPMENT OF STUDENTS MOTIVATION WHEN USING GAMIFICATION //Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – 2021. – №. 4. – С. 188-192.

8. Xaitova Nazokat Fayzullayevna. (2023). THE ROLE OF GAMIFICATION IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS. *Academia Science Repository*, *4*(04), 589–591.

9. XAITOVA N. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILISH MOTIVASIYASINI GEYMIFIKASIYADAN FOYDALANISH ORQALI RIVOJLANTIRISH //News of UzMU journal. – 2024. – Т. 1. – №. 1.3. 1. – С. 221-223.

10. Sattarov, A.R, Yusupov, R.M, Khaitov, F.N, Ahmedov, F.K, Khonimkulov, U.S. Some didactic opportunities of application of mobile technologies for improvement in the educational process. Journal of Critical Reviews, 2020, 7(11), 348–352.

Sattarov, A. R. "Organization of the Independent Work of Students of Higher Education Using the Web-quest Method." *International Journal on Integrated Education* 4.1: 67-71.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TARIXIY MA’LUMOTLAR ASOSIDA TA’LIM VA TARBIYA BERISH TAMOYILLARI

Xalikova Dilobar Maxsitovna
Fargona DU o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Maqolada “Avesto” muqaddas kitobi faqat diniy qo‘shiq, hikoyat va rivoyatlardan iborat bo‘libgina qolmasdan, balki tabiiy fanlar, xususan, tabobat, ta’lim-tarbiya masalalarini ham o‘z ichiga olgan bu qadimiy noyob bilimlar xazinasini bilan tanishtirish haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar. Ta’lim va tarbiya, pedagogika, tarixiy ma’lumotlar, Sharq allomalari tarixi, boshlang‘i sinf.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va ma’daniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Fan va ma’daniyat rivojlanishi ta’lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Shunday ekan, O‘zbekiston mustaqillikka erishganiga qaramay qonun tomonidan ta’lim-tarbiya masalalariga alohida o‘rin ajratilgan. Mana shu yillar davomida ta’lim-

tarbiya soxasida milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lmoqda.

Ma'lumki, 7 asrgacha, ya'ni arablar istilosidan oldin Markaziy Osiyoda zardushtiylik dini keng tarqalgan bo'lib, Turon, Eron, So'g'd va Xorazm xududlarida yashagan xalqlar asosan zardushtiylik ta'limotiga muvofiq o'z farzandlarini ibratli ahloq-odob qoidalari asosida tarbiyalaganlar. Zardushtiylik dininig asoschisi va "Avesto" kitobining muallifi Spitama Zaratushtra ta'lim-tarbiya masalalariga xam katta ahamiyat began holda mana bunday deydi: "Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi tayanchi bo'lib hisoblanishi lozimki, u avvalo yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin" [1].

"Avesto"da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan:

a) diniy va ahloqiy tarbiya;

b) jismoniy tarbiya;

v) o'qish va yozishga o'rgatish;

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, 15-yosh balog'at yoshi hisoblangan. Balog'atga yetgan bolalar zardushtiylikka e'tiqodi ramzi sifatida beliga yung ipakdan to'qilgan kamar bog'lab yurishi va "otashparastlar" ibodatxonasida o'tkazilgan diniy marosimlarda qatnashishi shart bo'lgan. Bolalarni kohinlar zardushtlik rasm-rusumlarini bajarishga, falsafa, odob-axloqqa o'rgatishgan.

Zardushtiylikda ma'rifat va bilimning kuchiga qattiq e'tiqod qilinadi va oqibat natijada ma'rifat yutib chiqadi, deb hisoblanadi. O'sha davrda bolalarning faqat sihat-salomat va jismonan baquvvat bo'lishi haqidagina emas, balki ilmu-ma'rifat olishi va ma'naviy sofligi, yaxshilik, ezgulik hislatlarini egallashlari to'g'risida xam g'amho'rlik qilingan. Asosan, bolalarda ahloqiy poklik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, saxovatlilik fazilatlarini tarbiyalashga muhim ahamiyat berilgan. Jismoniy tarbiyadan nazarda tutilgan asosiy maqsad: bolalarni harbiy ishga tayyorlash va ularni jismonan chiniqtirishdan iborat edi. Darvoqe, harbiy tayyorgarlik jarayonida bolalar otda chopish, ov qilish, qilichbozlik va qalqonda raqibidan o'zini himoya qila bilish, suvda suzish, uzoqqa yugurish, sakrash, nayza irg'itishni egallashi majburiy bo'lgan. Biroq, diniy- ahloqiy va harbiy-jismoniy tarbiyani egallash barcha tabaqadagi kishilarning farzandlari uchun shart bo'lsa-da, ammo o'qish, yozish va hisoblash (sanash)ni o'rganish esa faqat yuqori tabaqadagi kishilarning bolalari uchun edi, xolos. Yuqori tabaqadagi kishilarning bolalari uchun saroy va ibodatxonalar qoshida maxsus maktablar mavjud bo'lib, bu yerda ularga tajribali ustozlar saboq berishar, taniqli lashkarboshilar esa harbiy san'at sir-asrorlarini puxta o'rgatishar edi. O'qituvchilar ulamo kohinlar bo'lib, ular jamiyat ma'naviy xayotida muxim mavqega ega edilar. Maktabda kichik yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat-muloqot usullaridan keng foydalanardilar.

Darsda o'quvchilardan o'tilgan mavzuni shovqinsiz takrorlash talab qilinar edi. Bolalarda yoshlikdan mehnatsevarlik va kasb-hunar egallash malakasi hamda ko'nikmasini shakllantirishga katta e'tibor berilgan. Ular yosh paytidanoq daraxt

ko‘chati o‘tkazish, uy-ro‘zg‘or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatilgan[3].

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, o‘sha davr kishilarining orzusi hayotda farovon turmush kechirish uchun faqat mehnat qilishdan iborat bo‘lgan. Zero, inson mehnatisiz tirikchilik qila olmaydi. Shuning uchun inson kamoloti va ahloqiy sog‘lomligi manbai sifatida mehnat ulug‘lanadi.

2.Beruniy Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad (973-1048), eng avvalo, qomusiy olim sifatida butun dunyoga manzur va mashhurdir. Uning dastlabki yirik asari “Al-asror alboqiya an al-qurun al-holiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) bo‘lib, buni u 27 yoshida yozgan edi. 486 sahifadan iborat bu asar o‘zbekchaga 1968 yili tarjima qilingan. Olimning 364 sahifadan iborat “Tahdid nihoyot il-amokin li tashih masofot il-masokin” (“Turar joylar (orasidagi) masofani aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash”) “Geodeziya” nomi bilan yirik kitobi mashhur bo‘lib ketgan.

O‘sha davr ichida Beruniy falsafiy pedagogika maktabini yaratgan. Uning pedagogik qarashlari va faoliyatini o‘rganishda olimning o‘zidan ilgari o‘tgan pedagoglarga nisbatan qanday yangi, nekbin fikrlar bildirganiga hamda ijodidagi ilgarilab boradigan pedagogik qarash va fikrlari rivojlanishiga e’tiborni qaratish juda muhimdir. Beruniy rahbarlik qilgan bu ilmiy dargoh qariyb 10 yil faoliyat ko‘rsatgan. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kamolati bosh masala bo‘lgan. Buyuk pedagog olim tarbiyaning maqsadi, vazifalari va roli, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik asosiga qurilgan. Beruniyning pedagogik g‘oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir. Mana, oradan ming yildan otiq vaqt o‘tishiga qaramasdan, Beruniyning ilg‘or hayotiy pedagogik va falsafiy g‘oyalari hozir ham g‘oyatda qimmatlidir[4].

Shunday qilib, xulosa qilsak, Beruniyning pedagogik qarashlari asosan:

-oilada bola tarbiyasi; aqliy ta’lim;

-ahloqiy va jismoniy tarbiya:

-mehnat va insonparvarlik tarbiyasi:

3. Abu Nasr Farobiy (873-950) O‘rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon ilmi va falsafasining Sharqdagi eng yirik targ‘ibotchisi va uning rivojiga hissa qo‘shgan olim. Farobiy o‘z davrining qator ilmlarini chuqur o‘rganib, turli sohalarga oid ilmiy asarlar yozib qoldirdi. U o‘z davrining birinchi faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi bo‘lib nom qozondi. U “Aql haqidagi risola”, “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerak?”, “Substansiya haqidagi so‘z”, “Falsafaning ma’nosi va kelib chiqishi”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Masalalar mohiyati” kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

O‘zida o‘n ikki tug‘ma hislatni birlashtirgan kishigina axloqli odam bo‘la oladi:

Birinchidan, bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

Ikkinchidan, barcha masalani, muxokama va mulohazani tezda va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin;

Uchinchidan, xotirasi juda baquvvat bo‘lsin, ko‘rgan –eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo‘lsin;

To‘rtinchidan, zehni shu darajada o‘tkir bo‘lsinki biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;

Beshinchidan, so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon ayta olsin;

Oltinchidan, bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini chachashni sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin:

Yettinchidan, ovqatlanishda, ichimlik iste’mol etishda ochko‘z bo‘lmasin, tabiati qimor o‘yinlarini o‘ynashdan uzoq bo‘lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo‘lsin:

Sakkizinchidan, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo‘lsin, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin:

To‘qqizinchidan, ruhi g‘ururli va o‘z vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga intiladigan bo‘lsin:

O‘ninchidan, dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin:

O‘n birinchidan, o‘z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin, go‘zal va yaxshi hisoblangan narsalarini barchaga taqdim etgan holda, odamlarni adolatga targ‘ib etadigan holda, adolatsizlik natijalarini yo‘qotadigan, ularga yo‘l qo‘ymaydigan bo‘lsin:

O‘n ikkinchidan, adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin, adolat oldida, adolatsizlik, pastkashlik oldida qat’iy so‘zlik bo‘lsin, o‘zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat’iylik ko‘rsatsin, qo‘rqmas, jasur bo‘lsin, qo‘rqish va ojizlikni bilmasin: Ta’lim-tarbiya ahllari ham o‘z bilimlarining darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar, ortiq kam bo‘ladilar. Ularning ba’zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo‘lmaydi, ba’zilarida esa bu quvvat kamroq bo‘ladi.

4.Biz tarixdan bilamizki Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnaxr tarixida alohida o‘rin egallaydi. Chunki bu davrlarda Samarqand, Hirot shaxarlarida ma’daniyat, ilm-fan rivojlanib bordi.

Dastavval, shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-ahloq, iymon, e’tiqod, ta’lim-tarbiyada o‘zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch xosil qilish uchun bobomizning o‘zi tomonidan yaratilgan odob-ahloqga oid dasturlar, o‘gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqida tarixiy asarlarni ko‘zdan kechirish kifoY. “Tuzuki Temuriy”(“Temur tuzuklari)”, “Marfuzaota Temuriy” (“Temurning aytganlari”) va “Vakiota Temuriy” (“Temurning boshidan kechirganlari”) nomi bilan jahonga mashhur bo‘lgan asarlarida Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma’no o‘gitlarining xar biri mazmun va ma’no kengligi, kuchliligi, teranligi, ta’siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilgan bilan

alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni qadrli xazina odob-axloqga oid dasturlar deya olamiz[2].

5. Xalqimiz asrlar osha ardoqlab, e'zozlab kelgan, milliy ma'daniyatimiz, fanimiz, ma'naviyatimizni shakllanishiga bebaho hissa qo'shgan buyuk siymolardan biri yetuk davlat arbobi, munajjim, matematik, handasa ilmining buyuk namoyondasi, musiqashunos, shoir va nihoyat pedagogika fani rivojiga barakali hissa qo'shgan zabardast olim Muhammad Tarag'ay Ulug'bek edi. 1398 yildan Ulug'bekga Hamza ibn Ali qissago'y qilib tayinlandi. Uning yordamida 4 yoshidayoq o'qish va yozishni o'rgandi[5].

Muhammad Tarag'ayning ilmiy, ma'daniy kamoloti ana shunday muhitda shakllanib, sayqallanib bordi. Ma'lumki, musulmon davlat tuzumida ikki asosiy bosqich: ibtidoiy maktablar va o'rta madrasalar mavjud edi. Ulug'bek davrigacha ham bu tizim saqlanib qolgan. Lekin Ulug'bekning tashabbusi bilan ta'limning boshlang'ich bo'g'ini sifatida barcha mahallalarda qorixona va daloilxonalar qaror topdi. [30. 33]

Allomaning fikricha fanni egallash, loaqal savod chiqarish muhim masala edi.

Ibtidoiy maktablarda o'qish muddati qat'iy chegaralab qo'yilmagan edi. O'quvchi belgilab qo'yilgan miqdordagi bilimlarni (aksariyat diniy bilimlarni) egallay olmasa, u 15-20 yillab o'qishda qolib ketishi mumkin edi.Ulug'bek tashkil etgan daloilxonalarda o'qish muddatini qat'iy 8 yil qilib belgilab qo'yilgan. Shuningdek, dars berishning individual usulidan "jamoa" usuliga o'tkazildi. Bunda har bir guruxda yosh jihatiga ko'ra 15-20 o'quvchi bir vaqtda saboq olar edilar. Bu endi dars o'tishning sinf sistemasiga yaqinlashish edi.

Daloilxonalarni muvaffaqiyatli bitirgan bolalar o'rta ta'lim madrasalarida bilim olishga yo'naltirilganlar.

Ulug'bek keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlar o'tkaza olishga qodir, ilmiy kashfiyotlarni amalga oshira oladigan oliy bosqichdagi madrasalar bo'lishini ham orzu qilgan.

1417 yilda Buxoroda, 1420 yilda Samarqandda, 1433 yilda G'ijduvonda qurilgan edi. Shuning uchun ham biz Ulug'bek haqli ravishda Samarqandda oliy ta'lim tizimiga asos solgan deya olamiz.

Darsning muayyan miqdordagi tiplarini belgilashning turlari, yo'llari bilan uning ancha jiddiy strukturasi ishlab chiqilgan. T.A.Ilina darsning o'z strukturasiga barcha asosiy elemenlarini olgan tipini, ya'ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi[2].

Xulosa shuki, qadimgi bobokolonlarimiz ko'ziga to'tiyo qilgan "Avesto" muqaddas kitobi faqat diniy qo'shiq, hikoyat va rivoyatlardan iborat bo'libgina qolmasdan, balki tabiiy fanlar, xususan, tabobat, ta'lim-tarbiya masalalarini ham o'z ichiga olgan. Biz bu qadimiy noyob bilimlar xazinasini bilan tanishar ekanmiz, Zardushtra payg'ambarning o'z hayoti haqida, zamondoshlari haqida, shuningdek, u targ'ib qilgan ta'limotiga sig'ingan mamlakatlarning davlat tuzilishi, ta'lim-tarbiya va ahloq-odob to'g'risida ko'p narsalarni bilib olamiz. Zardushtiylik dinining afzal tomonlaridan biri shu ediki, unda hukmdorlar saltanatini mustahkamlovchi rasmiy

aqidalar bilan birga, insonni o‘z hayotining, o‘z taqdirining yaratuvchisi sifatida ulug‘lovchi insonparvarlik g‘oyalari ham qaror topgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Baratov SH. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. T.: Uqituvchi. 1995.52 b.
2.R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliberganov. Pedagogika. T.: O‘qituvchi,2001.
3.R.Mavlonova, N.X.Raxmonulova. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiY. Metodik qo‘llanma, TDPU, 2007.
4. Boshlangich ta’lim Konsepsiyasi. T.: O‘zPFITI, 1994. 15 b.
5. Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma’naviyat. T.: Chinor NK. 1997. 102 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA METAKOGNITIV MONITORING VA NAZORAT

Xalikova Zaxro Mirshadmanovna
Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Zamonaviy dunyo uzluksiz axborotlar olish ko‘lami va imkoniyatlarining mislsiz kengayishi hamda kishilarning o‘zaro turli texnik vositalar yordamida muloqot qilish imkoniyatlarining ortishi bilan tasniflanadi.

Natijada, zamonaviy kishilarning kognitiv faolligi ko‘pincha tashqi resurslar va qurilmalardan foydalanish, shuningdek, boshqa odamlarni muloqotga jalb qilish kabilarlar o‘rtasida taqsimlanish orqali tasniflanadi. Natijada, nafaqat shaxsiy kognitiv imkoniyatlarni aniqlash, balki rivojlanish va texnologiya tufayli foydalanish imkoniyati yaratilgan metakognitiv bilim va strategiyalarni samarali rivojlantirishda ham muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqolada taqsimlangan idrok kontekstida metakognitiv monitoring va nazoratning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: metakognitiv, metakognitiv tajribalar, taqsimlangan idrok, kognitiv yuklama, qidiruv/ekspluatatsiya dilemmasi, epistemik ishonch, ishonch evristikasi.

Zamonaviy texnologiyalar har bir insonning kognitiv imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Biz budungi kunda insoniyat tomonidan to‘plangan cheksiz bilimlar zahirasiga, shuningdek, biz uchun xotira, hisob-kitoblar, orientatsiya va shu kabi kabi qator kognitiv funktsiyalar va vazifalarni bajaradigan turli xil gadjetlarga egamiz. [28, 349–362-b.]

Zamonaviy aloqa vositalari ham keng doiradagi kishilar bilan operativ munosabatlarga kirisha olish, ularni birgalikda ma’lum masalalarni hal qilishga jalb etish imkonini beradi

Biroq, mavjud ma’lumotlar har doim ham ishonchli bo‘lmaydi, ular eskirgan bo‘lishi yoki ishonchli manbalardan olinmagan bo‘lishi mumkin. Muloqot jarayonida ko‘pincha texnologiyalar vositachilik qiladi, bu bizning ma’lumotni olish va tekshirish jarayonimizga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu muammolar tufayli metakognitiv bilimlarning rivojlanishi yetakchi o‘ringa chiqararilishini taqazo qiladi.

“Metabilish” atamasi dastlab J. Flavell tomonidan “insonning o‘z kognitiv jarayonlari haqidagi bilimi yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan nimadir, masalan, o‘rganilayotgan ma’lumotlarning tegishli xususiyatlariga ishora qilish uchun kiritilgan."[15, 232-bet] . Metakognitsiya o‘zaro bog‘liq ikkita funktsiyani bajaradi - kognitivni kuzatish va bilish samaradorligini oshirishga qaratilgan faollikni nazorat qilish faoliyati. Metakognitiv monitoring odatda "ba'zi bir kognitiv vazifa qanchalik yaxshi bajarilganligi yoki bajarilishini sub’ektiv baholash" deb tushuniladi. [6, 608-b], metakognitiv nazorat esa vazifani bajarishga qaratilgan kognitiv harakatlarni boshlash va tarqatish jarayonlarini o‘rganadi. [2,28-b]. Ta’kidlash joizki, metakognitiv monitoring va nazorat o‘rtasida bog‘liqlik murakkab bo‘lib u va ikki alohida yo‘nalishga ega. Bir tomondan, metakognitiv baholashlar kognitiv jarayonlarni nazorat qilishga ta'sir qiladi va kompetentlik xissini kuchaytirishni ta’minlaydi. Boshqa tomondan, bu baholashlarning o‘zi metakognitiv nazorat paytida olingan ma’lumotlarga asoslanadi[13, 200-b] .

So‘nggi o‘n yilliklarda metakognitsiya bo‘yicha tadqiqotlarda sezilarli yutuqlarga erishildi, bu ko‘plab modellar va yondashuvlarni yaratishda namoyon bo‘lmoqda: va har xil turdagi vazifalarda (masalan, metaxotira) [4, 79-b.], fikrlash va masalalarni hal qilish sohasidagi metakognitiv kognitiv faoliyatni tartibga solishning metakognitiv darajasini kontseptuallashtirishga qaratilgan yondashuvlar. [2, 17-b], kreativlik [3,1348-b], birgalikda qaror qabul qilish [3, 1446-b]. Metakognitivlikning asosiy funktsiyalariga muvofiq - monitoring va nazoratni – katta tadqiqot yo‘nalishlari sifatida ikkiga ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: 1) keng doirada metakognitiv baholash va mulohazalarni o‘rganish ularning aniqligini aniqlash vazifalari (metakognitiv sezuvchanlik deb ataladi) va ulardagi buzilishlarining ehtimoliy sabablarini tavsiflash (masalan: haddan ortiqlik va ishonchsizlik ta’siri, Dunning-Kruger effekti [33, 552-b.]; 2) metakognitiv baholash va mulohazalarning tartibga solishga ta’sirini o‘rganish kognitiv faoliyat, ya'ni vazifani bajarish uchun u yoki bu strategiyani tanlash, kognitiv harakatlarni taqsimlash va boshqalar. Ushbu maqolada biz funktsiyalar haqidagi savolga javob berishga harakat qilamiz.

Ko‘pgina zamonaviy metaidrok modellari mohiyatan birinchi darajali kognitiv jarayonlar (idrok, xotira, fikrlash va boshqalarning haqiqiy jarayonlari) va ikkinchi darajali, ya’ni metabilishlarni bir-biridan ajratishga qaratilgan.

Dastlab tadqiqotchilar metaidrokni nafaqat individual, balki shaxslararo darajada birgalikda ko‘rib chiqish muhimligini bir necha bor ta’kidlaganlar [31,140-b], ammo yaqin vaqtgacha tadqiqotning bu ikki yo‘nalishi bir-biridan alohida holda rivojlangan. [17, 2214-b]. Metkognitiv monitoring: metakognitiv baholash qanday shakllanadi? Metakognitiv tizim birinchi darajali kognitiv jarayonlarni (idrok, xotira, fikrlash va boshqalar) kuzatib borishi uchun ulardan keladigan signallarni qandaydir tarzda farqlashi va izohlashi kerak. Asosiy savol - metakognitiv monitoring jarayonida birinchi darajali signallar tizimning qanday aniq ajratilganligi va talqin qilinishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Морошкина Н. В., Зверев И. В., Нездоймышапко Л. А., Тихонов Р. В.* Метакогнитивный мониторинг и контроль в ситуации распределенного познания

2. Ackerman, R. (2014). The diminishing criterion model for metacognitive regulation of time investment.
3. *Journal of experimental psychology. General*, 143 (3), 1349–1368. https://doi.org/10.1037/a0035098
4. Ackerman, R. (2019). Heuristic cues for meta-reasoning judgments: Review and methodology. *Psychological*
5. *Topics*, 28 (1), 1–20. https://doi.org/10.31820/pt.28.1.1
6. Ackerman, R., Thompson, V. A. (2017). Meta-reasoning: Monitoring and control of thinking and reasoning.

7. *Trends in cognitive sciences*, 21 (8), 607–617. https://doi.org/10.1016/j.tics.2017.05.004
8. Allakhverdov, V. M. (1993). *The experience of theoretical psychology* (*in the genre of scientific revolution*).St. Petersburg, Pechatnyi dvor Publ. (In Russian)
9. Alter, A. L., Oppenheimer, D. M. (2009). Uniting the tribes of fluency to form a metacognitive nation. *Personality and social psychology review*, 13 (3), 219–235. https://doi.org/10.1177/1088868309341564
10. Bahrami, B., Olsen, K., Latham, P. E., Roepstorff, A., Rees, G., Frith, C. D. (2010). Optimally interacting minds. *Science*, 329 (5995), 1081–1085. https://doi.org/10.1126/science.1185718
11. Fleming, S. M., Daw, N. D. (2017). Self-evaluation of decision-making: A general Bayesian framework for metacognitive computation. *Psychological review*, 124 (1), 91–114. https://doi.org/10.1037/rev0000045
12. Fleming, S. M., Lau, H. C. (2014). How to measure metacognition. *Frontiers in Human Neuroscience*, 8, 443. https://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00443
13. Fomin, A. E. (2015) *Metacognitive Monitoring of Learning Problem Solving: Mechanisms and Biases*. Kaluga:
14. KGU im. K. E. Tsiolkovskogo Press. (In Russian)
15. Fourneret, P., Jeannerod, M. (1998). Limited conscious monitoring of motor performance in normal subjects.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PEDAGOGIK TADQIQOTLAR

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti
Xalilova Xurshida Teshayevna
Xidirova Xusnida Umidjon qizi TDPU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik tadqiqotlar, o‘rganish obyekti - tadqiqot muammosi, metodologik vositalar tizimi va ularni qo‘llashning izchilligi - tadqiqot predmetini yaratish haqida. Hamda yurtboshimiz olib borayotgan ta’lim to‘g‘risidagi islohotlar haqida.

Kalit so‘zlar: tadqiqot, tajriba, nazariya, ta’lim, obyekt, aniqlilik.

Har qanday fan o‘zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o‘z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari

qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to‘g‘ri tanlansa ta’lim tarbiya mazmunni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi.

Ilmiy tadqiqot tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tsak, bu yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni , bilish faoliyati turlaridan biridir. Unga ob’ektiv, ishonchlilik, aniqlik xosdir. Ilmiy tadqiqot – tajriba va nazariyadan iborat.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar - bu ta’lim tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirishga, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasida keng ko‘lamli o‘zgarishlar, rivojlanishlar, imkoniyat va sharoitlar yaratishga qaratilgan. Hozirda Prezidentimiz tomonidan ta’lim tizimiga bo‘lgan e’tibor juda yuqori. Shu bois boshlang‘ich ta’limda pedagogik tadqiqotlarga e’tibor tobora ortib bormoqda. Shunday ekan yana yangi tajriba va nazariyalar izlashda davom etilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bobomizni bir gaplari bor “erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib o`tirish taraqqiyot yo‘lidagi eng katta g‘ovdir”. Bu fikr zamirida juda katta ma’no yotadi. shunday ekan har kunimiz yangi tajriba va izlanishlarga boy bo`lsa, bilamizki taraqqiyot, ilm-fan shu darajada yuqori marralarga chiqaveradi.

Boshlang‘ich ta’limda pedagogik tadqiqotlar haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo boshlang‘ich ta’lim tushunchasi haqida to‘xtalsak. Boshlang`ich ta’limda 7-11 yoshli o‘quvchilarga bilim berish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash jarayonidir.

Ijtimoiy-gumanitar izlanish sifatida Pedagogik tadqiqotlarning o‘ziga xosliklari: Ilm-fan olam haqida obektiv tizimli tashkillashtirilgan va asoslangan bilimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bilish faoliyatining alohida turidir. Pedagogik tadqiqotga obektiv, ishonchlilik, aniqlilik xos. Bu tadqiqotlar tajriba va nazariyalardan iborat.

Ta’lim va tarbiyaning ilmiy asoslangan tizimi, uning yangi metodlarini yaratish nazariy tadqiqotlar jarayonida pedagogik hodisalarni anglanishidir. Xususan ta’lim va fanning glaballashuvi va internatsionallashuvi negizida xalqaro oliy ta’lim makoni shakllanib, u pedagogic tadqiqotlarning obyekti bo‘lishi mumkin. Shubhasiz bunday tadqiqotlarning vazifalaridan biri- mazkur fenomen mohiyati, qonuniy aloqalari, uning faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy omillarni aniqlashning muhim ahamiyat kasb etishida namoyon bo‘ladi.

Professor V.V.Serikovning qayd etganidek: “Ko‘p holatlarda insonni nimaga o‘rgatish va qanday o‘qitish haqidagi masala, an’analar , tajriba, “vaqt talablari”, ijtimoiy, iqtisodiy, ba’zan esa inqilobiy maqsadga muvofiqlikdan kelib chiqib hal qilingan ”.

Zamonaviy davr uchun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ilm-fan va axborotlar ko‘lami o‘ziga xoslik kasb etadi. V.A.Lektorskiyning qayd etishicha, rivojlangan mamlakatlarda asosiy boylik yangi bilimlarni yaratish, ommalashtirish va iste’mol qilishda namoyon bo`ladi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.

3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogic tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o`rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Global inqirozlar tufayli insonning yangi dunyoqarash yo‘nalishlarini izlash muammosi yuzaga keldi. V.S. Stepinning qayd etishicha , zamonaviy ilm bir qator glabal muammolar, mutlaqo yangi obyekt turlari bilan to‘qnashdi, bu esa ilmning asosi va samarali tadqiqot strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishini taqozo etadi.

XXI asrda fanning yaratuvchanlik qudratining oshib borishi , ishlab chiqarish kuchiga aylangani ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda fandagi har bir yangi qadam faqat avvalgi yutuqlarga, tajribalarga, izlanishlarga tayangan holda boyitilishi mumkin. Chunki yangi bilim eski bilimni mukammallashgan to‘liqroq shaklidir.

D.I.Fildshteyinning fikricha, bugun inson va uning rivojlanishini o‘rganuvchi boshqa fanlar bilan bogliqlikda amalga oshiriladigan psixologik-pedagogik tadqiqotlar yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi obyektlarning yuzaga kelishi o`z navbatida metodologik strategiyalar, tadqiqot taktikalari , metodlari va mezonlarining o`zgarishini ham taqozo etadi. E.G.Yudin nuqtai nazariga ko`ra, o`rganish obyekti, tadqiqot muammosi, metodologik vositalar tizimi va ularni qo`llashning izchilligi - tadqiqot predmetini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tadqiqotlar yangi tajriba va nazariyalardir. Prezidentimiz shavkat Mirziyoyev bobomizni aytgan bu so‘zlariga e’tibor bering “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotning avlodlarimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobiga erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” – deganlar. shunday ekan biz pedagoglar qancha ko`p bilim, tarbiya, tajriba, malakaga, pedagogik tadqiqotlarga ega bo‘lsak, biz tarbiyalayotgan avlod ham yetuk, barkamol va har jabhada mukammal bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik tadqiqot , yangi tajribalar juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] A.Choriyeva, B. Xodjayev, Z.Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. Toshkent “Iqtisodiyot dunyosi” 218.

[2] X.Xodjayev. umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.”Sano standart” nashriyoti. 2017.

[3] WWW.ZiyoNet.uz

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARNING OILALARI BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARINI O‘RNATISHDA KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINING HOZIRGI HOLATI

Xamidova Barno Maxmudovna
JDPU pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Djalilova Munavvar, Ahmedova Durdona
JDPU talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishda kompetensiyasini shakllantirish muammosining hozirgi holati bola shaxsini kamolotga yetkazish uchun uni har tomonlama o‘rganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va shakllariga ijodiy yondashish, uni takomillashtirish masalalarini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy kompetentlik, hamkorlik, oila ,ota-onalar, mahalla, jamiyat ,tarbiya, muammo ,qadriyatlar,ma’naviyat, ahloq, ma’suliyat.

Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy tuzilishining o‘zgarishi oilaning shakllanishiga, uning o‘zaro aloqa shakllariga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, jamiyatning moddiy texnika va ma’naviy yo‘nalishidagi o‘zgarishlari oila faoliyatining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday o‘zgarishlar oila qurish, mehr-muhabbat, o‘zaro do‘stlik va farzand ko‘rishni rejalashtirishda o‘z ifodasini topmoqda.

O‘zbekiston Respublshikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Oila biz uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashidan qat’iy nazar, kim bo‘lishidan qat’iy nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e’tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman”[8], – deb fikrini bildirgan.

Davlatimiz oilalarni o‘zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma’naviy yordam berib, oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg‘unligini ta’minlashdan manfaatdordir.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustahkamligini ta’minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa bu, o‘z navbatida, bolalar tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo‘llaridan biridir. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur.

Tarbiya jarayonida ota-onalar va o‘qituvchilarning bolalarni ijtimoiy foydali ishlarga tortish borasidagi mas’uliyati nihoyatda muhimdir. Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo‘lib qolmasdan, balki barchaning ishi, keng

ma’noda davlat ahamiyatiga molik ishdir. Respublikamiz qarorlarida ta’kidlanganidek, barcha tashkilotlar, mehnat jamoalari, umuman, jamiyat axloqiy sog‘lom, ma’naviy boy, mustahkam oilani vujudga keltirish to‘g‘risida, onalar haqidagi, mamlakatning kelajagi bo‘lgan yoshlar haqidagi g‘amxo‘rliklarini kuchaytirmoqda. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi, ularni turmushga va mehnatga tayyorlash to‘g‘risidagi mas’uliyati oshirilmoqda.

Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko‘paytirishdir. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida oila ma’lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqiyotiga hamohang holda faoliyat yuritmoqda. Oilaviy tarbiya muammolarini tadqiq etish, asosan, ikki yo‘nalishda olib borilmoqda. Bir tomondan oilaviy tarbiya pedagogikaning an’anaviy qismi sifatida o‘rganilmoqda. Ikkinchi tomondan esa, oila sotsiologiya va filologiya yo‘nalishida ham tadqiq etilmoqda.

Respublikamizda ayni hozirgi kunda oilalarning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Oilalarning moddiy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish asosida bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni kuchaytirish jarayoni tezlashmoqda. Biz uchun oila mustahkamligini ta’minlovchi axloqiy ruhiy aloqalar juda muhimdir. Xuddi ana shu aloqadorlik oilaviy munosabatlar, to‘laqonli hissiy-emosional, otalik yoki onalik, oilaviy baxtni ta’minlash ehtiyojlarini qondiradi.

Mahalla yirik jamoadir. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti – mahallalarning mavqeyini yuksaltirish, davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugunda mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyat va an’analarimiz tiklanib, zamon talablari asosida boyitilmoqda. Mahallalar imkoniyati va vakolatlarining tobora kengayib borayotgani fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ahillik, hamjihatlik, osoyishtalik muhitini asrab-avaylash, oilalarni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati ortayotganida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda globallashuv jarayonlari kechayotgan bugungi davrda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini samarali tashkil etish davr talabiga aylandi. Mamlakatimizda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga, asosan, ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022–2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilinishi asosida 2022 yil O‘zbekistonda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb e’lon qilindi. Inson manfaatlari va uning qadri ustuvorligiga asoslangan xalqchil siyosat mamlakatimizda xalqimizning noyob an’ana va qadriyatlari, shaxsning jamiyat oldidagi majburiyatlari bajarilishini kafolatlaydigan, o‘zini o‘zi boshqarish institutining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan mahalla institutining rivojlantirilishi asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda 9 349 ta fuqarolar yig‘ini mavjud bo‘lib, ularning 41 tasi shaharcha fuqarolar yig‘ini; 73 tasi qishloq fuqarolar yig‘ini; 165 tasi ovul fuqarolar yig‘ini; 9 070 tasi mahalla fuqarolar yig‘inidir.

Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligining oshishida, odamlar ong-u tafakkurida demokratik qadriyatlarni mustahkam qaror toptirishda, aholini aniq va manzilli ijtimoiy himoya qilishda ushbu tuzilmalarning o‘rni va ahamiyati g‘oyat katta. Ayni paytda mahallalarning yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g‘oyalari singdirib boriladi. Mahalla demokratiyaning haqiqiy darsxonasiga aylanishi lozim.

Mahalla tarbiya o‘chog‘idir. Farzand oilada dunyoga kelib birinchi bor ota-onasini tanisa, ulg‘aygan sayin mahalladagi odamlarni taniy boshlaydi va yurish-turish, odob-axloq, jamiki ijobiy fazilatlarni, avvalo, mahalladan, aniqrog‘i, ota-onalari, qo‘ni-qo‘shnilari, tabarruk otaxonlari, duogo‘y onaxonlaridan o‘rganadi.

Shu nuqtayi nazardan tahlil etilganda, “Oila – mahalla” tizimidagi ishlarni takomillashtirish, oila va mahallaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilaning mustahkamligi, barqarorligini ta’minlash, oila a’zolarining huquqiy savodxonligiga erishish yaxlit jamiyat barqarorligi va tinchligining muhim omillaridandir.

Ijtimoiy boshqarishning o‘ziga xos shakli bo‘lgan mahalla bir qancha madaniy-ma’naviy tadbirlarni amalga oshirish bilan birga, oilaviy urf-odatlar, an’analar, oila turmushidagi quvonchli lahzalar hamda oilaviy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan ahamiyatli voqealarni targ‘ib qilishning ishonchli markazi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Mahalla har bir oila, har bir shaxs bilan imkoniyat darajada ish olib borish uchun ma’naviy salohiyatga va huquqiy imkoniyatga ega bo‘lgan maskan hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda samaradorlikni oshirish omillaridan biri – bola shaxsini kamolotga yetkazish uchun uni har tomonlama o‘rganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va chinnakam hamkorlik munosabatlariga yondashish, uni takomillashtirishdir. O‘qituvchi, ota –onalar va mahalla hamkorligi o‘quvchilarni tarbiyalashda har tomonlama o‘rganish ularni o‘qishga, mehnatga, o‘z-o‘ziga, o‘rab turgan muhitga, inson kamoloti uchun zarur bo‘lgan sifatlardan eng muhimlarini ajrata olishga o‘rgatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ушенина Т.Н. Подготовка будуших учителей к работе с родителями по нравственному воспитанию младших школников в семе: автореф. дис. … канд. пед. наук / Т.Н. Ушенина. – Арзамас, 1999. – 19 с.

2. Фаизова В.Б. Формирование профессионалной готовности бакалавра-педагога к взаимодействию с семей: автореф. дис. … канд. пед. наук / В.Б. Фаизова. – М., 2017. – 24 с.

3. Галагузо А. Н. Культурологический подход к подготовке спетсиалистов социалной сфери: дис. … д-ра пед. наук / А.Н. Галагузов. М., 2011. – 362 с.

4. Xamidova B.M. Bo‘lajak boshlang’ich ta’lim o‘qituvchilarining oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish kompetentligining tarkibiy mazmun xususiyatlari. Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘. –Nukus, 2022. №6/6 -B. 150-156. (13.00.00 №20).

5. Xamidova B.M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchi-larining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish xususiyatlari // Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – NamDU, № 9., 2022, 247-251 betlar.

6. Xamidova B.M. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining o‘quvchilarning oilari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda kompetensiyasini shakllantirish modeli // “TAFFAKKUR - ZIYOSI” ilmiy-uslubiy jurnal.- № 1., 2023 yil,. 241-247 betlar.

Xamidova B.M. Bo‘lajak tarbiyachlarni innovasion faoliyatga tayyorlashda axboratlashtiril-gan ta’lim muhiti / Xotin-qizlarning fan, ta’lim, madaniyat va innovasion texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.–Jizzax 2021 yil, 544-546 betlar.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Xamidova Barno Maxmudovna
JDPU pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Mansurova Gulsara JDPU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijtimoiy kompetentligini texnologiyalarini rivojlantirish bola shaxsini kamolotga yetkazish uchun uni har tomonlama o‘rganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va shakllariga ijodiy yondashish, uni takomillashtirish masalalarini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy kompetentlik, texnologiya, ma’ruza ,seminar, ekskursiya , kombinatsion dars, dars-konferensiya.

Ta‘lim tizimi mazmunini rivojlantirish, o‘qitishning innovatsion texnologiyalari hamda sifat va samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar ta‘lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, biologiyani o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. 2019- yilning 29 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da: “Ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish” muhim vazifa sifatida belgilangan.

1. Shularni hisobga olib, ta’lim shakllari va texnologiyalari vositasida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini keltirib o‘tamiz. Buning uchun ta’lim berishning quyidagi shakllaridan foydalanamiz:

2. Ta’lim berishning akademik shakllari: ma’ruza, laboratoriya, malakaviy amaliyot, bitiruv oldi amaliyoti, bitiruv ishi.

3. Ta’lim berishning innovatsion shakllari: to‘garak, ekskursiya, kombinatsion dars, dars-konferensiya.

Ma’ruza mashg‘ulotlarida:

Muammoli ta’lim texnologiyasi muammoli vaziyatlarni va ular yuzaga keltirgan o‘quv vazifalarni yaratishga asoslangan. Muammoli ta’lim mohiyati – bilimni ijodiy o‘zlashtirish – o‘quvchining ilmiy ijodining to‘rt bosqichi: muammoni qo‘yish, yechimini izlash, yechimni topish, bilimni (o‘quvchining o‘zi egallagan) ochiq ijodiy qo‘llashdan iborat.

Ma’ruza mashg‘ulotlarida biz muammoli dars tuzilmasini tuzish, muammoli vazifalarni ishlab chiqish va qo‘llash, muammoli vaziyatlarni yaratish usullariga tayanib ish ko‘rdik.

Amaliyotda:

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini o‘qitish jarayonida amaliyot ekskursion dars shaklida olib borildi. Bunda amaliyot o‘tash umumta’lim maktablarida olib borildi. Amaliyotga ikkita rahbar ta’lim muassasasida va ishlab chiqarishda tayinlanadi. Bunda, asosan, dars-konferensiya va binar ta’lim shakllarida amaliyot olib boriladi. Har ikkala holatda ham differensial ta’lim texnologiyasi qo‘llaniladi.

Differensial ta‘lim texnologiyasi. Ushbu texnologiyadan foydalangan maktab o‘qituvchilarining pedagogik nazariyasi hamda amaliy faoliyatida o‘qitishda tabaqalashni (differensiyalashni) qo‘llashning turli usullari mavjud. Differensiallashgan ta‘lim texnologiyasi darajalari to‘liq o‘zlashtirishning zamonaviy modifikatsiyalashgan texnologiyasi sanaladi. Shunga qaramay, amaliyot jarayonida tabaqalashgan ta’lim texnologiyasini amalga oshirishning eng samarali usullari izlanmoqda. Tajribamizda differensialashgan yondashuvdan oqilona foydalanishning ikkita variantini sinab ko‘rdik.

Shunday qilib, amaliyot bo‘lajak boshlang‘ish sinf o‘qutuvchining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish hamda bitiruv ishlarini himoya qilishlarida tayanch vazifasini bajaradi.

To‘garak mashg‘ulotlarida:

To‘garak mashg‘ulotlarida evristik ta‘lim texnologiyalaridan foydalanib o‘qutuvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish amalga oshiriladi.

To‘garakda foydalaniladigan texnologiya: evristik ta‘lim texnologiyasi.

Evristik pedagogik texnologiyalar mahsuldor xarakterdagi faoliyatni tashkil etish, o‘qitishning muammoli-rivojlantiruvchi metodlari tizimidan foydalanish, qaror qabul qilish, ijodkorlikni yuzaga chiqarishda mustaqillikni talab qiluvchi yangi faoliyat turlarini izlashga qaratilgan vazifalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunda ta’limning tashkiliy shakllari sifatida: kombinatsion dars, dars-konferensiya, ijodiy ish, tanlov ishlari hisoblanadi. O‘qitish metodlari sifatida: ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlari, muammolarni hal qilishda axborotni izlash vazifalari, maqsadlarga erishish yo‘llarini mustaqil izlash, yangi, noan’anaviy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash bo‘yicha vazifalar hisoblanadi.

Evristik pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda o‘quvchilar kasbiy va shaxsiy malakalarni shakllantiradilar, masalan, muvozanat, stressga chidamlilik, o‘z-o‘zini anglash motivatsiyasi, ijodkorlik, kreativlik. Ushbu ta’lim usuli ko‘pincha yangi materialni tushuntirishda qo‘llaniladi.

Evristik texnologiya, odatda, algoritmga muvofiq qo‘llaniladi. Tushuntirish yoki suhbat davomida o‘quvchilarga savollar berish - ularni materialni to‘g‘ri tushunishga yo‘llash - tushunchalar, konsepsiyalar, qonunlar, xulosalar va boshqalarni mustaqil o‘rganishni shakllantirish. Biroq har qanday mavzuni o‘rganishda yaxlit samarali usul -“evristik darslar” o‘tkazish yanada mahsuldor sanaladi.

O‘qitishning evristik modeli. “Evristika” yunon tilidan tarjima qilinganda, “topish”, “kashf qilish” degan ma’noni anglatadi. Evristik tizim ta’limoti Suqrot tomonidan keng qo‘llanilgan. Olim maxsus savollar va mulohaza yuritish orqali suhbatdoshga mustaqil ravishda muammo yechimini topishga yordam beradi. Bunda haqiqat faqat o‘quvchigagina emas, balki o‘qituvchining o‘ziga ham masalani yechishga yordam beradi.

Umumiy ma‘noda evristika - bu ijodkorlik fani, odamlarning ijodiy faoliyati, uning maqsadi sifat jihatidan yangi natijalarga erishishdir. Evristika kibernetika, psixologiya, sud tibbiyoti va boshqa sohalarda ham qo‘llaniladi.

Evristik ta‘lim - bu o‘quvchi tomonidan ta’limning o‘z shaxsiy mazmuni, maqsadlari va tuzilishini, shuningdek, uni tashkil etish, diagnostika va tushunish jarayonini tayyorlashni o‘rganishini maqsad qilib oluvchi ta’lim A.V.Xutorskiy hisoblanadi.

Evristik ta’lim muammoli ta’limdan farq qiladi. Muammoga asoslangan ta‘limning maqsadi – o‘quvchilarning berilgan fan materialini o‘qituvchi tomonidan berilgan vazifa – muammolarning yechimi orqali o‘zlashtirishidir. Muammoga asoslangan ta‘lim metodi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni ma‘lum masalaning yechimiga yo‘naltirishiga asoslangan. Ta‘limga bo‘lgan evristik yondashuv, muammoli ta‘limning imkoniyatlarini kengaytirishga asoslangan, chunki u o‘qituvchi va o‘quvchini ilgari ko‘zlangan noma‘lum natijaga erishishga yo‘naltiradi.

O‘qitishning asosiy natijalari ularga tashqi tomondan uzatilmaydi, ular go‘yo o‘quvchilarning individual qobiliyatlariga muvofiq ichki tomondan ko‘rsatiladi.

Evristik ta‘limning maqsadi o‘zgacha bo‘lib, ta‘lim ishtirokchilari – o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ta‘lim yo‘naltiruvchilari - o‘qituvchilarining esa ta‘lim mahsulotini yaratishga qaratilgan faoliyatidir.

Asosiy farq – evristik ta‘limda o‘quv faoliyatini o‘rganish obyekti bo‘lib faqatgina muammo va masalar emas, balki o‘quvchilarning o‘zlari, ularning individual shaxsiy salohiyati, kreativ, kognitiv, refleksiv va boshqa amaliy va faoliyat turlari sanaladi. Evristik ta‘lim nafaqat o‘quvchilarni, balki ko‘pincha ilmni (haqiqatni) “bilmaslik” vaziyatidagi o‘quv jarayonini tashkil qilayotgan o‘qituvchilarning ham kasbiy tayyorgarligining rivojlanishiga olib keladi.

Evristik ta‘lim rivojlantiruvchi ta‘limidan ham farq qiladi (V.V. Davidov, L.V.Zankov), chunki u sifat jihatidan yangi vazifani belgilaydi va hal etadi, ya‘ni: nafaqat o‘quvchining, balki ta‘lim harakati trayektoriyasi tarkibiga kiruvchi uning rivojlanish maqsadlari, texnologiyalari va ta‘lim mazmunini rivojlantiradi.

Natija - ijodkorlik, individual qobiliyatlarni, mustaqil faoliyatni yuzaga chiqarishdir.

Ta’lim jarayonida evristik pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda samaradorlikni oshirish omillaridan biri – bola shaxsini kamolotga yetkazish uchun uni har tomonlama o‘rganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va shakllariga ijodiy yondashish, uni takomillashtirishdir. O‘quvchi-talabalarni har tomonlama o‘rganish ularni o‘qishga, mehnatga, o‘z-o‘ziga, o‘rab turgan muhitga, inson kamoloti uchun zarur bo‘lgan sifatlardan eng muhimlarini ajrata olishga o‘rgatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

7. Ушенина Т.Н. Подготовка будуших учителей к работе с родителями по нравственному воспитанию младших школников в семе: автореф. дис. … канд. пед. наук / Т.Н. Ушенина. – Арзамас, 1999. – 19 с.

8. Фаизова В.Б. Формирование профессионалной готовности бакалавра-педагога к взаимодействию с семей: автореф. дис. … канд. пед. наук / В.Б. Фаизова. – М., 2017. – 24 с.

9. Галагузо А. Н. Культурологический подход к подготовке спетсиалистов социалной сфери: дис. … д-ра пед. наук / А.Н. Галагузов. М., 2011. – 362 с.

10. Xamidova B.M. Bo‘lajak boshlang’ich ta’lim o‘qituvchilarining oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish kompetentligining tarkibiy mazmun xususiyatlari. Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘. –Nukus, 2022. №6/6 -B. 150-156. (13.00.00 №20).

11. Xamidova B.M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchi-larining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish xususiyatlari // Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – NamDU, № 9., 2022, 247-251 betlar.

12. Xamidova B.M. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining o‘quvchilarning oilari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda kompetensiyasini shakllantirish modeli // “TAFFAKKUR - ZIYOSI” ilmiy-uslubiy jurnal.- № 1., 2023 yil,. 241-247 betlar.

Xamidova B.M. Bo‘lajak tarbiyachlarni innovasion faoliyatga tayyorlashda axboratlashtiril-gan ta’lim muhiti / Xotin-qizlarning fan, ta’lim, madaniyat va innovasion texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.–Jizzax 2021 yil, 544-546 betlar.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.

Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi
Qori Niyoziy nomidagi
O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktaranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4K modeli va uning tarkibiy qismlari, boshlang‘ich ta’lim tizimida 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari hamda shart-sharoitlari, pedagogik jarayonlarda 4K modelining amaliy ahamiyati shuningdek, boshlang‘ich sinf matematika darslarida dars samaradorligini oshirishda 4K modulidan foydalanishning ahamiyati muhokama qilinadi.
Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim tizimi, boshlang‘ich ta’lim, XXI asr ko‘nikmalari, 4K moduli, kommunikativlik, kollaboratsiya, kritik fikrlash, kreativlik.

Barchamizga ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchi shaxsi shakllanishi davrining poydevori hisoblanadi. Aynan boshlang‘ich sinf davrida bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham alohida e’tibor talab etadi. Maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, bola o‘zining o‘quvchi ekanligini his qila boshlaydi, ta’lim olishga va birinchi ustoziga nisbatan mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun harakat qila boshlaydi. Shu sababdan, zamonaviy pedagogika oldidagi asosiy vazifalardan biri darsliklarning saviyasi, ta’limiy jihatdan mukammalligi, jahon ta’lim standartlariga muvofiqligi, uning bolaning yoshiga va dunyoqarashiga munosibligi hamda o‘quvchilarning ma’naviy, axloqiy me’yorlariga mos tushishini o‘rganishdir.

Bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha yurtimizda turli islohatlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni mukammallashtirish va yangilash bo‘yicha turli islohatlar amalga oshirolmoqda. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar, Finlandiya ta’lim tizimi asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan va ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuvdir

Zamonaviy ta’lim tizimida 4K modelidan foydalanishda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olish kabi inson hayotib davomida foydalanadigan ko‘nikmalarni o‘rganishga ko‘proq ahamiyat beriladi.Bugungi kunda yangi zamonaviy maktab darsliklari zamonaviy ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvni taqdim etadi. 4K moduli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kollaborasiya –hamkorlik bu jamoada ishlash ko‘nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashlari, birovning g‘oya va fikrlarini qabul qilishi, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Bir so‘z bilan hamkorlikda ishlashga harakat qilish zarur. Zamonaviy darsliklar o‘quvchilarning o‘z

tengdoshlari bilan jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga o‘zaro hamkorlik qilish, bir birlari bilan samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik – muloqot qilish qobiliyati hayot davomida zarur bo‘lgan mahoratdir. Muloqotsiz maktabda ham, universitetda ham, ishda ham, shaxslararo munosabatlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darsliklar o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadilar.

Kreativ fikrlash – -ijodiy fikrlash insonni mashinadan va sun'iy intellektdan ajratib turadigan narsadir. Darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Kritik fikrlash – tanqidiy fikrlovchi bu mustaqil fikrlaydigan shaxsdir. U boshqa odamlarning fikrlarini o‘zlashtirmaydi, u har doim o‘z fikriga ega va ularni dalillar bilan isbotlay oladi. Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z dunyoqarashini shakllantiradilar.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. O‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir darsni o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan jarayonga aylantirishimiz zarur.

4K modelidan unumli foydalanish kelajagimiz egalari bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Axborotlar asrida yashar ekanmiz, har bir shaxsda avvalo tanqidiy-tahliliy fiklash ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirish bugungi zamonaviy pedagoglarning asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu maqolamizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashlarini 4K modeli asosida rivojlantirishning pedagogik ahamiyati hamda uning xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Tanqidiy fikrlash-o‘z shaxsiy mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni to‘g‘ri va aniq ifodalash, berilgan masalaga tanqidiy yondashish demakdir. Zamonaviy ta’lim tizimi hamda zamonaviy darsliklar o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlashi, jamoada ishlash kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Shu bilan birga, fanlarda berilayotgan mavzu va topshiriqlar maktab o‘quvchilarining jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga ko‘maklashuvchi hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. An’anaviy ta’limda nima? qachon? qayerda? degan savollarga javob topilar va bu o‘quvchilarning xotirasini rivojlantirar edi. Ko‘nikma

shakllanmagani hisobiga bolalar hayotda duch keladigan masalalar, muammolarga javob topa olmasligi mumkin. Agar o‘quvchida muammoga keng qamrovli yechim topish ko‘nikmasi shakllantirilsa, muammoga duch kelganda unga qanday yechim topish ustida bosh qotiradi.

Kollaboratsiya(fransuzcha-collaboration)[8] – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko‘proq kishining sherikchiligi demakdir. Shaxsning kollaborativ o‘quv muhitiga kirishi o‘quvchining insoniy munosabatlarga kirisha olish xususiyatini rivojlantirishga, amaliy, ilmiy va nazariy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga, muayyan ijtimoiy normalar va funksiyalarni shakllantirishga faol jalb qilishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchi jamiyatda o‘zini muvaffaqiyatliamalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallaydi, jamoa a’zolari bilan faol munosabatda bo‘ladi, kelajakda turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini qanday tutishni, muloqot qilishni o‘rganadi. Hamkorlik muhiti ijodiy salohiyatga ega bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muhitda o‘quvchi o‘zini jamoa faoliyat sub’ekti, ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi, o‘z ahamiyatini va shaxsiy qadriyatini tushunadi. Kollaboratsiya -ikki yoki undan ortiq kishining umumiy maqsadlarga erishish uchun har qanday sohada birgalikdagi faoliyati bo‘lib, bunda bilim almashish, o‘rganish va kelishuvga erishish (konsensus) amalga oshiriladi.
Kollaboratsiya yordamida pedagogik faoliyat samaradorligi oshirishiga erishiladi.
Pedagogik jarayonlarda kollabartsiyadan foydalanish orqali quyidagi yutuqlarga erishish mumkin:

- o‘quvchilarning hamjihatlikda ishlashlari hamda o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilarning o‘quv predmetlari bo‘yicha egallagan ko‘nikma, bilim va malakalarini birgalikda amaliyotga tatbiq eta olish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari,
- qobiliyatlarini namoyish qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

Kollaboratsiya - ya’ni hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan, Amerika J.Xopkins universiteti professori –R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professorlari: R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori: Sh.Sharon (1988) tomonidan ishlab ishlab chiqilgan. O‘tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o‘qitishda natijalarni oldindan ko‘ra bilish, amaliy faoliyatni tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo‘lgan va Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, YAponiya, Isroil mamlakatlari ta’lim muassasalarida keng qo‘llanila boshlagan. Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar (SH.A.Amonashvili, S.N.Lisenko,I.P.Volkov, V.F.SHatalov, E.N.Ilin va boshqalar)pedagogik jarayon ishtirokchilari (o‘qituvchi va o‘quvchilar) o‘rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o‘zaro munosabatlarni tashkil etishini ta’kidlab o‘tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega zaruz qoidalar buyuk bobokalonlarimiz A.Avloniy, G‘.G‘ulom, shuningdek, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, YA.Korchak, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o‘z ifodasini topgan.[8]

Pedagogik jarayonlarda yangi darsni o‘tishdan oldin ta’limning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishda bilimlarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan ta’limiy tadbirlar (o‘tilganlarni so‘rash, savol-javob o‘tkazish, test sinovlari va boshqalar) olib boriladi. Bu bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkam bo‘lishi(o‘zlashtirilishi)ning asosiy omillaridan biridir. Mustahkamlashning ishonchli vositalaridan biri muntazam tarzda yangi bilimlarni egallashda oldingilaridan unumli foydalanishdir. Mustahkamlashning pedagogik tadbir sifatidagi asosiy vazifasi shunchaki qaytarish emas, balki mustahkamlash vositasida yangi bilimlarni egallash uchun zamin yaratish, o‘quvchilarda ulardan amaliy foydalanish malakalarini tarkib toptirishdan iborat. Mustahkamlash vositasida o‘quvchilarning o‘tilgan dars materiali qanchalik o‘zlashtirgani aniqlanadi. O‘tilgan materiallarni mustahkamlashda o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil ravishda mavzuga aloqador materiallarni turli qo‘shimcha manbalar (qo‘shimcha adabiyotlar, lug‘atlar ensiklopediyalar, internet materiallari va b)dan izlash malakalarini tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Takrorlash darslari esa muayyan bilimlar, materiallar, aqliy harakatlarning esga tushirilishi va o‘zlashtirilishiga imkon beradigan jarayon1. Takrorlash mashg‘ulotlarining muhim vazifasi harakat, ko‘nikma va malakalarni yuzaga kelgan vaziyatlarga binoan turlicha mezonlar bo‘yicha takomillashtirish sanaladi. Takrorlash yuzasidan maxsus tanlangan mashqlarni bajarish, aqliy harakatlardan foydalanish o‘zgaruvchan sharoitlarda ham ijobiy natijalarga erishishni ta’minlaydi .Demak, aynan takrorlash va mustahkamlash darslarini “4K” modeli asosida tashkil etish ko‘zlangan natijani beradi. “4K” modelining birinchi talabi kolloboratsiya – ta’lim oluvchining jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantiradi, rivojlantiradi. Pedagogik hamkorlik g‘oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va «XXI asr ta’limi konsepsiyasi» asosini tashkil etadi. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi –o‘quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish,o‘rganishdir. Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr -qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bu jarayonda har bir o‘quvchi o‘zining muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglaydi. SHuning uchun mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qiladi, o‘quv topshiriqlarini to‘liq va sifatli bajaradi, o‘quv materialini puxta o‘zlashtiradi, o‘rtoqlariga hamkor bo‘lishni, o‘zaro yordam uyushtirishni o‘rganadi.Hamkorlik muhitini yaratish metodikasi A.S.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan va tajribalarda isbotlangan “Jamoani rivojlantirish nazariyasi” bilan chambarchas bog‘liqdir1. Bu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, insonning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida jamoa (kollektiv) muhim o‘rin tutadi.Sababi har bir inson jamiyatda yashaydi, faoliyat yuritadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishadi.Bizningfikrimizcha, bu nazariya shaxsiyatga yo‘naltirilgan, insonparvarlik yo‘nalishiga ega, chunki jamoaning ijodiy salohiyatidan foydalanish orqali shaxsga o‘z qobiliyatlarini ochish, shaxs sifatida namoyon bo‘lish imkoniyatini berish mumkin. Bu fikr pedagog olim

A.S. Makarenko tomonidan taklif qilingan "hurmat va talab" tamoyiliga ko‘ra, o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarida hamkorlik muhitini yartish asnosida , qat’iylik, talabchanlik va o‘quvchi shaxsiga hurmatni uyg‘unlashtiradi, guruh a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni doimiy nazorat qiladi, o‘quvchilarda o‘zaro totuvlik, javobgarlik, birgalikda harakat qilish qoidalarini singdirib boradi.Hamkorlikda ta’lim olishning o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchi aynan jamoada yoki kichik guruhda o‘zini qay darajada namoyon qila olishiga e’tibor qaratiladi.Ya’ni, hamkorlik muhitining ijodiy salohiyati qanchalik yaxshi ochib berilsa, pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar qanchalik boy va qiziqarli bo‘lsa, o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qiziqishi shu darajada ortadi. O‘quvchi turli vaziyatda o‘z fikrini dadil bayon etadi, axborotni qidiradi, olingan ma’lumotlarni ongli va ob’ektiv baholashni o‘rganadi. Demak, o‘quvchining tashabbuskorlik, optimizm, o‘ziga ishonch kabi shaxsiy fazilatlar takomillashadi,Hamkorlikdagi o‘zaro ta’sir ishtirokchisining subektivligi o‘qituvchining sinfda o‘quvchilarning guruh, jamoa, juftlik faoliyatini tashkil etish qobiliyati bilan ta’minlanadi. Metodik adabiyotlarda guruhlashda quyidagi fikrlarni hisobga olish kerakligi bayon etiladi:

– Hamkorlik ishtirokchilari bilan birgalikda guruhda ishlash qoidalarini ishlab chiqish zarur;

– Guruhlar tarkibi almashib, o‘zgarib turishi kerak;

– Har bir guruhga turli vazifalar (rollar) ni belgilash;

– Guruhlar bajaradigan vazifalar doimo o‘zgarib, almashib turishi kerak;

–Guruhlarda faqat konstruktiv (asosli) tanqidga ruxsat berish mumkin.

Bunday holda, o‘qituvchi fassilyatorga aylanadi, ya’ni yordamchi rolini o‘ynaydi, guruh muloqotini ta’minlaydi, guruhlararo muhokama uchun qulay muhit yaratishga hissa qo‘shadi. Hamkorlikda har bir o‘quvchi ta’lim jarayonining bevosita ishtirokchisi bo‘lishi, bilish faoliyat turlarini ongli ravishda tanlab olishi, fikrlash faoliyati bilan shug‘ullanishi, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rganishi, imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishi zarur.Takrorlash va mustahkamlash darslarida kichik guruhlarda ishlash jarayonida ta’lim oluvchilar bir-biriga o‘rtoqlik yordamini ko‘rsatadilar, o‘zlashtirishi pastroq o‘quvchilar do‘stona yordamni his qiladilar, guruhlar o‘rtasida sog‘lom raqobat ruhi tug‘iladi, bu ularni muvaffaqiyatli faoliyatni shakllantirish uchun qulay psixologik muhit yaratadi. Bunday hollarda o‘qituvchining roli faqat muvofiqlashtirish, yo‘l-yo‘riq, maslahat va rag‘batlantirishdan iborat. Hamkorlik muhiti ishtirokchisi muloqot davrida shaxsiy fikrini bayon etish bilan birga, o‘zgalar fikri bilan ham hisoblashadi, o‘zini boshqaradi, u yoki bu ma’lumotlarni bilishi guruhga muvaffaqiyat olib kelishi, aksincha, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaslik mag‘lubiyatga sabab bo‘lishini amaliyotda ko‘radi, o‘quvchining mas’uliyat hissi ortadi. Intellektual munozara maydoni, xayrixohlik va ishbilarmonlik muhiti shakllanadi. O‘qituvchi topshiriqlarni o‘quvchilarga taqsimlash chog‘ida huddi shu jihatga e’tibor berishi, ya’ni ta’lim oluvchining qaysi mavzu yoki sohani (og‘zaki nutqi, yozma nutqi, imlo) o‘zlashtirishda qiynalsa, shu yo‘nalishdagi vazifalarni topshirishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining takrorlash va mustahkamlash darslarida hamkorlikdagi o‘quv muhitini tashkil etish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash

darajasini rivojlantiradi, ularning shaxsiy o‘sishiga yordam beradi, mustaqilligini rivojlantiradi, bu ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida bebaho rol o‘ynaydi, shuningdek o‘qituvchining o‘zini doimiy ijodiy izlanishda bo‘lishga undaydi. Takrorlash va mustahkamlash darslarida 4K modelining hamkorlikda ishlash ya’ni kolloborativ bo‘limi yuqori samaradorlikka ega. O‘quvchilarni hamkorlikda o‘qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Guruhlarda o‘qitish (R.Slavin) da o‘quvchilar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e’tiborni qaratadi.R.Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi etarli emas. O‘quvchilar tom ma’nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga intiladi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda hamkorlikda o‘qitish (R. Slavin, 1986).[8] Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.Hamkorlikka asoslangan o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan, o‘quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o‘zgalar manfaatlari bilan hisoblashish, ulardan o‘rganish, ularga o‘rgatish, ta’sirqila olish, o‘zining va boshqalarning “men”ligini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish, fikrini lo‘nda, puxta va aniq bayon qila olishga o‘rgatishga qaratilgan interfaol o‘qitish usullari tez rivojlanib, ijobiy samara bermoqda.O‘zaro hamkorlikning muhimomili va o‘quvchilarning o‘zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o‘qituvchi bilan o‘quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o‘quv faoliyati o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki,u o‘zlashtirish ob’ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta’minlaydi.Hamkorlikdagi o‘quv faoliyatining maqsadi o‘zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o‘quvchilar ilgari surgan yangi g‘oyalar va o‘zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog‘liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga

kelishidir.Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda,o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi.

O‘quvchilarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosbata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.Bahsli, muammoli vaziyat –insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog‘liq bo‘lib, qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning aqliy kuchini zo‘riqtiradi, u vaziyatni oydinlashtirish uchun yo‘llar qidira boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to‘qnashadi. Inson muammo bilan yuzma-yuz (to‘qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O‘zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyaga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.O‘quvchilar o‘zlari bajargan topshiriqlarni qanday qilib bajarganliklarini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim. Muammo hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o‘rinlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalab bera olishi o‘qituvchi uchun muhimdir. Nemis pedagogi Disterveg bekorga “Noqobil o‘qituvchi haqiqatni aytadi qo‘yadi, yaxshi o‘qituvchi esa uni topishini o‘rgatadi” deb aytmagan. Bu o‘rinda o‘qituvchining vazifasi faqat mavzuni tushuntirib berish emas, masalani to‘g‘ri qo‘ya bilishi, o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqtira olishi, uning tuyg‘ularini bezovta qila bilishi va muammoni hal etishda hamkor sifatida qatnashishdan iborat.Bola faoliyati erkin bo‘lsa, hurligiga dahl qilinmasa, unda shaxsga hurmat tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Bahs jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorligi bolani mutelikdan, ko‘r-ko‘rona itoatdan qutqaradi. Dars bir maqsad sari intilayotgan hamkorlikning yagona faoliyatiga aylanadi.Hamkorlikda o‘qitishning «Birgalikda o‘qiymiz» metodi Hamkorlikda o‘qitishning «Birgalikda o‘qiymiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o‘quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqni ma’lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to‘liq bajarilish natijasida o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga erishiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf darslarida 4K modelidan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

● o‘quvchining o‘rganish jarayonini boyitadi;

● o‘quvchilarga kognitiv (atrof-olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta’limi) axborot beradi;

● o‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi;

●o‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarni shakllantirish imkoniyatlarni kengaytiridi;

● axborotni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;

● o‘quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi;

● turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiydarajadagi guruhlar o‘rtasida ijobiyo‘zaro munosabatlarni ilgari suradi;

● hamkorlik shunday holatki, ta’lim jarayoni su’bektlari birgalashib faoliyat qiladi, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam, jamotchilikyuzaga keladi.Pirovard natijada jamiyat buyurtmasi bajariladi -raqobatbardosh, hamkorlikka shay, turli hayotiy vaziyatlarda muammolarni anglab, ularni hal qilishga dadil kirishuvchi, tafakkur kuchiga ishonuvchi, jamoada mustaqil mulohazalarini ayta oladigan, o‘z fikr va qarashlarini himoya qila oladigan, savodxon kadrlarni tarbiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akhatova Durdona Aktamovna. Teaching Students to Work With Pedagogical Situations in the Teaching of Pedagogical Disciplines. International journal of multidisciplinary research PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023 105 and analysis : Volume 04 Issue 11 November 2021 DOI: 10.47191/ijmra/v4-i11-11, Impact Factor: 6.072, 1564-1569
2.. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives. 2017.
3. Framework for 21st Century Learning. The Partnership for 21st Century Learning. —2015.
4. UNESCO. School and teaching practices for twenty-first century challenGES: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report. — 2016.
5. Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. Education System Alignment for 21st century skills: Focus On Assessment. — Brookings institution, 2018.
6. Dilova N.G‘. (2017). O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o‘rni. Zamonaviy ta’lim. 1-son
7. Reason, M., & Herne, S. (2016). A New Vocabulary for Collaborative Inquiry. University of Toronto Press.
8. Zilola Durdimurotovna Rasulova, “Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish”, SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1601

“HIBAT UL - HAQOYIQ” ASARIDA ILM - MA’RIFAT MASALALARI

Xujanova Gulchexra Uralovna
TDYU qoshidagi M.S. Vosiqova nomidagi
akademik litsey o‘qituvchisi, f.f.n., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi turkiy adabiyotning zabardast vakillaridan biri Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari, uning ma’no-mohiyati va badiiy xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Shoirning insonlarni ma’naviy yetuklikka chorlovchn fikr-qarashlari, pand-nasihatlari, milliy o‘zlikni anglash va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vazifaga xizmat qilishi bilan ham qimmatlidir.

Kalit so‘zlar: pand-nasihat, na’t, hamd, she’riy shakl, axloq, odob, tazkira

«Hibat ul-haqoyiq» ma’no va mazmun e’tibori bilan o‘ziga xos bir axloqiy - ta’limiy asardir. O‘tgan asrning o‘ninchi yillari o‘rtalaridan boshlab, ya’ni «Hibat ul-haqoyiq» ilk bora nashr etilganidan buyon tadqiqotchilar uning ma’no va mazmuni haqida o‘z mulohazalarini ifodalab keladilar. Asarning birinchi tadqiqotchi va noshirlaridan hisoblanmish R.R. Aratning e’tirof etishicha, «Hibat ul-haqoyiq» she’riy shaklda yozilgan axloqiy kitobdir. Undagi fikrlar ko‘p marotaba oyat, hadis va boshqa arabiy baytlar bilan ziynatlangan[4].

O‘zbek adabiyotshunosligida Adib Ahmadning hayoti va asari haqida birinchi bo‘lib maqola e’lon qilgan professor Fitrat shunday yozadi: «Hibat ul-haqoyiq» mundarija e’tibori bilan «diniy axloq» o‘rgatuvchi manzum bir risoladan iboratdir [2].

Ahmad Yugnakiy ham o‘zining asarini Olloh madhi bilan boshlab, uning rahmatidan umidvorligini bildiradi:

Ilohiy, o‘kush hamd ayurman senga,

Sening rahmatingtin umarman unga.

Mazmuni: Ey tangrim, senga ko‘p hamd-sano aytaman, eng oldin sening rahmatingdan umidvorman [1.29-bet]. Shundan so‘ng muallif haqiqiy musulmonlarga xos tavba va iqror bilan o‘zining hamdu sanodagi noqisligini tan olib deydi:

Sanomu ayugay sazo bu tilim,

Unarcha ayoyin yori ber menga.

Mazmuni: Bu gunohkor tilim sano ayta oladimi, yukunib so‘zlayin, menga ko‘mak ber [1.29-bet]. Keyingi bir necha baytda esa Tangrining yaratuvchilik qudrati, olamdagi barcha jonli va jonsiz narsalar, uning borligidan guvohlik berishi ta’kidlanadi va Haqqa ishonch-e’tiqodda shak-shubhaga beriladiganlarga xitoban shunday yozadi:

Ayo shak yo‘lida yeligli udun

Kel o‘ttin o‘zung yul o‘lumtin o‘nga ey, shak-shubha yo‘lida kun kechiruvchi, uyg‘on, o‘limdan oldin o‘zingni o‘tdan (jaholatdan) tort [1.30-bet] derkan, odamlarni ma’naviy-ruhiy bedorlikka da’vat qiladi. Chunki, g‘aflat va jaholat bilan o‘tgan umr o‘limdan ham xavfliroq. Eng ilg‘or islomiy tushuncha va haqiqatlar egasi bo‘lgan Adib Ahmad ulug‘ Tangri madhi bilan boshlagan fikrlarini uning sevimli rasuli Muhammad alayhissalomni ulug‘lash bilan davom ettiradi. Ma’lumki, na’t biror bir narsani madh etish yo‘li bilan anglatish, vasflantirishdir. Badiiy ijodda na’tlar Muhammad payg‘ambar madhiga bag‘ishlanib, asosan nasr va nazm shaklida yozilgan. Ularda Hazrati payg‘ambarga bo‘lgan muhabbat hissi nihoyatda yuksak ohanglarda ifodalangan. Na’tlarda o‘rni-o‘rni bilan oyat va hadislardan unumli foydalanilgan va ul muborak zotning vujudga kelishi, dunyoning yaratilishiga sabab bo‘lganligi hamda uning fazilatlari inson farzandiga abadiy o‘rnak bo‘lishi ta’sirbaxsh tarzda izhor kilingan. Xullas, na’t «Payg‘ambarning she’r yo‘li bilan yaratilgan bir portretidir. Bu portretni har bir qalamkash o‘z iqtidori va salohiyatiga yarasha amalga oshirar... Na’t eng oldingi va eng mukammal bir ishq obidasidir». Adib Ahmadning na’tida ham shunday ishq va sadoqat aniq sezilib turadi.

Bizning nazarimizda, asarning g‘oyaviy-badiiy quvvatini belgilaydigan va Adib Ahmadning mutafakkirlik iste’dodini ko‘rsatadigan boblardan biri, ilmdan bahs etilgan

bobdir. Uningcha, ilm nuri bilan saodat yo‘li yorishadi. Bu yo‘lga kirishni istagan odam, albatta, ilm egallashi zarurdir:

Bilik birla bil(i)nur saodyt yo‘li,
Bilik bil saodat yo‘lini bula.

Mazmuni: Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra, ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla [1.40-bet]. Darhaqiqat, Adib Ahmadning ilmni baxt va saodat yo‘li deb belgilashi tasodifiy emas. Insoniyat farzandi ilm orqali o‘zini jaholat, nodonlik, gumroxlik singari ofat va balolardan xalos etadi. Ikkinchidan, u Haqni botildan farqlab, dunyo va hayot sirlarini bilish imko- niyatiga erishadi. Eng muhimi, ko‘nglini o‘tkinchi orzu-havaslardan muhofaza aylaydi.

Hech bir e’tiroz yo‘qki, Adib Ahmad ilm va uning fazilatlari haqida so‘z yuritganda, eng avvalo, din va shariat ilmini nazarda tutgan. Shu o‘rinda u ilmni faqat din doirasida tushunib, talqin qilgan deyish ham haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Uning uchun adab, nafs tarbiyasi, komil inson martabasiga ko‘tarilish xam bevosita ilm bilan aloqa dor edi.

Bir tasnifga ko‘ra, Sharqda ilm ikkiga ajratilgan. Birinchisi, o‘qish va mantiqiy fikrlash orqali egallanadigan ilm. Bunga kasbiy ilm deyilgan. Ikkinchisi, vahbiy ilm bo‘lib, u Olloh tomonidan kalbga berilganligi uchun ma’- rifat deyilgan. Diniy ilmlar ham ikki turga bo‘linadi: 1. Muomala ilmi. 2. Mukoshafa ilmi. Muomaladan maqsad insonning amali, axloki va ibodatini o‘rganishdan iboratdir. Muomala ilmi ham o‘z navbatida ikki qismga bo‘lingan: ilmi zohir va kalb fe’llarini o‘rganuvchi ilmi hakikatdir. Mukoshafa ilmi deb so‘zdan emas, hol orkali bevosita Haqdan olinadigan ilmga aytiladi. Dunyodagi barcha ilmlar haqiqatni bilish va dunyoning sir-asrorlarini kashf etib, insonni komillashtirishga xizmat qiladi. Sharqning ilg‘or fikrli olim va oriflarining e’tirofiga ko‘ra, kimyo, matematika, fizika, astronomiya kabi fanlarning hammasida ham xayrli maqsadlar bor. Botiniy ilm axloq va haqiqat ilmi bo‘lganligi uchun uni egallash ancha qiyin bo‘lgan. Ahmad Yugnakiyning ilm va ma’rifat to‘g‘risidagi fikrlariga chuqurroq nazar tashlansa, bu buyuk mutafakkirning axloq va haqiqat ilmiga tayanib, fanning barcha tarmoqlarini o‘qib o‘rganishga da’vat qilganligi sir bo‘lmay qoladi. Shuning uchun shoir ilm tushunchasini keng miqyosda qabul qilib, ham diniy, ham dunyoviy ilmlar xususida mushohada yuritganligini, albatta, hisobga olish lozim. «Biz erkak deb yurgan kishilardan ko‘plari xotundir. Xotun deganimiz zotlar orasinda haqiqiy eranlar (avliyoulloh) esa bisyor», degan ekan Ibn Arabiy. Xuddi shunga o‘xshash gap Fa- rididdin Attorning «Tazkirat-ul avliyo» asarida Robiya al-Adaviyya munosabati bilan ham aytilgan. Bunda hadisda zikr etilgan «Olloh sizning shakllaringizga emas, niyatlaringizga boqar», — degan fikrga asoslanilgan [3]. E’tiborli tomoni shundaki, Farididdin Attor va Ibn Arabiy kabi allomalardan ancha oldin Adib Ahmad «Biliklik tishi er, johil er tishi» (bi- limlik xotin kishi — er kishidir, bilimsiz erkak — xotin kishidir) degan hukmni bayon qilgan. N.S. Banarlining ta’kidlashicha, Adib Ahmadning bilimli ayolni erkak bilan teng ko‘yishi yangi ijtimoiy nuqtayi nazarning ifodasi bo‘lib, «Bu nuqtayi nazarga ko‘ra, ayol islomi- yatning ilk asrlaridan boshlab eski turk qavmlari muhitida yuksak mavqega ko‘tarilganligidan dalolat beradi». Ma’lumki, o‘tmishda ilm va ma’rifat bir-biridan kat’iy tarzda ajratilmagan bo‘lsa-da, ular ayni bir narsa deb ham qaralmagan. Xaqqoniy ma’rifat esa

ilhomga tayangan vositasiz ilm, ya’ni irfon demakdir. Shuningdek, Ollohni tanish va bilish ilmiga ham ma’rifat deyilgan. Adib Ahmad «Bilik birla bilinur to‘ratkan idi — yaratgan tangri ilm bilan taniladi», — deydi. Shu yerda shoirning eran, ya’ni avliyoulloxdan baxs yuritishini ko‘zdan kechirsak:

So‘ngakka tek eranga bilik,
Eran ko‘rki aql o‘l, so‘nakning yilik

so‘ngakda ilik bo‘lishi lozim ekanligi kabi er kishiga bilim kerakdir, er kishining ko‘rki akldir, so‘ngakning ko‘rki esa ilikdir [1.41-bet], deyishi xam bevosita ma’rifat bilan bog‘liq. Bunday xulosaga kelishimizning yana bir sababi shundaki, Adib Ahmad tiriklikning tub mazmuni va inson uchun abadiyat sirini kashf qilishni xam ma’rifat egallashda ko‘radi. U bilimsiz, ma’rifatsiz umr kechirishni hayot hisoblamaydi. Ming ilmsizdan birgina ilm va ma’rifat sohibini ustun qo‘yadi: Biliklik biringa biliksiz mingin, Tengakli tengadi bilikning tengin. Mazmuni: Bilimlikning biri bilimsizning mingiga teng, ilmli kishilar ilmning qadriga yetadi [1.42-bet]. Adib Ahmad bu bobdagi bayt va misralarning deyarli har birida «biliklik» va «biliksiz» so‘zlarini qo‘llaydi. Biliklikning fe’l-atvori, fazilat va hakiqatlari nimayu, biliksizning taqdiri va zavoli nimalardan iboratligini do- nishmandlik bilan tavsiflab beradi.

Uningcha, zar qadrini zargar biladi deganlaridek, bilimli odam ilmning moxiyatini anik anglaydi va uni qadrlaydi. Ikkinchidan, u nima ishga qo‘l ursa, bilib qiladi va keyin pushaymon qilmaydi. Bilimdon odam faqat botinda emas, zoxirda ham boshqalarga namuna ko‘rsata oladi. Chunki, u hech qachon keraksiz so‘zni ishlatmaydi va undan voz kechishga qodir bo‘ladi:

Biliklik keraklik so‘zin so‘zlayur,
Keraksiz so‘zini ko‘mub kizlayur.

Mazmuni: Bilimli kishi kerakli so‘zni so‘zlaydi, keraksiz so‘zni ko‘mib yashiradi [1.45-bet]. Shu tariqa bilimli kishi o‘zining hikmatli so‘zlari, adab va tavoze’korligi bilan Arabu Ajamda olqishga sazovor bo‘ladi. Bu kabi xislat va fazilatlardan benasib kolgan bilimsizlarning har qanday kulfat va fojeaga giriftor bo‘lishini Yugnakiy shunday asoslaydi:

Biliksizga haq so‘z tatiqsiz erur,
Anga pand-nasihat osigsiz erur.
Ne turluk ariqsiz arir, yuv desa,
Johil yup arimas arigsiz erur.

Mazmuni: Ilmsizga to‘g‘ri so‘z ma’nosizdir, unga o‘git-nasihat foydasizdir. Bir qancha yuviqsizlarga yuvinish uchun buyurilsa toza bo‘lur, ammo johil qancha yuvinmasin pok bo‘lmaydi (44-bet). Bir qarashda, Ahmad Yugnakiyning ilmning manfaati va jaholatning zarari hakidagi bunday qarashlari ancha jo‘n va oddiy bo‘lib tuyuladi. Aslida esa, bu mutafakkir ijodkor eng zarur so‘z va tushunchalarga tayanib, ilmli odamning barcha zamonlar uchun birdek ataladigan badiiy ta’rifini beradi hamda o‘quvchi tasavvurida uning jonli siymosini yaratadi. Uning qiyofasini ko‘z oldingizga gavdalantirmoqchi bo‘lsangiz, tabiiy tarzda ilmni sevguvchi va ilm egallash uchun zahmat chekuvchi, axloq-odobi baland bir dono odamning qiyofasi namoyon bo‘ladi. Ehtimol, ana shuninguchun ham asarning keyingi bo‘limlarida muallif nuqtayi nazari bilan ma’rifatparvar shaxsning nuqtayi nazarlari o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldirib

borganga o‘xshash bir taassurot hosil qiladi. Masalan, tilni tiyish va odob-axloqqa bag‘ishlangan qismdagi fikrlarni olaylik. Albatta ular, eng avvalo, Adib Ahmadga tegishlidir. Lekin ayni paytda ulardagi biror bir jumlani ham bilimli kishilarga begona yoki ularning mu- shohadasidan yiroq jumlalar deyish mumkin emas. Demak, shoir asarida o‘z davri ilm ahlining ilg‘or qarashlarini umumlashtirishni ko‘zlagan va buning uddasidan chiqqan deyishga asosimiz bor. Buning bir sababi shuki, asardagi bir qator baytlar mazmun mohiyati bilan xalq maqollariga nihoyatda yaqin turadi:

Sonip so‘zlagan er so‘zi so‘z sogi,
O‘kush yangshagon til ay olmas yogi

Mazmuni: O‘ylab so‘zlagan kishining so‘zi to‘g‘ridir, o‘rinsiz ko‘p vaysagan til shafqatsiz yovdir (47-bet). Bu baytni o‘qiganda xalqimizning til odobi, xususan, tilni asrashga oid «O‘ynab so‘zlasang ham o‘ylab so‘zla» kabi maqollari xayolga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmad Yugnakiy. «Hibatul-xaqoyik». -Toshkent, 1971 yil.
2. Fitrat A. «Qutadgu bilig». «Maorif va o‘qitg‘uvchi», 1925, 2-son, 42-bet.
3. Farididdin Attor, «Tazkirat-ul avliyo». -Toshkent, 1997, 145- 155-betlar.
   «O‘zbek adabiyoti». 1-tom.-Toshkent, 1959, 61-69-betlar.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KITOBXONLIKKA OID IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Yuldashev Shuxrat Shakirovich
GulDU katta o‘qituvchisi
Yuldasheva Z.S.
Guliston shahar San’at maktabi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Kitob insonlarni qanday yashashga o‘rgatadi, yaxshi bilan yomonni, do‘st bilan dushmanni, munofiqlik bilan oliyjanoblikni, baxillik bilan saxiylikni bir-biridan farqlashga o‘rgatadi. Shu bois bolada yoshligidan boshlab kitobga mehr uyg‘otish lozim

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, ta’lim, oliy ta’lim, o‘qituvchi, o‘quvchi, an’anaviy ta’lim, ta’lim strategiyalari.

Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga zamonaviy pedagagik texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. [1, 36-b]

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. Bolani qalban yuksak ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror odob-axloq qoidalar doir bilimlarni o‘rgatish, e’tiqodiga aylantirish, komillikka yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo‘lamiz. [1, 23-b]

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada bolani kitob bilan ishlashga o‘rgatish muhim

ahamiyatga ega. Kitob insonlarni qanday yashashga o‘rgatadi, yaxshi bilan yomonni, do‘st bilan dushmanni, munofiqlik bilan oliyjanoblikni, baxillik bilan saxiylikni bir-biridan farqlashga o‘rgatadi. Shu bois bolada yoshligidan boshlab kitobga mehr uyg‘otish lozim. [1, 26-b]

Bu yo‘nalishda, «Kitobxon» kunlari va «Kitobxon oyliklari»ni tashkil qilish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bu yil ham «Men kelajak mevasiman» loyihasi asosida har haftaning chorshanba, payshanba kunlarini, undan tashqari mart oyini «Kitobxon oyliklari» deb belgiladik. Shu asosida o‘quvchilarda kitob o‘qishga bo‘lgan mehr, qiziqish shakllantirib borildi. [2, 36-b]

Hikoya va ertakdagi badiiy obrazlarni tahlil etish ham o‘quvchilarni asar ustida ishlashga, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan insonda atrofdagi voqea-hodisalarga teran koz bilan qarash, ularga o‘z fikrini bildira olish, o‘zgalarning so‘ziga osongina o‘g‘ishmaslik, o‘zi uchun nima to‘g‘ri, nima xatoligini anglash, yangiliklar, o‘zgarishlar kiritish kabi xususiyatlar asosida mustahkam e’tiqod va ma’naviy barkamollik shakllanadi.

O‘quvchi asarni o‘qib bo‘lgandan so‘ng ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilaman.

- Asar sizga yoqdimi?
- Asar qahramoni bilan do‘stlashishni xohlarmidingiz?
- Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz?

O‘quvchilarning ish daftariga topshiriqlar berib, o‘rganilganlar yanada mustahkamlandi va to‘ldiriladi. Bunday tahlillar o‘quvchilarni kitobga yaqinlashtiradi, bolada kitobni faqatgina o‘qib qolmasdan uni to‘la tushinish, uqishga xizmat qiladi .

Bolalarning fan, madaniyat, sport, san’at va boshqa sohalarda qobiliyatlarini aniqlash va ulani yanada rivojlantirish, shu sohalar haqidagi bilimlarini oshirish maqsadida, o‘quv yilining har bir oyida oyliklar va tanlovlar tashkil qilganmiz. Jumladan, «Husnixat», «Eng yaxshi ijodkor», «Eng yaxshi kitobxon», «Eng yaxshi matematik»lar shular jumlasidandir. [2, 45-b]

Oyliklar va tanlovlarning yakuniy qismi hisobot shaklida may oyida «E’tirof» tadbiri bayram sifatida nishonlanib, g‘olib o‘quvchilar nominatsiyalar bilan taqdirlandi.

Sinfdan tashqari olib boriladigan oyliklar, tanlovlar, turli uchrashuvlar, tadbirlar, intelektual o‘yinlar, ochiq darslar, ochiq tarbiyaviy darslar ham o‘quvchining qobiliyat, iqtidor, ijodkorliklarini rivojlanishiga yordam berib, qiziqishlarini oshiradi. Erkin, mustaqil fikrlovchi shaxs qilib tarbiyalab, ma’naviyatini boyitadi. [3, 56-b]

Mamlakatimiz ta’lim tizimida maktab fanlarini o‘qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo‘lgan o‘quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo‘lishidir.

Kar bolalar maktablarining boshlang‘ich ta’lim - ta’lim tizimining poydevori hisoblanib, o‘quvchilarni o‘qitish sifati unga bog‘liq bo‘ladi va bu boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari keyingi ta’lim olish uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta’lim

bosqichi hisoblanadi. [3, 58-b]

O‘quvchilar faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta’lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun ta’lim jarayoniga AKT joriy etilmoqda.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish kar bolalar maktablarining o‘quvchilarida mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko‘nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta’limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Multimedia- darsliklar o‘qitishning barcha bosqichlarini avtomatlashtirishga qaratilgan, ya’ni o‘quv materialini tushuntirishdan boshlab to bu bilimni nazorat qilish va yakuniy baho qo‘yishgacha. Har bir o‘quvchida shaxsiy o‘quv yo‘nalishini rivojlantirishni ta’minlaydi. [3, 86-b]

O‘quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo‘lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi; o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Tula asarlar tuplami (20 jildli). - T.: 1987-2000.
2. Aziz Kayumov.“Saddi Iskandariy” (Alisher Navoiy xakida) - Toshkent, 1975.
3. Aziz Kayumov. —Alisher Navoiy”, “Ajoyib kishilar xayoti” -Toshkent, 1991.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Yuldashev Shuxrat Shakirovich

Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Pandemiya davridagi eng maqbul ta’lim shakli sifatida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida joriy etildi. Biroq, u an’anaviy ta’lim kabi samarali natijalarga erisha olmaganini ko‘plab tadqiqotlar asoslamoqda. Shu bois, onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda yaxshi samara berishi mumkin bo‘lgan ta’lim strategiyalarini aniqlashga oid izlanishlar olib bordik. Maqolaning empirik asosini talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma, metodologik asosini mavzuga oid nufuzli jurnallarda nashr qilingan ilmiy maqolalar tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: onlayn ta’lim, oliy ta’lim, o‘qituvchi, o‘quvchi, an’anaviy ta’lim, ta’lim strategiyalari.

Ijobiy va salbiy tomonlari haqida to‘liq bilim va tasavvurga ega emasliklaridan kelib chiqadi. Shuning uchun birinchi navbatda onlayn o‘qishning umumiy xususiyatlariga e’tibor qaratsak. - O‘quvchi o‘qish bilan bir qatorda o‘ziga ma’qul ish bilan ham shug‘ullanishi mumkin. Aslida onlayn o‘qishni tanlagan o‘quvchilarning asosiy qismi o‘z ishidan voz kechishni istamaydigan, ammo bilim olishni xohlaydiganlardir. Onlayn ta’limda siz dam olish kunlari, ishdan qaytganingizda hatto yarim kechada o‘qishingiz mumkin; - Mablag‘ingiz tejaladi. Har qanday dastur uchun masofaviy ta’lim darajasi (Internetda yoki boshqa usulda), o‘quv markazlaridagi oddiy

to‘lovdan ko‘ra ancha arzonroq bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan maqbul variantlarni qidirayotgan o‘quvchilar uchun onlayn ta’lim - eng to‘g‘ri yo‘l; - Vaqtingiz tejaladi. O‘quv markazlariga borish va qaytish vaqtida transport kutish uchun ketadigan vaqtingizni tejashingiz mumkin. Onlayn ta’limda siz istagan joydan turib ma’lumot olasiz. - O‘z-o‘zini rivojlantirish yoki aksincha, bilimlarni rivojlantirishdan ortda qolish mumkin. Onlayn darslarda tinglash, tasavvur qilish qobiliyati kuchliroq bo‘lgan talabalarning o‘quv predmetlarini o‘zlash– tirishi sekin tushunuvchi, jonli muloqot orqali ko‘proq ma’lumot olishga moyil o‘quvchilardan yaxshiroq bo‘ladi; - Chalg‘ish ehtimoli yuqori. Onlayn ta’limda yuzma-yuz muloqot qilish uchun o‘qituvchilar va kutilayotgan topshiriqlar haqida doimiy ravishda eslatuvchi sinfdoshlar yo‘q. Agar masofaviy o‘qitish kursini muvaffaqiyatli yakunlamoqchi bo‘lsangiz, o‘zingizni g‘ayratli va diqqatli qilishingiz kerak; - AKTga tobelik. [1, 23-b.]

Onlayn o‘qishning eng katta dushmani bu internet provayder– larining sekin ishlashi yoki aloqa uzilib qolishi. Bu vaziyatda o‘quvchining ta’lim olishga bo‘lgan intilishi so‘nib, asabiylashishiga sabab bo‘ladi. Bilamizki, xoh an’anaviy (yuzma-yuz) yoki onlayn ta’lim olish bo‘lsin ta’lim jarayonining markazida o‘qituvchi turadi.

Pedagoglar har qanday ta’lim muhitida bilim berish va o‘rgatishning ajralmas qismidir; ular asosan darsni rivojlantiradi, tuzilishi va tartibini saqlaydi, o‘quvchilar qatnashishni rag‘batlantiradi va bilim beradi. Shunga ko‘ra, onlayn darsni sifatli o‘tishda o‘qituvchilardan talab qilinadigan ayrim professional malaka– larni keltirib o‘tamiz: 1. Texnologiyani bilish. Avvalo, o‘quv mashg‘ulotlaridan oldin o‘qituvchi o‘quvchilar foydalanadigan AKT imkoniyatlarini yaxshi bilishi kerak. Texnik yordam xizmatlari mavjud bo‘lsa-da, o‘qituvchi o‘quvchi uchun birinchi yordamga keluvchidir. [1, 29-b.]

Muhim strategiyalardan biri - o‘qituvchilarning o‘quvchilarga texnik ko‘mak uchun qaerga murojaat qilish kerakligi to‘g‘risida aniq ma’lumot berishidir. Ya’ni, o‘qituvchilardan texnik yordam so‘ralganda o‘quvchilarni boshqa qulay xizmatlarga yo‘naltirishlari kerak (web platformalar, qulay brauzerlar, qidiruv hizmatlaridan foydalaniish kabi).

Talabalar uchun texnik yordam xizmatlari mavjud bo‘lsa-da, o‘qituvchilar shunga qaramay yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilishga tayyor bo‘lishlari maqsadga muvofiq. Sinxron muhokamalar yoki real vaqtda jamoa mashg‘ulotlar paytida, masalan, texnik muammolarni hal qilish qobiliyati dars vaqtini tejaydi. 2. Faollik, yaratuvchanlik. Onlayn o‘qish passiv, o‘z ustida ishlamaydigan o‘qituvchilarning joyi emas. Tadqiqotlarga nazar solsak, o‘quvchilarning fikricha, onlayn dars o‘tuvchi o‘qituvchilardan ko‘ra an’anaviy dars o‘tuvchi o‘qituvchilarni ko‘proq his qila olishlarini ta’kidlashgan. Chunki jismoniy yaqinlik, o‘qituvchiga hech qanday nutqsiz ham faol ishtirokini ta’minlaydi. Onlayn ta’limdagi o‘qituvchidan jismoniy yaqinlik bo‘lmaganligi uchun ko‘proq faollik talab qilinadi. [1, 53-b.]

O‘qituvchi darsning birinchi kunidan oldin ham barcha talabalarga tabrik xati yoki iloji bo‘lsa video habar jo‘natishi talabalarning qiziqish va motivatsiyasini kuchaytiradi, ertangi onlayn mashg‘ulotga aniq maqsad bilan ulanadi. Dars davomida talabalarning faolligini kuchaytirish usullarini aniqlashi, masalan, muntazam va xilma-

xil og‘zaki muloqot yoki og‘zaki bo‘lmagan muloqotdan, masalan, smayliklardan foydalanishi ham yaxshi natija beradi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida muvaffaqiyatli deb topilgan ayrim strategiyalarni kelirib o‘tamiz: asosiy tezkor habarlardan ko‘ra video suhbatdan foydalanish, mavzular doirasida munozaralar tashkil etish (telegram gruppada so‘rov yoki mavzu bo‘yicha viktorina o‘tkazish), savollarga tezkor, muntazam va ochiq javoblar berish va hokazo. 3. O‘quv mashg‘uloti bo‘yicha aniq taxminiy natijalarni belgilash. Onlayn dars beruvchi o‘qituvchi darsning aniq tahminlarini (o‘quv natijalariga nisbatan) ertaroq belgilab qo‘yishi kerak. O‘qituvchilarning virtual platformalardagi o‘quv natijalari, odatda an’anaviy darsdagidan farq qiladi. O‘rganilgan manbalarga ko‘ra, onlayn jamoada o‘qituvchilar o‘quvchilarning ishtirokiga ko‘proq e’tibor qaratishlari talab etiladi.

O‘quvchilarga fanni o‘zlashtirishda belgilanadigan baholash mezonlarining oldindan e’lon qilinishi ham onlayn darsdagi davomatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchilar virtual mashg‘ulotda nima uchun ishtirok etayotgani, dars uchun harjlayotgan vaqt va mablag‘ undan olinadigan bilim mazmuniga mos keladimi yoki yo‘qmi aniq belgilab olishiga ta’sir qiladi. Bir so‘z bilan aytgancha, onlayn ta’limda — tasodifiy talaba bo‘lmaydi. Shu ma’noda o‘quv maqsadlariga etishish darajasi yuqori bo‘ladi. Shuningdek, o‘qituvchi talabalarning fanga oid savollariga tezda javob berishlari ham muhim ahamiyatga ega. Javob berish vaqti va vositalarining parametrlarini birinchi mashg‘ulotdayoq aytib qo‘yish ham o‘qituvchining mas’uliyatli ekanligini bildiruvchi omillardan biridir. Masalan, o‘qituvchi elektron pochta habarlariga bir ish kuni ichida javob qaytarishini va agar biron sababga ko‘ra u ushbu talabni qondirmasa, buni ma’lum qilishi kerak. Tezkor javob berish davrida talabalar o‘qituvchidan bir necha soat ichida elektron pochtaga javob berishini kutishadi, agar o‘qituvchi javob bermasa, talaba aloqani uzishi mumkin. 4. Qulaylik hissi. Virtual muhit onlayn ta’limni birinchi bor boshlagan o‘quvchilar uchun yangi va hali sinalmagan bo‘lganligi bois ularda ikkilanish va xavotirlik bo‘lishi tabiiy. Qo‘rquv, xavotir va yakkalanish hissi charchash darajasiga olib kelishi mumkin, shuning uchun o‘qituvchilar barcha o‘quvchilarga qulaylik hissini beradigan muhit yarata olishlari lozim. O‘qituvchilarning bu mahorati fanni o‘qitishga bo‘lgan ishtiyoq, kasbiy bilim va qiziqish hissiyotlarini ko‘rsata olishlarida namoyon bo‘ladi. [1, 69-b.]

Pedagogik mahorat va o‘z mutaxassisligini chuqur bilish o‘qituvchining eng katta yutug‘idir. O‘quv jarayonining ikki tomonlama munosabatlarga asoslanganligini hisobga olsak, o‘qituvchilarning samarali dars o‘tishi o‘quvchilarning ham onlayn ta’limga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq ekanligini eslab o‘tish o‘rinli. Virtual ta’lim sub’ektlarning o‘qishga ishtiyoqi o‘qituv–chilar tomonidan etkaziladigan chuqur bilim, kasbga qiziqtirish, kelajakka ishonch uyg‘ota olish kabilar bilan bog‘liq. O‘quvchilar tomonidan ishtiyoqsiz, virtual pedagogik mahorati etarli emas deb qabul qilingan o‘qituvchilar o‘quvchilarda mashlug‘lotlarda ishtirok etishda ikkilanish, asabiylashish hislarini keltirib chiqaradi. Shu sababdan avval boshidan o‘qituvchi tomonidan tashkil qilingan qulaylik hissi o‘quvchilar motivatsiyasini oshirib, ijobiy muhitni yaratishiga e’tibor qaratish lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘qituvchilar o‘quvchilarni darsga qatnashishini ta’minlab turuvchi, lozim bo‘lsa kafolatlovchi jamoat madaniyati modelini

tashkillashtirishi kerak. 5. Sifatli asenkron muhokamalar orqali mulohaza va muloqotni targ‘ib qilish. Ishtirokchi o‘z sheriklaridan o‘rganishi va munozaraga ongli ravishda hissa qo‘shishi uchun, mulohazali javob berishdan oldin darsning boshqa a’zolari sharhlari haqida fikr yuritishi kerak. Tadqiqotlarga ko‘ra, yaxshi o‘qituvchi bunday fikr yuritishni qanday targ‘ib qilish kerakligini biladi. Onlayn ta’lim beruvchi o‘qituvchining muvaffaqiyatli strategiyalari qatoriga asenkron muhokamaning davriylik xususiyatini tushunish va joylashtirilgan mavzuni munozara paytida uzilib qolmasligi muhimligini anglash kiradi.

Mahoratli o‘qituvchi doimiy ravishda mulohaza yuritish va muhokama qilish uchun imkon beradigan mavzular bilan mashg‘ulotlarni tashkil qiladi. Shu o‘rinda — sinxron, va — asinxron tushunchalariga qisqa ta’rif berib o‘tsak. Onlayn o‘rganish sinxron deb aytilsa, bu real vaqt rejimida amalga oshiriladigan onlayn yoki masofaviy ta’lim degan ma’noni anglatadi, ayni paytda asenkron ravishda o‘rganish onlayn kanallar orqali real vaqt rejimida o‘zaro aloqasiz amalga oshiriladi. Sinxron va asenxron – tarzda ishtirok etishning monitoringi, onlayn o‘qitishning zarur tarkibiy qismidir. Shuning uchun o‘quvchilar o‘quv jarayoni dinamikasini, mavzular muhokamasi va munozaralarni doimiy ravishda tashkil qilib kuzatib boradigan va bunday imkoniyatlar berilmagan taqdirda ishtirokchilarning fikrlarini so‘rab turadigan o‘qituvchini afzal ko‘rishadi.

O‘qituvchilar ishtirok etish masalalarini muhokama qilish uchun talabalar bilan alohida, oflayn rejimda ham bog‘lanishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu aloqa, ishtirokchining suhbatlarni o‘z zimmasiga olgani va boshqa shaxslarning imkoniyatlariga ruxsat bermasligi natijasida ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun munozaralarga munosib va teng ravishda imkoniyatga ko‘maklashish mavzu bo‘yicha muhokamalarni doimiy ravishda kuzatib borishni talab qiladi. Onlayn ta’lim o‘qituvchisining har bir o‘quvchi va jamoa bajarayotgan ishni to‘g‘ri nazorat qila olishi muhim ahamiyatga ega. 6. Faol rahbar va kuzatuvchi muvozanatini me’yorda saqlash. Onlayn o‘qituvchilar uchun yana bir muhim strategiya bu - o‘quv menejeri sifatida darsni boshlash qobiliyati; bu o‘quv jamoasida katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. [1, 66-b.]

Dars davom etar ekan, o‘qituvchi ta’lim boshqaruvchisi vazifasini o‘quvchilar jamoasiga bosqichma-bosqich topshirishi kerak. Ushbu vazifa onlayn hamjamiyatni qurish bilan bog‘liq strategiyalarni samarali amalga oshirish va asta-sekin jamoat muhokamalaridan voz kechish orqali amalga oshiriladi. Dars oxirida har bir ishtirokchi o‘zini o‘zi boshqaradigan o‘quvchi sifatida harakat qilishi kerak. Shu jarayonda bilim ko‘nikma, ko‘nikma malaka va malakalar kompetentsiya darajasiga ko‘tarila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R.A.Mavlonova, X.R.Sanoqulov, D.P.Xodieva. “Mehnat va uni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. 2007 yil TDPU.

2. X.R.Sanaqulov, M.Xaydarov “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar” o‘quv-metodik qo‘llanma 1996 yil. TDPU.

3. X.R.Sanaqulov, D.P,Xodieva. «Boshlang‘ich sinflarda tabiiy materiallardan amaliy ishlar» o‘quv-metodik qo‘llanma 2009 yil. TDPU.

TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Yuldashev Shuxrat Shakirovich
GulDU katta o‘qituvchisi
Yuldasheva Z.S.
Guliston shaxar San’at maktabi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Innovatsion ta’lim kabi samarali natijalarga erisha olmaganini ko‘plab tadqiqotlar asoslamoqda. Shu bois, onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda yaxshi samara berishi mumkin bo‘lgan ta’lim strategiyalarini aniqlashga oid izlanishlar olib bordik. Maqolaning asosini talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma, metodologik asosini mavzuga oid nufuzli jurnallarda nashr qilingan ilmiy maqolalar tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, oliy ta’lim, o‘qituvchi, o‘quvchi, an’anaviy ta’lim, ta’lim strategiyalari.

Mehnat darslarida turli mehnat faoliyat turlaridan foydalanish jarayonida o`quvchilar tomonidan to`planuvchi tajribalarning texnologik operatsiyalarni bajarish sohasidagi bilim va malakalarining muhim asosini tashkil etadi.[1, 33-b]

Mehnat darslarida o`quvchilar faoliyatining muhim natijasi bu ularning o`rganilayotgan ob`yekt va hodisalarning yangi belgi va xususiyatlarini yanada mustaqil aniqlash, darsdan darsga yanada ham aniqroq va tizimlashtirilib boruvchi xulosalarning chiqarilishidir. Masalan, darslarning birida o`qituvchi o`quvchilar oldiga qog‘oz turlarini aniqlash, qog‘ozning ko`pgina vazifasiga ega bo`lgan material sifatida umumiy xususiyatlarni hamda qo`llanish va foydalanishning cheksiz miqdordagi shartlarini ta`riflash vazifasini qo`yadi.

O`quvchilar tomonidan bajariluvchi kuzatishlar va tajribalarning muhim natijasi – hayot bilan bog‘liqlik, bunda olingan bilim va malakalarning joriy o`quv ishlarida, mehnat daslarida turli buyumlarni tayyorlashda amaliy qo`llanishidir. [1, 35-b]

Kichik maktab bolalarini nafaqat ko`ra olishga, balki o`tkaziluvchi kuzatishlar maqsadini qo`ya olish, eng oddiy, amalga oshirish mumkin bo`lgan tajribalarni tashkil eta olish, o`z kuzatishlaridan xulosalar chiqara olish va bu xulosalardan mehnat jarayonida foydalana olishga o`rgatish juda muhim. [1, 38-b]

O`qituvchi tomonidan tashkil etiluvchi ko`rsatishlar, kuzatishlar va tajribalarning ko`p qismi odatda o`quvchilar oldin mashg‘ulotlar, suhbatlar, ekran qo`llanmalarini ko`rib chiqish jarayonida o`zlashtirgan o`quv materialini takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu holda maxsus topshiriqlar va rejalar bo`yicha bajariluvchi kuzatishlar va tajribalar kichik maktab o`quvchilariga ularning bilimlarini tizimlashtirish, ularni to`ldirish va aniqlashtirish, boshqa o`quv fanlari bo`yicha olingan bilimlar bilan bog‘lash,

bilimlarning amaliy ishni bajarish uchun ahamiyatini aniqlash uchun xizmat qiladi. [1, 43-b]

Turli materiallarning bir turdagi xususiyatlarni aniqlash va taqqoslash uchun o`tkaziluvchi kuzatishlar va tajribalar katta foyda beradi, masalan, qog‘oz va gazlamani, loy va plastilinni, iplar va qog‘oz shpagati, qog‘oz va plastmassa plyonkalarni. Bunda bajariluvchi taqqoslashlar muhim politexnik ahamiyatga ega bo`lib, bolalarga materiallarning farqli xususiyatlari, sifatlarini yaxshiroq o`zlashtirishga yordam beradi.

Qaychidan foydalanish qoidalari.

1. Qaychini belgilangan joyda, belgilangan holatda qakla.
2.Qaychini uchini yuqoriga qilib ushlama.
3. Qaychini ochiq holda qoldirma.
4. Qaychini yurib turganingda ishlatma.
5. Qaychini faqat yopilgan holda uchidan ushlab o‘rtog‘ingga uzat.
6. Qaychini shlatayotganda kesilishning yo‘nalishi va materialni ushlab turgan chap qo‘l barmoqlarini kuzatib tur.
7. Yaroqsiz qaychini ishlatma, o‘qituvchiga topshir.

Applikatsiya – badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidar. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yin uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar, shu kabilarni yaratishdan keng qo‘llash imkonini beradi. [1, 58-b]

Applikatsiya tushunchasi xususiyatlari va materiallariga ko‘ra xilma-xil bajarilishi texnikasining o‘xshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini o‘z ichiga oladi. Har bir material applikatsiyasi bajarilish texnikasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qogoz, limon, daraxlar po‘stlog‘lari, fonga turli yelimlar bilan yopishtiriladi. [1, 63-b]

Mehnat darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli uyinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qahramonlari yasaladi. O‘yinchoq – dekorativ san’atning eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, qadim asarlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimizda sanoat va madaniyatning rivojlanib borishiga ko‘ra uyinchoqlarni assortimenti, ularning obrazlari yildan-yilga boyib bormoqda. O‘yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi. [1, 77-b]

Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va suhniy (neftdan olingan) turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi.

O`qituvchi tomonidan tashkil etiluvchi kuzatishlar va tajribalar,ko`rsatib berishlar kabi odatda ikki bir-birini to`ldirib turuvchi maqsadni ko`zlaydi: bir tomondan, u yoki bu hodisa yoki natijalarni kuzatishda, o`quvchilar ma`lum xulosalarga kelishadi, ular bajaradigan amaliy ishlari uchun bevosita ahamiyatga ega bo`lgan xulosalar chiqaradilar; ikkinchi tomondan oldindan xulosalarni bilib,

o`quvchilar o`z bilimlariga maxsus kuzatishlar va tajribalarda tasdiqlanishlar topadilar, ularning bilimlari mustahkamroq, ongliroq bo`ladi, bu esa amaliy ishlar sifatida o`z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotalar ro‘yxati

1. X.Sanaqulov, M.Haydarov. “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar”. 1996 yil.

THE ROLE OF THE FAMILY, NEIGHBORHOOD, AND SOCIETY IN PEDAGOGICAL SUPPORT OF THE SOCIALIZATION OF STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION

Yo‘ldosheva Sharofatbonu Bexzod qizi
Student of Tashkent State Pedagogical University

Abstract: This article talks about the role of the family, school, neighborhood in pedagogical support, education, upbringing and development of the worldview of students of primary school age, and their influence on children in this regard. A child needs the support of family members in upbringing, education, and socialization. The place and role of the family and family members in the socialization of a young child is a current topic, and this topic is discussed in this article.

Keywords: Socialization, “soft skills”, education, upbringing, teacher, family, society, child's personality, worldview, parents’ relationship in the family, friends.

From the first years of independence, attention has been paid to creating a physically healthy and intellectually mature person in our republic. Programs and plans of state significance have been developed for specific, purposeful implementation of work in this regard [4, p. 3].

As stated by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, “Education of young people with high morale, modern knowledge and skills, independent opinion in the spirit of national and universal values is one of the most important issues for us”[1, page 86]. Therefore, from the elementary school classes, the upbringing of children as patriotic, humanitarian, hardworking, intellectually mature, creative thinkers, with high intellectual thinking is largely due to the education given to them in the family and in the process of education. depends on the effective use of the educational system.

It is necessary to prepare young people to think freely, to form their ability to manage and control themselves, to have a purposeful approach to their personal work, and to awaken a sense of unity of plan and action. The future of any society depends on the education and upbringing of the young generation. Only such a generation is able to fulfill the tasks of national importance facing the country and determine the historical fate of its people.

Every person is born and grows up, tries to find his place in life, sets goals for himself and strives to achieve these goals. In this way, he needs helpers and professional people. At this point, let’s recall the wise words of the famous writer Abay Qo‘nanbayev in his work “Naqliya so‘zlar”: “Time takes care of a man's child. If

someone is bad, it is the fault of his contemporaries". Today, education and education of young children is one of the topics that is the focus of many scientists, statesmen, as well as the entire nation and is the cause of many discussions. This wisdom in "Naqliya So'zlar" is another proof that not only the school or the teacher, but also the family, neighborhood, let's say the whole society has an incomparable role in educating the young generation as a knowledgeable, intelligent, mature person who contributes to the development of the Motherland. is a proof [3, page 48].

Society members have a great role in the formation of a person as a person. Just one example is Mowgli, the cartoon or movie that we all love to watch, which is based on real life events. Mowgli's growth as a wolf is not caused by him, but by the members of the society around him, that is, the wolves. Even when he returns to the people, he cannot forget his habits, living like a wolf, and the forest. People cannot become members of the community. Why? Because he grew up among wolves, grew up, developed the skills of wolves in order to live. That is, he was grown up by the wolf community.

Now let's consider the role of human society in the education of the young generation. It is not for nothing that, along with other social institutions, great attention is paid to the family factor in ensuring the bright future of our country. Therefore, what should we do first in order to form individuals who are able and ready to make a decent contribution to the overall development of our country in the family environment. First of all, the task of establishing the sense of Motherland in the minds, consciousness, and spirituality of the growing young generation is considered a fateful task for our people. After all, family has been considered a sacred Motherland since ancient times. After all, loyalty to the family, loyalty to parents, and love for brothers and sisters are the preludes of the feeling of the Motherland. Where there is no sincere devotion to the family, there is no parental respect for the children. In such a case, there is no love for relatives, neighborhood, or country. For this reason, President I.A. Karimov said, "we need to understand and realize how important and urgent it is for our today and tomorrow's perspective to fundamentally change our attention to the family, to protect, honor, and support families first of all from a social point of view" [2, p. 10], it is not for nothing that they specifically noted.

There is a phrase in English: "soft skills". This sentence refers to a person's social skills. That is, the ability to listen, communication skills, time management, problem solving skills, leadership and empathy skills. Why are they needed?

In order for each person to find his place in life, it is necessary to develop the above abilities. After all, to live in the world, you need to be a man of the world. A person must have "soft skills" to fight for life and live among people, together with their sorrows and joys. For example, you are the head of an enterprise, you need to hire a new employee, of course, you can easily communicate with everyone, you are self-confident and able to convince others, you can empathize with your colleagues, you have leadership skills if necessary you select a shot. Because if they can't adapt to the conditions without regretting their future, they will adapt to these conditions themselves. They contribute to the development of the enterprise, the family, and the state.

The support of the family members is necessary for the upbringing and education of the child. A child develops life skills (speaking, eating, walking, handling, etc.) mainly through imitation. There is a saying in our people that people don't talk about for nothing: A bird does what it sees in its nest. Do you want your child to love science? Pick up a book and learn by yourself. The spiritual and moral environment in the immediate family is recognized as a high factor in the development of the individual. Parents should be very attentive to the education and training of their children. In front of the child, parents should never quarrel, argue, and treat each other with respect. The child does not miss anything, even the smallest details. Raising a child is a comprehensive, long-lasting complex process, which has its own requirements and needs. For example, teaching your brother or sister to speak rudely, pampering him too much is an inappropriate method. It is necessary to pay special attention to every word and sentence spoken in the family. A child can learn these words even on the street. He may not even know the meaning of these words. At this time, we should make sure that they will not utter rude words again, that these words will not be said by good children like them, and describe them with real life examples.

It is necessary to be friends with the child, to have a friendly conversation with him on a topic that is common and interesting for both parties. Our great grandfather, the sultan of the ghazal estate, Mir Alisher Navoi, remained in history as a talented person who surprised the world and was praised by the people of science.

Cultivating patriotism and humane qualities in the hearts and minds of students of junior school age, strengthening the national and spiritual foundations of our independence, preserving our national customs, traditions, values, and revealing their place and importance in our lives today is becoming increasingly important. Also, language is an important educational tool, and K.D. Ushinsky attached great importance to the mother tongue in the system of educational subjects and considered it central and leading. "The mother tongue, which is an excellent teacher, teaches a child a lot... A child learns so much in two or three years that he will learn a lot. Even with twenty years of diligent and methodical training, he cannot learn half of it. This is the great pedagogy of the mother tongue," he said, emphasizing the importance of the mother tongue.

A school child receives most of his education in the family. At school, he receives both education and training. According to our great grandfather A. Avloni, it is necessary to educate the mind in order to have a healthy mind, good morals, and knowledge. A. Avloni puts the responsibility of the child's mental development not on the family, but on the school, on the teachers: "Thought education is the most necessary, sacred task entrusted to consciences that have been blessed for many times, and have focused on problems. Thought causes a person to be kind and enthusiastic. This education needs the help of teachers to such an extent that the power, beauty, and breadth of thought depend on the education of teachers" [5, p. 2]. At the same time, the author emphasizes that education and upbringing are related to each other: "Even if there is a slight difference between education and upbringing, they are not separated from each other, the body of one is like a soul and a body that have become one". The

atmosphere in the family becomes stable when parents feel their responsibilities. Along with parents, the neighborhood is a great example school for children to grow up polite.

Of course, raising a child is very complicated and responsible. This requires every parent to regularly work on himself, to be aware of all the information related to the education of children. Child education is not just a collection of experience, simple instructions and knowledge, but a complex process that includes knowledge in the fields of religious and moral knowledge, medicine, ethics, psychology, and pedagogy.

Great thinkers have emphasized that child education and good morals are high virtues that lead to human perfection. For example, Imam Bukhari's "al-Adab al-mufrad" collection of hadiths, Abu LaisSamarkandi's "Tanbeh ul Ghafiliyn" works praise the development of high human qualities in children.

When raising a child, usually the father is more involved in the education of boys, and the mother is more involved in the education of girls. Of course, it is important to take into account the level of the child. You should not be in a hurry to see the result when the child achieves something. For example, until the age of two, they are brought up only with sweet words and caressing. Up to the age of five, a child explores the environment, acquires basic information at this age. During this period, it will be necessary for us to try to be an example in a more practical way, to create a healthy family environment.

From time immemorial, our forefathers attached great importance to the good manners and manners of boys and girls. Therefore, in the religion of Islam, morality is included in the line of faith. In religious teachings, it is considered one of the most important duties of parents to educate their children. About this, Muhammad (peace be upon him): "Educate your children, because they were born for a time that is not yours". In addition, it is mentioned in the hadiths that it is obligatory to teach boys and girls along with education.

Thanks to independence, our people are visiting foreign countries and returning as witnesses of new people and traditions. For example, among our citizens traveling to European countries, children from Western families today have a higher level of childishness and disrespect for their parents than the children of other countries. The reason for this is that children are given more freedom than they should, and parents are not able to be a good example for them. But, of course, we cannot say that such conflicts, disagreements, and moral crises are not observed in the families of Asian countries, especially in their children. We have a lot of problems that have accumulated and need to be solved in the attention of those in charge. Currently, parents think that "it is enough to provide for children financially", "there is no need for a girl child to study, she should be taught to do housework from a young age", "who are we working for, we don't have any free time?" Erroneous thoughts and views such as "parents who stay at home should do housework" have appeared. Perhaps it would be correct to say that these are not new, but left over from the old times. At present, the whole society is struggling with these antiquated trends. As long as we get rid of these wrong worldviews, our country will be the most advanced and leading world in science, sports, tourism, medicine, economy, IT-information technologies and other fields in the "rd renaissance" period, in the "21st century-nanotechnology age" ranks among.

Along with parents, educators should earn the respect of children by their behavior and set an example in their life path. Only a child brought up in such an environment will grow up to be a person who respects his parents and his teachers, respects the younger ones in the neighborhood, and respects the elders. Every educator should be an artist of education. This is the art of loving children. Working with the parents of children with difficult upbringing and neglect, taking them to community councils, involving them in useful work, participating in clubs, providing training in handicrafts, attaching community activists to each child with difficult upbringing, time It is necessary to listen to their reports from time to time. Every lesson taught at school, especially when covering the subjects of "Education", any information we give to students about the spirituality of the family should be carefully thought out and deeply considered, because children at this age every they lay the initial foundation of what knowledge.

In the process of education, it is necessary to organize the life and activities of children in such a way that the characteristics of the child's personality, formed in students at a young age, become richer and stronger. Interests in knowledge in the first years of school education, interest in learning about the surrounding world significantly develop more intellectual curiosity.

In the views of Imam al-Bukhari on the education of children, ignorance is condemned as a tragedy that brings death to a person. He urges people to be truthful and keep their promises, showing that there are three signs of a hypocrite, which are: lying, breaking promises, and betraying trust. says He considers it a sin to insult a Muslim, and to fight with him is infidelity. In Imam al-Bukhari's teaching on education, moral views have an important place. According to him, laughing loudly and inappropriately is a trait that hurts the hearts of others. Scientist knows that it is good morality to be nice and respectful to the people and to win their love. A great thinker wants the family environment to be stable, peaceful, family members to be healthy and well-fed. He says that such a family is happy.

In the work of the thinker, the need to be kind to children and respect adults is emphasized. In his teaching, he paid special attention to the issue of learning, ways and methods of teaching it. In general, our great head of state said: "It is no exaggeration to say that Imam al-Bukhari's work "Al-adab al-mufrad" is a masterpiece of universal moral values".

Scientist Abu Isa at-Tirmizi (824) began studying hadiths from a young age, quickly began to collect hadiths and gained fame in this work. Imam at-Tirmizi's book "Sunan" contains many of his thoughts on education. "Inviting to do good and good deeds and forbidding oppression is your charity", "Showing the wayward people the right path is also charity", "Even being kind to the poor is your charity" , "Take a stone, a thorn or a bone that is obstructing the ground to one side – charity", "It is also charity to pour water from your own stream into other people's bowls". Following the folk saying that a healthy mind resides in a healthy body, Alloma encourages people to take care of their health from a young age and not to waste their time: "I have two things that many people do not appreciate: one is health, the other is free time".

Among the hadises collected by Imam al-Tirmizi, it is recommended to educate children in the spirit of morality and respect for the deceased: “Truly patient is the endurance of a Muslim when adversity occurs”, “Recite only the good qualities and deeds of the deceased. Don't say bad words about the dead person”. We can cite many more such wise words of our great-grandfathers, of course, because we are the descendants of such great and popular ancestors. These words of theirs should be the program and slogan for all teachers, professors, trainers, and, moreover, for us future pedagogues in our country!

List of used literature

1. ShavkatMirziyoyev. “We will resolutely continue the path of national development and raise it to a new level.” Tashkent - Uzbekistan: 2017, volume 1.
2. 1998. Family year, -T.: Uzbekistan
3. AbayQo‘nanbayev. “NaqliyaSo‘zlar”
4. Gurbaniyazova Z. “Pedagogical foundations of formation of national identity awareness in the process of educational work” candidate’s dissertation. T., 2002
5. Muzaffarova Zarina Zafar qizi. Article. “The issue of education in the work of Abdulla Avloni”. 2021

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TA’LIMNING 4K MODELI ASOSIDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Zikirova Dildora Shuhrat qizi TDTU doktoranti

Anantatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda shakllantiriladigan ta’limning 4K MODELI haqida yoritilgan. Ushbu kompetensiyalar orqali o‘qituvchi va o‘quvchilarda kritik, *kollaborasiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash* kabi muxim kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kalit so‘z: ta’lim-tarbiya, innovatsiya, koollaboratsiya, kritik fikrlash, kreativlik,kommunikativlik, 4k model,kompetensiya.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmonda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1 — 4-sinflarida o‘quvchilarga boshlang‘ich,

5 — 9-sinflarida tayanch hamda 10-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualar joriy etilishi, bilimni baholashning yangi tartibi joriy etiladi va uning doirasida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni amaliyotda qo‘llay bilish, tanqidiy fikrlash va berilgan materialni tahlil qila olish kabi ko‘nikmalarini baholay olishlari haqida aytib o‘tgandilar.[1]

Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash

bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar Finlyandiya tajribasi asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e’tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz.

Yangi tajriba bilan esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovasion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Bularni quyida ko‘rib chiqamiz:

Kollaborasiya – darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.Ya’ni o‘zlashtirishi qiyin o‘quvchi ham jamoada hamkorlikda ishlagan o‘quvchi o‘rtoqlarining fikrlashidan ham nialarnidir o‘rganadi.Fikr almashish orqali ham yangi fikrlar va yangicha dunyoqarash hosil bo‘ladi. Aslida matematikada faqat misol va masalalar emas, balki to‘g‘ri qaror qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘quvchi mantiqiy va tanqidiy fikrlashi kerak. Kitobda shunday o‘yinlar borki, ular o‘quvchini jamoaviy bo‘lib ishlashga o‘rgatadi. Jamoada o‘z fikrini ifodalay olishi ,atrofdagilarni uni fifriga qiziqish bilan qarashlari uni tinglashlari o‘quvchiga yanada motivatsiya beradi.

Kommunikativlik – darsliklar o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadilar. Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish, to‘g‘ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur. Xususan, matematika fanining o‘z ilmiy tili,ona tili va boshqa fanlarning o‘z tushunchalari, belgi va timsollari ham mavjud bo‘lib, bu tilda muloqot qilish – kommunikativ shakllantirish omili sifatida qaralishi lozim bo‘ladi.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar, innovasion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Kretiv fikrlashda yangicha yondashib,kundalik hayotda duch keladigan muammolarni ham ijobiy kreativ hal qilishga undaydi.

Ijodiy fikrlash nafaqat ijodiy asarlarni yaratish yoki san'at bilan bog'liq tasavvur etish vaziyatlarida, balki muammolarni yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish kabi boshqa sohalarda funksional bo'lgan vazifalarda ham qo'llanilishi mumkin. Bugungi kun boshlang‘ich sinf darsliklarimiz o‘qituvchilarni o‘quvchilarni kreativ va turlicha yondashishlarini talab qilmoqda.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar. O‘z-o‘zini

boshqaradigan, o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini o‘zi to‘g‘irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat’iy me’yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo‘llashdir.Kritik fikrlay olgan bolada o‘zining shaxsiy fikri bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida «o‘quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi [5]

“Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi,” – degandilar rahbarimiz Shavkat Mirziyoyev. Bu borada biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarda ushbu 1-4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari "4K" modeliga asoslangan innovasion yondashishimiz kerak bo‘ladi.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan, o‘zlari ustida ishlashlari kerak bo‘ladigan jarayon yaratgan bo‘lamiz. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Chex olimi Ya.A.Komenskiyning “tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta’lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularing yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlaming berilishi”ni aytib o‘tgan.[2;76]

Darhaqiqat boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar fundamental bilimni egallaydilar. Yuqori sinflarda esa bilimlarini takomillashtirib boradilar. Boshlang‘ich ta’lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida «o‘quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.Ta’limning 4K modeli asosida biz bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida va o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirsak o‘z fikrini erkin bayon qilaoladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan shaxslarni tarbiyalagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.01.2023 yildagi PF-14-son.

2. B.X .Xodjayev Umumiy pedagogika Darslik.- T.:”Sano-standart” 2017-y(416;78).
3. Axmedova Mukarram Tursunalievna Pedagogik konpetentlik (uslubiy qo‘llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
4. Lex.uz..=
5. https://daryo.uz/2023/10/14.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSIQA MADANIYATI FANINING AHAMIYATI

Zoirova Mehriniso Xurshid qizi
Xalqaro innovatsion universiteti

Annotatsiya. Bu maqolada oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga tanlov fan sifatida o‘tilayotgan musiqa metodikasi fani, musiqa va san‘atning ahamiyati, o‘quvchilar uchun qanchalik samarali ekanligi yoritilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ekspremintal, innovatsiya, san’at, musiqa, muhit, ruhiyat, metodika, ma’naviyat, mahorat.

Innovatsiya- so‘zining bundan 5 yil ilgari ham ta’limga kirib kelish salohiyati sanoqli uchrar edi. Qarangki bugungi Respublikamizdagi jadal o‘sish va rivojlanishlar barcha sohada bo‘lib, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar esa birinchi o‘rinda ko‘zga tashlanadi. Bu rivojlanishlar o‘z-o‘zidan innovatsiya so‘zini va o‘zini yanada targ‘ib qilish imkonini yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim To‘g‘risidagi Qonunining PQ637- sonli 23.09. 2020 yildagi qarori 36-moddasida “Ta’lim sohasidagi eksperimintal va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarni ishlab chiqishga, ularni sinovdan o‘tkazishga hamda ta’lim jarayonini joriy etishga qaratilgan. Ekspremintal va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi”. Yuqoridagi fikrlarimiz isbotini quydagi moddalarda ko‘rishimiz mumkin.

Ta‘lim sifatini oshirishda pedagoglik faoliyati yuqori o‘rinda turadi va ko‘proq vazifa Oliy ta’lim muassalaridagi o‘qituvchilar va bo‘lajak pedagog talabalarga borib taqaladi. Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar turli xil yo‘nalish, mutaxasissliklarda ta‘lim olishadi. Har bir kasb egasi o‘ta ma’sulyatli bo‘lishi kerak, pedagoglik kasbi ichida eng ma’sulyatni talab qiladigani esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishiga yordam beradigan faol texnologiyalarni izlashdan maqsad – yuksak ma’naviyatli, ijodiy fikr yuritadigan, har taraflama barkamol rivojlangan shaxsni tarbiyalash bo‘lib, bu muammoga pedagogik jihatdan muhim deb qarashimizga imkon beradi. Ijtimoiy hayotimizdagi ko‘ngilsizliklar, statistik tahlillar natijasiga ko‘ra

maktab faoliyati amaliyotida san’atning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani qayd etilmoqda.

San’atning bir necha xil turlari bo‘lib ular shaxs tarbiyaviy ta’sirida samarasi yuqori. Asosiy mexanizmi esa badiiy tasvirlarni hissiy idrok etish, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, ijodiy qobilyat va imkonyatlaridan to‘laqonli foydalana olish va uni o‘stirish, atrof muhitga bo‘lgan voqeyliklarni ongli ravishda shaxsiy munosabat hosil qila olish kabi zaruruiy hayotiy tajriba hosil qila olish imkonini beradi.

Yoshlarni axloqiy fazilatlarini san’at yo‘li va vositalaridan foydalanishning samarali pedagogik shartlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda tajribani asoslash, sub’ektlar o‘zaro ta’sirining ma’lum bir algoritmini, uni o‘quvchilar ta’lim jarayoniga tadbiq etishni nazarda tutuvchi musiqa darslari vositasida axloqiy tarbiya modelini ishlab chiqish va dasturini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutiladi. San’at vositasidagi ta’lim jarayoni - o‘quvchining erkin axloqiy munosabatlarini shakllantirishga hissiy jihatdan boy muhit yaratishga hissa qo‘shadigan innovatsion pedagogik texnologiya - san’at yordamida shaxsga ta’sir qilishning noan’anaviy yondashuv dasturidir. Shu bilan birga, musiqa darslari vositasida o‘quvchi shaxsining axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda bir qator harakat vositalari bo‘lmish, raqs, tasviriy san’at, musiqa va ularni umumlashtiruvchi unsur improvizatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Ekspressiv san’at vositalari bolalarga ongsiz ravishda ta’sir o‘tkazishga imkon beradi, bu esa o‘z-o‘zidan o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, g‘oyalari va hissiy reaktsiyalarini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevral “Ma’daniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ112-sonli qarori o‘qituvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatini shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab quvvatlash qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan [8].

Oliy ta’limning bakalaviryat bosqichi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga musiqa o‘qitish metodikasi” fani tanlov fan sifatida qo‘yilgan. Dars jarayonida shu ma’lum bo‘ldiki, talabalar san’atga, madaniyatga qiziqishi mavjud ammo yetarlicha boshlang‘ich bilimga ega emasliklari ma’lum bo‘ldi. Buning asl xatosi maktabdagi musiqa madaniyati fanlariga borib taqaladi. Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishda, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ko‘plab tashkillashtiriladigan bayram ertaliklarda musiqiy bilim yetishmasa uni ko‘ngildagidek o‘tkazish biroz qiyin sanaladi. Shu sababli boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga qo‘yilgan musiqa o‘qitish metodikasi fanining maqsadi talabalarni musiqa fanidan amaliy faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahorat bilan qurollantirish kelajak avlodning musiqiy madaniyati va ma’naviyatini musiqa vositasi orqali shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg‘ulotlar mobaynida uzoq ijodiy mehnat talab etiladi.

Talabalarning aslida musiqa cholg‘u asboblarga, raqslar, ko‘ngilochar chiqishlarga yuqori darajada xohishlari mavjud. Bu ijodkorlik qobilyati va iqtidorlarini rivojlantirish maqsadida nafaqat musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalariga balki shu mutaxasisslikka o‘qimasada boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim talabalarining

qiziqishlari inobatga olingan holda imkoniyat yaratilib tanlov fan sifatida bu fanlar va to‘garak ishlari oliygohlarda tashkillashtirilgan.

Ta’lim muassasalarida musiqa fanlarini o‘qitishda albatta, Sharq mutafakkirlari qarashlariga yuzlanmasak xato qilgan bo‘lamiz. Jumladan, ulug‘ ajdodimiz Abu Ali ibn Sino musiqa inson ma’naviy qiyofasini yanada mukammallashtirishini ta’kidlagani bejiz emas. Darhaqiqat, navo jozibasini so‘z bilan ifodalash qiyin. Mumtoz musiqalarimiz kishi ruhiyati, ma’naviyatiga ijobiy ta‘sir o‘tkazuvchi qudratga ega. Ular insonni ezgulikka da‘vat etadi, tinglovchini borliq, hayotning mazmun-mohiyatini anglab yetishga, falsafiy mushohadaga undaydi [8].

Endi musiqa ta’limi bola shaxsida komil insonning qimmatbaho fazilatlaridan qattiyatlilik, iroda, kuchli xotira, abstarkt fikrlash, miya yarimsharlarining tengdek shakllanishiga erishish natijasida tiniq tafakkur, zehn, nutqning ravonligi, chiqishimlilik, o‘zaro fikr almasha olish kabi diplomatik xususiyatlarini o‘zalashtiradi. Bu kabi xususiyatlarni shakillantira olishlik qobilyati musiqa darslaridan boshqa hech bir sohada kuzatilmaydi. Bu nafaqat o‘quvchilar balki har bir yosh qatlamini talabami, o‘qituvchinimi shakllantirishda birdek xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda musiqa madaniyati fanining ahamiyati bo‘lajak o‘quvchilar o‘z o‘quvchilarini har sohada va jabhada salohiyatli va qobilyatli kadr bo‘lib yetishib chiqishida xizmati yuqori darajadaligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zi shu bilimlarga salohiyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini ham qadryatlarimizga, urf-odatlarimizga, an’analarimizga va milliy musiqa me’rosimizga, jamiyatga mehr- muhabbatli qilib tarbiyalaydi. Ham bo‘lajak pedagoglar ham ularning o‘quvchilari bu fan orqali jamoaviy va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda xohish-istaklarini amalga oshirilishi ta’limda integratsiyalangan yondashuvni ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ta’lim muassalarida musiqa darslarini o‘qitishning zamonaviy usullari” Dildora Abduvahobovna Djamalova O‘zbekiston davlat konservatoriyasi "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 1 / February 2023
2. Ibrohimov O.A., Xudoev G‘.M. “Musiqa tarixi”. Toshkent-2018
3. “Musiqa o‘qitish metodikasi” Jo‘rabek Yarashev, Dilnavoz Muratova “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2021.
4. www.natlib.uz
   www.arxiv.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA INDIVIDUAL TAFAKKUR USLUBINI SHAKLLANTIRISH.

O‘roqova Sharofatxon Saidqul qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida individual tafakkur uslubini shakllantirishning dolzarb muammo bo‘lib qolayotganligi hamda ushbu muammoning yechimini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi,individuallik,tafakkur,boshlang‘ich sinf,o‘quvchi.

Jahonda ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish, o‘quvchilarning iqtidori va qobiliyatini rivojlantirishda variativ ta’lim mazmunini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, virtual ta’lim sharoitida o‘quvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, kredit-modul va kontsentrlangan ta’lim texnologiyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish dolzarblik kasb etadi. AQSh, Angliya, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarda ta’lim tizimini individuallikka yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, tyutorlik va mentorlik modellari asosida o‘quvchilarning individual ta’lim traektoriyasini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.Dunyoda axborot-ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilarning mustaqil bilish faolligini oshirish, o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, shaxsiy-insonparvarlik yondashuvi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida individual tafakkur uslubini shakllantirish, o‘quvchilarda o‘zini o‘zi rivojlantirish tayanch kompetensiyasini shakllantirish orqali intellektual-madaniy rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muammoli va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning didaktik ta’minotini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individualligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan fasilitatsion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini rivojlantirish dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’lim tizimini takomillashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida umumta’limiy kompetentsiyalarni shakllantirish, ta’lim oluvchilarda shaxsiy-individual faoliyat tajribasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan individual ta’lim jarayonlari ta’sirchanligi, barqarorligini ta’minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, individuallikka yo‘naltirilgan o‘qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va

innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” [3], kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu esa, ta’lim jarayoni sub’ektlarini intellektual rivojlantirish mezonlari, darajalari va indikatorlarini aniqlashtirish, individual yondashuvga muvofiq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modelini takomillashtirishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish, umumta’lim maktablarining o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston[8] Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”da o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitish va baholash metodlari, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantirish belgilab berilgan[2].O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni[3], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son[7], 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son Qarorlari[8], 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli[6], 2019 yil 20 fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-sonli[5], 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni[2] hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Zamonaviy[8] ta’lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual yondashuv orqali tafakkurini oshirish juda yaxshi natija bermoqda.Tafakkur-ijtimoiy ong mahsulidir.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ayniqsa ilm olishning eng qaynoq davrida har bir o‘quvchi bilan individual yondashilgan holda ulardagi psixologik tushunchalarni shakllantirishga dunyoqarashini shakllantirishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.M.Mirziyoyevning saylovoldi so‘zlagan nutqidan https://daryo.uz/
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi ni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Butayorova M. X. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish-O‘quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim omili sifatida //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 113-118.
4. Turobov M. O ‘QUVCHILARINING MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA IDROK ETISHNI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTI //Interpretation and researches. – 2024. – T. 1. – №. 1.
5. Sh, O'roqova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy fanlar misolida intellektual rivojlantirish metodikasi // TAFAKKUR MANZILI – 2023. – T. №. 4.–C. 135-138.

TA‘LIM JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURIYAT

O‘roqova Sh.S.
Termiz Davlat Pedagogika Instituti Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayonida individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning nazariy masalalari ko‘rsatilgan bo‘lib,bugungi kunda dolzarb masalalaridan ekanligi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: intelellekt,bilim,ekskursiya ,riojlanish,tabiiy fanlar,salohiyat.

Biz Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda sog‘lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz.Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san’at va sport bo‘yicha salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz.Takror va takror aytaman: Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi!Dunyodagi Top-500 ga kiradigan chet el oliygohlari bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma o‘quv dasturi va “ikki diplomli tizim” joriy etiladi. Bundan tashqari, bio-texnologiya, sun’iy intellekt va boshqa yuqori texnologik yo‘nalishlarda yiliga 500 nafar iste’dodli yoshlar eng nufuzli xorijiy oliygohlarga davlat hisobidan o‘qishga yuboriladi. Buning uchun 200 million dollar yo‘naltiriladi. Yoshlarimizning faolligi, Vatanimiz taqdiri va taraqqiyotiga befarq emasligi, ertangi kunga katta umid va ishonch bilan qarayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.Biz bugungi O‘zbekiston bu — kechagi O‘zbekiston emas, deb ko‘p gapiramiz. Buning isbotini avvalo yoshlarimiz siymosida, ularning yutuq va g‘alabalarida ko‘ramiz[8]-deya O‘zbekiston yoshlariga murojaat qildilar yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev saylovoldi so‘zlagan nutqlarida.

Shu munosabat bilan bugungi kunda ayniqsa,boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual yondashuv asosida intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasining

didaktik parametrlarini aniqlab,ularni ta’lim tizimiga joriy qilish bugungi kunda tarixiy-ijtimoiy zarurat bo‘lib qolmoqda.XXI asrda intellektual salohiyat jadallik bilan rivojlanayotgan bir paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kelajakda yetuk kadr bo‘lib ta’lim bermoqlik alohida ahamiyat kasb etib,ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar misolida individual yondashuv asosida intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda.Zamonaviy ta’lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi jarayonda jahonning eng ilg‘or mamlakatlaridan Amerika Qo‘shma Shtatlari,Finlyandiya,Germaniya,Rossiya,Janubiy Koreya,Nidarlandiyada o‘quvchilarga bilim berishda individual yondashuvga alohida e’tibor bilan yondashilmoqda.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizmida o‘sib kelayotgan yosh avlodning individual jihatdan har tomonlama sog‘lom,keng fikrli bo‘lishi uchun izlanishlar olib borilmoqda.Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy fikrlash qobiliyati ,atrof-olamni keng mushoda eta olish qobiliyati,o‘quvchilarning shaxsiy kompetensiyasini rivojantirish borasida qator ishlar amalga oshirilib bormoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish, umumta’lim maktablarining o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”da o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individual-lashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitish va baholash metodlari, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantirish belgilab berilgan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni[3], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son[7], 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son Qarorlari[8], 2018 yil 14 avgustdagi “YOshlarni ma’naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli[6], 2019 yil 20 fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-sonli[5], 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni[2] hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.[8]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish maqsadida pedagogik jarayonning didaktik xususiyatlari yosh xususiyatlariga mosligi, bilim darajasiga muvofiq kelishi, topshiriqlarning ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi, faoliyat tajrib

ta’lim jaryoni sub’ektlarini intellektual rivojlantirish mezonlari (motivatsion, kognitiv, kreativ) gomogen va geterogen guruhlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik jarayonning kooperativlik jihatining sub’ektivlik bilan ichki aloqadorligini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

individual yondashuvga muvofiq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modelining amaliy komponenti didaktik vaziyatlarni yaratish, ijodiy mayllarni hosil qilish, intellektual faoliyatni izchil tashkil etish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishga doir interfaol mashg‘ulotlar tizimi adaptivligini hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimning mantiqiy tuzilmasi shaxs rivojlanish sohalarining (motivatsion, intellektual, irodaviy) evristik o‘qitish usullari bilan gorizontal va vertikal munosabatlarining qayta aloqaga kirishuv darajasi produktivligini ta’minlash asosida aniqlashtirilgan. asini rivojlantira olishi pedagogik-psixologik tahlil asosida aniqlashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchisini har tomonlama rivojlantirish muammosining yechimi jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega. Buning uchun bugungi kunga qadar ta’lim jarayonida mavjud bo‘lgan ayrim an’analardan voz kechish zaruriyati tug‘ilmoqda. Jumladan, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan an’anaviy ta’lim jarayoni orasida mutanosiblikni ta’minlagan holda o‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish tizimini belgilab berish muhim masalalardandir. boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mavjud bo‘lgan bilimlar paradigmasi hamda ular taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlari orasida aloqadorlikni ta’minlagan holda shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, ularning o‘quv jarayonidagi taraqqiyotlari orasida dinamik aloqadorlikni ta’minlash lozim. O‘quvchining intellektual jihatdan erkin rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan insonning haq-huquqlari haqidagi qonun-qoidalarga amal qilib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi bo‘lishga undash orqali amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish shuning uchun ham zarurki, bu jarayonda o‘quv vaziyati barqaror rivojlanadi va o‘quvchilarga samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati vujudga keladi. Birinchidan, mazkur muammoning amaliyotdagi holati tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga aksariyat hollarda e’tibor qaratmaydilar. Ikkinchidan, ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlar vujudga keldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirish masalasi o‘tgan asrning 60 yillaridan boshlab o‘rganila boshlandi. Biroq, bu masalaga hozirgi kunda yangicha pedagogik paradigma asosida yondashilmoqda. Jumladan, ushbu masalaga jamiyatshunoslar va psixologlar birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratdilar. Biz so‘ragan o‘qituvchilarning 1,4% i o‘quvchilarni intellektual rivojlantirish haqida tasavvurga ega ekanliklari ayon bo‘ldi. Ularning juda kam qismigina bu masala haqida muayyan bilimga ega ekanliklari aniqlandi. Aksariyat o‘qituvchilar o‘quv predmetlaridan dars beradigan pedagoglarning o‘quvchilarda intellektual faoliyat ko‘nikmasini tarkib toptirishga yetarlicha e’tibor qaratmaydilar, ayrimlari esa, bu sinf rahbarining

vazifasiga kiradi deb hisoblaydilar. So‘ralgan bir guruh o‘quvchilar o‘zlarining intellektual faoliyatlarini baholashlari, o‘z bilimlarini tadbiq etishga qiziqishlari aniqlandi. Ularning muayyan qismi o‘zlarining intellektual o‘ziga xosliklarini anglab yetishlari ayon bo‘ldi. Bularning barchasi o‘quvchilarga individual yondashgan holda ularni intellektual rivojlantirish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatdi.

Ushbu bilimlar orqali tadqiqotimizning ilmiy yangiligi ayon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

6. Sh.M.Mirziyoyevning saylovoldi so‘zlagan nutqidan https://daryo.uz/
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi ni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
8. Butayorova M. X. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish-O‘quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim omili sifatida //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 113-118.
9. Turobov M. O ‘QUVCHILARINING MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA IDROK ETISHNI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTI //Interpretation and researches. – 2024. – T. 1. – №. 1.
10. https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7023

Sh, O'roqova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy fanlar misolida intellektual rivojlantirish metodikasi // TAFAKKUR MANZILI – 2023. – T. №. 4.–C. 135-138.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI

O‘rozboyeva Dilnoza Alimboy qizi

Toshkent shahar “Profi University” o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limning ona tili darslarida gap tuzish va gap ustida ishlashning vazifalari hamda asosiy bosqichlari haqida fikr yuritilib, o‘quvchilarda gapni to‘g‘ri tuza olish, ulardan nutq jarayonida to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili darslari, gap, gap ustida ishlash, bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, to‘gri nutq.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq

go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi boshlang‘ich ta’lim tayanch o‘quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta’limi sohalari kiritilgan. Ona tili ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o‘zgalar fikrini anglashi, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili kursini o‘rganishning yetakchi insoniy tamoyili tilning barcha tomonlarini (leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, so‘z yasalishi) o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish hisoblanadi. Mazkur tamoyil tilni yaxlit hodisa sifatida o‘rganinshni ta’minlaydi va til kishilarning aloqa vositasi ekanini o‘quvchilar tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu tamoyil bo‘limlar orasidagi mumkin bo‘lgan bog‘lanishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o‘rganiladigan va nazariy o‘rganiladigan bilimlarga bo‘linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o‘rganish savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang‘ich sinfda “Gap”, “Darak gap”, “So‘roq gap”, “Buyruq gap”, “His-hayajon gap”, “Gap bo‘laklari”, “Bosh bo‘laklar”, “Ikkinchi darajali bo‘laklar”, “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi” mavzulari nazariy o‘rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi. [1, 17-b]

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o‘zlashtirilgani uchun tilni o‘rganishda gap ustida ishlash markaziy o‘rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe’l va ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O‘quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydilar. So‘zning lug‘aviy ma’nosi va uning qo‘llanish xususiyatlari so‘z birikmasi yoki gapda ma’lum bo‘ladi. So‘z gapda bir ma’noli bo‘ladi (gapdan tashqari bir necha ma’no ifodalash mumkin).

Boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo‘lgan gapning muhim belgilarini o‘rgatish).

2. Gap qurilishini o‘rgatish (so‘z birikmasida so‘zlarning bog‘lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig‘iq gaplar ustida ishlash).

3. O‘quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko‘ra turlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so‘zlarni aniq qo‘llash ko‘nikmasini o‘stirish.

5. Yozma nutqda gapni to‘g‘ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo‘yish) ko‘nikmasini shakllantirish. [2, 47-b]

Ishning bu besh yo‘nalishi bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o‘rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi.

Gapni o‘rganish va nutqda undan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish o‘quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O‘quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug‘iladi. U o‘z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap” mavzusi barcha sinflarda o‘rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O‘quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gapda so‘zlarning bog‘lanishini o‘rganishga o‘tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang‘ich bosqichi savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so‘zlardan gap tuzib bo‘lmaydi. Agar o‘quvchilar gapning bosh bo‘laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod o‘rgatish davrida gapning bosh bo‘laklari ustida kuzatish o‘tkazgan ma’qul.

Gapning bosh bo‘laklarini kuzatish bilan o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko‘nikmasi shakllanadi. Gapni o‘rganish me’yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so‘z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan sintaktik material kam bo‘lsa ham, butun o‘quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi. [3, 33-b]

Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra, 1-sinfda “Ona tili va o‘qish savodxonligi”da o‘quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so‘zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma’lum tinish belgilari qo‘yilishi haqida amaliy ma’lumotlar beriladi.

2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” da esa o‘quvchilar gap haqida amaliy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so‘zni ajratishga o‘rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo‘laklarni o‘rganishga muqaddima bo‘ladi.

3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. O‘quvchilar gapni amaliy o‘rganishdan tushuncha sifatida o‘rganishga o‘tadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ta’rifi, ega va kesim atamalari kiritiladi. Bu sinfda gapda so‘zlarning bog‘lanishiga katta e’tibor beriladi. O‘quvchilar gapning asosi (ega va kesim) ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo‘laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so‘z (hokim va tobe so‘z)ni, so‘zlarning grammatik jihatdan, ya’ni qo‘shimchalar orqali bog‘lanishni bilib oladilar.Shuningdek, gapning maqsadga ko‘ra turlari, darak gap, so‘roq gap, buyruq gap hamda his-hayajon gaplarning o‘ziga xos jihatlari bilan tanishadilar.

4-sinfda “Nutq. Matn” mavzusini o‘rganish bilan gap haqidagi bilim kengaytiriladi. Xususan, o‘quvchilar matn nutqning yozma shakli ekanligi, uni

qismlarga bo‘lish, unga sarlavha qo‘yish, reja tuzish mumkinlgi haqidagi tushunchlarga ega bo‘ladilar. [4, 111-b]

Shunday qilib, o‘quvchilarda gap bo‘laklari haqidagi tasavvurni o‘stirish gapni o‘zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari gap bo‘laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga) bo‘linishini o‘zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo‘laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o‘zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo‘laklar esa bosh bo‘laklarni aniqlovchilik va to‘ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Demak, boshlang‘ich sinflarda sintaksisni o‘rgatishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyatini hisobga olgan holda og‘zaki va yozma nutqini, tafakkurini o‘stirish hisoblanadi. O‘quvchilarda gapni to‘g‘ri tuza olish, ulardan nutq jarayonida to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. [5, 27-b]

Gap ustida ishlash o‘quvchilarning bayon, insho yozish va og‘zaki hikoyalashlarida maqbul usullardan hisoblanadi. O‘quvcilar tahlil davomida grammatik tushunchalarini tartib bilan aytib bersalar-da, biror uyushtirilgan ekskursiyadan olgan taassurotlari so‘zlab berishda bir voqeadan ikkinchi voqeaga sakrab o‘tib ketadilar va yana oldingi voqea haqida gapirishga o‘tib ketadilar. Izchillik talabini buzyaptilar. Ko‘rinib turibdiki, grammatik tahlilda hech narsani dalillanmaydi. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni aniqlash va ularning diqqatini yo‘l qo‘ygan xatolarga tortib, xatosini to‘g‘rilashni talab qilishdir. Grammatika va o‘qish darslari bu borada katta imkoniyatlarga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning chalkashish– laridan, noaniq javoblaridan, hodisani esidan chiqarishidagi, taxminiy javoblaridan qoniqish hosil qilmasligi, aniq shakllantirilgan javob va tushuntirishlarini talab qilishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari narsa va hodisalarni to‘g‘ri kuzatishlari va ulardan ishonarli xulosalar chiqarishi, ular nima haqada gapirsalar tushuntirish va asoslashni bilishlari kerak. O‘qituvchi “Nima uchun sen bunday deb o‘ylayapsan? Bu nima ekanligini isbotlab ber. Nima uchun shunday yozilishini asoslab ber” kabi savollarni berib, gap tuzishga qo‘yiladigan talablarni har bir ona tili darsida eslatib turishi lozim. Bundan tashqari o‘qituvchi berayotgan savolini to‘liq gap shaklida bersa,o‘quvchiga javob berishga oson bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti va o‘quv dasturi (Boshlangich ta’lim).- Toshkent, 2017.

2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009. 3. Fuzailov S., Xudayberganova M., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili.

3-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.

4. Ikromova R., G‘ulomova X. va b. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.

5. Arxiv.uz Tilshunoslik sayti

RAQAMLI TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI KONTEKSTUAL TAHLILI

G‘aniyeva Sarvinoz
Andijon Davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim)yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli texnologiya tushunchasini kontekstual tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib,maqolada raqamli texnologiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari haqida so‘z boradi.Ta’lim va boshqa sohalarda zamonaviy texnologiyalar orqali yaratilayotgan imkoniyat va qulayliklar hamda raqamli texnologiyalarning ijobiy tomonlari bilan birgalikda ayrim hollarda salbiy ta’sirlari ham mavjudligi fikrlar davomida ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya,raqmli iqtisod,axborotlashgan jamiyat,ta’lim tizimi,masofaviy ta’lim,raqamli savodxonlik,sun’iy intellekt,

Kirish.Raqamli texnologiyalar(inglizcha:digital technology)-ma’lumotlarni uzluksiz spektr shaklida emas,analog darajadagi diskert diapazonlarda ko‘rsatishga moslashtirilgan texnologiyalar hisoblanadi.[5] Raqamli texnologiyalar elektron hisoblash va ma’lumotlarni o‘zgartirish bilan aloqador barcha texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.Qisqa qilib aytganda raqamli texnologiyalar axborotlarni ishlab chiqaradigan,saqlaydigan va zarur bo‘lsa qayta ishlaydigan elektron qurilmalardir. Rivojlanib borayotgan O‘zbekistonimizga so‘ngi yillarda raqamli texnologiyalar izchillik bilan kirib kelmoqda.Bu jarayon taraqqiyotga erishishning muhim omili hisoblanadi.SHuning uchun ham davlatimiz rahbari manashu soha rivoji uchun ko‘plab qarorlar qabul qilmoqda.Jumladan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi 2019-yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida[2] mamlakatimizda raqamli texnologiya va raqamli iqtisodiyotning rivoji uchun quyidagilarni aytib o‘tadi. ‘‘Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan ‘‘Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi’’ni ishlab chiqishimiz kerak.Shu asosda ‘‘Raqamli O‘zbekiston - 2030’’dasturini [1] hayotga tatbiq etishimiz zarur.Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish,korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi.Nufuzli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda.Shuning uchun hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha ‘‘yo‘l xaritasi’’ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada xavfsizlik tizimini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349 sonli ‘‘Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi’’[3]farmonini ijro etish borasida, shuningdek, Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi qarori qabul qilindi,hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi[4] ‘‘O‘zbekiston Respublikasida raqamli

iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlarini ham misol qilib keltirish mumkin.

Davlatimiz rahbarining manashunday qaror va farmonlarining amalda bajarilishi uchun raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarning asl mohoyatini ongli ravishda tushunib olish talab etiladi.Raqmli iqtisodiyot – bu insoniyat uchun turli xil ne’matlar ishlab chiqaruvchi va ularni qabul qilinishida raqamli texnologiyalarni keng joriy etuvchi sohadir.Ushbu atamani fanga Amerikalik va Ispaniyalik sotsiolog Manuel Kastels olib kirgan.Bu sohada u ‘‘Axborot davri:iqtisod,jamiyat va madaniyat’’nomli 3 jildli monografiya yaratgan.[5]Raqamli iqtisodiyot tushunchasini ta’riflar ekanmiz,Axborotlashgan jamiyat tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tishimiz zarur.Axborotlashgan jamiyat deb axborototlashgan zamonda faoliyat yuritayotgan shaxslarning axborotlarni ya’ni bilimlarni ishlab chiqaradigan,saqlaydigan,qayta ishlaydigan va sotish bilan mashg‘ul bo‘lgan jamiyatga aytiladi.Raqamli texnologiyalar ustuvor bo‘lgan davrda axborotlashgan jamiyatga ta’rif berishda iqtisodchilar va olimlar turli xil kreativ mezonlardan foydalanadilar.

Raqamli texnologiyalar insoniyat tomonidan juda tez o‘zlashtirilmoqda,20 yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlangan davlatlar aholisining 50 foizini qamrab olishga ulgurdi va jamiyatni barcha sohada tubdan o‘zgartirdi.[6]Ushbu texnologiyalar insoniyatga juda katta qulayliklar yaratmoqda.Masalan sog‘liqni saqlash tizimida foydalaniladigan zamonaviy texnologiyalar inson hayotini saqlab qolishi,turli xil kasalliklarni aniqlashi,davolashi va inson umrini uzaytirishga yordam berishi mumkin.Ta’lim sohasida ham juda katta yutuqlarga erishish uchun hizmat qilmoqda.Virtual ta’lim muhitini yaratmoqda,masofaviy ta’lim o‘quvchi va talabalar uchun juda katta muvaffaqiyatlarga yo‘l ochib,har qanday sharoitda va istalgan vaqtda ta’lim olish imkonini bermoqda.O‘quvchilar mutaxasislar yetishmaydigan chekka chekka qishloqlarda ham sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishyapti.Natijada yosh avlodda internetdan maqsadli foydalanish ko‘nikmasi shakillanyapti,masofaviy ta’lim vaqt va mablag‘ sarfini kamaytiradi.Yurtimizda ta’lim tizimini raqamlashtirish uchun bir qancha vazifalar belgilangan:
-barcha turdagi ta’lim muassasalarini internetga ulanishini ta’minlash,o‘quv materiallarining turlarini oshirish imkonini beradigan zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan jihozlash. -
Respublikamizda bilimlar bazasini yaratish. -
Turli xil ta’lim dargohlarida,elektron va masofaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish -Ta’lim
sifatini nazorat qilish va elektron ta’lim tizimini baholash. -
Uzluksiz ta’lim ekotizimini yo‘lga qo‘yish,ite’dodlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash. -
Ta’lim tizimining talablariga to‘liq javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash.

Ta’lim sohasidagi raqamli texnologiyalar,raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta’lim muhitini yaratadi.Ta’limning raqamlashtirilishi ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishga,ta’lim tashkilotlarining muvaffaqiyatlarga erishishiga yordam berib kelyapti,shuningdek ta’limni mustahkamlash maqsadida o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi tufayli barcha ko‘zlangan

maqsadlarga erishilmoqda va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli savodxonligi ortib bormoqda.Raqamli savodxonlik - bu raqamli muhitda insonlarning raqamli texnologiyalar vositasida shaxsiy ehtiyojlarini qondirish ya’ni ta’lim olish,hunar o‘rganish,biznes qilish,kasbiy muammolariga yechim topish,aloqa vositalaridan va tarmoqlardan foydalanish,turli axborotlarni qidirib topish,tahlil qilish,boshqarish qobiliyatidir.

Aloqa,tijorat,davlat xizmatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish insonlar o‘rtasidagi tengsizlikning kamayishiga amaliy yordam bermoqda.Bundan tashqari sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish turli xil firibgarliklarga chek qo‘ymoqda va soliqlarni to‘lashdan bosh tortish holatlarini aniqlab bermoqda.[5] Ko‘rib turganimizdek raqamli texnologiyalarning juda ko‘plab afzalliklari mavjud,ulardan eng muhumlari:Zamonaviy texnologiyalar juda katta hajmdagi axborotlarni saqlash imkonini beradi.Eng so‘ngi yangiliklardan habardor qiladi,veb saytlar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali.Ehtiyojmand oilalarga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish mumkin.Texnologiyalar ish jarayonida hodimlarni kuzatish imkonini beradi va bu jarayon unumdorlikni oshiradi.Aloqa sifatini yaxshilaydi ya’ni masofadan qat’i nazar istalgan kishimiz bilan qo‘ng‘iroq,video qo‘ng‘iroq yoki matnli xabarlar orqali muloqotda bo‘la olamiz.Shunday qilib raqamli unsurlarning son sanoqsiz ijobiy taraflari mavjud.Ammo tanganing ikkinchi tomoni bo‘lgani kabi ushbu texnologiyalarning ham bir qancha salbiy tomonlari ham bor albatta.Raqamli texnologiyalardan foydalanishning salbiy oqibatlaridan biri bu texnostressdir.Bu insonlarni yangi raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘rgana olmasligi natijasida yuzaga keladigan psixologik reaksiya hisoblanadi.Ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi ya’ni deppressiyaga olib kelishi mumkin chunki yaqin insonlar bilan doimiy onlayn muloqotda bo‘lish to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotning o‘rnini bosa olmaydi.Telefondan chiqayotgan nurlar melatonin garmonininig sekretsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va natijada uyqu kasalliklarini keltirib chiqaradi.Yoshlarning axborot texnologiyalaridan soatlab maqsadsiz foydalanishi,turli xil o‘yinlar o‘ynab,keraksiz videolar ko‘rib vaqtini bekor o‘tkazishi albatta ularga jismoniy va ruhiy jihatdan salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun harbir katta-yu yosh o‘zlariga raqamli texnologiyalardan va internetdan foydalanish uchun ma’lum meyorlarni belgilab olishlari lozim.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mehnat bozori ishchilariga turli xil shartlar qo‘ymoqda.Bugungi kunda har bir soha va tashkilotda raqamli savodxonlikka ega ishchilarga talab ortmoqda.[7] Raqmli savodxonlikka ega shaxslarda raqamli(digital skills),media savodxonlik(media skills),Internet va axborot texnologiyalaridan foydalanish(internet skills) hamda sun’iy intellektdan foydalana olish ko‘nikmalari bo‘lishi muhim.Yurtimizdagi ko‘plab insonlarning manashunday ko‘nikmalarga ega bo‘lishi iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun muhim omil hisoblanadi.Ma’lumotlarga ko‘ra Singapur,Shvetsiya,BAA,Avstraliya davlatlari aholisining raqamli savodxonligi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turadi.

Natija. Ilmiy kuzatuvlar natijasi o‘laroq shuni aytish kerakki butun dunyoda insoniyat taraqqiyoti raqamli texnologiyalarning har bir sohaga kirib borishi bilan bog‘liq.Mamlakatimiz taraqqiyoti ham raqamli texnologiyalarning istiqboliga va

qamrov darajasiga tayanadi.Raqamli iqtisodiyot rivojiga erishishning bir qancha shartlari mavjud. -
raqamli texnologiyalarni keng ommaga joriy etish va yurtimizning barcha hududlarini internet tarmoqlariga sifatli ulanishini bosqichma-bosqich ta’minlash.
-xalqaro andozalarga javob bera oladigan bilimli malakali dasturchilar va injener-texnik hodimlar tayyorlash,ta’limning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash,chet ellik hamkorlar bilan birgalikda turli xil loyihalarni amalga oshirish.
-aholi orasida raqamli savodxonlikni targ‘ib qilish va shu maqsadda turli xil kurslar va tadbirlar o‘tkazish.

Ilmiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki bugungi kunda raqamli texnologiyalar ilmiy sohada va xususiy sektorlarda ko‘proq rivojlanyapti,shuning uchun davlatimiz manashu sohalardagi loyihalarni va IT-kompaniyalarini qo‘llab quvvatlamoqda.

Xulosa.Xulosa qilib aytganda raqamli texnologiyalar bu istalgan soha rivoji va qulayliklari uchun foydalanilayotgan vosita manbai bo‘lib ularning afzalliklari juda katta.Raqamli qurilmalarning taraqqiyot darajasi jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shadi degan xulosaga kelishimiz hato bo‘lmaydi.Raqamli unsurlarning ta’limga joriy etilishi ushbu sohada juda ko‘plab imkoniyat va muvaffaqiyat eshiklarini ochmoqda,bugungi kunda raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish uchun aholi orasida raqamli savodxonlik darajasini yuqori bosqichlarga olib chiqish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi ‘‘Raqamli O‘zbekiston-2030’’strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son qarori. 2.‘‘O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrdagi 2019-yil uchun eng muhum ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi’’
3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi -5349 sonli ‘‘Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi farmoni

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi ‘‘O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qarori 5.G‘ulomov S.S.va boshqalar.Raqamli iqtisodiyot va blokcheyn texnologiyalar.Toshkent iqtisod moliya nashiryoti,2019-yil
6.R.H.Ayupov,S.Q.Tursunov.Raqamli texnologiyalar;Innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari.T.Nizomiy nomidagi TDPU, ‘‘Nodirabegim nashiryoti.2020-yil
. 7.Abdullayev A.A.va boshqalar.Raqamli iqtisodiyot asoslari – Toshken.Iqtisod-moliya nashiryoti,2020-yil

TALABA-QIZLARNING TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sharipova Guzal Sodiqovna
Nizomiy nomidagi TDPU
maktabgacha ta'lim texnologiysi dotsent.PhD, dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarda tadbirkorlikka oid kompetensiyalar va ularni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zalar: tadbikrlik faoliyati, pedagogik-psixologik jihat, texnologiya, davlat ta'lim standartlari, innovatsion ta'lim muhiti

Hozirgi kunda nafaqat erkaklar, ayollar ham tadbirkor bo'lishmoqda. Tadbirkor ayollarning ko'payib borishi endi bir necha yil avvalgidek ajablantirmaydi. Lekin, albatta, ayolni erkak tadbirkordan ajratib turadigan ba'zi xususiyatlar mavjud.

Tadbirkor ayollar uchun eng muhim psixologik xususiyatlar: yuqori muloqot qobiliyatlari va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishda jasorat; yetakchilik, hissiy barqarorlik; fikrlashning amaliy yo'nalishi; urf-odatlarni yangilik bilan birlashtirishga, tavakkal qilishga moyillik...

Zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik umumiy iqtisodiy funksiya, har qanday jamiyatga xos bo'lgan iqtisodiy va iqtisodiy rivojlanish shakllaridan biri sifatida qaraladi. Tadbirkorlikning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadi ishlab chiqarishni inqilob qilish va isloh qilishdir. Tadbirkorlik tufayli ishlab chiqarish texnologiyalari modernizatsiya qilinmoqda, tovar va xizmatlar yaxshilanmoqda, asl manbalar va xom ashyo turlari ochilmoqda, savdo bozorlari rivojlanmoqda, ilgari noma'lum bo'lgan kasblar paydo bo'lmoqda yoki uzoq vaqt unutilgan kasblar tiklanmoqda, qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etilmoqda. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, shu bilan umumiy boylikni, aholining moddiy farovonligini va shaxsiy foydasini oshirish uchun tadbirkor doimiy ravishda ishlab chiqarishning asosiy omillarini - mehnat va kapitalni birlashtiradi.

Iqtisodchi va Nobel mukofoti sovrindori fon Xayekning Fridrixning fikriga ko'ra, tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning maxsus shakli emas, balki ko'proq odamlarning xulq-atvoriga xos xususiyatdir.

Hozirgi O'zbekiston sharoitida talaba – qizlarni va umuman ayollarni tadbirkorlik faoliyatga o'rgatish oliy ta'lim muassasalarida "Texnologiya" fani jarayonida innovatsion yondashuv asosida o'rganiladi.

Texnologiya ta'limi yo'nalishi o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar, texnologiya ta'limi yo'nalishi o'qituvchisining pedagogik faoliyati tuzilmasi va umumiy tavsifnomasi, pedagogik funksiyalari, o'ziga xos subyektiv xususiyatlari va kasbiy muhim sifatlari ko'rib chiqilgan. Talaba-qizlarda xalq hunarmanchiligi bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish psixologik-pedagogik muammo sifatida o'rganilgan, hozirgi zamon sharoitida texnologiya ta'limi yo'nalishi o'qituvchisini tayyorlash muammolari va uning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan zamonaviy talablar, innovatsion ta'lim sharoitida "Xalq

hunarmandchiligi" fanini o‘qitish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatidagi talqin etilgan, texnologiya ta’limi yo‘nalishi o‘qituvchisini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, bo‘lajak texnologiya ta’limi yo‘nalishi o‘qituvchisini xalq badiiy xunarmandchiligiga o‘rgatish asoslari, talaba-qizlarda xalq hunarmandchiligi bo‘yicha bilimlarni innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, kasbiy-metodik ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish texnologiyasi, ularda xalq hunarmanchiligi bo‘yicha kasbiy tayyorgarligini oshirishning pedagogik tamoyillari asoslab berilgan.

Bugungi kunda xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida bo‘ladigan ijtimoiy jihatlari o‘rganib borilmoqda. Yuqorida ta’kidlangan imkoniyatlardan kelib chiqib, o‘zbek milliy xalq hunarmandchiligini yoshlarga o‘rgatish va uni o‘qitish bo‘yicha Davlat ta’lim standart (DTS)lari asosida yangi dasturlar, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqildi. So‘nggi yillarda yangi zamonaviy ta’lim muassasalari barpo etildi va ularni zamonaviy o‘quv anjomlari, texnik vositalar bilan ta’minlandi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida texnologiya ta’limi yo‘nalishi o‘qituvchilarini tayyorlashda ularga xalq amaliy san’atini innovatsion texnologiyalar asosida o‘rgatish va uning metodikasini yaratish pedagogikaning oliy ta’lim muassasalarida o‘quv faoliyatini takomillashtirishda muhim o‘ringa ega.

Innovatsiya – yangiliklar, yangiliklarni amaliyotga joriy etish demakdir. Ta’lim tizimida innovatsiya – ta’lim muassasalarini rivojlantirish maqsadida an’anaviy tizimni isloh qilgan holda yangiliklardan, yangi metodlardan keng foydalanishni anglatadi.

Innovatsiyalar – ta’lim rivojlanishining muhim elementlari. Ular muhim ahamiyatga ega tizimli yangiliklardan iborat.

Innovatsiyalar turli tashabbus va yangilanish asosida yuzaga keladi hamda ta’limni tadrijiy ravishda takomillashtirish uchun istiqbolli hi-soblanadi, shuningdek, ta’lim muhitining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida ta’limda, uning mazmuni va sifatida muayyan darajada muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Tashabbuslar pedagogik faoliyatning yanada istiqbolli shakllari va vositalarini izlab topishda, ya’ni metod va usullarni amalda sinab ko‘rishda, umuman, ta’lim sohasidagi tabiiy-tadrijiy takomil jarayonida yuzaga keladi.

Tashabbuslar pedagogik tajribalar almashish hamda ularni keng yoyish jarayonida, pedagoglarning ijtimoiy harakati hamda ommaviy tashabbus-larni shakllantirishda yanada mustahkamlanadi. Natijada, yangi ijtimoiy-pedagogik, psixologik va ijtimoiy-madaniy g‘oyalarni ilgari suruvchi tashabbuskor va novator pedagoglar guruhi shakllanadi. Hozirgi vaqtda pedagogik innovatika mustaqil ilmiy soha sifatida shakllan-tirilmoqda. Pedagogik innovatika pedagogik innovatsiyalar tabiatini, uning vujudga kelishi va rivojlanish qonuniyatlarini, ta’lim subyektlari faoliyatini innovatsion nuqtayi nazardan o‘rganadi

Hozirgi zamonda “innovatsiya” tushunchasi biron-bir turdagi faoliyatni tapkibiy jihatdan yangilanishini, tubdan o‘zgartirilishini ifoda etadi.

Mavjud narsaning yangi holatga o‘tishi yoki yangicha sifat kasb etishi bilan bog‘liq jarayon innovatsiya sifatida e’tirof etiladi. Bu jarayonni ba’zida yangilikning

amaliyotga joriy etilishi deb ham atashadi. Innovatsiyalar, dastavval, inson ongida mavjud reallik bilan uning ideal holati o‘rtasidagi tafovut sifatida shakllanadi. Aksariyat xollarda innovatsion g‘oyalar tez o‘sib borayotgan ehtiyojlar bilan nisbatan sust rivojlanayotgan ishlab chiqarish tizimining potensial imkoniyatlari o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni bartaraf etishga intilish asosida shakllanib boradi. Innovatsion sohaning xususiyatlarini nazariy jihatdan o‘rganish ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi konsepsiyalar keng rivojlana boshlagan va jahon iktisodiyotida innovatsion faoliyatning faollashuvi kuzatilgan davrlarda (XX asrning 60-yillaridan boshlab) nihoyatda dolzarblashdi.

Innovatsion sohaga taalluqli muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilishga uringan olimlarning ilmiy ishlarini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, muayyan innovatsiyaning

muvaffaqiyati va tavsifi pirovard natijada, aniq tarmoqning, mintaqa, mamlakat, qolaversa, korxonaning innovatsion potensiali qandayligiga bog‘liq bo‘ladi.

Respublikamiz iqtisodiyotini takomillashtirish va jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashtirish uchun mamlakatimiz pedagogik oliy ta’lim muassalarining ilmiy potensialidan o‘rinli foydalanish zarur. O‘z navbatida, bu masala mintaqaviy miqyosda amalga oshiriladigan innovatsion va fan-texnika siyosatini yuritish borasida qilinishi lozim bo‘lgan ishlar tizimida oliy ta’lim muassasalarining innovatsion salohiyati tutgan o‘rinni belgilab beradi.

Innovatsion jarayonning 7 ta elementini bir doirada birlashtirish mumkin: innovatsiyada innovatsiya; marketing innovatsiyasi; innovatsiyani ishlab chiqish; innovatsiyalarni amalda joriy etish; nnovatsiyani siljitish; innovatsiyaning iqtisodiy samarasini baholash; innovatsiyani tarqatish.

Bugungi kunda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida texnologiya ta’limi yo‘nalishi o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish yo‘lida “xalq hunarmandchiligi” fanining o‘qitilishini shaklan va mazmunan takomillashtirish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualar va o‘quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatlarini ta’minlash va mazkur soha o‘qitilishining ilmiy-amaliy masalalarini to‘g‘ri hal etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida texnologiya ta’limi yo‘nalishi o‘qituvchilari-ning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish muammosi ularning xalq hunarmandchiligidan muammoli masalalarning mohiyati anglab yetishi, muammolar yechimini topish yo‘lida shaxsiy ehtiyoji, qiziqishi, mayli, qobiliyati, iste’dodi, salohiyati bilan bog‘liq ravishda olib qaraladiki, bu o‘z o‘rnida mustaqil fikr yuritishning mustahkam negizini tashkil etadi. Bu borada ijtimoiy foydali mehnat faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, ijodkorlik, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviyatli, ma’rifatli insonlarni tarbiyalish imkonini beradi.

Yuqorida belgilangan maqsadli vazifalarni amalga oshirishda hunarmandchilik sohasidagi muammolarni xorijlik olimlar, ekspert va mutaxassislar ishtirokida muhokama qilish hamda bu borada nazariy va amaliy tajriba almashish, hunarmandchilik yo‘nalishida foydalanilmayotgan imkoniyat va resurslarni aniqlab,

sohani rivojlantirish istiqbollarini belgilash, hunarmandchilik sohasida madaniy va tarixiy jihatdan chuqur izlanishlar olib borish, ilmiy-amaliy hamkorlikni kengaytirish va amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlari natijalarini ommalashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'zbek xalq hunarmandchiligidan mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun real muhit yaratilishi kerak. Boshqacha aytganda, oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan mashg'ulotlarni doimiy ravishda yangi innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish orqali aniq maqsadga erishish mumkin bo'ladi. Bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim-tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qolaveradi. Shunga ko'ra, hozirgi kundagi eng dolzarb masala xalq hunarmandchiligi sohasida mashg'ulotlar tashkil etishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-pedagogik va konseptual asoslarni oydinlashtirish metodkasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlosh lozimki, o'zbek ayollari qadimdan o'zining oqilaligi, tadbirkoligi bilan boshqa sharq xalqlari ayollaridan ajaralib turgan. Shuning uchun ham respublikamizda yosh qizlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tadqiq qilish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.//Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017 -92 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi 3770-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.06.2018 y., 07/18/3777/1325-son.

3. Sharipova G.S. Role national decorative elements in edicfting young generation //Eastern European Scientific journal. №3. – 2018. ISSN: 2199-7977. б.90-94.

4. Sharipova G.S. Corporate basics of preparing students for professional pedagogical activity// International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119.© 2019 International Journals of Sciences and High Technologies.

5. Umarova Z.S. "Problems of forming students's skills for creating suits for theater settings and films in the field of suit design" // Asian Journal of Research № 4-6, 2020 ISSN 2433-202.

6. Маскевич Т.И. Азбука кройки и шитья. Москва "МЕТ" 2000. 336 с.

7. Виноградова Е. В. Модели креативного обучения // ҳттпс://пглу.ру/уплоад/иблоск/бб8/уч_2010_и_00013.пдф.

8. Гилфорд Г. Структурная модел интеллекта. Психология мишления. – М.: Прогресс, 2003. – п.75.

9. https://www.undp.org›content

10. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND SKILLS OF FUTURE TEACHERS. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 8894-8903.
11. Sharipova, G. S. (2022). DISTRIBUTION AND MODERNIZATION OF ADVANCED PEDAGOGICAL PRACTICES IN THE LESSON PROCESS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(06), 12-15.
12. https://www.lecolevancleefarpels.com/en/sessions/savoir-faire
13. https://worldofresearch.ru/index.php/wsjc GERMANY, 2024
14. http://www.newjournal.org/
15. http://web-journal.ru/

PEDAGOGLARDA KOMMUNIKATIV BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sharofiddinova Madinabonu Umarjon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
PP-101- guruh magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o'qituvchilarda kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari haqida so'z boradi. Maqolada ta'limning shakllanishida va o'quvchilarning rivojlanishida o'qituvchining ta’lim jarayonidagi roli, boshqaruv va muloqotga kirishimli bo‘lishi, shuningdek kasbiy faoliyatda ilgarilab borish uchun samarali muloqot ko'nikmalari nazariy asoslarini bilish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so‘zlar: pedagog, nazariya, oliy ta’lim, kommunikatsiya, talaba, muloqot, kompetensiya, usul, yondashuv.

O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilangan bo‘li, ushbu maqsad yo‘lida qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasi doirasida 2024 yilga yurtimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nom berilgani juda muhimdir.

Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”. Yangi O‘zbekiston uchun eng muhim masala bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilishi, sifatli ta’lim mamlakatning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

«Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun»ning 11-moddasida «Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi» deb belgilangan.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya sifati o‘ta muhim, muammoli va dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, boshqa barcha ijtimoiy masalalar, siyosiy muammolar va iqtisodiy ko‘rsatkichlaraynan ta’lim sifati darajasiga bog‘liq holda rivojlanadi.

Qolaversa, ta’lim sifati, bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish davlat va jamiyat taqdirini, butun ta’lim sifati dolzarb sotsiologik masalalardan biridir. Bu haqda –O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida 2024 yil 5-fevralda ta’lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishida “Talabalar uchun oliygohlarda mustaqil ishlashga muhit yaxshi emas, ayrim rektorlarda tashabbus, intilish, fidoyilik yetishmayapti”, -deya ta’kidladi. Shu sababli ham ta’lim sifatini-hayot kafolati deb izohlash xato bo‘lmaydi.

Jahon ta'lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan ta'limiy va tarbiyaviy ishlar ko‘lamini kengaytirish, mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borishga e'tiborni qaratish masalalari dolzarblik kasb etmoqda, Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy faoliyatni tarkib toptirishda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, intellektual saloxiyatni oshirishga erishish masalasi o‘ziga xos ahamiyat ega deb topilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim orqali rivojlantirish birinchi navbatda, faoliyatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish bilan izohlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy faoliyatli tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonlarida shaxsiy va kasbiy sifat, qat’iyatlilik, qiziqish, boshqaruvchanlik, liderlik, tashabbuskorlik, eng yaxshi yo‘lni tanlash qobiliyatini egallaganlik darajasi, ijodkorlik, izlanuvchanlik, bilimdonlik, muloqatchanlikni tarkib toptirish masalalari muhim o‘rin tutmoqda.

Bugungi kunda fikrlashni, tafakkur qilishni rivojlantirish vositalarini izlash muammosi bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish bilan bog'liq qobiliyatlarga tegishli ekanligini ifodalaydi. Bu jamiyatning rivojlanish sur'atlarining tezlashishi bilan bog‘liq jarayon sifatida qabul qilingan bo‘lib, bunda ta'lim muassasasi oldida turgan asosiy talab va vazifa talaba-shaxslarni hayotga va mehnat faoliyatiga tayyorlash zarurati mavjud talablarning tez o‘zgaruvchan shartlarida o‘z ifodasini topadi. Zamonaviy ta'lim strategiyasida barcha bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z boshqaruvchanlik iqtidori va ijodiy salohiyatini namoyon etish imkoniyatini yaratish masalasiga aloxida e'tibor qaratilgan bo‘lib, bunda ta'lim mazmunidagi o‘zgarishlar, jamiyatning standartlari va ehtiyojlari ijodiy shaxsni shakllantirish va uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan belgilanadi. Bunday sharoitda ta'lim muassasasi faoliyati juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pedagogik tizimlar uchun zarur shart-sharoitlarni o‘rganadi, har bir bo‘lajak o‘quvchining ijodkorligini oshkor qilish va rivojlantirishga to‘g‘ri yo‘naltiradi, shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi [3. 5].

Dunyoda oliy ta’limning asosiy tendensiyalari sifatida oliy ta’limning ommaviy tus olayotganligi, yildan-yilga sifatili oliy ma’lumot olishni xohlovchilar sonining keskin oshib borayotganligi, ularning o‘qish ehtiyojlarining kengayib borishi o‘quv reja va dasturlarini diversifikasiyalashni taqozo etayotganligi, yangi va yangi mutaxassisliklarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda [3. 5].

Zamonaviy oliy ta'lim kelajak oliy ta’lim o‘qituvchilari uchun yangi va xilma-xil qiyinchiliklar tug'diradi. Ular nafaqat talabalarni o‘qitishadi, balki o‘quv rejalarini

boshqarish, ta'lim sifatini baholash, shuningdek oliy ta’lim sharoitini rivojlantirish bilan ham shug'ullanadilar. Bularning barchasi ulardan yuqori kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalarini talab qiladi. Kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanishi oliy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining muhim elementi hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmalar ularga o‘quv jarayonlarini samarali boshqarishga, talabalarning sifatli ta'lim olishiga hissa qo‘shishga va zamonaviy oliy ta'limning qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi [2. 4].

Bo`lajak o`qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish muvaffaqiyati, kasbini san’at darajasiga olib chiqib, o‘nlab, yuzlab shogirdlar tayyorlaganligi uchun berilgan unvondir. Yoki ma’lum bir dunyoga yangi ko‘z bilan qayraydigan, uddabiron, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas’uliyatli vazifadir. Pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas’uldir. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kommunikativ kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim [4. 3].

Ma’lumki, ta’lim jarayoniga an’anaviy yondashuv, asosan, bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini shakllantirishga qaratilgan. Bu ko‘p hollarda bo‘lajak o‘qituvchilarning yaxshi biliomga ega bo‘lgan mutaxassis bo‘lib yetishishiga olib keladi, ammo amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning ko‘pchiligi bu bilim, ko‘nikma va malakalardan o‘zlarining kelajak kasbiy faoliyatida samarali foydalana olmayapti. Ta’lim jarayoniga kompetentli yondashuv esa quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi: o'qitish maqsadlarini ta'lim oluvchilarning shaxsiy maqsadlari bilan muvofiqlashtirish; ta’lim oluvchilarning mustaqilligi va ma’suliyatining doimiy oshishi hisobiga o‘qituvchi mehnatini yengillashtirish; o‘quvchilarni o‘quv material mazmuni va hajmini qisqartirish hisobiga emas, balki individual mustaqil ta’lim ulushini oshirish hisobiga band qilish; o‘quv va tarbiyaviy jarayon birligini nazariyada emas, balki amaliyotda ta’minlash; ta’lim oluvchilarni ongli va ma’suliyatli ta’lim olishga tayyorlash [1. 3].

O‘qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan insoniy fazilat hamda xushmuomalalikni o‘zida shakllantirishi uchun muntazam faoliyat olib borishi zarur. O‘qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagi tizimlarini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbiy faoliyat jihatidan o‘z-o‘zini anglashni (muomalada o‘zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o‘zaro fikr almashish asosida o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.

2. O‘z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo‘nalishlarda baho berish maq-sadga muvofiq: kishilar bilan bo‘lgan muomaladan so‘ng olingan taassu-rotlarni tahlil qilish,

o‘quvchilar bilan muomalaning so‘nggi holatlarini o‘rganib, muomala haqida o‘zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o‘qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o‘quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lish.

3. O‘zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o‘z-o‘ziga ta’sir o‘tkazuvchi “autogen” mashqlar asosida ishlash.

4. O‘quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o‘zaro fikr almashish faoliyatida ko‘nikma va malakalar (ma’ruzalar, suhbatlar, kamolot yoshlar uyushmalari) hosil bo‘ladi.

5. So‘z bilan og‘zaki ta’sir o‘tkazishda salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

6. Xushmuomalalikka milliy an’ana va urf-odatlarimiz, o‘zbekona muomala madaniyati, milliy ma’naviyatimiz nuqtai nazaridan yondashish.

7. O‘z ona tilida puxta, lo‘nda va jarangdor so‘zlar tuza olish va uni nut-qiy mahorat bilan ifodalash ta’lim muassasalarida o‘rganilayotgan har bir fan o‘qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlardan biridir.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyat olib borish o‘qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo‘lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O‘qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so‘z qudratini takomillashtirib boradi. U o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so‘z boyligini go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Zero, go‘zal va ta’sirchan so‘zlay bilish ham san’at. Bu san’atdan bebahra bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o‘qitishdan qat’iy nazar, o‘qituvchining asosiy quroli so‘z boyligidir, u so‘z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr. https://lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ2909-son Qarori. Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi. 2017

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni. Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi https://lex.uz/.

Axmedov, A. Y. (2020). Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jixatlari. Academic research in educational sciences, (4), 778-781.

Ahmedov. A & Egamberdiyev. O (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning pedagoik asoslari. “Science and innovation” international scientific journal,

https://doi.org/10.5281/zenodo.6653657

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI

Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna
Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi mudiri
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasini, xususan, ta’limning asosiy va hal qiluvchi bo‘g‘ini hisoblangan maktab ta’limi tizmi faoliyatini yanada rivojlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish, murabbiy va pedagoglar mehnatini munosib rag‘batlantirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ta’lim-tarbiya, ilm-fan va madaniyat sohasini uzviy rivojlantirish va ularni doimiy takomillashtirish ishlari davlat siyosatining asosiy va ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. O‘quvchi-yoshlarning munosib bilim olishlari, ma’nan va jismonan yetuk komil insonlar bo‘lib voyaga yetishlariga yetarlicha imkoniyatlarning yaratilayotganligi, ta’limdagi natijadorlik sondan sifatga o‘zgarganligi ta’lim-tarbiya tizmini rivojlantirish borasidagi ishlarning amaliy ifodasi bo‘lib, bilimga asoslangan iqtisodiyotning ustuvorligini belgilaydi.

Mohiyatiga ko‘ra, bilimlar jamiyati – bu insoniyat tomonidan to‘plangan nazariy-ijtimoiy bilimlar va sodir bo‘layotgan voqealarni tanqidiy aks ettirish asosida o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llarini izlayotgan ta’lim oluvchi, o‘rganuvchi intellektual jamiyatdir. Bilimlar jamiyatini yuzaga kelishini zamonaviy dunyoning o‘zgaruvchan iqtisodiy va siyosiy rivojlanish sur’atlari jarayonida raqobatbardosh bo‘lish va muvaffaqiyat qozonish zaruriyati taqozo etadi. Bilimlar jamiyati innovatsiya, tadbirkorlik va iqtisodiyotning o‘sishini rag‘batlantirish uchun o‘z fuqarolarining bilimlariga tayanadi. Bilimlar jamiyatida taraqqiyotga tayyor ensiklopedik bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash tamoyilining zamonaviy tendensiya va dinamik strategiyalar orqali inson kapitalini oshirish tamoyiliga transformatsiyasi orqali erishish mumkin.

Inson kapitali tushunchasi XX asrning 90-yillari boshlarida inson salohiyatini hamda insonga investitsiyalarning iqtisodiy xususiyatini e’tirof etish maqsadida qo‘llanila boshlangan bo‘lib, mazkur konsepsiyaga ko‘ra, inson – eng samarali kapital kiritishning obyekti, bu kapital bilim va mahoratni oshirishga xizmat qilib, kelgusida eng yuqori samara keltirishi maqsadini ko‘zlaydi. Insonning intellektual va amaliy salohiyatining ahamiyati hamda inson kapitali konsepsiyasini ilgari surgan siyosiy iqtisod fanining asoschisi A.Smit edi. U insonni ijtimoiy boylikning bir qismi va ishlab chiqarishning pirovard maqsadi, deb bilar edi [2].

XX asrga kelib esa bu tushuncha «inson kapitali» deb ataluvchi umuminsoniy va umumiqtisodiy qadriyat shaklini oldi. Chunki, Yevropa va jahonning boshqa qismlariga yoyilgan sanoat inqilobi va ishlab chiqarishning jadallashuvi bu jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi – insonning iqtisod, ishlab chiqarish, menejment va texnologik jarayonlardagi rolini keskin oshirdi [2].

Inson kapitali – shaxsning o‘zi va umuman, jamiyatning ko‘p sonli ehtiyojlarini qoplashga xizmat qiladigan bilimi, qobiliyati va ko‘nikmalari yig‘indisidir [2]. Inson

kapitali iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining to‘xtovsiz rivojlanuvchi va murakkab faktori bo‘lib, u o‘zida inson faktorining ishlab chiqarish faktori sifatida samarali va oqilona amalda bo‘lishini ta’minlovchi mehnat resurslarini, bilimlarni, aqliy va jismoniy mehnat unsurlarini, yashash shart-sharoitlarini, intellektual faoliyatni jamlaydi. Inson kapitali – bu professionalizm, intellekt, bilimlar, sifatli va yuksak samarali mehnat va yuksak turmush darajasi demakdir [2].

Inson kapitali – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy tushuncha (atama) bo‘lib, bu shaxsning [2]:

- fundamental va amaliy bilimi, tajribasi, ko‘nikmalari, tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga ilmiy-mantiqiy yondashish, ularning innovatsion yechimlarini topishdagi professionallik darajasi;
- intellektual mulki, moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmuining mavjudligi;
- aqliy mehnati va yuksak innovatsion tafakkuri, uning turmush darajasi va kasbiy karyerasining oshishi, jamiyatdagi mavqei va o‘rnini belgilovchi omil.

Inson kapitali tushunchasining markazida albatta har doim inson bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Ammo bugungi kunda bu tushunchaning zamirida yaxshi ta’lim olgan, ijodkor va tashabbuskor, yuqori professionalizmga ega inson yotmoqda. Shunga muvofiq, bugungi bilimga asoslangan iqtisodiyot davrida ta’lim va tarbiya faktori inson kapitalining shakllanishida muhim bo‘lgan professionalizm, bilimga intilish, axborot ta’minoti, sog‘liq, optimizm, tashabbus va mehnatsevarlik kabi xislatlarni rivojlantirish ustuvor hisoblanadi [2].

Bilimga asoslangan iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish fenomenining ustuvorligi davrida bo‘lajak kadrlarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr ko‘nikmalari o‘qituvchilar, biznes rahbarlari, akademiklar va davlat idoralari tomonidan XXI asr jamiyatida muvaffaqiyatga erishish uchun talablar sifatida belgilangan ko‘nikmalar, qobiliyatlar va o‘rganish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu xalqaro harakatning bir qismi bo‘lib, bo‘lajak kadrlar tez o‘zgaruvchan, raqamli jamiyatda faoliyat olib borayotgan tashkilotdagi muvaffaqiyatga tayyorlanishlari uchun talab qilinadigan ko‘nikmalarga e’tibor qaratadi. Ushbu ko‘nikmalarning aksariyati chuqurroq o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, ular analitik fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni egallashga asoslangan bo‘lib, ular an’anaviy akademik ko‘nikmalardan farq qiladi.

XXI asr ko‘nikmalari – bu bugungi bo‘lajak kadrlar axborot asrida o‘z martabalarida muvaffaqiyatga erishishlari kerak bo‘lgan 12 ta qobiliyatdir. Bular: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, aloqa, axborot savodxonligi, media savodxonligi, texnologiya savodxonligi, moslashuvchanlik, yetakchilik, tashabbuskorlik, samaradorlik, ijtimoiy ko'nikmalar.

XXI asr ko‘nikmalarining har biri uchta toifadan biriga bo‘lingan: ta’limiy ko‘nikmalar; savodxonlik ko‘nikmalari; hayotiy ko‘nikmalar.

O‘rganish qobiliyatlari (4K) o‘quvchilarga zamonaviy ish muhitiga moslashish va yaxshilash uchun zarur bo‘lgan aqliy jarayonlar haqida o‘rgatadi.

Savodxonlik ko‘nikmalari (IMT) o‘quvchilar faktlarni, ma’lumotlarni va texnologiyalarni qanday ajrata olishlariga qaratilgan. Ishonchli manbalar va faktik ma’lumotlarni aniqlashga katta e’tibor qaratilib, uni internetni to‘ldirib borayotgan noto‘g‘ri ma’lumotlardan ajratib turadi.

Hayotiy ko‘nikmalar (FLIPS) o‘quvchilarning kundalik hayotining nomoddiy elementlarini ko‘rib chiqadi. Bu nomoddiy elementlar ham shaxsiy, ham kasbiy fazilatlarga qaratilgan.

Umuman olganda, bu toifalar o‘quvchilarning kelajakdagi karerasiga hissa qo‘shadigan XXI asrning o‘n ikki ko‘nikmalarini qamrab oladi. Bu martabaga tayyorlik ko‘nikmalarining to‘liq nazorat ro‘yxati emas, lekin ular XXI asr ko‘nikmalariga mos keladigan karera (martaba)ga tayyorgarlik ko‘nikmalaridir.

Ta’limiy ko‘nikmalar (4K). Learning Skills (The Four C’s).

4K – XXI asrning eng mashhur qobiliyatlari hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar, shuningdek, o‘rganish qobiliyatlari deb ataladi. Ular, shuningdek, shaxsning martaba intilishlariga qarab, ahamiyati jihatidan farq qiladi. XXI asrning 4K ko‘nikmalari quyidagilardir:

Tanqidiy fikrlash: muammolarga yechim topish.

Ijodkorlik: cheksiz fikrlash.

Hamkorlik: boshqalar bilan ishlash.

Muloqot: boshqalar bilan gaplashish, ular bilan munosabat va aloqaga kirisha olish.

Savodxonlik ko‘nikmalari (IMT). Literacy Skills (IMT).

Savodxonlik ko‘nikmalari ba’zan IMT ko‘nikmalari deb ataladi va ularning har biri raqamli savodxonlik va tushunishning boshqa elementi bilan bog‘liq.

XXI asrning savodxonlik ko‘nikmalari quyidagilardir:

Axborot savodxonligi: faktlar, raqamlar, statistika va ma’lumotlarni tushunish.

Media savodxonligi: axborot nashr etiladigan usullar va vositalarni tushunish.

Texnologiya savodxonligi: Axborot asrida imkon beradigan mashinalarni tushunish.

Hayotiy ko‘nikmalar (FLIPS). Life Skills (FLIPS).

Hayotiy ko‘nikmalar insonlarning shaxsiy hayotiga taalluqlidir, ammo ular professional ko‘nikmalarga ham kiradi. XXI asrning hayotiy ko‘nikmalari quyidagilardan iborat:

Moslashuvchanlik: kerak bo‘lganda rejalardan chetga chiqish.

Yetakchilik: jamoani maqsadga erishishga undash.

Tashabbuskorlik: loyihalarni, strategiyalarni va rejalarni mustaqil ravishda boshlash.

Samaradorlilik: har qanday vaziyatda samaradorlikni saqlab qolish, natijaga erishish.

Ijtimoiy ko‘nikmalar: o‘zaro manfaatlar uchun boshqalar bilan uchrashish va muloqot qilish.

XXI asr ko‘nikmalari har doim muhim bo‘lgan bo‘lsa-da, ular kundan-kunga tezroq harakatlanadigan jahon bozorida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu

ko‘nikmalarning barchasi bitta asosiy e’tibor – insonning o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Bu ko‘nikmalarning barchasi yuqori darajadagi fikrlashga asoslangan. Bu ko‘nikmalarni qanday qilib egallash va eng muhimi bu ko‘nikmalarga erishilganligini qanday qilib baholash mumkin? Tadqiqotchi F.R.Abdullayevning fikricha, XXI asr ko‘nikmalariga erishilganligini baholashni amalga oshirishda XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun mavjud bo‘lgan malaka standartlarini (21st Century Success Skills Standarts, 21CSSS) ko‘rib chiqish lozim, chunki bu malaka standartlaridan baholash uchun mezonlarni aniqlashtirib olishda foydalanish mumkin [1; 11-b.].

Bu standartlar o‘quvchilarning maktabdan ishga (ish faoliyatiga) muvaffaqiyatli o‘tishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy shaxsiy fazilatlar, bilim va ko‘nikmalarga qaratilgan. XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun beshta standart mavjud bo‘lib, ular quyidagilar [1; 12-b.]:

1-standart: shaxsiy muvaffaqiyatning o‘ziga xos xususiyatlari.

2-standart: muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlarni tadqiq qilish.

3-standart: tanqidiy fikrlash va axborotlar tahlilining obyektivligi.

4-standart: muammolarni o‘zaro bo‘g‘lash orqali ularni hal qilish.

5-standart: boshqalar bilan muloqoqt qilish va hamkorlikda ishlash.

Har bir standart o‘quvchilarning muvaffaqiyatli deb topilishi uchun erishishi kerak bo‘lgan asosiy maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu standartlar va maqsadlar XXI asr muvaffaqiyati ko‘nikmalari imtihonida o‘quvchilar bilishi kerak bo‘lgan talablarning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda o‘quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash ko‘nikmalari, jamoada ishlay olish, muloqotga kirisha olish, insonlar bilan aloqa o‘rnata olish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir o‘quv topshiriqlarini qo‘llash va ushbu topshiriqlar asosida baholash jarayonlarini tashkil etish o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat ko‘zlangan natijani erishish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, sifatli ta’limni ta’minlash orqali yangisha tafakkurni rivojlantirish, boshlang‘ish ta’limdanoq o‘quvshilarda mustaqil o‘qish va o‘rganish ko‘nikmalarini tarkib toptirish, kompetensiyaviy yondashuvga ustuvorlik berish orqali ta’lim oluvshilarda kreativ fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir manbalar tahlili va pedagogik kuzatishlarimizdan kelib chiqib, o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir ta’lim kontentlarini ishlab chiqish va o‘quv muhitini loyihalash va tashkillashtirish ta’lim jarayonining kontekstual va formal aspektlarini qamrab olishini va quyidagilarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi:

1. Ta’lim beruvchining rolining o‘zgarishi. Kompetensiyaviy paradigma sharoitida bilimlar “translyatori”, ma’lumotlarni yetkazuvchi maqomidan ta’lim jarayonini tashkil etuvchi, loyihalovchi, moderator, kouching, fasilitator, tyutor maqomiga o‘tish talab etiladi.

2. Maqsadlarni aniqlash. Yangi paradigma asosidagi axborot-ta’lim muhitida zarur bilim olishga motivatsiya uyg‘otish, olingan bilimlarni hayotda qo‘llash, self

motivation, nostandart vaziyatlarda muammolarning to‘g‘ri yechimini topish kabi maqsadlar ustuvorlik kasb etadi.

3. Ta’lim metodlari o‘zgaradi. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirilgan interfaol metodlarni qo‘llashni taqozo etadi.

4. Ta’lim sifatini baholashning yangi tizimlari. Bunda faqat olingan bilimlar baholanmasdan, balki shaxsiy motivlar o‘rganiladi, kompetensiyalar majmui hisobga olinadi.

5. Axborot-ta’lim muhiti. Kompetensiyaviy yondashuvda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatlar diktat va iyerarxiyaga emas, balki konstruktivizm hamda hamkorlikka asoslanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, XXI asr ko‘nikmalariga ega mutaxassis tayyorlash maqsadi nafaqat ta’lim mazmunini, balki o‘qituvchi faoliyati, o‘qitish usullari va axborot-ta’lim muhitini tashkil qilish jarayonini ham o‘zgartirishga olib keladi. Mamlakatimizning milliy ta’lim tizimida ilg‘or xorijiy tajriba hamda sohaga oid ilmiy tadqiqotlar asosida ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar bo‘yicha kompetensiyalarni ishlab chiqish va ta’lim standartlariga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kiritish vazifasi kompetensiyalarning to‘liq tasnifini tuzish hamda hayot davomida ta’lim paradigmasi kontekstida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, shaxsda XXI asrning eng muhim ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim strategiyasini yaratish bilan bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev F.R. (2023). O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarining shakllanganligini baholash. Педагогик ва психологик тадқиқотлар, 1(1), 10–17. https://doi.org/10.5281/zenodo.7548737

2. *Usmonov B.SH., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli (ilmiy-ommabop risola). –Samarqand: SamDU, 2015. -83 B.*

3. https://www.icevonline.com/blog/what-are-21st-century-skills

4. https://en.wikipedia.org/wiki/21st_century_skills

5. Trilling, Bernie and Fadel, Charles: *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*, Jossey-Bass (publisher), 2009. ISBN 978-0-470-55362-6. Retrieved 2016-03-13

TALABALARNI IJODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Shodmonova Shoira Saidovna
Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrasi professori
Adizova Gulzoda Mehriddinovna
Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan raqamli ta'lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga joriy etish istiqbollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha pedagogning kasbiy mahorati, zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalanishning asosiy pedagogik maqsadlarini bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta'lim texnologiyasi, axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyasi, texnologik innovatsiya.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarni kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim o‘rin tutadi. Talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish – bu, birinchi navbatda, faoliyatga ijodiy munosabatni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ijodkorlik mehnatga ijodiy munosabat jarayoni bilan integrativ yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarni shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarkib toptiradi, bunda qat'iyatlilik, kreativlik, kognitivlik, tashabbuskorlik, mustaqillik kabi fazilatlar tarkib topib boradi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga erishish, ularning o‘z qobiliyati va iste'dodini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”, – degan fikrlari o‘rinlidir [1].

Demak, talabalarni ijodkorlik foliyatini rivojlantirish vositalarini izlash muammosi ta'lim muassasi o'quvchilarining ijodkorligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo‘lib, bu jamiyatning rivojlanish sur'atlarining tezlashishi bilan belgilanadi. Axborotlashuv asrida talabalarni ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda innovatsion imkoniyatlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib bunda asosiy vazifa o‘qituvchilar zimmasiga tushmoqda. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, o‘z ustida doimiy ishlaydigan, bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtiruvchi, ishiga kreativ yondashuvchi o‘qituvchigina hal eta oladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarni ta'lim va tarbiya jarayonlarida o‘z-o‘zini rivojlantirmasdan turib ularda ijodiy faoliyatni tarkib toptirish qiyin kechadi. Talabalarning ijodkorlik faoliyatiga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi uchun uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va kreativ yondashish zarurligini belgilaydi. O‘quv materialini sust idrok etish jarayonida talabalarda ijodiy rivojlanish u qadar sodir bo‘lmaydi. Masalan: ijodiy faoliyatni tarkib toptirish uchun etarli bilim, ko‘nikma va malakani egallasagina unga samarali yondasha oladi, kerakli

ma’lumotlarni o‘zi eslab qolmasa, ulardan ijodiy faoliyatda etarli foydalana olmaydi, unda hech qanday ijodiy yondashish ko‘nikmasi shakllanmayqolishi tabiiy hol bo‘lib qoladi. Bu o‘rinda o‘quvchi va talabaning o‘z harakatlari, intilishlari, o‘z ustida muntazam ishlari natijasida ular kelajakda ijodkorlik faoliyatini shakllanish va rivojlantirish imkonini qo‘lga kirita oladi.

Zamonaviy talablar asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvini ta’minlashda AKT va raqamli texnlogiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, raqamli texnologiyalar foydalanuvchi manfaatlari uchun axborotlarni yig‘ish, tahrirlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiytexnik vositalar to‘plamidan iboratligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarni ta’lim vositalarining bir qator ko‘rsatkichlari bo‘yicha turlarga ajratish maqsadga muvofiq sanaladi.Chunonchi:

1. Pedagogik masalalari bo‘yicha:

a) tayanch tayyorgarlikni ta’minlovchi vositalar: elektron darsliklar, ta’lim tizimlari, bilimlarini

nazorat qilish tizimlari;

b)amaliy tayyorgarlik vositalari: masalalar to‘plamlari, raqamli texnologiyalar, virtual

konstruktorlar;

d) yordamchi vositalar: adabiyotlar, rivojlantiruvchi kompyuter o‘yinlari, multimediyali video

darslar;

2. Ta’lim jarayonini tashkil qilish bo‘yicha:

a) axborot-ta’lim resurslari;

b) interfaol;

Yuqorida ilgari surilgan fikrlarni inkor etmagan holda aytadigan bo‘lsak, raqamli texnologiyalarni qo‘llash talabalarning qiziqishlarini oshirishga va ijodiy faoliyatga motivatsion yondashuvni shakllantirishga yordam beradi, chunki talabalarning individual ta’lim imkoniyatlarini va ehtiyojlarini maksimal hisobga olish, o‘quv mashg‘ulotlari mazmuni, shakllarini tanlash keng imkoniyatlari, ularning ijodiy imkoniyatlarini ochib berish, zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan raqamli o‘quv resurslarini, individual testlar masofaviy darslarni tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

Raqamli ta’lim nafaqat raqamli ta’lim vositalari orqali o‘quv jarayonini davom ettirish, balki ta’lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qilishga qaratilgan faoliyat turi sanaladi. Demak, o‘quv jarayoniga raqamli ta’limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari tarbiya fani o‘qituvchisining innovatsion faoliyatini asosiy mexanizmlaridan biri sanaladi. Raqamli ta’lim pedagogga ma’lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi. Shunga ko‘ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter, aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan radio, televizor,

zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalar, podkasting, striming va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, veb-xizmatlar, mobil ilovalar va boshqalardan foydalangan holda keng ko‘lamli kasbiy, kognitiv, hordiq chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o‘rin tutadi.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha pedagogning kasbiy mahorati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) ta’lim tizimining global axborot jarayonlariga jalb qilinishi to‘g‘risida xabardorlik;

b) deyarli cheksiz miqdordagi ma’lumotlarga va ushbu ma’lumotlarni tahliliy qayta ishlashga

samarali kirish usullarini o‘zlashtirishga tayyorlik;

d) innovatsion pedagogik natijalarni olish uchun zamonaviy axborot muhitida pedagogik g‘oyalarni shakllantirishga imkon beradigan shaxsiy ijodiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga intilish, shuningdek, o‘ziga xos axborot muhitini yaratish;

e) ilmiy va ijtimoiy tajribani birgalikda rivojlantirishga, axborotning o‘zaro ta’sirining barcha

subyektlari bilan birgalikda aks ettirish va o‘z-o‘zini aks ettirishga tayyorligi;

f) ma’lumotlarni olish, tanlash, saqlash, takrorlash, taqdim etish, uzatish va integratsiya qilish kasbiy madaniyatni o‘zlashtirish;

g) doimiy o‘zgarib turadigan axborot jamiyatida, uzluksiz ta’lim sharoitida kasbiy o‘sishning muhim yo‘nalishi sifatida zamonaviy interfaol telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik;

h) axborot va ta’lim muhitini modellashtirish va loyihalashtirish va o‘z kasbiy faoliyati natijalarini bashorat qilish qobiliyati.

Bugungi sharoitda global axborot va raqamli ta’lim makoniga kirishga yo‘naltirilgan yangi ta’lim tizimi ishlab chiqilmoqda.Mazkur jarayon zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos keladigan va talabaning axborot jamiyatiga barkamol kirishiga hissa qo‘shishi kerak bo‘lgan ta’lim texnologiyalari tarkibiga tuzatishlar kiritish bilan bog‘liq pedagogik nazariya hamda o‘quv jarayonidagi sezilarli o‘zgarishlar bilan birga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2017. -488 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori.

3. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzaeva. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2022.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ODOB-AXLOQ KO‘NIKMALARI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK KATEGORIYA SIFATIDA

Shomalikova Dilfuza Shoyunusovna
T.N Qori Niyoziy nomidagi
O‘zPFITI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchisining odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif boshlang‘ich sinf o‘quvchisining odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi bolaning o‘zini anglashini, xulq-atvorning shaxsiy mexanizmlarini rivojlantirish, odob-axloqli g‘oyalar, tushunchalar va ular asosida axloqiy baholashni rivojlantirish, harakatlar uchun yangi motivlarning paydo bo‘lishini aytib o‘tganyu

Kalit so‘zlar: odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi, xulq-atvor, ijtimoiy sharoitlar va biologik omillar, jarayon, mohiyat, g‘oyalar, ma’naviy rivojlanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsining odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning barchasini uch guruhga bo‘lish mumkin: tabiiy (biologik), ijtimoiy va pedagogik. Atrof-muhit va o‘qituvchilarning ta’siri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan o‘quvchi ijtimoiylashadi, axloqiy xulq-atvorning zarur tajribasini oladi.

Biroq ko‘plab ijtimoiy sharoitlar va biologik omillar insonning odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishiga ta’sir qilishiga qaramay, shuni ta’kidlash kerakki, bu jarayonda pedagogik omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki ular birinchi o‘rinda boshqariladigan omillar hisoblanadi.

Rivojlangan odob-axloqli shaxsning mohiyati nafaqat u tomonidan olingan ijtimoiy xulq-atvorning bilimlari, g‘oyalari va tajribasidan, balki shaxs tomonidan atrofdagi voqelikka nisbatan ishlab chiqilgan munosabatlarning umumiyligidan iborat bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi shaxsining odob-axloq ko‘nikmalarini ishlab chiqishda o‘quvchilar turli xil faoliyat va aloqa turlari bilan shug‘ullanadigan obyektiv munosabatlarga ustunlik berish kerak. Ushbu munosabatlar pedagogik faoliyatning haqiqiy obyektini tashkil etadi.

Qiziqarli qonuniyat bor – agar bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi 7 yoshida yo‘qolgan bo‘lsa, u 15-16 yoshdan boshlab o‘qish uchun yetarli aqliy kuchga ega bo‘lmaydi, agar u 8 yoshida yo‘qolgan bo‘lsa – 16-17 yoshda, agar 9 yoshda bo‘lsa – 17-18 yoshda. Bu davrda o‘qituvchining shaxsiyati katta ahamiyatga ega, chunki uning ma’naviy boyligi natijasida bolalarning ma’naviy boyligi ko‘payadi.

Pedagogika odob-axloqli maktab ta’limi jarayonini o‘quvchilar va pedagogik jamoalarning maqsadli va izchil harakatlari majmui sifatida ko‘rib chiqadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu jarayon uzoq va uzluksiz bo‘lib, natijalar o‘z vaqtidan kechiktiriladi. Shaxsning odob-axloq ko‘nikmalarini

rivojlantirish o‘quvchi shaxsiyatidan tashqarida amalga oshirilmaydi. Shu bois “shaxsiyat” tushunchasini ko‘rib chiqamiz.

Shaxsiyat – bu alohida turdagi yaxlit ta’lim. Bu insonning ijtimoiy xususiyatidir. Inson rivojlanish jarayonida shaxsiyatga aylanadi. Insonning shaxsiyati o‘z-o‘zidan yoki ma’lum maqsadlarga muvofiq harakat qiladigan turli omillar ta’siri natijasida rivojlanadi. Shaxsiyat ko‘pincha ushbu shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlarini belgilaydigan barqaror psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida belgilanadi.

A.N. Leontiyev o‘zining “Faoliyat, ong, shaxsiyat” asarida shaxsiyat ham ishlab chiqarilgan bo‘lib, shaxs o‘z faoliyatiga kiradigan ijtimoiy munosabatlar tomonidan yaratilgan deb ta’kidlaydi.

Pedagogika fanida shaxsiyatning rivojlanishi deganda, atrof-muhit, irsiyat, ta’lim va tarbiya ta’siri ostida uning o‘zgarishi jarayoni va natijasi insonning ichki va tashqi potensial imkoniyatlarining rivojlanishi tufayli fiziologik, aqliy va ijtimoiy neoplazmalarning ko‘payishi sifatida tushuniladi.

Endi “odob-axloq” tushunchasini ko‘rib chiqaylik. Ilgari “odob” va “axloq” tushunchalari ajratilmagan bo‘lsa, hozir mualliflar bu tushunchalarni ajratmoqda.

“Axloq” torroq tushuncha sifatida subyektiv-individual odob sohasi, shaxsning axloqiy erkinligi sohasi sifatida talqin etiladi.

L.A. Grigorovich “axloq”ni mehribonlik, odob, intizom, jamoaviy kabi fazilatlar va xususiyatlarni birlashtirgan shaxsiy xususiyat sifatida tavsiflaydi.

V. Slastenin o‘zining “Pedagogika” asarida – bu “axloq” mehribonlik, odoblilik, halollik, rostgo‘ylik, adolat, mehnatsevarlik, intizomni birlashtiradigan, insonning individual xatti-harakatlarini tartibga soluvchi shaxsiy xususiyatdir, deb ta’kidlaydi.

L.N. Ovinova “odob” tushunchasining ta’rifini axloqiy meyorlarni bilishga asoslangan, uning o‘ziga, atrofdagi voqelikka bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladigan, shaxs axloqining subyektiv tomonini ta’kidlaydigan, uning shaxsiy axloqiy pozitsiyasini ifoda etadigan shaxsning mulki sifatida shakllantiradi.

Tadqiqotchilar odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishining turli xil ta’riflarini berishadi. Ulardan biri uni “obyektiv va subyektiv omillar ta’sirini ichki qayta ishlash va faoliyat va xulq-atvorda shaxsning o‘zini namoyon qilishi asosida ongni, hissiyotlarni, xulq-atvorni shakllantirish va sifatli qayta qurish jarayoni” deb ta’riflaydi, ikkinchilari – “shaxsning ijtimoiy harakatlarning asosiy madaniy qoidalarini ichkilashtirishi” sifatida, boshqalar esa – “axloqiy yutuqlar va ma’naviy yo‘qotishlarning o‘zaro ta’siri, ya’ni o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun dolzarb va zarur bo‘lishni to‘xtatgan o‘rganilgan meyorlar va fazilatlardan ozod qilish sifatida ta’kidlaydilar.

Insonning odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi uning hayoti davomida davom etadi, ammo axloqiy obrazning asosiy xususiyatlari bolalik, o‘spirinlik, yigitlik davrida shakllanadi.

L. Kolberg shaxsning odod-axloq ko‘nikmasi rivojlanishining quyidagi darajalarini aniqladi:

1-daraja – konvensiyadan oldingi (oldindan odob-axloqli),

2-daraja – konvensiya asosida (konvensiyaga oid odob-axloq),

3-daraja – post-konvensiya asosida (avtonom odob-axloq).

“Konvensiya asosida” atamasi insonning ma’lum bir jamiyatning qoidalari, meyorlari, konvensiyalari, uslubi va turmush tarzini tan olishi va tushunishini anglatadi. Bolaning odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– konvensiyadan oldingi daraja: birinchi bosqich – jazo va tanbehlardan qo‘rqib, meyor va qoidalarni buzmaslikdir, bu itoatkorlikdir;

– ikkinchi bosqich – kimdir kerak bo‘lganda o‘zini muayyan meyor va qoidalarga muvofiq tutish va ko‘pincha o‘zaro manfaat va manfaatga asoslangan narsa to‘g‘ri deb hisoblanadi;

– konvensiya asosidagi daraja (uchinchi bosqich) – atrof-muhit talab qiladigan va kutganidek harakat qilishdir, bu ko‘pincha shunga o‘xshash hayotiy vaziyatda bo‘lgan odamlardan talab qilinadi;

– “yaxshi bo‘lish” juda muhim, bu minnatdorchilik va hurmat ko‘rsatish, boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish, faqat haqiqatni aytishni anglatadi;

– to‘rtinchi bosqich – hozirgi vazifalarni barqaror bajarish. Barcha odamlar odob-axloq xulq-atvor normalari va qonunlarga qat’iy rioya qilishlari kerak, qonunlar boshqa qat’iy ijtimoiy majburiyatlarga zid bo‘lgan hollar bundan mustasno. Odob-axloq ko‘nikmalari psixologik nuqtai nazardan, iloji boricha ko‘proq odamlarning va ba’zi hollarda butun jamiyatning manfaatlariga javob beradigan narsadir;

– postkonvensiya asosidagi daraja (beshinchi bosqich) – turli odamlar ma’lum qoidalar, meyorlar, axloqiy qadriyatlarga nisbatan turli xil fikr va harakatlarga ega bo‘lishi mumkinligini ongli ravishda tushunish. Shu bilan birga, qoidalar, meyorlar va qadriyatlarning aksariyati ma’lum bir guruh odamlar bilan bog‘liq va ularga rioya qilish kerak.

Ba’zi axloqiy qadriyatlar dunyoning turli jamiyatlari uchun mutlaq va shubhasizdir: inson hayoti, erkinligi, diniy e’tiqodi, milliy an’analari.

– oltinchi bosqich – xulq-atvor butunlay o‘z-o‘zidan tanlangan va ongli ravishda, yaxshi tushunilgan va asosli axloqiy tamoyillarga asoslanadi.

Tadqiqotchi erta bolalikdan boshlab odob-axloq ko‘nikmalari, hukmlar, e’tiqodlarning odamlar hayotidagi ahamiyatini ta’kidladi, bu yerda bola ta’lim jarayonining subyekti sifatida o‘zining odob-axloqli xatti-harakatlarida faol va ta’sirchan harakat qiladi .

L. Kolbergning so‘zlariga ko‘ra, 8-11 yoshdagi bolalar o‘zlarini to‘g‘ri tutish boshqalarning umidlarini qondirish, ularga quvonch keltirishni anglatadi, ular o‘zlari haqida yaxshi o‘ylashlari kerak va butun muhit ularning fikrlari bilan o‘rtoqlashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining odob-axloq ko‘nikmalari rivojlanishi bolaning o‘zini anglashini; xulq-atvorning shaxsiy mexanizmlarini rivojlantirish; odob-axloqli g‘oyalar, tushunchalar va ular asosida axloqiy baholashni rivojlantirish; harakatlar uchun yangi motivlarning paydo bo‘lishini o‘z ichiga oladi. Bu bolaning ijtimoiy va aqliy rivojlanishining umumiy jarayoni, ajralmas shaxsni shakllantirish bilan bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining odob-axloq ko‘nikmasini rivojlantirish – bu asosiy axloqiy tushunchalar asosida ishlab chiqilgan jamiyat tomonidan o‘rnatilgan odob-axloq namunalarini rivojlantirish orqali bolaning axloqiy tajribasini olish jarayonidir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirishda uning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, bolaning ongi va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’lim usullari va shakllarini to‘g‘ri tanlash kerak. Pedagogika fanida shaxsiyatning rivojlanishi deganda, atrof-muhit, irsiyat, ta’lim va tarbiya ta’siri ostida uning o‘zgarishi jarayoni va natijasi; insonning ichki va tashqi potensial imkoniyatlarining rivojlanishi tufayli fiziologik, aqliy va ijtimoiy neoplazmalarning ko‘payishi tushuniladi. Yuqoridagi tushunchalarga asoslanib, biz “oila”, “Vatan”, “xush kelibsiz” kabi odob-axloq qadriyatlarining mazmunini o‘zlashtirish va o‘zlashtirish jarayoni bo‘lgan “shaxsning odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish” kabi atamani aniqladik. Shaxsning rivojlanishi uning qadriyatlarni qabul qilish jarayonida sodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil 30 aprelda respublika referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori. www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. www.lex.uz
5. Hasanboyeva O. Milliy-ma’naviy qadriyatlarda komil inson tarbiyasi. – T.: 2. “O‘qituvchi”, 2011. -141-b.
6. Аникин, В.П. Устное народное творчество [Текст] / В.П. Аникин // Детская литература. Под ред. Е.Е.Зубаревой.– М., 1989. – С. 11-30.
7. Бабанский, Ю.К. Педагогика [Текст] / Ю.К. Бабанский. – М., 2013. – 413 с.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM UZVIYLIGI

Choriyeva Durdona Anvarovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sifati, ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va

jismoniy rivojlantirish hamda boshlang`ich ta`limga sifatli tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish yo`llari berilgan.

Kalit so‘zlar. Insoniylik, sog‘lom muhit, reabilitatsiya qilish, integratsiya.

Maktabgacha ta’lim ostonasiga ilk qadam qo‘yayotgan va endigina o‘z menini anglay boshlagan bolajon dunyoni yanada yorqin va go‘zal ranglarda taniy boshlaydi. Negaki, uydagi muhit qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘rni beqiyos. Chunki aynan shu maskan uzliksiz ta’lim olish jarayoniga qirishning birinchi pog‘onasi hisoblanadi. Aynan shu pog‘onadan boshlab yurtimizi farzandlarini kamol topishiga maktabgacha ta’lim tashkilotlarning sifati, ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” boshlang‘ich ta’limdagi o‘quvchining o‘qish sifati, bevosita, maktabgacha ta’limga bog‘liq. O‘ylaymizki, maktabgacha ta’lim tashkilotida sog‘lom muhit ta’sirida ham bolada dunyoqarash shakllanib, fikrlash va o‘z fikrini bayon eta bilish ko‘nikmalari ham shakllanadi. Bir so‘z bilan aytganda, maktabgacha ta’limda tarbiyalangan bola ruxan va jismonan maktabga tayyor bo‘ladi.

Bugun bolajonning jajji-jajji qadamchalari erta kelib yuksak, ezgu maqsadlarni ko‘zlab tashlanuvchi katta odimga aylanadi. Shuning uchun ham bolalarni ta’lim-tarbiyasiga e`tibor bermog‘imiz, uni kichikligidan boshlab kasbga yo‘naltirmog‘imiz biz pedagog-tarbiyachilarning muhim burchimizdir. Albatta, bu nafaqat burch balki, o‘z vatanining kelajak avlod farzandi taqdiriga befarq qaramaydigan har qanday mutaxassis, ota-onaning insoniylik vazifasidir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog‘chalar qurish bo‘yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Bu esa uzluksiz ta’lim sifatiga bo‘lgan e’tiborning yuqori ekanligidan darakdir.

Bilimga chanqoq, qalbi esa oppoq, porlab turgan ko‘zlarida beg‘uborlik aks etib turgan bolajonlar maktabgacha ta’lim tashkilotida u kim? bu nima? kabi o‘z olami uchun yangi bo‘lgan barcha savollarga javob oladilar. Bog‘cha tarbiyachisi aytib bergan ertak va hikoyalarni tinglab, bolada tasavvur olami kengayadi. Zo‘r qiziqish bilan yodlayotgan she`rlari esa, nutqini ravon qiladi va so‘z boyligini ortirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Yurtimiz kelajagi bo‘lmish bolajonlar o‘z bog‘chalarida chet tillarini o‘rganish bilan birgalikda estetik, axloqiy, jismoniy, mehnat va aqliy tarbiya olishlari uchun barcha zamon talablariga javob bera oladigon innovatsion-texnologiyalardan foydalanish barcha tashkilotlarga tatbiq qilinmoqda. Qarang, shunday muhitda tarbiyalangan bolajonlar maktab tomon ya`ni bilimlar olami sari shahdam qadamlar bilan tashrif buyurishadi. Bu yerda esa bolajonlar jonajon bog‘chasida olgan bilimlariga tayanib, maktabda hech qiynalmay, yangi tashkilotga

va jamoaga moslashish ko‘nikma hosil bo‘ladi. Negaki, uyda tarbiyalangan bolani maktabdagi o‘quv jarayoniga hamda sinf jamoasiga moslashuvi qiyin kechadi. Demak, maktabgacha ta’lim kichkintoylikdan maktab tomon eltuvchi ishonchli, mustahkam va albatta, muhtasham ko‘prik ekanda! Ilk qadamni aynan maktabgacha ta’lim tashkilotidan boshlanmog‘i porloq kelajakning poydevoridir.

Zero, bolalikda olingan bilim - toshga o‘yilgan naqsh kabidir. Shuning uchun ham yurtimizda maktabgacha ta’lim sohasiga katta e’tibor berilmoqda. Xususan, Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimi tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida “gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki uzluksiz ta’limning birinchi pog‘onasi bo‘lgan maktabgacha ta’limdagi jadal rivojlanish boshlang‘ich ta’limda o‘z aksini topadi.

Shuningdek, hozirgi kunda, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning uzviyligi, bolalarni maktabga tayyorlov jarayonlariga alohida etibor berilishi, va bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash yurtimizda keng miqyosda muhokama qilinib chora-tadbirlari olib borilmoqda. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, to‘laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o‘sishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son qaroriga muvofiq “Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to‘g‘risidagi” qabul qilingan Nizom fikrimiz yaqqol dalilidir. Ushbu Nizomda**:** Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarning quyidagi turlari faoliyat ko‘rsatadi:

- ❖ rivojlantirish guruhi;
- ❖ bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi;
- ❖ inklyuziv guruh;
- ❖ kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.

Rivojlantirish guruhi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun ularni har tomonlama kamol toptirish, tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish maqsadida tashkil etiladi. Rivojlantirish guruhi kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 30 nafar bola bilan to‘ldiriladi.

Bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi 5-6 yoshdagi bolalar uchun (umumta’lim tashkilotlariga qabul qilishdan bir yil avval) maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya olishida yordam berish maqsadida, shuningdek, bolalarni umumta’lim tashkilotlarida o‘qishga tayyorlash va teng imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko‘pi bilan 30 nafar bola bilan to‘ldiriladi.

Bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko‘pincha maktabgacha ta’lim tashkilotlari negizida, shuningdek, bo‘sh turgan xonalar bo‘lsa — umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, «Barkamol avlod» bolalar markazlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san’at maktablari negizida tashkil etiladi;

Inklyuziv guruh 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun o‘ziga xos ehtiyojlari bor bolani jamiyatga moslashtirishni ta’minlash, bolaning qonuniy vakillariga maslahat-metodik ko‘maklashish, o‘ziga xos ehtiyoji bor bolalarning bunday zaiflikka ega bo‘lmagan bolalar bilan birga o‘qishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar uchun bolalarni tarbiyalash, ta’lim berish, parvarishlash va ularga qarab turish masalalarida qonuniy vakillarga yordam berish maqsadda tashkil etiladi. Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh ko‘pi bilan 15 nafar bola bilan to‘ldiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qisqa muddatli guruhlar turiga qarab 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar qabul qilinishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qonun hujjatlariga muvofiq qisqa muddatli guruhlarning boshqa turlari tashkil etilishi mumkinligi” to‘g‘risida keng mulohaza qilinib chora-tadbirlari aytilib utildi.

Demak, fikrimiz so‘nggida shuni aytmog‘imiz kerakki, boshlang‘ich ta’limning sifati yanada yuqori bo‘lishida maktabgacha ta’limning o‘rni beqiyos ekan. Zero,bu fikrni nafaqat boshlang‘ich ta’limga nisbatan balki, inson hayotida maktabgacha ta’limning naqadar o‘rni katta ekanligini aytmog‘imiz ham ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son Qarori

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to‘g‘risidagi” 391-son Qarori

MUNDARIJA

1-sho‘ba

1. Kirgizbayev Abdug‘affor Karimjonovich. “YANGI O‘ZBEKISTONDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI”…… 3

2. Abdullayeva Barno Sayfutdinovna. BOSHLANG’ICH TA’LIMNI O’QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA-LARIDAN FOYDALANISH……. 4

3. Xazratqulov Abror. TARBIYA BIZ UCHUN YO HAYOT, YO MAMOT MASALASI……... 5

4. Zaripov Lochin Rustamovich. BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHNING RETROSPEKTIV TAHLILI..... 7

5. Abdikarimova Fatima Bakhromovna. SCHOOL TEACHERS WITHIN THE FRAMEWORK OF AN INTEGRATED CURRICULUM……. 12

6. Abdiyeva F.F. THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE PEDAGOGY IN THE PRIMARY EDUCATION SYSTEM…… 15

7. Abdufattoyeva Gulazzam Qobiljon qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL FIKRLASHLARI ASOSIDA KREATIV SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI O‘RNI. ……... 18

8. Abdullayeva Barno Sayfuddinovna, Aminova Nasiba. BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK VAZIFALARNI BAJARISHIDA REFLEKSIV YONDASHUV - TA’LIM SAMARADORLIGI OMILI SIFATIDA…… 23

9. Abdullayeva Barno Sayfutdinovna, Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDAN FOYDALANISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI..... 26

10. Abdullayeva Sevinch Jurabek qizi. YUQORI SINF O‘QUVCHILARI BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY PEDAGOGIK ISHLAR……. 31

11. Abduraxmonova Dinara Yusupovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI 4K MODELI ASOSIDA O‘QITISHNING O‘ZIGA XOSLIGI…… 33

12. Abduraxmonova Dinara Yusupovna, G'affarova Farangiz G'ayrat qizi. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI VA UNING MOHIYATI…… 36

13. Abdusattorova Zaynab Abdujalil qizi. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASHDA MANTIQIY SAVODXONLIKNING O‘RNI …… 38

14. Abdusoatova Zarnigor Otabekovna. TA'LIM MAZMUNINI O'ZGARTIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR……	40
15. Abdusoatova Zarnigor Otabekovna. TA'LIM SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR, ULARNING SALBIY VA IJOBIY TA'SIRLARI HAMDA YECHIMLARI……..	44
16. Abduraimova Sohiba Karimkul qizi. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA PEDAGOGIK TAHLILI.....	46
17. Abdusharipova Fazilat Farxodbek qizi. TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH - BUGUNGI KUNNING DOLZARB MASALASIDIR ……	50
18. Abralova Zabarjat Djurayevna, Qurbonova Maftuna Yusuf qizi. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH……..	55
19. Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Kamolova Nodirabegim Lutfullo qizi. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY TAFAKKURINI FANLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH.....	57
20. Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Normamatova Feruza Ovlayor qizi. O'ZBEK OILALARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI TARG'IB ETISH…….	61
21. Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi. BO'LAJAK BOShLANG'ICh SINF O'QITUVChILARINING KASBIY – PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRIShNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI ……..	64
22. Abubakirova Shaxlo Ulmesovna. BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINI IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI……	67
23. Abulova Mohigul Komiljonzoda. BO'LAJAK O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH……..	70
24. Adilova Munisa Furkatovna, Mirdjalilova Xilola Baxodirovna. O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH……..	73
25. Adilova Munisa Furkatovna, Ismailova Xilola Sotiboldiyevna. KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYASINING SHAKLLANTI-RISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI……	77
26. Adizova Gulzoda Mehriddinovna. KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING SAMARALI YO'LLARI……..	82

27. Атаджанова Феруза Бахтияровна, Мурадханова Арнелла Зафаржановна, Исламова Гульчехра Ташпулатовна. ПРОБЛЕМЫ, С КОТОРЫМИ СТАЛКИВАЮТСЯ УЧЕНИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. ……..	87
28. Ahmedov Farhod Saydaliyevich. ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARNI NUTQ MADANIYATI VA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI…….....	90
29. Ahmedov Farhod Saydaliyevich, STRESS VA AGRESSIYA, UNING XULQ-ATVORDA NAMOYON BO‘LISHI……..	100
30. Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna, Ergashev Shirinbobo Xotam o‘g‘li. TURKIY XALQLAR TA’LIM TIZIMI SHAKLLANISHIGA HISSA QO‘SHGAN ALLOMALARIMIZ IJODIDAN……	109
31. Artikbayeva Z.A. UMUMKASBIY FANLARNI O‘RGANISH JARAYONIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISNING TAFAKKUR MADANIYATINI MUVAFFAQIYATLI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI……	113
32. Aslanov Bobur Tuxtayevich. ICHKI ISHLAR ORGANLARI PROFILAKTIKA (KATTA) INSPEKTORLARINING HUQUQBUZARLIK SODIR ETISHGA MOYIL VOYAGA YETMAGAN VA YOSHLAR BILAN ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TA’LIM MUASSASALARI BILAN O‘ZARO HAMKORLIGI…….	116
33. Aytbayeva Gulchexra Yermekbayevna. TURKIY TILGA MANSUB XALQLAR MAQOLLARIDAGI BAGRIKENGLIK MAVZUSI…….	120
34. Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich, Jantleuova Jayna Nurlan qizi. TA’LIM-TARBIYADA QOZOQ MAQOL VA MATALLARNING AHAMIYATI……	124
35. Azizqulov Tohir Jahongir o‘g‘li. TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONIDA O‘QUVCHI QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH SHAKL, METOD VA VOSITALARI……	127
36. Ashurova Sojida Abdusamad qizi. INKLYUZIV TA’LIMNING MAZMUN -MOHIYATI……	130
37. Babamurodova D. BOSHLANG`ICH TA`LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO`LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH SHART – SHAROITLARI……	133
38. Bakiyeva Muxabbatxon Kamaliddinovna. BOSHLANG‘ICH SINFDA BAHOLASH TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA MUSTAQIL TA’LIMNING AHAMIYATI……..	136
39. Baltamuratova Aksungul Perdebaevna, Isabekova Diana, Yermekova Janerke. BOSHLANG'ICH TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	138

40. Baltamuratova Aksungul Perdebaevna, Xoldarova Aydin, Tulegenova Araylim. ZAMONAVIY BOSHLANGICH TA'LIMDAGI MAVJUD MUAMMOLAR……..	142
41. Baltamuratova Aksungul Perdebaevna, Zakirova Diyora, Ulashova F. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH.....	147
42. Baltamuratova Aksungul Perdebaevna, Temirova Rayhon Dilmurodjon qizi. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI……...	151
43. Baratova Hulkar Panji qizi. ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA BO'LGAN DAVRDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK QARASHLAR…….	155
44. Baratov Nasriddin Karshibayevich. O'QITISHDA TA'LIMIY METODLARNI MUVOFIQLASHTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI……..	160
45. Bazarov Xayotbek Ne'matovich. TEACHER PROFESSIONAL IDENTIFICATION DEVELOPMENT FACTORS…….	163
46. Berdibekova Feruza Abdumannob qizi. AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	168
47. Bobonazarova Sevara Odiljon qizI. ALISHER NAVOIY ASARLARINING ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARIGA MOSLIK IMKONIYATLARI ……...	172
48. Гулчехра Ташпулатовна Исламова, Бекирова Эльвина Реветовна. РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА КАК СРЕДСТВО ПРОФИЛАКТИКИ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ……..	175
49. Butaboyev Alimardon Alimjonovich, Axmedova Iroda Baxrom qizi, G'aniyeva Maxmuza Kozimjon qizi. ZAMONAVIY TA'LIMDA ONLINE KURSLARNI TASHKIL ETISHNING WEB TEXNOLOGIYALARI…….	178
50. Dedaboyeva Ozoda. BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA IXTIROCHILIK MUAMMOLAR YECHIMIGA OID TOPSHIRIQLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI…	181
51. Dexkonova Ma'mura Ulmasovna, Mansurova Sohiba Nasriddinovna, Berdiboyeva Dilbar Yuldashevna, Mamasobirova Klara Gulmuratovna. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUV AMALAIYOTLARNI TASHKIL ETISH……	185
52. Djanalieva Gulbaxram Abdurashitovna, Abduvaxidova Madina. BOShLANG'ICh TA'LIM FANLARINI O'QITIShDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLAShNING DOLZARBLIGI……	187

53. Boltayeva Shoxida TermizDU o‘qituvchisi GUMANITAR TA’LIM YO’NALISHLARI TALABALARIDA KO’P O’ZGARUVCHILI FUNKSIYALAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR……	190
54. Djumayev Jasur Mamanazarovich. ROBOTOTEXNIKA DARSLARIDA TALABALARNI AMALIY TOPSHIRIQLARNING BAJARILISHINI BAHOLASH MEZONLARI HAQIDA……..	196
55. Djumayev Mamanazar Irgashevich, Nurimbetova Shaxnoza G‘ayrat qizi. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTRISH OMILLARI……..	201
56. *Иномжонова Гавхарой Илхомжон кизи.* ВЗАИМОСВЯЗЬ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ С АГРЕССИВНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ……..	206
57. Исламова Гульчехра Ташпулатовна, Юлдашева Шахноза Шухратовна Рахмонова Мотабар Абдуазизовна. УЧЕБНАЯ НЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТЬ ДЕТЕЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. …….	210
58. Исламова Гулчехра Ташпулатовна, Юлдашева Турсиной Равшан кизи. РУССКИЙ ЯЗЫК КАК УЧЕБНЫЙ ПРЕДМЕТ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ……..	213
59. Мингбоева Мохина Тулкинжон кизи, Исламова ГульчехраТашпулатовна. ТРУДНОСТИ, С КОТОРЫМИ СТАЛКИВАЮТСЯ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. ……..	217
60. Манликова Минавар Халыковна, Тоялиева Элиза Рыспековна. ЭТНОПЕДАГОГИКА КАК СРЕДСТВО ВОСПИТАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ ЛИЧНОСТИ В СИСТЕМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. ……	219
61. Салаева Муборак Сабуровна, Жуманова Илахида Аманбаевна. ОСНОВНЫЕ ПРЕПЯТСТВИЯ В ПРОЦЕССЕ ВЫБОРА ПРАВИЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ИЗ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙ. ……	224
62. Усманова Сабохат Эркиновна. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. ……	228
63. Умиров Бауыржан Зайтович. ПЛАНИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ.	232
64. Djurakulova Elmira Suyunovna. ROMANLARDA SHAXS RUHIYATINI TASVIRLASHDA PEYZAJ VA PORTRETNING O‘RNI	237
65. Ergasheva Go‘zal Mahkambayevna, Urunbayeva Sumayra Ibragim qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI BARQAROR-LIGINI TA’MINLASHDA ABDURAUF FITRATNING MA’NAVIY QARASHLARI.....	240

66. Ergasheva Go‘zal Mahkambayevna, Salimova Sabohat Tulkinovna. TA’LIM TIZIMIDA O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONNI BOSHARISHDA PEDAGOGIK TALAB VA USULLARI.....	243
67. Ergasheva Go‘zal Mahkambayevna, Abdurasulova M. O‘ZBEKISTONDA TA’LIM VA INNOVATSIYALARNI O‘ZARO ALOQADORLIKDA RIVOJLANISHI ……...	245
68. Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Sapabayeva Mohlaroy Maqsudbek qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH…….	248
69. Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Eshankulov G‘ulom Ummatovich, Sapabayeva Mohlaroy Maqsudbek qizi. TENGDOSH VA TENG TUZILGAN FIGURALAR.	251
70. Юлдашева Хуршида Кодировна. ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИЕ - ЭТО ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ВРЕМЕНЕМ. ……..	
71. Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Xuramova Farangiz Uchqun qizi, Xolmirzayev Ubaydulla Mamarasul o’g’li. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH……..	255
72. Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Xuramova Farangiz Uchqun qizi, Xolmirzayev Ubaydulla Mamarasul o’g’li. INNOVASION YONDASHUV ZAMONAVIY MAKTABDA TA’LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHARTI SIFATIDA……..	258
73. Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna. KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH……	261
74. Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna, Egamnazarova Marg‘uba Rejab qizi, Abdusalomova Nodira Abdusalom qizi. TALABALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASh USULLARI……..	265
75. Hakimov Firuz Norboy o‘g‘li. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH …….……...	270
76. Hakimov Firuz Norboy o‘g‘li, Ismatova Mohichehra Nishonovna. RAQAMLI TA’LIM JARAYONINI ELEKTRON MUHITDA QURISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI ……..	273
77. Hamzayev Haqnazar Xo‘shmirzayevich. TA’LIMNI RAQAM-LASHTIRISHDA ONLAYN KURSLARNING AHAMIYATI.....	277
78. Hasanova Mahmuda Tixtayevna. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJTIMOIY FAOL KOMPETENSI-YALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI…	279
79. Hasanova Mahmuda Tixtayevna, Samiyev Javohir Murodjon o‘g‘li. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ISH SINF O‘QITUVCHILARINING	281

IJTIMOIY FAOL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALAR……..……..	
80. Hayitov Anvar Isomidin o‘g‘li. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI ……..	285
81. Hayitov Anvar Isomidin o‘g‘li. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK KOMPITENSIYALARNI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....	290
82. Ibragimova Gulsanam Nematovna. PEDAGOGIK FAOLIYATDA INNOVATSION TA’LIM TIZIMINING MODELINING O‘RNI.....	295
83. Imomova Sojida O‘ktamovna. BOSHLANG‘ICH SINFLAR TA’LIM JARAYONIDA TA’LIMIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	301
84. Inoyatova Z.X., Abdulazizova Sh.X., Jo‘rayeva M.J., Mo‘minova Sh.A. MAKTAB, OILA VA MAHALLA BILAN HAMKORLIKDA OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY HAMKORLIK FAOLIYATI.....	304
85. Isaqulov Mamadoli Ro‘zimorodovich. O‘QUVCHILARDA MILLIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	309
86. Ishbayeva Nazira Abruraimovna. KASBIY QAYTA TAYYORLASH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING DIDAKTIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI…….	312
87. Jabborov Xazrat Xusenovich. O‘ZBEKISTONDA MILLIY TARBIYANING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	316
88. Jabborova M.Q. BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHILARINI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMO VA YECHIMLARI.....	320
89. Jantleuova Jayna Nurlan qizi. MAQOL – NAQL SO‘Z VA SO‘Z KO‘RKI.....	327
90. Celal Alğan. TA’LIM JARAYONIDA MOTIVATSIYANING MUVAFFAQIYATGA TA’SIRI.....	331
91. Jumakulova Mavludaxon Xosilovna. ARALASH TA’LIMNING IMKONIYATLARI VA TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI.....	333
92. Kamoljonova Dilfuza Xoldorovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY TAJRIBALARI.....	337
93. Jo‘lmurodov Oybek Asliddin o‘g‘li. TALABALAR KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYA-LARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	341
	344

94. Kamolova Sh. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY MA’DANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH….....	346
95. Kamolova Sh. AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA YOSHLARDA AXLOQIY MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI….....	351
96. Karaboyeva Maxliyo Qodirjonovna. YANGI AVLOD DARSLIKLARI BILAN ISHLASHDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA SHAKLLANGAN PEDAGOGIK MOBILLIKNI AHMIYATI.....	354
97. Karimova Malohatoy Mo‘minjonovna, Solijonova Muhtasaroy Jaxongirbek qizi, Shavkatov Furqatbek Shuhratjon o‘g‘li. SHARQ UYG‘ONISH DAVRI BUYUK MUTAFAKKIRI ABU NASR FOROBIYNING AXLOQIY QARASHLARI…….....	357
98. Karimova Sabina Muxiddin qizi. BOSHLANG‘ICH TA’LIM TALABALARINING KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI…….....	362
99. Kasimova Odinaxon Alimjanovna. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARNI IMPROVIZATSION QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA VOSITALARI……..	366
100. Kashkinbayeva Zagira Kojabergenovna. PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF EDUCATIONAL WORK IN KINDERGARTEN…….....	371
101. Kenjaboyeva Nigora Mamayusufovna. BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING YANGILANISH JARAYONIDA INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR.....	375
102. Kenjayeva Dildora Terkashevna. KREATIV TALABA- DAVR TALABI ……..	379
103. Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA LINGVISTIK KOMPETENTLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH-IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURIYAT.....	382
104. Komilova Z.P. O‘QUVCHILARDA NUTQIY QOBILIYATLARNI OSHIRISH MASALALARI.....	387
105. Koshnazarova Maloxat Alimovna. KASBIY MOBILLIK BO‘LAJAK MUTAXASSISNING MALAKA TUZILISHINING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA…….....	390
106. Курбонова Сайора Раджабовна. СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....	395
107. Latipov Ravshanbek Ismayilovich. TAJRIBA-SINOV ISHLARINING SAMARADORLIK DARAJASI…….....….	400
108. Latipov Ravshanbek Ismayilovich. JISMONIY MADANIYAT TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINI KASBIY PEDAGOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI AHVOLI VA UNI PARAMETRLARI…….....	403

109. Magdieva Marxabo Erkinovna. HUNARMANDCHILIK ASOSIDA KASBIY-AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLAN-TIRIS MUAMMO VA YECHIMLARI HAQIDA.....	407
110. Mahmudova Shahrizoda Ravshan qizi. QOBUSNOMA ASARINING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	411
111. Mahmudova Shahrizoda Ravshan qizi . “QOBUSNOMA”DA O‘QUVCHILARGA KASB-HUNAR O‘RGATISH MASALALARI...	415
112. Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI ALIXONTO‘RA SOG‘UNIY MEROSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH……..	420
113. Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna. ONA VATAN MANFAATI YO‘LIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN JASUR AJDODLARIMIZ BUGUNGI DAVR YOSHLARIGA NAMUNADIR..	423
114. Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna, Atoullayeva Shaxnozabonu Azim qizi. YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI ROLI.....	426
115. Mamatova Mohiniso Davlatovna. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK JARAYONLARNI TASHKIL QILISHNING MOHIYATI, HOLATI VA MUAMMOLARI…….....	428
116. Mamarasulov Maxmud Jumaboyevich. O‘QUV JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	434
117. Masharipova Umida Abduvoxidovna. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH.....	437
118. Meyliyev Sobirjon Xolmurodovich, Axmedova Sharofat Qaxramon qizi, Toshmatova Nargizaxon Ergash qizi. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARNING MUSTAQIL ISH FAOLIYATINI JADALLASHTIRISH YO‘LLARI.....	441
119. Mirzayeva Farog‘at Odiljonovna, Yusupova Shahlo Otabekovna. AVLONIY IJODIY MEROSIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TARBIYA G‘OYASINING TARG‘IB ETILISHI.....	444
120. Mingboyev Shuxrat Mingboy o‘g‘li. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING RISKOLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH USULLARI…….....	446
121. Muxammadieva Xadicha Karomatovna, Karimova Sabina Muxiddin qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY-HUQUQIY ME’YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI…….....	450
122. Muxammadieva Xadicha Karomatovna, Saidaxmatova Laura Marat qizi. BOSHLANG’ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH…….....	454

123. Muxammadieva Xadicha Karomatovna, Abduraxmonova Dilshoda Sayfidin qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH…….....	459
124. Muxammadieva Xadicha Karomatovna, Komiljonova Xusniyabonu Mansurbek qizi. BOSHLANG'ICH TA’LIM O’QUVCHILARIDA BAHOLASH MUSTAQILLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA SHARTLARI……..	463
125. Nasurulazoda Maftuna Zokirjon qizi. BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI KENG KO‘LAMDA JORIY ETISH VA O‘QUVCHILARNING TAHLILIY HAMDA KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH.....	469
126. Nazarova Zarrina Allaberdiyevna. O‘QITUVCHILARDA KREATIV SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING JARAYONI.....	473
127. Ne’matullayev Azizjon Nurullayevich. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH.....	477
128. Nurbayeva Marvarid Tavakkalovna, Negova Marjona Sanjar qizi. ABDULLA AVLONIY QARASHLARIDA MILLIY PEDAGOGIKANING ROLI.....	481
129. Nurbayeva Marvarid Tavakkalovna, Negova Marjona Sanjar qizi. MILLIY PEDAGOGIKADA ABDULLA AVLONIY QARASHLARI...	484
130. Nuriddinova O‘lmasoy Vapoyevna. NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MATN TURLARINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI.....	487
131. Nyutonova Xilola Lochinbekovna. JADID MA’RIFATPARVARLARINING TA’LIM TIZIMIGA OID QARASHLARINING O‘ZIGA XOSLIGI…….....	491
132. Ozodova Muqaddas. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA CHET TILLARINI O‘RGATISH METODIKASI.....	495
133. Ochilov F.I, Jo‘rayeva Ruxshonabonu To‘ychizoda, Izatulloyeva Parvina Fariddunovna. O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MAKTAB, OILA VA JAMIYATNING BIRGALIKDAGI FAOLIYATI	499
134. Ochilov F.I, Olimova Shaxnoza Farxod qizi, Izatulloyeva Parvina Fariddunovna. “KERAKSIZLIKKA QARSHI” INNOVATSION PEDAGOGIK KURASH.....	501
135. Pardaev Bekmurat. JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING AHAMIYATI.....	504
136. Qarshiboyeva Dilfuza. YOSHLAR ILMIY DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHDA, SINCHKOVLIK TARBIYASINING O‘RNI.....	509

137. Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA DARSINING INTERFAOL METODLARI.....	511
138. Qodirova Xalimaxon Nurmuxammad qizi, Mo‘minova Nilufar Murod qizi, Inoyatova Guzal Ilhomovna. O‘QUVCHILARINING AQLIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TATBIG‘I.....	514
139. Qo‘ng‘irotova Anorxol Inoyatovna. RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	518
140. Qo‘chqorova Shaxnoza Satvaldievna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBIYALITINI RIVOJLANTIRISHDA MOTVATSIYANI UYG‘OTISH…….....	522
141. Rabbimov M.T., Rabbimov I.M. MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI.....	529
142. Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA O‘YIN TEXNOLOGIYA-LARIDAN FOYDALANISH MAZMUNI.....	531
143. Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna. BOSHLANG‘ICH SINF O'QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	534
144. Rasulova Zohida Sindarovna BOShLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI IJODIY O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH ……..	537
145. Raximova Gulbaxor, Bahriddinova Yulduz. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK ASARLAR ORQALI KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	540
146. Ruziyev Shuxrat Islamovich. PEDAGOGIKA OLIYGOHLARI TALABALARINI O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (IQTISODIY FANLARNI O‘QITISH MISOLIDA).....	544
147. Ro‘ziboyeva Ma’mura Abdunabiyevna. PEDAGOGIK KOOPERATIV TA’LIM ASOSIDA TALABALARNING TOLERANTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH ……	546
148. Saidova Barno Narzullayevna. AVESTO TA’LIMOTIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI VA TARBIYASINING VUJUDGA KELISHI.....	551
149. Saloxitdinova Navro‘za Murodulla qizi. STEAM TA’LIMINI JORIY QILISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	554
150. Сарсекеев Бауржан Сапарович. ПРОЕКТИРОВАНИЕ УЧЕБНОЙ КНИГИ СТУДЕНТА	558
151. Smetova Jumabiyke Hamidullayevna. MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARINI TUZISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISh MEXANIZMLARI.....	563

152. Sodiqova Dilfuza Ropijonovna, Ergashev Kamol. SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON" ASARIDA TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI.....	568
153. Soibnazarova Muqaddas. BOSHLANG`ICH TA`LIM O`QITUVCHILARINI PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV.....	571
154. Sultanqulova Gulnora Furqatjon qizi. TALABA YOSHLARNI INTELLEKTUAL IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH.....	573
155. Taylakova Guli Bekmuratovna. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI RAQAMLI TA‘LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH.....	576
156. Tashbayev Naim Sadikovich. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM SIFATINI BAHOLASH USULLARI	580
157. Tashtemirova Gulnoza Tashpo‘latovna. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILAR-DA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	583
158. Temirov Ma’ruf Shuhrat o‘g‘li, Roziqova Mo‘mina Lochinbek qizi, BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH SHART SHAROITLARI.....	587
159. Toshxo‘jaeva Nargiza, Saitqulova Movluda. INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI BOSHLANG‘ICH MAKTABDA O‘QITISH VA TA’LIMNI BIRLASHTIRISH MUAMMOSI.....	589
160. Turopova Maxliyo Erkin qizi, Abduhalimova Marjona. O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH YO‘LLARI.....	592
161. Turg‘anov Yo.I, Musrmonov Maqsudbek. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BUNYODKORLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH.....	595
162. To‘raqulova Iroda Xolbo‘tayevna. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING PSIXOLOGIK PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING IMKONIYATLARI….....	599
163. Umarov Alisher Yusubjanovich. BOSHLANG‘ICH SINFDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMDAN FOYDALANISHNING METODIK XUSUSIYATLARI.....	603
164. Uktamova Umida Sunatullaevna. TALABA-QIZLAR TAZYIQ VA TAJOVUZGA UCHRASHINI OLDINI OLISHDA TARIXIY MANBALARNING O‘RNI.....	606
165. Urazova Zulfiya Murtazayevna. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA FAZOVIY MUNOSABAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH.....	611

166. Uralova Gulbahor O‘ktamovna, Yusupova Nigora Shuxratjon qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	613
167. Uralova Gulbahor O‘ktamovna, Abduvaitova Gulhayo Alisher qizi. XALQ OG‘ZAKI IJODI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH.....	618
168. Usmanova Matluba Sattarovna. O‘QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA YO‘NALTIRISHDA O‘QITUVCHINING MAHORATI.....	621
169. Uzoqov Asomiddin Shoymardon o'g'li . O‘QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.....	625
170. Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li. ZAMONAVIY O‘QITUVCHI QIYOFASIDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH.....	627
171. Xaitova Nazokat Fayzullayevna. GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYA YORDAMIDA TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISH.....	630
172. Xalikova Dilobar Maxsitovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TARIXIY MA’LUMOTLAR ASOSIDA TA’LIM VA TARBIYA BERISH TAMOYILLARI.....	633
173. Xalikova Zaxro Mirshadmanovna. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA METAKOGNITIV MONITORING VA NAZORAT.....	638
174. Xalilova Xurshida Teshayevna, Xidirova Xusnida Umidjon qizi. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PEDAGOGIK TADQIQOTLAR……	640
175. Xamidova Barno Maxmudovna, Djalilova Munavvar, Ahmedova Durdona. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARNING OILALARI BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARINI O‘RNATISHDA KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINING HOZIRGI HOLATI.....	643
176. Xamidova Barno Maxmudovna, Mansurova Gulsara. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.....	646
177. Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi. BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.....	650
178. Xujanova Gulchexra Uralovna. “HIBAT UL - HAQOYIQ” ASARIDA ILM - MA’RIFAT MASALALARI.....	657
179. Yuldashev Shuxrat Shakirovich, Yuldasheva Z.S. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KITOBXONLIKKA OID IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	661

180. Yuldashev Shuxrat Shakirovich, BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH.....	663
181. Yuldashev Shuxrat Shakirovich, Yuldasheva Z.S. TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	667
182. Yo‘ldosheva Sharofatbonu Bexzod qizi. THE ROLE OF THE FAMILY, NEIGHBORHOOD, AND SOCIETY IN PEDAGOGICAL SUPPORT OF THE SOCIALIZATION OF STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION.....	669
183. Zikirova Dildora Shuhrat. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TA’LIMNING 4K MODELI ASOSIDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	674
184. Zoirova Mehriniso Xurshid qizi. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSIQA MADANIYATI FANINING AHAMIYATI…….....	677
185. O‘roqova Sharofatxon Saidqul qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA INDIVIDUAL TAFAKKUR USLUBINI SHAKLLANTIRISH.....	680
186. O‘roqova Sh.S. TA‘LIM JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURIYAT.....	682
187. O‘rozboyeva Dilnoza Alimboy qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI….....	685
188. G‘aniyeva Sarvinoz. RAQAMLI TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI KONTEKSTUAL TAHLILI.....	689
189. Sharipova Guzal Sodiqovna. TALABA-QIZLARNING TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASH-TIRISH.....	693
190. Sharofiddinova Madinabonu Umarjon qizi. PEDAGOGLARDA KOMMUNIKATIV BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	697
191. Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI.....	701
192. Shodmonova Shoira Saidovna, Adizova Gulzoda Mehriddinovna. TALABALARNI IJODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTI-RISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	706

193. Shomalikova Dilfuza Shoyunusovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ODOB-AXLOQ KO‘NIKMALARI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK KATEGORIYA SIFATIDA..... 709
194. Choriyeva Durdona Anvarovna. MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM UZVIYLIGI……..... 712

“YANGI O‘ZBEKISTONDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI” XALQARO ILMIY - AMALIY ANJUMANI

17-18 May 2024 yil

I

Bosishga ruxsat etildi. 16.05.2024 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 46.00, Adadi 200. Buyurtma № 48
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10a.